

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

*Samarqand davlat universitetining  
600-yilligiga bag‘ishlanadi*

**MIRJALOLXON ASATULLAYEV**

**TARIX FALSAFASI VA  
METODOLOGIYASI**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**SAMARQAND – 2020**

**UDK 9:1 (09)**

**BBK 63.2:87.3**

**A 82**

**M. Asatullayev. Tarix falsafasi va metodologiyasi. O‘quv-qo‘llanma.** –Samarqand, SamDU nashri, 2020. – 384 b.

*O'quv qo'llanma «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizasiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab etishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rgatadi.*

**TUZUVCHI:**

**M. I. Asatullayev** – SamDU Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası o'qituvchisi

**MAS'UL MUHARRIR**

**B.E. Ergashev** – SamDU Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası mudiri tarix fanlari doktori.

**TAQRIZCHILAR:**

**B.E. Ergashev** – SamDU Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası mudiri tarix fanlari doktori.

**B.S. G'oyibov** – SamDU O'zbekiston tarixi kafedrası mudiri tarix fanlari doktori.

*Samarqand davlat universiteti kengashining majlisida muhokama qilinib nashrga tavsiya qilingan. (2020 yili 28- yanvar, № 6)*

ISBN 978-9943-6648-3-8

© Samarqand davlat universiteti, 2020

## KIRISH

Mustaqillik xalqimiz tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bu davr mobaynida mamlakatimiz turli sohalarda olib borayotgan muhim islohotlardan biri ta'lim tizimiga taalluqlidir. Uning bosh maqsadi mustaqil fikrlovchi shaxs, komil insonni tarbiyalashdan iborat.

Tarix falsafasi va metodologiyasi fanini o'qitishdan maqsad ta'lim tizimi milliy dasturining asosiy g'oyalaridan kelib chiqqan holda, bakalavr talabalarga Tarix falsafasining rivoji, hozirgi holati, insoniyat hayotida tutgan o'rni, ijtimoiy fikr taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida umumiy ilmiy tushunchalar berishdan iborat.

Shu maqsadda ma'ruzalar matnida jahon falsafiy-tarixiy tafakkurining qadimdan to hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanishining asosiy omillari va yo'nalishlarini yoritishga qaratilgan. Uslubiy qo'llanma tarixchi talabalarning nazariy – uslubiy saviyasini oshirishda jahonda ro'y berayotgan tarixiy jarayonlarni chuqur o'rganishdagi asosiy kontseptual yondashuvlar bilan tanishishda katta ahamiyat kasb etadi.

Hamda, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizasiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab etishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

Tarix falsafasi va metodologiyasi mazmuni talabalarda turli xil tarix falsafasi maktablari, inson va uning mohiyati, tarix falsafasining qonuniyatlari, falsafiy oqimlarning rivoji va yo'nalishlari to'g'risidagi ma'ruzalarni tinglab, ular haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan, falsafiy ta'limotlarni asosli tahlil qila oladigan ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan, XXI asrda insoniyat va dunyo muammolarini to'g'ri anglab etishidan iborat.

## TARIX FALSAFASI FAN SIFATIDA. MAQSADLAR VA VAZIFALAR

Tarixni ilmiy jihatdan tahlil qilish, uni idrok etish, yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar orqali muayyan davrning siyosiy va ma'naviy muhitini baholash, har bir davr kishilari ruhiyati, ma'naviy-axloqiy mezonlari, voqea-hodisalarga munosabatini o'rganish, uni falsafiy idrok etish tarix falsafasi tushunchasining mazmunini belgilaydi.

Tarixni idrok etish va o'rganishga turli mutaxassislar turli xil yondashishadi. Zotan, inson tafakkuri qirralari xilma-xil bo'lib, o'tmishni anglash, idrok etishning yagona qolipi yo'q. Shunday qolipni yaratishga urinish ham noto'g'ri. Ana shuning uchun ham tarix falsafasining bir qator yirik oqimlari dunyoga keldi.

Tarix falsafasini teologik (ilohiyot) nuqtai nazardan idrok etish o'tmishni Alloh irodasi orqali tushunish va unga ilohiy tus berish, ilohiy mazmun orqali anglash hisoblanadi. Metafizik tarix falsafasi hech qanday chegaralar va doiralar bilan cheklanmaydigan, turli shakllarga va ko'rinishlarga kiradigan tushunchalar tizimi hisoblanadi. Idealistik tarix falsafasiga ko'ra esa asosan g'oyalar, insonning axloqiy tushunchalari, ma'naviy-ruhiy kechinmalari asosida tarixga munosabat bildiriladi. Insoniyat tarixiga va hayotiga tabiiy (naturalistik) yondashish tarix falsafasining yana bir yirik oqimi sifatida ko'zga tashlanadi. Unda hissiyot va tuyg'u orqali inson tabiatiga baho berishga va inson tabiati, fe'l-atvori uning ta'sir doirasini belgilashiga e'tibor beriladi. Ana shu hissiyot va tuyg'u orqali olamni anglash, o'tmishga nazar solish va uni baholash mazkur oqimning mohiyatini belgilaydi. Materialistik tarix falsafasi yo'nalishida asosan iqtisodiy omillarga katta e'tibor beriladi. Unda tarixni yo'naltiruvchi kuch sifatida tarix haqiqatini, mazmun-mohiyatini moddiy ehtiyoj va iqtisodiy zarurat orqali tushunishga harakat qilinadi.

Kishilik tarixini, inson va jamiyat xususidagi muammolarni o'rganishda tarix falsafasining o'ziga xos o'рни va roli bor. Insonning tarixda va umuman insoniyat taraqqiyotida tutgan o'rnini aniqlashning individualistik, ya'ni alohida, yakka shaxs misolida hamda jamoachilik, kishilar guruhi, fuqarolar uyushmasi (kollektiv) jihatlaridan qarab fikr yuritadigan tarix falsafasi yo'nalishlari ham bor.

Tarix falsafasining tarixiy xotira, tarixiy tafakkur mohiyati va qirralari, tarix fani tushunchasining mazmun-mohiyati, tarix haqiqati va hayot haqiqati, inson va insoniyat taraqqiyoti kabi muammolarini o'rganish orqali umuminsoniy va dunyoviy rivojlanish hodisalarining bir-biriga bog'liq jihatlarini tadqiq etish kabi ko'plab savollarga javob topish mumkin.

Umuman, taraqqiyot bevosita tarix falsafasining asosi hisoblanadi. Tarix falsafasi Gerodot va Fukididning antik davrdagi tarixiy harakat kuchi haqidagi tadqiqotlaridan boshlanadi.

Ulardan farqli holda Avgustin xristian cherkovi timsolida, uning mazmun-mohiyati va ta'sir doirasidan kelib chiqib, ilohiy davlat tarix falsafasini yaratdi. Uning falsafasi keyingi ming yillikda katta mavqega ega bo'ldi.

Avgustin va uning bir qator izdoshlari tarixni ilohiylashtirishga, tarixiy tafakkurni va tarix falsafasini ilohiy falsafa va ilohiy tafakkur orqali idrok etishga da'vat etgan edilar. Ular voqealar mohiyatini, uning sabablarini ilohiy qudrat va karomatdan izladilar. Insoniyat evolyutsiyasini, kishilik hayoti davomiy-ligi va uzviyligini, tarix va taraqqiyot birligi g'oyalariga ta'sirini o'tmishni ilohiylashtirish orqali tadqiq etishdi.

Tarix falsafasining takomil bosqichlari va ana shu ming yillikda yashagan xalqlar ma'naviy-ruhiy ehtiyojlari nuqtai nazaridan qaraganda, qaysidir darajada, davr odamlari tafakkuri, ma'naviy- ruhiy ehtiyojlari bilan Avgustin falsafasi o'rtasida o'zaro yaqinlik, uyg'unlik mavjud edi. Shuning uchun ham Avgustin falsafasi birmuncha uzoqroq yashadi va ommalashdi.

Faqatgina XVIII asrga kelib tarix falsafasi sohasida Avgustin g'oyalari va ta'limoti doirasini sindirib chiqqan yangi ta'limot dunyoga keldi. Butunlay yangi g'oya – tarixda yakka shaxslarning ruhiy kechinmalari, individualizm orqali hayotni anglash, hayot qonuniyatlari ayni ana shular ta'sirida amalga oshishini istaydigan, jamiyatni ruhiyatlashtirishga moyil bo'lgan g'oyalar Avgustin falsafasini sindirib tashladi.

Gegel esa to'g'ridan-to'g'ri dunyoviy aql - zakovat, umuminsoniy tafakkur, insoniyat hatti-harakati va aql-idroki uyg'unligi asosida vujudga kelgan, ong va tafakkur hukmron bo'lgan yaxlit borliqni tarix deb tushunadi. O'z falsafa maktabini ana shu g'oya asosida quradi.

Shunday qilib, Gegel falsafasi, uning tarixga munosabati tarix falsafasining yangi davrini ochib berdi. U tarix falsafasiga hayot qonuniyati, ma'naviy shakllanish jarayoni va inson rivojlanishining ma'naviy ehtiyoji sifatida qaraydi. Har qanday g'oyalar, maqsadlar va intilishlar ana shu ichki ehtiyoj hamda shaxsning ma'naviy-ruhiy etuklik darajasidan kelib chiqishini ko'rsatib berdi. Bu, yaxlit holda, tarix–inson tafakkurining, ma'naviy- ruhiy va axloqiy kamolotining mahsuli degan xulosaga kelishga imkon beradi.

XIX asr va XX asr boshlarida vujudga kelgan tarix falsafasi ayni XVIII asr tarix falsafasi bilan ma'lum darajada yaqinlashadi. Biroq, ba'zi hollarda, u bilan bahs ham yuritadi. Bu davrlardagi tarix falsafasi ayrim paytlarda tarixiylikka, tarixiy haqiqatga, Artur Shopengauer, Osvald Shpengler

misolida tushkunlikka, pessimizmga moyil, ba'zi paytlarda esa Arnold Toynbi kabi optimizmga, tafakkur jo'shqinligi va baland ruhdagi mushohadalar oqimiga og'ib turadi.

Ayni paytda dinga e'tiqod qiluvchilarning ilohiy tarix falsafasi ko'proq yoyilmoqda. Kishilik hayotini, butun sayyoramizni chulg'ab olishga intilmoqda. Biroq bu ham ko'p ming yillik insoniyat o'tmishida mavjud bo'lgan tarix falsafasi tushunchasi atrofidagi oqimlarning biri, xolos. Albatta, turli davrlarda vujudga kelgan ma'naviy-ruhiy ehtiyojlar va dunyoqarashlar orqali tarix falsafasining oqimlari yangidan shakllanib, turlanib turadi. Biroq bir narsa aniqki, ularning barchasining tagida aniq tarixiy tafakkur, inson va insoniyat taqdiri, uning ma'naviy-ruhiy olami, aql-idroki va ana shular asosida vujudga kelgan voqea-hodisalar tizimi yotadi. Ana shu tizim, ana shu shajara butun insoniyat tarixi haqiqatini ham, hayot haqiqatini ham belgilaydi.

Demak, bir so'z bilan aytganda, tarix falsafasi–tarixiy tafakkur muammolari bilan shug'ullanadigan, insoniyat taraqqiyoti asosiy yo'nalishlarini qamrab olgan mustaqil bilimlar tizimi hisoblanadi.

Marksizm asoschilari tarixiy materializm g'oyasini ilgari surdilar. Tarixni falsafiy umumlashtirish, uning asosiy qonuniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan o'zlariga xos «ilmiy» g'oyani maydonga olib chiqdilar.

Umuman olganda, tarixiy tafakkur va tarix falsafasini shakllantirish, uni o'rganish va tadqiq etishda turli-tuman, bir-birini rad qiladigan, bir-birini inkor etadigan g'oyalar hamon yashayapti, hamon tarix falsafasini tadqiq etishning turli-tuman yo'nalishlari, shakllari va oqimlari paydo bo'lmoqda. Bu tabiiy hol. Zotan, hayot davom etmoqda, tarixiy tafakkurning shakllanish jarayoni, tarix falsafasini anglash hodisasi ham insoniyat hayoti bilan birga davom etmoqda. Ilmiy taraqqiyot, ong va tafakkur rivojlanishining esa chegarasi yo'q.

Biroq, masalaning muhim tomoni, muammoga yondashishning eng adolatli va ishonchli jihati shundaki, bizning fikrimizcha, inson va insoniyat tarixi, uning taraqqiyot evolyutsiyasi har qanday qonuniyatlarga ham sig'avermaydi. Birgina misol: kommunistik mafkura nazariyachilari o'ylab topgan turli-tuman «izm»lar kishilik tarixining butun ko'lamini, miqyosini hayot haqiqati nuqtai nazaridan to'la qamrab ololmadi.

Marksistik mafkura insonning tarixiy tafakkuri va qarashlari xolis hamda erkin rivojlanishiga, shaxsga, ma'naviy ehtiyojga aylanadi. Bugungi milliy mansublik, turli ma'muriy chegaralar va insoniyat taraqqiyoti tarix va hayot oldida nisbiy ekanligini, o'sha davrda yashagan ajdodlarimiz qaysi tilda gaplashganlaru qanday umrguzaronlik qilgani, an'analari va urf-odatlaridan qati nazar, mana shu muqaddas zaminda yashab o'tganlar

bizning ajdodlarimiz ekanligini chuqur his qilgan va anglagan hodda o'tmishga yondashishimiz kerak.

Birinchi Prezident Islom Karimov «har qanday sivilizatsiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining samarali ta'sirining mahsulidir. Bir so'z bilan aytganda, ko'chmanchilar, bosqinchilar kelib -ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi», – deganida tarixan shu zaminda yashagan xalq tarixi bugungi avlod boyligi, unga ajdodlaridan qolgan buyuk meros ekanligini ta'kidlaydi. Tarixiy taqdirga taqdiridoshlik hissini uyg'otadi.

Tarix haqiqatini anglash uchun va ayniqsa, o'tmishi soxtalashtirilgan, boy ma'naviy va madaniy merosidan axratib tashlangan, zo'ravonlik va hukmron g'oyalarga mahkum etilgan, unga xizmat qildirilgan tarix haqiqatini qaytadan tiklash uchun ana shunday ma'naviy-ruhiy yaqinlikni his etish, o'sha jarayonlarni bevosita qalb orqali o'tkazish zarur. Qalbimizda hamisha tarixga vorislik tuyg'usi bilan «u mening mulkim, mening boyligim, mening naslu nasabim, ajdodlarim ruhi jo bo'lgan ma'vo, mening insoniy daxldorligim va insoniy sha'nimning qaysidir bo'lagi» deb qaraganimizda uning naqadar mazmuni chuqur, mohiyati beqiyos qadriyat ekanligini anglaymiz. Ana shunday tuyg'u bilan biz tarixning ichki mohiyatini, uning sir-asrorlarini ocha olamiz. Insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan buyuk ma'naviyatni kashf etamiz.

Albatta, tarixni o'rganishda, avval aytganimizdek, turli yondashuvlar, turli g'oyalar va oqimlar bor. Biroq, ularning hammasi sof insoniylik munosabati, bevosita daxddorlik va javobgarlik hissi oddida hech ish emas va ular ilmiy soxtalikka, yuzakilikka olib keladigan illatlardir. Ana shu jihatdan qaraganda haqiqiy tarix falsafasi bu inson va tarix, inson taqdiri va tarixiy jarayon, insoniyat taraqqiyoti va voqealar, hodisalar o'rtasidagi konkret bog'liqlik mahsuli sifatida dunyoga keladi. Ayni paytda ana shu ikki qutb o'rtasidagi uyg'unlik, ikki olam o'rtasidagi mushtaraklik tarixshunoslik fani taraqqiyotining va tadrijiy xotirani tiklash asosida tarixiy tafakkurni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Yangilanishlar davri va butun hayot bizdan tarixga munosabatni jiddiy ravishda o'zgartirishni taqozo etmoqda. Bu bevosita tariximizni qaytadan o'rganishimizni, uning butun yutuqlariyu fojialari bilan yaxlitligicha tadqiq etishni talab qilmoqda. Buning uchun biz eng avvalo, tarixga shunchaki bayonchilik munosabatidan xalos bo'lib, uni o'zimizga, o'zligimizga, shaxsimizga daxldor bo'lgan ma'no, butun insoniy qadriyatimizni o'zida mujassam etgan muqaddas xotirotda darajasidagi tafakkur mezoniga aylantirmog'imiz darkor. Tarixiy xotirani tiklash, uni qadriyat darajasiga ko'tarish yo'llarini izlamog'imiz kerak.

Tarixiy tafakkur, tarix falsafasi bizning ko‘p ming yillik o‘tmishimizni yaxlitligicha idrok etishimizga, uning butun mohiyatini anglab etishimizga va xolisona baholashimizga yordam beradi. Shu jihatdan biz o‘tmishga yondashuvning tafakkur va falsafa orqali baholash yo‘liga o‘tmog‘imiz lozim.

### **Tarix – inson, zamon va makon falsafasi**

Tarixni vaqtdan ajratib bo‘lmaydi. U vaqt, muddat va zamonda yuz bergan, ma‘lum bir makonda vujudga kelgan voqea-hodisalar birligi. Ana shu zamon va makonda shakllangan an‘analar, turlicha qarashlar, ma‘naviy-ruhiy hodisalar, ijtimoiy munosabatlar zamirida hatti-harakatlar o‘z izini qoldiradi. Harakatlar zamirida esa ma‘lum maqsad va intilishlarni o‘zida mujassam etgan voqealar yotadi.

Tarixning o‘ziga xosligi, ijtimoiy hodisaligi ma‘lum bir davr, zamon va makon mohiyatini o‘zida mujassam etganligi bilan, uning butun fenomenini belgilashi bilan baholanadi. Boshqacha qilib aytganda, uning mazmun-mohiyati, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hodisa sifatidagi o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yuksak ko‘tarilyshlar, sakrashlar, taraqqiyotning eng baland cho‘qqilariga chiqqan davrlarda tarixning sivilizatsiyani vujudga keltiruvchi buyuk hodisa sifatidagi fenomeni ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Tarix inson orqali vujudga keladi va inson orqali abadiyatga aylanadi. Inson ongi va tafakkuri, qalbi va tuyg‘ulari orqali yuzaga kelgan hodisa sifatida qadriyatga aylanadi. Ana shu jihatdan qaraganda inson aql-idroki, uning tafakkur darajasi, hayotiy falsafasi, jamiyatni taraqqiy ettirish yo‘lidagi sa‘y-harakatlari, butun bir xalq, butun bir jamiyat mentalitetini belgilaydi. Ana shu mentalitet – millat yoki xalqning umumiy madaniy-ma‘naviy darajasi, aql-idroki va tafakkur maydoni nechog‘ligiga qarab taraqqiyotning yoxud tanazzulning mazmun-mohiyati ochiladi. Tarix esa ana shu o‘ta murakkab, o‘ta ziddiyatli, ayni paytda nihoyatda qudratli ruhiyat orqali, faoliyat orqali xotiraga aylanadi. Turli ijtimoiy-siyosiy hodisalar, voqealar shu tarzda vujudga keladi va tarixiy taraqqiyot shajarasining bo‘g‘inlarini tashkil etadi.

Qadimiy donishmandlarning aytishlaricha, «Ko‘r ko‘rni etaklasa, ikkovi ham jarga qulaydi». Ana shu nuqtai nazardan inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyoti, insonning madaniy-ma‘naviy imkoniyatlari va tarixiy jarayon o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlab olish qiyin emas. Qariyb uch ming yillik tariximizning turli davrlarida xalq turli holatlarga tushganligining, buning sabablari va mohiyatining ildizi qaerdaligini yuqoridagi xulosalardan bilish mumkin.



Shaxsning jamiyatda tutgan oʻrni, uning jamiyat taraqqiyotidagi roli yana ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix falsafasi, tarixiy tafakkur bizni ana shu ulkan muammolar atrofida jiddiyroq mushohada yuritishimizni taqozo etadi.

Har qanday jamiyat taraqqiyot va tanazzul, turli koʻtarilish va pasayish davrlarini boshdan kechiradi. Tarix qahramonlik davrlarini, har tomonlama shakllangan davlatchilik va boshqaruv tizimiga ega boʻlgan holatlarni, mintaqalararo taraqqiyotlar oʻrtasidagi aloqalar rivojlangan zamonlarni koʻrgan. Sivilizatsiyaning hayotiyligi, yashovchanligi, uning uzluksiz davom etishi bevosita odamlarning maʼnaviy darajasi, hayotiy omillarning barqarorligi, inson faoliyatining uzviyligi, faolliga va doimiy uzluksiz faoliyatning taʼminlanganligi bilan belgilanadi.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, uzoq oʻtmishimizning yuksak sivilizatsiyalashgan davrlar bilan tanazzulga uchragan davrlari, ularning mantiqiy, siyosiy va ijtimoiy asoslari, iqtisodiy zamini va siyosiy tafakkuri bilan yaxlit holda tadqiq etilganda uning bir butun falsafasi vujudga keladi. Bir butun qiyofasi yaratiladi. Shu tarzda tarix fenomeni orqali ajdodlarimiz fenomeni, millat va xalq sifatidagi mentaliteti koʻzimizga yaqqol tashlanadi.

Umumjahon tarixini oʻrganish, umuminsoniyat oʻtmishini tadqiq etish inson haqidagi tushunchalarimizni boyitishga, inson faoliyati, uning imkoniyatlari xususidagi xulosalarimizni kengaytirishimizga yordam beradi. Biz insoniyat tarixini, jumladan, oʻz ajdodlarimiz oʻtmishini oʻrganish orqali olamni oʻrganamiz, olam haqidagi tasavvurlarimizni boyitib, xulosalarimizga yana ham aniqlik kiritamiz. Bizning olam va odam haqidagi tushunchalarimizni kengaytirishimizning yagona yoʻli olamni tadqiq etish, olamni anglash, uni tushunishdir.

Tarix kishilik jamiyati taraqqiyotining yaxlit mohiyatini tafakkur orqali idrok etiladigan suvratdir yoki tafakkur orqali ongimizda mangu chizilgan xotiro. Shunday ekan, biz olamni tarix orqali, insoniyat taraqqiyotining bosqichlari, evolyutsiyasi orqali anglaymiz. U orqali bugungi kunimizning mazmunini, mohiyatini tushunib olamiz, ertangi kungi maqsadlarimizni, orzu-umidlarimizni belgilaymiz. Shu jihatdan qaraganda biz oʻzimizni olamdan ajralgan holatda tasavvur etolmaymiz. Boshqacha qilib aytganda, olamdan ayri tusha olmaymiz. Olamdan ayrilsak, oʻzimizdan ayrilamiz. Olamni yoʻqotsak, oʻzimizni, oʻzligimizni yoʻqotamiz. Olam va odam oʻrtasidagi bogʻliqlik ayni olam yaxlitligi va odam butunligidir. Ayni ana shunday mushtaraklik ularning har ikkovini ham, bir-birini ham toʻldirib turadi va butun oʻtmish, bugun va istiqbolni bogʻlab turadi. Tarix xotira-

sining abadiyatini, uzviyligini, davomiyligini belgilaydi. Tarixiy tafakkur va tarix falsafasining noyob qadriyati, buyuk sabog'i ana shunda.

Tarix – inson haqidagi, odamlar haqidagi fan. Biroq u bugunning odamlari, kechinmalari, his-tuyg'ulari, faoliyatlari va munosabatlari xususida emas, balki o'tgan ajdodlarimiz turmush tarzi, ma'naviy-ruhiy kechinmalari, sodir etgan voqea-hodisalari, maqsad va intilishlari haqidagi fandır.

Aslini olganda tarix faqat o'tmish haqidagi ma'lumotlar yoki xotiralar ham emas. Uning buyuk qudrati, tarbiyaviy kuchi, murabbiylik mohiyati o'tmishni o'rganish, tadqiq etish orqali bugunni baholash, bugunni anglash, bugungi odamlarni tushunish va ularni yo'naltirish borasidagi fikrlarni, g'oyalarni o'zvida mujassam etganida! Agar biz tarixga ana shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, uning butun ko'lamini, insoniyat va jamiyat taraqqiyotidagi rolini chuqurroq anglaymiz. Muarrix tarixiy sanalar, voqealar, hodisalar atrofida fikr yuritar ekan, u eng avvalo inson, uning dunyosi xususida o'ylashi kerak, dedik. Agar haqiqatan ham inson tarixning tadqiqot ob'ektiga aylansagina, u orqali, faqat va faqat u orqali tarixning butun ko'lamini, mohiyatini ochib bera olamiz. Aks holda, quruq bayonchiliqdan iborat bo'lgan ma'lumotlar to'plamlarini yana yarataveramiz, odamlarni bezdiraveramiz. Yuqoridagi xulosalar va mushohadalarni hisobga olib, tarixshunoslikni majoziy ma'noda insonshunoslik deyishimiz mumkin.

Gegel iborasi bilan aytganda, tarix falsafasi bu dunyoqarashlar, tarixiy tafakkur va tarix xotirasi haqidagi fandır. U ma'naviyat fenomeni, ruhiyat fenomeni sifatida inson va tarixiy tafakkur o'rtasidagi bog'lyqlikni o'rganadi.

Agar chindan ham tarixni ma'naviyat va ruhiyat fenomeniga aylantirsak, aniqrog'i, uni shunday idrok etib, shunday tadqiq etsak, yana va yana o'tmishni sana va voqealar orqali emas, inson orqali o'rganishga ehtiyoj sezamiz. Oxir-oqibatda Inson tarixning yaratuvchisi, ishtirokchisi, dunyoga keltiruvchi eng oliy xilqat ekanligini va bu rad etib bo'lmas haqiqat, tengsiz qadriyat ekanligini tan olamiz.

Insoniyat tarixi bu har birimizga bog'liq bo'lgan, o'zligimizni ko'rsatadigan, bizning olis shajaramizni, naslu nasabimizni, insoniy qadru qimmatimizni belgilaydigan, muqaddas va mo'tabar voqelik. Biz uni shunday tushunishimiz va shunday qabul qilishimiz kerak. Agar o'tmishimizga shunday munosabatda bo'lsak, ana shu yuksaklikdan turib unga qarasakkina, tarix ayni tafakkur mahsuliga aylangan taqdirdagina bizni ma'naviy jihatdan boyitishi, ruhiyatimizga qudrat baxsh etishi mumkin bo'ladi. Ana shu jihatdan qaraganda butun hayot shajarasini

davom ettirayotgan, o'ziga xos tarix yaratayotgan odamlarning dunyoqarashlari, ma'naviy-ruhiy kechinmalari, insonlik sha'ni nimalarga bog'liqligi, uning ildizlari qayoqlarga etib borishi va qanday ma'naviy sarchashmalardan ozuqa olayotganligi aniq bo'ladi va u bevosita tarix va tarixshunoslik bilan bog'liq ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Agar tarix chindan ham falsafa va tafakkur mahsuliga aylantirilsa, zamondoshlarimizning o'tmishi kimlarga borib taqalishi ayon bo'ladi va hayotda o'z o'rnimizni belgilashimizga, o'zimizning kimligimizni anglab olishimizga yordam beradi.

Gegel ta'biriga ko'ra tarix davlatchilikdan boshlanadi. «Xalq davlat qurilishsiz hech qanday tarixga ega emas», – deydi alloma. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, milliy davlatchilik tariximizning qariyb uch ming yilligini nishonlash arafasida turgan xalqimiz o'z taqdirini butun insoniyat taqdiri, kishilik tarixiy taqdiri bilan bog'liq holda ko'radi. Ayni ana shu taqdiridoshlik, ayni ana shu insoniyat tarixining ibtidosi bilan bog'liqlik bugun butunlay yangi jamiyat qurayotgan xalqimiz qiyofasini ko'rsatmoqda. O'zining qadimiy milliy davlatchilik an'analari bilan jahon davlatchiligi ilg'or tajribalarini uyg'unlashtirib, sintezlashtirgan holda «o'zbek modeli»ni dunyoga taqdim etib, dunyoni hayratga solayotgan o'zbek xalqining fenomeni jahon mehvarida paydo bo'lmoqda.

O'zbek xalqi tarixi, uning kechmishi bevosita tarix falsafasi va tarixiy tafakkur orqali bugun odamlarni uyg'otmoqda, ular diqqatini o'ziga tortmoqda. Zamondoshlarimiz ongi, qalbi orqali butun o'gmish o'z yutuqlari va nuqsonlari bilan yaxlit holda jonlanmoqtsa. Shu asosda xalqimizning ma'naviy qudratiga, ruhiy tayanchiga aylanmoqda, olis istiqbolni belgilashda o'ta muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

### **Tarixiy tafakkur ehtiyoji**

O'zlikni anglash, eng avvalo, o'tmishni o'rganishdan, tarixni bilishga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat, o'zini angelayotgan, o'zini tushunayotgan har bir odam qanday oilada dunyoga kelgani, o'z ajdodlari kimlar bo'lgani, ota-bobolari nimalar bilan shug'ullanishgani va qanday umr kechirishganini bilib olishga intiladi. Ularning fazilatlarini va meroslari bilan faxrlanib yashaydi.

O'z naslu nasabini bilish, kelib chiqishini o'rganish kishining hayotda omonat yo tasodifiy emasligini tushunishga imkon beradi. Shu bilan birga atrof muhit, uni o'rab turgan olam xususida o'ylashga undaydi.

Darhaqiqat, olamni tadqiq etish tafakkurimizni boyitishning, dunyoqarashimizni kengaytirishning yagona yo'li. Olamni anglash hissi insonning o'zligini anglashga, o'zligini tushunishga, olam va odam haqida

o'ylashga da'vat etuvchi beqiyos qudrat. U jami insonga xos bo'lgan idrok va irodani uyg'otadigan mo''jizaviy kuchdir. Biz olamni qanchalik keng va chuqur anglasak, inson va insoniyat olamiga shunchalik ko'proq qiziqamiz, uni tushunishga, mohiyatini anglashga, inson va hayot, insoniyat va mavjudot o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga, xullaski, insoniyat tarixi bilan qiziqishga harakat qilamiz.

Ana shu xulosalarning aksi sifatida biz olamni qanchalik unutsak, o'zimizni shunchalik unutamiz. Bunday hodisa kishilik tarixida-turli davrlarda turli holatlarda yuz bergan. U odamzodni hayotni tushunish, olamni anglash va o'zini oliy mavjudot sifatidagi qadriyatini idrok etish orqali butun insoniyat tarixini anglashga da'vat etadi. Bunday noyob ma'naviy ruhiy ehtiyoj komillik va etuklikka intilish hissini uyg'otadi. Ana shu ichki tuyg'u insonning o'z o'tmishiga, o'tmishdoshlariga va ajdodlariga, ular qoldirgan merosiga qiziqish bilan qarashini taqozo etadi. Bunday ma'naviy-ruhiy ehgiyoj uning tarixiy xotirasi chuqurlashishiga, tarix falsafasining paydo bo'lishiga, shu falsafa va tafakkur orqali o'zining hayotdagi o'rnini aniq belgilab olishiga imkon yaratadi. Istiqbolini ko'ra olishga rag'batlantiradi.

Hayotda abadiy yashaydigan mavjudot yo'q. Jamiki mavjudotning ibtidosi va intihosi bor. Ana shu ibtido va intiho o'rtasidagi voqelik hayot tarixiga aylanadi. Aslini olganda hayotda faqat abadiyat va unga daxldor bo'lgan tafakkurgina boqiydir. Zamonlar, jarayonlar, hodisa va voqealarning bari o'tkinchi. Biroq, ularni bir- biri bilan bog'lab, hayot shajarasini davom ettirib turgan oliy hilqat – inson mavjud ekan, hayot abadiyati tarix va tafakkur abadiyatiga aylanadi. Shuning uchun ham vaqt o'tkinchi, tarix esa abadiydir. Shuning uchun ham tarixni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi.

Darhaqiqat, voqealar, jarayonlar shaklan o'zgaraveradi, yangi hodisalar, yangi voqealar hayot mazmunini o'zgartiraveradi. Turmush tarzini va, hatto, aqidalarni ham yangilaydi. Biroq yaxlit abadiyatga aylangan hayot va insoniyat shajarasi tarix abadiyatini va uzluksizligini so'zsiz ta'miilaydi. Shu zaylda hodisalar, voqealar va jarayonlar bir- birini inkor etib, bir -birini rad qilib davom etaveradi. Tarixning yaxlitligi, bir butunligi ana shu qarama-qarshiliklarni to'laligicha ifoda etishida! Tarix falsafasi uning konkret voqelik va hayot falsafasi bilan uzviy bog'liqligida!

Tarixiy tafakkur, tarixiy xotira ana shu tarzda shakllanadi. Rad etib bo'lmaydigan, soxtalashtirilmaydigan mutlaq haqiqatga, oliy qadriyatga aylanadi. Inson qalbi va ongiga esa o'z o'tmishini o'rganishga qiziqishning paydo bo'lishi orqali ta'sir etadi.

Birinchi Prezident Islom Karimov «Oʻzlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbottalab boʻlmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga koʻtarilishi zarur», – der ekan, bu bilan tub islohotlarni amalga oshirish zarur boʻlib qolgan bir sharoitda insonni uygʻonishga, oʻzligini anglashga daʼvat etmoqda. Ayni oʻzlikni anglash insonning oʻz oʻtmishi va ajdodlariga qiziqishidan boshlanishini uqtiryapti.

Masalaning yana ham muhimroq tomoni shundaki, inson tafakkuri va ongini yangilash kabi tuzarish jarayoniga davlatning oʻzi homiylik qilmoqda. Unga sharoit yaratib bermoqda. Istiqlol davrida inson, nihoyat, tarixga maʼnaviyat mezoni, milliy uygʻonish omili sifatida qaramoqda.

Jamiyatni bir holatdan ikkinchi bir holatga oʻtkazish, mavjud turmush tarzini sindirib tashlab, butunlay yangicha sharoitni vujudga keltirish eng avvalo ong va tafakkur bilan bogʻliqligini alohida uqtirar ekan, Birinchi Prezident Islom Karimov «Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch– maʼrifatdir», degan edi. Ana shu kontsepsiya Islom Karimov siyosatining va bosh islohotchilik vazifasini bajarayotgan davlatimiz strategiyasining asosini belgilaydi.

Taraqqiyot tamoyillari, sivilizatsiya ehtiyojlari shunday. Biz oʻtmishda yashamasligimiz, uni takrorlamasligimiz, aksincha, uni oʻrganishimiz, tadqiq etishimiz va aniq xulosalarga kelib yashashimiz kerak. Ayni ana shu xulosalar asosida istiqbolimizni belgilashimiz, oʻzimizni ham, jamiyatni ham maʼnaviy jihatdan kamolotga etkazishimiz darkor. Biz oʻtmishni tiklash, tarix haqiqatini oʻz oʻrniga qoʻyish orqali tafakkurimizni boyitamiz, tushunchalarimizni kengaytiramiz, hayot falsafasi orqali islohotlar falsafasini, islohotlar mohiyatini chuqurroq anglay boshlaymiz. Natijada oʻz-oʻzimizni isloh qilamiz, oʻz-oʻzimizni yangilaymiz. Va nihoyat, ana shu jarayon orqali jamiyatni yangilaymiz, hayotni yangilaymiz. Uning mazmunini boyitamiz. Zotan, milliy istiqbol mafkurasining, davlatimiz olib borayotgan keng miqyosli islohotlarning oliy qadriyati ana shunda!

Biz Vatanimiz tarixi va xalqimiz oʻtmishini oʻrganish orqali bugungi kun uchun masʼullik tuygʻusini shakllantiramiz. Taraqqiyotning yangi davri ostonasida turganimizni va xalqimizning buyuk kelajagiga asos solishga masʼul ekanligimizni, daxldorligimizni tushuna boshlaymiz. Yana bir haqiqat bor: oʻtmish uni anglagangagina xizmat qilishini, kelajak esa uning haqiqiy bunyodkorigagina tegishli ekanligini anglamogʻimiz kerak. Xuddi ana shu haqiqatni anglash uchun tarixiy tafakkur, tarixiy xotira zarur deb oʻylaymiz. Tarixning haqiqiy falsafasi, uning aql-zakovatimiz va ongu shuurimizga taʼsiri xuddi ana shu gʻoya bilan belgilanadi.

Yangilanishlar davri hamisha oʻtmishga qiziqishning beqiyos darajada oʻsishidan boshlanadi. Ayni oʻtmishga qiziqish odamni istiqbolga

intilishga, uni aniq yo'nalishga sola bilishga da'vat etadi. O'tmish voqealari, tarixiy hodisalar bugungi xulosalarimizni tiniqlashtiradi, ertangi kunimizning, rejalarimizning asosini va haqiqatini ko'rsatib beradi. Ana shu nuqtai nazardan biz bugun tarixnavislik va tarixshunoslikdagi solnomachilik, quruq raqambozlik, bayonchilik illatlaridan butunlay qutulishimiz darkor. Tarixiy obidalarning ro'yxati, ularning qurilgan vaqti, shaharlarning nomlariyu jug'rofiy hududlari bilan kifoyalannmay, ana shu zamin va unda asrlar mobaynida yashagan xalq dahosi, uning qudrati va bu qudratning paydo bo'lish omillarini o'rganmog'imiz kerak. Zotan, buyuk kashfiyotlar, olamshumul ixtirolar, afsonaviy shaharlar, qudratli siyosatu dongdor davlatlar to'satdan paydo bo'lmaydi. Ularning yuzaga chiqishi uchun yillar tugul, asrlar mobaynida tajriba to'planadi, tafakkur shakllanadi. Tarixshunoslikda ana shu evolyutsion jarayon, xalqning ijtimoiy-ma'naviy dinamikasi hisobga olinmog'i kerak. Demak, insonning tarixida keskin burilish yasagan, jahon sivilizatsiyasiga quchli ta'sir o'tkazgan tafakkur kengliklarini, uning taraqqiyot jarayonlarini o'rganishimiz zarur. Biz bugungi va kelgusi avlodni xuddi ana shunday yo'l bilan tarbiyalashimiz darkor. Uning voqea va hodisalarga munosabatini ongi orqali, tafakkuri orqali va eng muhimi, qalbi orqali o'tkazishimiz kerak. Toki yosh yurakda va murg'ak tafakkurda tarix haqiqati abadiy qolsin, uni ezgulikka da'vat etib tursin. Buning uchun har bir voqea mohiyati, tarix falsafasi, hayot mantig'i mushtarak holda o'rganilmog'i kerak.

Jamiyatni yangilash, eng avvalo, inson tafakkurini oqibatida paydo bo'lgan, kurakda turmaydigan «aqida»lardan qutulamiz. O'tmishga, bugunga va istiqbolga kengroq qarashga, uni yaxlitligicha, butun yaxshiligiyu yomonligi, oq va qora tomonlari bilan bir butunligicha qamrab olishga erishamiz. Natijada eng adolatli, eng asosli va keng qamrovli xulosalar chiqaramiz. Mustamlakachilik davri talabi hamda sof ilmiy haqiqatdan uzoqlashgan tarixnavislik kontseptsiyasi va metodologiyasining zang bosgan temir qobiqlaridan chiqib ketish, har qanday soxta doiralarni sindirib, hayotga bo'lgan munosabatlarimizni kengaytirish imkoniga ega bo'lamiz. Tushunchalar, g'oyalar, qarashlar va yondashuvlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash chinakam madaniyat, chinakam milliy ravnaq ehtiyoji ekanligini anglamog'imiz zarur.

Tarixni tadqiq qilish va yozishda biz o'z milliy psixologiyamiz, an'analarimiz va milliy mushohadamizdan kelib chiqamiz. Shu bois o'zbek xalqi tarixini yozgan boshqa millat vakili bo'lgan ajnabiy olim bilan o'zbek olimining nuqtai nazari bir-biridan farq qiladi.

Buning ikki jihati bor: birinchidan, begona qalb, begona dunyoqarash har qanday sharoitda ham begonaligicha qolaveradi. U hech qachon boshqa

bir millatning milliy xususiyatlarini, uning o'tmishdagi murakkabliklari va ziddiyatlarini to'laligicha his qila olmaydi.

Ikkinchidan, fan niqobidagi siyosiy o'yinlar va maqsadlar ham borki, bu dahshatli va millat boshiga qiron keltiruvchi mafkura bilan bog'liq. U tarix haqiqatini ataylab buzadi, uni hech bo'lmaganda chalkashtiradi. Bunga zid ravishda o'z milliy tarixnavislik an'alarimizni tiklashimiz darkor. Masalan, o'tmishda o'tgan ko'plab muarrixlarimiz asarlarida turli rivoyatlar, afsonalar, hikmatlar, hikoyalar uchraydi. Bu narsalar tarixiy fakt va haqiqat sifatida alohida qimmatga ega bo'lmasa -da, ammo voqealar mohiyatini anglashimiz va tafakkur, mushohada tarzimizning shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Darhaqiqat, bizda milliy tarixnavislikning o'ziga xos maktabi mavjud. Bu maktab o'zining xalqchil, sodda, ravon, barcha uchun birday tushunarli bo'lgan uslubi va beqiyos jozibasi bilan alohida ajralib turadi. Ana shu sehr va ohanrabolik o'nlab asrlar muqaddam yaratilgan qator shoh asarlar qatorida «Temurnoma», «Zafarnoma», «Boburnoma», «Humoyunnoma» larning beqiyos qiymatini va barhayotligini ta'minlab kelmoqda.

Sho'ro davrida ham juda ko'p ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Ammo, masalaning jiddiy tomoni shundaki, sho'ro davri tadqiqotchilari goh bilib-bilmay, goh ataylab, fidoyilik va tashabbuskorlik bilan kommunistik mafkuraga xizmat qildilar. Natijada xalqimiz tarixini soxtalashtirdilar, uni kommunistik mafkura talablariga moslashtirdilar. Sho'ro hukumatining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishga butun vujudlari bilan xizmat qildilar.

### **Tarix falsafasi va milliy istiqlol**

Birinchi Prezident Islom Karimov tarixga munosabatni tubdan o'zgartirish hayot taqozosi ekanligini dolzarb masala qilib ko'tardi. Bugun tarixga munosabatning, tarixnavislikning metodologiyasini, tadqiqot usuli va uslubini tubdan o'zgartirish hayot talabi ekanligini ko'rsatib berdi.

Yurtboshimiz o'tmishimizni qayta ko'rib chiqib, uni milliy qadriyat darajasiga ko'tarib, butunlay yangi nazar bilan g'alvirdan o'tkazishni kun tartibiga qo'ymoqda. Buning quyidagi asoslari bor:

**Birinchi**, bugungi O'zbekiston jahon xaritasida endigina paydo bo'lgan tasodifiy mamlakat emasligini, uning ildizlari nihoyatda chuqur va qadimiy ekanligini dunyoga ko'rsatish va farzandlarimiz ongiga singdirish.

**Ikkinchi**, sobiq sho'ro siyosati va kommunistik mafkura tazyiqi bilan soxtalashtirilgan tarixni o'z o'rniga qo'yish, tarix haqiqatini, hayot haqiqatini ilmiy haqiqat asosida qayta tiklash. Unga munosib baho berish orqali millatimiz izzatini joyiga qo'yish.

**Uchinchidan**, shu asosda xalqimiz, ayniqsa yosh, navqiron avlodimiz qalbida milliy g'urur, milliy iftixor, o'z ajdodlari bilan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish. Buyuk o'tmishga munosib buyuk millat bo'lish. Ertangi kunga katta ishonch va istiqloq g'oyalariga e'tiqod bilan yashashni turmush tarziga aylantirish. Masalaning yana ham jiddiyroq tomoni bor. Bu bevosita tarixshunoslik, tarixnavislik muammosi bilan bog'liq. Hammamizga ma'lumki, sho'ro hukumati davrida xalqni ataylab savodsizlantirish, o'z o'tmishidan ajratib qo'yish, ajdodlari, naslu nasabi va bugun tarixidan bexabar qilish siyosati mavjud bo'lib, u davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, kommunistik mafkuraning butun mazmun-mohiyatini tashkil etgan edi. Shuning uchun ham yozilayotgan ilmiy kitoblar nuqul voqealar bayonidan iborat bo'lib, ma'lumotnoma tusini olgan edi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bunday yuzaki munosabat va tarixiy sanalarnigina sanab o'tish kabi tarix fani metodologiyasi yaratildi. Bu metodologiyaning asosiy maqsadi odamlar ongini zaharlash, ular fikrini chalg'itishdan iborat edi. Shuning uchun ham, eng avvalo, yuz bergan voqealar va tarixiy jarayonlar nihoyatda jozibasiz, haroratsiz, o'quvchiga ta'sir qilmaydigan, uning qalbidan va shuuridan o'rin olmaydigan, aksincha, uni zeriktiradigan va oxir-oqibatda esa butun tarixdan ixlosini qaytaradigan qilib bayon etildi.

Natijada millatlarni yo'q qilib tashlash, fuqarolar qalbidagi milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini so'ndirish, ular dunyoqarashini chegaralab qo'yish uchun harakat qilindi. O'ziga ham, o'tmishiyu kelajagiga ham befarqlik va loqaydlik bilan qaraydigan aholi qatlami «tarbiya»lab etishtirildi.

Ana shunday noqobil va g'ayriinsoniy siyosat barbod bo'lgach, endi o'z tariximizni qaytadan tiklash, uni ilmiy, tarixiy va hayotiy haqiqat nuqgai nazaridan turib yangitdan yaratishni davlatning o'zi talab qilmoqda va bunga homiylik qilmoqda. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix institutining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tarqatib yuborilishi va uni qaytadan tashkil etish to'g'risidagi qarorining siyosiy qadriyatini, ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini alohida ta'kidlash joiz. Hukumat qarori va shaxsan Birinchi Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida «O'zbekistonning yangi tarixi» markazining ochilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

Tarixnavislikda sho'ro davrida shakllangan biqiq «metodika» barcha tarixga qiziquvchilarni va o'rganuvchilarni qolipga solib qo'ydi. Yuz bergan hodisalar va ijtimoiy-siyosiy voqealar atrofida fikrlamasdan, faqat bayonchilik bilan shug'ullanish, xabarkashlik tendentsiyasi vujudga keldi.



Bora-bora bu ilmiy «maktab»ga aylandi. Bu nomaqbul maktabning esa nihoyatda nochoru notavon, g'oyaviy jihatdan buzuq, mafkuraviy jihatdan aynigan, ilmiy jihatdan soxtalashgan, siyosiy jihatdan yaroqsiz ilmiy uslubi va hayotdan uzilgan aqidasi vujudga keldi.

Tarixga munosabatning o'zgarayotganligi va tobora jiddiy tus olayotganligi ijobiy hodisa. Biroq hamon shoshmashosharlik, masalaga yuzaki yondashish, har tomonlama puxta o'rganmasdan xulosalar chiqarish illatlari bizni tark etgani yo'q. Natijada ilmiy haqiqatdan uzoq, tarix haqiqati buzilgan darsliklar paydo bo'lmoqda.

Oldinlari bir tomonga og'ib ketgan bo'lsak, endi boshqa tomonga og'yapmiz. Vaholanki, ilmda muvozanat bo'lmog'i kerak. Endi tariximizni tiklaymiz degan ehtirosularu chinakam aql-idroqdan uzoq bo'lgan hissiyotlar jo'sh urib ketdi. Natijada palapartishlik, tarixiy dalillarning ola-quroqligi, voqealarning ma'lum bir tizimga solinmaganligi va tarixiy izchillikning yo'qligi ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Ayrim darsliklar nuqul rivoyat va badiiy asarlardan yaxlit ko'chirmalar holida nashr etilmoqda.

Tarixnavisligimizdagi yana bir muammo shundaki, biz hamon mustaqil fikrga ega bo'lmayapmiz. Hamon kimlarningdir soxta g'oyalariga tayanyapmiz. Ma'lumki, sobiq sho'ro tuzumi davrida olimlarimiz har bir fikr-mulohazasini marksizm-leninizm klassiklari uydirmalaridan ko'chirmalar olib «asoslab» berishardi. Istiqloq yillarida ham o'zlarining ilmiy jihatdan ojiz va nochor «fikir»lariga chetdan tirgak izlayotgan tarixchilarimiz yo'q emas. Ayniqsa, bir paytlar «ilmiy ateizm» fanining darg'alari hisoblangan ayrim olimlarimiz bugun tariximizni butkul diniy yo'singa burib yuborish bilan ovora bo'lmoqdalar. Ba'zilar hatto yurtimizga islom dini kirib kelgunga qadar bo'lgan davrni «majusiylik», «johiliyat» davri deb atay boshladi. Bobolarimizning islomgacha bo'lgan buyuk vatanparvarlik jasoratlariga to'la tarixiga, ulkan bunyodkorlik, yuksak madaniyatiga nopisand munosabat yaqqol sezilmoqda. «Johiliyat» davri atamasi zamirida islomgacha bo'lgan davrni kamsitish mazmuni yotmaydimi? Demak, xalqimiz tarixining o'ziga xos atamalarini to'g'ri belgilash vazifasini tezroq hal etmog'imiz kerak.

Bugun biz tariximizning olis-olis qatlamlariga nazar tashlar ekanmiz, hayot mantig'ini hisobga olmasdan tarix haqiqatini tiklay olmaymiz. Birgina misol keltiraylik: Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrizabz (Kesh), Termiz, Qarshi va boshqa shaharlarimizning yoshi 2700-3000 yilga borib taqalishini mutaxassislar e'tirof etishmoqda. Xo'sh, bizning tariximiz, ana shu zamin, ana shu jannatmakon tuproq tarixi bilan bog'liq bo'lgan shu o'lka xalqlarining tarixi shuginamikin? Axir shaharlar yoshi bilan xalqlar tarixi belgilanadigan bo'lsa, biz yana xato qilmayapmizmikini? Har

tomonlarni barkamol, dunyo xalqlari diqqatini o'ziga tortgan, ulkan fan va madaniyat markaziga aylangan shaharlarning dunyoga kelguniga qadar ham odamlar shu erda yashashgan-ku! Kishilik hayotining madaniylashish jarayoni, ong va tafakkurning rivojlanishi, insonning daholik qudrati va zakovati evolyutsiyasini nazarda tutsak, shahar paydo bo'lgunga qadar bir necha ming yillik hayot mavjudligini nega unutmog'imiz kerak?

1998 yilda buyuk mutafakkir Ahmad al-Farg'oniy tug'ilganining 1200 yilligi nishonlandi. Ulug' bobokalonimiz tug'ilgan va voyaga etgan ko'hna Shahriston xarobalaridan miloddan oldingi asrlarda yasalgan shaffof, niliy shisha idishlar topildi. Bejirimligi bilan ko'zimizni qamashtirayotgan bugungi guldonlarni billur qadahlar chiroyidan qolishmaydigan bunday shisha buyumlarini yasash uchun insoniyat tarixi necha asrlarni bosib o'tgan? Uning texnologiyasini ishlab chiqish, xom ashyo tarkibi va ranglar jilosini topish uchun qancha vaqt ketgan, qancha avlod yashab o'tgan?

O'sha paytlarda hozirgidan o'n chandon mustahkam sopol quvurlar ishlab chiqarilganligi va shaharlar to'la kanalizatsiyalashtirilganligi xalqimiz tafakkurining buyukligini ko'rsatmaydimi? Ana shu tafakkurning shakllanishi uchun necha asr kerak bo'lgan? Bunday savollarga javob topganimizdagina tarix haqiqati tiklanadi. Birinchi Prezident Islom Karimov tarixga ana shu nuqtai nazardan qaraydi va xalqimiz o'tmishini tiklashda ana shunday siyosat, ana shunday mantiq va falsafa lozimligini talab etmoqda.

Tarix – tafakkur mahsuli. O'tmishimizda bo'lgan har bir hodisa ma'lum ma'naviy-ruhiy, ijtimoiy-siyosiy muhit ta'sirida yuz bergan. Demak, unga nazar solganda, voqealar zamiridagi mantiq, falsafa, ruhiyat, siyosat, iqtisod, qo'yingki, har bir davrning o'ziga xos shukuhiyu tashvishlari, sevinchu iztiroblari ko'zga yaxlitligicha yaqqol tashlansin. Ongimiz va shuurimizga mustahkamroq o'rnashsin. Ana shunda kishini fikrlashga, o'tmishni idrok qilib, kelajakni aql yo'rig'i bilan belgilashga yordam beradi. Tarixning tafakkur mahsuli va ulug' murabbiyligi, oliy qadriyat ekanligi ana shu bilan belgilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tarixnavislik bevosita mantiq, falsafa, iqtisod, huquq, jamiyatshunoslik, siyosatshunoslik, ruhshunoslik va badiiyat bilan uzviy bog'langan hodisa. Bularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Mabodo ana shu unsurlarning biri etishmasa, nomukammallikka yo'l qo'ygan, tarix haqiqati va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mantiq'ini buzgan bo'lamiz. Faqat, ma'lum bir davr tarixi ustida ishlar ekanmiz, eng avvalo, tarixnavislik nazaridan ish tutib, boshqa unsurlardan yordamchi, to'ldiruvchi vosita sifatida foydalanmog'imiz lozim. Chunki, **birinchidan**, har bir tarixiy jarayon, ijtimoiy-siyosiy

voqelik qandaydir siyosiy manfaat asosida dunyoga keladi. Ayniqsa bosqinchilik, bir hukmdor tomonidan ikkinchi bir mamlakatni zabt etish jo'g'rofiy-siyosiy strategik maqsad ekanligi tabiiy hol. Shuning uchun ham ayni ana shunday jarayonlarni o'rganayotganda, uni baholayotganda siyosiy mezonlar nuqgai nazaridan turib ham baholash zarur.

**Ikkinchidan**, tarixning iqtisod bilan bog'liqligi. Davlatlar o'rtasidagi o'zaro nizolar va bosqinchilik harakatlari bevosita mag'lub mamlakat va xalq iqqisodiy imkoniyatlarini zo'ravonlik bilan o'zlashtirish, tarixan shu zaminda yashab kelgan xalq boyliklarini talon-toroj qilish, er osti va er usti boyliklariga egalik qilish maqsadining mahsulidir. Demak, xalqlar va mamlakatlar tarixi o'rganilganda uning iqtisodiy imkoniyatlariga e'tibor bermoq lozim.

**Uchinchidan**, tarixiy jarayonning mantiq bilan bog'liqligi muayyan bir hodisaning nima uchun boshqa shaklda emas, aynan shu shaklda, nima uchun oldinroq ham emas, keyinroq ham emas, ayni shu paytda yuz berganini o'rganish bilan belgilanadi. Zotan, har qanday voqea tagida mantiq yotishi shubhasiz. Aks holda mamlakatlar, saltanatlar orasidagi kurashlar maqsadsiz va natijasiz bo'lardi.

**To'rtinchidan**, masalaning falsafa bilan bog'liqligi shundaki, tarixiy haqiqat falsafiy tafakkur orqali tahlil qilinsa, o'quvchi fikrlashga o'rganadi. Tarixni o'qish va tarixiy jarayonlarni o'rganish asnosida uning mushohadasi kengayadi, dunyoqarashini o'zgartiradi, tafakkuri boyiydi.

**Beshinchidan**, tarixni jamiyatshunoslikdan alohida qilib, ajratib olib o'rganib bo'lmaydi. Chunki, har qanday tarixiy jarayon ma'lum bir jamiyatning mahsuli bo'lib, uning ijtimoy-siyosiy va ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Har qanday jamiyat esa odamlar tafakkuri va hukmron siyosat mahsulidir. Demak, ma'lum bir davrda, ma'lum bir jamiyatda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o'sha jamiyatda va o'sha davrda mavjud bo'lgan muhitdan kelib chiqib tahlil qilinmasa o'z isbotini va mantig'ini topa olmaydi.

**Oltinchidan**, tarixning ruhshunoslik bilan bog'liqji-hatlari bevosita har bir davr odamlari psixologiyasi, hayotga munosabati, voqelikni idrok qilish qobiliyati, turmush tarzi bilan belgilanadi. Ularni hisobga olmay, chetga surib qo'yib, faqat sanalar sanog'i bilan shug'ullanish tarixnavislik nufuzini tushiradi, mavqeini pasaytiradi. Muarrixning imkoniyatlari cheklanganligini ko'rsatadi.

**Yettinchidan**, tarixnavislikning badiiyat bilan bog'liqligi bu bevosita muarrix ijodiy uslubi, uning voqea va hodisalarga yondashish usuli, tadqiqot ob'ektini qanchalik chuqur o'rgansa, o'z xulosalarini shunchalik yoqimli shakl va jozibali til bilan ifodalab berishi bilan belgilanadi. Ifodada

harorat, qalb qo‘ri bo‘lishi kerak. Aks holda o‘quvchini zeriktiradigan, oxir-oqibatda esa o‘z o‘tmishidan ko‘nglini sovutadigan bedavo «asar» paydo bo‘lib qoladi. Afsuski, bunday asarlar bizda oz emas.

Endi biz muarrixlar oldida ham tadqiqotchilik, ham fuqarolik burchi turganini, bir elkamizda tarixga xolislik, ilmiy haqiqat bilan qarash yuki, ikkinchi elkamizda esa Vatan va Millat oldidagi javobgarlik, o‘tmishimizni asrash, ajdodlar ruhini e‘zozlash va kelgusi avlod oldidagi qarzdorlik yuki borligini butun vujudimiz bilan anglamog‘imiz kerak.

Zotan, Birinchi Prezident Islom Karimov ham: «Tarix sohasida mehnat qilayotgan olim mutaxassislarga murojaat qilmoqchiman: sizlar millatimizning haqqoniy tarixini yaratib bering, toki u xalqimizga ma‘naviy kuch-qudrat baxsh etsin, g‘ururini uyg‘otsin. Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug‘ g‘oya kerak. Bu g‘oyaning zamirida xalqimizning o‘zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o‘zlikni anglash mumkin emas», – degan edi.

Tarix falsafasi real tarixiy jarayonni tafakkur orqali anglash, tarixga inson aqli va fe‘l-atvorining mahsuli, manfaatlar hamda qiziqishlar natijasi sifatida yondashish va tushunish, boshqacha qilib aytganda tarixiy jarayonning falsafiy interpretatsiyasidir.

Tarix falsafasi inson va tabiat, inson va jamiyat, odam va olam haqidagi falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo‘lib, unda asosan insoniyat tarixi asoslari, tarixiy jarayon va uning mohiyati, kishilik jamiyati taraqqiyoti bosqichlari haqida so‘z yuritiladi, ular ilmiy-nazariy tadqiq etiladi.

Tarixni falsafiy idrok etish elementlari qadim-qadimdayoq namoyon bo‘lgan. Insoniyat o‘tmishiga nisbatan bo‘lgan ilk qiziqishlar asta-sekin qarashlar tizimiga aylangan. Demak, tarixni falsafiy anglash, insoniyat o‘tmishi haqida mushohada yuritish holatlari antik falsafa va tarixnavislik shakllana boshlagan davrdayoq mavjud bo‘lgan. U inson tafakkurining shakllanish bosqichlari, evolyutsiyasi, insoniyat taraqqiyoti jarayonlari bilan uzviy ravishda dinamik tarzda rivojlangan. Biroq uni fanga mashhur frantsuz olimi Volter (haqiqiy ismi Fransua Mari Arue) kiritgan. Ayni paytda tarix falsafasi turli yo‘nalishlarda tadqiq etiladi. Jumladan:

–teologik (ilohiyot) tarix falsafasi nuqtai nazaridan borliq, jumladan, inson hayoti Alloh irodasi orqali boshqariladi, tarixni harakatga keltiruvchi kuch-Alloh irodasi sifatida talqin etiladi. Boshqacha qilib aytganda o‘tmish Alloh irodasi orqali tushuniladi va u ilohiy mazmun orqali tushuntiriladi;

–metafizik tarix falsafasi hech qanday chegaralar va doiralar bilan cheklanmaydigan, turli shakllarga va ko‘rinishlarga kiradigan tushunchalar tizimi hisoblanadi;

–idealistik tarix falsafasiga ko‘ra esa, g‘oyalar, insonning axloqiy tushunchalari, ma‘naviy-ruhiy kechinmalari asosida tarixga munosabat bildiriladi;

–insoniyat tarixiga naturalistik yondashish tarix falsafasining yana bir yirik oqimidir. Unda insoniyat tarixiga va hayotiga tabiat orqali, tarixiy jarayonlarga tabiiy holat, tabiiy voqelik va tabiat qonuniyati sifatida qarash g‘oyasi ilgari suriladi. Inson hissiyoti va tuyg‘usi ham qaysidir darajada tabiat tomonidan boshqariladi, u qanchalik individuallik kasb etmasin, tabiat mo‘‘jizasidir. Shuning uchun tabiat orqali olamni anglash, o‘tmishga nazar solish va uni baholash asosiy mezon qilib olinadi. Naturalistlar qarashlariga ko‘ra inson tabiati, fe‘l-atvori, hatti-harakati tabiiy holda yuzaga keladi va shakllanadi;

–materialistik tarix falsafasida asosan iqtisodiy omillarga katta e‘tibor beriladi. Unda tarixni yo‘naltiruvchi kuch sifatida tarixiy jarayonlar mohiyatini, voqeliklar mazmunini moddiy ehtiyoj va iqqisodiy zarurat orqali tushunish asos qilib olinadi;

–insoniyat tarixiga individualistik va kollektivchilik (jamoachilik) jihatlardan qarab fikr yuritadigan tarix falsafasi va boshqa yo‘nalishlar ham mavjud. Bunda insonning tarixda va umuman insoniyat taraqqiyotida tutgan o‘rnini aniqlashda individual, ya‘ni yakka, alohida shaxsning hamda jamoatchilik, odamlar guruhi yoki fuqarolar uyushmasining roli, vazifasi o‘rganiladi.

Tarix falsafasida, shuningdek, tarix fani tushunchasi, qonuniyatlari, tarixiy jarayon va inson, inson mohiyati, fe‘l-atvori, hatti-harakatlari, manfaatlari, turmush tarzi, urf-odatlar, an‘analari, qarashlari va e‘tiqodlari talqin etiladi. Bu bevosita insoniyat taraqqiyotida, sivilizatsiyalar mohiyati va ularning «to‘qnashuvi»da kishilik jamiyati evolyutsiyasi, inson tafakkuri va ehtiyojlari dinamikasi bilan jamiyat rivoji dinamikasi o‘rtasidagi bog‘liqlik, renessans hodisasi, uning yuz berishi va inqirozi sabablari o‘rganiladi.

Tarix falsafasi ildizlari antik davr allomalari Gerodot va Fukididning tarixiy harakatga doir qarashlariga borib taqaladi. Keyinchalik u Polibiy, Posidoniy, Plutarx qarashlarida ancha-muncha shakllandi. Avgustin esa ilohiy davlat tarixi falsafasini yaratdi va keyingi ming yillarda tarixiy tafakkurning shakllanishida kuchli ta‘sir ko‘rsatdi.

XVIII asrga kelib tarix falsafasining yo‘nalishlari tubdan o‘zgardi. Tarixiy taraqqiyotda insonning ta‘siri, o‘rni va roli, tarixga inson qalbi,

ichki dunyosi, ma'naviy-ruhiy olami mahsuli sifatida qarash tamoyillari shakllandi. Biroq bunda ham turlicha yondashishlar mavjud edi. Chunonchi, Leibnits tarixda metafizika – kuchlar va g'oyalar ustuvor deb tushunsa, Gegel tarixda inson aql-zakovati va tafakkurini ustun qo'yadi. XIX–XX asrlarda tarixni anglashda mavhum mantiq va tarixni bilish nazariyasi bilan bir qatorda A. Shopengauer, Ya. Burkhardt, O. Shpengler tarixni tushkunlik orqali anglash, A. Toynbi optimizm, marksizm asoschilari esa tarixiy materializm goyalarini ilgari surdi.

Ayrim mutaxassislar falsafiy tafakkur Yunonistondan to'g'ridan-to'g'ri Yevropaga ko'chganini, G'arb donishmandlari qadimiy yunon falsafasi ta'sirida dunyoga kelganini pesh qilishadi. Biroq tarix haqiqati, sivilizatsiyalarning davriy harakati buni inkor etadi. Darhaqiqat, yunon falsafasi insoniyat tafakkuri olamining sarchashmasi. Ana shu fayziyob falsafa vaqt o'tib Sharqqa ko'chdi. Sharqda rivojlanib, miqyosi kengayib, Sharq falsafiy tafakkur maktabi vujudga keldi va butun insoniyat tafakkur tarzini keskin o'zgartirib yubordi. Aniqroq qilib aytganda, G'arb ana shu buyuk maktabning baxtiyor tolibi, vorisi va davomchisidir.

Shunday qilib, Sharqda tarixni falsafiy anglashning o'ziga xos yo'nalishlari bir necha ming yillik taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Garchi u tarixshunoslik, tarixnavislik, manbashunoslik, falsafa va boshqa sohalar singari aniq bir yo'nalish sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, ayni ana shu sohalar bilan birga demografiya, madaniyatshunoslik, aholishunoslik, sotsiologiya, ruhshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlarning yaxlit, ularning barcha talablarini o'zida mujassam etgan tarixiy-badiiy, falsafiy-mantiqiy tadqiqot sifatida yuzaga keldi. Buni biz Beruniyning «Al-Javohir», «Tavdid» singari asarlaridan tortib Mirxondning «Ravzat-us-safo» hamda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqalarning qator asarlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Demak, Sharqda tarix falsafasi tushunchasi o'ziga xos jihatlarga ega. Forobiy qarashlariga ko'ra jamiyat taraqqiyotini ilohiy qonunlar boshqaradi. U Aristotelning jamiyat rivojlanishi haqidagi ta'limotini ilk marta juda chuqur tahlil etdi va uni o'z xulosalari bilan boyitdi. Beruniy esa tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tabiat, astrologiya, astronomiya, kecha va kunduz, fasllar almashuvi orqali o'rganadi va o'zining «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarlarida insoniyat tarixiga falsafiy nuqqai nazardan yondashadi, tarixni anglash, idrok etishda butunlay yangicha qarashlarni o'rta tashlaydi. Aytish mumkinki, Beruniy dunyo tarixshunosligida asotirlar, afsonalar va rivoyatlardan ilmiy bilish va dunyoviy ta'limotga o'tishda muhim hissa qo'shdi. U Gerodotdan Shopengauer va Shpenglergacha, Fukididdan Toynbi va Yaspersgacha

bo'lgan uzundan-uzoq davrda misli ko'rilmagan falsafa va tafakkur ko'prigini bunyod etdi.

Sharq tarix falsafasi bir necha yo'nalishlarda ko'zga tashlanadi: jumladan, podsholiklar tarixi yuksak badiiy ifodalar, xarakterlar, obrazlar, munosabatlar orqali ochib beriladi. Voqealar tahlili ibratli hikoyatlar, pand-nasihatlar, yuksak axloqiy me'yorlar bilan mushtarak holda olib boriladi: Ayrim hollarda tarixga jug'rofiy-hududiy jihatdan yondashiladi. Sayohatnomalar orqali jamiyat tarixi yaratiladi, podsholiklarning boshqaruv usuli, siyosati, uning mohiyati ochib beriladi.

Ma'lumki, insoniyat taraqqiyoti bevosita tafakkur va qarashlar taraqqiyotidir. Vaqt o'tgan sari tafakkurning yangidan-yangi qirralari ochilishi, o'zining beqiyos imkoniyatlarini namoyon etishi tabiiy. Ana shuning natijasida odam va olam, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar tobora takomillashib borgani sayin uning yaxlit tarixida izchil rivojlanish hodisasi yuz beradi. Dastlabki odamlarning ibtidoiy hatti-harakatlaridan buyuk sivilizatsiyalar va renessans hodisalarigacha bo'lgan inson tafakkuridagi rivojlanish hodisasi asrlar, ming yilliklar bilan o'lchanadigan umumjahon tarixiy taraqqiyotining yaxlit evolyutsiyasini qamrab oladi.

Vaqt o'tgan sari insoniyat tafakkuri kengayib, ijtimoiy fanlar taraqqiy topib borgani natijasida tarix falsafasi tushunchasi atrofidagi mushohadalar ham kengaydi, mulohazalar ancha tiniqlashdi. Ijtimoiy fanlarning muhim yo'nalishi sifatida uning predmeti va tadqiqot ob'ektiga aniqlik kiritildi. Natijada u bugungi kungacha bo'lgan o'ziga xos, katta va salmoqli taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Biroq ilmiy izlanishning chegarasi yo'q. Ana shu ilmiy haqiqatdan kelib chiqib, hozirgi zamon tarix falsafasi oldida turgan eng muhim vazifalar nimalardan iborat, degan haqli savol tug'iladi. Bizningcha, bu quyidagilarni qamrab oladi:

**birinchidan**, insoniyat tarixi rivojlanish qonuniyatlarini, ularning manbalari va mohiyatini o'rganish;

**ikkinchidan**, insoniyat tarixini, jumladan, milliy tarixni ham hozirgacha ta'sirini o'tkazib kelayotgan kommunistik mafkura asosidagi ilmiy metodologiyada mavjud bo'lgan tamoyillardan voz kechib, milliy istiqbol g'oyasi asosida o'rganish va davrlashtirish muammosini hal etish;

**uchinchidan**, sivilizatsiyalar va madaniyatlar yuzaga kelishining yaxlit tizimini ishlab chiqish, ular inqirozi sabablarini chuqur tahlil etish;

**to'rtinchidan**, tarixiy jarayonning umumiy shaklini tahlil etish, ularni o'tmish, bugun va kelajak tizimida mantiqan o'rganish hamda insoniyat istiqboli haqida tasavvurlarga aniqlik kiritish;

**beshinchidan**, tarixiy taraqqiyot omillarini diniy va dunyoviy qonuniyatlar nuqgai nazaridan o'rganish, nazariy jihatdan baquvvat, ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan xulosalarni ishlab chiqish;

**oltinchidan**, qadriyatlar tizimini hozirgi zamon talablari nuqgai nazaridan tadqiq etish va baholash;

**yettinchidan**, insoniyat tarixida to'plangan moddiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarning tarixiy tahlil orqali mantiqiy va falsafiy asoslarini o'rganish;

**sakkizinchidan**, tarixni anglashning yangi yo'nalishlarini hozirgi zamon falsafiy tafakkur mezonlari asosida belgilash hamda unga tayangan holda va ijtimoiy taraqqiyot maqsadlarini aniqlash orqali tarixning murabbiylik rolini oshirish;

**to'qqizinchidan**, yaxlit insoniyat taraqqiyoti omillarini va manbalarini o'rganish, shu asosda jahon tarixiy taraqqiyot istiqbollarini belgilash;

**o'ninchidan**, tarix fani predmeti va metodologiyasini hozirgi zamon talablari asosida qayta ishlab chiqish hamda tarixni tadqiq etishning turli yo'nalishlarini, jumladan, siyosiy tarix, iqtisodiy tarix, ijtimoiy tarix, madaniyat tarixi, din tarixi, san'at tarixi, etnogenezis va boshqa yo'nalishlar bilan mushtarak hodtga kompleks tadqiqotlarni olib borish orqali inson, insoniyat va uning tarixi yaxlit mohiyatini ochib berish;

**o'n birinchidan**, ayni paytda, xususan, biz uchun huquq tarixi, davlatchilik tarixi, sotsiologiya, antropologiya, insonshunoslik, inson sotsiogenezi kabi qator fanlar bilan bog'liq holda yaxlit tarixni idrok etish va boshqa masalalar muammo bo'lib qolmoqtsa.

Ana shu vazifalarni hal etishda tarix falsafasi va tarix fani o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, I. Lakatos fikriga ko'ra «Tarix falsafasi tarix fanisiz bo'shliq. Tarix fani esa tarix falsafasisiz ko'rdir». Demak, ushbu g'oyadan kelib chiqib aytish mumkinki, tarix fanining taraqqiyoti tarix haqiqatini tiklash, tarixiy jarayonni u qaysi davrga bog'liq bo'lishidan qati nazar qanday yuz bergan bo'lsa shundayligicha ifodalash tarix fanining birdan-bir vazifasidir. Tarix falsafasining vazifasi esa tiklangan tarixiy jarayon atrofida falsafiy, mantiqiy fikr yuritib, mushohada etib, tarixiy tafakkur orqali voqelik mohiyatini to'g'ri ifodalab berish bilan belgilanadi.

Bir qarashda tarix falsafasi bilan tarix fani boshqa-boshqa, bir-biriga daxlsiz yo'nalishday ko'rinadi. Zotan, real jarayonga, real voqelikka, insoniyat tarixidagi qaysidir hodisaga tarixchi tarixchi ko'zi bilan, faylasuf faylasuf ko'zi bilan qaraydi.

O'z vaqtida asotirlar ma'lum bir qabila, etnos yoki urug' doirasida avloddan-avlodga uzluksiz tarzda o'tib borgan umumiy qarashlar tizimi



sifatida mavjud bo'lsa-da, undan asta-sekinlik bilan jahon, boshqa mintaqalarda yashayotgan xalqlar haqidagi ma'lumotlar ham o'rin olab borgan. R. Kollingvud bu jarayonni o'rganar ekan, jamiyatni tarixiy anglashni teokratik tarix deb nomlaydi. Unda har bir rivoyat va afsonalar qatnashchilari o'sha voqealarning ishtirokchisi yoki tashkilotchisi emas, balki Xudo xohish-irodasini, aniqrog'i, amrini bajaruvchi shaxslar sifatida gavdalangan.

Tarixchi A. Losev to'g'ri ta'kidlaganidek, asotirlardagi tarixiy davr hali bu to'la anglangan hodisa emas. U xuddi harakatsizday. «Bizning fikrimizcha, tarix uchun shaxs kerak, jamiyat kerak, shaxs va jamiyatning bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tishiga ehtiyoj kerak. Asotirlar davrida esa shaxs ham, jamiyat ham, harakat ham yo'q».

Undan keyingi taraqqiyot yo'li bevosita tarixni anglash yo'li – jahon tarixi, insoniyat o'tmishi va shu bilan birga alohida-alohida xalqlar, mamlakatlar, qolaversa, mintaqalar doirasidagi tarixni o'rganishga olib keldi. Yangi uchinchi ming yillikda dunyo tarixini yangicha nazar bilan o'rganish, uning butun silsilalari orqali kishilik jamiyati taraqqiyoti, insoniyat tafkkurining mezonlari hamda bizga meros qolgan buyuk tarixning yorug' va qorong'u tomonlarini mumkin qadar o'rganish vazifasi zimmamizda turibdi. Yangi ming yillik taraqqiyot yo'li bizni o'tmish bilan ana shu tarzda bog'lab turibdi.

### **Tarix fanining predmeti**

Har qanday fanning tadqiqot maydoni, o'rganish manbai bo'ladi. Jumladan, tarix fanining ham. Tarix fanining predmetini belgilash tarixiy bilim nazariyasidagi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Uning echimini to'g'ri, ilmiy asoslangan, nazariy jihatdan pishiq-puxta, hayotiy va amaliy jihatdan asosli bo'lgan holatda yaratish bevosita fan taraqqiyotini belgilaydi. Bu esa o'z-o'zidan tarixiy bilim tabiatini, uning o'ziga xosligini belgilashdan iborat. Ana shu ilmiy mezon va me'yor bevosita tarixiy ma'lumotga erishish yo'llari va vositalarini qay darajada to'g'ri va aniq belgilashni taqozo etadi.

Bunday qaraganda tarix fani predmetini belgilash osonday tuyuladi. Biroq, mutaxassislarning fikricha, tarix tushunchasi haqida 30 ga yaqin yondashuv va tadqiq etish usullari mavjud ekan. Ana shu fikrlar xilma-xilligi, yondashuvlar turlichaligi, tarix faniga bo'lgan munosabatlarning har xilligi uning predmetini aniqlashni birmuncha murakkablashtiradi.

Tarixshunos N. Doroshenko tarix fani predmetini «Tarixiy ongda o'z aksini topgan, turli tarixiy yo'nalishlarga asoslangan, turli tarixiy rolni bajaruvi odamlarning tarixiy turmushidan tarkib topgan real qonuniy,

tarixiy jarayon muhim elementlardan biri deb hisoblangan tizim» sifatida tushunadi. V.Ivanov tarix fani predmeti haqida gapirar ekan, «Tarix ommaviy hayot qonuniyatlarining konkret shakllarini o'rganishni predmet» deb hisoblaydi.

B. Mogilnitskiy esa «Tarix odamlar faoliyati, shuningdek, ushbu faoliyat oqibatlari bilan bog'liq bo'lgan konkret ommaviy taraqqiyot qonuniyatlarini tadqiq qiladi», deydi. Atoqli tarixchi I. Kovalchenko o'ziga xos fikr yuritadi va «Tarixiy taraqqiyot o'z maqsadiga ega bo'lgan odam faoliyatini o'zida aks ettiradi, bu esa ilg'or qonuniy hamda ichki shartlarga ega bo'lgan jarayondir. Bu jarayonning konkret yo'nalishida organik ravishda moddiylik va ma'naviylik, ob'ektivlik va individuallik uyg'unlashadi. Bu uyg'unlikning o'zi esa tarkibiy shakl va sifat birligi holatida namoyon bo'ladi», degan fikrni ilgari suradi.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, qarashlar turlicha, yondashuvlar xilma-xil. Biroq barchasining mohiyatida inson, uning o'tmishi, buguni va istiqboli yotadi. Tarixning muallifi, yaratuvchisi, ishtirokchisi inson va faqat inson degan g'oya ilgari suriladi. Demak, tarix fanining predmeti insonshunoslik, inson olami va hatti-harakati, qarashlari va manfaatlar to'qnashuvidagi fe'l-atvorining tadqiqotidir.

Tarix fanining predmeti atrofidagi munozaralar faqat shugina emas. Ingliz tarixchisi R. Kollingvud «Qandaydir tarixiy jarayon va uni anglashning aniq yo'li yo'q. Tarixiy jarayon o'z-o'zidan ong jarayoni hisoblanadi», desa, M. Oukshot tarix fanining predmeti bu shunchaki «Tarixchining tadqiqot olami, uning konstruktsiyasi. Tarix – bu tarixchi g'oyalarining spetsifik olami» deydi. Bu bilan u tarix fani predmetini birmuncha bo'shashtirganday ko'rinadi. Uning bunday g'oyasida tarixchi tarixni qanday xohlasa shunday tadqiq qilaveradi. Har bir kishining o'z olami bo'lganiday, tarixchining ham o'z olami mavjud. U o'tmishni qanday tushunsa shunday ifodalayveradi, degan xulosa ham bor. Biroq tarix fani metodologiyasi fanga jiddiy yondashishni va asosli xulosalar chiqarishni taqozo etadi. U insoniyat tarixining butun mohiyatini, sevinchu iztiroblarini, shukuhli va sitamli dam-larini yaxlitligicha ifoda etmog'i lozim.

Hozirgi zamon Amerika tarixchisi G. Kommdajer tarixiy bilim predmeti haqida fikr yuritar ekan, u tadqiqot ob'ektiga idealistik nuqtai nazardan yondashadi va fan mohiyatini quyidagicha ifoda etadi: «Tarix amalda atom, kimyoviy vositalar singari o'zini namoyon etolmaydi. Ushbu vositalar tabiatda mavjud. Ular inson yo'q qilguniga qadar mavjud bo'ladi. Tarix esa tabiatda yashamaydi. Balki inson tasavvurida, xotirasida yashaydi».

Demak tarix uzluksiz va yashovchan. Inson, insoniyat mavjud ekan, uning shajarasi davom etar ekan, tarix xotiralarda qaysidir darajada yashayveradi. Vorisiylik, avlodlar shajarasi tarixning tadrijiyligini, davomiyligini saqlab qoladi. Ana shu holatning o'zi tarixiy bilim manbai, tarix fani predmeti masalasiga aniqlik kiritadi. Inson xotirasi va ajdodlar hayotini o'rganish ehtiyoji orqali yaxlit insoniyat tarixini tadqiq etish, uni shakllangan fan qonuniyatlari asosida rivojlantirish muammosini kun tartibiga qo'yadi.

Darhaqiqat, tarix buyum yoki boylik ham emas. Shuningdek, hayot uchun, yashash uchun kurashmaydi. U o'zini himoya qilolmaydi, amaliy faoliyat ko'rsatolmaydi. Bularning hammasi insonda mujassam. U beqiyos boylik va ne'matlar yaratadi, kurashadi, inkor etadi, qo'llab-quvvatlaydi, munosabat bildiradi. Natijada o'zi ham iztirob chekadi, quvonadi. Amaliy faoliyat, hatti-harakatlar natijasini baholaydi. Asta-sekinlik bilan uning o'tayotgan har bir kuni tarixga aylanib boraveradi. Bu albatta, individual voqelik. Bitta shaxsga bog'liq bo'lgan jarayon. Yakka- yakka shaxslarning birligidan tashkil topgan jamiyatda ushbu amaliy faoliyatlar yig'indisi – kollektiv mohiyat kasb etadi va shu tarzda jamiyat, xalq tarixi vujudga keladi. Demak, tarix fani kishilik jamiyatining o'tmishini o'rganar ekan, u tom ma'noda insonshunoslikdir. Ana shu xulosadan kelib chiqib aytish mumkinki, tarix fanining predmeti – insondir.

Umuman olganda yuqorida keltirilgan iqtiboslardan ko'rinib turibdiki, ular asosida tarixni idealistik yoki materialistik nuqqai nazardan o'rganish uchun turli metodologiyalar tavsiya etiladi. Biroq tavsiyalar, yondashuvlar, tadqiqot usullari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, tarix fani predmeti insondir, insonshunoslikdir. Voqelik inson orqali yuzaga kelar ekan, har qanday tarixiy jarayon inson fe'l-atvorining, ma'naviy-ma'rifiy darajasining, ruhiy va axloqiy imkoniyatlarining hamda manfaatlarining in'ikosi ekan, o'tmishga inson orqali nazar tashlash, inson mohiyatini ochish orqali tarix mohiyatini ochish ilmiy haqiqatga yaqinroq, deb o'ylaymiz.

Tarixni yaxlitligicha, bir butunligicha anglash uchun tarix predmetining butun mohiyatini anglamoq zarur. Ana shu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, tarixchining vazifasi tarixiy jarayonning asosiy belgilovchi hukmron tendentsiyasini ifoda etishdir. Chunki ma'lum bir davrda yuz bergan har qanday voqea-hodisa tagida turli-tuman bir-birini rad qiladigan, bir-birini inkor etadigan qarashlar ham yotadi. Yuz bergan voqeani tan olmaydigan, uni tushunishni xohlamaydigan yoki umuman tushunmaydigan odamlar guruhi hamma vaqq hamma davrda bo'lishi tabiiy. Tarixni to'g'ri

belgilash, to'g'ri baholash va to'g'ri tushunishning murakkabligi ham ana shunda.

Nemis faylasufi Edmund Gusserlning fenomenologik falsafasida aqliy intuitsiya tushunchasi ustuvorlik qiladi. Jumladan, u har qanday his qilish qobiliyatini aql-idrok orqali amalga oshirishni, mohiyatga asoslangan jarayon ekanligini aytadi. Natijada, «intuitsiya bu ilohiy his-tuyg'u, qalb ovozi emas, balki aql ovozidir» degan xulosaga keladi. Bizningcha, bunday ta'rif va yondashuv ko'pincha ilmiy tadqiqot ishlarida, xususan, tarixni anglash, tushunish va ifoda etishda yana ham ko'proq qo'l keladi va aniq xulosalar chiqarishga yordam beradi. Zotan, har qanday fan aql orqali namoyon bo'ladigan fikr, mulohaza, mushohada natijasidir. Jumladan, o'tmish haqidagi tasavvurlar aql orqali quyuqlashib, yaxlit mohiyat kasb etadi. Yuzaki va siyqa qarashlardan farqli holda o'z ilmiy asosi va nazariy isbotini topadi. Darhaqiqat, ong keng miqyosli, ziddiyatli va rang-barang olam, har qanday ong tushunchalar va tasavvurlar jamuljami. Uning tayanchi esa yolg'iz aql, idrok. Aqlga tayangan, idrok ustuvor bo'lgan onggina o'zining ma'rifiy qudratini, fikriy salohiyatini to'la namoyon eta oladi. Aqlga tayanmagan har qanday ong zararli va g'ayriinsoniydir. Ana shu holatdan kelib chiqib Gusserl masalaning to'rt jihatiga alohida e'tibor beradi:

- fikrlar go'zalligi va mukammalligi;
- fikrlarning o'zaro aloqadorligi, uzviyligi va o'zaro hamkorligi;
- fikrlarning mohiyati va ularning mantiqiy tushunchalar orqali aks ettirilishi;
- mazkur fikrlar oqimini o'rganuvchi fenomenolog olimning his-tuyg'ulari. Bu his-tuyg'ularning fikrlar oqimiga ta'sir qilishi.

Ko'rinib turibdiki, Gusserl falsafasida har qanday intuitsiya, his -tuyg'u aqlga tayanadi va u asosli fikrlash, jo'yali xulosalar chiqarish imkonini beradi. Tarixni o'rganish, insoniyat o'tmishini tadqiq etishga fenomenolog yondashuv har bir davr fenomenini, o'sha davr odamlarining o'ziga xosligini va yaxlit qiyofasini o'rganishni taqozo etadi.

Hozirgi zamon tarixni anglash hodisasi falsafiy germeneytikaning ana shunday keng miqyosli, inson olami orqali u yashagan davrga baho berish, uni talqin etish va etarli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Falsafadagi tushunihdan oldingi anglash holati tarixni o'rganishdan oldin o'sha o'rganiladigan davr tarixi to'g'risida birmuncha to'laroq hayotiy, tarixiy, ilmiy tayyorgarlikka ega bo'lish, ma'lum bir tushunchaga asoslanib, tadqiq etish orqali intuitiv talqin etish va tushuntirish imkoniyatlaridan keng foydalanishda ham alohida ahamiyatga ega. Bu bevosita tarixiy-falsafiy

tafakkur taraqqiyotining o'ziga xos oqimi sifatida o'zining yangidan-yangi imkoniyatlarini ko'rsatmoqtsa.

### **Tarixiy jarayon va vorislik**

Tarixiy tafakkur o'zida inson mohiyatini, uning tarixiy mavjudot sifatidagi olamini ifoda etuvchi tushunchadir. Zotan, inson tarixiy mavjudot sifatida o'z ijtimoiy tabiatiga taalluqli voqelikkina emas, ayni paytda u juda katta ma'naviy-axloqiy mezonlar orqali tarixiy davomiylik, tarixiy vorislik va kelajak oldida mas'ullik qadriyati hamdir. Tarixiy tafakkur orqaligina inson o'tmish va kelajak o'rtasida vositachi, bog'lovchi, ko'prik vazifasini o'taydi. Ana shu ijtimoiy voqelik bevosita insonning kishilik jamiyati tadrijiy taraqqiyotiga bog'liq hodisa sifatida o'zini namoyon etadi. Insonning ijtimoiy tafakkurida bevosita u yashab turgan davr mohiyati o'tmish va kelajak to'qnashuvida ochiladi va to'laqonli mohiyat kasb etadi. Har bir davr tarixiy voqealarning mohiyatini tushunishda, unga mos ijtimoiy sharoitni vujudga keltirishda ana shu tarixiy ong, madaniy-ma'naviy saviya, axloqiy va ruxiy mezonlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy ongning barcha ko'rinishlarida insonning ijtimoiy xarakteri, fe'l-atvori, hatti-harakati u yoki bu shaklda aks etadi. Boshqacha qilib aytganda, insonda uning biologik mavjudlikdan tashqarida bo'lgan qalb, ruh, ong va tafakkur bilan bog'liq bo'lgan, faqat insongagina xos bo'lgan qadriyatlar tizimi ustuvorlik qiladi. Ana shu ustuvorlik insonning tarixiy, ijtimoiy tafakkuriga asos bo'ladi.

Mavjud tarixiy sharoitda yuzaga kelgan ijtimoiy madaniyat tarixdan ajralgan muallaq voqelik emas. Aksincha, u o'zidan oddingi davrlar va bir necha ming yillik evolyutsion taraqqiyotning hosilasi sifatida yuzaga keladi. Demak, jamiyat inson orqali ma'naviy madaniyat qiyofasini egallar ekan, u tarixiy tajriba va ijtimoiy amaliyotning o'ziga xos sinteziga aylanadi.

Ayni ana shu hodisa insonning paydo bo'lishi, uning genezisi orqali mavjud shakllangan tarixiy ong, uning mahsuli bo'lgan kishilik jamiyatining yutug'iga aylanadi. Ayni paytda bu tarixiy-madaniy vorislikning mustahkam va qat'iy rivojlanish dinamikasidan dalolat beradi.

Hayvonot olami hech qachon his-tuyg'u, fikrlash va munosabat bildirish, so'zlash imkoniyatlariga ega bo'lmaganidek, o'z xususiyatlarini bir joyga jamlay ololmaydi. Garchi qaysidir intuitiv aloqalar orqali turdoshlari o'rtasidagi yaqinlik, onalik va bolalik hissi, otalik mas'uliyati, bolani boqish va asrash imkoniyatlariga ega bo'lsa-da, o'zining boshqa jiddiy manfaatlari atrofida jamoaga aylana olmaydi. Buni idrok ham etolmaydi.

Inson esa xuddi ana shu fazilati bilan ulardan farq qiladi. Uning tabiatida xilma-xil faoliyat, xilma-xil munosabat, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, manfaatlar ustuvorligi uchun munosabatlar to'qnashuvi yuzaga keladiki, bu odamlarning o'zaro bir-birini tushunishiga, hamjihat bo'lib yashashiga, inson hayotining ijtimoiy mohiyat kasb etib, kishilik jamiyatining shakllanishiga olib keladi.

Inson aql-zakovati, intellektual imkoniyatlari ayni bir insonga xos bo'libgina qolmay, u ijtimoiy mohiyat kasb etib, jamoa yutug'i sifatida dunyoga keladi. Boshqacha qilib aytganda, har qanday intellektual imkoniyat tashqi ta'sir, jamoatchilik fikr-mulohazalari, boshqalarning salbiy yo ijobiy ta'siri, kimlarningdir yo'l-yo'riqlari orqali rivojlanadi va oxir-oqibatda umuminsoniyat yutug'iga aylanadi.

Ayni ana shu holatdan kelib chiqib, kuchlarni birlashtirish, qobiliyatlar va iste'dodlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali yalpi ijtimoiy hayot va tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos modellari ishlab chiqiladi.

Ijtimoiy faollik insonning jamiyat ijtimoiy- tarixiy jarayonlariga ishtirokini ta'minlaydi. Tarixiy xotira rivoji, ma'lum bir individ tomonidan kollektiv tajribaning o'zlashtirilishi oqibatida yangi tajribaning yangi qirralari vujudga keladiki, bu bevosita alohida individ doirasidan chiqib ketib, yalpi ijtimoiy tafakkur mohiyatiga ega bo'ladi.

Tarixiy taraqqiyot bosqichlarida avlodlar avlodga o'tib boradigan vorislik, ulkan madaniyat va boshqa qadriyatlarga merosxo'rlik tarixiy nuqtai nazardan etakchi va ta'sirchan tarbiyaviy mexanizmga aylanadi va aytish mumkinki, har qanday madaniy yutuq ayni o'sha davr yutug'igina emas, balki ungacha to'plangan tajribalar va avlodlar shajarasi orqali etib kelgan qadriyatlar natijasi yoki tarixiy bilimlar ifodasidir.

Har qanday inson alohida individ sifatida to'plangan tajriba, tarixiy xotira, tarixiy merosning o'ziga xos davomchisi. Faqat ayni ana shu tajriba va merosga kim qanday shaklda, qanday maqsadni oldiga qo'yib yondashganligi bilan farq qiladi. Bu o'z-o'zidan tarixiy merosga yondashishda uslub muammosini keltirib chiqaradi.

Demak, har bir kishi alohida shaxs, alohida dunyo, o'ziga xos fe'l-atvor, munosabatlar, muammolar mezonlariga ega ekan, tarixiy tajribaga munosabatda ham o'z dunyoqarashi, o'z munosabati va uslubi orqali yondashadi.

#### **Savollar:**

1. Tarix falsafasi atamasi kim tomonidan fanga kiritilgan?
2. Tarix falsafasining maqsadlari va vazifalari nimalardan iborat?
3. Tarix fanining vujudga kelishi ayting?
4. Tarixning ahamiyati tushuntirib bering?

## **TARIX FALSAFASINING QONUNIYATLARI VA ASOSIY TAMOIYILLARI**

### **Tarix falsafasining ob'ekti va metodologiyasi**

Tarix falsafasi real tarixiy jarayonni tafakkur orqali anglash, tarixga inson aqli va fe'l-atvorining mahsuli, manfaatlar hamda qiziqishlar natijasi sifatida yondashish va tushunish, boshqacha qilib aytganda tarixiy jarayonning falsafiy interpretatsiyasidir.

Tarix falsafasi inson va tabiat, inson va jamiyat, odam va olam haqidagi falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo'lib, unda asosan insoniyat tarixi asoslari, tarixiy jarayon va uning mohiyati, kishilik jamiyati taraqqiyoti bosqichlari haqida so'z yuritiladi, ular ilmiy-nazariy tadqiq etiladi.

Tarixni falsafiy idrok etish elementlari qadim-qadimdayoq namoyon bo'lgan. Insoniyat o'tmishiga nisbatan bo'lgan ilk qiziqishlar asta-sekin qarashlar tizimiga aylangan. Demak, tarixni falsafiy anglash, insoniyat o'tmishi haqida mushohada yuritish holatlari antik falsafa va tarixnavislik shakllana boshlagan davrdayoq mavjud bo'lgan. U inson tafakkurining shakllanish bosqichlari, evolyutsiyasi, insoniyat taraqqiyoti jarayonlari bilan uzviy ravishda dinamik tarzda rivojlangan. Biroq uni fanga mashhur frantsuz olimi Volter (haqiqiy ismi Fransua Mari Arue) kiritgan. Ayni paytda tarix falsafasi turli yo'nalishlarda tadqiq etiladi. Jumladan:

–teologik (ilohiyot) tarix falsafasi nuqtai nazaridan borliq, jumladan, inson hayoti Alloh irodasi orqali boshqariladi, tarixni harakatga keltiruvchi kuch – Alloh irodasi sifatida talqin etiladi. Boshqacha qilib aytganda o'tmish Alloh irodasi orqali tushuniladi va u ilohiy mazmun orqali tushuntiriladi;

–metafizik tarix falsafasi hech qanday chegaralar va doiralar bilan cheklanmaydigan, turli shakllarga va ko'rinishlarga kiradigan tushunchalar tizimi hisoblanadi;

–idealistik tarix falsafasiga ko'ra esa, g'oyalar, insonning axloqiy tushunchalari, ma'naviy-ruhiy kechinmalari asosida tarixga munosabat bildiriladi;

–insoniyat tarixiga naturalistik yondashish tarix falsafasining yana bir yirik oqimidir. Unda insoniyat tarixiga va hayotiga tabiat orqali, tarixiy jarayonlarga tabiiy holat, tabiiy voqelik va tabiat qonuniyati sifatida qarash g'oyasi ilgari suriladi. Inson hissiyoti va tuyg'usi ham qaysidir darajada tabiat tomonidan boshqariladi, u qanchalik individuallik kasb etmasin, tabiat mo'jizasidir. Shuning uchun tabiat orqali olamni anglash, o'tmishga

nazar solish va uni baholash asosiy mezon qilib olinadi. Naturalistlar qarashlariga ko'ra inson tabiati, fe'l-atvori, hatti-harakati tabiiy holda yuzaga keladi va shakllanadi;

–materialistik tarix falsafasida asosan iqtisodiy omillarga katta e'tibor beriladi. Unda tarixni yo'naltiruvchi kuch sifatida tarixiy jarayonlar mohiyatini, voqeliklar mazmunini moddiy ehtiyoj va iqtisodiy zarurat orqali tushunish asos qilib olinadi;

–insoniyat tarixiga individualistik va kollektivchilik (jamoatchilik) jihatlardan qarab fikr yuritadigan tarix falsafasi va boshqa yo'nalishlar ham mavjud. Bunda insonning tarixda va umuman insoniyat taraqqiyotida tutgan o'rnini aniqlashda individual, ya'ni yakka, alohida shaxsning hamda jamoatchilik, odamlar guruhi yoki fuqarolar uyushmasining roli, vazifasi o'rganiladi.

Tarix falsafasida, shuningdek, tarix fani tushunchasi, qonuniyatlari, tarixiy jarayon va inson, inson mohiyati, fe'l-atvori, hatti-harakatlari, manfaatlari, turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari, qarashlari va e'tiqodlari talqin etiladi. Bu bevosita insoniyat taraqqiyotida, sivilizatsiyalar mohiyati va ularning «to'qnashuvi»da kishilik jamiyati evolyutsiyasi, inson tafakkuri va ehtiyojlari dinamikasi bilan jamiyat rivoji dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlik, renessans hodisasi, uning yuz berishi va inqirozi sabablari o'rganiladi.

Tarix falsafasi ildizlari antik davr allomalari Gerodot va Fukididning tarixiy harakatga doir qarashlariga borib taqaladi. Keyinchalik u Polibiy, Posidoniy, Plutarx qarashlarida ancha-muncha shakllandi. Avgustin esa ilohiy davlat tarixi falsafasini yaratdi va keyingi ming yillarda tarixiy tafakkurning shakllanishida kuchli ta'sir ko'rsatdi.

XVIII asrga kelib tarix falsafasining yo'nalishlari tubdan o'zgardi. Tarixiy taraqqiyotda insonning ta'siri, o'rnini va roli, tarixga inson qalbi, ichki dunyosi, ma'naviy-ruhiy olami mahsuli sifatida qarash tamoyillari shakllandi. Biroq bunda ham turlicha yondashishlar mavjud edi. Chunonchi, Lebnits tarixda metafizika – kuchlar va g'oyalar ustuvor deb tushunsa, Gegel tarixda inson aql-zakovati va tafakkurini ustun qo'yadi. XIX-XX asrlarda tarixni anglashda mavhum mantiq va tarixni bilish nazariyasi bilan bir qatorda A. Shopengauer, Ya. Burkhardt, O. Shpengler tarixni tushkunlik orqali anglash, A. Toynbi optimizm, marksizm asoschilari esa tarixiy materializm g'oyalarini ilgari surdi.

Ayrim mutaxassislar falsafiy tafakkur Yunonistondan to'g'ridan-to'g'ri Yevropaga ko'chganini, G'arb donishmandlari qadimiy yunon falsafasi ta'sirida dunyoga kelganini pesh qilishadi. Biroq tarix haqiqati, sivilizatsiyalarning davriy harakati buni inkor etadi. Darhaqiqat, yunon



falsafasi insoniyat tafakkuri olamining sarchashmasi. Ana shu fayziyob falsafa vaqt o'tib Sharqqa ko'chdi. Sharqda rivojlanib, miqyosi kengayib, Sharq falsafiy tafakkur maktabi vujudga keldi va butun insoniyat tafakkur tarzini keskin o'zgartirib yubordi. Aniqroq qilib aytganda, G'arb ana shu buyuk maktabning baxtiyor tolibi, vorisi va davomchisidir.

Shunday qilib, Sharqda tarixni falsafiy anglashning o'ziga xos yo'nalishlari bir necha ming yillik taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Garchi u tarixshunoslik, tarixnavislik, manbashunoslik, falsafa va boshqa sohalar singari aniq bir yo'nalish sifatida shakllanmagan bo'lsada, ayni ana shu sohalar bilan birga demografiya, madaniyatshunoslik, aholishunoslik, sotsiologiya, ruhshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlarning yaxlit, ularning barcha talablarini o'zida mujassam etgan tarixiy-badiiy, falsafiy-mantiqiy tadqiqot sifatida yuzaga keldi. Buni biz Beruniyning «Al-Javohir», «Tavdid» singari asarlaridan tortib Mirxondning «Ravzatussafo» hamda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqalarning qator asarlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Demak, Sharqda tarix falsafasi tushunchasi o'ziga xos jihatlarga ega. Forobiy qarashlariga ko'ra jamiyat taraqqiyotini ilohiy qonunlar boshqaradi. U Aristotelning jamiyat rivojlanishi haqidagi ta'limotini ilk marta juda chuqur tahlil etdi va uni o'z xulosalari bilan boyitdi. Beruniy esa tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tabiat, astrologiya, astronomiya, kecha va kunduz, fasllar almashuvi orqali o'rganadi va o'zining «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarlarida insoniyat tarixiga falsafiy nuqtai nazardan yondashadi, tarixni anglash, idrok etishda butunlay yangicha qarashlarni o'rta tashlaydi. Aytish mumkinki, Beruniy dunyo tarixshunosligida asotirlar, afsonalar va rivoyatlardan ilmiy bilish va dunyoviy ta'limotga o'tishda muhim hissa qo'shdi. U Gerodotdan Shopengauer va Shpenglergacha, Fukididdan Toynbi va Yaspersgacha bo'lgan uzundan-uzoq davrda misli ko'rilmagan falsafa va tafakkur ko'prigini bunyod etdi.

Sharq tarix falsafasi bir necha yo'nalishlarda ko'zga tashlanadi: jumladan, podsholiklar tarixi yuksak badiiy ifodalar, xarakterlar, obrazlar, munosabatlar orqali ochib beriladi. Voqealar tahlili ibratli hikoyatlar, pand nasihatlar, yuksak axloqiy me'yorlar bilan mushtarak holda olib boriladi. Ayrim hollarda tarixga jug'rofiy hududiy jihatdan yondashiladi. Sayohatnomalar orqali jamiyat tarixi yaratiladi, podsholiklarning boshqaruv usuli, siyosati, uning mohiyati ochib beriladi.

Ma'lumki, insoniyat taraqqiyoti bevosita tafakkur va qarashlar taraqqiyotidir. Vaqt o'tgan sari tafakkurning yangidan yangi qirralari ochilishi, o'zining beqiyos imkoniyatlarini namoyon etishi tabiiy. Ana

shuning natijasida odam va olam, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar tobora takomillashib borgani sayin uning yaxlit tarixida izchil rivojlanish hodisasi yuz beradi. Dastlabki odamlarning ibtidoiy hatti-harakatlaridan buyuk sivilizatsiyalar va renessans hodisalarigacha bo'lgan inson tafakkuridagi rivojlanish hodisasi asrlar, ming yilliklar bilan o'lchanadigan umumjahon tarixiy taraqqiyotining yaxlit evolyutsiyasini qamrab oladi.

Vaqt o'tgan sari insoniyat tafakkuri kengayib, ijtimoiy fanlar taraqqiy topib borgani natijasida tarix falsafasi tushunchasi atrofidagi mushohadalar ham kengaydi, mulohazalar ancha tiniqlashdi. Ijtimoiy fanlarning muhim yo'nalishi sifatida uning predmeti va tadqiqot ob'ektiga aniqlik kiritildi. Natijada u bugungi kungacha bo'lgan o'ziga xos, katta va salmoqli taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Biroq ilmiy izlanishning chegarasi yo'q. Ana shu ilmiy haqiqatdan kelib chiqib, hozirgi zamon tarix falsafasi oldida turgan eng muhim vazifalar nimalardan iborat, degan haqli savol tug'iladi. Bizningcha, bu quyidagilarni qamrab oladi:

birinchidan, insoniyat tarixi rivojlanish qonuniyatlarini, ularning manbalari va mohiyatini o'rganish;

ikkinchidan, insoniyat tarixini, jumladan, milliy tarixni ham hozirgacha ta'sirini o'tkazib kelayotgan kommunistik mafkura asosidagi ilmiy metodologiyada mavjud bo'lgan tamoyillardan voz kechib, milliy istiqlol g'oyasi asosida o'rganish va davrlashtirish muammosini hal etish;

uchinchidan, sivilizatsiyalar va madaniyatlar yuzaga kelishining yaxlit tizimini ishlab chiqish, ular inqirozi sabablarini chuqur tahlil etish;

to'rtinchidan, tarixiy jarayonning umumiy shaklini tahlil etish, ularni o'tmish, bugun va kelajak tizimida mantiqan o'rganish hamda insoniyat istiqboli haqida tasavvurlarga aniqlik kiritish;

beshinchidan, tarixiy taraqqiyot omillarini diniy va dunyoviy qonuniyatlar nuqtai nazaridan o'rganish, nazariy jihatdan baquvvat, ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan xulosalarni ishlab chiqish;

oltinchidan, qadriyatlar tizimini hozirgi zamon talablari nuqtai nazaridan tadqiq etish va baholash;

yettinchidan, insoniyat tarixida to'plangan moddiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarning tarixiy tahlil orqali mantiqiy va falsafiy asoslarini o'rganish;

sakkizinchidan, tarixni anglashning yangi yo'nalishlarini hozirgi zamon falsafiy tafakkur mezonlari asosida belgilash hamda unga tayangan holda va ijtimoiy taraqqiyot maqsadlarini aniqlash orqali tarixning murabbiylik rolini oshirish;

to'qqizinchidan, yaxlit insoniyat taraqqiyoti omillarini va manbalarini o'rganish, shu asosda jahon tarixiy taraqqiyot istiqbollari belgilash;

o'ninchidan, tarix fani predmeti va metodologiyasini hozirgi zamon talablari asosida qayta ishlab chiqish hamda tarixni tadqiq etishning turli yo'nalishlarini, jumladan, siyosiy tarix, iqtisodiy tarix, ijtimoiy tarix, madaniyat tarixi, din tarixi, san'at tarixi, etnogenezis va boshqa yo'nalishlar bilan mushtarak holda kompleks tadqiqotlarni olib borish orqali inson, insoniyat va uning tarixi yaxlit mohiyatini ochib berish;

o'n birinchidan, ayni paytda, xususan, biz uchun huquq tarixi, davlatchilik tarixi, sotsiologiya, antropologiya, insonshunoslik, inson sotsiogenezi kabi qator fanlar bilan bog'liq holda yaxlit tarixni idrok etish va boshqa masalalar muammo bo'lib qolmoqda.

Ana shu vazifalarni hal etishda tarix falsafasi va tarix fani o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, I. Lakatos fikriga ko'ra «Tarix falsafasi tarix fanisiz bo'shliq. Tarix fani esa tarix falsafasisiz ko'rdir». Demak, ushbu g'oyadan kelib chiqib aytish mumkinki, tarix fanining taraqqiyoti tarix haqiqatini tiklash, tarixiy jarayonni u qaysi davrga bog'liq bo'lishidan qat'iy nazar qanday yuz bergan bo'lsa shundayligicha ifodalash tarix fanining birdanbir vazifasidir. Tarix falsafasining vazifasi esa tiklangan tarixiy jarayon atrofida falsafiy, mantiqiy fikr yuritib, mushohada etib, tarixiy tafakkur orqali voqelik mohiyatini to'g'ri ifodalab berish bilan belgilanadi.

Bir qarashda tarix falsafasi bilan tarix fani boshqa-boshqa, bir-biriga daxlsiz yo'nalishday ko'rinadi. Zotan, real jarayonga, real voqelikka, insoniyat tarixidagi qaysidir hodisaga tarixchi tarixchi ko'zi bilan, faylasuf faylasuf ko'zi bilan qaraydi. Biri hodisalar qay darajada to'g'ri, aniq, yorqin, sanalar va raqamlar asoslangan holda ifoda etilgan yoki etilmaganligiga jiddiy e'tibor bersa, boshqasi ayni ana shu voqea hodisa nima sababdan, qanday qilib, qanday sharoitda, nima maqsadda yuz bergani, nega oldinroq yoki keyinroq yuz bermagani atrofida fikr yuritadi. Aslida esa har ikki qarashlarning tagida inson taqdiri, tafakkur tarzi va manfaatlar ustuvorligi yotadiki, bu inson fenomeni hamda hayot falsafasining mantig'idir.

Atoqli faylasuf A.A.Ivin fikrlariga ko'ra tarixchi faqat va faqat o'tmish bilan shug'ullanishga intiladi. U hech qachon bashorat qilmaydi. Manbalar orqali kelajakka qaramaydi, uning asosligiga katta e'tibor beradi, faqat yuz bergan voqealarni to'playdi. Tarixga tafakkur orqali yondashishdan o'zini tiyadi. Tarixchi o'tmishga bugundan turib qaraydi va bugunning ehtiyoji, bugun shakllangan tafakkur kengliklari, aqliy imkoniyatlari doirasida o'tmish haqida fikr yuritadi, xulosa chiqaradi. Lekin bari bir har qanday sharoitda ham tarixchi bor imkoniyatlari bilan o'tmish haqidagi o'z tasavvurlarini qolipga solishga, bugun haqidagi, istiqbol to'g'risidagi

xulosalarini cheklashga, uni qisqa, lo'nda, qanday bo'lsa shundayligicha to'g'ridan to'g'ri ifodalashga intiladi.

Faylasuf esa tarixiy voqelikdan mantiq izlaydi. Inson, insoniyat o'tmishi, buguni va istiqboli xususida fikr yuritadi. Tarixiy taqdir bizni qayoqlarga olib ketishi mumkinligidan iztirob chekadi. Kishini o'tmishning achchiq haqiqatlaridan saboq chiqarishga chaqiradi. Ana shu holatdan kelib chiqib A. A. Ivin shunday deydi: «Tarixiy tafakkurga asoslangan g'oyalar va umumiy sxemalarni tadqiq etuvchi tarix falsafasining nuqtai nazari, predmeti va tarixiy voqelikni davridan qat'iy nazar tarix faniga nisbatan kengroq ma'noda tushunadi, talqin etadi. Tarix falsafasi o'tmishdagi voqealar rivojining muayyan yo'llarini aniqlash asnosida tegishli xulosalar chiqaradi, ijobiy tajribalarni kelajakda davom ettirishga intiladi. Nafaqat bugungi kun, balki kelajak haqidagi tasavvurlar falsafiy-tarixiy mulohazalarning umumiy chegaralarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Tarix falsafasi «fikriy dunyolar tarixi»ga ma'lum ma'noda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishiga qaramay, tarixiy taraqqiyotning amalga oshmay qolgan ehtimoliy turlarini ham o'rganadi» .

Shunday qilib, tarix singari tarix falsafasi ham bugunning ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Zotan, har danday davr odamlari o'tmishga o'z ma'naviy ehtiyojlari, qarashlari va tafakkur tarzi orqali yondashadi. Boshqacha qilib aytganda, tarixiy tafakkur, tarixni anglash, uni falsafiy idrok etish bugungi tafakkur tarzimizning mahsuli sifatida yuzaga keladi. Bunday jarayon uzluksiz va tadrijiy holda davom etaveradi. Bu, albatta, tarixiy tafakkur taraqqiyoti, uning evolyutsiyasi cheksizligidan, chegarasizligidan, vaqt o'tgani sayin o'tmish haqidagi tasavvurlar ham kengayib, ham chuqurlashib borishidan dalolat beradi.

Ma'lum bir davrda yuz bergan tarixiy voqelik yoki hodisa o'sha davr ijtimoiy-siyosiy vaziyatining, odamlar yoki tarixiy shaxs maqsad manfaatlarining mahsulidir. Ayni paytda u tarixiy taqdirga aylanadi va butun bir xalq, hudud yoki mintaqa taqdirini, istiqbolini belgilab qo'yadi. Uning kutilmaganda taraqqiyotiga yoki tanazzuliga sabab bo'ladi.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonni zabt etishi yoki Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi voqealarini misol sifatida keltirish mumkin. Tarixiy jarayon va taqdir taqozosi bilan Hindistonning mayda mayda hududlarida turli qabilalar o'rtasidagi nizolar, tajovuzlar, kurashlar, o'zaro manfaatlar atrofidagi xunrezliklarga ayni Bobur tomonidan chek qo'yildi va yaxlit hind imperiyasi vujudga keltirildi. Insoniyat sivilizatsiyasiga kuchli ta'sir o'tkazgan hind madaniyati parchalanib, maydalanib, tanazzulga uchragan bir davrda ushbu makonga kishilik taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazgan

ulkan madaniyatni olib kirdi va butunlay yangi tarixiy sharoitlarda kutilmagan hind sivilizatsiyasiga asos soldi. Agar mabodo Bobur o'z o'rnida barqaror qolib, o'z mamlakati, ona Vatani taxtida muqim turganida butunlay boshqa tarixiy jarayon, butunlay boshqa voqeliklar yuzaga kelishi mumkin edi.

Xuddi shunday, O'rta Osiyo Chor hukumati mustamlakasiga aylanmaganida ham o'lkamizda tarixiy jarayon o'zani butunlay o'zgarib, taraqqiyot yo'nalishi va darajasi boshqacha tus olishi mumkin edi. Ana shu jihatdan qaraganda tarixchi o'z vazifasi nuqtai nazaridan konkret voqelikka konkret yondashadi, faylasuf esa ana shu konkret voqelik atrofida fikr yuritadi, mushohada qiladi, mantiq izlaydi va undan saboq chiqarish choralari ko'radi. Natijada tarix murabbiyga aylanadi.

Yuqorida keltirilgan misollar Yevropa olimlari tomonidan chuqur tahlil etilgan va unga yetarli baho berilgan. Ularning xulosalariga ko'ra, Chor hukumati tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi agressiv hodisa. Chunki insoniyat taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan, jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan O'rta Osiyoni zabt etib, uni xonavayron qildi, zo'ravonlik va tazyiq orqali sonsiz sanoqsiz odamlar qoni to'kildi. Madaniyatsiz, e'tiqodsiz hayotni, ijtimoiy tanglik va ma'naviy qashshoqlik jamiyatini vujudga keltirdi.

Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonni zabt etishi esa progressiv hodisa sifatida baholanadi. Chunki u o'zi bilan birga bu ulkan hududga yuksak madaniyat, tinchlik va barqarorlik olib kirdi, yangi taraqqiyotga, hind sivilizatsiyasining yangi bosqichiga zamin yaratdi. Natijada uning farzandlari ulkan geografik makonda misli ko'rilmagan madaniyatni vujudga keltirishdi.

Jahon tarixiga yondashuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Insoniyat o'tmishi to'g'risidagi ilk tasavvurlar asotirlar, rivoyatlar va afsonalar orqali shakllangan. Vaqt o'tgani sayin tarixiy tafakkur falsafiy, mantiqiy mazmun bilan boyib, hayotiy real voqelik atrofidagi munosabatlar birmuncha quyuqlashdi. Shunday qilib, tarixnavislik, tarixshunoslik tasavvurlardan kontseptual va metodologik asosga ega bo'lgan fan maqomini egalladi.

### **Tarix falsafasi va tarixni o'rganish**

Kishilik jamiyati haqidagi tasavvurlar qadimdan insoniyat diqqatini tortib kelmoqda. Zotan har bir davr odami kishilik hayoti, jamiyat, uning paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanishi, yutuqlari va tanazzuliga qiziqib qaraydi.

Jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy darajasi aynan ana shu jamiyat odamlarining tafakkuri mahsulidir. Chunki tabiatan inson o'z aql-zakosi doirasida, tafakkuri chegarasida o'ziga xos va mos hayot tarzini quradi.

Jamiyat tarixi voqelik sifatida, D. Viko ta'biri bilan aytganda, tabiat tarixidan butunlay farq qiladi. Chunki jamiyat tarixini odamlar yaratadi, tabiat tarixi esa o'z qonuniyatlari doirasida rivojlanadi. U inson irodasiga bo'ysunmaydigan o'ziga xos hodisa. Jamiyat tarixi odamlarning o'zaro munosabatlari, aloqalari, tafakkurning mahsuli sifatida yuzaga keladi. Ana shu holatning o'zi jamiyat a'zolarini tarixiy drammaning ham ijrochi aktyori, ham ijodkor muallifiga aylantiradi.

Har qanday fanning asosi o'sha fan predmetining ob'ektiv qonuniyatlarini anglash va o'rganishdan boshlanadi. Ana shu qonuniyatdan kelib chiqib aytish mumkinki, jamiyat faoliyati, uning rivojlanish omillari bevosita odamlar faoliyati va yaratuvchilik omillari bilan uzviy bog'liq. Demak, ob'ektiv tarixiy sharoitda vujudga kelgan jamiyat o'sha davr odamlarining tafakkuri, irodasi, kayfiyati, fe'l-atvori, injiqliklari va fazilatlaridan kelib chiqqan ijtimoiy hodisadir.

Insoniyatning real va yaxlit tarixi bu bevosita bir necha ming yillar davomida shakllangan mamlakatlar, xalqlar, millatlar va davlatlar tarixini qamrab oladi. Insoniyat tarixining serqirraligi, murakkabligi, unga baho berishning nisbiyligi ham, cheklanganligi ham xuddi ana shunda. Odamlar tafakkuridagi ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy voqelik haqidagi tasavvurlar hech qachon mutloq haqiqat emasligini nazarda tutsak, bu o'z o'zidan inson, jamiyat, jarayon orqali kishilik tarixiga doir xulosalarimiz ham cheklanganligini yaqqol sezamiz.

Har bir xalq, mamlakat tarixi – bu alohida va ulkan voqelik. Ayni paytda ana shu tarix o'sha xalq uchun takrorlanmas va noyob qadriyatdir. Insoniyat tarixi esa qadriyatlar yaxlitligi hisoblanadi. Zotan, kishilik jamiyati, uning bugungi tarixi sayyoramizda yashayotgan olti milliard odamzodning hayoti, faoliyati, hatti-harakati orqali umumiy tarzda vujudga kelgan tarix yoki umuminsoniy qadriyatdir.

Ijtimoiy fanlar ijtimoiy tafakkur mahsuli sifatida yuzaga keladi. Ijtimoiy tafakkur esa ijtimoiy-falsafiy qarashlarning shakllanishi va taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan hodisa. Jamiyat mohiyati unda yashayotgan odamlar qarashlari va tanlagan taraqqiyot dasturining in'ikosi. Demak, jamiyatshunoslik bu bevosita tarix, falsafa, demografiya, ruhshunoslik, madaniyatshunoslik, san'at va adabiyotning serqirra va rangbarang imkoniyatlari orqali o'rganiladigan keng miqyosli sohani qamrab oladi. Mutaxassislar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganishar ekan, uchta asosiy, o'zaro aloqada bo'ladigan va birbirini

to'ldirib turadigan yo'nalishga jiddiy e'tibor beradilar. Bular quyidagi lardan iborat:

–tarixiy bilimlar insoniyat real tarixi, uning rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq bo'lgan uzluksiz jarayon;

–ijtimoiy hayotning alohida sohalari yoki voqeliklarini tahlil qiladigan, uni tushuntirib beradigan ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimi;

–jamiyatning umumiy nazariy qonuniyatlarini, jamiyat haqidagi tasavvurlarni, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganadigan tarixiy va aniq ijtimoiy fanlar metodologik asoslariga xizmat qiladigan siyosiy va falsafiy-sotsiologik bilim.

Ana shu uch yo'nalish kishilik jamiyati haqidagi an'anaviy tasavvurlarni fan shaklidagi bilimlarga aylantiradi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotni o'rganar ekan, bugungi fan aniq sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, mehnatni ilmiy tashkil etish – menejment va boshqa sohalar orqali ham o'rganadi.

Jamiyat tabiat taraqqiyotidan farqli holda ancha cheklangan vaqt va fazo mutanosibligi mahsuli sifatida ham yuzaga keladi. Zotan, tabiat tabiiy o'zgarishlar va yangilanishlar hodisasi bo'lsa, jamiyat ilmiy amaliy, doimo o'zgarib turadigan, zamon va makon ehtiyojlari asosida quriladigan, ma'lum ijtimoiy guruh, xalq, mamlakat manfaatlari ustuvorligining mahsuli sifatida vujudga keladi.

Yangi jamiyatni vujudga keltirish, uni shakllantirish va taraqqiyotini ta'minlash omma yalpi ijodiy faoliyatining o'zini tarixiy hodisa sifatida qay darajada namoyon etishining o'ziga xos ko'rinishidir. Kishilik jamiyati mohiyatini, uni isloh qilish va rivojlantirish qonuniyatlarini o'rganar ekan, ilmiy tarix falsafasi bevosita ijtimoiy tafakkur, tarixiy taraqqiyot umumiy qonuniyatlarini o'rganish orqali yuzaga keladi. Ayni paytda jamiyat haqidagi tasavvurlar, ijtimoiy tafakkur, konkret odamlar, shaxs sifatida o'zini namoyon etgan kishilar faoliyati orqali ham o'rganilishi mumkin. Bu bevosita mustaqillik bilan bog'liq bo'lgan va O'zbekistonda yuz berayotgan yangilanishlar va tub islohotlar jarayonlari misolida ko'zga yaqqol tashlandi.

Tarixni anglash tuyg'usi insonning o'zligini anglashi, o'ziga qiziqishi, o'zining mavjudot sifatida borliq olamda qanday mavqega egaligi, boshqa jonzotlardan qanday farq qilishi bilan qiziqishdan boshlanadi. Zotan, har qanday inson tasodifiy hodisa emasligi, u ijtimoiy voqelik, hayot gultoji, boshqa jonzotlardan farq qilgan holda hayot mazmunini boyitishga qodir bo'lgan noyob qobiliyatga, yaratuvchilik salohiyatiga egaligini, his-tuyg'u sohibiligini, fikrlay olishi, munosabat bildirishi mumkin bo'lgan noyob qadriyat ekanligini anglamog'i lozim.

Qolaversa, anglash jarayoni har qanday inson shunchaki yashashga intilayotgan voqelik emasligini, aksincha, u o'z ajdodlari, o'tmishi, o'zining turmush an'analari, yashash tarziga ega bo'lgan va bu qadriyatlar avloddan avlodga, ajdoddan ajdodga o'tishi, ulkan vorisiylik tuyg'usini tushunishdan kelib chiqadi.

Tarixni anglash tarixiy bilim manbalariga qiziqishdan, uni o'rganishdan boshlanadi. Darhaqiqat, har qanday anglash jarayoni tasavvurlar va tafakkur debochasi, uning shakllanish bosqichining boshlanishi ekanligi jihatidan qaraydigan bo'lsak, ayni tarixiy bilimga ehtiyoj insonning o'ziga, kelib chiqishiga, insoniyat taqdiri va tarixiga qiziqishning mavjudligidan ekanligiga shubha qolmaydi.

Tarixiy bilim tabiatiga ko'ra eng qadimgi, dastlabki insonning paydo bo'lishi, kishilik jamiyatining shakllanishi, odamlarning guruh-guruh, jamoa bo'lib yashashga ehtiyojining paydo bo'lishi, ana shu guruh, qabila va jamoani boshqarish usullarining vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan va hamon davom etayotgan ulkan shajarani o'rganishni taqozo etadi, Bu bevosita tarixiy bilim oshgani sayin shakllangan tizimga ega bo'lgan tarix fani metodologiyasini ishlab chiqishni, ilmiy nazariy tadqiq etish me'yorlarini belgilab olishni, uni ma'lum bir tartibga solishni talab qiladi.

Tarixiy bilim deb atash mumkin bo'lgan taassurotlar, tasavvurlar va tafakkur bilan bog'liq bo'lgan odamlar o'tmishi haqidagi tushunchalar ana shu metodologiya va bilimlar tizimi asosida shakllanmog'i lozim.

Tarixiy bilim va tarixni anglash jarayonining asta sekinlik bilan fan maqomiga ega bo'lishi uning metodologik ahamiyatini yana ham oshiradi va, hatto, uni dolzarb qilib qo'yadi.

Ba'zan shunday hodisalar ham bo'ladiki, ijtimoiy hayot mohiyati tubdan o'zgarayotgan, an'anaviy turmush tarzi keskin yangilanayotgan, tafakkurimiz va hayotimizda radikal o'zgarishlarni amalga oshirish zarur bo'lib qolgan paytlarda tarixga murojaat qilishga, tarixiy bilimlar darajasini oshirishga, o'tmishimizga yangicha nazar bilan qarashga ehtiyoj har galgidan ko'ra oshadi. Ana shunday yangilanishlar jarayonida har qanday odam bunday keskin o'zgarishlarga, tub burilishlarga olib kelayotgan omillarni o'rganishga, qanday sabablar bilan, nimaga asoslanib yuzaga kelayotganini anglab yetishga harakat qiladilar. O'z hayotlarini va o'zlaridan oldin o'tgan ajdodlari turmushini birma bir taroziga solib, ijobiy tomonlaridan saboq chiqarishga, salbiy tomonlardan tegishli xulosa chiqarishga harakat qiladilar. Bu birinchidan.

Ikkinchidan, istiqbolni belgilash, kelajak rejalarini tuzish va taraqqiyot omillarini belgilash uchun o'tmishi ko'zgu rolini o'ynaydi. Ana shu tarix deb atalgan mo'tabar oyna orqali biz o'z insoniy mohiyatimizning, aqlu-



zakovatimizning, qudratimiz va salohiyatimizning nimalarga qodirligini va o'tmishimizda qanday «karomat»lar ko'rsatib, qanday hayot kechirganimizni aniq-ravshan ko'ramiz.

Uchinchidan, o'tmish bilan istiqbol o'rtasida turgan har qanday odam inson mohiyatini, ajdodlar va avlodlar oldidagi ma'suliyatini, kishilik jamiyati taqdiriga taqdiridosh, mas'ul va daxldor ekanligini anglagani sayin qaysidir darajada junbushga keladi. Tahlika va tahdid qurshovida qoladi. Ertangi kunim qanday bo'larkan, o'zimga munosib kelajak yarata olamanmi, yo'qmi, degan savollar girdobiga tushadi. Hayot haqiqati deb atalgan ana shu shafqatsiz va ayni paytda adolatli girdobda yo'q bo'lib ketmaslik uchun o'tmishga, tarixga nazar solish zarur bo'lib qoladi. O'tmish tajribasi va tarixiy voqelik falsafasi mohiyatini tushunishga ehtiyoj sezadi, unga suyanadi va undan najot axtaradi.

Bugun biz yangilanishlar oqimida xuddi ana shunday holatni boshdan kechiryapmiz. Biz o'z kelajagimizga qanchalik qattiq ishonsak, o'z istiqbolimizni munosib tarzda yaratishimizga qanchalik qat'iy umid qilsak, o'tmishni o'rganishga ham shunchalik katta ehtiyoj sezyapmiz. Bunday holat turli davrlarda turli shakllarda yuzaga kelgan. Natijada tarixiy bilim va tarixni anglash bilan bog'liq bo'lgan tarix fani taraqqiyotiga katta zamin yaratilgan. Darhaqiqat, har qanday taraqqiyot ehtiyoj farzandidir.

Tarixni anglash tushunchasi turli davrlarda mutaxassislar, olimlar va boshqa ma'rifatparvarlar tomonidan turlicha talqin etilgan. Natijada tarixiy bilim va tarixni anglashning xilma xil shakllari yuzaga keldi. Kimdir tarixiy jarayonni tarixiy-xronologik tarzda o'rganish g'oyasini ilgari sursa, kimdir ma'lum bir davrda yuz bergan tarixiy jarayon, voqea va hodisalarni falsafiy o'rganishga qiziqqan. Yana boshqasi esa ijtimoiy mohiyat, ijtimoiy taqdir va ijtimoiy mantiq izlash orqali tarixiy tafakkurni shakllantirish usullarini yuzaga keltirgan. G. Lukach, I. Berlin singari olimlar tarixni anglash va tarixiy bilim mohiyati sifatida tarixiy his tuyg'uni birinchi darajali hodisa deb bilishgan. I. Veynberg esa tarix haqida fikrlash va tarixiy tafakkurni anglashning oliy darajasi sifatida tushungan. Yu. Levada, Yu. Afanasev, V. Yakovlev va boshqalar esa tarixiy bilimni ijtimoiy xotira sifatida tushunishga, ular istorizm – har bir narsa yoki hodisaga tarix nuqtai nazaridan qarash tarixiy bilim va tarixni anglashning asosi deb bilishgan.

Afsuski, yaqin o'tmishimizda tarixga bir xil munosabatda bo'lish, unga yuzaki yondashish, hammaning bir xil o'ylashi singari nomaqbul tuzumning vujudga kelishi tarixiy bilim va tarixni anglashni chegaralab qo'ydi. Bu o'z navbatida odamlarning ma'naviy dunyosini boyitishga, o'zligini anglashiga mone'lik qildi va ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarida sustkashlik kayfiyatini vujudga keltirdi.

Tarixiy ong, tarixiy tafakkur ilmiy nazariyasining yoʻqligi, tarix fanining ilmiy jihatdan asoslanmagan, uning metodologik jihatdan noilmiy va soxtalashtirilgan dastur asosida oʻrganish ushbu soha nazariy taraqqiyotini toʻxtatib qoʻydi. Natijada oʻtmishni notoʻgʻri talqin qilish orqali istiqbol ham aniq ravshan tasavvur qilinmadi. Mubham va fikriy mahdudlik tarix fanining mohiyatini butunlay cheklab qoʻydi, uning ilmiy-nazariy saviyasini pasaytirib yubordi.

Albatta, tarixni anglash va tarixiy bilimga ehtiyoj bugungina tugʻilgani yoʻq. Unga qiziqish olis ajdodlarimizda ham mavjud boʻlgan. Biroq ularning tarixiy tasavvurlari xuddi oʻz hayotlari singari sodda, joʻn va ibtidoiy boʻlgan. Insoniyat taraqqiyotining bir necha ming yillik yoʻli bevosita tarixiy taraqqiyot va inson tafakkurining evolyutsiyasi bilan bogʻliq. Boshqacha qilib aytganda, bu har ikkala hodisa parallel ravishda bir-birini toʻldirib, bir-birini boyitib borgan. Yuqorida aytganimizdek, tarixni anglashning, dastlabki koʻrinishlari, ilk elementlari paydo boʻlgandan boshlab ular insoniyat takomillashuvi bilan birga tizimli tarzda, dinamik holda rivojlanish yoʻlini bosib oʻtmoqda.

Insoniyat mavjudligining dastlabki bosqichlarida uning xususiyatlarini tarixiy anglashning ilk genetik shakllari bilan bogʻlash mumkin. Agar insonning biologik va genetik nuqtai nazardan shakllanish va takomillashish jarayoni uning mehnat qurollarini yaratish orqali moddiy qiziqish va ishlab chiqarish bilan bogʻlanadigan boʻlsa, tarixiy tafakkurni ayni ana shu moddiy manfaat va ishlab chiqarish mohiyatini anglash, oʻz shaxsiy hayoti mazmunini boyitish, uning istiqbolini belgilash bilan ifodalash mumkin. Demak, inson hamisha farovonlik sari, sururli hayot sari intilar ekan, u oʻtmish tajribasi orqali oʻzining tasavvurlarini boyitadi, tajribalarini takomillashtiradi, rivojlantiradi.

Avlodlar shajarasi, davomiyligi orqali oʻrnatilgan aloqalar, odamlarning oʻz mavjudligini anglashi va bu mavjudlikni qadriyat sifatida anglab, uni takomillashtirishga intilishi aql-zakovat takomillashuviga olib keladi. Kishilar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar, fikriy almashuvlar, moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarni hamkorlikda qondirish zarurati oʻz-oʻzidan qaysidir darajada guruh, qabila va jamoalarning oʻziga xos urf-odatlarini, anʼanalarini, munosabatlar shakli va usullarini vujudga keltirdi. Vaqt oʻtgani sari bu urf-odatlar, anʼanalar, oʻzaro aloqalar takomillashib bordi. Natijada bir necha yuz yillik yoki ming yilliklar sarhadida turib bugungi tafakkur chegaralarini masofaning nariyogʻidagi qarashlar va munosabatlarga qiyoslaganda taraqqiyot darajasi va koʻlami koʻzga yaqqol tashlanadi. Ana shu urf-odatlar, anʼanalar va turmush tarzi tarixiy taraqqiyot

natijasida odamlarning amaliy faoliyati, hatti-harakatlari bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan qadriyatlar tizimiga aylanganini koʻramiz.

Albatta, anglash jarayoni dastlabki paytlarda mustaqil fikrning aniq yoʻnalishlarini va kontseptsiyalarini oʻzida mujassam etmagan. Balki asotirlar, afsona va rivoyatlar, undan soʻngroq esa badiiy, diniy va axloqiy mezonlar atrofidagi qarashlar bilan kifoyalandi. Ibtidoiy anglashning asosiy xususiyati bu bevosita mifologizmdir. Biroq har qanday miflar va afsonalar tagida insoniyat oʻtmishi haqidagi taassurotlar yotadi. Bu bevosita taqdirilar, kechinmalar bilan bogʻliq boʻlgan hayot mantigʻi orqali tobora jilolanib, mazmuni boyib borgan uzluksiz jarayonning oʻziga xos mohiyatidir.

Oʻz vaqtida asotirlar maʼlum bir qabila, etnos yoki urugʻ doirasida avloddan avlodga uzluksiz tarzda oʻtib borgan umumiy qarashlar tizimi sifatida mavjud boʻlsada, undan asta-sekinlik bilan jahon, boshqa mintaqalarda yashayotgan xalqlar haqidagi maʼlumotlar ham oʻrin olib borgan. R. Kollingvud bu jarayonni oʻrganar ekan, jamiyatni tarixiy anglashni teokratik tarix deb nomlaydi. Unda har bir rivoyat va afsonalar qatnashchilari oʻsha voqealarning ishtirokchisi yoki tashkilotchisi emas, balki Xudo xohish irodasini, aniqrogʻi, amrini bajaruvchi shaxslar sifatida gavdalangan.

Tarixchi A. Losev toʻgʻri taʼkidlaganidek, asotirlardagi tarixiy davr hali bu toʻla anglangan hodisa emas. U xuddi harakatsizday. «Bizning fikrimizcha, tarix uchun shaxs kerak, jamiyat kerak, shaxs va jamiyatning bir holatdan ikkinchi bir holatga oʻtishiga ehtiyoj kerak. Asotirlar davrida esa shaxs ham, jamiyat ham, harakat ham yoʻq».

Undan keyingi taraqqiyot yoʻli bevosita tarixni anglash yoʻli – jahon tarixi, insoniyat oʻtmishi va shu bilan birga alohida alohida xalqlar, mamlakatlar, qolaversa, mintaqalar doirasidagi tarixni oʻrganishga olib keldi. Yangi uchinchi ming yillikda dunyo tarixini yangicha nazar bilan oʻrganish, uning butun silsilalari orqali kishilik jamiyati taraqqiyoti, insoniyat tafakkurining mezonlari hamda bizga meros qolgan buyuk tarixning yorugʻ va qorongʻu tomonlarini mumkin qadar oʻrganish vazifasi zimmamizda turibdi. Yangi ming yillik taraqqiyot yoʻli bizni oʻtmish bilan ana shu tarzda bogʻlab turibdi.

### **Tarix fanining predmeti**

Har qanday fanning tadqiqot maydoni, oʻrganish manbai boʻladi. Jumladan, tarix fanining ham. Tarix fanining predmetini belgilash tarixiy bilim nazariyasidagi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Uning yechimini toʻgʻri, ilmiy asoslangan, nazariy jihatdan pishiq-puxta, hayotiy

va amaliy jihatdan asosli bo'lgan holatda yaratish bevosita fan taraqqiyotini belgilaydi. Bu esa o'z-o'zidan tarixiy bilim tabiatini, uning o'ziga xosligini belgilashdan iborat. Ana shu ilmiy mezon va me'yor bevosita tarixiy ma'lumotga erishish yo'llari va vositalarini qay darajada to'g'ri va aniq belgilashni taqozo etadi.

Bunday qaraganda tarix fani predmetini belgilash osonday tuyuladi. Biroq, mutaxassislarning fikricha, tarix tushunchasi haqida 30 ga yaqin yondashuv va tadqiq etish usullari mavjud ekan. Ana shu fikrlar xilma xilligi, yondashuvlar turlichaligi, tarix faniga bo'lgan munosabatlarning har xilligi uning predmetini aniqlashni birmuncha murakkablashtiradi.

Tarixshunos N. Doroshenko tarix fani predmetini «Tarixiy ongda o'z aksini topgan, turli tarixiy yo'nalishlarga asoslangan, turli tarixiy rolni bajaruvi odamlarning tarixiy turmushidan tarkib topgan real qonuniy, tarixiy jarayon muhim elementlardan biri deb hisoblangan tizim» sifatida tushunadi. V.Ivanov tarix fani predmeti haqida gapirar ekan, «Tarix ommaviy hayot qonuniyatlarining konkret shakllarini o'rganishni predmet» deb hisoblaydi.

B. Mogilnitskiy esa «Tarix odamlar faoliyati, shuningdek, ushbu faoliyat oqibatlari bilan bog'liq bo'lgan konkret ommaviy taraqqiyot qonuniyatlarini tadqiq qiladi», deydi. Atoqli tarixchi I. Kovalchenko o'ziga xos fikr yuritadi va «Tarixiy taraqqiyot o'z maqsadiga ega bo'lgan odam faoliyatini o'zida aks ettiradi, bu esa ilg'or qonuniy hamda ichki shartlarga ega bo'lgan jarayondir. Bu jarayonning konkret yo'nalishida organik ravishda moddiylik va ma'naviylik, ob'ektivlik va individuallik uyg'unlashadi. Bu uyg'unlikning o'zi esa tarkibiy shakl va sifat birligi holatida namoyon bo'ladi», degan fikrni ilgari suradi.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, qarashlar turlicha, yondashuvlar xilma xil. Biroq barchasining mohiyatida inson, uning o'tmishi, buguni va istiqboli yotadi. Tarixning muallifi, yaratuvchisi, ishtirokchisi inson va faqat inson degan g'oya ilgari suriladi. Demak, tarix fanining predmeti insonshunoslik, inson olami va hatti-harakati, qarashlari va manfaatlar to'qnashuvidagi fe'l-atvorining tadqiqotidir.

Tarix fanining predmeti atrofidagi munozaralar faqat shugina emas. Ingliz tarixchisi R. Kollingvud «Qandaydir tarixiy jarayon o'z-o'zidan ong jarayoni hisoblanadi», desa, M. Oukshot tarix fanining predmeti bu shunchaki «Tarixchining tadqiqot olami, uning konstruktsiyasi. Tarix – bu tarixchi g'oyalarining spetsifik olami» deydi. Bu bilan u tarix fani predmetini birmuncha bo'shashtirganday ko'rinadi. Uning bunday g'oyasida tarixchi tarixni qanday xohlasa shunday tadqiq qilaveradi. Har bir kishining o'z olami bo'lganiday, tarixchining ham o'z olami mavjud. U

o‘tmishni qanday tushunsa shunday ifodalayveradi, degan xulosa ham bor. Biroq tarix fani metodologiyasi fanga jiddiy yondashishni va asosli xulosalar chiqarishni taqozo etadi. U insoniyat tarixining butun mohiyatini, sevinchu iztiroblarini, shukuhli va sitamli damlarini yaxlitligicha ifoda etmog‘i lozim.

Hozirgi zamon Amerika tarixchisi G. Kommadjer tarixiy bilim predmeti haqida fikr yuritar ekan, u tadqiqot ob‘ektiga idealistik nuqtai nazardan yondashadi va fan mohiyatini quyidagicha ifoda etadi: “Tarix amalda atom, kimyoviy vositalar singari o‘zini namoyon etolmaydi. Ushbu vositalar tabiatda mavjud. Ular inson yo‘q qilinguniga qadar mavjud bo‘ladi. Tarix esa tabiatda yashamaydi. Balki inson tasavvurida, xotirasida yashaydi”.

Demak tarix uzluksiz va yashovchan. Inson, insoniyat mavjud ekan, uning shajarasi davom etar ekan, tarix xotiralarda qaysidir darajada yashayveradi. Vorisiylik, avlodlar shajarasi tarixning tadrijiyligini, davomiyligini saqlab qoladi. Ana shu holatning o‘zi tarixiy bilim manbai, tarix fani predmeti masalasiga aniqlik kiritadi. Inson xotirasi va ajdodlar hayotini o‘rganish ehtiyoji orqali yaxlit insoniyat tarixini tadqiq etish, uni shakllangan fan qonuniyatlari asosida rivojlantirish muammosini kun tartibiga qo‘yadi.

Darhaqiqat, tarix buyum yoki boylik ham emas. Shuningdek, hayot uchun, yashash uchun kurashmaydi. U o‘zini himoya qilolmaydi, amaliy faoliyat ko‘rsatolmaydi. Bularning hammasi insonda mujassam. U beqiyos boylik va ne‘matlar yaratadi, kurashadi, inkor etadi, qo‘llab-quvvatlaydi, munosabat bildiradi. Natijada o‘zi ham iztirob chekadi, quvonadi. Amaliy faoliyat, hatti-harakatlar natijasini baholaydi. Asta-sekinlik bilan uning o‘tayotgan har bir kuni tarixga aylanib boraveradi. Bu albatta, individual voqelik. Bitta shaxsga bog‘liq bo‘lgan jarayon. Yakka-yakka shaxslarning birligidan tashkil topgan jamiyatda ushbu amaliy faoliyatlar yig‘indisi – kollektiv mohiyat kasb etadi va shu tarzda jamiyat, xalq tarixi vujudga keladi. Demak, tarix fani kishilik jamiyatining o‘tmishini o‘rganar ekan, u tom ma’noda insonshunoslikdir. Ana shu xulosadan kelib chiqib aytish mumkinki, tarix fanining predmeti – insondir.

Umuman olganda yuqorida keltirilgan iqtiboslardan ko‘rinib turibdiki, ular asosida tarixni idealistik yoki materialistik nuqtai nazardan o‘rganish uchun turli metodologiyalar tavsiya etiladi. Biroq tavsiyalar, yondashuvlar, tadqiqot usullari qanchalik xilma xil bo‘lmasin, tarix fani predmeti insondir, insonshunoslikdir. Voqelik inson orqali yuzaga kelar ekan, har qanday tarixiy jarayon inson fe‘l-atvorining, ma’naviy-ma’rifiy darajasining, ruhiy va axloqiy imkoniyatlarining hamda manfaatlarining in‘tiqosi ekan,

o'tmishga inson orqali nazar tashlash, inson mohiyatini ochish orqali tarix mohiyatini ochish ilmiy haqiqatga yaqinroq, deb o'ylaymiz.

Tarixni yaxlitligicha, bir butunligicha anglash uchun tarix predmetining butun mohiyatini anglamoq zarur. Ana shu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, tarixchining vazifasi tarixiy jarayonning asosiy belgilovchi hukmron tendentsiyasini ifoda etishdir. Chunki ma'lum bir davrda yuz bergan har qanday voqea hodisa tagida turli-tuman bir-birini rad qiladigan, bir-birini inkor etadigan qarashlar ham yotadi. Yuz bergan voqeani tan olmaydigan, uni tushunishni xohlamaydigan yoki umuman tushunmaydigan odamlar guruhi hamma vaqt hamma davrda bo'lishi tabiiy. Tarixni to'g'ri belgilash, to'g'ri baholash va to'g'ri tushunishning murakkabligi ham ana shunda. Deylik, ezgulik yo'lida, yaxshi niyatda amalga oshirilgan keng miqyosli o'zgarishlardan norozi bo'lgan, uni o'ziga qabul qilolmaydigan, ma'naviy jihatdan kemtik odamlar ham umumiy safarbarlik yo'lida jamoadan, jamiyatdan ajralib qolmaslik uchun qo'shib ketishadi, xolos. Aslida esa ular umumiy taraqqiyotga to'g'anoq, umumiy ravnaqqa to'siq bo'lib qolaveradilar. Agar tarixchi tarixga baho berishda ana shundaylarning qarashlariga e'tibor berib, ularning xulosalariga tayanib, fanga ular manfaatlari nuqtai nazaridan yondashsa, jamiyatning haqiqiy qiyofasi tarix fanida to'la-to'kis o'z ifodasini topa olmaydi.

Demak, tarix fanining predmeti inson ekan. Inson mohiyati, uning qarashlari va manfaatlari orqali har bir davrga baho berish tarix haqiqati sifatida qabul qilingan bo'lsa, xoh salbiy bo'lsin, xoh ijobiy bo'lsin, o'sha voqealar yuz bergan davrda yashagan odamlar asosiy ko'piligining maqsad va intilishlari, manfaatlari tadqiqot ob'ektiga aylanmog'i lozim.

### **Tarixiy dalil va ilmiy tahlil**

Tarixiy dalil kategoriyasi tarix fani tadqiqotchilari oldidagi eng muhim ilmiy o'lchov, ilmiy mezon hisoblanadi. Zotan, tarixiy dalilsiz tarix haqidagi tasavvurlar mavhum va fikrlar isbotsizdir. Har qanday tarixiy tadqiqot ishi, ilmiy nazariy tahlilning tarix haqiqatiga qay darajada yaqin yoki uzoqligi ana shu tarixiy dalilning mavjudligi yoki mavjud emasligi bilan bog'liq.

Dalil tushunchasi tarixshunoslik nuqtai nazaridan alohida maqomni, alohida ta'rifni, o'ziga xos qoidani talab qiladi. Darhaqiqat, tarixiy dalil tushuncha sifatida tarix fanining asosi va manbai rolini bajarar ekan, unga ilmiy-nazariy jihatdan yondashish, mohiyatidan kelib chiqib o'ziga xos ta'rif berish zarur.

Tarixchi dalil va uning o'ziga xos jihatlariga jiddiy e'tibor beradi. Jumladan, tadqiqotchining bevosita izlanishidan, manba ustida ishlashidan

maqsad katta. Chunki u ma'lum bir tarixiy jarayon, voqelik yoki hodisa haqidagi xulosalarini isbot qilish, uni inkor qilib bo'lmaydigan darajada ko'rsata bilish uchun dalilga tayanadi, dalildan najot izlaydi. Bunday holat tarixchi uchun oson kechadigan hodisa emas. U o'ziga xos murakkabliklarni, qiyinchiliklarni, dalil topish bilan bog'liq bo'lgan mashaqqatni yengishni taqozo etadi. Tarixiy jarayon, voqealar silsilasi, insoniyat ibtidosidan hozirgacha davom etib kelayotgan ulkan ajdodlar zanjirining har bir halqasini o'rganishda, uni tarixiy, falsafiy, mantiqiy, ma'naviy va ruhiy jihatdan yaxlit holda tadqiq etishda o'ziga xos dalillarga tayanishni fanning o'zi, uning metodologiyasi dolzarb qilib qo'yadi.

Tarix fani o'zining bir necha ming yillik taraqqiyot yo'lida tarixiy dalilga bo'lgan munosabatni aniqlashtirib olish uchun ancha-muncha murakkab, ilmiy tafakkur, ilmiy bilish va ilmiy xulosalar chiqarish tajribasini o'tadi. Tarix fani ibtidosida, albatta, tadqiqotchining vazifasi faqat dalil yig'ish hisoblangan. Asotirlar, rivoyatlar, afsonalar asosida tarixni tasvirlab berishdan ilk ilmiy asoslangan xulosalarga o'tish davridan boshlab tarixchining vazifasi murakkablashib boraverdi. Jumladan, u "ertaklar to'qishdan konkret voqelikni o'rganish uchun konkret dalil izlash majburiyatini zimmasiga oldi. Bu esa oson emas edi.

Asta-sekinlik bilan dalil va uning izohi o'rtasidagi ziddiyatlar, qarashlar xilma-xilligi yuzaga keldi. Zotan, har qanday tarixchi o'z nuqtai nazari, o'z qarashlari, o'z manfaati orqali dalilga yondashadi. Kimdir bir dalilning oq tomonlarini ko'rsa, boshqasi ayni ana shu dalilning qora tomonlarini ko'radi. Bunda tarix haqiqati tarozisining goh u, goh bu pallasini bosib ketib, bir yoqlama fikrlar avj oladi, tarix zamon yoki hukmron mafkura qurboniga aylanadi. Uchinchisi esa xuddi shu dalilning oq va qora tomonlarini yaxlit holda voqelik mohiyatidan kelib chiqib adolat va haqiqat tengligida tadqiq etadi. Tarix ana shu tarzda butunlay oq ham, qora ham bo'lmaydi, barcha nuqsonu fazilatlarini, yovuzligu ezguliklari bilan yaxlit holda inson fe'l-atvorining natijasi sifatida ifoda etiladi va natijada tarix haqiqati yuzaga keladi.

Tarix faning ilk taraqqiyot davrida tarixchilar mavjud reallikni izohlash yoki tushuntirishdan bosh tortdilar. Ilarning nazarida agar dalilga izoh berishsa, uni sharhlashsa, voqelikning mohiyatini ochishsa, tarix o'zining ob'ektiv mazmunini yo'qotar emish. Aslini olganda esa tadqiqotchining ilk tekshiruvidan so'ng har qanday dalil hech qachon mutlaqo betaraf bo'la olmaydi. U o'z pozitsiyasiga ega. Tarixiy haqiqat sifatida o'z hukmini qo'ldan bermaydi. Tarixchi ustidan hukmronlik qiladi, tarixchini o'ziga bo'ysundiradi. Tarixchi o'z-o'zidan dalil, hujjat quliga aylanadi va xulosalari isbotini topgani sayin o'zini erkin his eta boshlaydi.

Ayrim tarixshunoslar, xususan, jahon tarixnavisligida tarixiy dalilga reallik sifatida qarab bo'lmaydi, degan fikrni bildirishadi. Bunday qarashlarga ko'ra har qanday dalil tarixchining qarashlari va xulosalarini ma'lum bir shaklga kiritib, qolipga solib qo'yishi mumkin. Natijada uning mazmuni ham, mohiyati ham o'zgaradi. Bu, albatta, to'g'ri. Biroq har qanday tarixchi tarixiy dalil ustida ishlar ekan, uning izlanishlari samarasi dalilning qay darajada asosli yoki asosli emasligi, u tegishli bo'lgan davr mohiyatini, silsilalar ko'lamini, tarixiy jarayon va ijtimoiy-siyosiy voqeliklarni butun mohiyati bilan o'zida qay darajada aks etgani bilan bog'liq.

Amerikalik tarixshunos E. Karr xulosalariga ko'ra har qanday voqea emas, balki tarixiy ahamiyatlilarigina tarixiy dalil bo'lishi mumkin. Tadqiqoti o'zi o'rganayotgan davr to'g'risidagi ma'lumotlarning maksimal miqdorini bilishi va ularga ega bo'lishi lozim. Uning fikricha, tarix bu izoh berishdir, tarixchi va dalil o'zaro tenglik munosabatida bo'lishi lozim. Ikkovi ham o'z hukmiga ega bo'lmog'i kerak. Tarixchi xolislikka, dalil esa voqelikning asosi sifatida isbotlanganlikka ega bo'lmog'i darkor. Ana shunda kuchlar nisbati teng bo'ladi, bir-birini nazorat qiladi, natijada xolis xulosa vujudga keladi. Karr bunday holatni nazarda tutib, "Tarix – bu tarixchi va dalilning o'zaro aloqasiga bog'liq bo'lgan uzluksiz jarayon bo'lib, u o'tmish va bugun o'rtasidagi tuganmas muloqotdir", deydi. Ye. Topolskiy esa tarixiy dalillarni o'zgaruvchan yaxlit tizim sifatida o'rganib, bu tizim doimo o'zgarib, unga munosabatlar yangilanib, dunyoqarashlar kengayib borgan sari dalil orqali voqelik mohiyatining yangidan yangi qirralari ochilib borishi muqarrarligini aytadi.

Masalaning murakkab tomoni shundaki, manba ustida ishlashning o'ziga xos qiyin tomoni shu bildan belgilanadiki, ma'lum bir davrga doir ulkan hujjatlar uyumi, dalillar massasi orasidan eng dolzarbini, eng asoslisini, o'sha davr va voqelik mohiyatini to'laqonli ifoda etgan, o'zida mujassam etgan dalilni ajratib olish uchun tarixchi o'sha davr mohiyatini ilmiy nazariy jihatdan chuqur o'rganishi, uni chuqur his qila olishi, qolaversa, intuitsiya qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim. Ana shu qobiliyat orqali u dalilning muhim yoki muhim emasligini ajrata oladi. So'ng unga suyangan holda o'z tushunchasini isbot qiladi va tarixiy tafakkurning yangi bosqichini kashf etadi.

Tarixshunoslikda ob'ektiv reallik sifatidagi dalil va ilmiy dalil o'rtasidagi farqni aniqlab olish zarur bo'ladi. Ilmiy dalil – bu endi mavjud voqelikning emas, balki uning o'ziga xos shakldagi aksi yoki ifodasidir. Boshqacha qilib aytganda, ob'ektiv reallikka aylangani, rasmiy maqomga ega bo'lganidir. Demak, ob'ektiv reallikdagi dalil ilmiy reallikdagi dalilga



aylangach, u izohlar, sharhlar orqali mazmunan chuqurlashgan, mohiyatan kengaygan bo‘ladi. Ana shundan kelib chiqib tarixchi Topolskiy tarixiy dalilni ilmiy ta’mirlash yoki tadqiqotchining qayta ishlovi natijasidir, degan fikrni ilgari suradi.

Tarixiy dalilga munosabat va uni tahlil qilish usullari ham turlicha. Ana shu yondashuvlar xilma xilligidan kelib chiqib aytish mumkinki, birinchidan, tarixiy dalil hech qanday mafkuralar, qarashlar va manfaatlar qurboniga aylanmasligi, ularning ta’sirida “ta’mir” lanmasligi lozim va dalilga har qanday bo‘yoqlar surtib, uning o‘z mohiyatini yo‘qotmaslik zarur. Ikkinchidan, bugun tarixiy dalil hisoblanmagan yoki muhim hujjat sifatida qabul qilinmagan dalil ertaga butunligicha tarixiy dalilga aylanishi mumkin. Bu bir tomondan tarixiy tafakkur va tarixni anglash asnosida yuzaga kelgan ehtiyoj bo‘lsa, ikkinchi tomondan qaysidir tarixchi e’tibor bermagan dalil boshqa bir tarixchi tomonidan mohiyati ochilib, muhim bir voqelikka aylanishi mumkin. Bu ham ilmiy tadqiqotning o‘ziga xos qonuniyati. Zotan, hamma tadqiqotchi ham bir xil fikrlamaydi, bir xil ilmiy salohiyatga, bir xil nazariy tayyorgarlik va ko‘nikmaga ega emas. Ana shu ilmiy haqiqatdan kelib chiqib aytish mumkinki, ma’lum bir tadqiqotchi sezmagani muayyan dalil ustida boshqa tadqiqotchi ish olib borib, kutilmagan yangilikka erishishi mumkin.

Yana shunday hodisalar yuz beradiki, tarix fanida ma’lum bir muhim dalil o‘zoq vaqt davomida hech kimning nazariga tushmaydi. Qaysidir hujjatlar orasida qolib ketadi. Yoki boshqa bir manbalar orasida tarixiy taqdir taqozosi bilan boshqa bir hududdagi arxivlarda saqlanishi mumkin. Birmuncha vaqt o‘tgach, u tasodifiy holda yoki izchil izlanishlar natijasida yuzaga chiqib, ma’lum bir voqelik haqidagi shakllangan xulosalarni butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Tarixchi nafaqat tarixiy dalillar haqidagi bilimga ega bo‘lishi, balki ushbu ma’lumot unga nima bera olishi, bu topilgan dalil qay darajada asosli yoki asosli emasligi, tarixiy taraqqiyotda qay darajada muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi haqidagi mantiqiy-falsafiy tafakkurga ham ega bo‘lmog‘i lozim. Dalilga asoslangan ma’lumotlarning xolisligi tarixchining bilim saviyasi, dunyoqarashi, dalil ustida ishlash salohiyati bilan ham bog‘liq.

Tarixchining bilim darajasi, saviyasi har bir dalilni o‘z o‘rni bilan boshqa dalillar zanjiriga ulash, ularning uzviyligi, xronologik ketma-ketligi, voqelik mohiyatini ochishga xizmat qila olishi singari omillarga qay darajada e’tibor bermog‘i bilan ham baholanadi. Zotan, har qanday tarixiy jarayon mohiyati, tarixiy tafakkur hisob kitoblar, raqamlar yig‘indisi va ketma-ketligi, izchilligi va bir-birini to‘ldirishi bilan birga voqea va

hodisalar rivojlanishi orqali yuzaga kelayotgan harakat jarayonida o'zini namoyon etmog'i lozim.

Tarixchi M. Pokrovskiy tarixiy dalillarni to'plash, ular ustida ishlash va ma'lum bir xulosalarga kelishda, ilmiy tadqiqotlar saviyasini ko'tarish, ularning tarixiy tafakkur shakllanishidagi rolini oshirishda tarixiy dalil kategoriyasiga alohida e'tibor beradi. Qachonki dalillar o'rtasidagi haqiqiy bog'liqlik, uzviylik, bir-birini to'ldirish holati mavjud emas ekan, dalilning kelib chiqishi shubhali, ilmiy tadqiqotlar natijasi esa mavhum bo'lib qolaveradi.

Dalilning xolislik darajasi tarixiy jarayonga naqadar bog'liqligidan kelib chiqadi va ana shu bog'liqlikning mohiyatini o'rganar ekan, Pokrovskiy uni turlicha nomlaydi. Jumladan, "Muhim dalil", "Birinchi darajali dalil" va boshqalar. Uning xulosalariga ko'ra dalilni tiklash va tekshirishdagi ilk qoralama ish g'oyatda katta mas'uliyat va mehnatni talab qiladi. Yu. Frantsevning ta'kidlashicha "faqat dalillarni yig'ish bilan shug'ullanuvchi tarix fani yo'q. Biroq dalilning bahosi nima? Bu mavjud ob'ektiv bog'liqlikka asoslangan tarixiy haqiqat bilan belgilanadi", deydi.

Ayrim hollarda Frantsev xulosalariga unchalik mos kelmaydigan jihatlar ham yuzaga keladi. Bu bevosita voqealar xronikasi, ma'lum bir masalalarga doir raqamlar va sanalar to'plamini yaratish kabi "tarixchilik" bilan bog'liq. Biroq bugungi tarix fani taraqqiyoti, uning mezonlari va talablari nuqtai nazardan qaraganda bunday holatlar o'zini oqlamaydi. Tarix fani fan sifatida inson tafakkuri, fe'l-atvori, hatti-harakatining mahsuli ekan, har qanday dalil umummilliy taraqqiyotga daxldor voqelik ortidagi manfaatlar mohiyatini o'zida ifoda etmog'i lozim. Ana shunda tarixiy dalil o'zini oqlagan bo'ladi. Tarix haqiqatini va ilmiy haqiqatni buzuvchi, real tarixiy jarayonni o'z manfaatiga mos ravishda talqin qiluvchi soxta tadqiqotlarga yo'l bermaydi. Qolaversa, tarix faniga oid har qanday tadqiqot ilmiy-nazariy tahlil, aniq metodologiyaga asoslangan fikr, eng muhimi, ilmiy yangiligi va o'ta xolisligi bilan baholanadi.

Tarixiy dalilning yana bir turi bu bevosita tarixiy manba hisoblanadi. Manbalar o'z navbatida o'z davri mohiyatini birmuncha konkretroq, birmuncha aniqroq va realroq ifoda etadi. Ularning ayrimlari ilmiy asoslangan bo'lsa, bir qismi muhim hayotiy ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy tadqiqot uchun zarur bo'lgan, insoniyat tarixini o'rganishga xizmat qiladigan har qanday hujjat, qo'lyozma, adabiyot, san'at, badiiy yoki madaniy yodgorliklar manba bo'lishi mumkin. Biroq ana shu manbalar ustida ishlash alohida ixtisoslikni, alohida tayyorgarlikni, o'ziga xos qobiliyat va ko'nikmani taqozo etadi.

Tarixiy tadqiqotning muvaffaqiyati faqat bir manba ustida ishlash bilangina belgilanmaydi. U o‘zaro bir-birini boyitadigan, bir-birini to‘ldiradigan, ma’lum bir tarixiy davr haqida to‘la tasavvur beradigan turli tuman manbalar qatorida har xil olingan jihozlar, buyumlar ham xizmat qiladi. Tabiiyki, ilmiy tadqiqotda xilma-xil va keng ko‘lamli manbalardan foydalanilsa, tadqiqotchining xulosalari shunchalik ishonchli, ilmiy asoslangan, hayot haqiqatiga mos bo‘ladi. Ana shu tayyorgarlik va bilim darajasi bevosita dalillar va tahlillarning sintezi sifatida tarixiy voqelik mantig‘ini ochadi, tarixiy tafakkur orqali tarixni falsafiy anglash va ifoda etish imkonini beradi.

Masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Tarixchi manbalar uyumi orasida yurib qaysi manba muhim yoki muhim emasligini ajrata olmasligi mumkin. Bu tadqiqotidan alohida bilimni, u o‘rganayotgan tarixiy davr mohiyatini qay darajada o‘rganganligini taqozo etadi. Demakki, o‘zini unga qay darajada tayyorlaganligi bilan ham bog‘liq.

Har qanday tarixchi tadqiqotchi aniq vaziyatni o‘rganmay turib, tarixiy manbaning muhim yoki muhim emasligini belgilashi qiyin. Tarixchi o‘tmishni o‘rganishi va tarixiy voqelikka xolis baho bera olishi uchun bir necha yo‘nalishlar va sohalarni bilishi, ularning imkoniyatlaridan unumli foydalana olishi lozim bo‘ladi. Jumladan:

poleografiya – ma’lumotlarni o‘rganadigan, to‘playdigan, tartibga soladigan, qadimgi qo‘lyozma manbalarni rasmiylashtiradigan soha;

sfragistika va geraldika – turli davrlarga, podsholiklar va xoqonliklarga xos bo‘lgan muhr va tamg‘alarni o‘rganadigan soha;

diplomatika – rasmiy hujjatlar, turli yozishmalar, xabar almashuvlar haqidagi ma’lumotlarni, ularning to‘g‘ri yo noto‘g‘riligini tadqiq etadigan yo‘nalish;

epigrafika – ustki yozuvlar, lavhalar, bezaklar, osori atiqalar peshtoqlarida, yodgorlik toshlarida bitilgan hamda turli mozaika shaklidagi naqshbop yozuvlarni, san’at namunasi bo‘lgan bitiklarni tadqiq etish;

xronologiya va metrologiya – tadqiqot ob’ekti sifatida qabul qilingan xalq, mintaqa, mamlakatga xos bo‘lgan o‘lchov birliklarini o‘rganadigan soha;

arxeografiya – kitobat, noshirchilik, qo‘lyozmalarni bezash va ko‘irish, nusxasini ko‘paytirish, xattotlik san’ati bilan bog‘liq bo‘lgan manbalarning nashr etilishi qoidalarini tadqiq etadigan soha va boshqalar.

Har qanday tarixiy manba, qay darajadaliqidan qat’i nazar, ulkan tarixiy yodgorlik hisoblanadi va u o‘z davrining mohiyatini o‘zida aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, manba o‘zida tarixiy, ijtimoiy, siyosiy

va ma'naviy voqelikni mujassam etadi. Zotan, har qanday manba o'z davrining mazmuni va hukmron g'oyalar mohiyatining ko'zgusidir.

Haqiqiy hayot hamisha har qanday dalil, hujjat yoki manbadan ko'ra kengroq mazmunga ega bo'ladi. Hayotning serqirraligi, tafakkurning cheksizligi, voqelikka munosabatning turlichaligi, fikrlarning xilma-xilligi butun ko'lami bilan bir manbaga joylashishi mumkin emas. Shuning uchun ham manba ustida ishlash jarayonida mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayon, uning oqibatida yuzaga kelgan voqeliklar hamda uning mantig'i, mazmuni va mohiyati manbadan ko'ra kengroq ekanligini nazarda tutib, uning qanchalik to'liq bo'lmasin nisbiy ekanligini ham unutmash lozim. Faqat manbalar atrofida fikr yuritish bilangina tarix haqiqatini tiklab bo'lmaydi va tarixiy tafakkurni shakllantirish bir yoqlama bo'lib qolaveradi. Ana shu holatdan kelib chiqib Ye. Topolskiy tarixchining tadqiqot ishlarini quyidagi tartibda olib borishni taklif qiladi:

- tadqiqot doirasini tanlash;
- masalalarning dolzarbligini ajratish;
- manbalarni muammolarni tadqiq qilish uchun to'plash;
- manbadan olingan ma'lumotlarni o'qish va o'zlashtirish;
- tashqi tanqid;
- ichki tanqid;
- manbada o'rtacha ma'lumotga ega bo'lmagan dalillarni tiklash;
- yuqoridagining aks holati;
- dalillar o'rtasidagi bog'liqlik sababini aniqlash;
- qonuniyatlarni tiklash;
- tadqiqotchi savollariga javob topishi;
- tarixiy dalillar bahosi.

Demak, tarixiy dalil va ilmiy tahlil tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lgan, bir-birini to'ldirib boradigan yaxlit jarayon. Tahlil jarayoni bevosita ilmiy tafakkur, fikrlash va anglash orqali tarixiy, mantiqiy, antropologik, geografik, demografik hamda falsafiy qarashlar umumlashmasi sifatidagi mushohadalar tizimidir. Ana shu yaxlit tizim mohiyati, ilmiy asoslanganlik darajasi tarixiy dalil, tarixiy voqelik yoki hodisalar mohiyatini nechog'li tushunish va xolis baholash bilan bog'liq.

### **Tarixiy dunyoqarash va tarix falsafasi**

Dunyoqarash – bu dunyoni yaxlitligicha anglash, uning sirsinoatini qaysidir darajada tushunish, shaxsning ana shu olam ichra o'zini anglab yetishga harakat qilgan holda haqqoniylikni ma'naviy ma'rifiy va amaliy jihatdan idrok qilishining natijasidir. Boshqacha qilib aytganda, dunyoqarash insonning atrof-muhitga munosabati, hayotdagi o'рни va

pozitsiyasi, insonlik mohiyati, odam va olam haqidagi qarashlari in'ikosidir. Inson mavjudligini, ma'no va maqsadlarini aniqlash, insonning borlig'i, uning yashash mazmuni va mohiyatini o'rganish, shu asosda kishilik dunyosiga baho berishga intilish tarixiy-ijtimoiy dunyoqarashning asl mohiyatini belgilaydi. Tarixiy dunyoqarash esa kishilik o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan, uni o'rganish jarayonida yuzaga kelgan qarashlar tizimidir.

Aslini olganda har qanday dunyoqarashda ijtimoiy hayot mohiyati ufurib turadi. U ayni ana shu ijtimoiy hayot orqali oziqlanadi, rivojlanadi va kamolotga yetadi. Dunyoqarash har bir insonning o'ziga xos imkoniyati, biologik, fiziologik, irsiy, ruhiy va ma'naviy kamolot darajasi, aqliy imkoniyatlari doirasida bo'ladi. Alohida shaxslarning dunyoqarashi orqali yaxlit jamiyat dunyoqarashi vujudga keladi va u ijtimoiy madaniy hayotni harakatlantiruvchi kuch sifatida o'zini namoyon etadi. Ana shu dunyoqarashlar uyg'unligi asosida ijtimoiy fikr va yaxlit jamiyat tafakkuri shakllanadi hamda uning qatlarida u yoki bu tarixiy davrning ruhiyati, mohiyati, mazmuni, o'ziga xos dunyosi aks etadi. Tarixiy dunyoqarash ijtimoiy fikr orqali ijtimoiy hayot va jamiyat tarixiy taraqqiyoti, uning bosqichlari haqidagi tasavvurlar asosida vujudga keladi.

Dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u odam va olam, inson va tabiat, alohida individ va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, qarashlar va yondashuvlarni o'zida mujassam etadi. Jamiyat miqyosida esa ijtimoiy fikr sifatida umumlashgan tasavvurlarning ko'lamini va mohiyatini o'zida ifoda qiladi.

Har qanday davrda vujudga kelgan dunyoqarash, albatta, tabiiy ravishda qaysidir darajada dunyoning yaratilishi, uning rivojlanish omillari, sir-sinoati, unda insonning paydo bo'lish va shakllanish omillari, insonning mo'jizaviy olami kabi muammolar atrofidagi dastlabki tasavvurlarga borib taqaladi. Ana shu holatda o'z o'zidan insonda tarixga qiziqish, tarix mohiyatini bilishga intilish ehtiyoji yuzaga keladi. Bu bevosita tarixni va insoniyat taraqqiyoti bosqichlarini falsafiy idrok etish, falsafiy tushunish va falsafiy xulosalar orqali mantiqiy xulosalarga kelish imkonini beradi.

Ba'zi hollarda dunyoqarash tashqi dunyoning yaxlitligi, uning bir butunligi va bu dunyoni sevinchu iztiroblari, ezguligiyu yovuzliklari bilan yaxlitligicha anglash bilan bir qatorda insonning tabiiy va ijtimoiy imkoniyatlari, genetik jihatdan fikrlashga qodir bo'lgan jonzot sifatida tarixiy realliklarga ham yo'naltirishi mumkin. Ana shu shaklda ilk mifologik dunyoqarashdan tortib to bugungi shakllangan falsafiy dunyoqarashgacha bo'lgan uzluksiz, tadrijiy, doimiy o'zini o'zi boyitib, to'ldirib borayotgan insoniyat aqli va zakosining mo'jizasi sifatida o'zini

namoyon etayotgan dunyoqarashlar davomiyligi, vorisiyligi, shajaralarining uzviyligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Dunyoqarashlarning xilma-xilligi, ularning asosli yo asosli emasligi doimiy munozara maydoniga aylangan. Ana shu holatdan kelib chiqib insoniyat hamisha tasavvurlar va dunyoqarashlarning qay darajada real yo norealligi, ularning to'g'ri yo noto'g'riligi to'g'risida fikrlaydi. Har qanday dunyoqarash bir vaqtning o'zida ham ilmiy, ham noilmiy bo'lishi mumkin. Shu bilan birga unga ijtimoiy yo'nalishi, mohiyati va mazmuni, qadru qimmatini yuzasidan ham baho berishimiz mumkin. Bu holatga, ayniqsa, insoniyat o'tmishi, taraqqiyoti, rivojlanish omillari, uning evolyutsion bosqichlari xususida fikr yuritganda alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi.

Tarixning mazmun mohiyati xususidagi fikr mulohazalar uni falsafiy idrok etish bilan birga ma'naviy madaniyatning turli shakllarida namoyon bo'lishi, dunyoni yana ham chuqurroq anglash, xususan, inson olamini butun kengliklari va qirralari bilan tushunish predmetiga aylanmog'i lozim. Tarixiy dunyoqarashning ilmiy, dunyoviy falsafa kategoriyasi sifatidagi mavqei unda inson qay darajada aks etgani, aniqrog'i, tarixiy jarayonga qay darajada ishtirok etganini ifodalagani bilan belgilanadi. Ana shu holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, tarix alohida xalqlar, millatlar bo'ladimi yoki umuminsoniyat taqdiriga daxldor bo'ladimi, taraqqiyotning yaxlit jarayoni sifatida yaratilishi bilanoq uning mohiyatida dunyoviy mazmun paydo bo'ladi.

Tarixni falsafiy anglash, uni dunyoqarashlar va tafakkur asosida tushunish, mushohada etishning muhim xususiyatlaridan biri uning nazariyligi, falsafiy idrok va mantiqiy xulosaga asoslanganligidir. Bu tarixiy tafakkur orqali shakllangan tarix falsafasi fanining tabiatidan kelib chiqadigan hodisa. Chunki falsafa dunyoviy muammolarni nazariy mushohadalar, muhokamalar, munozaralar orqali hal qilar ekan, tarixiy jarayon tahlili natijasida tarix falsafasi paydo bo'ladi. Shuning natijasida yuzaga kelgan o'z xulosa va umumlashmalarini mantiqan asoslab beradi. Ana shu asosda, demak, ma'lum bir davr, tarixiy jarayon yoki voqea va hodisalar tarix fani nuqtai nazaridan o'rganilib, uning atrofida mushohada qila boshlashning o'zi tarix falsafasining debochasidir.

Tarix falsafasi falsafaning keng ma'noda insonning ma'naviy, axloqiy, ruhiy va his-tuyg'ulari asosidagi ko'nikmalari orqali olamni idrok etish, tarixiy voqelikni ilmiy anglashdagi va uni amaliy-ma'naviy o'zlashtirishdagi o'ziga xos ilmiy bilimlar tizimidir.

Dunyoni anglash va tushunish, olam rang-barangligini va butun mohiyatini idrok etish shakllari ichida faqat tarix falsafasigina tarixni anglash masalasiga nazariy jihatdan yondashadi. U tarix fani orqali ma'lum

bo‘lgan insoniyat taraqqiyoti jarayonlari haqidagi bilimlarni, qadr-qimmatini, ma’naviy-axloqiy va amaliy natijalarini tadqiq etadi va yetarli falsafiy xulosalarga keladi. Tarixni anglashning ana shunday sof insoniy mohiyati xususida gapirar ekan, M. Mamardashvili tarix falsafasi va tarixni o‘rganish muammolari haqida fikr yuritib, “Dunyoning yaratilishi va tarixning mazmuni inson mohiyatining bir qismidir. Inson mohiyati esa uning inson sifatida shakllanishidadir, inson bo‘lmog‘idadir”, deydi.

Demak, o‘tmishni o‘rganishga daxldor bo‘lgan tarixiy bilim falsafiy mushohada orqali dunyoning yaratilishi, kishilik olamining ibtidosi va bu uzundan uzoq tarixning sir-sinoatini inson mohiyati orqali ochish bilan o‘z maqomini egallaydi va tarix falsafasiga aylanadi. Insoniyat dunyosining, kishilik jamiyatining mohiyati esa alohida alohida individlarning inson sifatida qay darajada shakllanganligi, aniqrog‘i, bu cheksizlikdagi shakllanish bosqichlarida yashagan odamlarning qay darajadagi inson ekanligini o‘rganish va asosli baholash bilan bog‘liq.

Insoniyat tarixi va uni falsafiy idrok etish borasida gapirar ekanmiz, tarixning mazmuniga insonning mohiyati, uning an’anaviy uzviyligi, davomiyligi va istiqbol bilan bog‘liqligi nuqtai nazaridan yondashmog‘imiz lozim. Ayni tarix mohiyati “o‘tmish – bugun – istiqbol” formulasining falsafiy mantiqiy yechimini nechog‘li topganimiz bilan bog‘liq. Shuning uchun ham ushbu muammoga e’tibor bergan donishmandlarning xulosalarida u yoki bu davrning his-tuyg‘ulari, ehtirolari, boshqacha qilib aytganda, qalb harorati ufurib turadi.

Demak, tarixchi ma’lum bir davr yoki umuman insoniyat tarixi haqida gapirar ekan, o‘z taassuroti, dunyoqarashi, o‘z tushunchasi va o‘ziga xos tahlil qilish darajasi nuqtai nazaridan baho beradi. U tarixiy voqelikni o‘z aqliy imkoniyati doirasida tushunadi. O‘z mushohada maydoni orqali anglaydi va shunday bayon etadi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda bizning xulosalarimizga ham ayni bir shaxsning o‘z nuqtai nazari, o‘z xulosalari deb qarash mumkin. Albatta, ayni shu munozarada boshqa odam masalani boshqacha qo‘yishi, boshqacha idrok etishi, boshqacha tasavvur qilishi va uning yechimini topishda boshqacha yondashishi hamda o‘z xulosalarini boshqacha ifodalashi mumkin.

Ana shu holatdan kelib chiqib, umuman insonning aql-idroki tarix mohiyatini butun yaxlitligicha anglay olarmikan, uning bir butunligiga va shaklan xilma-xilligiga, qarama-qarshiliklarga, ziddiyatlarga boyligiga, mohiyatining betakror va rang-barangligiga nimalar asos bo‘lishi mumkin, tarixning gumanistik, ijtimoiy mazmuni va yo‘nalishi nimalardan iborat, degan ko‘pdan-ko‘p savollarga to‘la-to‘kis javob bera oladimi, degan muammoga duch kelamiz. Afsuski, bu muammo haliberi o‘z yechimini

topgani yo‘q va bundan keyin ham muammoligicha qolsa kerak. Chunki tarix mohiyati inson va hayot kabi shu darajada keng, shu darajada xilma-xil va rang-barangki, u ba‘zan mazmunan bir-birini inkor qiladigan, bir-birini rad etadigan hissiyot va tuyg‘ular olamiki, uni busbutunligicha anglash va unga qat‘iy ta‘rif berish amri mahol. Biroq uni butun ko‘lami, salmog‘i va mohiyati bilan anglashga intilish yuksak ma‘naviy ehtiyojdir, insoniyat istiqboli va taraqqiyotining manbaidir.

Har qanday sharoitda ham tarixni anglashda uning tashkilotchisi va faol ishtirokchisi, boshqacha qilib aytganda sub‘ekti bo‘lgan inson qobiliyatini, aql-zakovati, intellektual imkoniyatlarini va umuman yaxlit olganda insoniy qadriyatlarini bilish uchun va unga xolis baho berish uchun fikrga aylanayotgan qarashlar to‘g‘ri asoslangan negiz tufayligina shakllanishi mumkin. Ana shunday fikr va xulosalar inson orqali tarixiy jarayonlarning gumanistik mohiyatini, muminsoniy qadriyatlarini va yo‘nalishlarini birmuncha qamrab olmog‘i mumkin.

Yaxlit insoniyat tarixini o‘rganish xususida gap borar ekan, u eng avvalo turli madaniyatlarning o‘zaro ta‘siri va aloqadorligi tufayli yuzaga kelganligini inobatga olish orqali mohiyatini ochish mumkin. Ushbu ilmiy haqiqat esa makon va zamondagina o‘z ifodasini topadi. Chunki har qanday zamonda, har qanday makonda ma‘lum bir hududda shakllangan, o‘z hududi taraqqiyoti, ijtimoiy hayot ehtiyojlari nuqtai-nazaridan vujudga kelgan qarashlar, manfaatlar va ularni o‘zida ifoda etgan yaxlit madaniyat dunyoga keladiki, tarixni o‘rganish va anglashda unga e‘tibor bermaslikning iloji yo‘q.

Bugungi kunda insoniyat iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy ehtiyojlar mushtarakligi va o‘zaro daxldorligi tufayli yaxlitdir. Lekin bu umumiy dunyoviy birlik, birinchidan, darrov o‘zicha dunyoga kelgani yo‘q. U ko‘p asrlik, balki ko‘p ming yillik tarixiy taraqqiyotimiz in‘ikosidir. Ikkinchidan, bu tarixiy birlik ostida har bir xalq, har bir davlat, qolaversa, har bir mintaqa milliy manfaatlarining ustuvorligi ham borki, bunga alohida e‘tibor bermoq lozim.

Demak, bugungi sivilizatsiya, XXI asr taraqqiyoti nuqtai-nazaridan ehtiyojga aylangan dunyoviy integratsiya ayni paytda ham umumiy va ham xususiy mohiyatga ega. Undan har bir xalq, har bir davlat, har bir jamiyat o‘zicha manfaatdor. Dunyo yaxlit olganda umumiy manfaatlar uyushmasidir. Agar u aksincha mazmun kasb etib, manfaatlar to‘qnashuvi olamiga aylanadigan bo‘lsa, bu endi yangi davr sivilizatsiyasining tanazzuli bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyat xatarli ijtimoiy-tarixiy hodisadir.

N. Konrad “Insoniyat tarixi – bu qandaydir jonsiz jarayon emas. U judayam konkret holda o‘z tutumiga ega bo‘lgan alohida xalqlar



faoliyatining birlashuvi bilan shakllanadi. Lekin shu bilan bir vaqtda ko‘pincha tarixiy jarayonlarning mazmuni bitta xalqning tarixiga taalluqli bo‘lib ko‘rinsada, u tom ma‘noda faqat umumbashariy tarix tufayligina ochiladi”, deydi.

Ushbu fikrni anglashda insoniyat bosib o‘tgan bir necha ming yillik tarixiy yo‘l, tarixiy hodisalarning mazmuni yordam beradi va uning isbotiga aylanadi.

Tarixning mazmun mohiyati bevosita tarixiy borliq va falsafiy-mantiqiy mushohadalarning qay darajada shakllanganligi orqaligina umum-insoniyat yutug‘iga yoki umum-insoniy qadriyatga aylanadi. Umuman olganda mavjudot sifatida inson olami o‘tmish bilan aloqadorlikni his qilish, bugungi kun xususida qayg‘urish va kelajakka doimiy ehtiyoj bilan intilish kabi izchil va tadrijiy jarayondir. U ana shunday tarixni anglash kabi murakkab ma‘naviy-axloqiy, ma‘rifiy-ruhiy jarayonda o‘zini namoyon etadi, iroda kuchini ko‘rsatadi va undan tegishli xulosalar chiqarish orqali istiqbol mohiyatini anglaydi. Har qanday individ o‘ziga xos bo‘lgan ijtimoiy hayot, o‘z manfaatlariga to‘g‘ri keladigan jamiyat quradi. Ana shu jihatdan olib qaraganda tarixni anglashda, unga baho berishda ham o‘z aql-zakovati va dunyoqarashi orqali yondashadi. Demak, tarixga to‘g‘ri baho berish uchun eng avvalo inson tom ma‘nodagi insonga aylanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, komil inson bo‘lmoq bu o‘tmish, bugun va kelajak bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yaxlit va zaruriy ehtiyojdir.

Aslini olganda tarixiy bilimlarning falsafiy salmog‘i ham xuddi ana shunda. Umumbashariy tarix mohiyati bilan bog‘liq holda har bir tarixiy jarayon, tarixiy hodisa va voqealarni tafakkur orqali ko‘ra olish bu falsafiy mushohada qilmoq demakdir. Tarix falsafasi bilan shug‘ullanadiganlar uchun esa tarixning mazmunini mushohada qilishdan ham ortiqroq murakkab ish yo‘q. U tarixiy bilimlarni umuminsoniy qadriyatlar orqali rivojlantirib, insoniyat tarixi xususidagi o‘ziga xos qarashlarni ilgari suradi.

Tarixiy taraqqiyot bosqichlarini va umuman insoniyat tarixini o‘rganish jarayonida hozirgacha mavjud bo‘lgan qoliplar va me‘yorlarga tayanish ilmiy taraqqiyot yo‘lini to‘sib qoladi. Falsafiy mushohadalarni cheklab, fikriy mahddilikka olib keladi. Demak, har qanday zamonda tarixiy jarayonga munosabatda hozirgacha mavjud bo‘lgan fan yutuqlari dinamikasidan, uning rivojlantirish tendentsiyasidan va natijalaridan kelib chiqib, mavjud xulosalarni rivojlantirish bugungi fan taqozosidir.

Umumbashariy tarixiy jarayonlarning yaxlit interpretatsiyasi doimo tadrijiy ravishda fikrlar izchilligini taqozo etadi. Ana shu holatdan kelib chiqib tadqiqotchi tarix manzarasini chizar ekan, uning atrofida mushohada qilar ekan, mavjud nazariy kontseptsilar bilan qiyoslab, o‘tmishning

noma'lum jihatlarini, ochilmagan qirralarini ochmog'i va uni falsafiy tafakkur orqali ifoda etmog'i lozim. Natijada ba'zi bir hollarda tarixning mazmuni kengayib, uni yangicha tadqiq etish orqali ayrim eskirgan, mohiyatini yo'qotgan qarashlarga nuqta qo'yilsa, boshqa bir ilg'or qarashlarning rivojlanishiga, asosli ravishda taraqqiy topishiga zamin yaratiladi. Tarixni anglash va insoniyat tarixini o'rganish jarayonida falsafa o'zini butunlay globalligi bilan tarixchi-tahlilchi rovida o'zini namoyon qiladi. Umumbashariy, alohida mamlakat yoki xalqlar tarixi muammolari bilan shug'ullanishdan qat'iy nazar faylasuf va mutaxassislar o'rtasida o'zaro fikriy yaqinlik, qarashlararo integratsiyaning yangi shakllari vujudga keladiki, bu bevosita tarixiy bilimlar darajasining yangi ufqlarini ochib beradi.

Lekin har qanday tadqiqotchi qanchalik o'z shaxsiy tarixiy tafakkuri, g'oyalari va umumlashmalariga ega bo'lmasin, faqatgina gnoseologik, nazariy-metodologik asoslarga suyanib qolmasdan, qadriyatlar tizimi va umuminsoniy sivilizatsiyalar mohiyatidan kelib chiqib fikrlashi lozim.

Milliy falsafa milliy tafakkurni, milliy dunyoqarash, fe'l-atvor va ruhiyatni o'zida mujassam etadi. Zotan, milliy tarix ham mohiyatan xuddi shunday. Milliy tafakkur esa milliy an'analar, milliy madaniyat darajasiga ko'tarilgan turmush tarzi, aqidalar va g'oyalar in'ikosidir. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda o'zbek milliy falsafasi bu yaxlit milliy fenomenga aylangan, ming yillar mobaynida shakllangan uzluksiz ijtimoiy taraqqiyot va tarixiy bosqichlar mazmun-mohiyatidan kelib chiqadi. Keng ma'noda esa falsafa madaniyatning yuragi. U inson qalbi singari real hayotga, ijtimoiy voqelikka nisbatan ruhiy-amaliy fe'l-atvorlarning, hatti-harakatlarning natijalarini qayd qiladi. Uning atrofida mushohada yuritadi, fikrlaydi, quvonadi yoki iztirob chekadi. Ana shu jarayonning yaxlit, shakllangan, xulosalangan darajasi falsafiy mohiyatdir. Agar tarixga, aniqrog'i, uning mohiyatiga ana shu nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, tarix faqat inson hatti-harakatlarining, manfaatlarining natijalari, ob'ekti jarayongina emas, balki qadriyatlar mohiyati darajasiga ko'tariladi.

Insoniyatning davomiyligi va bu shajaraning uzluksizligi avloddan-avlodga o'tuvchi madaniyatlar davomiyligini ta'minlaydi. Bu bevosita insonning o'zi yashab turgan davrdagi zamonaviy qadriyatlar majmuasiga ijodiy yondashibgina qolmasdan, o'tmishga ham murojaat qilib turishga, mavhum, sirli, sinoatli, ayni paytda shukuhli va ba'zan iztirobli madaniy-tarixiy dunyo saboqlarini olishga ehtiyoj sezadi. Ularni bugungi kun talablari bilan solishtirib, o'z istiqboli xususidagi xulosalariga aniqlik kiritadi. Ana shu holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, tarix mazmuni xususida o'ylar ekan, inson doimiy ravishda ijtimoiy shart-sharoitlarning

qadriyatlarini va dunyoviy yoʻnaltilganligini ich-ichidan his etadi va uni oʻz amaliy faoliyatida namoyon qiladi.

Bugungi dunyo muammolari va uning istiqboli xususida oʻylar ekanmiz, insoniyat yashash uchun kurash va Yer sayyorasida hayot degan oliy qadriyatni asrash yoʻllarini qidirishga har galgidan koʻra koʻproq intilayotganiga guvoh boʻlamiz. Bu bugungi dunyoning murakkab ijtimoiy-siyosiy, tarixiy jarayonlarining borishida yangicha munosabatlardan kelib chiqmoqda. Natijada ayni shu intilishlar sayyoramizda yashayotgan yetti milliarddan ortiq insonning butun manfaatlariga mos keluvchi qadriyatli, maqsadli moʻljallar mohiyatini kasb etmoqda. Bu oʻz-oʻzidan zamonaviylik, bugungi kun muammolari va istiqbol qiyofasini belgilash bilan bogʻliq boʻlgan insoniyat tarixiy taraqqiyot bosqichlarida toʻplangan tajribalarni birmuncha chuqurroq oʻrganishni ham taqozo etadi. Bu esa bugungi kunda shakllanayotgan yangicha tafakkurning miqyoslari va uning asosi boʻlgan inson hayotini saqlab qolish, shaxsning oʻzini oʻzi erkin takomillashtirishi, komillikka intilishi, demokratik hayot, madaniyat dunyosi va maʼnaviy olam taraqqiyoti, haqiqat, goʻzallik, shafqat kabi yuksak qadriyatlarni anglay olishi bilan bogʻliq boʻlmoqda. Bu bevosita turli nizo va urushlardan voz kechib, madaniyatlararo integratsiya, mamlakatlararo va xalqlararo mushtaraklik orqali tinchlik madaniyatiga erishishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda oʻtmish saboqlarini oʻrganishga ehtiyoj tobora kuchayib borayotganining oʻziga xos asoslari bor. Bu bevosita insoniyatning tarixiy tajribasini oʻrganish, hayot mantigʻini anglash bilan bogʻliq boʻlgan serqirra va murakkab jarayondir. U orqali tarixga oʻzgartirishlar kiritiladi. Qarashlar yangilanadi. Munosabatlarning yangi yoʻnalishlarini izlashga daʼvat etadi. Boshqacha qilib aytganda, tarixiy tajriba ijtimoiy dunyoni inson tomonidan maʼnaviy, maʼrifiy, ruhiy, amaliy oʻzlashtirish va bilishning yangi bosqichini ochib beradi. Natijada nafaqat bilimlar, balki qadriyatlar haqidagi tasavvurlar ham oʻziga xos shakllanish jarayonini boshidan kechiradi.

Mutaxassislarining xulosalariga koʻra oʻtmishni anglashga doir falsafiy bilimlar va qadriyatlar bevosita tarixiy hodisalarni kuzatish, ularni tahlil etish va zarur xulosalar chiqarish natijasida yuzaga keladi.

Tarixiy tajriba, tarixiy jarayonlardan chiqariladigan xulosalar faqatgina bilimlar va qadriyatlar standarti boʻlibgina qolmay, shu bilan birga dunyoni amaliy jihatdan oʻzlashtirish jarayonida ham maʼnaviy qudrat vazifasini bajaradi. Natijada insonning yaratuvchilik, bunyodkorlik imkoniyatlari kengayadi, aniqrogʻi, uni ruhlantiruvchi, ilhomlantiruvchi, daʼvat etuvchi vosita rolini bajaradi.

Biroq tarixiy tajribaga va jarayonlarga yondashuvlar turlicha bo'lishi mumkin. Ularni har kim o'zicha qabul qiladi va o'zicha xulosaga keladi. Bu yaxlit olganda insoniyat o'tmishi haqidagi tarixiy bilimlar, jumladan, tarix falsafasi ham mutlaq haqiqat yoki yakunlovchi xulosa emas, balki nisbiy, vaqt o'tgani sayin tizimli tarzda rivojlanib, takomillashib boradigan uzluksiz jarayondir. Ana shu holatdan kelib chiqib, M. Baxtin «Yaxlit, umumiy, yagona mazmunning o'zi bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham birinchi ham oxirgi mazmun bo'la olmaydi. U doimo mazmunlar orasida mazmuniy zanjirning bir halqasi va faqat u yaxlit holdagina reallikka aylanadi. Tarixiy hayotda bu zanjir kundan kunga o'sib boradi va shuning uchun ham uning har bir halqasi bamisoli yangidan dunyoga kelgandek almashinib turadi», degan xulosani ilgari suradi.

### **Tarix va hermenevtika**

Hozirgi dunyo tarixni o'rganishda yangicha qarashlarni taqozo etmoqda. Insoniyat tarixini hozirgi sivilizatsiya talablari nuqtai nazaridan baholash, o'tmishga bugungi kun ehtiyoji bilan qarash zaruratga aylandi. Bu bejiz emas. Zotan, yangi yuz yillik, yangi ming yillik insoniyat tarixining yangi davrini – kutilmagan ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi ayovsiz kurashlarning yangi bosqichini boshlab bermoqda. Bu bevosita dunyoviy tafakkurning tobora shakllanib borayotganligi, insonning hayot falsafasi keskin yangilanayotgani bilan bog'liq bo'lgan keng miqyosli, global ahamiyat kasb etayotgan ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy jarayonni qamrab oladi.

Falsafa tafakkur mahsuli sifatida ayni ana shu jarayonlarning inson aql-idrokidagi in'ikosi yoki aksincha, yangilanayotgan olam ta'sirida o'zgarayotgan, yangilanayotgan qarashlarining mahsuli o'laroq yangicha tafakkur tarzi dunyoga kelmoqda.

Ehtimolki, bu Arnold Toynbi «XX asrda yalpi jahon tarixi boshlanadi», degan mashhur da'vatining yangi yuz yillik ostonasidagi amaliy ifodasidir. Darhaqiqat, bugungi dunyo «umumiy xonadon», «umumiy makon» taqdiri bilan bog'liq holda insoniyat kelajagiga daxldor bo'lgan intilishlar, maqsadlar va manfaatlar integratsiyasini vujudga keltirmoqda. Bu bevosita jahon tarixini o'rganishning yangi davrini, yangi bosqichini boshlab bermoqda. Demak, xalqlar, mamlakatlar tarixi tobora daxldorlik, bir-biriga bog'liqlik kasb etmoqda. Har qanday millat yoki makon tarixiy taqdiri global mohiyat kasb etmoqda va umumplanetar jarayon sifatida umum-sayyoraviy hayotning yalpi mazmuniga aylanmoqda.

Umuman olganda G'arb falsafasida asosan ikki yo'nalish mavjud bo'lib, birinchisi – olamni anglash va uni tushuntirishda tafakkur

imkoniyatlaridan foydalanish, dunyoni ratsional talqin etish va u haqdagi tasavvurlarni ilgari surish bo'lsa, ikkinchisi – inson hayoti, uning mazmuni, insonning iroda qudrati, mavjudligi, mohiyati va boshqa fazilatlarni o'zida mujassam etgan qadriyatlar tizimi haqidagi qarashlardir.

Aslini olganda bunday qarashlar garchi bir-biriga zid bo'lsada parallel ravishda takomillashib, bir-birini to'ldirib, bir-biriga ta'sir ko'rsatib bormoqda. Ratsionalistik va irratsionalistik oqimlar deb nomlanadigan falsafiy fikr yo'nalishlari ana shu tarzda rivojlanib bormoqda. Bu tabiiy hol. Chunki har qanday taraqqiyot qarashlar to'qnashuvi, fikrlar xilma-xilligining in'ikosidir.

Insoniyat tarixiga yondashishning va uni falsafiy idrok etishning hozirgi zamon usullaridan biri hermenevtik tafakkur tarzidir. Falsafiy atama sifatida hermenevtika atamasini atoqli nemis faylasufi Hans – Georg Gadamer fanga olib kirdi. U olamni falsafiy anglash, dunyoni falsafiy idrok etish orqali insoniyat tarixini baholash va uni anglashda o'ziga xos yo'nalishni boshlab berdi. Zotan, tarixni hermenevtik falsafiy talqini bu bevosita o'tmishni talqin qilish, anglash qobiliyati darajasi sifatida qabul qilinadi. Gadamer hermenevtika falsafasining predmetida tarixiy voqelikni tushunuvchi – tadqiqotchi aniq dalillar va umumiy tasavvurlar yig'indisidan iborat bo'lmay, insoniyatning universal bilimlari orqali shakllangan matnni anglash, mohiyatiga kirib borish, falsafiy-mantiqiy, ma'naviy-axloqiy tushunchalar, ruh va hissiyot asosiy o'rin tutadi.

V. Dilte tarixni hermenevtik talqin etishda o'ziga xos yondashadi va boshqacha g'oyani ilgari suradi. Uning xulosalariga ko'ra tarixni tushunishning asosiy muammosi uning mohiyatini intuitiv holda his qilishdir. Albatta, har qanday insonda qaysidir darajada intuitsiya – his qilish qobiliyati bo'ladi. Faqat insongina intuitsiya orqali his qilingan ruhiy holatni fikrga, tasavvurga aylantira olish imkoniyatiga ega. Faqat ugina olamni tushunishda, voqea hodisalarni talqin etishda, qandaydir xulosalar chiqarishda va bashorat qilishda intuitsiya imkoniyatlaridan foydalana oladi. Ana shunday qobiliyat tarixchi uchun muhim fazilat, imkoniyat hisoblanadi. Zotan, tarixchi tarixiy jarayonlar sabablari va oqibatlarini prognozlashda intuitsiya imkoniyatlaridan, his qila olish qobiliyatidan foydalanadi.

O'tmish haqidagi tasavvurlar ham har kimda har xil bo'ladi. Bu tasavvurlar hamda tushunchalar intuitiv imkoniyatlar orqaligina vujudga keladi. V. Dilte ayni ana shu holatni bo'rttirib ko'rsatadi, ijtimoiy hayot va tarixiy jarayonlarni tushunishda, jamiyat qonuniyatlarini, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni, voqea va hodisalarni talqin qilishda intuitsiya yetakchi rol o'ynaydi, degan xulosaga keladi. Natijada «Jamiyatga tegishli dalillarni

bilishni faqat ichki holatimizdan o'tkazib, faqat o'z holatimizdek qabul qilish asosida tushunishimiz lozim. Tarixiy dunyoni muhabbat va nafrat orqali, hissiyotlarimizning ishtiyoqli o'yini orqali mushohada etamiz. Tabiat biz uchun soqovdir, u bizga begona, u bizdan tashqaridadir, jamiyat bizning dunyoimizdir», deydi.

Darhaqiqat, tashqi olam, jumladan, tabiat jamiyat tarixiy jarayonlaridan, xususan, inson olamidan tashqaridagi hodisadir. U bizning olamimizdan boshqa olam. Jamiyat esa biz o'z qo'limiz bilan yaratgan voqelik, o'z dunyoqarashlarimiz, ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy imkoniyatlarimiz mahsulidir. Jamiyat bizning turmush tarzimiz, hayotdagi o'rnimiz, qarashlarimiz va qadriyatlarimizning natijasidir. Ayni ana shu ijtimoiy hayotdagi barcha voqealar, hodisalar bizning qalbimizdan o'tgan, ruhiyatimiz singgan, fe'l-atvorimiz orqali vujudga kelgan ijtimoiy hodisadir. Demak, insoniyat tarixini o'rganishda, matn ustida ishlashda Dilte aytganidek, muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik tuyg'ularini o'zida mujassam etgan inson va jamiyat orqali yondashib, uning mohiyatini anglashimiz mumkin.

Gadamer jamiyat mohiyatini tushunish va tarixni talqin qilishda tarixiy tushunish ideali bilishda emas, balki umuman insonlar qanday rivojlanmoqda, xalqlar qanday taraqqiy etmoqda, davlat qanday o'zgarmoqda, bularni to'laqonli tushunish uchun nimaligini anglash zarur, jamiyat qanday shakllanayotganini aniqlash kerak, degan xulosani o'rtaga tashlaydi.

Darhaqiqat, tarixni anglash, uni bugun mohiyati bilan tushunish bu tarix haqidagi ayrim ma'lumotlar, raqamlar va sanalar yoki qaysidir tarixiy dalillardan xabardor bo'lishgina emas. Tarixni anglash, bizningcha, kelajak haqidagi tasavvurlar qanchalik cheksiz, qanchalik chegarasiz va mavhum bo'lsa, o'tmish haqidagi tasavvurlarimiz ham, qanchalik manba va dalillarga ega bo'lmaylik, o'sha davr kishilarining qarashlari, maqsad va intilishlari, ular qurgan jamiyat qonuniyatlari oldida cheklangan, sirli-sinoatli, mavhum va nisbiydir. Ana shu jihatdan qaraganda tarixga munosabatda kishilik o'tmishi butun mohiyatini, ko'lami va salmog'ini, sevinch va iztiroblarini his qila olmoq zarur. Bu, Gadamer ta'kidlaganidek, «insonlar qanday rivojlanmoqda, xalqlar qanday taraqqiy etmoqda, davlat qanday o'zgarmoqda», degan savollarning butun mohiyatini tushunish, uning ildizlariga yetish va jarayonlarni, voqeahodisalarni qalbimizdan o'tkazib chuqur, butun ko'lami bilan his qilishimizni taqozo etadi.

Inson tafakkurining evolyutsion rivoji, tasavvurlarining dinamikasi hamma vaqt fan taraqqiyotining yangi bosqichlarini ochadi. Jumladan, tarixni tushunish va tarixni anglashda ham ijtimoiy-gumanitar fanlarning

(Gadamercha aytganda ruhiy fanlar) oʻrni va roli yana ham oshib boradi. Bir fan orqali emas, balki fanlararo integratsiya, turli yoʻnalishdagi turdosh fanlarning birbirini toʻldirib, birbirini boyitib borishi orqali inson tafakkurida jiddiy oʻzgarishlar yasash mumkin boʻladi. Ana shu holatni nazarda tutib «Fanga faqat foydalilik nuqtai nazaridan munosabatda boʻlish kerak emas, har bir bilimning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati bor. Fan oʻz chegarasini bilishi zarur. U betaraf boʻla olmaydi. Olim oʻz kashfiyoti uchun javob berishi kerak, jamiyat oldidagi masʼuliyatini unutmasligi lozim. Inson dastlab «xususiylik» haqida emas, ruhiy mavjudot sifatida «umumiylik» haqida oʻylashi kerak», deydi Gadamer.

Demak, ijtimoiy-gumanitar fanlar fan sifatida alohida alohida, mustaqil yoʻnalishga ega. Ular oʻziga xosligi, tadqiqot obʼekti va predmeti bilan birbiridan farq qilsada, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarga munosabatda befarq boʻla olmaydi. Har qanday kashfiyotchi oʻz kashfiyoti uchun, oʻz ixtirosi va bashorati uchun masuldir. Inson moddiy manfaatdorlik nuqtai nazaridan ayrim «xususiy» ehtiyojlarga ega boʻlsada, ruhiy mavjudot sifatida maʼnaviy-axloqiy va maʼrifiy jihatdan yaxlit jamiyat ehtiyojlarini oʻzida mujassam qiladi va har bir individ mohiyati ijtimoiy nuqtai nazardan «umumiylik» kasb etadi. Insoniyat tarixi esa ana shu umumiylik hosilasi sifatida dunyoga keladi.

Tarix amaliy faoliyat, kishilik hayotining natijasi ekan, unga haqqoniylik va, ayniqsa, hayotiylik nuqtai nazaridan yondashish zarur. Ana shu hayotiylikni taʼkidlar ekan, Gadamer: «Bu shunday xususiyatki, unga tashqaridan kirib boʻlmaydi. Aksincha, uni faqat ichiga kirib bilish mumkin», degan xulosaga keladi.

Darhaqiqat, hayotning ichiga kirmaguncha, uning ichki ziddiyatlarini his qilmaguncha, bu olamning oʻziga xos sirsinoatidan xabardor boʻlmaguncha uning mohiyatini yetarli darajada tushunib, anglab va unga aniq baho berib boʻlmaydi.

Hayot mohiyatini anglash, uni his qila olish, har bir kishining oʻziga xos intuitiv imkoniyatiga, quvvat hofizasiga, shavqu shuuriga bogʻliq boʻladi. Ana shu holatdan kelib chiqib Gadamer «tarixshunos bir muallif asarini oʻrganar ekan, tarixiy hodisani talqin qilar ekan, oʻrganuvchining tasavvuri, mulohazalari doimo asar mazmunini, ruhiyatini aynan aks ettira olmaydi. Talqin qiluvchi tarixiy vaziyatga kirish uchun oʻzligini bir oz unutishi lozim hamda matnning oʻziga xosligini tasavvur qilishi zarur, shunda talqinchi uchun yangi qirralar ochiladi», degan gʻoyani ilgari suradi. Demak, tadqiqotchi har qanday tarixiy manba ustida ishlar ekan, oʻz tasavvurlari va tafakkur tarzidan tashqari ayni ana shu matnning ich-ichiga kirib borishi, uning tagzaminini, butun yashirin qatlarini ochishi, kashf

etishi va uning dunyosida yashamog‘i lozim. Shundagina tarixning umumiy tafsilotlariga o‘ralashib qolmasdan, uning ich-ichiga chuqurroq kirib borishi, uning falsafiy-mantiqiy mohiyatini kengroq kashf etishi mumkin bo‘ladi.

Umuman olganda har qanday manba mohiyati va ko‘lamini intuitsiya orqali talqin etish, uni his etish alohida qobiliyat hisoblanadi. Bu, ayniqsa, badiiy ijod namoyandalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Deylik, atoqli shoir Erkin Vohidovning Gyotening «Faust» asari, S. Eseninning «Fors taronalari» turkumidagi she‘rlari tarjimasida yuksak va takrorlanmas badiiy mahorat bilan birga ayni ana shu intuitiv qobiliyatning noyob imkoniyatlari ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Mutaxassislarning fikricha, E. Vohidov «Faust»ning rus tilidagi sakkiz xil tarjimasini (she‘riy va nasriy tarjimalarni) o‘rganib, ularni bir-biriga qiyoslab, rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Intuitiv qobiliyat va his qila olish imkoniyatining kuchi shundaki, o‘zbek tilidagi «Faust» tarjimasida barcha rus tilidagilardan ko‘ra asl nusxaga – nemis tilidagi variantiga juda yaqin ekan. Xuddi shunday Yesenin she‘rlarini o‘qigan kishi uning tarjima asari ekanligini unutib, tabiiy, o‘zbek tilida yozilganday qabul qiladi.

Ana shu har ikki holat asarlar mualliflari bilan tarjimon quvvai hofizasining, badiiy-falsafiy tafakkur qudratining naqadar hamohang ekanligidan qat‘i nazar, turli davrlarda yashagan, bir-birini ko‘rmagan, bilmagan ijodkorlarning qalb tug‘yonlari, ruhiy olamining intuitiv imkoniyatlar orqali naqadar yaqinlashganini, bir-biriga mos tushganligini ko‘rsatadi.

Hozirgi zamon fanida intuitsiyaning o‘ziga xos roli, uning fenomenologik imkoniyatlari birmuncha tadqiq etilgan. Bu intuitsiyaning bevosita ijtimoiy voqelik va tarixiy jarayonlarning borishini oldindan bashorat qilish vositasi sifatida o‘zini namoyon etish jarayonini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlar tizimidir.

Ilmiy bilishda intuitsiyaning o‘rni, hissiy va mantiqiy bilishning o‘zaro doimiy ta‘siri orqali ular bir-birini to‘ldirib turadigan hodisa sifatida talqin etiladi. U uzluksiz jarayon va inson-tadqiqotchi imkoniyatlarining o‘ziga xos ko‘rinishidir. Bu hol, ayniqsa, o‘tmishni tushunish, uni anglashda alohida ahamiyatga ega.

Intuitiv bilish bevosita butun insoniyat tarixini bilishning o‘ziga xos sharti, hissiy va mantiqiy tafakkurning mohiyati shaklida vujudga keladi. Natijada bunday bilish jarayoni hissiyot va voqelikni uyg‘unlashtiruvchi kuchga, jarayonlar mohiyatini mumkin qadar aniqroq his etishdek murakkab ruhiy hodisaga yoki A. Eynshteyn iborasi bilan aytganda, «Bu keng miqyosli o‘yin samarali fikrlashning amaliy qirralariga aylanadi».



Gadamer tarixni tushunish, tarixni falsafiy anglash xususida gapirar ekan, «Tarixiy germenevtika qo‘llanilishi kerak. Hamma dastlabki fikrlar olib tashlanishi zarur, bu eng umumiy talabdir», degan fikrni ilgari suradi. Demak, tarixni tushunishda o‘sha davrda yashagan odamlarning tafakkur tarzi, turmushi, aqidalari, taomillarini chuqur o‘rganmoq lozim. Chunki ana shu unsurlar ularning yaxlitligini, borligini va mavjudligini tashkil qiladi.

Har bir tarixiy davr ayni ana shu davr odamlari dunyoqarashining mahsulidir. Bu dunyoqarash jamiyatning ijtimoiy mohiyatini o‘zida mujassam etadi. Tarixiy jarayon talqin etilganda ayni ana shu imkoniyatlar va omillar alohida inobatga olinmog‘i lozim. Demak, tadqiqotchi inson orqali ijtimoiy mohiyat, ijtimoiy hayot mazmuni tadqiqotchisiga aylanmog‘i kerak. Ayni ana shu urf-odatlar, turmush tarzi jamiyat ma‘naviy-ruhiy olamini belgilaydi. Tadqiqotchi ijtimoiy hayot mohiyatiga kirib borishi, uning ruhiy kengliklari qatlarini ochishi, tilsimini kashf etmog‘i kerak. Har qanday manba, xabar, hujjat yoki matn bilan ishlashda uning to‘g‘ri-noto‘g‘riligi, salbiy yoki ijobiyliigi, qanday manfaatlar yo‘lida yaratilganligiga alohida e‘tibor bermog‘i lozim.

Qaysidir tarixiy bosqich o‘rganilayotganda tadqiqotchi o‘tmishning xuddi ana shu bosqichida yashagan odamlarning tarixiy vaziyatini anglashni, ularning aqidalarini, tamoyillarini, qarashlari va ruhiyatini bilmog‘i hamda uning ichida yashamog‘i lozim. Boshqacha qilib aytganda, «Haqiqatga tadqiqotchi «matn» orqali doimiy «muloqot» olib borish yo‘li bilan, bugungi dunyo bilan tarixiy dunyoning doimiy muloqoti orqali erishmog‘i kerak».

Nemis faylasufi Edmund Gusserlning fenomenologik falsafasida aqliy intuitsiya tushunchasi ustuvorlik qiladi. Jumladan, u har qanday his qilish qobiliyatini aql-idrok orqali amalga oshirishni, mohiyatga asoslangan jarayon ekanligini aytadi. Natijada, «intuitsiya bu ilohiy his-tuyg‘u, qalb ovozi emas, balki aql ovozidir» degan xulosaga keladi. Bizningcha, bunday ta‘rif va yondashuv ko‘pincha ilmiy tadqiqot ishlarida, xususan, tarixni anglash, tushunish va ifoda etishda yana ham ko‘proq qo‘l keladi va aniq xulosalar chiqarishga yordam beradi. Zotan, har qanday fan aql orqali namoyon bo‘ladigan fikr, mulohaza, mushohada natijasidir. Jumladan, o‘tmish haqidagi tasavvurlar aql orqali quyuqlashib, yaxlit mohiyat kasb etadi. Yuzaki va siyqa qarashlardan farqli holda o‘z ilmiy asosi va nazariy isbotini topadi. Darhaqiqat, ong keng miqyosli, ziddiyatli va rang-barang olam, har qanday ong tushunchalar va tasavvurlar jamuljami. Uning tayanchi esa yolg‘iz aql, idrok. Aqlga tayangan, idrok ustuvor bo‘lgan onggina o‘zining ma‘rifiy qudratini, fikriy salohiyatini to‘la namoyon eta oladi. Aqlga tayanmagan har qanday ong zararli va g‘ayriinsoniydir. Ana

shu holatdan kelib chiqib Gusserl masalaning to'rt jihatiga alohida e'tibor beradi:

- fikrlar go'zalligi va mukammalligi;
- fikrlarning o'zaro aloqadorligi, uzviyligi va o'zaro hamkorligi;
- fikrlarning mohiyati va ularning mantiqiy tushunchalar orqali aks ettirilishi;

–mazkur fikrlar oqimini o'rganuvchi fenomenolog olimning his-tuyg'ulari. Bu his-tuyg'ularning fikrlar oqimiga ta'sir qilishi.

Ko'rinib turibdiki, Gusserl falsafasida har qanday intuitsiya, his-tuyg'u aqlga tayanadi va u asosli fikrlash, jo'yali xulosalar chiqarish imkonini beradi. Tarixni o'rganish, insoniyat o'tmishini tadqiq etishga fenomenolog yondashuv har bir davr fenomenini, o'sha davr odamlarining o'ziga xosligini va yaxlit qiyofasini o'rganishni taqozo etadi.

Hozirgi zamon tarixni anglash hodisasi falsafiy germenektikaning ana shunday keng miqyosli, inson olami orqali u yashagan davrga baho berish, uni talqin etish va yetarli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Falsafadagi tushunishdan oldingi anglash holati tarixni o'rganishdan oldin o'sha o'rganiladigan davr tarixi to'g'risida birmuncha to'laroq hayotiy, tarixiy, ilmiy tayyorgarlikka ega bo'lish, ma'lum bir tushunchaga asoslanib, tadqiq etish orqali intuitiv talqin etish va tushuntirish imkoniyatlaridan keng foydalanishda ham alohida ahamiyatga ega. Bu bevosita tarixiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotining o'ziga xos oqimi sifatida o'zining yangidan-yangi imkoniyatlarini ko'rsatmoqda.

### **Tarixiy jarayon va vorisilik**

Tarixiy tafakkur o'zida inson mohiyatini, uning tarixiy mavjudot sifatidagi olamini ifoda etuvchi tushunchadir. Zotan, inson tarixiy mavjudot sifatida o'z ijtimoiy tabiatiga taalluqli voqelikka emas, ayni paytda u juda katta ma'naviy-axloqiy mezonlar orqali tarixiy davomiylik, tarixiy vorislik va kelajak oldida mas'ullik qadriyati hamdir. Tarixiy tafakkur orqaligina inson o'tmish va kelajak o'rtasida vositachi, bog'lovchi, ko'prik vazifasini o'taydi. Ana shu ijtimoiy voqelik bevosita insonning kishilik jamiyati tadrijiy taraqqiyotiga bog'liq hodisa sifatida o'zini namoyon etadi. Insonning ijtimoiy tafakkurida bevosita u yashab turgan davr mohiyati o'tmish va kelajak to'qnashuvida ochiladi va to'laqonli mohiyat kasb etadi. Har bir davr tarixiy oreallarning mohiyatini tushunishda, unga mos ijtimoiy sharoitni vujudga keltirishda ana shu tarixiy ong, madaniy-ma'naviy saviya, axloqiy va ruhiy mezonlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy ongning barcha ko'rinishlarida insonning ijtimoiy xarakteri, fe'l-atvori, hatti-harakati u yoki bu shaklda aks etadi. Boshqacha qilib

aytganda, insonda uning biologik mavjudlikdan tashqarida bo'lgan qalb, ruh, ong va tafakkur bilan bog'liq bo'lgan, faqat insongagina xos bo'lgan qadriyatlar tizimi ustuvorlik qiladi. Ana shu ustuvorlik insonning tarixiy, ijtimoiy tafakkuriga asos bo'ladi.

Mavjud tarixiy sharoitda yuzaga kelgan ijtimoiy madaniyat tarixdan ajralgan muallaq voqelik emas. Aksincha, u o'zidan oldingi davrlar va bir necha ming yillik evolyutsion taraqqiyotning hosilasi sifatida yuzaga keladi. Demak, jamiyat inson orqali ma'naviy madaniyat qiyofasini egallar ekan, u tarixiy tajriba va ijtimoiy amaliyotning o'ziga xos sinteziga aylanadi.

Ayni ana shu hodisa insonning paydo bo'lishi, uning genezisi orqali mavjud shakllangan tarixiy ong, uning mahsuli bo'lgan kishilik jamiyatining yutug'iga aylanadi. Ayni paytda bu tarixiy-madaniy vorislikning mustahkam va qat'iy rivojlanish dinamikasidan dalolat beradi.

Hayvonot olami hech qachon his-tuyg'u, fikrlash va munosabat bildirish, so'zlash imkoniyatlariga ega bo'lmaganidek, o'z xususiyatlarini bir joyga jamlay ololmaydi. Garchi qaysidir intuitiv aloqalar orqali turdoshlari o'rtasidagi yaqinlik, onalik va bolalik hissi, otalik mas'uliyati, bolani boqish va asrash imkoniyatlariga ega bo'lsada, o'zining boshqa jiddiy manfaatlari atrofida jamoaga aylana olmaydi. Buni idrok ham etolmaydi.

Inson esa xuddi ana shu fazilati bilan ulardan farq qiladi. Uning tabiatida xilma-xil faoliyat, xilma-xil munosabat, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovzlik, manfaatlar ustuvorligi uchun munosabatlar to'qnashuvi yuzaga keladiki, bu odamlarning o'zaro bir-birini tushunishiga, hamjihat bo'lib yashashiga, inson hayotining ijtimoiy mohiyat kasb etib, kishilik jamiyatining shakllanishiga olib keladi.

Inson aql-zakosi, intellektual imkoniyatlari ayni bir insonga xos bo'libgina qolmay, u ijtimoiy mohiyat kasb etib, jamoa yutug'i sifatida dunyoga keladi. Boshqacha qilib aytganda, har qanday intellektual imkoniyat tashqi ta'sir, jamoatchilik fikr-mulohazalari, boshqalarning salbiy yo ijobiy ta'siri, kimlarningdir yo'l yo'riqlari orqali rivojlanadi va oxiroqibatda umuminsoniyat yutug'iga aylanadi.

Ayni ana shu holatdan kelib chiqib, kuchlarni birlashtirish, qobiliyatlar va iste'dodlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali yalpi ijtimoiy hayot va tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos modellari ishlab chiqiladi.

Ijtimoiy faollik insonning jamiyat ijtimoiy-tarixiy jarayonlariga ishtirokini ta'minlaydi. Tarixiy xotira rivoji, ma'lum bir individ tomonidan kollektiv tajribaning o'zlashtirilishi oqibatida yangi tajribaning yangi

qirralari vujudga keladiki, bu bevosita alohida individ doirasidan chiqib ketib, yalpi ijtimoiy tafakkur mohiyatiga ega bo‘ladi.

Tarixiy taraqqiyot bosqichlarida avloddan avlodga o‘tib boradigan vorisiylik, ulkan madaniyat va boshqa qadriyatlarga merosxo‘rlik tarixiy nuqtai nazardan yetakchi va ta’sirchan tarbiyaviy mexanizmga aylanadi va aytish mumkinki, har qanday madaniy yutuq ayni o‘sha davr yutug‘igina emas, balki ungacha to‘plangan tajribalar va avlodlar shajarasi orqali yetib kelgan qadriyatlar natijasi yoki tarixiy bilimlar ifodasidir.

Har qanday inson alohida individ sifatida to‘plangan tajriba, tarixiy xotira, tarixiy merosning o‘ziga xos davomchisi. Faqat ayni ana shu tajriba va merosga kim qanday shaklda, qanday maqsadni oldiga qo‘yib yondashganligi bilan farq qiladi. Bu o‘z o‘zidan tarixiy merosga yondashishda uslub muammosini keltirib chiqaradi.

Demak, har bir kishi alohida shaxs, alohida dunyo, o‘ziga xos fe‘l-atvor, munosabatlar, muammolar mezonlariga ega ekan, tarixiy tajribaga munosabatda ham o‘z dunyoqarashi, o‘z munosabati va uslubi orqali yondashadi.

Tarixiy ong rivojlangani sari ijtimoiy tafakkur taraqqiy topadi. Ma’lum bir jamiyat doirasida milliy madaniyat, urfodatlar va an’analar takomillasha boradi. Yangi davr ehtiyojlari nuqtai-nazaridan ularning yangidan-yangi qirralari ochilib, boyib boradi. Insoniyat tarixi nuqtai nazaridan yondashganda esa jahon madaniyati tarixida yalpi rivojlanish, yalpi taraqqiyot davom etadi.

Tarixiy tafakkur, tarixiy ong haqidagi ilk tasavvurlar Gerodot va Fukidid davrlaridayoq shakllangan hamda qaysidir darajada o‘zining ilmiy maqomiga ham ega bo‘lgan. Jumladan, tarix qanday anglashilganidan qati nazar, tarixchi tomonidan dalillarni topish va ular ustida ishlash, ularni tanlash va guruhlarga bo‘lish, ma’lum bir tizimga solish va tarixni o‘rganishdagi o‘rnini, yo‘nalishlarini belgilash tamoyillari ishlab chiqildi. Ana shu tarzda tarixiy davrlarni yoki davrlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashda va umuman insoniyat tarixi haqidagi fikrlarni belgilashda o‘ziga xos yondashuv, o‘ziga xos xulosa chiqarish tajribasi yuzaga keladi. Masalan, kimdir uchun tarix qahramonliklar, mislsiz jangu jadallar davri, yana boshqasi uchun kuchli dramatik holatlar, inson ruhiyati, iztiroblari va dardu-anduhlarining jamuljami, uchinchi bir tadqiqotchi uchun uzluksiz davom etib turadigan mantiqsiz «serial», yana boshqasi uchun esa dunyoning yakuni, oxiratning yaqinligi va oxiroqibatda insonning o‘z tarixiga o‘z fe‘l-atvori va ma’naviy-axloqiy darajasi orqali nuqta qo‘yishi bilan bog‘liq bo‘lgan tushkun holatlar tizimi.

Tarixni anglashning xilma-xilligi shundaki, kimdir uni misollar, tafsillar va dalillar orqali o'rgansa, boshqasi Yaratganga hamdu sanolar aytib, kishilik hayoti yolg'iz uning qudrati, xohish-irodasi orqali boshqariladi, degan g'oyani ilgari suradi. Uchinchisi esa tarixiy tajriba orqali falsafiy mushohada yuritadi, undan ibrat izlaydi, ijobiy tajribalarni o'zlashtirishga intiladi. Yana boshqa birov insoniyat tarixini yovuzlik va shafqatsizlik, nodonlik va jaholat timsoli sifatida ko'radi va shunday baholaydi.

Bu, albatta, tabiiy hol. Bu dunyo va umuman insoniyat tarixi shu darajada keng, shu darajada xilma-xil va rang-barangki, undan kim nimani izlasa o'shani topadi va o'z xulosasini isbotlash uchun yetarli dalilni ham ro'kach qila oladi. Ana shundan bo'lsa kerak, shoir iborasi bilan aytganda:

*Illat izlaganga illatdir dunyo,  
G'urbat izlaganga g'urbatdir dunyo.  
Kim neni izlasa topar begumon,  
Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo.*

Tarix fani o'z tabiatiga ko'ra tarixni yozish, uni tartibga solish, har bir bosqichning o'ziga xos belgilovchi, asosiy tamoyillarini, nazariy va mantiqiy, falsafiy va ilmiy uslubda o'ziga xos vujudga keltirishdir. Bu bevosita insoniyat madaniy taraqqiyotining dunyoviy mohiyatini o'zida namoyon qiladi. Harholda, har qanday tarixchi intellektual shaxs sifatida unga o'zicha yondashib, o'z munosabatini bildiradi va umumiy tarzda tarix fanining tarixiy taraqqiyotiga qaysidir darajada hissa qo'shadi.

Tarixning tadrijiyligi, uzluksizligi bu bevosita «kecha – bugun – erta» formulasi orqali davom etayotgan doimiy jarayon. Bugun biz hozirgi zamon muammolari, ijtimoiy tarixiy jarayonlari, ularning axloqiy mezonlari, ma'naviy-ma'rifiy darajasi xususida qanchalik kuyinib o'ylamaylik, bugun biz ko'rayotgan hosil kecha ekilgan daraxt mevasi ekanligi, bugun bo'lmasa ertaga yo'qligi, bugunning mavjudligiga esa kechaning davomi ekanligi nuqtai nazaridan yondashishimiz kerak. Boshqacha qilib aytganda, faylasuflarning fikriga ko'ra, agar hech narsa o'tib ketmagan bo'lsa, demakki, tarix bo'lmasa, nafaqat kelajak, balki hozirgi zamonning o'zi ham bo'lmaydi. Demak, vaqt qandaydir ma'noda jarayonlar, hodisalar, voqealarning o'zaro bog'liqligida yashaydi va o'z ma'naviy qiyofasini, salmog'ini, mohiyatini, salbiy yoki ijobiy natijalarini ko'rsatadi. Ana shunda vaqtning mohiyati ochiladi.

Tarixning davomiyligi va ana shu davomiylilik mohiyatini tushunish orqali biz keljakka yo'l ochar ekanmiz, ayni tarixnavis mutaxassislarining

tarix mohiyatini qay darajada ochganliklariga, uning falsafiy-mantiqiy mohiyatini qanday shaklda tushuntirib berganliklariga, tarix yozish amaliyotida qanday tamoyillarga suyangaliklariga, tarixnavislikning usul va uslublarni qay darajada takomillashtirib borishlariga ham bogʻliq. Ayni ana shu muammolarning yechimida tarixni falsafiy anglash, falsafiy tushunish va idrok etishning tayanchi boʻlgan tarix falsafasi vujudga keladi.

Har qanday individni, ijtimoiy voqelik sifatida shaxsni tarbiyalash eng ilgʻor, sermahsul va pragmatik maqsadlarni koʻzlaydigan, uni davom ettirishga intiladigan, rivojlantirishga ichki bir ehtiyoj bilan qaraydigan jamiyatni vujudga keltirish uchun tarix falsafasi alohida ahamiyatga ega boʻladi. Bu bevosita tarixda vorisiylik mohiyatini tushunishga, uni qadriyatga aylantirishga olib keladi.

Ana shunday tarixning murabbiylik roli, uning ijtimoiy taraqqiyotdagi oʻrni xususida uygʻonish davrining taniqli namoyandalaridan biri, ingliz mutafakkiri Lark Boling Brok oʻzining «Tarixni oʻrganish toʻgʻrisidagi xatlar» ida: «U holda tarixning asl foydasini nimada koʻrish mumkin? Bizlar yana ham yaxshi va donishmandroq boʻlishimiz uchun u qay tarzda xizmat qilishi mumkin? Men sizlarga javob qilishim mumkin: tarix bu bizni misollar yordamida tarbiyalaydigan falsafadir...» degan edi.

Faylasuf tarixning tarbiyaviy mohiyati xususida fikr yuritar ekan, insonning nomukammalligi, har tomonlama yetuk boʻlishga izchil intilsada, oliy maqomdagi barkamolikka erisha olmasligidan iztirob chekadi. Inson tabiati va fenomenini tashkil etgan aql-farosati cheklanganligi, har qanday mulohazalarga, misollarga, tajribalarga toʻlaqonli yondasholmasligi, aniqrogʻi, ularning butun koʻlami va mohiyatini toʻla-toʻkis oʻzlashtira olmasligi xususida gapiradi va «Butun dunyo, kishilik jamiyati va uning tarixi ibrat maktabi boʻlib, ushbu maktabning murabbiysi tarix va tajriba hisoblanadi», degan xulosaga keladi.

Tarixning ana shunday juda katta maʼnaviy-axloqiy imkoniyatlari xususida gapirar ekan, Volter tarixnavislik anʼanalariga tarixnavislik predmeti haqidagi yangi tasavvurlarini qarshi qoʻyib, butunlay yangi qarashlarni ilgari suradi. Jumladan, u «Endi millatning qay darajada, qay tarzda yuksalishini, bugungi davrning avvalida uning aholisi qanday boʻlganligini hamda uning savdo-sotigʻi qanday boʻldi va kengaydi, bizning mamlakatimizda qanday madaniyat paydo boʻldi va qandaylari tashqaridan kiritildi va takomillashtirildi, oʻtmish va bugungi kunda davlatning daromadi taxminan qanday boʻldi. Dengiz qudrati qanday paydo boʻldi va rivoj topdi. Son jihatdan dvoryan, ruhoniylar va monaxlar bilan ular oʻrtasidagi mirishkorlarning farqlanishi qay tarzda boʻlgan», kabi oʻta hayotiy, kundalik turmush tarzi muammolari orqali mavjud jamiyatga,

yaratilayotgan tarixga baho beradi. Demakki, bu bevosita ijtimoiy hayotda xalq kundalik turmush tarzining mohiyatidan kelib chiqqan xulosalar. Aslini olganda ayni ana shu xulosalar, ana shu holatlar tarix mohiyatini belgilaydi.

Inson tabiatiga ko'ra jismoniy va ruhiy qudratga ega. Jismoniy qudrat insonning tabiat qonunlariga qay darajada bo'ysunganligi, unga itoatkorligi bilan bog'liq bo'lsa, ruhiy qudrat insonning o'z turmush tarzini o'zgartirishga, uning hayot mazmunini oshirishga bo'lgan ehtiyojdir. Ana shu ehtiyoj uni doimiy ravishda kamolotga yetaklaydigan ichki qudrat, ichki quvvatga aylanadi. Inson ruhiy mavjudot sifatida o'z erki, o'z qadru qimmatini, hayot zavqu shavqini ta'minlashga qodir bo'lgan, uni ta'minlaydigan tartibotlarni, mavjud me'yorlarni o'zgartirishga, boyitib borishga qodir bo'lgan jonzot sifatida o'zini namoyon etadi. Insonning aql-zakosi, farosati va ijodiy imkoniyatlari butun mohiyati bilan hayotni o'zgartiruvchi vositaga aylanadi va tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab beradi. Yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Inson ruhiy va axloqiy nomukammalligi tufayli barcha baxtsizlik va iztiroblarning sababchisiga ham aylanadi. Inson olamining murakkabligi, tabiatining ziddiyatliligi ana shu har ikki mohiyatni o'zida mujassam etganligidadir.

Umuman olganda tarixga nazar tashlanar ekan, o'tmishdagi ruhiy va ma'naviy qashshoqlik, o'zaro adovat va qarama-qarshiliklar, zulm va zo'ravonliklar ezguliklar, yaxshiliklar, ma'rifat va madaniyat, fan taraqqiyoti ko'lamidan ko'ra ustuvorroqday tuyuladi. Bu ba'zan bizning kelajakka nisbatan optimistik munosabatlarimizga tarixning tushkun manzarasi qaramaqarshi turganday va istiqbolga ishonchimizni bir muncha susaytirayotganday ko'rinadi. Biroq bunday kayfiyat qanday inson, qanday tadqiqotchi qanday jamiyatda yashayotganligi bilan ham bog'liq. Har holda tarixchi o'tmishdan zarur xulosalar chiqarib, porloq istiqbolga da'vat etuvchi, kishiga jo'shqinlik va umidvorlik, ishonch va iroda baxsh etuvchi g'oyalarni ilgari surmog'i lozim.

Biz bugun mustaqillik sharoitida milliy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash jarayonini boshdan kechiryapmiz. Bu bevosita milliy qadru qimmat, buyuk madaniy meros va qadriyatlar qayta tiklanib, o'z mavqeini egallayotgan juda katta tarixiy jarayon. Uning natijasida esa bizda yangidan-yangi kuch-qudrat, ichki iroda va yaratuvchilikka da'vat tuyg'ulari kuchayib borayotgan bir paytda kelajagimizni aniq ko'rayotganimiz va buyuk istiqbolga intilayotganimiz bejiz emas. Bu bevosita jamiyatda shakllanayotgan ijtimoiy fikr, tarixiy tajriba va undan kelib chiqayotgan ijobiy, baland ruh va yalpi safarbarlikka chaqiruvchi

xulosalar orqali tobora takomillashib borayotgan, kecha, bugun va ertaning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlayotgan juda katta ma’naviy-ma’rifiy jarayondir.

### **Tarix falsafasida an’anaviylik va zamonaviylik**

Tarixning mazmun-mohiyatini tushunish, anglash va tarixiy tafakkurga doir zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish, demak, bugungi kunga kelib insoniyat bosib o‘tgan zalvarli yo‘l orqali o‘tmish va hozirgi paytdagi faylasuflarning xulosalarini hisobga olgan holda ularga yangicha yondashishdir. Bu bevosita tarix falsafasi doirasidagi ilk tasavvurlarning paydo bo‘lishidan tortib to bugungi kungacha uzluksiz rivojlanib kelgan, kontseptual asoslangan, o‘zining metodologik tadqiqot maydoniga, fan maqomiga ega bo‘lgunga qadar bo‘lgan ulkan tarixiy masofani qamrab oladi. Demak, insoniyat ibtidosidan bugungacha bo‘lgan faylasuflarning dunyoviy istiqbollar mo‘ljallarini belgilanganligi, ularning yirik xulosalari mavjudligini hisobga olgan holda tadrijiy rivojlanish va dinamik taraqqiyot bosqichlarini o‘zida mujassam etadi.

Inson aql-idroki tarixiy va ijtimoiy taraqqiyot, uning insonparvar g‘oyalar doirasidagi me’yorlari, odamlarning kelajakka bo‘lgan umidlari hamda istiqbol haqida bashorat qilish imkoniyatlarini qamrab oladi va kelajak haqida jiddiroq mulohaza qilish zarurligini dolzarb muammo qilib qo‘yadi. Ana shu holatdan kelib chiqib bugungi dunyo taraqqiyoti tahdid, zo‘ravonlik, narkobiznes, diniy aqidaparastlik va xalqaro terrorizm tobora xuruj qilayotgan bir paytda qat’iyat bilan tarix falsafasi qadriyatlarini qaytadan ko‘rib chiqishni, o‘tmishning mumtoz merosidan unumli foydalanishni taqozo etmoqda.

Hozirgi zamon fani ko‘p ming yillik taraqqiyot davomida to‘plangan tajribalarni umumlashtirish, ularning yangidanyangi yo‘nalishlarini qidirib topish, hozirgacha yaratilgan ilmiy merosni konstruktiv qayta yangilash yo‘lidan bormoqda. Bugungi kunda tarixiy tafakkurning chegara va imkoniyatlarini yanada kengaytirish, uning umuminsoniy qadriyat sifatidagi hozirgacha aniqlanmagan jihatlarini falsafiy tafakkur asosida qayta yaratish davr talabi bo‘lib qoldi. Zotan, bundan bir necha yillar oldin atoqli hind siyosat va jamoat arbobi Javoharlal Neru o‘zining «Hindistonning kashf etilishi» asarida «U (fan – N. J.) jahonga olg‘a sakrash imkoniyatini tug‘dirdi. Yorqin sivilizatsiyani yaratdi. Bilimlarning rivoji uchun son-sanoqsiz yo‘llar ochib berdi va insonning kuch-qudrati darajasini nihoyatda oshirish bilan inson o‘z jismoniy muhiti ustida zafar qozonishi va uni qayta yasashi mumkin degan fikrga keldi. Inson deyarli Yer qiyofasini kimyoviy, fizikaviy va boshqa ko‘pgina jihatlardan o‘zgartiruvchi biologik kuchga aylanib qoldi», degan edi. Darhaqiqat, yangi ming yillikda beqiyos va ulkan



qudratga ega bo'lgan biologik quvvat – Inson Yer shari taqdirini, sayyoramiz istiqbolini belgilaydigan mo'jizaga aylandi.

Hozirgi zamon tarix falsafasi global dunyoning global muammolarini qamrab olmoqda. Jumladan, uning yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

yer yuzida yalpi tinchlikni saqlash, termoyadro urushining oldini olish va adolatli xalqaro iqtisodiy tartibot o'rnatish;

atrof-muhitni samarali muhofaza qilish – ekologik muammolar;

atmosferaning isib borishi oqibatida kelib chiqishi mumkin bo'ladigan fojialarning oldini olish;

aholi soni va tarkibi bilan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratilishi mutanosibligiga erishish – demografik muammolarni hal etish;

yer yuzi aholisini zarur oziq-ovqat va quvvat manbalari bilan ishonchli ta'minlash;

ochlik, qashshoqlik va qoloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlanishni ta'minlash va rivojlangan mamlakatlar bilan qoloq mamlakatlar o'rtasidagi keskin farqni bartaraf etish;

xavfli kasalliklarni tugatish;

inson ma'naviy muhiti sofligini ta'minlash – etikologiya muammosini hal etish va boshqa bir qator jiddiy masalalar borki, bular hozirgi zamon sivilizatsiyasi yutuqlari orqali o'z yechimni kutmoqda.

Bugun yuz berayotgan voqealar ertaga tarixga aylanishini nazarda tutib, tarixni falsafiy o'rganishning «kecha–butun–erta» tamoyili asosida yuz berayotgan tarixiy-ijtimoiy jarayonlar mohiyatini chuqur o'rganish orqali prognozlash – bashorat qilish usullaridan ham keng foydalanishni zamonning o'zi taqozo etmoqda. Fanning qanday bo'lishidan qat'iy nazar inson aqlining mahsuli sifatida kishilik jamiyati taraqqiyotidagi o'rni va roli haqida gapirar ekan, Paskal «Aqlning so'nggi qadami aqlning chegarasidan tashqari son-sanoqsiz narsalar borligini anglab yetishga olib keladi. Agar buni qila olmasa, u o'z ojizligini payqab qoladi», degan edi.

Paskalning ana shu qarashlarini va inson tafakkurining hali anglab yetolmagan hayot qatlamlari, serqirra va rang-barang olamning mavhum, ko'z ilg'amas tomonlari mavjudligini nazarda tutib Javoharlal Neru «Shuning uchun ham biz hayotga fan ruhida fanning falsafa bilan va uning chegaralardan tashqarida yotgan hamma narsaga hurmat bilan uyqashib ketgan usulini qo'llab yondashishimiz kerak. Shunday qilib, biz hayot haqida o'zining keng qamrovi bilan o'tmishning va kelajakning barcha yuksakliklari va kemptikliklarini o'z ichiga oladigan yaxlit tasavvurni yaratishimiz va kelajakka xotirjamlik bilan qarashimiz mumkin. Kemptiklar mavjud va ularni inkor qilib bo'lmaydi. Bizni o'rab olgan go'zallik bilan yonma-yon biz hamisha dunyoning illatlariga duch kelamiz. Inson hayoti

o'zida quvonch bilan qayg'uning g'alati birligini aks ettiradi: u faqat unisini ham, bunisini ham boshdan o'tkazibgina o'rganishi va olg'a borishi mumkin. Ruhiiy iztiroblar – fojiali va alamli hodisalar... Bizga tashqi voqealar va ularning oqibatlarini kuchli ta'sir ko'rsatadi. Buning ustiga aqlimizga eng qattiq zarbalar botiniy qo'rquvlar va to'qnashuvlar natijasida yog'iladi. Tashqi dunyoda taraqqiyot yo'lidan olg'a borar ekanmiz – agar biz yashashni xohlasak olg'a borishimiz shart – biz ayni paytda o'z botinimizda ichki tinchlikka, o'zimiz bilan atrofmuhit o'rtasidagi totuvlikka erishmogh'imiz darkor», degan edi.

Quvonch va qayg'u olami bo'lgan inson va insonlar uyushmasi – jamiyat taqdiri haqida o'ylash, ijtimoiy, tarixiy jarayonlar keskinlashgan hozirgi davrda o'tmishni anglash immunitetini kuchaytirish, uni ma'naviy va zaruriy ehtiyojga aylantirish muhim bo'lib qoldi. Ayni tarix falsafasi, tarixni falsafiy idrok etish keng miqyosli tadqiqotlar predmetiga aylanmog'i lozim. Buni bugungi kun va kelajak bilan aloqadorligini nazarda tutsak, yana ham dolzarblik kasb etadi.

Yaxlit jamiyat o'tmishi va buguni orqali uning istiqbolini belgilash bevosita ijtimoiy kuchlar orqaligina amalga oshishi mumkin va taraqqiyot tendentsiyalarini aniqlash imkonini beradi. Chunki ana shu ijtimoiy kuchlar undan manfaatdor kishilar birligi sifatida o'z g'oyalari uchun uzluksiz kurashuvchi vositaga aylanadi. Barcha davrlarda, barcha xalqlar uchun o'ta muhim va qadrlil bo'lgan o'tmish saboqlari orqali o'zining beqiyos qudratini ko'rsata biladi.

Ana shuning o'zi doimiy ravishda zamonaviylik orqali anglanishi shart bo'lgan o'tmish saboqlari, insoniyat tarixiy tajribalari bilan birga o'sha davrda yashagan ajdodlarimiz fe'l-atvorini, tafakkur chegaralarini va tarixiy taqdirini yana ham chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Natijada bugungi yangilanib borayotgan tafakkurning eng muhim shartlaridan biri bo'lgan inson hayotini saqlab qolishga, shaxsning erkin takomillashishiga olib keladi.

Ratsionalistik yondashuvlar orqaligina insoniyat taraqqiyoti dinamikasini ta'minlash va muhim belgilovchi omillarni qo'lga kiritish mumkin. Jahon tarixining yaxlitligi va yaxlitlikning tobora mustahkamlanib borayotganligi bevosita an'anaviylik, vorisiylik orqali insonparvar g'oyalarning yangi shakldagi tantanasiga bo'lgan ishonch-e'tiqodni shakllantira oladi. Tajribadan o'tgan, hayot sinovlari tasdiqlagan va fan tomonidan har tomonlama chuqur o'rganilgan tarixiy tajribalar insoniyatning nodir qadriyatlarini sifatida kelajak aqidalariga hamohang holda takomillashtirilishi zarur.

Gegel ta'бири bilan aytganda, «Umumbashariy tarix ruhning zamondagi ifodasidir. U bamisoli g'oya tabiati sifatida makonda o'z aksini topa oladi». Demak, jahon tarixi umumbashariy qadriyat darajasiga ko'tarilgan umumiy maqsadlar, intilishlar, tasavvurlar va kelajakka ishonch tuyg'ularini o'zida mujassam etadi. Ma'lum bir xalq, millat, mamlakat tarixi esa umumbashariy tarixga nisbatan birmuncha torroq, biroq umumiy mohiyatini yo'qotmagan holda ayni bir millat taraqqiyoti bosqichlari va milliy qadriyati sifatida baholanadi.

Tarixchi tarixiy tafakkur qirralarini ochuvchi ijodkor (aniqrog'i uning tadqiqotchisi) sifatida o'tmishning mazmun mohiyatini bugungi kun va kelajak nigohi bilan tadqiq etishga harakat qiladi. U Krochening ta'biriga ko'ra faqat xronikalar, xabarlar, raqam va sanalar girdobiga g'arq bo'lmaydi. Aksincha, undan mohiyat izlaydi, ma'no qidiradi va tarixiy tajribani istiqbol ibratiga aylantiradi. Ana shu tarzda aytish mumkinki, uzoq tarixiy tadqiqotlar orqali, tarixchi mehnati tufayli bugungi kun saboqlariga, tafakkuriga, uning tahlili orqali vujudga kelgan falsafiy tafakkur esa tarix falsafasiga aylanishi mumkin bo'ladi.

Tarixiy tajriba – bu insoniyatning olis o'tmishi davomida to'plagan noyob qadriyatlaridir. Ayni paytda yangilik oldida bu qadriyatlar mavqei birmuncha pasaygandek bo'lib ko'zga tashlanishi mumkin. Biroq shuni unutmash kerakki, bugungi kashfiyot, ixtiro qo'qqisidan yuzaga kelgan emas. Zotan, har qanday kashfiyot, har qanday xulosa eng avval inson tafakkurida xayol, orzu, umid shaklida paydo bo'ladi, so'ng ijodkorlik, yaratish niyati tug'ilib, u qat'iy maqsadga, maqsadni ro'yobga chiqaruvchi amaliy faoliyatga aylanadi.

Bunday holat bir qarashda kundalik hayot me'yorlariga o'xshaydi. Biroq jiddiy, insoniyat va fan taraqqiyotiga bog'liq bo'lgan kashfiyotlar hamisha bir necha yillik mehnat, bir necha avlod ijodiy faoliyatining natijasidir. Shuning uchun ham Javoharlal Neru «...milliy taraqqiyotda o'tmishning takrorida, na uning inkorida mujassam. Yangi shakllarni olish kerak. Lekin eskilari bilan aloqada. Ba'zan yangilik, garchi u eskilikdan farq qilsa ham, ilgari mavjud bo'lgan shaklning ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shunday qilib taraqqiyotning uzluksiz, o'tmishdan boshlanganligi haqida taassurot tug'iladi. Yangilik xalq tarixi uzun zanjirining bir halqasi sifatida e'tirof qilinadi», degan edi.

Neruning xulosalariga ko'ra kashfiyot tasodifiy hodisa emas, ayni paytda u o'tmishning takrori ham emas. Aks holda kashfiyotning kashfiyotligi qolmaydi. Demak, har qanday yangilik o'tgan yillar mobaynida to'plangan tajribalar va istiqbolga intilish ehtiyojining mahsuli.

Tarixning mazmun-mohiyati tadqiqotlarning beto'xtovligi, izchilligi va qolaversa, inson tomonidan dunyoning amaliy o'zlashtirilishi, nazariy kashf etilishi doimo ma'lum bir falsafiy-dunyoviy ko'nikmalarga bo'lgan murojaatlarda o'z-o'rnini topadiki, ular qadriyatlarning u yoki bu tizimini shakllantiruvchi falsafiy-tarixiy hodisaga aylanadi. Ular orqali umumjahon tarixining yaxlit manzarasi, o'tmish haqidagi bilimlar va bugungi insoniyat xususidagi mulohaza va mushohadalar umumlashtiriladi. Natijada esa tarixiy tasavvur, falsafiy tafakkur o'tmishni his qilish jarayoni orqali ma'lum ma'nodagi ijtimoiy-madaniy vaziyatlar, tarixiy tajriba taraqqiyoti tufayli to'plangan bilimlar hisobiga kuch oladi, rivojlanadi. Bunday jarayon esa cheksiz va chegarasizdir. Ana shu cheksizlik J. Neru xulosalariga ko'ra quyidagilarni ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy, ijtimoiy-tarixiy mezonlar orqali dolzarb qilib qo'ymoqda: «Biz insoniyatning butun yutuqlarini o'zlashtirishimiz va boshqa xalqlar bilan birgalikda insonning hayajonli, o'tmishdagidan ko'ra ko'proq hayajonli talpinishlarida qatnashishimiz kerak. Biz bu yutuqlarni endilikda milliy chegaralar yoki burungi bo'linish chiziqlari bilan belgilamasdan, butun insoniyat uchun mushtarak yutuqqa aylanganligi to'g'risida o'zimizga hisob berishimiz kerak. Biz hayotni ma'nodor qiladigan, harakatchan dunyoqarash va dadil intilish ruhini qaytadan jonlantiradigan haqiqatga, go'zallikka va ozodlikka bo'lgan ehtirosli intilishni tiklashimiz kerak. Ko'p asrlar bundan oldin mustahkam va metin poydevor asosida bizning uyimizni tiklagan xalqimiz vakillari aynan shu jihatlari bilan ajralib turishgan edi. Garchi o'zimiz keksaygan bo'lib, xotiralarimiz insoniyat tarixining tonggi shafaqlariga borib tutashsa ham, biz qaytadan yosharishimiz va hozirgi zamon bilan yonmayon qadam tashlashimiz, bugungi kundan zavqlanayotgan yoshlikning yengilmas ruhi va quvonchi bilan yashashimiz, shuningdek, kelajakka ishonch bilan to'lib-toshishimiz kerak».

### **Kollektivizm va individualizm**

Kollektivizm tushunchasi muayyan bir jamoa, guruh, qolaversa, millat, davlat, jamiyat doirasidagi alohida odamlar guruhini yoki birligini o'zida ifoda etadi. Kollektivizm individualizmga qarshi holda har qanday individ yoki shaxs ustidan hukmronlik manfaati bilan yashaydi, shaxsning mustaqilligi, o'ziga xos avtonomiyasi inobatga olinmaydi. Ayni ana shu jihatlari bilan kollektivizm totalitarizmning asosiy manbai sifatida xizmat qiladi. Individualizm esa inson erki va ozodligi kafolatlangan demokratik tamoyillar qaror topgan jamiyat shaklida vujudga keladi, bu umuminsoniy qadriyatlarning muhim qismi sifatida baholanadi.

Kollektivizm va individualizm tushunchasi atrofidagi munozaralar bir necha ming yillik davrni qamrab oladi. Jumladan, u antik falsafa tadqiqoti ob'ektiga ham aylangan va Suqrot, Platon, Demokrit, Dekart, Lonk, Gelovetskiy singari ilk faylasuflar ham o'z mulohazalarini bildirib o'tishgan. Masalan, Platon kollektivizm sharoitida butun davlat uchun maqsad alohida guruhlar, xususan, alohida shaxsning manfaatlarini himoya qiladigan qattiqqo'llik, jamiyatning barcha sinflaridan ajralib turadigan alohida sinf manfaatini qat'iy himoya qilish, davlat hokimiyatini qo'lga kiritgan sinf taqdirini belgilash, jamiyat a'zolarida qarashlar va tuyg'ularning bir xilligini ta'minlash, jamiyat muammolarini hal qilishni zimmasiga olgan shaxs doktrinalarini qat'iy himoya qilish, fuqarolarning e'tiqodlari, tuyg'ulari va fikrlarini doimiy ravishda uzluksiz senzura qilish tartibotini o'rnatadi, degan xulosani bildiradi. Ana shu holatda kollektivizmning mohiyati ochiladi. Bu bevosita jamiyatning ikkiga, balki ko'proq bo'laklarga bo'linishiga, ya'ni hukmron tabaqa va turli shakldagi tobe tabaqalarning vujudga kelishiga zamin yaratadi. Ayni ana shu ko'pchilik ozchilikning farovon yashashiga, boshqacha qilib aytganda, bir guruh oqbilaklarning, «zodagon» larning manfaatiga xizmat qilishga qaratiladi. Bu o'z-o'zidan ijtimoiy adolat tamoyillarining qo'pol ravishda buzilishiga, oxir-oqibatda esa inson va uning hayoti mohiyatini qadsizlantirib yuborishiga olib keldi.

Atoqli ingliz faylasufi K. Popper ayni ana shu holatni, aniqroq qilib aytganda, kollektivizm va individualizm hodisasini yopiq jamiyat va ochiq jamiyat tarzida talqin etadi. Uning fikricha, yopiq jamiyatda ma'lum bir avlod, ya'ni dinastiya kollektiv jamiyatda hukmron mavqeni egallaydi. Individualizm esa jamiyat barcha qatlamini tashkil etgan fuqarolar har birining – alohida individlarning, shaxslarning yoki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi, alohida sub'yekti sifatida qabul qilinadi. Popper ta'rifi bilan aytganda, yopiq jamiyat qandaydir sehrli, tilsimiy xarakter kasb etadi. U real hayotdan uzoqlashadi, ijtimoiy mohiyatini yo'qotadi. Ochiq jamiyat esa unga teskari ravishda ratsional va tanqidiy asoslarga ega.

Agar ana shu xulosalarga tayansak, jamiyatning yalpi taraqqiyoti bu jamiyat har bir a'zosining tarixiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bevosita ishtiroki, ularga to'g'ridan to'g'ri munosabati, tanqidiy xulosalari orqali taxmin etiladi. Natijada fuqarolar o'zining ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, yaratuvchilik salohiyati va iqtidorini namoyon etishi mumkin bo'ladi va oxir-oqibatda yalpi jamiyat rivojlanishi ta'minlanadi. Qolaversa, individualizm sharoitida odamlar bir-biri bilan musobaqalashadi, o'zaro

qo‘llab- quvvatlovchi raqobat shakllanadi. Hayotdan qoniqish hissi kuchayadi.

Umuman olganda kollektivizm tufayli vujudga keladigan totalitarizm bugunning mahsuligina emas. U kishilik tarixida turli davrlarda har bir davrning o‘ziga xos ma’naviy-ma’rifiy, siyosiy va psixologik imkoniyatlari doirasida manfaatlar ustuvorligini keltirib chiqargan. Bu bevosita totalitar rejimning paydo bo‘lishiga, rivojlanishiga xizmat qilgan. Totalitar rejim turli davrlarda tarixiy sharoitga mos ravishda va uning mahsuli sifatida yo kuchaygan, yo susaygan.

Totalitarizm mohiyatiga ko‘ra doimiy ravishda o‘zini o‘zi to‘ldirib, rivojlanib boradigan tarixiy jarayon. Bu hodisa, albatta, bir xalq yoki mamlakat doirasida doimiy, evolyutsion xarakterga ega bo‘lmasligi, dinamizmini yo‘qotib qo‘yish hodisalari yuz berishi mumkin. Faqat u o‘z makonini o‘zgartirib turishi, qaysidir mamlakatda inqirozga uchrasa, boshqa bir mamlakatda ta’sirini kuchaytirishi mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, inson mavjud ekan, manfaatlar to‘qnashuvi hodisasi yuz beraveradi. Kollektivizm, totalitarizm ana shu manfaatlar to‘qnashuvining bir necha shaklidan biri sifatida kishilik jamiyati umumiy doirasidan chiqib ketmasligi, tarixiy voqelik sifatida ishab turishi muqarrar. Ana shu holatni nazarda tutib K. Popper «bugun biz totalitarizm deb atayotgan tushuncha o‘ziga xos an’anaga egaki, u xuddi bizning sivilizatsiyamiz singari qanchalik qadimiy bo‘lsa, shunchalik navqiron», degan edi.

G‘arb tadqiqotchilari o‘z jamiyatlari tarixiy, tadrijiy taraqqiyotlari va dinimizni qonuniyatlarini hisobga olib, individualizm va kollektivizmning o‘ziga xos tartibotlari haqida qator fikrlar bildirishgan. Jumladan, F. Xayek individualizmni va individualistik tamoyillarni sotsializmga, sotsializmning boshqacha ko‘rinishi bo‘lgan kollektivizmga qarshi qo‘yadi. Ayni kollektivizm sotsialistik totalitarizmning manbai degan xulosaga keladi.

Totalitar rejim hukmronlik qilgan jamiyatda yashagan odamlar bilan shaxs erkinligi ta’minlangan, individual qarashlar ustuvor bo‘lgan jamiyat odamlari o‘rtasida, ularning tafakkurida va ruhiyatida jiddiy farq mavjud. Birida kamsuxanlik, tobelik, ruhan ozurdalik, ma’nan ezgin kayfiyat hukmronlik qilsa, ikkinchisida o‘z hayotidan rozilik, o‘tayotgan kundan mamnunlik, mehnatidan, yaratayotgan, bunyod etayotgan ishlaridan g‘ururlanish, o‘z istiqbolini rohatfarog‘atda aniq ko‘ra olish tuyg‘ulari barq urib turadi. Zotan, insonning tom ma’nodagi mohiyati ham, uning bugun qadriyati ham xuddi ana shu tuyg‘u bilan o‘lchanadi. Demak, bunday hayot nash’u namosi, kayfu safosi ma’lum bir toifaga mansub odamlarga emas, har bir inson uchun zarur.

Kollektivizm, uning natijasida shakllangan totalitar yoki avtoritar rejim jamiyatda qotib qolgan tushunchalar – dogmatizmni turmush tarziga aylantiradi. Yangilikni qabul qila olmaslik, har qanday ijobiy siljishlarga shubha bilan qarash kabi illatlarga keng yo‘l ochib beradi. Asossiz, havoyi aqidalar va e‘tiqodlar jamiyatini keltirib chiqaradi, jinoyatchilik va boshqa ko‘rinishdagi g‘ayriaxloqiy hodisalar avj oladi.

Inson o‘zining ichki imkoniyatlarini daxlsiz va ozod ijtimoiy vaziyat mavjud bo‘lgan sharoitdagina ro‘yobga chiqarishi mumkin bo‘ladi. Zotan, ana shunday sharoitda u o‘zini birmuncha erkin his qiladi. Maqsadlar va manfaatlar ro‘yobini ta‘minlashda o‘zining butun imkoniyatlarini safarbar etadi. Tashqi ta‘sirni kamroq sezadi. Boshqacha qilib aytganda, atrofidagilarning imkoniyatlarni cheklashga, turli buyruqlar va hukmlarga nisbatan bo‘ysunishga, itoatkor bo‘lishga imkon bermaydi.

Kollektivizmda esa uning aksi sifatida belgilangan va oldindan rejalashtirilgan maqsadlar atrofida birlashib, kuchlar uyg‘unlashtiriladi. Oldindan tuzilgan va aniq rejalashtirilgan vazifalarning bajarilishini kimdir yoki kimlardir nazorat qiladi, buyruq beradi, ommaviy safarbarlikni tashkil etadi. Mutloq ko‘pchilik esa itoatgo‘y, labbaygo‘y ijrochiga aylanadi. Bunday holat jamiyatda erkin fikr, erkin faoliyat va demokratiyaning boshqa ko‘rinishlarini cheklab qo‘yadi. Natijada totalitarizm vujudga keladi, shakllanadi, ildiz otadi va bora-bora avtoritar mohiyat kasb etib, jamiyatni buyruqlar asosida boshqarish, ijtimoiy hayotni bir kishining kayfiyati va talablari asosida tashkil etish tamoyillari vujudga keladi. Jamiyatni bunday boshqarish usuli, ayniqsa, sotsializm sharoitida asosiy qoidaga aylantirildi.

Garchi sotsializm g‘oyasi va shakllariga munosabatlar hamon turlicha bo‘lsada, sotsialistlarning o‘zining orasida ham yondashuvlar va fikrlar xilma-xilligi mavjud bo‘lgan. Lekin mohiyati bir xil bo‘lgan. F. Xayek sotsialistlar xulosalarini o‘rganar ekan, tuzumning mohiyati xususida gapirib, «ular da insonning jamiyatdagi mavqeini bevosita davlat belgilab berishi lozimligi to‘g‘risida hech qanday tafovut bo‘lmagan. Lekin ularning orasida konkret sinf va guruhlar o‘rinlarini belgilashda chuqur tafovutlar bo‘lgan edi va doimo bo‘ladi», degan edi. Ana shu holatning o‘zi faoliyatlarni, maqsadlarni rejalashtirish va uni markazlashgan boshqaruv tizimi orqali amalga oshirish tamoyili ustuvorligi ko‘zga yaqqol tashlanadi.

G‘oyaviy hukmdorlik, yakka shaxs fikrining ustuvorligi diktatura maqomini egallaydi. Zo‘ravonlik va xudbinlik shaklidagi avtoritar axloq, avtoritar kayfiyat va fe‘l-atvor garchi fuqarolar manfaatlariga zid bo‘lsada, o‘ziga xos qadriyatlar darajasiga majburan ko‘tariladi. Natijada hammaning bir xil fikrlashi, yuqoridan bildiriladigan har qanday buyruqning

muhokamasiz, munozarasiz, mushohada qilmasdan to'g'ridan to'g'ri qabul qilish va so'zsiz bajarish tamoyili vujudga keladi. Bu o'z-o'zidan bir necha asrlar mobaynida shakllangan an'analar, urf-odatlar, turmush tarzi, adabiyot, san'at va, umuman, yaxlit olganda fuqarolar qalbi va ruhiyatini o'zida mujassam etgan bir butun madaniyatning inqiroziga olib keladi. Natijada fikriy boqimandalik, befarqlik, hissizlik kayfiyati butun jamiyat kayfiyatiga, axloqiy me'yorlariga aylanadiki, bunday sharoitda taraqqiyot va istiqbolga o'rin qolmaydi.

Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, kollektivizm ikki bosqichda o'zini namoyon etadi va bu bosqichlarni yaqin o'tmishimizda – sovet imperiyasi davrida yaqqol ko'rdik. Birinchi bosqich – totalitarizmning «Faqat buyruq berilgan narsanigina bajarish mumkin, boshqasi mumkin emas», avtoritarizmning «Faqat siyosatga aralashma, boshqa hamma narsa mumkin» shiorlarida to'la mujassam. Bunday holatni «Kollektivistik tafakkurning fojiasi shundaki, aql-idrokni taraqqiyotning oliy omili sifatida ta'riflansa oqibatda undan voz kechiladi. Chunki bunday sharoitda aql-idrok ongli harakatning asosi bo'lgan jarayonlar noto'g'ri talqin qilinadi. Individualizmning o'zi jamiyatda individualizmning tepasida turgan kuchlarning ahamiyatini anglashga imkon berayotgan bir vaqtda, kollektiv doktrina paradoksli ravishda «ongli» rejalashtirish tamoyillarini ilgari surgan holda majburiy ravishda qandaydir aql-idrokni inkor etuvchi mexanizmga oliy hokimiyat maqomini berishga majbur bo'ladi. Ijtimoiy kuchlar bilan murosa qilish va turfa xil fikrlarga bag'rikenglik bilan yondashish individualizmga xosdir. Bunday insonparvar g'oya, jamoatchilik hayotining yagona kishi tomonidan boshqarilishiga oid har qanday g'oyaning ortida turgan intellektual takabburlikning butunlay aksidir», deb sharhlaydi F. Xayek.

Demak, kollektivizm sharoitida boshqarish maqomiga ega bo'lgan shaxsning har qanday xulosasi oliy hokimiyat va davlat maqomiga ega bo'ladi. Uni bajarishga ommaviy majburiylik tartiboti o'rnatiladi. Turli ijtimoiy kuchlar, alohida individlar yoki fuqarolarning xulosalari inobatga olinmay, boshqaruvchi – individning hukmi ustuvorlik qiladi. Boshqaruvchilik maqomiga ega bo'lgan individning intellektual takabburlik illatlari ko'zga yaqqolroq tashlanadi va «dohiy»lik singari yuqumli, tuzalmas kasallikni vujudga keltiradi. Sovet imperiyasida ayni ana shu kasallik keng tarqalib, bir-biriga ulanib kettan, vorisilik maqomiga ega bo'lgan «dohiy»lar sulolasi bejiz paydo bo'lmagan edi. Natijada bu butun jamiyat ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muhitini belgilaydigan bedavo illatga aylangan edi.



Aslini olganda har qanday avtoritar rejimda ham individual va jamoatchilik kayfiyatlari mavjud bo‘ladi. Lekin o‘rnatilgan tartib va qabul qilingan rejim talablari asosida buyruq beruvchining shaxsiy xulosalari hal qiluvchi maqomni egallaydi.

Sotsialistik tuzumga xos bo‘lgan individuallik va kollektivchilik tamoyillarini, ularning o‘ziga xos kontsepsiyalarining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotda tutgan o‘rni va rolini, kishilik jamiyati rivojlanishida o‘tkazayotgan ta’sirini tahlil qilar ekan, A. Ivin quyidagi tamoyillarni ilgari suradi:

zamonaviy tarix eng avvalo G‘arb individual jamiyatlari va kollektiv jamiyatlar o‘rtasidagi qarama-qarishliklar hamda kurashlarni o‘zida aks ettiradi;

zamonaviy G‘arb jamiyati anglangan aniq maqsadga yetishish uchun xizmat qilmaydigan, tarix taqozosi bilan ko‘plab tasodifiy tizimlarda yuzaga kelgan murakkab chambarchaslikdir; kollektiv jamiyat oldindan ishlab chiqilgan reja asosida paydo bo‘ladi va aniq belgilangan muayyan maqsadga erishishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi;

shaxs avtonomiyasi, inson turmush tarzidagi qarashlar va moyillikning mutloq suverenitetini tan olish individualistik jamiyatning asosiy xususiyatlari hisoblanadi; kollektivistik jamiyat esa individ va uning erki qadriyat hisoblanuvchi avtonomiyaning har qanday sohasini rad etadi;

kollektivizmning qat’iy yagona maqsadga intilishi raqobat o‘rnini bosuvchi markazlashgan rejalashtirish mexanizmi yaratilishiga olib keladi;

kollektiv loyihalar mohiyati davlatning jamiyatda ustuvorligini ta’minlaydi, individ va jamiyatning barcha sohalari nazoratda bo‘lishiga, barcha turdagi individlar va alohida shaxslar uchun bir xil qadriyatlar va kollektiv axloq normasi bo‘lgan bir xil fikrlash tartibining o‘rnatilishiga, totalitar tuzumning terrori va bag‘ritoshligi bir qarashda yagona maqsadga asoslangan jamiyat hayotini ilohiylashtirishga olib keladi va natijada demokratik sotsializm o‘zining xomxayollik mahsuli ekanligini ko‘rsatadi, bunday sharoitda diktatura va totalitarizm muqarrar voqelikka aylanadi;

iqtisodiy erkinlik shaxs barcha huquq va erkinliklarining poydevori hisoblanadi; uning yo‘q qilinishi kollektiv jamiyatda shaxsning barcha huquq va erkinliklariga barham berilishiga olib keladi;

sotsializm (kommunizm) va natsionalsotsializm (natsizm) sharoitida kollektivizm butun mazmun mohiyati bilan totalitarizmning uzviy holati va yaqqol qiyofasi hisoblanadi;

sotsializm va natsionalsotsializm sotsializmning ikkita shaklini o‘zida eksi ettiradi; bu – baynalminallik va demokratiya shiorlarini ilgari suruvchi

radikal soʻl sotsializm hamda konservativ natsizm va irqchilik gʻoyalari bilan jamiyatni boshqarishga asoslangan oʻng sotsializmdir;

sotsializmning ushbu shakllari oʻzaro doimiy raqobatda boʻlsada, individualistik jamiyat ular uchun asosiy raqib hisoblanadi;

natsizm sotsialistik ildizlarga egadir; sotsializmning qator mamlakatlardagi inqirozi individualizm imkoniyatlari va intilishlarining roʻyobiga olib keldi;

oxir-oqibatda kollektivizm iqtisodiy taraqqiyotning turgʻunligiga olib keladi va iqtisodiy soha individualizm raqobatiga dosh bera olmaydi.

Kollektivizm sharoitida yetishib chiqqan totalitar rejimda partiya asosiy rol oʻynaydi. Ana shu holatda jamiyat boshqaruvi, tuzilgan rejalar va tanlangan yoʻl bevosita partiyaviy rahbarlik orqali amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, partiya davlat va hokimiyatning barcha vakolatlarini qoʻlga olib, yagona boshqaruvchi va rahbar maqomiga ega boʻladi.

Bir partiyali rejim sharoitida yagona mafkuraning ustuvorligi koʻzga yaqqol tashlanadi. Bunday mafkuraviy yakkahokimlik butun jamiyat barcha qatlamlarini qamrab oladi va ijtimoiy hayotning hamma sohalariga oʻz taʼsirini oʻtkazadi.

Mutaxassislarning xulosalariga koʻra sotsialistik va national-sotsialistik qarashlar ayni partiyaviy gʻoyalar asosida shakllanadi va hokimiyat boshqaruvini oʻz yoʻrigʻiga soladi. Buni biz Mussolini va Gitler siyosiy yoʻl-yoʻrigʻida, qarashlarida yaqqol koʻrishimiz mumkin.

Partiyaviy hayotning kommunistik shakli ham bunday qarashlardan begona emas. Kommunistlar fikrlar xilma-xilligini, qarashlar rang-barangligini, siyosiy plyuralizmni xush koʻrmaydilar. Aniqroq qilib aytganda, unga tish-tirnoqlari bilan qarshi turadilar. Bunga yaqin oʻtmishimizda guvoh boʻldik. «Aytganim aytgan, deganim degan» qabilidagi siyosiy va mafkuraviy yakkahokimlik kommunistik partiyaning asosiy tamoyili, uning siyosiy fenomenidir.

Darhaqiqat, KPSS oʻz vaqtida barcha xalqlarni birlashtirishni, millatlarni assimilyatsiyalash, milliy til, madaniyat, turmush tarzi va anʼanalarni eskilik sarqiti sifatida qoralab, yangi ijtimoiy birlik – sovet xalqini vujudga keltirish gʻoyasini ilgari surdiki, natijada jahon tarixiga kollektivizm tamoyillarining va gʻayri-insoniy qarashlarning eng yuksak choʻqqisi sifatida kirdi.

Hokimiyatni monopoliyalashtirish, erkinlik va demokratik qadriyatlarni cheklab qoʻyish, unga qarshi holatda zoʻravonlik va tazyiq, tahdid va qoʻrquv orqali jamiyat birligini taʼminlash kabi nomaqbul ish uslubini shakllantirdi.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda natsistlar va kommunistlar shaklan, amaliy faoliyati jihatidan farq qilsada, butun maqsad va mohiyati bilan aynan o'xshashligi, g'oyaviy jihatdan bir-biridan farq qilmasligi ayon. Tashqi ko'rinishda har ikkala rejimda ham siyosiy yakkahokimlik, davlat va hokimiyat maqomiga ega bo'lgan g'oyaviy hukmronlik ko'zga yaqqol tashlansa, ichki mohiyati va tub mazmuni bilan zo'ravonlik va tahdid, fuqarolar qalbiga qo'rquv tuyg'ularini kuchaytirib, ularning insoniy qadriyatlarini mensimaslik, tahqirlash va oxiroqibatda ularni fikrlamaydigan, o'zligini yo'qotgan zoologik mavjudotga aylantirish siyosati ustuvorlik qiladi.

Kommunistik partiya mafkurasida garchi «hamma narsa inson uchun, insonning baxt-saodati uchun» degan shior va shunga o'xshagan balandparvoz da'vatlar bot-bot takrorlansada, uning tub mohiyatida siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ruhiy terror maqsadlari mujassam edi. Ayni ana shu terror usuli bilan u navbatma-navbat, bosqichma-bosqich repressiyalarni tashkil etdi. Aholining ma'rifatli qatlamini yo'q qilib, omi va avom xalqdan iborat itoatkor, labbaygo'y, hamma narsaga fikrlamasdan, munosabat bildirmasdan tayyor turish illatlarini egallagan, ruhan ozurda, ma'nan qashshoq jamiyatni vujudga keltirdi. Bunday holatni R. Aron quyidagicha ifodalaydi: «Partiya yakkahokimlikka ega bo'lgan sharoitlarda ortodoksallik majburiydir. Hukmdorlar bilan kelisha olmaslik halokatga olib kelishi muqarrar edi. Shu singari rejimlar uchun, ularning so'l yo o'ng yo'nalishlaridan qat'iy nazar, ba'zi bir huquqiy harakatlar shakllarida o'xshashlik, masalan, lagerlarga mustaqil fikrlaydigan fuqarolarni jinoiy aybdorlar bilan bir xil maqomda qamash ularning har ikkisiga ham xos bo'lgan».

Jamiyatda muxolif kuchlarga yo'l bermaslik totalitarizm uchun xos xususiyat. O'z saflarini zo'r berib sadoqatli maslakdoshlari, ko'r-ko'rona labbaygo'ylari bilan to'ldirish jamiyat barcha qatlamlarini bir xil fikrlab, bitta g'oyani qo'llab-quvvatlashga olib keldi. Boshqacha qilib aytganda, kommunistik aqidaparastlik, mafkuraviy fanatizm barqaror bo'lgan jamiyat qurildi. Ana shu tarzda osonlik bilan, hech qanday to'siqlarga uchramay hokimiyatni egallash imkoniyatini qo'ldan bermay yashadi. Bunday tarixiy jarayon totalitarizmning eng oliy ko'rinishi sifatida umuminsoniyat tarixiga alohida bosqich sifatida kirdi. Totalitarizmning ijtimoiy-tarixiy va siyosiy mohiyatini o'rganar ekan, R. Aron unga besh yo'nalishda ta'rif beradi:

totalitarizm qandaydir bir partiyaga siyosiy faoliyat yurgizish uchun monopol huquq beradigan sharoitda yuzaga keladi;

ushbu partiya, eng avvalo yagona, bo'bro' avtoritet maqomini beruvchi mafkuraga ega bo'lib, keyinchalik ushbu mafkurani u rasmiy davlat haqiqati darajasiga ko'taradi;

ushbu rasmiy haqiqatni targ'ib qilish uchun davlat tazyiq o'tkazishning mutloq huquqi va e'tiqod vositalariga bosim o'tkazish vakolatini qo'lga kiritdi. Davlat va uning vakillari ommaviy axborot vositalariga butunlay o'z hukmini o'tkaza boshlaydi;

iqtisodiy va kasbiy faoliyatning ko'pchilik turlari davlat ixtiyoriga o'tadi;

Bunga qo'shimcha qilib yana aytish mumkinki, har qanday faoliyat yagona partiyaning tajovuzkor mafkurasiga bo'ysundirilganligi bois, turli sohalardagi har qanday mayda va zararsiz kamchilik, xatolik darhol mafkuraviy tus olib, siyosiy aybdorlik, g'oyaviy qo'poruvchilik holatiga tushib qoladi. Har qanday insonning barcha xatoliklari siyosiy lashtiriladi, mafkuralashtiriladi, natijada ayovsiz jazolanadi.

Kollektivizm g'oyasi totalitar rejimning tub mohiyati sifatida uning manbaiga, harakatga keltiruvchi kuchiga, quvvat beruvchi vositasiga aylandi. Ana shu tarzda butun jamiyatni taraqqiyotdan orqada qolishiga, umuminsoniyat sivilizatsiyasidan chekinishiga, oxir-oqibatda qoloqlikka yuz tutishiga olib keldi. «Rivojlangan sotsializm» va kommunizm singari balandparvoz shiorlar jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqimida o'zning mavqeini yo'qotdi. Dunyo taraqqiyoti poygasida yaroqsiz ekanligini, ojiz va notavonligini ko'rsatdi.

Tarixiy jarayon oxir-oqibatda jahon sotsialistik tizimini butun ko'lami va salmog'i bilan tanazzulga olib bordi. Insoniyat tafakkuridagi tub burilishlar, inson huquqlari va erkinliklari haqidagi g'oyalar tantanasiga yo'l ochib berdi. Ana shunday ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida XX asrning oxirlari totalitarizmga munosib baho berish, uni tub ildizlarini ochish davri bo'ldi.

Totalitarizm mohiyatini tushunish va unga baho berish xususida gap borar ekan, «Totalitarizmni aniqlashda, shubhasiz, partiyaning mutlaqligi, xo'jalik faoliyatining davlatlashtirilishini yoki mafkuraviy terrorni asos qilib olish mumkin. Ammo, ushbu hodisaning o'zi mazkur xususiyatlar birlashgan va to'liq, yaxlit aks etgandagina tugallangan ko'rinishga ega bo'ladi», deydi R.Aron.

Totalitarizm dunyoning turli mamlakatlarida turli shaklda vujudga kelgan va yashagan. Deylik, fashistlar Italiyasida ana shu rejimning rahnamosi bo'lgan partiya g'oyaviy zo'ravonligi, tahdidlar va tazyiqlarning serqirraligi, mafkuraviy yakkahokimlikning shafqatsiz darajadagi ta'sirchan usullaridan keng foydalanganligi bilan SSSR hukmronlik qilgan totalitar

rejim oldida o'zini o'zini, jamiyatda tutgan o'zini jihatidan sovet totalitarizmiga teng kela olmas edi. Bularni inobatga olgan R. Aron «Kommunistik rejim tomonidan yaratilgan odam ma'lum bir e'tiqoddan yuzaga kelgan mavjudot sifatida emas, balki ikkilamchi naturadir. U umumiy tamoyillarni katta yoxud kichik e'tiqod, ishonch bilan qabul qiladi, real holatda sharoitga qarab nimani gapirish mumkinligini, nimaning mumkin emasligini tushunadi. Bu odam industrial jamiyatga tegishli bo'lgan, o'zi goh spektik, goh fanatik munosabatni his qiladigan ta'limot bilan qurollangan odamdır», degan xulosaga keladi.

Kollektivizm, demak, butun mohiyati bilan shaxs, alohida individ imkoniyatlarini cheklab qo'yadigan, aniq, oldindan belgilab qo'yilgan tartibotlar, rejimlar va qoliplar doirasidagina yashash mumkin bo'lgan hodisa. Buni biz yaqin o'tmishimizda – sotsializm sharoitida yaqqol ko'rdik. Chunonchi, kollektivlashtirish (kolxozlashtirish) siyosatining o'zi millionlab fuqarolar faoliyatini cheklash orqali butun jamiyat taraqqiyotini izdan chiqardi. Bu bevosita mehnat taqsimotida, mehnatga qarab haq to'lash tartibotida ham o'zini namoyon etdi. Ya'ni jamoaga a'zo bo'lgan besh kishi jismoniy va ma'naviy jihatdan besh xil mehnat qilish imkoniyatiga ega, besh xil ishlaydi. Biroq ularning barchasi bir xil maosh oladi.

Kollektivizm tushunchasining Sharqda, xususan, o'zbeklarda ma'naviy-ijtimoiy mazmuni ham borki, bu bevosita turmush tarzida, kundalik tashvishlar va muammolarni birgalikda hal etishda namoyon bo'ladi. Ya'ni odamlar – millati, elati, kasbu kori, ma'lumoti, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar uyushib yashash, mahalla atrofida birlashib kun kechirish an'analari asosida yashashadi. Buni mahallaning axloqiy-tarbiyaviy, ma'naviy-ruhiy qo'llab-quvvatlash faoliyati shaklan kollektivizmga o'xshashi mumkin. Biroq tub mohiyati bilan undan keskin farq qiladi.

Jahon tarixiy taraqqiyoti tajribasi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini, inson faoliyatini individualizm orqali ro'yobga chiqarish tendentsiyasini ilgari suradi va qo'llab-quvvatlaydi. Ana shunday tarixning rivojlanish tendentsiyasini buzmasdan davom ettirish bugun mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanishlar, o'zgarishlar va ko'p qirrali islohotlar mohiyatini o'zida mujassam etadi. Birinchi Prezident Islom Karimov evolyutsion taraqqiyot nazariyasining tagida xuddi ana shu g'oya yotadi va unga suyanadi.

Masalan, asta-sekinlik bilan, bosqichma bosqich fuqarolar ongi va tafakkurida tub burilishlar yasash – mulkchilik, mulkka egalik qilish, mulkni boshqarish tajribasini egallash orqali kollektivizm sharoitida

shakllangan boqimandalikka, tayyorga ayyorlik illatlariga barham berish tamoyili shakllanmoqda. Jumladan, jamoa va davlat xo‘jaliklarini tarqatib yuborib, ularning o‘rnida fermer xo‘jaliklarining keskin rivojlanib borayotganligi fuqarolar yaratuvchilik imkoniyatlarini ko‘proq ro‘yobga chiqarmoqda. Mehnatga ijodiy munosabat moddiy manfaatdorlik asosida o‘zgarib bormoqda. Natijada jamiyatda yalpi safarbarlik, ruhiy ko‘tarinkilik, ma’naviy va moddiy rag‘bat kuchaymoqda.

Jamiyatni tabiiy rivojlantirishni e‘tiborga olish, yuzaga kelayotgan muammolarni tadrijiy ravishda hal etish maqsadi tufayli «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaslik», «Islohotlarni bosqichma bosqich amalga oshirish», «Jamiyatni tubdan o‘zgartirishning revolyutsion yo‘lini emas, evolyutsion yo‘lini tanlash», «Islohotlarni inson ongi va qalbi orqali amalga oshirish», «Islohot – islohot uchun emas, islohot inson uchun» kontseptsiyalarini amalga oshirish yo‘lidan borilmoqda. Bunda jamiyatni bir holatdan ikkinchi bir holatga o‘tkazish jarayonida fuqarolar tafakkurini yangilanishlar oqimida o‘zgartirish va ularda yangilanayotgan hayot ko‘nikmasini shakllantirish singari g‘oyalar ilgari surilmoqda hamda izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda totalitarizm nazariyasiga, uning tub mohiyatiga, butun metodologiyasiga faqat va faqat evolyutsion nazariyagina qarshi turishi mumkinligini O‘zbekistonda qaror topayotgan va tobora shakllanib borayotgan ijtimoiy-siyosiy va tarixiy jarayonlar misolida ko‘rmoqdamiz.

Individualizmning hozirgi zamondagi eng samarali ko‘rinishi fuqarolik jamiyati qonuniyatlarida va mohiyatida yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Zotan, fuqarolik jamiyati – jamiyatni davlat tomonidan emas, fuqarolar tomonidan boshqarilishiga asoslangan, ularning maqsadi va manfaatlari inobatga olingan ijtimoiy-siyosiy tizim. Bunda mamlakatning bir fuqarosi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan o‘z ehtiyojlarini jamoat tashkilotlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy uyushmalar, partiyalar va nodavlat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiradilar. Fuqarolik jamiyatida davlat fuqarolar ustidan emas, balki fuqarolar davlat faoliyati ustidan to‘la nazorat o‘rnatadilar, davlatning ko‘pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Davlat hokimiyati esa mamlakatning umumiy taraqqiyot rejalarini tuzadi, uning strategiyasini ishlab chiqadi, mudofaa, milliy xavfsizlik, davlat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini, uning suverenitetini ta‘minlash, pul-moliya, soliq, bank siyosati, tashqi siyosat va jahon hamjamiyati bilan aloqalar tizimini yaratadi, uni boshqaradi.

Fuqarolik jamiyati haqidagi ilk tasavvurlar Aristotelning «Siyosat» asarida bayon etilgan. Unga ko‘ra insonning erkin yashash huquqi, kishilik

jamiyatining adolat va haqiqat ustuvorligi asosida tashkil etish orqali ta'minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Davlatning kuch-qudrati, farovonligi, uning jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi vosita ekanligi kabi g'oyalar ilgari suriladi, Fuqarolik jamiyati haqidagi bu g'oyalar XVII asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, Gobs asarlarida takomillashtirildi. Kant, Russo, Gegel, Popper g'oyalari jahon ijtimoiy tafakkuri olamida fuqarolik jamiyatining yangidan-yangi qirralarini, umum-insoniy qadriyat sifatidagi mohiyatini ochib berdi.

Sharqda fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini mavjud. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan sintezlashgan, fe'l-atvor, hatti-harakatlar va qoida-me'yorlarning uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Demak, jamiyatda qonun ustuvor bo'ladi, qonun oldida barchaning tengligi, javobgarligi ta'minlanadi. Inson manfaatlarini, haq-huquqlari ayni ana shu qonunlar bilan kafolatlanadi. Bunday qarashlar Sharqda azaldan mavjud bo'lgan. Bu tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib, rivojlanib bordi. Jumladan, eng qadimiy madaniy yodgorlik – «Avesto»da kishilarning uyushib yashashi, o'zaro munosabatlar va aloqalarning axloq va me'yorlarga tayanishi kabi g'oyalar ilgari suriladi. Bu o'z-o'zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni hukmron shaxs tomonidan emas, e'tirof etilgan me'yorlar boshqarishi kabi fuqarolik jamiyatining ilk elementlaridan dalolat beradi.

Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol fuqarolar jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etiladi. Qonunlari mukammal bo'lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo'lishi muqarrar ekanligi bayon etiladi. «Shahar (mamlakat) aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi», deydi alloma. Uning xulosalariga ko'ra jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiy-ma'naviy jihatdan barkamol bo'lmagan sharoitda avj oladi. Bunday xalqni tartibga chaqirish uchun kuchli ta'sir o'tkazuvchi hokimiyat kerak bo'ladi. Erkin jamiyat, ozod fuqaro tamoyiliga fuqarolik jamiyatining asosiy xususiyati sifatida qaralgan va qonun ustuvorligiga jamiyat barkamolligi orqali erishilgan. Bu kabi g'oyalar Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, AmirTemur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalar tomonidan ham ilgari surilgan va amaliyotda mohirlik bilan qo'llanilgan. Bular hozirgi zamon tushunchasidagi fuqarolik jamiyatining muhim elementlaridir.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish tarixiy an'ana bo'lsada, u butunlay yangi tarixiy sharoitlarda jahon davlatchiligi ilg'or tajribalari va ko'p ming yillik milliy an'analarning sintezi sifatida dunyoga kelmoqda.

Ya'ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, hurriyat va qat'iy tartib-intizom uyg'unligida barkamol kishilik jamiyati shakllantirilmoqda. «Biz, deydi Birinchi Prezident Islom Karimov, fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir». Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy adolat printsiplari to'la ta'minlanadi. Jamiyatni bevosita har bir fuqaro va qonun boshqaradi. Inson tom ma'noda hayot gultojiga, inson qadru qimmatini, yashash huquqi va ehtiyojlari qadriyatga aylanadi. Inson ustidan insonning hukmronligiga yo'l qo'yilmaydi. Totalitarizm, avtoritarizm qarashlariga keskin qarshi holda jamiyatda individualizm, shaxs ozodligi va erkinligi ta'minlanadi.

### **Totalitarizmning ijtimoiy-siyosiy va tarixiy talqini**

Qayta qurish siyosati o'zining ko'zlagan maqsadiga, kutgan natijasiga erisha olmadi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kutilmaganda o'z o'zanini o'zgartirib yubordi. Demokratiya to'lqinlari erkin so'z, erkin fikrni zaruratga aylantira boshlagan bir paytda sho'ro jamiyatini totalitarizmdan erkinlik sari, hurriyat sari sifat o'zgarishiga olib kelayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida namoyon bo'ldi.

Biroq Kreml bundan manfaatdor emas edi. M. Gorbachev boshchiligidagi Sovet hukumati rahbariyati nomigagina erkinlikka yo'l berib, inson huquqlari xususida ko'pirtirib gapirib, asl mohiyatda esa totalitar tuzum va ma'muriy buyruqbozlik rejimini saqlab qolishdan manfaatdor edi. Zotan, ular hech qachon SSSRning tarqalib ketishini nazarda tutmagan va undan manfaatdor ham emas edi.

Tarixiy jarayonlar shu darajada tezlashdiki, oxir-oqibatda nafaqat notiq M. Gorbachevni, balki butun Siyosiy Byuroni, partiya Markaziy qo'mitasini, hukumatni talvasaga solib qo'ydi. Natijada ma'muriy organlar kuchidan foydalanish yo'li tanlandi. Turli shaharlarda, mintaqlarda, SSSRning faol va demografik jihatdan qulay bo'lgan, geosiyosiy jihatdan muhim nuqtalarida beqarorlikni vujudga keltirish orqali mamlakat aholisini chalg'itish yo'lga o'tildi.

Ammo endi uyg'ongan kishilarni g'aflat pardasiga solishning iloji yo'q edi. Chunki erkin fikrlash, erkin yashash nashidasini sura boshlagan ozod fuqaroni qaytadan zanjirband qilishga qanchalik urinmasin, hukumatning kuchi yetmas, fuqaroning esa xohishi yo'q edi. Boshqacha qilib aytganda, mamlakat fuqarolari manfaati bilan totalitar rejimdagi davlat qiziqishlari o'rtasida "Xitoy devori" tiklanib bo'lingan edi. Ana shunday ziddiyatli bir paytda davlat o'z mavqei va rolini yo'qotmaslik uchun ozodlikka



intilayotgan, hurriyat uchun kurashayotgan uygʻoq fuqarolar oʻrtasida turli nizolarni uyushtirishi zarur boʻlib qolgan edi. Ana shu maqsadda Boltiq boʻyidagi toʻqnashuvlar, Armaniston, Ozarboyjon, Gruziyadagi qonli fojialar, Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) va Rossiyaning boshqa ayrim mintaqalarida boʻronlar va poʻrtanalar avj olib ketdi.

Qizil imperiyaning tajovuzkorona siyosati ana shu tarzda 73 yil mobaynida asta-sekinlik bilan chok-chokidan soʻkila bordi. Natijada mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini ham, odamlar hatti-harakatini ham boshqarib boʻlmaydigan murakkab va tahlikali holat vujudga keldi.

\* \* \*

...Aslini olganda Sovet hokimiyati tizim sifatida juda ham mustahkam emas edi. U oktyabr toʻntarishining urho-ur, surho-surlari oqibatida vujudga kelgan, boshqacha qilib aytganda, poydevori qumdan koʻtarilgan jamiyat edi. Inson manfaatlari, haq-huquqlari butkul inkor etilgan, zoʻravonlik va tazyiqni asosiy ish usuliga, siyosiy boshqaruv uslubiga aylantirgan hokimiyat sifatida koʻzga tashlandi.

Ana shunday gʻayri-insoniy va gʻayri-axloqiy jamiyat asoschisi sifatida V.Lenin hokimiyatni qoʻlga kiritgan dastlabki kunlaridanoq siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, maʼnaviy va jismoniy terrorni hokimiyatni boshqarishning muhim omili darajasiga koʻtardi va uni mohirona amalga oshirdi. Zero, oktyabr toʻntarishining qonli «gʻalaba»si ham xuddi ana shu tamoyil asosida qurilgan va amalga oshirilgan edi.

Ommani chalgʻitish, jamiyatdagi barqarorlikni barbod etish, mutelik va qullik ruhiyatini chuqurlashtirish yoʻlida turli holatlarda va vaziyatlarda turli shakldagi siyosiy tashkiliy tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Strategik maqsad – dunyoga hokimi mutlaq boʻlish, jahon sotsializmini amalga oshirish orqali insoniyat dohiysiga aylanishga harakat qilindi. Ana shunday maqsadlarini amalga oshirish uchun Lenin turli tuman nayranglarni oʻylab topdi va ularni oʻta shafqatsizlik bilan amalga oshirdi.

Natijada Sovet hukumatida «Yangi iqtisodiy siyosat» ni amalga oshirish singari siyosiy tashkiliy «islohot» oʻtkazildi. Mashhur olim D. Volkogonovning fikricha, Lenin bu siyosatga yuzaki qaraganda xayrixoh boʻlsada, asl mohiyati bilan unga qarshi edi. D. Volkogonov shunday misol keltiradi: 1919 yil 5 dekabrda Sovetlarning Butun Rossiya VII sʻezdida nutq soʻzlar ekan, Lenin juda baland ruh bilan oʻz maqsad-iddoilarini ochiq-oydin bayon etadi: «Kim non savdosi erkinligini xohlar ekan, xato qiladi. Biz bunga bir tomchi qonimiz qolguncha kurashamiz. Bu sohada hech qanday chekinishlarga yoʻl qoʻymaymiz». Bu inqilob dohiysining mamlakatni xonavayron qilish, xalqni abgor etish borasidagi koʻp qirrali siyosatidan birigina, xolos. Ayni ana shunday ocharchilik va ataylab

uyushtirilgan kambag‘allashtirish siyosati O‘rta Osiyoni ham chetlab o‘tmadi. Farg‘ona vodiysining o‘zida 1921 yili 64 ming 315 kishi ochlikdan vafot etdi. Bu Lenin «xalqparvar» siyosatining Turkistondagi tantanasidan dalolat berar edi.

Leninning safdoshlaridan biri A.Ioffe quyidagilarni yozadi: «Qachonki, 1921 yili Markaziy Qo‘mita meni Turkistonga ishga yuborar ekan, safar oldidan bo‘lgan suhbatda va keyinchalik menga yozgan xatlarida V.I.Lenin doimiy xavotirda ekanligini alohida ta’kidlardi. «Turkiston – bu bizning jahon siyosatimiz. Turkiston – bu Hindiston», derdi.

Turkistonning geosiyosiy o‘rni va ahamiyati o‘sha paytdayoq inqilob dohiysi diqqatini o‘ziga tortgan edi. Ayni Turkiston orqali Osiyoni zabt etish siyosati, Osiyoga egalik qilish maqsadini amalga oshirish uchun Turkiston muhim strategik ahamiyatga ega ekanligi Sovet hukumati turli davrlardagi arboblarning diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, Lenin Turkistonga juda katta ochko‘zlik va ishtaha bilan qaragan.

Sovet hokimiyati uchun, xususan, dastlabki yillarida Rossiya sanoatini xom ashyo bilan, dahshatli ochlik iskanjasida qolgan xalqini esa non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash uchun Turkiston katta strategik ahamiyatga ega edi. Shuning uchun ham Lenin «hammamizga ma’lumki, yengil sanoat xorijdan keltiriladigan paxtaning yetishmasligi bois juda kuchli inqirozni boshdan kechirmoqda... Yagona manba – bu... Turkistondir», degan edi.

Xom ashyo taqchilligi muammosini hal etish uchun 1921 yili Leninning eng sodiq safdoshlaridan biri M.P.Tomskiy Turkistonga yuborildi. Uning rahbarligida o‘sha yilning o‘zida oldingi yilga nisbatan dehqonchilik maydoni 300 ming desyatinaga, paxta maydoni esa 100 ming desyatinaga ko‘paydi.

Povolojedan dahshatli ocharchilikni boshidan kechirayotgan 300 mingdan ortiq kishi ko‘chirib kelinib, Turkistonda joylashtirildi. Leninning Rossiyaning markaziy tumanlari aholisiga yordam shioriga javoban Narkomprodga 250 ming pud, Moskvaga 600 ming pud bug‘doy yuborildi.

Bular hali inqilob olovi butkul so‘nmagan bir paytda Sovet hukumati dastlabki talontorochilik siyosatining natijasi edi. Vaholanki, bu siyosat O‘zbekiston SSSR tarkibidan to‘la va butkul chiqib ketgunga qadar davom etdi. O‘zbekistonda yetishtirilgan paxta, pilla, qorako‘l teri, meva-sabzavot, poliz mahsulotlari, oltin, gaz va boshqa yer osti boyliklari muntazam ravishda tashib ketildi. Ana shu tarzda lenincha siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy va ijtimoiy terror «rivojlangan sotsializm» sharoitida ham «qardosh» o‘zbeklar va «sharq mash’ali» O‘zbekistonning sho‘rini quritdi.

Leninning tajovuzkor ruhi chegara bilmas edi. U hech qanday milliy, ma'naviy manfaatlar doiralariga sig'mas edi. Axloqiy-diniy tafakkur va turli xalqlarning milliy-an'anaviy turmush tarzi, asrlar mobaynida shakllangan ruhiyati bilan bog'lanmagan, faqat dunyoni zo'ravonlik bilan egallash ruhi unda ustunlik qilar edi. Shuning uchun ham inqilobiy o'zgarishlar doirasi kengayib, bir davlat doirasidan chiqib ketdi. Jahon sotsializm vasvasasi mintaqa va butun sayyorani egallab olishga intilgan xayolparastlik kasalligining natijasi edi.

Lenin shu darajada o'zining havoyi xayollariga qat'iy ishonar ediki, uning ko'lami va salmog'ini baholash qiyin edi. Dunyoni egallash vasvasasi uning ongu shuurini butunlay qamrab olgan va natijada ma'naviy-ruhiy jihatdan butun vujudi bilan unga intilardi. Bu bevosita inson va shaxs sifatida uning ma'naviy-ruhiy qiyofasi, siyosiy madaniyati va axloqiy tarbiyasi mahsulidir. D. Volkogonovning tili bilan aytganda, Lenin ana shu maqsad yo'lida o'z qalbigagina emas, balki butun insoniyat sivilizatsiyasiga ham o't qo'yishga tayyor edi. Yana shuni aytish kerakki, unga xalqning, millatning ahamiyati yo'q edi. U hatto rus xalqining juda katta qismini qurbon qilishdan ham o'zini tiymas edi. Ana shu qurbon bo'lganlar kulini ko'kka sovurib, huzur qilar va dunyoga o't ketishini kutib yotar edi.

Aytish mumkinki, Lenin faqatgina beshafqat bolshevik emas, ayni paytda planetar «islohotchi» ham edi. U o'zining «islohotlar nazariyasi» bilan dunyoni «yangi»lamoqchi, yangi «payg'ambar»lik da'vosi bilan yashaydigan holatga kelib qolgan edi. Shuning uchun ham 1917 yildayoq ulkan davlatni qo'lga kiritgani hamono, u Germaniya, Vengriya, Eron, Hindiston, Xitoy, Polsha va boshqa mamlakatlarni ham zabt etishga intildi. Uning ana shunday zo'ravonlik siyosatini, maqsadlarini nazarda tutgan mashhur rus olimi N. Berdyaev o'z vaqtida «Lenin antigumanistgina emas, ayni paytda u antidemokrat» ham deb nihoyatda to'g'ri baho bergan edi.

Aslini olganda diktaturaga, zo'ravonlikka intilish inson ruhiyati nuqtai nazaridan avval-boshda siyosiy maqsadlarga erishish uchun imkon yaratadi. Keyinchalik yaxlit faoliyatga, hatti-harakatlar tizimiga aylanadi. Natijada, bora-bora bunday ruhiy moyillik kayfiyati kuchayib, asta-sekinlik bilan ma'naviy imkoniyatlarni chegaralab qo'yadi. Ana shunday paytda inson shaxsiy manfaatlari va intilishlari yo'lida o'zini juda katta siyosiy iroda va siyosiy madaniyat bilan boshqarmasa, o'zini o'zi yengib yashamasa, havoyi intilishlar quliga aylansa, umuminsoniy qadriyatlardan uzoqlashib boradi. Natijada ozodlikning tanazzuliga, hurriyatning inqiroziga, inson haq-huquqlarining poymol etilishiga keng yo'l ochiladi. Lenin va leninchilar xuddi ana shunday insoniy qadriyatlardan ham, hech bo'lmaganda shaxs sifatida insoniy fazilatlardan ham ancha olisda edilar. Ular kayfiyati va fe'l-

atvoridagi tajovuzkorlik shaklan turlanib, zamonga moslanib tursada, mohiyatini mazmunan yo‘qotmadi.

Lenin har doim o‘z atrofidagi rahbarlarga va safdoshlariga bir narsani takrorlab kelgan (1921 yil): «Yashirin ravishda terror tayyorlansin: bu zarurat va shoshilinch». Aytish mumkinki, bunday lenincha qattiqqo‘llikning manbai va mohiyatini anglash unchalik qiyin emas. Tashqi ko‘rinishda «ko‘ngilchan», «mehribon», «odamlarga e‘tiborli» bo‘lgan dohiyning bunday qarashlari jinoiy, siyosiy va yoki milliy manfaat yo‘lidagi qattiqqo‘llik emas, aksincha, butun lenincha dunyoqarash zulmining, uning falsafasining, mantig‘ining, bugun fe‘l-atvoriyu munosabatlarini o‘zida mujassam etgan tafakkur tarzining mayib-majruh qiyofasi edi.

Biroq buyuk imperiyachilik shovinizmi Lenin faoliyatida va siyosatida alohida o‘rin va mavqega ega edi. Zotan, u barcha ittifoqdosh respublikalarga o‘z erkini o‘ziga berish tamoyillarini so‘zda qo‘llab-quvvatlasada, tub mohiyati bilan unga qarshi edi. Jumladan, uning milliy masalaga doir qarashlarini tahlil qilar ekan, A. Avtorxonov «Leninning milliy mustamlakachilik masalasidagi siyosiy dasturi – katta imperiyalarni tugatib, tobe xalqlarni ozod qilish emas, barcha milliy imperiyalarni bir sovet superimperiya-siga yig‘ib, bolshavoylar dasturining ikkinchi qismini amalga oshirish – ya‘ni barcha millatlarga qo‘shib yuborib, ham mustamlaka, ham hokim millatlarni yo‘qotish natijasida kommunistik insoniyat qiyofasidagi yagona baynalmilal chatishma yaratishdir», degan edi.

Millatlarni yo‘q qilish, milliy urf-odatlar, an‘analar va milliy tilga eskilik sarqiti sifatida qarash, «din – af‘yundir» degan shior ostida butun mamlakat xalqlarini iymoni va e‘tiqodidan ayirish sovet imperiyasining asosiy maqsadi edi. Bu ulkan maqsadni amalga oshirishning lenincha «nazariya»si yaratildi va bu g‘oya shafqatsizlik bilan hamma joyda joriy qilindi. «Toki turli millatlar bir davlatga uyushgan ekan, markschilar hech qachon federatsiya printsiplarini ham, markazni kuchsizlantirishni ham qabul etmaydilar», deb Lenin qat‘iy xulosaga kelgan edi.

Darhaqiqat, turli millatlarning bir davlatga emin erkin, o‘z xohish istagi bilan birlashishi, umuminsoniy qadriyatlar tantanasi yo‘lida o‘ziga xos federatsiyani tashkil etish bir qarashda ijobiy hodisa edi. Biroq, lenincha «markazni kuchsizlantirmaslik» siyosati yangi mustamlakachilikning, zo‘ravonlikning hali insoniyat tarixi ko‘rmagan hodisasi edi.

Lenin diktatura va zo‘ravonlik siyosatiga alohida e‘tibor berar edi. Ayni paytda bu siyosatni izchillik bilan, doimiy ravishda rivojlantirib, takomillashtirib va o‘z navbatida o‘ta hushyorlik bilan nazorat qilib borar

edi. Uning xulosalariga ko'ra «Proletariat diktaturasi – eski jamiyat kuchlari va an'alariga qarshi qonli va qonsiz, zo'rvonlik va tinchlik, harbiy va iqtisodiy, ma'muriy va ma'rifiy yo'llar bilan keskin kurashdir».

Lenin milliy siyosatining qirralari ko'p va xilma-xil edi. U bir qarashda turli millatlar va xalqlar orasida tinchlik, ijtimoiy-iqtisodiy bag'rikenglik, milliy erkinlik va ma'rifiy targ'ibot usullari orqali o'z g'oyalarini singdirishga harakat qilsa, asosiy maqsadiga erishish uchun zarur bo'lib qolganda qon to'kishdan, zo'rvonlik ko'rsatishdan, harbiy kuchlardan shafqatsizlarcha foydalanishdan ham o'zini tiymas edi.

Ana shunday xulosalardan kelib chiqib, Leninning milliy mustamlakachilik siyosati strategik maqsadga aylangan edi. Uning asl maqsadi asta-sekinlik bilan katta imperiyalarni tugatib, mustamlakachilik azobini tortayotgan xalqlarga «rahmdillik» qilish, ularning «qadru qimmatini» tiklash va inson huquqlarini barqaror etish emas edi. Aksincha, sovet gegemon davlatini tashkil etib, barcha millatlarni va elatlarni qo'shib yuborib, ularni o'zligidan ayirib, sun'iy urchitilgan bedavo xalqni yaratishdan iborat edi. Bunday bedavolardan iborat jamiyatni esa har qanday kuyga solish va o'z manfaati yo'lida xohlaganicha boshqarish mumkin bo'lar edi.

Garchi kichik xalqlarning, millatlar va elatlarning yo'q qilinishi, yagona rus tilida so'zlashuvchi yangi xalq yoki ijtimoiy birlikni vujudga keltirish Lenin boshchiligidagi imperiya uchun qanchalik manfaatli bo'lsa, begunoh va jabrdiyda rus xalqining o'zi uchun shunchalik xatarli va, ayni paytda, tanazzulga boshlovchi siyosat edi. Lenin boshchiligidagi siyosiy qo'poruvchilar «ruslashtirish» siyosati bilan rus millatiga mansub xalqni chalg'itar edi. Biroq ularning bu siyosatning tag-mohiyatini tushunish uchun vaqtlari yetmasdi. Chunki siyosiy jarayon nihoyatda tig'iz va ataylab ushbu tadbirni tezlashtirish manfaatdor kuchlarning ish uslubi edi. Umuman olganda fuqarolarga erkin fikrlash imkoni berilmas, jarayonlar borishini tahlil qilish va ularga munosabat bildirish sharoiti yo'q edi. Xullas, Lenin «ruslashtirish» siyosatini amalga oshirishning yo'llari ko'p va xilma-xil edi. Buni A. Avtorxonov quyidagilarda ko'radi.

1. 1958 yilgi maktab islohoti munosabati bilan milliy maktablarda milliy tilni o'rganish va milliy tilda o'qitishni ko'ngilli deb e'lon qilgan qonun qabul qilindi. Farzandini milliy maktabga beradimi, o'ris maktabigami – endi ota-onalarning o'ziga bog'liq. Milliy maktabda darslar o'ris tilida olib boriladimi, milliy tildami – buni ham ular hal qilishadi. O'z o'zidan ma'lumki, ota-ona farzandlarining kelgusi mavqei «yuqori» ga ko'tarilishi uchun o'ris tili, o'ris maktabi orqali ekanini yaxshi biladi va farzandini o'sha yoqqa beradi.

2. Milliy tillarning lugʻaviy jamgʻarmasiga shu tilda muqobil soʻzlar boʻlishiga qaramasdan, ataylab oʻrischa soʻzlar va atamalar kiritiladi. Hatto texnika taraqqiyoti natijasida paydo boʻlgan yangi oʻrischa soʻz birikmalarini ham, garchi milliy soʻz birikmalari bilan shu maʼnoni berish imkoni boʻlsada, milliy tillarga kiritish taklif etildi.

3. Turkiston va Kavkazdagi respublikalar umumiy-milliy tarkibida slavyanlar koʻpayishi moʻljallanib, slavyan aholisini respublikalarga koʻchirib kelib, ommaviy mustamlakalashtirish ishiga kirishildi».

Ana shu tarzda milliy siyosat baʼzan oʻta noziklik bilan va baʼzan oʻta qoʻpollik bilan amalga oshirildi. Tarixidan ayrilgan, oʻtmishini unutgan, milliy madaniyati va anʼanalaridan mosuvo boʻlgan sovet xalqi singari ijtimoiy birlik dunyoga kelishi uchun hamma choralar koʻrildi.

Umuman olganda «sovet xalqi» degan atamaning tagida nima yotadi? Bu qanday tushuncha? U nimani anglatadi? Sovet olimlari buni quyidagicha sharhlashdi: «Sovet xalqi insonlarning yangi tarixiy, ijtimoiy va baynalmilal umumlashmasi boʻlib, oʻz yagona hududiga, iqtisodiga, mazmunan sotsialistik madaniyatiga, ittifoq umumxalq davlatiga va kommunistik qurishda umumiy maqsadiga egadir. Umumiy til... Oʻris tilidir».

By Lenin milliy siyosati asosidagi ilmiy metodologiyaga tayangan oʻsha davr fanining nuqtai nazari. Zotan, u paytda har qanday fan – u ijtimoiy-gumanitar boʻladimi yo tabiiy-aniq fanlar boʻladimi, qatʼiy nazar, yagona siyosatga boʻysundirilgan va har qanday fan metodologiyasi Lenin qarashlariga asoslangan edi. Fan siyosiy lashtirilgan va mafkuralashtirilgan edi.

Bunday illatlar faqat Leningagina xos emasdi. Uning ishining davomchilari ham ayni ana shu maqsad va gʻoya bilan yashashardi. Stalin, Xrushchov, Brejnev, Suslov, Andropov, Chernenko va boshqalar ham ayni ana shu maktab taʼlimini olgan, ana shu taʼlimotning sodiq davomchilari edi.

Milliy masalaga munosabatda lenincha yondashuv butun sovet davlatining izchil, doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib borgan siyosatiga aylandi. Zotan, «dohiy» sovet hokimiyatining dastlabki yillaridayoq «bashorat» qilgan edi: «...millatlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilashi ularning gʻayri millatlar jamoalaridan davlat boʻlib ajralishi, oʻz mustaqil milliy davlatini tuzishi demakdir».

Demak, Lenin millatlarga erkinlik berish va milliy ravnaqni taʼminlashdan manfaatdor emas. U tom maʼnodagi maʼnaviy terror tarafdori. Shuning uchun ham oʻz siyosatini izchil va shafqatsiz ravishda davom ettirdi: «Bir davlatning ichida turli millatlar boʻlishi zarurdir, biz

markschilar ularni yaqinlashtirib, qo‘shib yuborishga intilamiz», dedi. Demak, bir mamlakat ichidagi turli millatlar madaniyatlararo integratsiya orqali bir-birini tushunish, o‘zaro hurmat va milliy madaniyatlar ravnaqini ta‘minlash emas, balki ularni birlashtirib, qo‘shib, yo‘q qilib borish yo‘lidan borar edi.

Lenin ta‘limoti uning sodiq izdoshlari tomonidan zamonga moslashtirilib davom ettirildi. Jumladan, Stalin «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik», Brejnev «mazmunan yagona sotsialistik, milliy shakllari turlicha, ruhan baynalmilal madaniyat»ni yaratish uchun kurashdilar.

Kommunistik g‘oyada vorisiylik butun qonuniyatlari bilan ta‘minlangan edi. Leninning g‘oyaviy shajarasi shu darajada mustahkam, sadoqatli va e‘tiqodli ediki, ularni bir-biridan kam qo‘yish mumkin emas edi. Ana shunday siyosiy sadoqatni yorqin ko‘rsatgan Brejnev sun‘iy sovet xalqini vujudga keltirish borasida o‘ziga xos «shafqatli», «yumshoq» yo‘lni tanladi. Bu bilan u hech kimga yomon ko‘rinmadi, hech qanday millatlar va elatlarga to‘g‘ridanto‘g‘ri tazyiq o‘tkazmadi. Hammasining ishonchini qozonishga harakat qildi. Biroq ana shu yumshoqlik va siyosiy «madaniyat» bilan millatlarni o‘zligidan ayirishning o‘ziga xos yo‘llarini topdi. U juda ustomonlik bilan kichik xalqlar va millatlar tarixini butunlay qaytadan yaratishga da‘vat etdi. Butunlay yangi g‘ayri-milliy, g‘ayri-ilmiy, soxtalashtirilgan, sun‘iylashtirilgan tarix dunyoga keldi. Buni A.Avtorxonov uchta yo‘nalishda ko‘radi:

birinchi aqida – barcha o‘ris bo‘lmagan xalqlar chor imperiyasiga o‘z xohishlari bilan qo‘shilgan emishlar;

ikkinchi aqida – bunga qarshilik ko‘rsatgan hamma milliy ozodlik harakatlari jaholatparast kuchlar ekan;

uchinchi aqida – bu xalqlarning ko‘hna chor imperiyasiga qo‘shilishi go‘yo ular uchun taraqqiyparvar hodisa bo‘libdi».

Ana shu «taraqqiyparvar» lik millatlarning asta-sekinlik bilan yemirilishiga olib keldi. Biroq, bu bilan haqiqiy milliy xususiyatlar, e‘tiqod va iymon, urf-odatlar va an‘analar tag-tomiri bilan yo‘qolmadi. Yuzaki qaraganda hukmron siyosatga «labbay»go‘ylik, ichki mohiyati bilan esa milliy qadriyatlarga e‘tiqod parallel ravishda yashadi.

Garchi o‘sha davrdagi fan, mafkura lenincha milliy siyosatning brejnevona talqinini zo‘r berib tadqiq etib, nazariy «asoslab», ilmiy metodologiyasini yaratishga va uni ommaviy axborot vositalari jon-jahdi bilan targ‘ib etishga intilsalarda, bu jiddiy o‘zgarishlarga olib kelolmadi. Jumladan, 70-yillar ilmiy nazariyada bu masala birmuncha tadqiq etilgan va aniq xulosalarga kelingan edi: «Aholining o‘sib borayotgan harakatchanligi... millat va elatlarning doimiy yaqinlashuviga, bir-biriga

o‘zaro ta’sir etib, tili boyishiga olib keladi. Ularning biri – o‘ris tili – barcha sotsialistik mamlakatlar uchun umumiy tilga aylanadi». Biroq hayot haqiqati, milliy xususiyatlar va o‘ziga xoslikning «temir» qonuniyatlari bunday soxta, asossiz, balandparvoz ilmiy «haqiqat» lardan ustun keldi. Tarixiy taraqqiyot me’yorlari ustuvorlik qildi.

Gorbachyov esa mazkur g‘oyani birmuncha «demokratlashtirgan» holatda, «qog‘ozga o‘rab» ilgari surdi: «Ziyolilar o‘z tarixiy ildizlarini o‘rganmoqdalar. Bu gohida tarixni va u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsalarni, taraqqiyotga zid tarixiy narsalarni ham ilohiylashtirishga olib kelmoqda».

Demak, birinchidan, Bosh kotib milliy tarix va u bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarni o‘rganishga qarshi. Uni “taraqqiyotga zid narsalar” deb tushunadi. Chunki Gorbachyovning maqsadi yagona sovet xalqining shakllanishiga, ulug‘ davlatchilik va ulug‘ millatchilik g‘oyalarini amalga oshirishga intilishdir.

Ikkinchidan, tarixni o‘rganish oxir-oqibatda millatlarning uyg‘onishiga olib keladi. Har bir xalqning o‘ziga xos buyuk o‘tmishi, ulug‘ madaniyati, milliy o‘zligini belgilaydigan an’analari bor. Ajdodlar qoldirgan ma’naviy meros ularni rag‘batlantiradi, milliy taraqqiyotga da’vat etadi. Natijada sovet milliy siyosati chok-chokidan so‘kilib, «buyuk» imperiya inqirozga uchraydi. Buni yaxshi bilgan Gorbachyov ziyolilarni kishanlash, tarixni o‘rganishni ilohiylashtirish tamg‘asi bilan «shovinizm»da ayblash yo‘lidan bordi.

D. Volkogonov shunday ma’lumotni keltiradi: Afg‘onistonda uzoq davom etgan urush tugagach, Sovet rahbariyatining o‘ylamasdan boshqa bir mamlakat ichki ishlariga aralashganligi aniq bo‘ldi. 1990 yillarda ham, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida insoniylashuv tendentsiyalarining paydo bo‘layotganini, zo‘ravonliklarning ibtidoiylashayotgan hodisa sifatida tan olinayotganini sovet rahbarlari payqashmas edi. Ular hatto dunyoga egalik qilish kabi lenincha tafakkurdan xalos bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. SSSR Mudofaa Vaziri D.T.Yazov KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy Byurosida qo‘shni mamlakatda amalga oshirilgan «internatsional burch»ning o‘n yillik yakunlari xususida hisobot berdi. 1971 yil dekabridan 1989 yilning fevraligacha Afg‘onistonning tog‘li yo‘llarini 546 ming 255 sovet harbiylari bosib o‘tdi. «Internatsional burchi»ni bajara turib o‘n uch ming 826 kishi, shundan 1977 ofitser qurbon bo‘ldi. Afsuski, ularning asosiy qismi musulmon xalqlarning, jumladan, o‘zbek xalqi vakillari edi. Ayni ana shu urush keltirgan zarar bir necha o‘n milliard so‘mni tashkil etadi.



Sovet hukumati 1980 yillarda amalga oshirgan bu xunrezliklar xalqlar otasi Stalin iborasi bilan aytganda «vazifani bajarishga intilish kerak, qurbonlar bilan hisoblashmaslik lozim», degan g‘oyasining amaldagi ko‘rinishi edi.

Repressiya va qon to‘kishlar Sovet hokimiyatining doimiy ish usuli edi. Turli davrlarda, turli nomlar va bahonalar bilan xalqni qirish, millatning eng sara vakillarini yo‘q qilish tamoyilga aylanib qolgan edi. «Eron josusi», «Xitoy josusi», «Xalq dushmani», «Yot unsurlar», «Buzg‘unchilar», «Irodasizlar» singari turli nomlar bilan millionlab kishilar qatl etilgan va surgun etilgan.

«Qabohat saltanati» kitobida keltirilishicha, 1917-1929 yilgi fuqarolar urushida 15 million kishi, 1929-1933 yilgi ochlik davrida 8 million kishi, 1933-1939 yildagi qatag‘onlarda 16 million, 1945-1954 yillardagi surgunlar va ochlikdan 4 million kishi qurbon bo‘lgan. Xulosa qilib aytganda, Sovet tuzumi ayni ana shu yillarda o‘z aholisining uchdan bir qismini – yetmish milliondan ziyolini ataylab yo‘qotgan.

«Bosmachilik» nomi bilan «milliy ozoddik harakati»ga qo‘shilganlardan 16 yil davomida 1 million 200 ming o‘zbek qurbon bo‘ldi. Bir yarim million musulmon xudosizlar jamiyati bilan kelisholmay xorijga chiqib ketdi. 1 million 700 ming kishi «bosmachilik harakati»ni qo‘llab-quvvatlaganlikda ayblanib, Sibirga surgun qilindi.

Faqat shugina emas. Sovet hokimiyati yillarida O‘zbekiston chor hukumati siyosati davrida qanday bo‘lsa o‘shanday strategik ahamiyatga ega bo‘lgan maydonga aylantirildi. Aniqrog‘i, SSSRning paxta mustaqilligi siyosati O‘zbekiston orqali amalga oshirildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining paxtadan boshqa hamma sohalari keskin qisqartirib yuborildi. O‘zbeklar faqat paxta yetishtiruvchi dehqonlarga aylantirildi. Sanoat, transport, aloqa tarmoqlari eng quyi ko‘rsatkichlarda amalga oshirildi. Ijtimoiy soha, fan, ta‘lim, madaniyat va sog‘liqni saqlash ittifoq ko‘rsatkichidan eng past darajada tashkil etildi. Ekologik muammolar asta-sekinlik bilan chuqurlashib borib, oxir-oqibatda butun insoniyat fojiasiga aylantirildi.

Bir qarashda Brejnev rahbarlik qilgan davrlarda mamlakatda birmuncha sokinlik va tinch taraqqiyot ta‘minlanganday edi. Biroq insonning eng katta iqtidori – daholik qudrati so‘ndirildi. U to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarish vositasi bo‘lib qoldi. Fikrlamay yashash, inson tafakkurini cheklash, munosabat bildirish kabi aqliy salohiyat barham topdi. Mutelik va tobelik kayfiyati chuqur ildiz otdi. Bu asta-sekinlik bilan o‘z o‘tmishini unutish, kelajakka ko‘r-ko‘rona nazar tashlash va shunchaki kun kechirish kayfiyatini chuqurlashtirdi.

Kommunistik mafkura odamlar qalbiga tahdid soldi. Hukmron g'oya oldida fuqaro o'zini nochor his etadigan, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarolmaydigan jonzotga aylandi. Ana shunday tarzda xalqning erkin mehnat qilishga bo'lgan rag'bati so'ndirildi.

Mustaqil fikrlaydigan, yuz berayotgan voqea hodisalarga mustaqil baho beradigan kishilar o'zboshimcha, mahmadona deb qoralanar, tazyiqqa olinar edi. Bu tuzum shunday nosog'lom muhitni vujudga keltirgan ediki, natijada layoqatsiz, fikrsiz, laganbardor, boshliqqa ta'zim, xodimga zug'um ko'rsatadiganlar qadr-qimmat topib yashardi. Negaki, mustamlakachilik siyosatining tabiati shuni taqozo qilar edi.

Bularning barchasi jamiyatning ma'naviy tanazzulini tezlashtirdi. Xalq manfaatini o'ylagan, uning ongiga nur, qalbiga ziyo bag'ishlashga intilgan, vijdon va aql bilan ishlashga, hurriyat uchun kurashga chorlaganlar esa kommunistik partiyaning labbaygo'y yugurdaklari tomonidan so'roq tergovga tutilar, ma'naviy jihatdan badnom qilinar, ba'zan esa hatto jismoniy mahv ham etilar edi.

Natijada bunday beayov va shafqatsiz bedodliklardan ogoh bo'lib turgan xalq butunlay umidsizlikka tushdi. Jamiyatda na partiyaga, na siyosatga, na davlat va uning yo'l boshchilariga ishonch qoldi. Ishonchidan ayrilgan kishi esa ruhan o'likdir.

Ma'lumki, ruhiyati shikasta va ozurda, hadik va qo'rquv girdobiga tushgan odamda yaratishga, bunyod etishga intilish bo'lmaydi. Va hatto hayotga, yashashga rag'bat ham shunchaki «kun ko'rish»ga aylanadi.

Hayotga befarq qarash, loqaydlik aksariyat ko'pchilikning yashash tarziga aylandi. «Sovet kishisi» o'z soyasidan cho'chib yashaydigan bo'lib qoldi. Chunki yuragining tub-tubiga qo'rquv bilan qoziq qilib qoqilgan tobelik, mutelik tuyg'usi uni tirik murda holiga solib qo'ygan edi.

Tarixiy tajriba har qanday islohot va yangilanishlar eng avvalo inson ongi va qalbi orqali o'tgan taqdirdagina samarali natija berishini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham O'zbekistonda ozodlikning ilk kunlaridanoq odamlar ongi va tafakkurini o'zgartirishga e'tibor berib kelinmoqda. «Iqtisodiy islohotlarni hal etish mumkin. Xalqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo ma'naviy islohotlar, qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bu dunyoda bundan ortiqroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q». Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bayon etgan bu fikr xalqni ma'rifiy uyg'oqlikka chorlash yo'lidagi otashin da'vat bo'lish bilan birga, bu sohadagi ishlarimizning asosiy yo'nalishlarini ham belgilab bergan edi.

Dunyoda hech kim yer yuzida jannat yaratgan emas. Biroq, O‘zbekiston Sovet hokimiyati davrida Lenin va leninchilarning sa‘yi harakati bilan do‘zaxga aylantirilgani tarixiy haqiqat. Zotan, bu fojialarni, bu ko‘rguliklarni tarix, millat hech qachon unutmaydi. Ayni ana shunday g‘oyani amalga oshirishning yangi, sivilizatsiyalashgan, zamonaviy shaklini o‘ylab topgan M. Gorbachyov «qayta qurish» siyosati strategiyasini ishlab chiqqani va amalda qo‘llagani haqiqatdan ham uning leninizmga sadoqatliligini ko‘rsatdi. Ayni paytda u o‘ziga xos «novator» sifatida Lenin g‘oyalarini amalga oshirishning yangi shaklini amalda joriy etdi. U 1987 yil oktyabr oyida KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy Byurosida nutq so‘zlab, o‘z maqsadini aniq-ravshan o‘rtaga tashladi va «Lenindan bizgacha ko‘prik tashlash lozim. Bugungi kundagi ishlarimiz bilan o‘sha davrdagi voqealarga lenincha munosabat o‘rtasida aloqa o‘rnatish lozim. Bu – dialektika. Lenin hal etgan masalalar – bu hozirgi vazifalarni hal etish uchun kalitdir», dedi va ayni o‘sha zo‘ravonlik va yakkahokimlik g‘oyasi, xalqlarni xonavayron qilish yo‘li bilan hokimiyatni mustahkamlash pozitsiyasining mavjudligini ko‘rsatdi.

Leninning shaxsi, uning siyosiy pozitsiyasi xususida gapirar ekan, mashhur rus olimi N. Berdyaev proletariat dohiysining quyidagi gapini keltiradi: «Nimaiki inqilobga xizmat qilsa – barchasi ezgulik, unga xalaqit beradigan hamma narsa – yovouzlikdir».

Bunday keskin va bir yoqlama qarash 70 yil mobaynida yashadi. Biroq turli davrlarda turli shaklga kirdi. Deylik, Gorbachyov tilida «Nimaiki Kommunistik mafkuraga xizmat qilsa – ezgulik. Unga zid bo‘lgan har qanday fikr – yovuzlik»ka aylandi. Oxir-oqibatda butun leninizm g‘oyalarini ham, yaxlit jamiyatni ham inqirozga olib keldi.

1980 yillarning oxiriga kelib vaziyat birmuncha o‘zgardi. Bu ayni demokratik jarayonlarning chuqurlashishi va uyg‘onayotgan xalqning uyg‘onayotgan tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa edi. Biroq har bir respublikaning ijtimoiy-siyosiy iqlimi, tarixiy jarayonning borishi bevosita ana shu respublika rahbarining hatti-harakati, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqimiga munosabati bilan bog‘liq edi.

Siyosiy jasorat, siyosiy iroda, voqelikni to‘g‘ri anglash, to‘g‘ri baholash haqiqiy rahbar uchun noyob fazilat. Demokratiya haqida ko‘pirtirib gapirib, zo‘ravonlik rejimini kuchaytirishga intilgan M. Gorbachyovning siyosiy yo‘li, aniqrog‘i, pozitsiyasi O‘zbekiston uchun va umuman milliy respublikalar uchun manfaatli emas edi. Ittifoqdosh respublikalar rahbarlari orasida birinchi bo‘lib Islom Karimov M. Gorbachevga buni ro‘yi-rost aytdi. Respublika rahbari sifatida o‘z yurtining barcha yutug‘iyu nuqsonlariga o‘zini qalqon qildi. Rahbar sifatidagi qat‘iy

va mustahkam irodasini ko'rsatdi. Islom Karimovning bunday fe'l-atvori va hatti-harakatiga har kim har xil baho berdi. Jumladan, M. Gorbachyov uni shartakilikka, betgachoparlikka yo'ysa, uning gumashtalari bu fikrlarni qo'llab-quvvatlashdi. O'zbeklar qatorida barcha sovet xalqi esa Islom Karimov intilishlarini qo'llab-quvvatladi. Chunki Islom Karimov pozitsiyasi nafaqat qardosh respublikalar xalqlari, balki Rossiya aholisi manfaatlarini ham o'zida mujassam etgan edi. Shuning uchun ham Moskva nashrlaridan biri «O'zbekiston Prezidenti I. Karimov ittifoq miqyosidagi siyosiy arbob sifatida SSSR xalq deputatlarining IV sy'ezdi kunlarida tug'ildi. U M. Gorbachyovni qattiq tanqid qilib, «komanda»ni o'zgartirishni talab qildi. Ko'pchilik uchun bu butkul kutilmagan hodisa edi. Uzoq yillar mobaynida an'anaga ko'ra O'rta Osiyo respublikalari oliy rahbarlari Markaz siyosatiga ergashib yurar edilar. Qanday o'zgarish yuz berdi? Karimov o'z kuchiga bunday qatiyatli ishonch qaerdan paydo bo'ldi?» deb yozgan edi. Bunday hayrat va hayajonni tushunish mumkin. To'g'ri ta'kidlanganidek, 130 yildan beri davom etayotgan mutelik kayfiyati kattayu kichikni o'z domiga tortgan edi. O'zbekiston rahbari ittifoqdosh respublikalar rahbarlari orasida birinchi bo'lib shakllangan siyosiy tafakkur olamida to'ntarish yasadi. Yangicha fikrlaydigan, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri baholaydigan mard va jasur kishilardan iborat yangi «komanda» to'plashi zarurat ekanligini, siyosiy demagogiyaga barham berish vaqti kelganligini ochiq-oydin aytdi. Shunday qilib, Islom Karimov ayni ana shu qolipni – lenincha boshqaruv tamoyillarini chippakka chiqardi. Darvoqe, u hech qanday oldindan tayyorlangan yoki rusumga aylangan «qolip»ga sig'maydi! U ayni ana shunday o'ziga xosligi, haqiqat va adolat yo'lidagi o'ta qaysarligi va o'jarligi bilan butunlay yangi tipdagi rahbar fenomenini kashf etdi.

Faqat shugina emas. Aniqrog'i, Moskva nashrlari bayon etganidek, Islom Karimov SSSR xalq deputatlari sy'ezdi kunlarida «tug'ilmadi». U ayni ana shu sy'ezd minbarida Ittifoq doirasidagi shakllangan islohotchi, zamonaviy tafakkur egasi sifatida SSSRga tanildi va tan olindi, xolos.

Islom Karimov respublika Davlat reja qo'mitasi Raisi va Moliya vaziri bo'lib ishlagan paytlardayoq SSSRdagi mavjud holatlar, siyosiy tanazzul va iqtisodiy-ijtimoiy chekinishlar hodisasidan xabardor edi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati rahbari bo'lgan paytlarda Kremlning O'zbekistonga munosabati orqali sovet hokimiyatining zo'rvonlik siyosati «quyushqon» dan chiqib ketayotganini payqagan edi. Natijada, respublika rahbarligiga saylanganidan to'rt oy o'tar o'tmas Islom Karimov uzoq yillar mobaynida vujudga kelgan qatiy xulosalarini O'zbekiston KP MKning XVIII

plenumida bayon etdi va (1989 yil, 25 noyabr) «Barcha masalalarni hal etish uchun siyosiy sistemani isloh qilish zarur», dedi.

Ana shu birgina soʻz butun Sovet Ittifoqi siyosiy tizimini, lenincha taʼlimotning «inqilobiy» harakatini larzaga keltirdi. Gorbachyov boshliq arboblarning saltanatini talvasaga solib qoʻydi. Buni nimalarda koʻrish mumkin?

Birinchidan, mavjud va hukmron siyosiy sistemani isloh qilish sovet jamiyatini tubdan yangilashni taqozo etadi.

Ikkinchidan, KPSS rahbar boʻlgan boshqaruv tizimi va uning butun faoliyatini isloh qilishga toʻgʻri keladi. Bu oʻz-oʻzidan lenincha boshqaruv va milliy siyosatda tub burilish qilishni taqozo etadi.

Uchinchidan, ittifoqdosh respublikalar va Markaz oʻrtasidagi munosabatlarga aniqlik kiritishni, ularning Konstitutsiyaviy vakolatlarini kengaytirishni talab qiladi.

Toʻrtinchidan, gap agar faqat Oʻzbekiston haqida borayotgan boʻlsa, mavjud siyosiy tizim yana davom etadigan boʻlsa, Oʻzbekiston SSSR tarkibidan chiqib ketishi mumkinligini koʻrsatadi.

Beshinchidan, siyosiy yetakchining tafakkur tarzini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini oldindan payqash, baholash salohiyatini va, eng muhimi, shaxs sifatidagi siyosiy jasorat, siyosiy qatʼiyat, mislsiz iroda va yuksak madaniyat fazilatlarini koʻrsatadi.

Islom Karimov tarixan juda qisqa vaqtda oʻzini «tafakkur inqilobchisi» sifatida koʻrsatdi. Bu uning uchun ataylab, islohotlar qilish orqali, uzoq yillar mobaynida inson tafakkurini oʻrab-chirmab olgan fikrlash tarzini buzish, buzgʻunchi va shiddatkor oqimga qarshi turishga intilish orqali emas, aksincha, tabiiy holatda, shaxsiy fazilatlarini, ichki imkoniyatlari, qobiliyati tufayli yuzaga kelayotgan, vaqt oʻtgani sayin shakllanib borayotgan voqelik sifatidagi fenomenidan kelib chiqadi.

Darhaqiqat, Islom Karimov feʼlatvori, tafakkur tarzi jihatidan oʻzidan oldingi andozalarning tor, biqiq oʻlchovlariga sigʻmaydi. Xuddi ana shu fazilatlarini tufayli ham butun siyosiy tizimni sindirib tashlashga jurʼat etdi. Iqtisodiy-ijtimoiy boʻhronlar, maʼnaviy-ruhiy parokandaliklar, siyosiy va gʻoyaviy tanazzullarni hammadan oldin koʻra bildi. Totalitar aqidaparastlik va siyosiy dogmatizm sharoitining tobora chuqurlashib borayotganini boshqalardan oldinroq payqadi va katta jasorat bilan unga qarshi chiqdi. Ana shu tarzda jamiyatni tubdan yangilashga jurʼat etdi.

Islom Karimov oʻzining radikal fikrlari va voqelikni kutilmaganda, favqulodda yondashuvlari bilan sovetlar imperiyasining inqirozini tezlashtirdi. Kommunistik afsonaning sarobligini isbot etdi. Oʻzbekistonni, qolaversa, barcha ittifoqdosh respublikalarni gʻoyaviy tanazzul girdobiga

tortgan sovet totalitarizmiga qarshi tura oldi va uni qat'iyat bilan yengdi. Harbiy kommunizm va fuqarolar sotsializmining lenincha g'oyalari uydirmalarini fosh etish bilan o'zining noyob mafkuraviy va siyosiy jihatidan butunlay yangi, tasavvurimizga sig'maydigan dunyoning kashf etuvchisi sifatida ko'rsata oldi.

Boshqacha qilib aytganda, Islom Karimov fenomeni haqidagi mulohazalar shaxsning tarixdagi o'rni to'g'risidagi fikrgina emas. Balki tarixning shaxs borasida taqdiri va qadriyati bilan bog'liqligi hamdir. Zotan, kamdan-kam tarixiy shaxslar tarixning tub burilish nuqtasini belgilab beradilar, jarayonlar va turmush tarzining bir xildagi oqimini keskin o'zgartirib yuboradilar. Butunlay yangi, hayotbaxsh va huzurbaxsh turmush kechirish, aniqrog'i, Inson va Insoniyat taqdiridagi mislsiz ma'naviy ko'tarilishlar davrini boshlab beradilar.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Islom Karimov shaxsi xalqimizning tarixiy taqdiri, uning kechinmalari, iztirob va quvonchlari sifatida vujudga keldi. Boshqacha qilib aytganda, Islom Karimov fenomeni o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ruhiyati, millat sifatidagi fenomeni orqali umuminsoniy qadriyatlar va umumjahon siyosati fenomeniga aylandi.

Tarix g'ildiragining bir tekisdagi harakatini, me'yorini buzish hamma vaqt ham quvonchli bo'lavermaydi. Bu bir jihatdan islohotchining mo'ljalni qay darajada to'g'ri olgani bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan ayni shu harakatni halokatlarga yo'l qo'ymasdan, sinab ko'rilmagan, birov yurmagan xavfli-xatarli dovondagi ishonchli harakatni ta'minlash hamdir. Ana shu tarzda uchinchi eng muhim masala yuzaga keladi. Bu bevosita shaxs hayoti, taqdiri bilan bog'liq bo'lgan tarixiy hodisa.

## **INSON FENOMENI: DINIY VA DUNYOVIY TALQIN**

### **Inson va olam yaralishining mifologik-diniy talqini**

Mifologik tafakkur tabiat va jamiyat hodisalarini anglash, uni tushunishga intilishning, olamni hissiy bilishning eng qadimgi kurtaklaridan biridir. Miflar – asotirlar odatda ertaklardan farq qilib, asosan olamning qanday paydo bo‘lgani, yer, osmon, yulduzlar, yil fasllarining almashuvi, hayotning tugashi va yangilanishi, qor, bo‘ron, zilzila, tog‘ ko‘chkilari, yer ustidagi va ostidagi, daryo, dengiz, ummonlardagi va, hatto, boshqa olamlardagi mavjudotlarning o‘zaro borliqligini, sababiyat va oqibat jihatidan aloqadorligini ibtidoiy-xayoliy poetik, falsafiy hamda allegorik – majoziy ravishda tasavvur qilishdan kelib chiqqan.

Mifologik tasavvurga ko‘ra butun olam mavjudotlari his qilish qobiliyatiga ega. Ular o‘ziga xos tarzda o‘ylaydi na harakat qiladi. Eng qadimiy Misr mifologiyasida borliq tabiatning har yili «o‘lib» va yana «tirilib» turishi «tangri» Osirisning hayoti bilan bog‘lanadi. Qadimgi Misr dinida Osirisning sadoqatli umr yo‘ldoshi, hosildorlik, suv va shamollar ilohasi Isida o‘lganlarning ruhini avaylab, asrab, yana tiriltiradi. Qadimgi yunon mifologiyasiga ko‘ra (Gomerning «Iliada», Fidiyning «Metamorfozalar» – «Evrilishlar» asarlarida tasvirlanishicha), samoviy yuksak Olimp tog‘ida yashaydigan Quyosh va momoqaldiraq tangrisi Zevs, yer, suv, onalik ma‘budasi Gera, bahodirlik va san‘at homiysi Apollon, ilm-fan, donishmandlik ma‘budasi Afina, go‘zallik ma‘budasi Afrodita, urush tangrisi Mars, marhumlar yurtining tangrisi Aid, dengiz, ummonlar tangrisi Poseydon (yoki Neptun) va boshqalar Yer yuzidagi odamlarning hayotini boshqarib, taqdirini hal etib turishgan.

Qadimgi Misr va yunon mifologiyasining ayrim e‘tiqodlari keyinchalik xristian diniga, so‘ngra islom diniga ham ko‘chib o‘tgan. Zotan, insoniyat ibtidosi bilan bog‘liq bo‘lgan ilk tasavvurlar, xayoliy ehtimoliy qarashlar odam qaysi makon va qanday sharoitda yashamasin, odam va olam, inson va borliq haqidagi qarashlarda umumiylik mavjud bo‘lgan. Chunki, qarashlar, o‘ylar va tasavvurlar qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, ularning zamirida bitta haqiqat, bitta mohiyat yotgan. Bu – inson va uning kelib chiqishi, olamning yaralishi va hayot mohiyati. Shuning uchun ham mifologik tasavvurlarga, ilk odamlarning mifologik e‘tiqodlariga e‘tiborsizlik bilan qarash mumkin emas. Ana shu miflar asosida ming yillar davomida daho san‘atkorlar adabiyot va san‘atning durdona asarlarini vujudga keltirganki, ularda umuminsoniy qadriyatlar, odam va olam taqdiri

bilan bog‘liq qarashlar yuksak badiiy-falsafiy, tarixiy-tabiiy, ma’naviy-ruhiy dramatism o‘z ifodasini topgan. Jumladan, Gomer («Iliada», «Odiseya»), Esxil («Agomemnon», «Zanjirband Prometey», «Evminidalar»), Sofokl («Shoh Edip», «Antigona», «Ayaks»), Evripid («Geraql», «Elena», «Elektra», «Vayuh qizlari»), Dante («Ilohiy komediya»), Bokkachcho («Dekameron»), Tasso («Quddusning ozod etilishi»), Milton («Boy berilgan jannat»), Shekspir («Lukretsiya», «Yoz kechasidagi tush», «Bo‘ron»), Gyote («Faust»), Bayron («Qiyomat manzaralari»), Lermontov («Demon»), Adam Mitskevich («Dzyadi ko‘li») va boshqa daho san’atkorlar diniy mifologiya syujeti asosida yozgan asarlarida, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafaelning yaratgan tasviriy san’at namunalari eng muhim umuminsoniy muammolarni badiiy talqin etishgan.

Hozirgi G‘arb estetikasida va umuman falsafiy tadqiqotlarida mifologik maktab deb atalgan yo‘nalish vujudga kelgan. Hozirgi mifologik maktab vakillari XVII – XVIII asr buyuk mutafakkirlari B. Fontenel, J.Viko, I.Gerder fikrlaridan kelib chiqib mif – jamiyat taraqqiyoti va inson ruhiyati bosqichlarini ifodalovchi qimmatli madaniy xazinalardir, degan fikrga kelishgan.

Ingliz olimi Jeyms Frezer hozirgi mifshunoslik yo‘nalishining asoschilarndan biridir. U o‘zining «Oltin butoq» va «Ahdul qadim («Tavrot») folklori» kitoblarida qadimgi Xitoy, Hindiston, Misr xalqlari folklori va xristian mifologiyasi ildizlarini xalq e’tiqodlarining shakllanish bosqichlari bilan bog‘lab tadqiq etadi. Hozirgi mifologik yo‘nalish Zigmund Freyd ta’limotidan ham oziqlangan bo‘lsada, undan farq qilib, mif yaratuvchilar patologiyasi va psixikasiga ortiqcha e’tibor bermay, falsafiy tafakkur va e’tiqodlar shakllanishiga kengroq e’tibor beradi. Bu yo‘nalish vakillari miflarni animizm, totemizm va tabu bilan bog‘laydilar. Mifologik maktabning yirik vakillaridan biri, Toronto universiteti professori Nortrop Fray fikricha. miflar inson tasavvurlarining ibtidoiyligini emas, balki poetik yorqinligi va falsafiy teranligini aks ettiradi. «Musavvir asari, deydi u yaqindan qaraganda yaxshi ko‘rinmaydi, uzoqdan qaraganda esa asarning barcha fazilatlarini yaxlitlikda ko‘rinadi». Demak, jahon tarixining ibtidosi, insoniyat taraqqiyotining ilk kurtaklari bevosita ilk odamlarning ibtidoiy qarashlari va xayolotidan boshlanadi va u kishilik jamiyati evolyutsion taraqqiyoti davomida shakllana borgan, uzoq o‘ta uzoq asrlar mobaynida rivojlangan. Odam va olamning yaralishi haqidagi tasavvurlar, o‘tmish to‘g‘risidagi tushunchalar ham vaqt o‘tgani sayin yorqinlashib boraveradi.

Amerikalik atoqli Sharqshunos Frants Rozentalning «Bilim tantanasi» kitobida ilk islom olamida «bilim va binobarin, olimlar yuksak



qadrlanganligini boy faktik materiallar, birinchi manbalar – Qur'on suralari, oyatlari asosida tadqiq etadi. Islomga qadar arab she'riyatidayoq Gyote aytganday, «So'z qudrati va aql ishorasi» ko'zga tashlanadi. «Qadimiy arab shoirlari, deb yozadi «Bilim tantanasi» kitobining mas'ul muharriri A.V.Sagadeev, o'z qabilasi nomidan gapiradi, uning shon-sharafini himoya qiladi yoki dushman qabilalarni qoralaydi, avliyo, payg'ambar sifatida qabiladoshlari tomonidan e'zozlanadi» .

Abul Faraj Isfaxoniyning mashhur "Ohanglar kitobi"da yozilishicha, Muhammad alayhissalom bir darbadar shoirning she'rlarini sevib, takrorlab o'tirganda, safdoshlari ajablanib «Nechun Sizday ulug' zot darbadar shoir so'zlarini sevib takrorlaysiz?» deb so'rashadi. Shunda Muhammad, «Bu shoirga Xudo buyuk iste'dod berib siylagan, biz ham aziz deb bilamiz», deb javob beradi. Mana shu misoldan ham islom e'tiqodlarida poetik tafakkur yuksak qadrlangani seziladi. Albatta, bu yerda gap faqat shoir yoki she'riyat haqida ketmayapti. Gap keng ma'noda ruh kishilari, ilhom sohiblari, tasavvur va tafakkur egalari haqida bormoqda. Qolaversa, N.G.Chernishevskiy ham «Shoirlar xalq hayotida qatnashganmi?» degan maqolasida yozadi: «Biz ham agar payg'ambarlarning kitoblarini yaxshi tarjimada o'qisak, ular yo'g'rilgan otashin poeziyaga mahliyo bo'lishdan o'zimizni tiyolmay qolamiz. ... Demak, din insonlarga hammadan ham nafosat jihati bilan ta'sir etishiga hozir deyarli hech kim shubha qilmaydi».

«Ramayana», «Iliada», «Qur'on» asotirlarining poetikasi, beqiyos jozibasi haqida ham N.G.Chernishevskiy shu fikrni aytadi. Zotan, ayni miflar insonning, xususan, ijodkorning ruhiy olamiga cheksiz ozuqa, ta'sirchan ruhiy tayanch vazifasini o'taydi.

Umuman olganda, asotiriy tasavvurlarda turli xalqlarning qadimiy, o'rta asrlardagi va hozirgi e'tiqodlari aks etgan bo'lib, ularni o'rganmay turib, na diniy e'tiqod, na xalq marosimlari va urf-odatlarini, tarixi, madaniy taraqqiyoti haqida gapirish amrimahol. Shu ma'noda aytish mumkinki, kishilik tarixiy taraqqiyoti davomida har bir xalqning o'z qarashlari, ma'naviy ehtiyojlari miflarda aks ettirilgan va u bevosita shakllanayotgan tafakkur va tasavvurlarning o'ziga xos ifodasidir. Demakki, ularda qaysidir darajada hayot falsafasi, jamiyat va tarixiy taraqqiyot mohiyati mavjud. Har bir xalq turmush tarzi, o'ziga xosligi, an'analari umumiy tarzda bo'lsada insoniyat orzu umidlari, maqsadlari miflarda o'z ifodasini topgan.

Tabiiyki, islom mifologiyasi arab xalqlari og'zaki ijodida keng rivojlangan va uning ko'pchilik majoziy, ramziy, allegorik tasvirlari «Qur'on» va hadislardan ham keng o'rin olgan.

Islom mifologiyasida ham odamning paydo bo'lishi ilohiy kuchlarga bog'liq, holda tasavvur qilinadi. Islom miflari va hadislarning ko'pchiligini

payg‘ambar oilasiga yaqin odamlardan biri, Muhammad alayhissalom vafoti arafasida, 13 yoshligida bilimga chanqoqligi bilan payg‘ambar va dastlabki xalifalarning nazariga tushgan Abdulloh ibn Abbos yozib, asray boshlagan. Islom mifograflaridan yana Vahb ibn al-Munabbix, Ka‘b al-Axbor, Abu Hurayra Abul Majid Sanoiy, Abul Hasan Kisoiyalar ham kosmologik miflarni yozib qoldirishgan.

Abdulloh ibn Abbosning yozishicha, Olloh hamma narsadan avval lavh va qalamni yaratgan. Islom mifologiyasini bilmay turib, Sharq klassik poeziyasi, falsafasini, jumladan, tarixiy tafakkurini va o‘tmish mohiyatini ham tushunish qiyin. Qalam va so‘z ta‘rifida hazrat Navoiy aytadi:

*So‘z guhariga erur oncha sharaf,  
Kim bo‘la olmas anga gavhar sadaf.  
To‘rt sadaf gavharining durji ul,  
Yetti falak axtarining burji ul.  
Chun bu nasim esti azal tog‘idin,  
Muncha gul ochildi jahon bog‘idan...*

**Navoiy** yana so‘zni ta‘riflab aytadi:

*Tengriki, insonni qilib ganji roz,  
So‘z bila hayvondin anga imtiyoz.*

Sharq mifologiyasidan yaxshi xabardor Iogann Volfgang Gyotening «Faust» asari qahramoni «Eng avval So‘z bo‘lgan» deb bejiz aytmaydi. Naqlga ko‘ra, Qalamning uzunligi 500 yilga teng (masofa o‘lchovlarining yillar bilan hisoblanishi olamdagi mavjudotlarning uzoq asrlar mobaynida vujudga kelishiga ishora qiluvchi majoziy ma‘noga ega). Bu qalam uchidan siyoh o‘rniga nur tomgan va u Xudoning amri bilan o‘z-o‘zidan Lavhulmahfuzga dunyoning oxirigacha bo‘ladigan voqealarni yoza boshlagan. Mifga ko‘ra, shundan so‘ng Xudo taolo juda katta oq marvaridni paydo qilgan (kattaligi yeru osmon bilan teng). U yetmish ming tilda Ollohga madhiya o‘qigan. Ka‘b al-Axborning aytishicha, Xudoning amri bilan ulkan marvarid erib, suv paydo bo‘lgan va to‘lqinlar mavj ura boshlagan (ehtimol, bu mifda Yerda hali hayot paydo bo‘lmagan muzlik davriga ishora bordir). Afsonaga ko‘ra, Xudo boshqa mavjudotlarni (Odamdan tashqari) suvdan yaratgan. Keyin u Arsh kursini paydo qilgan.

Qadimgi yahudiylik va xristianlik mifologiyasi bilan ham yaxshi tanish bo‘lgan Vahb ibn Munabbixning yozishicha, barcha qadimiy xalqlarning eski kitoblarida Arsh – taxt va kursi tilga olinadi. Mifga ko‘ra, Xudo ilohiy

qudrat timsoli. U Arsh va kursini suvga (ummonga) qo‘ygan, ummonni esa shamollar oqimiga qo‘ygan (ushbu mif Yer kurrasining atmosferasi va uning fazodagi harakatini yodga tushiradi). Keyinroq Arsh kursini to‘rt mavjudot ko‘tarib turadi. Bu mavjudotlar goh odam qiyofasiga kirib, Yer yuzidagi odamlarga rahm-shafqat tilaydi. Goho uy hayvonlari qiyofasida chorvani himoyaga olishni so‘raydi. Goho sherlar qiyofasida barcha hayvonlarga, so‘ng burgutlar qiyofasida barcha qushlarga rahm-shafqat so‘raydi. Arsh – taxtni ko‘tarib boruvchi farishtalar charchab qolganida taxt muallaq harakatga kelaveradi. Taxt oyoqlariga g‘oyat katta ajdaho o‘ralib olgan. Bu ajdahoning 40 ming pati bo‘lib, har bir patida nayza ushlagan farishta turadi. Ana shu 40 ming farishta ham har lahza Xudoni ulug‘laydi. Ajdaho Xudoni ulug‘laganida farishtalar ovozi eshitilmay qoladi. Ajdaho og‘zini ochishi bilan osmonda yashin chaqnaydi va agar u Xudoni madh etib turmaganida, og‘zidan chiqqan olov butun olamni kuydirib yuborar edi. Demak, islom mifologiyasitsa Xudoni tinmay madh etish olamni yomon ishlardan asraydi, degan aqida bor.

Ka‘b al-Axborning yozib qoldirishicha, Xudo suvni mavjlantiring, deb shamollarga amr qilgan. To‘lqinlar mavjlanib, suv ustida ko‘pirgan po‘rtana hosil bo‘lgan. Ikkinchi va uchinchi kuni ummon ko‘pigi qotib, Yer paydo bo‘lgan. Ba‘zi po‘rtanalar yuksak ko‘tarilib tog‘larga aylangan. Musulmonlar tasavvurida suv ustidagi Yer chayqalib ketavermasligi, o‘z muvozanatini saqlab turishi uchun tog‘lar yaralgan.

Qur‘oni karimda shu haqda bunday deyiladi: Biz Yerni to‘shak qilib qo‘ymadikmi?! Tog‘larni esa (Yerni tutib turuvchi) qoziqlar qilib qo‘ymadikmi?! Biz sizlarni juft-juft qilib yaratdik. Uyqularingizni (badan va asablarigiz uchun) orom qildik. Kechani (barcha narsani yashirib turadigan) libos qildik. Kunduzni esa, tirikchilik (vaqti) qildik. Tepalaringizda yetti (qavat) mustahkam (osmonni) bino qildik. Yana charaqlab turuvchi chiroqni (quyoshni) paydo qildik. Yana Biz siqib chiqaruvchi (bulut)lardan duv-duv suv (yomg‘ir) yog‘dirdik. Toki, u sababli don va nabotot (undirib) chiqarurmiz. Shuningdek, qalin bog‘larni ham. Albatta, Ajrim Kuni (hisob kitob uchun) belgilangan vaqtdir. U Kunda sur chalinur, bas, sizlar to‘p-to‘p bo‘lib (mahshargohga) kelursizlar. Osmon ham ochilib, (farishtalar uchun) darvozalarga aylanib qolur. Tog‘lar ham (joylaridan) jildirilur. Bas, u sarobga aylanib qolur. Albatta, jahannam poylovchi... («Naba’» surasi 6-21 oyatlar. Abdulaziz Mansur tarjimasi. «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2001).

Islom e‘tiqodiga ko‘ra, «Yer yuzidagi barcha tog‘larning ildizlari Ko‘hi Qohf (Kavkaz) tog‘i ildizlariga tutashgan. So‘ng Xudoi taolo yetti dengizni qudrat qalami bilan paydo qilgan. So‘ngi dengiz yana yettita dengizdan

iborat. Birinchi dengizni ikkinchi dengiz qurshab olgan, ikkinchisini uchinchi dengiz, uchinchisini toʻrtinchi dengiz, toʻrtinchisini beshinchi dengiz, beshinchi oltinchi dengiz qurshagan. Yettinchi dengiz esa barcha dengizlarni qurshab olgan (okean). Qazviviyning «Ajoyib ul-Maxluqot» kitobida ham yetti dengiz tilga olinadi. Islom kosmografiyasi yunonlarning Yer atrofini dengiz va ummonlar oʻrab turadi, degan tasavvurlarini qabul etgan. Bu tasavvurlar haqiqatga yaqinligining sababi arab sayohatchilari juda qadimgi vaqtlardayoq yer atrofidagi dengiz va ummonlarni kashf etishga intilishgan».

Yer yetti qavat boʻlib, Ar-Ramaqa deb atalgan birinchi yerda Bahaybat Shamol yashaydi. Shamolni yetmish ming farishta tutib turadi. Buyuk shamol oʻz paygʻambarini hurmat qilmagan. U gunohkor xalqlarni jazolashga moʻljallangan. Ikkinchi qavat Ash-Shalada degan yerda barcha doʻzaxiylar tortadigan jazolar toʻplangan. Bu yerdagi aholi oʻz goʻshtini yeb, oʻz qonini ichadi. Uchinchi qavat Ar-Daqa degan yerda burgutlar yashaydi. Har bir burgutning nayzaga oʻxshash dumida 360 tadan zaharli nayza bor. Bu yerning aholisi chang yutib kun kechiradi. Al-Xarba degan toʻrtinchi qavat yerda oʻtkir tishli ilonlar yashaydi. Ilonlardan birortasi togʻni tishlasa talqon qilib yuboradi. Bu yerning aholisi koʻzsiz, qoʻlsiz, oyoqsiz, lekin juda uzoq yashaydi. Moslama deb ataluvchi beshinchi yerda faqat toshlar bor. Doʻzaxiylar mana shu toshlar bilan yondiriladi. Bu yerning aholisi bir-birini yeb kun kechiradi. Sijjin degan oltinchi yerda doʻzaxiylarning qilmishlari yozilgan kitoblar saqlanadi. Amaba deb atalgan yettinchi yerda iblis yashaydi. U yerda kalta hayvonsifat qora odamlar yaʼjuj-maʼjujlar ustidan hukm yuritadi. Ammo keyinroq oʻzlari ular changalida halok boʻladi. Yaʼjuj-maʼjujlar haqidagi rivoyat eramizdan avvalgi IV asrda yashagan makedoniyalik Iskandar safarlariga doir «Iskandarnoma» («Roman ob Aleksandre») kitobiga borib taqaladi. Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida ham bu maxluqlar tilga olinadi.

Islom mifologiyasiga koʻra Yerni juda bahaybat farishta koʻtarib turadi. U oyogʻini juda katta xarsang toshga tirab turadi. Xarsang toshda yetti ming koʻl bor. Bu ulkan toshni esa qirq ming boshli ulkan hoʻkiz – Ar-Rayyon yelkasi va shohida koʻtarib turadi. Hoʻkiz esa juda katta nahang ustida joylashgan. Nahangning nafas oladigan oʻpka suprasiga barcha dengizlar sigʻib ketadi. Nahang suvda, suv esa fazoda joylashgan.

Shundan soʻng Alloh taolo butun olam Aqlini yaratgan (Aqli kull). Tangri Aqlga juda yuksak baho beradi. Paygʻambar hadisida aytilishicha, eng koʻrkam odam aqlli odamdir, eng xunugi esa aqlsiz odamdir. Kaʼb al-Akbar oʻgʻliga bunday vasiyat qilgan:

Bilim bilan ziynatlangan aql – eng go‘zaldir. Taqvo (xudojo‘ylik) bilan ziynatlangan bilim eng go‘zaldir. Sadoqat, e‘tiqod bilan ziynatlangan taqvo – eng go‘zaldir. Yaxshilik bilan ziynatlangan e‘tiqod – eng go‘zaldir. Kamtarinlik bilan ziynatlangan yaxshilik – eng go‘zaldir. Xudodan qo‘rqish bilan ziynatlangan kamtarinlik – eng go‘zaldir. Haqiqat bilan ziynatlangan xudodan qo‘rqish – eng go‘zaldir.

Ratsional islom mafkurasiga xos mo‘tazila oqimida ham aql-idrok va bilimga juda katta e‘tibor beriladi. Qur‘onda aytilishicha, mahshar kuni tangri aqlli odamlarni siylaydi, aqlsiz odamlarga jazo beradi.

Mana shulardan keyin Xudo yetti qavat osmon farishtalari kechayu kunduz, yurganda ham, turganda ham, sajda paytida ham Xudoning qudratini ulug‘lashadi. Islom mifologiyasidagi laqlak farishtalar orasida to‘rttasi bosh farishtalardir. Ka‘b al-Akbar hikoya qilishicha, farishtalarning eng kattasi Jabroil (Bibliyada – Gavriil) tangrining amr-farmonlarini boshqa farishtalarga yetkazadi (Jabroilga islomdan avvalgi jahoniy din xristianlik e‘tiqodida ham katta ahamiyat beriladi. U bilan bokira Bibi Maryam o‘rtasida Iso tavallud topadi). Jabroilning olti qanoti bo‘lib, vujudi qorday oppoq, sochlari qop-qora. Ovozi mag‘ribu mashriqqacha eshitaladi. Uning olti qanoti ostida yana ikkita yashil qanoti bo‘lib, bu qanotlari faqat Oxir zamonda ochiladi.

Azroil ham eng ulug‘ farishtalardan sanaladi. Uning to‘rt qanoti bor. Bir qanotini yoysa Sharqni, ikkinchi qanotini yoysa G‘arbni, uchinchi qanotini yoysa yeru osmonni yopib qo‘yadi. To‘rtinchi qanotini yoysa Xudoga ham soya soladi. Azroilning oyog‘i yerning eng pastki qavatida, boshi Arsh kursining oyog‘iga tegib turadi.

Ka‘b al-Akbarning rivoyat qilishicha, yettinchi osmonda toshqin dengiz bor, uning atrofini nayza ushlagan farishtalar qo‘riqlaydi. Har bir farishta nayzasining uzunligi bir yillik yo‘ldir. Mana shu mavjli dengiz va farishtalarga Mekoil (Bibliyada – Mixail) hukmronlik qiladi. Bu farishtaning qiyofasi qandayligi faqat Xudoga ayon. Ammo u og‘zini ochsa, yetti qavat osmon go‘yo dengizga tushgan yasmiq donasiga o‘xshab qoladi. Qahr bilan boqsa, yetti qavat yeru osmon yonib ketadi. Kosmogoniya olimlari bu mifologik tasvirni Quyoshga o‘xshash yoki undan ham katta falak quvvatinnng majoziy ifodasi deb o‘ylaydilar.

Ayniqsa o‘lim farishtasi (Malakulmavt) Azroil hammadan qo‘rqinchlidir. Azroilning 360 ta ko‘zi, 360 ta tili, 360 ta oyog‘i bor. Har bir tili, qo‘li va oyog‘ida yana uchtadan tili, qo‘li va oyoqlari bor.

Shundan so‘ng islom mifologiyasiga ko‘ra Olloh taolo Quyosh va Oyni yaratadi. Islom mifograflarining fikricha, Quyosh kunduzni yoritish, Oy tunni yoritish uchun yaralgan. Ammo ilohiyotchi olimlar o‘rtasida Quyosh

bilan Oyning mahshar kuni do‘zaxga yoki jannatga yuborilishi haqida ixtilof, tortishuvlar bor.

Rivoyatlarga ko‘ra, shundan so‘ng tangri sakkiz behisht va yetti do‘zaxni yaratgan. Islom miqfatida jannat bog‘larining tasviridan ko‘ra do‘zax manzillarining tasviriga keng e‘tibor beriladi. Buning sababi Yer yuzidagi osiy bandalarning gunohlari ko‘pligidandir.

Sakkiz jannatdan har birining alohida ismi bor. Birinchisi – Arshi a‘lo, ikkinchisi – Oromgoh, uchinchisi – Panoh, to‘rtinchisi – Abadiyat bog‘i, beshinchisi – Ziynat bog‘i, oltinchisi – Firdavs, yettinchisi – Sabot, sakkizinchisi – Adan bog‘idir. Ibn Abbasning yozishicha jannat bog‘laridan olti nahr oqib o‘tadi. Birinchisi – Mehrshafqat, ikkinchisi – Kavsar, uchinchisi – G‘afur, ya‘ni mag‘firat qiluvchi, kechiruvchi, to‘rtinchisi – Oxur, beshinchisi – Jannat bulog‘i, oltinchisi – Sharbat nahridir.

Yetti do‘zaxning ham alohida ismlari bor. Birinchisi – Jahannam, ikkinchisi – Lova, uchinchisi – Al-Xutoma, to‘rtinchisi – As-Soir, beshinchisi – Sakar, oltinchisi – Al-Johim, yettinchisi – Al-Goviyya deb ataladi. Ka‘b al-Akbarning aytilishicha, do‘zaxda olov daraxtlar o‘sadi, tikanlari – olovli nayzalar; olovli butalarda olovli mevalar o‘sadi. Ularga o‘ralgan ilonlar gunohkorlarga azob beradi. Zaqqum degan daraxtning mevalari shayton boshlaridan iborat.

Vahob ibn Munabbih tasvirlashicha, shundan keyin tangri jinlar va jonlarni yaratgan. Jinlarning mashhuri Iblis alayhilla‘nadir. Mifda aytilishicha, Iblis jinlardan bir ayolga uylangan. Bularning avlodlari keyinchalik shu qadar ko‘payib ketganki, oxiri ular chumoli va chivinga o‘xshab odamlarning boshiga chiqib ketgan. Maraz, ifrat va shaytonlar ham shularning urug‘ avlodlaridandur.

Arab istilochilariga qarshi kurashgan xalq ozodlik harakatining yo‘lboshchisi Muqanna keng xalq ommasining diniy tasavvurlarini o‘zgartirish maqsadida o‘zining ortodoksal islomga qarshi diniy ta‘limotini vujudga keltirishda mifologiyadan keng foydalanadi. Muqannaning kosmogonik ta‘limotiga ko‘ra, eng yuksaklikda oliy ruh Xudo bor. Xudoning to‘qqiz soyasi pastroqda harakatga kelib, birinchi osmonni tashkil etadi. «Mana shu birinchi ibtido hisoblanmish osmondan, deb yozadi Sharq madaniyati mifologiyasini yaxshi biluvchi, ultraizm (ongdan tashqari ruhiy jarayonlar) adabiy falsafiy oqimning yirik vakili argentinalik adib Xorxe Luis Borxes, ikkinchi, yanada pastroqdagi osmon paydo bo‘ladi va unda ham farishtalar, turli ruhiy kuchlar, Arsh kursilari bor. Bu osmon avvalgisining simmetrik aksidir. Mana shu ikkinchi muqaddas anjuman uchinchi aks – osmonni, u esa yana pastroqdagi aksni hosil qiladi va shu tariqa 999 osmon akslari paydo bo‘ladi. Bularning hammasiga birinchi

osmon hukmdori – soyalarni hosil qiluvchi zot rahbarlik qiladi. Bu hukmdor soyasining soyalari bo‘linib, bo‘linib... nolga, hechlikka, lomakonga yaqinlashadi. Muqanna ta’limotiga ko‘ra, biz yashayotgan Yer yuzasi no‘noq bir soyadir, ko‘zgular va odam tug‘ilishi nafratga sazovordir, chunki ularning ko‘payishi xatolarni ko‘paytiradi va mustahkamlaydi. «Hakim (Muqanna) ta’limotiga ko‘ra, deb yozadi Luis Borxes, jannat bilan do‘zax yanada qayg‘uliroqdir». «Yonar so‘z qudratini tan olmaganlarga, shu bilan Aziz parda va Nurli jamolni inkor etganlarga g‘aroyib do‘zax va’da qilaman, deyiladi «G‘ayb guli»dan saqlanib qolgan qarg‘ish – duoda, zero, har biringiz oxiratda 999 olov saltanatiga podsho bo‘lasiz, har bir olov saltanatida 999 ta olov tog‘i bor va har bir olov tog‘ida 999 ta olov minorasi bor va g‘ar bir minorada 999 ta olov oromgohi bor va har bir oromgohda 999 ta olov o‘rin-to‘shagi bor, va har bir o‘rin-to‘shakda sizning qiyofangizdagi 999 ta olov bashara sizning ovozingiz bilan faryod qilib, abadul-abad azob tortadi».

Jannat esa birmuncha mavhumroq tasvirlanadi: «Jannatda hammayoqda hamisha zulumot hukm suradi, hammayoqda muqaddas toshhovuzlar bor va bu yerdagi huzur-halovat – ayriliqlar, o‘zlikdan kechishlar hamda uyqudagilarning huzur-halovatidir».

Boshqa ilohiyotchilar va muhaddislar esa jannat ko‘rinishini ancha ravshanroq tasvirlaydilar. Abul Hasan Nasoiy ana shu muhaddislarga tayanib, yozadi: «Har bir jannatning alohida darvozasi bor. Kiradilar. La’l – javohir bilan bezalgan jannat darvozalaridan birinchisining peshtoqiga: «La iloha illalloh, Muhammadan rasululloh» («Oллоhdan boshqa iloh yo‘q, Muhammad uning (Yer yuzidagi) elchisidir») deb yozilgan. Ikkinchi darvoza peshtoqiga: «Besh vaqt namozni kanda qilmagan pokdomon bandalar uchun ochiladi» deb yozilgan. Jannatning uchinchi darvozasi peshtoqiga: «Bu yerdan ochiq ko‘ngillilar kiradi» deb yozilgan. To‘rtinchi behisht darvozasi peshtoqida: «Yaxshi ishlar qilgan yomon ishlardan o‘zini tiygan bandalar uchun» degan yozuv bor. Beshinchi jannat darvozasi peshtoqiga: «Bu yerdan o‘z jismining huzur-halovatiga mukkasidan ketmagan kiradi» deb yozilgan. Oltinchi behisht darvozasi peshtoqida: «Muqaddas Baytullohga borib, uni tavof qilganlar uchun» degan yozuv bor. Yettinchi jannat darvozasi peshtoqiga: «Bu yerdan kofirlarga qarshi kurashda shahid bo‘lgan g‘oziylar kiradi» deb yozilgan. Sakkizinchi behisht darvozasi «Yaqinlari, qarindosh urug‘lariga mehr-shafqat ko‘rsatganlar kirishi uchun» mo‘ljallangan. Jannat bog‘lariga kirganlar oqbadan, qora ko‘z, go‘zal hurlar bilan o‘ynab kuladi...

Ko‘rinib turibdiki, islom mifologiyasidagi jannat tasviri musulmonlarni bu dunyoda yaxshi ishlar qilishga, ayni vaqtda (zolimlarga qarshi) isyon,

qo'zg'olon kabi «yomon» ishlardan o'zini tiyishga undaydigan, g'ayridinlarga qarshi kurashni savob deb hisoblaydigan islom targ'iboti maqsadlariga javob beradi. Ammo bu mifologik tasavvurlarning hammasini boshdan oyoq reaksion ruhda deb hisoblash ham to'g'ri emas. Bu tasavvurlar qisman jamoa ijod mahsuli bo'lib, ularda (ayniqsa, do'zax haqidagi tasavvurlardan) musulmonlikda o'g'rilik, sudxo'rlik, dilozorlik, takabburlik, birovning haqiga xiyonat qilish, yetim yesirlarga azob berish kabi illatlar jazoga mustahiq deb hisoblanishi e'tiborga loyiqdir. Zotan, birinchidan, bunday talab va me'yorlar insonni yaxshilikka, ezgulikka, komillikka da'vat etsa, ikkinchi tomondan, aniq hayotiy muammolar, turmush tarzi va oxir oqibatda yaxlit olganda ijtimoiy hayot, inson va jamiyat munosabatlarini, kishilik jamiyati mohiyatini belgilaydi. Natijada bunday mifologik tasavvurlar, albatta, asrlar mobaynida xalq ijodi mahsuli sifatida boyitib, to'ldirib borilgan.

Qadimgi mifologiya diniy e'tiqod, folklor, san'at, falsafa va ilm-fanning dastlabki ko'rinishlaridir. Shu ma'noda, ayniqsa, kosmogonik (olamning boshlanishi) va esxatologik (olamning oxiri) mifologiya dinshunoslar, san'atshunoslar, fanshunoslar diqqat e'tiborini tortib kelmoqda. Bu tabiiy hol.

Umuman olganda odam va olamning yaralishi hodisasi haqidagi diniy ta'limotda miflardan tashqari aniq ifodalar ham mavjud. Chunonchi, odamning paydo bo'lishi to'g'risida dunyoviy dinlardan biri nasroniylikning muqaddas kitobi «Injil»da yozilishicha:

«...Yana Xudo: «o'z suratimizga ko'ra, o'zimizga o'xshash odamni yarataylik. U dengizdagi baliqlar, ko'k yuzidagi parrandalar, chorvalar, ha, butun yer yuzi va yerda harakat qiluvchi barcha maxluqot ustidan hokimlik qilsin», dedi. Shunday qilib, Xudo odamni o'z suratida, ilohiy suratda yaratdi. Ularni erkak va xotin qilib yaratdi. O'sha paytda Xudovandi karim yerning tuprog'idan odamni yasab, uning dimog'iga hayot nafasini pufladi. Shu yo'sinda odam tirik jon bo'ldi».

Qur'oni karimda bu jarayon quyidagicha ifodalangan: «... Biz insonni (Odamni) loyning sarasidan yaratdik. So'ngra uni (inson naslini, avvalo) mustahkam qarorgoh (bachadon)da maniy qildik. So'ngra (bu) maniyini laxta qon qilib yaratdik, bas, laxta qonni parcha go'sht qilib yaratdik, bas, parcha go'shtni suyaklar qilib yaratdik, (bu) suyaklarga go'sht qopladik, so'ngra (unga jon kirgizib, oldingi holidan butunlay) boshqacha bir vujudni paydo qildik».

Albatta, bular odamning yaralishi, olamdagi barcha mavjudotlarning o'zaro bog'liqligi haqidagi diniy tushunchalar va mifologik qarashlardan ayrimlari, xolos.



### **Insonning paydo bo'lishi haqidagi dunyoviy qarashlar**

Insonning paydo bo'lishi, uning omillari, sharoitlarini ilmiy asosda o'rganish masalasi atrofida ilmiy nazariy munozaralarni yaxlit tizimga solishga urinish fanda juda katta tarixga ega emas. U keyingi ikki uch asr mobaynida turli nazariy qarashlar, ehtimollar, aniq isbotini topolmagan qarashlar tizimi sifatida yuzaga keldi va hali-hamon xilma-xil yondashuvlar davom etmoqda. Boshqacha qilib aytganda, inson antropogenezi, sotsiogenezi, uning biologik, fiziologik, psixologik rivojlanish tamoyillari, shakllanish jarayonlari, evolyutsiyasi bir qarashda fanda o'z isbotini topganday, ma'lum bir ilmiy-nazariy umumlashmalar, xulosalar, asoslar yaratilganday ko'rinadi. Biroq, bu qarashlar va nazariyalarning turli-tumanligi, xilma-xilligi nuqtai nazardan qaraganda hali fan insonning paydo bo'lishi to'g'risidagi aniq bir xulosaga kelmaganidan dalolat beradi.

Insonning paydo bo'lishi haqidagi ilmiy tasavvurlarning bir yo'nalishi tadrijiylik nazariyasi bilan asoslanadi. Bu bevosita Yer sayyorasining fizik, kimyoviy, biologik tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan xulosalarga borib taqaladi. Boshqa bir olimlar esa Quyosh tizimining ilk tumanliklari nazariyasi bilan bog'laydilar. Bunda tabiiy hodisalar, koinotdagi o'zgarishlar, fazoviy holatlar keltirib chiqargan shartsharoitlarni, kayxoniy hodisalarning inson paydo bo'lishi va rivojlanishiga qulay muhit yaratganligini ro'kach qiladilar.

Ingliz tabiatshunosi Erazm Darvin o'zining "Zoonomiya" kitobida hayvonlarning genezisi va tadrijiy rivojlanish jarayonlarini tashqi muhit bilan bog'lab izohlaydi. Jan Lamark esa yaxlit organik olam evolyutsiyasi xususida gapirar ekan, u hayvonot, o'simliklar va boshqa turlarning rivojlanish asoslarini birmuncha o'rganib, unda tashqi tabiiy ta'sir, tabiiy iqlim natijasida jonli tananing moslashishi orqali asta-sekinlik bilan murakkablashib borishi, ichki salohiyatning, hayotga intilishning va yashashga ishtiyoqning tadrijiy ravishda rivojlanib borishi jarayonini insonning paydo bo'lishiga asos deb biladi.

Umuman olganda insonning paydo bo'lishi va uning "aqlli odam" darajasiga yetguniga qadar yuz million yillar o'tgani fanda ma'lum. Inson antropogenezi va tabiat taraqqiyoti bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlari har holda ana shunday. Ayrim mutaxassislarining xulosalariga ko'ra dastlabki odamlar xordalilar tipiga mansub bo'lib, ular bundan yuz million yillar muqaddam noma'lum kayxoniy falokatlar, tabiiy hodisalar tufayli yo'q bo'lib ketgan. Umurtqalilarga mansub bo'lgan dinozavrlar esa 60 million yil muqaddam sut emizuvchilar sifatida dunyoga kelgan. Insonning eng qadimiy ajdodlari sifatida gominitlar tipi paydo bo'lgan.

Dastlabki nutq elementlariga, tovush orqali fikrlarini ifodalash imkoniyatlariga, qo‘l harakatlari orqali nimalargadir erishish, qaysidir vazifalarni bajarish imkoniyatlariga ega bo‘lgan maymunodam shaklidagi inson bundan ikki-uch million yil avval paydo bo‘lgan va u tadrijiy rivojlanish, evolyutsion taraqqiyot orqali murakkab mavjudot sifatida o‘zini namoyon qila bilgan. Ana shu murakkablik bevosita tana tuzilishi, yashashga intilish holatlari, ilk aqliy kurtaklar va ong elementlarining paydo bo‘lishi jihati bilan alohida ajralib turadi. Ana shu tarzda ular fanda qadimgi odam maqomini egallashdi. Boshqacha qilib aytganda, 150 ming yil muqaddam kelib chiqqan odam turining miyasi rivojlana boshlagan, nutqi birmuncha shakllangan, fikrini va munosabatini so‘z orqali ifodalay oladigan, turli mehnat qurollarini yasay oladigan, ikki oyoqqa tayanib, gavgani ko‘tarib, tikka yura oladigan odam sifatida o‘zini ko‘rsata bilgan. Bizning davrimizdagi odam fan tili bilan aytadigan bo‘lsak, «aqli odam» turi sayyoramizda 90-100 ming yil avval paydo bo‘lgan va ulkan takomillashuv, shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan.

Yuqorida aytganimizday, insonning paydo bo‘lishi haqidagi tasavvurlar yo‘nalishlari fanda xilma-xil va o‘ziga xosdir. Jumladan, umum kayxoniy nazariyada tadrijiylik nuqtai nazaridan umum sayyoraviy holatlar, tabiat va koinotda yuz bergan hodisalar insoniyatning kelib chiqishiga sharoit yaratganligi g‘oyasi ilgari suriladi. Ayni ana shu tabiiy shart-sharoitlar tufayli hayotning vujudga kelishi, uning rivojlanishi natijasida insonning paydo bo‘lishi haqidagi qarashlar bayon etiladi.

Darvinizm nazariyasida esa irsiyat va o‘zgaruvchanlik omillari asos qilib olinadi. Charlz Darvin (1809-1892) o‘zining nazariy xulosalariga tirik tabiatning tadrijiy rivojlanish va biologik moslashish – shakllanish me‘yorlarini asos qilib oladi. Jumladan, uning «Madaniy o‘simliklarning va uy hayvonlarining o‘zgarishi», «Insonning kelib chiqishi va jinsiy tanlanish», «Inson va hayvonlarda emotsiyaning ifodalanishi» singari asarlarida tabiatning rivojlanish g‘oyalari, tirik mavjudotning shakllanish qonuniyatlari xususida o‘ziga xos nazariya ilgari suriladi. Biroq uning ta‘limoti hali genetika fani yuzaga kelmagan, insonning biologik, ruhiy va ijtimoiy olami atrofda xulosalar shakllanmagan paytda yuzaga kelganligi yaqqol ko‘rinadi. Shuning uchun uning tadrijiylik nazariyasida ijtimoiy masalalar, jumladan, insonning ijtimoiy mohiyati, tuyg‘u, ong va aql bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyati o‘z ifodasini topmagan. Demak, bu ta‘limot ham insonshunoslikda tugal yechim maqomini egallay olmaydi.

Mehnat nazariyasida esa insonga, tirik mavjudot olamiga o‘ziga xos urg‘u beriladi va uning kelib chiqishi turli tub o‘zgarishlar, inqilobiy yangilanishlar mahsuli sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda, albatta,

mehnatning o'ri va roliga alohida e'tibor beriladi. Ayni ana shu nazariyaga ko'ra insonning qaysi hayvondan qanday tarzda, qanday holatda kelib chiqqanligi to'g'risidagi masalalarga javob izlanadi. Bunda ham Charlz Darvin g'oyalari birmuncha ustuvorlik qiladi. Jumladan, odam dastlab maymunlar, xususan, odamsifat maymunlar shimpanze va gorilla bilan inson qiyofasi o'zaro o'xshashligi asos qilib olinadi. Biroq, mehnat nazariyasiga ko'ra insonning maymundan kelib chiqqanligi haqidagi qarashlar fanda hamon muammoligicha qolmoqda.

Masalaning diqqatga sazovor tomoni shundaki, Ch. Darvinning materialistik qarashlariga asoslangan evolyutsion taraqqiyot nazariyasi islom dunyosida tasavvuf falsafasida bir necha asr oldin mohiyatan yaqin, shaklan butunlay boshqa holatda kashf etilgan. Masalan, materialistik qarashlarda moddiyat birlamchi bo'lib, moddiy manfaatdorlik, nafs va hayot zavqi ustuvorlik qilsa, tasavvuf falsafasida ruh, ma'naviy taraqqiyot, yetuklikka intilish, kamolotga erishish ishtiyoqi balandlik qiladi. Jumladan, Jaloliddin Rumiy (1207-1273) qarashlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ya'ni unda «Inson yaralishidagi tadrijiylik holati va asoslarini ma'dandan o'simlikka, o'simlikdan hayvonga, hayvondan insonga qarab rivojlanish tizimini ko'zda tutadi».

Insonning tadrijiy kamoloti, yetuklikka intilib borish jarayonida ruhning bosqichma-bosqich taraqqiyoti xususida gapirar ekan, Aziziddin Nasafiy (1240-1300) «Har bir yangi doiradan boshlab yangi ibtido boshlanadi na u kamolotga erishish uchun darajama daraja intiladi», deydi. Agar hozirgacha mavjud ilmiy qarashlar va nazariy xulosalar hamda hozirgi zamon sivilizatsiyasi yutuqlari tahlil etilsa, inson hamisha kamolotga muhtoj va umri davomida evolyutsion taraqqiyot, tadrijiy takomil, o'zini o'zi uzluksiz rivojlantirib borishga ehtiyoj sezishi zarurat ekanligi ma'lum bo'ladi.

Insonning yaralishi va uning evolyutsion taraqqiyoti haqidagi ushbu qarashlarni tadqiq etar ekan, atoqli tasavvufshunos Najmiddin Komilov o'ziga xos xulosaga keladi va shunday deydi: «Oddiylikdan murakkablikka; zohirdan botinga; sayozlikdan teranlikka; ko'ringan vujudan ko'rinmas, g'ayb vujud mohiyatiga qarab borish – yuksalish jarayoni ana shudir». Bu yerda, albatta, muallif insonning bebaho mavjudot oliy xilqat, hayot sarvari sifatidagi kamolotga erishish kabi qalb va ruh kamolotini, ma'naviy yetuklikka intilish singari murakkab va ziddiyatli, o'zini o'zi yengib yashashday ichki qudrat jarayonini nazarda tutadi.

Bir qarashda jismlarning yo'q bo'lib ketmasligi, faqat bir turdan ikkinchi turga aylanishi muqarrarligi haqidagi tabiat qonuniga o'xshashroq, ammo yuksak ma'naviy va ruhiy zaminga asoslangan g'oyalarni bayon

etgan J. Rumi «ma'dan – o'simlik – hayvon – inson» formulasini ilgari suradiki, bu hol doimiy ravishda aylanib turadigan ulkan doira maqomini egallaydi.

Keyingi asrda genetiklar, zoologlar, arxeologlar va boshqa insonning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan fan sohalari namoyandalari butunlay boshqa qarashlarni ilgari surishmoqda. Deylik, arxeologlarning Hindiston va Afrikada topgan suyak qoldiqlari eng qadimgi odamlarga tegishli ekanligi bilan hozirgacha topilgan ashyolardan ham qadimiyligini isbot qildi. Demak unga asoslanib inson ko'rinishidagi ajdodlarimiz avvaldan mavjud bo'lgan va turli qurol-yarog'lar yasashga, mehnat ashyolarini vujudga keltirishga intilishgan deyish mumkin.

Zoologlarning xulosalariga ko'ra esa oddiy mehnat qurollarini yasay olish, dastlabki ovchilik orqali yashashga intilish hodisalarini nazarda tutib, odamsifat hayvonlarning ajdodi sifatida maymunlarni tushunadilar. Ular turli mehnat faoliyatini, yashash uchun kurash qobiliyatini va dastlabki aqliy salohiyatini namoyon qila olmagan uchun o'sha holatida saqlanib qolgan. Boshqa bir qismi esa ayni ong va aqliy salohiyatni shakllantirishga, yashash uchun kurashda o'ziga xos, yangidanyangi imkoniyatlarni ko'rsata bilgani, asta-sekinlik bilan o'zini o'zi takomillashtirib borgani tufayli insonga aylangan. Biroq bu nazariya ham hali-hamon fanda to'la-to'kis o'z isbotini topolganicha yo'q.

Koinot nazariyasida inson antropogenezining boshqa bir qator nazariyalardan farq qiladigan tomonlari mavjud. Bu bevosita XX asrda kosmonavtikaning rivojlanishi, koinotni o'zlashtirishning yangi davri boshlangani, osmon jismlari va turli planetalarning tabiiy, fizik, kimyoviy va boshqa jihatlari birmuncha chuqurroq o'rganilib, aniqroq ilmiy xulosalarning yuzaga kelganligi bilan bog'liq. Yerdan tashqaridagi sivilizatsiyalar mavjudligi haqidagi turli-tuman qarashlar atrofidagi munozaralarning paydo bo'lishi ham bunga o'ziga xos asos bo'ldi.

Mashhur rus olimi N. Bexterevaning qarashlariga ko'ra inson koinotdagi boshqa sayyoralardan Yerga kelib, asta-sekinlik bilan ko'payib ketgan. Bunday qarashlar bevosita inson miyasining beqiyos darajada keng imkoniyatlarga egaligi, inson esa o'z hayoti davomida ayni ana shu imkoniyatning juda ham kam miqdoridan foydalanayotganligi bilan izohlanadi. Hatto mutaxassislar inson miyasining imkoniyati shu darajada cheksiz va hayratomuzki, unga insoniyat o'z tarixiy taraqqiyoti davomida to'plagan ma'lumotlarning barchasini joylashtirish mumkinligini aytishmoqda. Unda bugun biz «asr mo'jizasi» deb atayotganimiz kompyuterlar esa inson miyasini mo'jizasi oldida arziyas voqelikka aylanib qolishi mumkin. Shu bilan birga inson miyasidagi imkoniyatlar, tasavvurlar

hozirgacha koinotiy mo'ljallar bilan bog'lanib qolganligi hodisasi ham saqlanib qolmoqda.

Shveysariyalik olim Erix Denikenning «Kelajak haqida xotiralar» kitobida ilgari surgan g'oyalari ham N. Bextereva qarashlariga hamohang. Jumladan, uning fikricha, Yerdan tashqarida sivilizatsiya mavjud. Qachonlardir ana shu sivilizatsiya vakillari Yerga kelishgan. Shuning natijasida insonning gominid ajdodlarida irsiy, fiziologik va biologik o'zgarishlar yuz bergan. Natijada o'sha davr odamlarida aqliy salohiyat va nutq imkoniyatlari kengaygan. Yerdan tashqaridagi sivilizatsiyaning sayyoramiz bilan aloqasi takrorlanib turgan. Noma'lum sayyoralardan vakillar kelib turishgan va natijada Yerda kishilik hayotiga asos solingan. Bu hayot esa tadrijiy tarzda, evolyutsion holatda taraqqiy topgan, rivojlangan. E. Deniken o'zining bu qarashlariga Yerda, xususan, Iroq va Misrda topilgan kristall linzalarni, to'qilgan gazlamalarni, bu gazlamalardan tikilgan kiyim-kechaklarni, ilk elektr batareyalarini misol qilib keltiradi. Jumladan, u yuqoridagi asarida «Iroq va Misrda ishlov berilgan kristall linzalar topildiki, ular hozirgi vaqtda elektrokimyoviy yo'l bilan olinadigan seziy oksidi qo'llangandagina tayyorlanadi», deydi. Albatta, Yerdan tashqaridagi sivilizatsiyaning mavjudligini yana o'ta yumshoq va mayin to'qilgan gazlamalarni misol keltirish bilan isbotlaydi. Chunki bunday mahsulotlarni hozirgi zamon sivilizatsiyasi yuzaga keltirgan texnologiyalar asosidagina ishlab chiqarish mumkin.

Albatta, qadimiy topilmalar, jumladan, bundan 10 ming yillar avvalgi yulduzlarning joylashuvi haqidagi ma'lumotlar qaysidir olis zamonlarda taraqqiyot mavjud ekanligidan dalolat beradi. Biroq zamonaviy fanda insonni koinotdan kelib Yerda qo'nim topib, sayyoramizda kishilik hayotini boshlab bergani haqidagi qarashlar o'z isbotini to'laligicha topganicha yo'q.

Anomal hodisalar nazariyasi yuqorida tilga olingan barcha qarashlarning o'ziga xos isbot qilinmagan tomonlarining yechimini topishga qaratilgandir. Jumladan, unga ko'ra tabiiy hodisalar vulqonlarning tabiatga ta'siri, atrof muhitni o'zgartirib yuborishi, Yerda iqlimning o'zgarishi, Yerdan tashqaridagi sayyoralar, Quyosh va uning tizimidagi jismlardan keladigan ta'sirlar, radiatsiyalar ro'kach qilinmoqda. Biroq bu nazariyada ham ma'lum bir holatlarda mehnat nazariyasining ayrim jihatlariga tayaniladi. Zotan, qadimgi gominidlarning insonga aylanish jarayoni bevosita mehnat va hayotga intilish bilan bog'liq degan g'oyaga borib taqaladi. Biroq faqat shugina emas. Unda bevosita anomal hodisalarning inson kelib chiqishida tutgan o'rniga ko'proq e'tibor beriladi.

Umuman olganda insonning kelib chiqishi, uning paydo bo'lishi, rivojlanish omillari, shart-sharoitlari xususida bugungi fanda aniq

to'xtamga kelinmagan. Zotan, insonning murakkab jonzot sifatidagi biologik, fizologik, genetik, ruhiy, aqliy imkoniyatlari fan oldida ochilmagan qo'riq bo'lib qolmoqda. Yana gap shundaki, umuman jonzotlarning o'ziga xos tur sifatida mavjudligi fanda qanchalik ma'lum bo'lsa, ularning bir-biriga o'xshash jihatlari, o'ziga xos instinktiv holatlari shunchalik o'rganilmagan.

Albatta, inson jonzot sifatida o'zining noyob tabiati, beqiyos aqliy salohiyati, cheksiz tafakkur qirralari, ruhiy olami, ma'naviy va axloqiy dunyosi bilan noyob voqelikdir. Ayni ana shu imkoniyatlar jonzotlar orasida uni oliy qadriyat darajasiga ko'taradi. Lekin yana bir narsaga alohida e'tibor berish joizki, har qanday mavjudot, har qanday jonzot noyob va takrorlanmasdir. Jumladan, tog' o'zining purviqorligi va salobati bilan, cho'l o'zining cheksiz va bepoyonligi bilan, daraxt yilning to'rt fasliga munosib rivojlanish imkoniyatlariga – yaproq chiqarish, gullash, meva qilish jarayonining davomiyligi, doiraviyligi, ma'lum bir yoshga yetgach qurib qolishi, chumolilarning g'uj bo'lib yashashi, bir necha kilometrlab masofani uzluksiz karvon kabi o'z inidan oziq-ovqat maydonigacha bo'lgan masofani bog'lab turishi va adashmay bir tekisda harakat qilish holatlari har bir mavjudotning o'ziga xos hayot qonuniyati, ichki tartiboti, qat'iy amal qilish lozim bo'lgan me'yorlari borligini ko'rsatadiki, bu hali fanda o'z yechimini topganicha yo'q. Inson esa o'zining kelib chiqishi va o'z olami nuqtai nazaridan fan oldidagi jumboqlarning jumbog'idir.

### **Olam ichra olam**

Insoniyat, mana bir necha asrlarki, o'zining kelib chiqishi, jonzot sifatidagi imkoniyatlari, mohiyati va tabiatiga qiziqib, uning atrofida doimo fikr yuritib, tushunishga harakat qilib keladi. Insonning mavjudot sifatidagi o'ziga xosligi va aqliy salohiyati jihatidan mo'jizakorligi fanda hali aniq yechimini, yaxlit holda o'z bahosini topmagan.

Inson haqidagi tasavvurlar, uning olami, mohiyati va tabiatini o'rganishga bo'lgan intilishlar kishilik jamiyati ibtidosi bilan teng. Zotan, bundan qariyb uch ming yil avval, qadimiy madaniy yodgorligimiz bo'lgan «Avesto»da ilgari surilgan «ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal» tamoyili ayni inson ezgulik va yaratuvchilik imkoniyatlaridan tashari yovuzlik hamda vayronkorlik illatlariga ham ega ekanligini ko'rsatadi. Chunki har qanday da'vat unga teskari hodisa mavjud bo'lgan paytdagina yuzaga keladi. Har qanday ehtiyoj nimagadir, qaysi darajadadir yetishmovchilik, tanqislik, kamyoblik mavjud bo'lgan joyda tug'iladi. Ana shu jihatdan qaraganda insonni ezgu so'z, ezgu fikr va ezgu amalga da'vat etish hodisasi o'sha paytlardayoq inson inson uchun muammo ekanligini, inson olami nihoyatda

murakkab, ziddiyatli, o'zini o'zi inkor etib, o'zini o'zi rad etib yashaydigan olam ekanligini ko'rsatadi. Demak, u qanchalik buyuk kashfiyotlar, olamshumul ixtirolar qilishga qodir bulsa, shunchalik uning teskarisini ham amalga oshirish salohiyatiga ega bo'lgan noyob jonzotdir.

Hatto shu darajada bo'lishi ham mumkinki, inson tabiatan o'ziga o'zi muammo yaratib, o'zini boshini o'zi qotirib, o'z hayotini o'zi murakkablashtirib qo'yadigan noyob voqelikka aylanadi. Ana shu holda insonning o'ziga xos betakrorligi, boshqa jonzotlardan keskin farq qiladigan jihatlari ko'zga yaqqol tashlanishi mumkin. Bundan ikki yarim ming yil muqaddam Sofokl o'zining «Antigona» fojiasida inson mohiyatini, uning tabiatini, sirli sinoatli olamini ifodalari ekan, «mo'jizalar ichida eng ajoyibi insondir», degan edi.

Demak, inson tabiatini o'rganishga intilishlar bugunningina hodisasi emas. Nene allomalar, donishmandlar, mutafakkirlar inson tabiati haqida qator-qator asarlar yaratishga, uning butun mohiyatini, ko'lamini, o'ziga xos jihatlari o'rganishga harakat qilishgan. Bu tadqiqotlarda qaysidir darajada ilmiy asos, fan metodologiyasi talablariga javob beradigan noyob nazariy xulosalar mavjud. Biroq, ularning birortasi inson tabiati haqida to'laqonli, yaxlit holda tavsiyalar berolmaydi. Chunki har bir inson alohida individ sifatida o'ziga xos alohida olam. Bu olam boshqa olamdan keskin farq qiladi. Har bir insonning o'z fe'l-atvori, o'z dunyoqarashi, ma'naviy-ruhiy imkoniyatlari, hayot va jarayonlar mohiyatini anglash va baholash qobiliyati uning bir-biridan farqini belgilaydi.

Inson olami, ichki dunyosi murakkabligining yana bir jihati shundaki, bir muammoga bir necha odam bir necha shaklda yondashib, uni bir necha shaklda talqin qiladi. Natijada mohiyatan o'z fe'l-atvoriga mos ravishda bir biridan farq qiladigan xulosalarga keladi. Ana shu holatning o'zi odamlar o'rtasidagi xilma-xillikni, turfalilikni va ba'zi hollarda o'zaro tushunmaslikni, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Inson tabiatining «ob-havo»si o'zgaruvchan, iqlimi kontinental. Uning ziddiyatlari, tuyg'ular va hissiyotlar bo'hronlari shu darajada o'zgaruvchanki, ba'zan inson o'z olamiga sig'may qoladi yoki o'z qarashlari va xulosalariga qarshi hatti-harakatlarni amalga oshirishi mumkin bo'ladi. Inson tafakkurining cheksizligi, uning mo'jizaviy qudrati shu darajada beqiyoski, u ba'zan anglab turgan narsasining anglanmagan boshqa qirralari oldida ojiz va notavon bo'lib qoladi. Ana shu holatga tushgan buyuk fizik olim Albert Eynshteyn atomning parchalanish nazariyasini yaratib, jahon fanida buyuk inqilob qilgan edi. U ayni atom orqali inson mehnatini yengillashtirish, mashaqqatini osonlashtirish, uning hayotiga ko'maklashishga xizmat qiladigan fanning aqlga sig'mas jihatlari

va tasavvur qilish qiyin bo'lgan tomonlarini ochib, inson daholik qudratining noyob mo'jizasini ko'rsatgan edi. Biroq eng arzon va cheksiz energiya manbai bo'lgan «beminnat» atom insoniyat boshiga mislsiz kulfatlar keltirishi, insoniyatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida qo'lga kiritilgan qadriyatlarining, sivilizatsiyalar yutuqlarining kulini ko'kka sovurishi mumkinligini payqagach, Eynshteyn umrining oxirigacha o'zidan o'zi norozi bo'lib, o'zini o'zi qarg'ab o'tganligiga e'tibor bersak, buyuk qalb egasining naqadar iztiroblar girdobida yashaganligini nazarda tutsak, inson qalbidagi ichki ziddiyatlarni tushunish unchalik qiyin emas.

Bunday holatlar buyuk olimlar, badiiy ijodkorlar, san'at namoyandalari hayotida aniqroq ko'zga tashlanadi. Qolaversa, har qanday insonning o'z hayoti, turmush muammolari, kundalik vazifalari va kasb-kori doirasi, hayot zavqi, turmush lazzati va yashash mohiyati bilan birga o'z iztiroblari, o'z dard-anduhlari bo'ladiki, bu bevosita inson olamining yana ham murakkabroq, yana ham ziddiyatliroq, yana ham serqirrarroq ekanligini ko'rsatadi.

Yer yuzida yashayotgan yetti milliard odamdan hech qachon ikkita aynan bir xilini topish mumkin emas. Bu insonning biologik voqelik sifatidagi tashqi ko'rinishida ham, aql-zakovati, quvonch va iztiroblar olami sifatida ichki dunyosi, qalb tug'yonida ham namoyon bo'ladi. Tuyg'ularku tabiatan turlicha bo'lishi muqarrar. Hissiyotlar, voqelikdan ta'sirlanish, ruhiy kechinmalar har bir odamning o'z tabiiy rivojlanish imkoniyatlari doirasida bo'ladi va shu jihatdan bir-biridan farq qiladi. Biroq uning biologik jihatdan hamma insonda bitta bosh, ikkita ko'z, ikkita quloq, ikki qo'l va oyoq bir xil bo'lgan holatda ham milliard odamlar ichida aynan o'xshashining yo'qligi kriminologiyada fan nuqtai nazaridan to'la isbot etilgan. Ana shu holatning o'zi har bir insonning takrorlanmas, o'ziga xos hodisa, ilohiy mo'jiza ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda hozirga qadar inson haqidagi fanlar, jumladan fiziologiya, biologiya, ruhshunoslik, etnografiya va boshqa qator fanlar to'plagan bilimlar va umumiy xulosalar inson tabiati ko'lami va uning rangbarangligini yaxlitligicha qamrab ololganicha yo'q.

Insonning tabiiy-biologik voqelik sifatida tana tuzilishi va boshqa jonzotlardan o'ta nozikligi, mayinligi, anatomik jihatdan keskin farq qilishi borasida turli-tuman fikrlar mavjud. U kuchli hayvonlar oldida nozik va ojiz bo'lishiga qaramay, aql-idrok va tafakkuri bilan ulardan ancha ustun va qudratli ekanligi hayratlanarli hodisa.

Inson ijtimoiy tabiatiga ko'ra o'z turmush tarzini o'zi yo'lga qo'yadi, o'zini o'zi boshqaradi. O'z xayollari, orzu umidlari va maqsadlarini ro'yobga chiqarish jarayoni orqali mavhum holatlarni real voqelikka



aylantira oladi, ularni manfaat orqali moddiylashtira oladi va foydalanadi. Yaxshilik va yomonlik, saxiylik va baxillik, ko'ngilchanlik va bemehrlik, muhabbat va nafrat uning butun ma'naviy-ruhiy qadriyatini belgilaydi.

Umuman olganda insonning boshqa jonzotlardan farq qiladigan jihati bevosita uning fikrlash va xulosalar chiqara olishi bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy olamidir. Aynan ana shu ma'naviy olam inson hayotining butun ongli faoliyatida o'zini namoyon etadi va uning zamirida ichki ruhiy jarayonlar yotadi. Shuning uchun ham insonga nisbatan olam so'zining qo'llanishi har bir inson uchun alohida dunyo mavjudligi va bu dunyo ungagina xos va faqat uniki ekanligidan dalolat beradi.

«Inson o'zida dunyoni, makroolamni mujassam etgan mikrokom (mikroolam) sifatida fikr yuritadi. Inson alohida mohiyatga ega emas, u yaxlit olam sifatida o'zini namoyon etadi», deydi K. Yaspers. Bunda ulug' faylasuf inson fikr yuritmasa, aqlini ishlatmasa, tafakkur qilmasa, tashqi olam, o'rab turgan dunyo mohiyatini anglashga intilmasa o'z mohiyatini yo'qotadi, degan xulosani ilgari suradi. Zotan, inson olami (mikroolam) makroolam bilan doimiy, uzluksiz muloqotda, o'zaro aloqada bo'lmog'i shart. Aniqrog'i, inson makroolam ichida yashab turib, uni butun salmog'i, murakkabligi, rang-barangligini o'z olamiga joylab yashaydi. Ana shu holatning o'zi insonning boshqa jonzotlardan farqini belgilaydi. Ayni paytda insonning doimiy rivojlanish, tadrijiy kamolot yo'nalishlari intellektual salohiyat va hissiy barqarorlik imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradigan muhim omildir. Shuning uchun ham K. Yaspers o'z fikrini davom ettirib, «Olamni tadqiq etish tafakkurimizning yagona yo'li. Olamni anglash ekzistentsial anglashning birdan-bir yo'li. Olamni yo'qotish bilan birga biz o'zimizni ham yo'qotamiz», degan edi.

Insonga ijtimoiy voqelik nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, unda bu ichki olamning mohiyati va ko'lamlari yana ham oshadi. Chunki bunda inson anglash va faoliyat ko'rsatish orqali kishilik jamiyati, ijtimoiy hayot taqdiri bilan bog'liq jarayonlarni ham qamrab oladi. Ana shu holatdan kelib chiqib ayrim mutaxassislar olam tushunchasini uchga bo'ladilar. Jumladan, tabiiy olam, ijtimoiy olam va ma'naviy olam.

Tabiiy olam deganda insonning genetik va biologik o'ziga xosligi, jismoniy imkoniyatlari nazarda tutiladi.

Ijtimoiy olam tushunchasiga esa insonning ijtimoiy voqelik sifatidagi mohiyati, uning jamiyat va tabiat bilan bog'liqligi, tarixiy jarayonlarga ishtiroki yoki ta'siri, shaxsiy hayoti bilan jamiyat hayoti o'rtasidagi bog'liqlik masalalari kiradi.

Ma'naviy olam esa har bir individning o'ziga xos ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari, hissiyotlari va tuyg'ulari, aql-zakosi, yaxshilik

va yomonlik o'rtasidagi farqni anglash darajasi, o'z fe'l-atvori doirasida o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlarini qamrab oladi.

Ayni ana shu uchinchi olam insonning mavjudot sifatidagi butun qadriyatini belgilaydi. Albatta, yuqorida keltirilgan ikki olam ham insongagina xos va uning o'zligini belgilaydigan voqelik. Biroq faqat ichki olamdagi holatgina uning kishilik jamiyatidagi o'rnidan, tashqi olamga ta'siridan, mohiyatidan kelib chiqadi va bu o'ziga xos ijtimoiy qatlamlar, sinflar va u yashayotgan jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir etadi. Chunki xuddi ana shu ichki mohiyat, insonning ichki olami bevosita fe'l-atvori, munosabatlari va hatti-harakatlarini shakllantiradi, rivojlantiradi, boshqaradi.

Inson mohiyati xususida gapirar ekan, I. P. Pavlov «Inson o'zini o'zi muvofiqlashtirib turadigan, himoya qiladigan, o'zini o'zi tiklaydigan, o'zini o'zi yo'lga soladigan va hatto shakllantiradigan eng oliy darajadagi tizimdir», degan edi.

Darhaqiqat, ana shu holatda inson tirik materiyaning yagona voqeligi sifatida ko'zga tashlanadi. Uning mohiyati faqat shundagina emas. Balki u o'z o'zini takomillashtirib borish orqali o'zining yangidan yangi qirralarini namoyon qilib boradigan, noyob imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga qodir bo'lgan hodisa.

Kishilik tarixi bevosita odamlar faoliyatining yaxlit majmui sifatida yuzaga keladi. Demak, jahon tarixi inson tadrijiy taraqqiyotining intiqosidir.

Har bir individual tafakkur bevosita ijtimoiy tafakkurning bir bo'lagi, jamiyat ma'naviy-ma'rifiy darajasining o'ziga xos cheklangan ko'rinishidir. Demak, individual va ijtimoiy tafakkur o'zaro chambarchas bog'liq. Ye.V.Sharoxova xulosalariga ko'ra «Individual tafakkurning ijtimoiy tafakkur xazinasiga o'z natijalarini o'tkazishi bevosita ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog'liq. Mabodo shunday sharoit bo'lmasa, ilmiy kashfiyotlar ham, ixtirolar ham, alohida shaxslarning amaliy faoliyat natijalari ham ijtimoiy ahamiyat kasb etmasligi yoki jamoatchilik tomonidan tan olinmasligi mumkin».

Demak, hamma vaqt ham inson o'zini har tomonlama barkamol va yetuk ichki dunyosini, noyob imkoniyatlarini ko'rsata olmaydi. Aniqrog'i, hamma inson bunga birday tayyor emas va iqtidori, tabiiy-genetik, biologik va ma'naviy-ruhiy kamolot nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Faqat har kim o'z imkoniyati va faoliyati doirasida noyob hodisaga aylansagina u ijtimoiy mohiyat kasb etadi, jamiyat uni tan oladi.

Insonning tuyg'ulari va hissiyotlari haqida gapirar ekan, G.X.Shingarov quyidagilarni aytadi: «Hissiyot o'z ehtiroslar doirasidan

tashqariga chiqq olmaydi. Biroq uning mohiyati ijtimoiydir. Masalan, vatanga bo'lgan muhabbat aniq ijtimoiy mazmun va mohiyat kasb etadi. Biroq uning paydo bo'lishi mavjud sharoitga bog'liq. Qaysiki, shaxs turli ehtiroslar reaksiyasi doirasida yashab turib, eng ahamiyatli va ijtimoiy xarakterdagi tuyg'uni asray biladi». Darhaqiqat, inson tabiatan tuyg'ular va ehtiroslar majmui. U ayni ana shu noyob mo'jiza orqali o'z mohiyatini kashf etadi va namoyon qiladi. Bu ehtiroslar va tuyg'ular salbiy yo ijobiy bo'lishidan qat'iy nazar, ijtimoiydir. Chunki inson salbiy ehtiroslar oqimida qanchalik jaholat, qabohat, nafrat va yovuzlik namunalarini ko'rsatsa, jamiyat, kishilik taqdiri shunchalik talofot ko'radi, hayotda ezgulik, muhabbat, yaxshilik toptaladi. Agar inson o'z tuyg'ulari va ehtiroslarini boshqarishga qodir bo'lsayu, uni aql yo'rig'i bilan yaxshilik sari bo'la olsa, yuqoridagi holatning aksi ijtimoiy taraqqiyot, ravnaq va farovonlik yuzaga keladi.

Inson hissiy olami va ehtiroslarini ma'naviy-ruhiy imkoniyatlar nuqtai nazaridan qaraganda quyidagilarga bo'lish mumkin:

**Birinchi** – ijtimoiy-siyosiy tuyg'u. Bu bevosita vatanga, mustaqillikka sadoqat, baynalminallik, vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor bilan bog'liq bo'lgan tuyg'ular.

**Ikkinchisi** – intellektual tuyg'ular. Bu fikr yorqinligi va tiniqligi, hayratlanish, ikkilanish, ishonchlik va ishonchsizlik, oxirigacha o'ylamay ish qilish, o'zini kamsitish yoki kalondimog'lik va boshqalar. Inson xuddi ana shunday imkoniyati bilan yaratuvchilik, bunyodkorlik, kashfiyotlar qilish namunasini ko'rsatadi. Aql quvvatini, zako mo'jizasini namoyon etadi.

**Uchinchi** – ezgulik va yovuzlik, qadr-qimmatni bilish, muhabbat va nafrat, havas va hasad tuyg'ulari bilan bog'liq bo'lgan axloqiy jarayon.

**To'rtinchisi** – estetik tuyg'u. Bu bevosita go'zallikni his qilish, hissiyot va tuyg'ularning pokizaligi, beg'uborligi, ularning shakli, o'zaro mutanosibliqi, hayajonlanish, quvonish, iztirob chekish, nafratlanish va boshqalar.

Ana shu holatlarda inson o'zining yaxlit olamini vujudga keltiradi, shakllantiradi, natijada uning butun fenomeni qanday bo'lsa shundayligicha namoyon bo'ladi.

Inson mohiyatida iroda kuchi alohida ahamiyat kasb etadi. U bevosita aql va tuyg'uning amaliy faoliyatidagi ifodasi sifatida inson ma'naviy olamining ideal darajasini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda «tuyg'u aql faoliyat» birligi iroda kuchi orqali fe'l-atvorga aylangan mexanizm maqomiga ega bo'ladi va ana shu uchlikning sintezi sifatida o'zini

namoyon etadi. U har qanday voqelikka – adolatli va adolatsiz hodisalarga chidamlilik, bardosh berish fazilatlarini o‘zida mujassam etadi.

Umuman olganda, inson murakkab mavjudot sifatida hali fanda o‘zining to‘la bahosini ololganicha yo‘q. Akademik F.Konstantinov ishonch bilan ta’kidlaganidek, «Inson, uning miyasi, aqli shu darajada ko‘p qirrali, xilma-xil, anglash qiyin bo‘lgan holat va bashorat qilish mumkin bo‘lmagan xazina. O‘zida mujassam etgan beqiyos imkoniyatlari bilan noyob mo‘jiza. Bu muammo juda murakkab va, balki, undan ham qiyin bo‘lgan hodisaki, uni fan hali-beri hal eta olmaydi».

Inson tabiatan murakkab jonzot. U mumkin qadar bir-birini rad etish, bir-birini inkor etish, o‘zini mutloq haqiqat deb bilish kayfiyati bilan yashaydi. Ana shu holatning o‘zi insonning bir-birini tushunmaslikka, bir-birini qabul qilmaslikka, ba’zan, hatto, bir-biridan qochishga olib keladi.

Boshqa bir shaklda inson alohida mavjudot, alohida individ sifatida o‘zi bir olam. Ulug‘ donishmandlardan biri «Inson olam ichra bir olamdirki, tashqi olam inson olami oldida nihoyatda kichikdir», degan edi. Darhaqiqat, inson tashqi olam tarkibida bir zarra misol, kishilik hayoti oldida insonning umri kapalak umriga teng. Yoki Mirzo Abdulqodir Bedil iborasi bilan aytganda, inson umri kiprikka ilinib turgan yoshga o‘xshaydi. Biroq, insonning beqiyos imkoniyatlari, ichki olamining kengligi, olamni anglash, idrok etish va qabul qilish salohiyati nuqtai nazaridan tashqi olam uning ichki olamiga bermalol sig‘adi. Ana shu jihatdan qaraganda insonning ichki olami tashqi olamdan ko‘ra kengroq, rang-barangroq, uni bus-butunicha, yaxlitligicha qamrab olishga qodir. Shuning uchun ba’zan inson bu keng olamga sig‘masligi, keng olam esa uning mushtdek qalbida jo bulmog‘i mumkin. Bag‘ri keng, fe’li keng odamlar ko‘pincha olamga sig‘maslik iztirobini kamroq chekadilar. Zotan, bag‘ri keng, aqlli, katta masalalar haqida o‘ylaydiganlar olamni bag‘riga sig‘dira oladi. Maydakash, fe’li tor odamlar keng olamga sig‘maydi.

Biz insonni murakkab jonzot dedik. Darhaqiqat, u nafaqat bir-birini, ba’zan o‘zini o‘zi inkor qilib yashaydi. O‘zini o‘zi rad etadi, o‘z hukmiga o‘zi qarshi chiqadi. Bunday paytda ruhiyat, kayfiyat alohida hukmdorlik rolini bajaradi.

Inson fenomeni haqidagi tasavvurlar har xil, baholar turli-tuman. Inson olamini o‘rganishga yondashishlar ham turlicha. Lekin ular mohiyatan bir-birini to‘ldiradi, mazmunan bir-birini davom ettiradi. Jumladan, Aristotel «Tabiat inson qo‘liga intellektual va axloqiy kuchni bergan, ammo, u bu quroldan teskari tomonga ham foydalanishi mumkin, Shuning uchun axloqiy kafolatlarsiz bo‘lgan inson eng murtad va yovvoyi mavjudotdir», degan bo‘lsa, Alisher Navoiy o‘zining «Mahbubul qulub» asarida «Odam

ikki dunyoning eng aziz va eng sharif maxluqidir», deb yozadi. Bunda u insonni bebaho xilqat darajasiga ko'taradi, beqiyos mo'jizalar olami sifatida ta'rif beradi.

Amerikalik atoqli yozuvchi Jek London esa «Inson bebaho maxluqlarning eng oxirgisidir», deydi. Bunda adib insonning yaratuvchilikda ham, vayronagarchilikda ham, ezgulik qilish va yovuzlik borasida ham noyob ekanligini ta'kidlaydi va aql-zakovat mo'jizasini ko'rsatish bilan birga, ayni ana shu aqlni yomonlik quroliga aylantirishga ham qodir mavjudot sifatida tushunadi. Aslini olganda ana shunday bir-biriga teskari, bir-biriga zid ruhiy olam yaxlit inson dunyosi murakkabliklarini ko'rsatadi.

Ruhshunoslarning fikriga ko'ra inson o'z olamining hukmdori bo'lmog'i lozim. Ana shu hukm qancha ezgulikka, yaxshilikka, mehr-muruvvatga yo'naltirilgan bo'lsa, u o'zining bunyodkorlik, yaratuvchanlik iqtidorini shunchalik yorqinroq namoyon etadi. Yomonlik, yovuzlikka yo'naltirilgan bo'lsa, misli ko'rilmagan fojialarni keltirishi mumkin. Ana shunda inson asosiy maqsadlardan chekinib, lahzalik tuyg'ular asiriga aylanadi va kutilmagan fojialarga qo'l uradi. Terrorchilar uchun esa bunday kayfiyat yana ham jiddiyroq, yana ham xavfliroq tus oladi. Ular alohida tayyorgarlik ko'rish, tajriba to'plash, maxsus moddiy va texnikaviy baza yaratish, maqsadga erishish uchun hech narsadan qaytmaslik, hech narsadan tap tortmaslik, qon to'kish va vayronagarchiliklar yo'lidan boradilar.

Umuman olganda hammamiz ham insonmiz. Xohlaymizmi yo'qmi, hammamizning qonimizda muruvvatlilik bilan xudbinlik, saxiylik bilan baxillik, yaxshilik bilam yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik tuyg'ulari parallel ravishda yashaydi. Faqat qaysi birimizdadir yaxshilik, ezgulik tuyg'ulari nisbatan ko'proq, boshqa birimizda yovuzlik tuyg'ulari ustuvorroq bo'lishi mumkin. Ana shu jihatdan qaraganda ana u odam yaxshi, mana bu odam yomon degan xulosaga kelamiz. Aslini olganda mutloq yaxshi yoki mutloq yomon odam bo'lmaydi. Demak, inson olami ana shunday murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshiliklarga to'la olam. Demak, inson hamisha ikki qarama-qarshi qutb to'qnashuvi orasida yashaydi.

Inson haqida gap ketganda «inson olami», «insonning ichki dunyosi» singari atamalar bejiz ishlatilmaydi. Zotan, har bir inson alohida bir olam, alohida bir dunyo. Inson ma'naviyati, uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy darajasi, fe'l-atvori va hatti-harakatlari haqida gap borganda bevosita ana shu ichki dunyo qiyofasi, ichki olam ko'rinishi orqali baho beriladi.

Insonning ichki dunyosi – ma'naviy olami o'zini aql-zakovat, tafakkur, iroda va o'zaro munosabatlar orqali namoyon etadi. Ayni ana shu unsurlar

kimda qanday shaklda mavjudligi, uning darajasi va miqyoslari orqali insonning jamiyatdagi o'rnini belgilanadi.

Inson butun mohiyati bilan madaniyat olami. Yuksak madaniyat faqat va faqat uning xos. Uning qadriyati bevosita ana shu o'lchov bilan baholanadi. Zotan, madaniyat yo'q joyda O.Shpengler iborasi bilan aytganda «mazmunsizlik, zoologiya hukmronlik qila boshlaydi. Hamma narsaga befarqlik boshlanadi. Madaniy organizm tarixiy hodisa sifatida o'ladi. Lekin bu hamma inson o'lib ketishini anglatmaydi, balki ular faqat biologik mavjudot sifatida yashaydi».

Gegel inson olami va uning mohiyati xususida gapirar ekan, «Ayrımlar favqulodda chuqur fikr bildirib, inson tabiatiga ko'ra ezgudur, deyishadi. Biroq ular undan ham chuqurroq mazmunga ega bo'lgan inson o'z tabiatiga ko'ra yovuzdir, degan fikrni unutadilar», deydi. Ulug' faylasuf bu fikri bilan insonning mavjudot sifatidagi beqiyos imkoniyatlarini, maxluqot olamida mo'jizalar ko'rsatish bilan birga yomonlik va yovuzlik borasida ham takrorlanmas imkoniyatlarga ega ekanligiga ishora qiladi.

Har bir inson o'z faoliyati bilan o'z-o'zini muvofiqlashtirib turadigan, o'z-o'zini himoya qilib, o'z-o'zini takomillashtirib, to'ldirib va, hatto, shakllantirib, mukammallashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lgan oliy darajadagi yaxlit tizimdir. Ayni ana shu jihatdan qaraganda u tirik materiya, ya'ni har bir inson alohida olam, bir-birini takrorlamaydigan dunyo!

Har qanday mustaqil inson – alohida shaxs. U xohlaymizmi yoki yo'qmi, ijtimoiy voqelik, ijtimoiy mohiyatga ega. Chunki uning hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor. U qanchalik o'zini alohida dunyo sifatida baholamasin, ayni paytda keng olamning bir zarrasi, mavjud jamiyatning bir a'zosidir. Demak, har qanday shaxsiy hatti-harakatlar, individual faoliyat bevosita jamoa faoliyati, jamiyat taqdiri va hayoti bilan, albatta, bog'langandir. Ayni ana shu mohiyatning o'zi insonning atrof bilan hisob-kitob qilishga, yonidagilar bilan bahamjihat yashashga, qolaversa, jamoatchilik va jamiyat taqdiriga taqdirdosh ekanligini anglashiga majbur etadi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda inson mohiyati mavhum, ma'lum bir alohida individ doirasidagi voqelik emas, ayni paytda u faoliyati, munosabatlari, fe'l-atvori va hatti-harakatlari bilan birga yaxlit ijtimoiy munosabatdir.

Insonning befarqligi, betarafligi nafaqat alohida shaxs, balki butun jamiyat hayotida salbiy hodisalarni keltirib chiqaradi. Donishmandlarning aqidalariga ko'ra dushmanlardan qo'rqma, ular juda zo'r bo'lsa seni o'ldirishadi. Do'stlardan qo'rqma, ular juda zarur bo'lib qolganda seni sotishadi. Betaraflardan qo'rq. Ular o'ldirishmaydi ham, sotishmaydi ham. Faqat ularning sukutlari, betarafliklari tufayli dunyoda sotqinlik va

o'ldirishlar yashayveradi. Ana shu holatning o'zi inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning naqadar chigalligini va naqadar murakkab ekanligini ko'rsatadi.

Boshqacha qilib aytganda, mamlakatimizda yuz bergan terrorchilik harakatlari ayni bizning befarqligimiz, hodisalarga baho berishda betarafligimiz natijasidir. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ishtirokimizning sustligi, umumiy manfaatlar va eng muqaddas g'oyalimiz atrofida jipslashmaslik illatlari hayotimizga tahdid solmoqda. Tajovuzkorlarning kuchayishiga imkon bermoqda.

Inson, uning miyasini, aqliy imkoniyatlarining chegaralarini, omillarini o'rganish va bashorat qilish ancha qiyin. Uni butun ko'lami bilan o'rganishning imkoni hozircha yo'q. Bugungi fan koinot sirlarini o'rganishga qodir. Insonni klonlashtirish, sun'iy odamni yaratish fan uchun qanchalik mo'jiza bo'lsa, shunchalik fojia ham. Umuman olganda XXI asr fani qanchalik mo'jizalar yaratmasin, inson olamini o'rganish, tadqiq etish oldida ojizlik qilmoqda. Biologiya, fizika, amaliy matematika, astronomiya, elektronika, kimyo, gen muhandisligi va boshqa qator qator ixtisoslashgan sohalarda misli ko'rilmagan kashfiyotlar qilinmoqda. Jumladan, kompyuter bir qarashda inson aqlidan bir necha ming barobar tez ishlaydi. Inson idrokiga sig'magan jarayonlarni lahzalarda bajaradi. Inson bajarishi qiyin bo'lgan operatsiyalarni robotlar amalga oshirmoqda. Biroq, unda hayajon yo'q, tuyg'u yo'q, hissiyot yo'q! U she'r yoza olmaydi, musiqa yarata olmaydi, munosabat bildira olmaydi. Asabiylashmaydi, iztirob chekmaydi, quvona olmaydi, baxt nashidasini sura olmaydi. Inson xuddi ana shu jihati bilan qimmatli. Zotan, his-hayajon va tuyg'uning rangi ham, ko'lami, miqyosi, o'lchovi ham yo'q. Uning faqat qudratiyu mo'jizasi bor, xolos!

Hissiyot, tuyg'u qanchalik shaxsiy hodisa bo'lmasin, u atrofdagilarga ta'siri orqali ijtimoiydir. Demak, o'z-o'zidan adolat, haqiqat, ezgulik, vatanparvarlik tuyg'ulari bir qalbning mulki bo'lsada, u tom ma'noda ulkan ijtimoiy qadriyatdir. U hamisha ijtimoiy mazmun kasb etadi. Tarixiy taraqqiyot, jamiyat rivoji bevosita har bir shaxsning ma'naviy kamoloti, yetuklik darajasi, o'zini o'zi idora etish, o'zini o'zi boshqara olish, o'zini o'zi takomillashtira bilish hodisasi bilan bog'liq.

### **Og'ish nuqtasi**

Bugun jahon hamjamiyatida, jumladan, uning to'la huquqli sub'ekti bo'lgan O'zbekistonda ham yuz bergan noxushliklar misli ko'rilmagan tarixiy yutuqlar, olamshumul yangilanishlar, tafakkurdagi jiddiy o'zgarishlar bilan birga bir qator odamni o'ylashga, shiddatli voqealar

jarayonini tahlil etib, uning mohiyatini ochishga majbur etmoqda. Darhaqiqat, eng insonparvar g'oyalar bilan birga terrorchilik, terrorizm bugun nafaqat bizga, balki bugun insoniyat hayotiga tahdid solmoqda. U insoniyat istiqbolining, taraqqiyot omillarining, baxtli kelajagi va turmush farog'atiyu hayot lazzatining betimsol kushandasi sifatida o'zining yangidan-yangi qirralarini namoyon etmoqda.

Inson fenomeni, uning mavjudot sifatidagi qadriyati atrofidagi ilmiy-nazariy xulosalar bugungi kunda ayni inson tufayli yuz berayotgan aqlga sig'mas voqealar mohiyatini ochishga qodir bo'lolmay qoldi. XX asrda yuz bergan jahon tarixining yangi davri (Arnold Toynbi) buyuk kashfiyotlar bilan bir qatorda ko'z ko'rib, quloq eshitmagan qo'uporuvchilik, vayronagarchilik va insonning o'zini o'zi o'limga mahkum etish hollari inson olami, uning ruhiyati va fe'l-atvori keskin o'zgarayotganidan, natijada esa insoniyat tarixiy taraqqiyotida butunlay yangi davr boshlanayotganidan dalolat beradi. Bu davr ishonch va ishonchsizlik, umid va umidsizlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi ayovsiz kurashi, fikr olamning mo'jizasi va fojiasi sifatida o'zini namoyon etmoqda.

Terrorizm tabiatan qon hidini qumsab yashaydigan, qon hidi bilan nafas oladigan mislsiz jaholat, cheksiz chegarasiz qabohat, miqyosi hech narsa bilan o'lchanmaydigan razolat namunasidir. Shuning uchun u ayni inson daholik qudratining timsoli, inson aql-idrokining mo'jizasi bo'lgan noyob qadriyatlarni barbod etishdan huzurlanadi. O'zining dahshatu vahshatlarga va vayronagarchiliklarga qodir ekanligidan mamnun bo'ladi. Afsuski, bu mamnunlik, bu kuch-qudrat kishilik hayoti, inson qadr-qimmatini va hayot mazmuni oldida, uning buyuk tarixi bilan qiyoslaganda hech nima emasligini, u o'zining mangu tavqi-la'natlarga mahkum etilganini anglamaydi.

Atrofimizda yuz bergan voqealar bir qator savollarni o'rta tashlaydi. Jumladan, terrorchi kim, u ham hamma qatori insonmi, u ham shu jamiyatning a'zosimi, kamikadzelik nima, u qanday paydo bo'ladi, uning ildizlari qaerda, u qanday shakllanadi, uning hayot mazmuni nimalardan iborat? Bunday savollar o'zining asosli javobini kutmoqda. Biz buyuk kelajak sari dadil qadam qo'yayotgan, mustaqillikni har birimizning shaxsiy qadriyatimiz bilan bog'liq holda tushunayotgan, mustaqillik bevosita har birimizning sha'nimiz, oriyatimiz, qadru qimmatimiz, hayot mazmuni va jamiyat a'zosi sifatidagi burchimiz, vazifamizga aylangan bir paytda bu juda muhim ahamiyat kasb etadi.

\* \* \*



Inson, aqliy va jismoniy jihatdan sogʻlom odam hamisha oʻzini boshqara oladi va inson sifatidagi qadriyatini, hayot gultoji sifatidagi ezgulik timsoli ekanligini chuqur anglaydi. Ana shunda u turli yoʻllarga kirmaydi, qalb iztiroblari va ichki kechinmalarining oʻzaro ziddiyatlarini, qarama-qarshiliklarini tartibga sola oladi. Axloq oʻzining betimsol kuch-qudratini inson feʼl-atvori va hatti-harakatlari orqali namoyon qiladi.

Maʼlumki, har qanday jismoniy sogʻlom odam yer tekisligiga nisbatan 90 gradusda tikka turadi. Yurayotgan paytda 85-95 gradus doirasida ogʻishi yoki chayqalishi mumkin. Bu normal holat. Agar inson aqliy jihatdan sogʻlom boʻlmasa, maʼnaviy va ruhiy jihatdan oʻzini oʻzi boshqarishga qodir boʻlmasa, ogʻish nuqtasining chegaralarini belgilash qiyin boʻladi. Chunki bu holat har kimda har xil kechadi va takrorlanmas, bir-biriga oʻxshamagan hodisalarni keltirib chiqaradi. Insonning qadriyat sifatidagi bahosini kamaytiradi. Chunki, haqiqatdan ham aqli zaif, ruhiyati shikasta, maʼnaviy jihatdan qashshoq, ichki iroda, ichki madaniyat va yuksak axloqiy meʼyorlardan begona boʻlgan qalb oʻzini oʻzi boshqarishga mutlaqo qodir emas. Hayot ham, oʻlim ham u uchun bir qadam. Shuning uchun ham allomalarimiz inson ruhiyatiga, ruhiy tetiklik, ruhiy tozalik tuygʻulariga alohida eʼtibor berishadi va insonga baho berayotganda aynan ana shu oʻlchovlar orqali yondashishadi.

Aristotel qarashlariga koʻra «Ruh eng ezgu olam boʻlgani uchun inson avvalo oʻzining ruhini kamol toptirishi zarur», ekan. Demak, ruhan toza, ruhan barkamol, ruhan baquvvat, ruhan kuchli odam oʻz-oʻzidan yomonliklar va gʻayri insoniy unsurlarga kiruvchi barcha illatlardan oʻzini tozalay oladi. Ezguliklarga intiladi.

Ruhiy tozalik – inson tabiatida, feʼl-atvorida hayot nashidasini anglash, hayotdan goʻzallik izlash, turmush ikir-chikirlaridan koʻra koʻproq turmush farogʻati, oila va farzandlar kamoli hamda shular orqali yaxlit jamiyat, yaxlit kishilik dunyosi baxtu-iqbolini koʻzlash fazilatlarining asosi. Boshqacha qilib aytganda, ruhiy tozalik orqali inson hayot goʻzalligi, yashash shavqi va nashʼu namosini chuqurroq anglaydi.

Ruhiy qudrat – bu ayni ruhiy tozalik orqali anglangan qadriyatlarni asray bilish, ularni takomillashtirish va boyitishga daʼvat etadigan juda katta maʼnaviy qudrat, insoniy fazilat. Insonning yaratuvchilik iqtidori, daholik qudrati, aqliy moʻjizasi ayni ana shu ruhiy iroda orqali, ruhiy qudrat orqali boshqariladi va oʻzining cheksiz imkoniyatlarini namoyon etadi. Demak, u harakatdagi hodisa, insonni faoliyatga daʼvat etuvchi kuch.

Imom Gʻazzoliy oʻzining «Kimyoi saodat» kitobida taʼkidlashicha: «Inson farishta va hayvon orasidagi maxluqdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yoʻq. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki

uning o'zi pok, ilohiy nurdan iborat. Faqat insonda rivojlanish, ruhiy kamolot xislati mavjud». Demak, hayvonda shakllanishga, rivojlanishga, o'zini o'zi boyitishga, o'zini qadriyatga aylantirishga da'vat etadigan ruh yo'q. Farishta esa azalu abad pok bo'lganligi uchun uning shakllanishi va rivojlanishiga ehtiyoj yo'q. U shundoq ham toza, shundoq ham pokiza, nur yanglig' bezavol. Faqat insondagina ruhiy kamolotga intilish tuyg'usi mavjud va uning komillikka intilishida, yetuklik sari harakat qilishida, hayoti mazmunini boyitishga, shu asnoda yaxlit kishilik jamiyatining go'zal va ko'rkam bo'lishiga da'vat etadi. Ruhiy kamolot tuyg'usi inson fenomenining tayanchi, uni qadriyatga aylantiruvchi buyuk mo'jiza.

Xuddi shu fikrni atoqli nemis faylasufi K.Yaspers boshqacha talqin etadi. Ya'ni u «his-tuyg'u mohiyati sifatida u (inson – N. J.) hayvondan yuqori, ma'naviy-ruhiy jihatdan farishtadan pastda turadi. O'z mohiyatining ana shu ikki tomoni bilan ularga qavmdosh bo'lsada, hayvon ham emas, farishta ham emas. Ularning har ikkovidan ham ustun tomonlari bor. Bu bevosita Alloh tomonidan yaralganligi bilan belgilanadi», degan edi.

Abu Nasr Forobiy inson haqida fikr yuritar ekan, u inson mohiyatini, qadr-qimmatini aqllilik darajasiga qarab belgilaydi. Uning nazarida aql insonni hayvondan farqlaydigan va hatto insonni bir-biridan farqlaydigan o'lchov. Garchi inson qadriyat sifatida bir-biridan kam bo'lmasada, har qanday inson e'zozga va hurmatga loyiq bo'lsada, aql darajasi nuqtai nazaridan farqlanadi va ana shu mezon bilan baholanadi. «Inson mohiyati aqlda, aqlning mohiyati esa hatti-harakatda bilinadi», deydi Forobiy.

Darhaqiqat, inson mohiyatan aql egasi, u aql yo'rig'i bilan ish tutadigan jonzot. Uning boshqa jonzotlardan farqi ham xuddi ana shunda. Biroq, aql darajasi hammada birday emas. Kimdadir u ko'proq, kimdadir kamroq, cheklangan. Buni baholashning eng to'g'ri va adolatli mezoni Forobiyning fikricha hatti-harakatlardir. Har bir shaxsning hatti-harakati, bajarayotgan ishi, odamlarga munosabati va vazifasiyu burchini anglash darajasi aql mahsulidir. Demak, har birimizning fe'l-atvorimiz doirasidagi hatti-harakatlarimiz, shak-shubhasiz, aqlimiz doirasida namoyon bo'ladi va aqlimiz darajasini belgilaydi.

Terrorchilar, kamikadzelar haqida gap borganda, biz ana shu nuqtai nazardan ularga baho berishimiz kerak. O'zini o'zi o'limga mahkum etishning shakllari ko'p. Bir paytlar o'ziga o'zi o't qo'yish holatlari yuz bergandi. Ota onasi sevgan yigitiga bermagani yoki o'qishga yubormagani uchun o'ziga o't qo'yish holatlariga guvoh bo'lganmiz. Ana shu holatning o'zi ruhiy kemtiklik va ruhiy qudratning ojizligidan kelib chiqadi. Ayni ana shu kemtiklik va ojizlik qaysidir bir vujudda fazilatga, qudratli ruhiy irodaga, zakovat quvvatiga aylana olmaganidan, aqldan ko'ra hissiyotning

ustun kelganidan dalolat beradi. Agar o'zini o'zi o'limga mahkum etish shaxsiy hayot doirasidan chiqib ketib, jamiyatga, begunoh odamlar hayotiga xavf solsa, ularni yashash ne'matidan bebahra qilsa, shu yo'l bilan insoniyat taraqqiyotiga to'siq bo'lsa, uni hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Bu endi – jaholat, razolat va qabohatdir.

Bugungi dunyo global muammolar tobora xuruj qilayotgan davrni boshdan kechiryapti. Termoyadro xavfi, urush va tinchlik muammolari, yalpi ekologik tahdid, genotsid, koronavirus, genofond masalalariga befarq qarab bo'lmaydi. Bu jiddiy va insoniyat taqdiri bilan bog'liq, muammolarni mumkin qadar bartaraf etish Inson zimmasidagi eng og'ir mas'uliyatdir. Ushbu global masalalar eng avvalo Insondan barkamollikni, ma'naviy va ruhiy yetuklikni taqozo etadi. Demak, inson dastavval o'z salohiyatini, ezgulikka yo'naltirilgan qobiliyati va faoliyatini takomillashtirishi, uni muvofiqlashtirib turishi zarur. Ana shu holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi dunyo global muammolari orasida eng globali Inson muammosidir! Yangi davrda Inson o'ziga o'zi baho berishi, o'zining fazilatiyu nuqsonlarini xolislik bilan taftish etishi lozim. Dunyo xaloskori, hayot va taraqqiyot najotkori Inson ekan, uning o'zi komillikka, tarbiyaga, yuksak axloqiy darajaga muhtoj ekanligini anglamog'i lozim.

Yollanma qotillik, terror, kamikadzelik va boshqa g'ayriinsoniy illatlar kishilik jamiyatida yalpi hissizlikni keltirib chiqarmoqda. Hadik va qo'rquv bilan yashash inson imkoniyatlarini cheklab, tuyg'u va hissiyotni mahv etmoqda. Natijada hissiz jamiyat xavfi butun dunyoga tobora tahdid solmoqda. «Bunday sharoitda har bir kishida xudbinlik, faqqat o'zini o'ylash, o'z ehtiyojlarini qondirishga intilish hissi kuchayadi. Zo'ravonlik, asabiylik, befarqlik va, hatto, axloqsiz, muhabbatsiz ko'ngil xushliklar avj oladi. Eng ezgu insoniy tuyg'ularni poymol etish rag'batlantiriladiki, bu oxir-oqibatda bizni zamindagi jannatga emas, Osventsumga olib boradi», deydi ingliz adibasi Pamela X.Jonson.

Inson qatiy ishonch, mustahkam iroda bilan birga ishonchsizlik va tushkunlik olami ham. Shuning uchun ham u qanchalik optimistik ruh bilan yashamasin, ketma-ket tazyiq va zo'ravonlik, adolatsizlik va tahqir orqali o'z iroda kuchini yo'qotadi. Mazmunsiz va maqsadsiz hayot domiga tushib qoladi. Natijada «Qandaydir bema'nilik yaqinlashayotganligini anglagan sari inson o'z muvozanatini yo'qotadi, holatidan chiqib ketadi. Bema'nilik va go'zallik o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali insonning tuyg'ulari kuchi, hayotga chanqoqdek kuchi so'nib boradi», degan edi Nitshe. Bunday ma'naviy-ruhiy holat jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-tarixiy jarayonlar ta'sirida yuzaga keladi. Natijada odamlar kayfiyati tushkunlik, ertangi kunga ishonchsizlik, ruhiy ozurdalik va pessimistik kayfiyat vaziyati paydo

bo'ladiki, bu oxir-oqibatda insonning, jamiyatning yalpi tanazzuliga olib keladi.

Terrorizm dunyoni egallashga intilmoqda. U jiddiy ravishda XXI asrning bitishi qiyin bo'lgan jarohatlaridan biri. Global dunyo uning tahdididan qutula olmayapti. Demak, terrorizm global miqyos kasb etayotgan bir paytda unga qarshi kurashish har bir fuqaro burchiga aylanmoqda. Chunki, u eng avvalo, o'z hayotini, bolalari, oilasi hayotini himoya qilishdan manfaatdor. Har bir fuqaro o'ziga o'zi shunday talab qo'ysa, shunday mas'uliyat bilan yashasa, yaxlit jamiyat, bugun insoniyat hayoti kafolatlanishi muqarrar. Yer yuzida ezgulik tantana qilishi shubhasiz.

Qur'oni karimning «Baqara» surasi 76-oyatida «Aql insonning insoniyligini belgilovchi buyuk ne'matdir», deyilsa, «Anfol» surasining 22-oyati, «Furqon» surasining 34-oyati va «Mulk» surasining 10-oyatida aqlsizlik, aqli zaiflik, aqli noqislik insonning insoniyligini yemiruvchi, uning mohiyatini pasaytiruvchi illat sifatida qoralanadi. Aqli zaif, nodon kishilar shayton yo'ldan ozdirgan kimsalarga va, hatto, hayvonlarga qiyoslanadi. Boshqacha qilib aytganda aqli zaif va nodon kishilar johildirlar. «Jaholat», «razolat», «adovat» va «qabohat» so'zlari shunchaki ohangdosh so'zlar emas. Ular mazmunan va mohiyatan bir-birini to'ldirib boradigan hodisa. Ularning asosi, tagzamini bitta – nodonlik, gumrohlik va aqli pastlikdir!

Umuman olganda, islom qoidalari va tasavvuf ta'limotida o'zini o'zi o'limga mahkum etish to'g'ridan to'g'ri Xudoga qarshi isyon, Xudoga qarshi intiqom sifatida qabul qilinadi. Chunki har bir odamning qanday holatda, qachon dunyoga kelishi va qanday holatda, qachon foniy dunyodan boqiy dunyoga o'tishi faqat Xudoning amri bilan bo'ladi, xolos. Uni faqat va faqat Allohning o'zi biladi, bashorat qilish mumkin emas. Demak, tug'ilish, yashash va o'lim ham yolg'iz uning hukmida. Shuning uchun xudkushlik, qanday maqsadda, qanday shaklda bo'lmasin, dunyoviy ta'limotda aqliy noqislik, ruhiy kemtiklik belgisi deb ta'riflansa, islomiy ta'limotda Allohga qarshi ish tutmoq deb baholanadi.

Jaloliddin Rumiy inson mohiyatini iymon orqali ko'radi va iymon insonni baholashning bosh mezoni deb biladi. E'tiqod, taqvo, sajda va boshqa ibodatga doir barcha o'lchovlardan iymonni baland qo'yadi. Jumladan, «Iymon namozdan ustundir. Namoz uzrli sabab bilan qoldirilib, fursat bo'lishi bilan ado etilishi mumkin. Iymon uchun hech qanday uzrli sabab bilan buzilib, keyinroq bajarish ruxsati yo'q. Namozsiz iymonning foydasi bo'ladi. Biroq iymonsiz namozning foydasi yo'q. Xuddi munofiqlarning namozi singari.

Namoz har dinda turlicha, iymon esa o'zgarmaydi. Ahvoli, qiblasini va bu kabi narsalari ham o'zgarmaydi», deydi. Zotan, iymon qalb va ruh in'ikosi. Qalbi toza, ruhiyati pokiza, xayoloti bezavol inson ma'rifatli va barkamoldir. Ma'lum bir daqiqalarda Allohga sajda qilib, qolgan paytlarda g'ayri-axloqiy harakatlar qiladigan, xususan islomni niqob qilib, odamlarga zulm qiladigan, hattoki ularning qonini to'kadigan banda dindan begona, murtaddir.

Ushbu g'oya hadisi sharifda yana boshqacha bir shaklda ifoda etiladi. Jumladan, «Olloh Sizning suratlarinigiz va amallarinigizga emas, balki qalblaringizga va niyatlarinigizga boqar», deyiladi. Darhaqiqat, qalb – iymon vatani, makoni. Niyat esa ruh va tuyg'ularning xayoliy suvrati. Iymon qalabda tug'iladi, shakllanadi, kamolga yetadi. Oxir-oqibatda butun qalbni egallash orqali yaxlit inson mohiyatiga, qadriyatiga aylanadi. Niyat, orzu, umid esa ruhdan, tuyg'ulardan oziqa oladi, ularning mazmuni, shakli ruh tozaligi, tuyg'ular bezavolligi bilan bog'liq.

Aristotel esa inson mohiyatini dunyoviy tafakkur mezonlari orqali tushuntirib beradi. Uning fikricha, odamzot faqat va faqat aql orqaligina o'zini namoyon etmog'i lozim. U o'zini aql kuchi bilan boshqaradi, ma'naviy-axloqiy qudrat bilan atrof muhitga ta'sir o'tkazadi. Aqliy salohiyat, intellektual qobiliyat va ma'naviy kamolot faqat insongagina xos. Ana shu g'oyadan kelib chiqib u «tabiat inson qo'liga intellektual va axloqiy kuch bergan, ammo u bu quroldan teskari tomonga ham foydalanishi mumkin. Shuning uchun axloqiy kafolatlarsiz bo'lgan inson eng murtad va yovvoyi mavjudotdir», deydi. Ana shu yerda jamiyat va fuqaro, inson va insoniyat, odam va olam munosabatlariga birmuncha aniqlik kiritiladi. Zotan, faqat insongagina yomonlikni, va, hatto, yovuzlikni aql yo'rig'i bilan, o'ylab, fikrlab, yangidan-yangi usullarni kashf etib amalga oshirishi mumkin. Axloqiy jihatdan kafolatlanmagan, ma'naviy jihatdan o'zini o'zi boshqarish, tartibga solish, umumjamiyat tomonidan e'tirof etilgan me'yorlarga bo'ysunish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxs xavfli va zararlidir. Bunday paytda Aristotel aytganidek aql, intellektual salohiyat va Rumiyligari surgan Iymon g'oyasi uyg'unlashib, insonni o'zini o'zi tartibga soluvchi, o'zini har qanday sharoitda ham yig'ib turishga da'vat etuvchi beqiyos qudratga aylanadi.

Keyinchalik Abu Nasr Forobiy ham Aristotelga o'xshab insonda aql ustuvorligi g'oyasini ilgari suradi va inson mohiyatini, butun qadriyatini aqlda ko'radi. Biroq, Aristoteldan farqli holda, Forobiyda aql va ruh, tafakkur va tuyg'u uyg'un, bir-birini to'ldiradigan, insonning barkamol qiyofasini belgilaydigan omil darajasiga ko'tariladi.

**Dunyoni go‘zallik... va ezgulik qutqaradi**

Bundan bir necha yil muqaddam, aniqrog‘i, istiqlolimizning dastlabki yillarida, O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagan, qator, bir-biridan qiyin, og‘ir muammolarni hal qilishga chog‘langan, turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni yengib borayotgan iztirobli bir pallada «Literaturnaya gazeta» gazetasining muxbiri Birinchi Prezident Islom Karimovdan intervyu olaturib: «Dunyoni go‘zallik qutqaradi», degan gap bor. Siz bunga qanday qaraysiz? » deb so‘raydi. Unga javoban Prezident: «Dunyoni go‘zallik va ezgulik qutqaradi», deb javob berdi. Ana shu ikki og‘izgina gapda olam-olam ma‘no borligi bugun ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Qachonki mustaqil hayotimizga tahdid kuchayib, xalqaro terrorizm, narkobiznes, diniy fundamentalizm avj olib borayotgan bir paytda bu hikmatning yangidan-yangi qirralari, bizga noma‘lum bo‘lgan ma‘nolari ochilib bormoqda.

Aslini olganda go‘zallikni yaxshi ko‘rgan, go‘zallikni chuqur his qiladigan va undan zavqlana oladigan odamda tabiatan yomonlik bo‘lmaydi. Biroq, faqat hayot go‘zalligini anglash, tushunish va undan zavqlanishning o‘zi bugun kifoya qilmay qoldi. San‘at, adabiyotni sevish yoki tabiat go‘zalliklarini tomosha qilish odam ruhiyatini tozalashi, unga xush kayfiyat bag‘ishlashi, ma‘naviy-axloqiy jihatdan boyib borishiga xizmat qilishi shubhasiz. Biroq inson qalbida ezgulik bo‘lmasa, mavjud go‘zallikni asray olmaydi. Undan ayrilib qolishi aniq. Ezgulik tuyg‘usida go‘zallikni anglashdan ko‘ra ko‘proq harakat, intilish, faoliyat mavjud. Ana shu faoliyat bizning turmush tarzimizga aylanmog‘i lozim. Ezgu tuyg‘ular bizni birlashtirmog‘i, milliy yaxlitlikka, milliy birlikka va umumiy xonadonimiz bo‘lgan jannatmakon O‘zbekistonimizning har tomonlama barkamol va go‘zal ne‘matlarini asrashga da‘vat etadigan tuyg‘uga ega bo‘lmog‘imiz kerak, Go‘zallikning, hayot nashidasining toptalayotganidan achinib, iztirob chekish yaxshi. Biroq, uni himoya qila olish uchun, ichki qudratni harakatga keltirish uchun ezgulik tuyg‘ulari jonlanmog‘i lozim. Darhaqiqat, dunyoni faqat go‘zallikkina emas, u bilan birga ezgulik qutqaradi. Zotan, ezgulik bor joyda adovat, razolat, jaholatga o‘rin yo‘q. Ezgulikka oshno qalb ularning barchasini bartaraf etishga qodir bo‘ladi, bunga erishishga intiladi.

Forobiyning ezgulik haqidagi xulosalariga nazar solsak, Birinchi Prezident Islom Karimov g‘oyasining yana ham yangi qirralari ochiladi. Jumladan, «Agar inson ilohiy ezguliklarga erishishni umid qilsa, uning hayoti quvonchli, hayot tarzi esa, juda go‘zal bo‘ladi. Go‘zal hayot tarzi esa xalq nazarida ham, Xudo nazarida ham yuksak bo‘ladi», deydi Forobiy.

Demak, hayot go‘zalligi, nash’u namosi, shavqu zavqi bevosita ezgulik bilan bog‘liq ekan. Ezguliksiz barcha yaxshiliklarning, yaratuvchilikning, bunyodkorliklarning bo‘lishi mumkin emas. Ezgulik inson va hayot, odam va olam xaloskoridir!

Inson buyuk yaratuvchilik qudratiga ega. Bugun aqlga sig‘maydigan ixtirolar, tasavvur qilish qiyin bo‘lgan kashfiyotlar olamida yashayapmiz. Bu insonning oliy qudrati va noyob mo‘jizasi. Ayni paytda ana shunday mo‘jizalarning kushandasi ham insondir. Zotan, insonga bu dunyoda insonchalik qudratli dushman yo‘q. Ana shu jihatdan qaraganda ba‘zan jaholat va qabohat ustuvor kelgan paytda mehr-muruvvat, saxovat va qadr-qimmat haqida chuqurroq o‘ylashga majbur bo‘lasan kishi.

Jaholat ustun kelgan holatlar o‘tmishda ko‘p uchraydi. Deylik, Nasimiyning tovonidan so‘yilishi, Mirzo Ulug‘bekning o‘z farzandi Abdullatif hukmi bilan o‘ldirilishi jaholat va qabohatning yorqin misolidir. Bu holatlar qaysidir darajada shaxsiy adovat, o‘zaro kelishmovchilik, shaxsiy manfaat doirasida yuz bergan edi. Ayni paytda Inson yaxlit qiyofasining yorqin ifodasidir.

Agar jaholat umumjamiyat miqyosini kasb etsa, odamlar hayotiga tahdid soladigan bo‘lsa, qolaversa, butun insoniyat taraqqiyoti kushandasiga aylanadigan bo‘lsa, uni qanday baholash mumkin? Bunday hodisalarning o‘lchovi bormi?

Albatta, ularning miqyosini baholash, taroziga solish, qaysidir darajada xulosaga kelish ham mumkindir. Biroq, eng muhimi, jaholatga qarshi kurashish, qabohatni barbod etish, insoniyat hayotini turli tahdid va tahlikalardan xalos etish insoniyat taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyatda ulkan voqelikdir.

Biz jamiyatni erkinlashtirish yo‘lidan bormoqdamiz. Fikr erkinligi, g‘oyalar xilma-xilligi sharoiti vujudga kelmoqda. Ozod shaxs, erkin fuqarolik jamiyati barpo qilmoqda. Biroq ana shu fikr erkinligi va shaxs ozodligidan kim qanday foydalanmoqda? Bu juda katta axloqiy, ma’naviy, ma’rifiy hodisa! Biroq so‘z erkinligidan, shaxs ozodligidan kim, qanday maqsadlarda foydalanayapti? Bu juda og‘ir, juda mas’uliyatli o‘lchovdir.

Turli g‘oya va fikrdagi kishilar harakati avj olayotgan bir paytda umummanfaat yo‘lida xizmat qiladigan sog‘lom g‘oyalarni asray bilish va qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Ana shuning uchun ham Birinchi Prezident Islom Karimov «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javob bera turib: «Fikrga qarshi – fikr, g‘oyaga qarshi – g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat» tamoyilini ilgari surgan edi.

Darhaqiqat, biz bugun ma’lum bir maqsad yo‘lida o‘zining shaxsiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun tinchligimizni buzayotgan,

taraqqiyotimiz yo‘liga g‘ov bo‘layotgan g‘oyalarga qarshi, barcha uchun manfaatli bo‘lgan g‘oyalarni qarshi qo‘yib, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish yo‘lidan bormog‘imiz lozim. Zotan, ma‘rifatgina inson hayotini asray oladi, jamiyat taraqqiyotini ta‘minlaydi, umumiy manfaatlar atrofida odamlarni birlashtira oladi. Bu birinchidan.

Masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Ma‘rifat kishi qalbida ezgulik tuyg‘ularini uyg‘otadi, hayotga intilishlarini tartibga soladi, hayot mazmunini chuqurroq anglashga da‘vat etadi. Olamni anglash, olamni tushunish, olamni idrok etish orqali odamning o‘zini o‘zi anglashi, o‘zini o‘zi idrok etishi va o‘zini o‘zi qadriyat sifatida tushunishiga imkon beradi.

Uchinchidan, ma‘rifatli kishini yo‘ldan og‘dirib bo‘lmaydi. Ma‘rifatli kishi bilan faqat yuksak ma‘rifat orqaligina gaplashish yo kelishish mumkin bo‘ladi. Bunday odamlarda qat‘iyat, iroda, yuksak axloq, ma‘naviy yetuklik fazilatlari mujassam bo‘ladiki, u shaxs irodasini chiniqtiradi, charxlaydi, qat‘iyatini oshiradi. Buyuk ma‘rifatparvar Abdulla Avloniy «Ma‘rifat – shijoatdir» deganida xuddi ana shuni nazarda tutgan bo‘lsa, ajab emas. Zotan, ma‘rifatli kishi shijoatli bo‘ladi. U har qanday xurofotga qarshi kurasha oladi. Har qanday bida‘tning yo‘lini to‘sa oladi. Demak, ma‘rifatli jamiyatda jaholat yashay olmaydi. Qabohat yo‘l topolmaydi.

Umuman olganda inson ma‘naviyati, uning ichki olami xususida fikr yuritar ekanmiz, uning eng muhim jihatlarini quyidagi sohalarda ko‘rishimiz mumkin:

ijtimoiy tafakkurning nazariy darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘rifat, inson va jamiyat, uning jamoatchilik bilan aloqasi orqali yuzaga keladigan, ijtimoiy-tarixiy jarayonlar ishtirokidan kelib chiqadigan amaliy faoliyat;

kundalik hayot jarayonini va voqeliklarni nechog‘lik anglash, idrok etish va o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan histuyg‘u bilan bog‘liq bo‘lgan his qilish sohasi;

yuqoridagi har ikki soha sintezi sifatida yuzaga keladigan, ya‘ni aql va tuyg‘u uyg‘unligining hosilasi bo‘lgan iroda kuchi, o‘zini o‘zi boshqarish salohiyati.

Ayni ana shu uch yo‘nalish kesishgan joyda insonning yaxlit ma‘naviy qiyofasi vujudga keladi. Inson fenomenining butun ko‘lami, mohiyati ana shu yo‘nalishlar uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

### **Obodlik qalbdan boshlanadi**

Ulug‘ bobokalonimiz Abduxoliq G‘ijduvoniyni yubiley tantanalarida Birinchi Prezident Islom Karimov nutq so‘zlar ekan, bir iboraga alohida e‘tibor berdi va uni takror-takror ta‘kidladi: «Obodlik qalbdan boshlanadi».



Ushbu hikmatli gapning mohiyati bevosita inson orqali ochiladi. Chunki, gap qalb haqida borar ekan, bevosita qalb egasi bo'lgan inson taqdiri, uning hayoti, jamiyatda tutgan o'rni, mavqei, jamiyatdan nima olayotganiyu nima berayotgani xususida boradi.

Darhaqiqat, qalbi toza inson faqat yaratuvchilik, yashnatuvchilik ishi bilan shug'ullanadi. Qalbi ko'rkam odam hayotni yana ham go'zallashtirishga intiladi. Qalbi obod odam eng avvalo uyini obod qiladi, qishlog'ini yoki mahallasini obod qiladi, qolaversa, yurtini obod qiladi. Demakki, hayot obod bo'ladi!

Mamlakatimiz qiyofasining tobora ko'rkamlashib, go'zallashib borayotganini ana shu obod qalb mahsuli, go'zal tuyg'ular natijasi, faraxbaxsh va hayotbaxsh orzu umidlar ro'yobi desak, xato qilmaymiz.

Qalb obodligi ma'rifatdan, qalb ravshanligi, xayolot yorug'ligi ilm nuridan. Shuning uchun ham aqlli, dono kishilarni keng ma'noda ziyoli deyishadi. Bu biz tushungan «intelligent» tushunchasidan ko'ra kengroq va chuqurroqdir.

Nodonlik donishmandlik va aqllilikning aksi sifatida johillikni keltirib chiqaradi va xalq boshiga kulfat keltiradi. Nodoning yuragida yovuzlik, qahr-g'azab ustunlik qiladi. U hamisha manqurtlik olamida yashaydi.

Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida nodonlik haqida katta nafrat bilan gapiradi va uning mohiyatini quyidagicha ochadi: «Nodon – eshak, balki eshakdan ham battar. Eshakka nimani yuklasang ko'taradi, qayoqqa haydasang o'sha yoqqa boradi, unda aql-farosat da'vosi yo'q, bermasang och, bersang to'q. Bu bir bechoradur yuk tashuvchi, o'tin-cho'p tashuvchi, balki g'alla tashuvchi. Nodon... zoti bilim libosidan mahrum. Nodoning ishi takabburlik, kekkayish, xayolida yuz xil tashvish...».

Ma'lumki, takabburlik, kekkayish ma'rifatli kishiga xos emas. Ma'rifatli kishi latif, halim va zarif bo'ladi. Uning qiyofasidan, yuz ko'zidan atrofdagilarni o'ziga jalb etadigan nur yog'ilib turadi. Nodon «xayolidagi yuz xil behuda tashvish» orasida jaholat, yovuzlik, odamlar dilini og'ritib halovat topish illatlari yashaydi. Ayrim hollarda esa bu nuqsonlar jazavaga tushib, o'zini o'zi o'limga mahkum etish orqali boshqalarga ozor yetkazishdan, begunoh odamlar umriga zomin bo'lishdan ham qaytmaydi.

Ezgulik bilan yovuzlik, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash qachon yomonlik va yovuzlik tantanasi bilan tugamagan. Albatta, ba'zi hollarda uning qo'li baland kelgan vaqtlar bo'lgan. Biroq, tub mohiyati, butun ko'lami bilan qiyinchiliklar, ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarga bardosh berib, chuqur iztiroblar va ruhiy ozurdaliklarni yengib, hamisha

yaxshilik va ezgulik g'olib bo'lgan. Bunga buyuk tarix guvoh. Qolaversa, mustaqillikning tarixan qisqa, ammo zalvorli davri guvoh.

Biz ana shu tarixan juda qisqa davrda katta yaratuvchilik, tarix ko'rmagan va bilmagan bunyodkorlik, inson qalbidagi va ongidagi buyuk o'zgarishlar, ma'naviy va ma'rifiy islohotlar orqali butunlay yangilanayotgan inson va yangilanayotgan jamiyatga guvoh bo'lmoqdamiz. Bu juda katta qadriyat. Yurtimiz, ko'chalarimiz, uylarimiz obod bo'layotgani xalqimiz ruhining tozaligidan, qalbining obodligidan, xayolotining, orzu-umidlarning go'zalligidan dalolatdir. Bunday xalqni yengib bo'lmaydi!

Qalb obodligi, ruh salomatligi, xullas, komil inson haqida gapirar ekan, atoqli tasavvufshunos, muhtaram ustoz Najmiddin Komilov «Inson tarbiyasi, insonni nuqsonlar, gunohlardan qutqarish ulug' ajdodlarimizning qayg'usi bo'lib kelgan. Ular savob va gunoh, soya va nur, rahmon va shayton, xayru sharr chegarasida yaratilgan inson degan mubham xilqatni anglash, unga rahmoniy va shaytoniy quvvatlarni qachon, qaerda kuchga kirishi, bu kuchlarning sababi nima ekanligini tushunishga jiddiy ahd qilganlar», deydi va tasavvuf falsafasi mohiyatidan kelib chiqib, insonning murakkab, ziddiyatli olami hamisha tarbiyaga muhtoj ekanligini aytadi.

Darhaqiqat, inson olami – mubham dunyo, kashf etilmagan olam. Ming yillar mobaynida ne-ne donishmandlar, allomalar bu olam sir-asrorini ochishga harakat qilishgan. Unga cheksiz hayrat va hayajon bilan qarashgan. Ko'pdan-ko'p tadqiqotlar qilishgan va asosli xulosalarni bayon etishgan. Biroq, ularning hech biri inson olamiga bus-butunligicha, butun yaxlitligicha baho bera olmagan. Hamon dunyo fanida Inson mohiyatini ochish qiyin bo'lgan tilsimot, anglab bo'lmas xilqat, sirli-sinoatli mo'jiza sifatida alohida tadqiqot mavqeini egallamoqda.

Birinchi Prezident Islom Karimov ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash haqida ko'p gapirgan va islohotlar islohot uchun emas, islohot inson uchun ekanligini, har qanday yaxshiliklar eng avvalo inson qalbi va ongi orqali o'tkazilishini, shu tarzda mustaqil Vatan fuqarolarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Obod Vatan qalban va ruhan obod Inson orqali, ozod Vatan ozodlikni chuqur anglagan, ma'naviy va ruhiy jihatdan pok Inson orqali vujudga kelishi muqarrar ekanligini uqtiradi.

Shayx Aziziddin Nasafiy olamni asrash, dunyoni himoya qilish, hayot mazmunini go'zallashtirish xususida fikr yuritar ekan, u yuksak ma'rifat sohibi bo'lgan komil insonga tayanadi. Barkamollik, yetuklik, ma'naviy va ruhiy kamolot barcha yaxshiliklarning va ezguliklarning sarchashmasi ekanligini alohida uqtiradi. Jumladan, u «Jumlai mavjudot odamzotga shuning uchun sajda qiladiki, odamlar orasida komil inson bor. Bas, jumlai

odam komil inson tufayli sharaflidir. Mavjudot ichra komil insondan ulug‘roq, sharafliroq va donoroq zot yo‘q, chunki komil inson eng pastdan eng yuqorigacha martabalardagi mavjudotning xulosasi va qaymog‘idir va farishtalar, ruhoniy mavjudotlar va arshu kursi, samovotu kavokib – hammasi komil inson xizmatidadirlar va hamisha komil inson foydasini tavof qilurlar va komil inson ishlarini bajo keltirurlar. Komil inson ilm mazharidir, komil inson ilohiy zot sifatlarining ham mazharidir», deydi.

Demak, kishilik hayoti davom etmoqda. Oramizda ezgu zotlar borligi uchun insoniyat hayoti oldinlab bormoqda.

Tarix haqiqati shundaki, kishilik jamiyati hamisha ezgulikka muhtoj!  
Barkamollikka muhtoj!

## TARIXNING ANTIK FALSAFASI

Yunonistonda tarix fani birdaniga vujudga kelgan emas. Greklarning tasavvuricha tarix fan emas, balki sanattan va pand – nasihatdan iborat, shu sababli qadimgi greklar boshqa fanlar singari tarixning ham o‘z muzasi bor, bu muza Klidior Klmo boshqa muzalar bilan bir qatorda sanattar xudosi Apolon ayonlari orasida bo‘lgan, deb hisoblaganlar. Greklar tarixiy voqealar to‘g‘risida chiroyli va pand – nasihatli hikoyani hammadan ko‘proq qadirlaganlar. Ular tarixning asosiy vazifasi pand – nasihatdan iborat deb hisoblaganlar.

Dastlabki vaqtlarda logograf deb ataluvchi kishilar (“logos” “so‘z”, “grafo”-yozaman demakdir) shaharlarning odatda o‘zlari tug‘ilgan shaharlarning tarixi to‘g‘risida yozganlar. Logograflar eramizdan avvalgi VII asrda va V asrning boshlarida yashaganlar. O‘z asarlarida ular biron shaharning tarixini yozganlar, lekin ular bu tarixni afsona bilan aralashtirganlar.

### **Geradot – ilmiy tarixning yaratilishi.**

Geradotni biz tarixchi sifatida yaxshi bilamiz. Uning to‘qqiz to‘mli tarix asarining har biri yuz ellik va undan ortiq hikoya, rivoyat va o‘ziga xos tarixiy novellalarni o‘z ichiga oladi.

Geradot asarlari Plutarx, Yustin, ijodlariga ham katta tasir o‘tkazgan, taniqli tadqiqotchi M, Mandesning fikricha Yustinning ko‘pgina fikrlari Geradotdan olinganligi, Diadorning ko‘pgina tasvirlari Fukididga yaqin turganligi qayd etiladi.

Arrian Ksenofont ijodini davom ettirganligini ochiq oydin aytadi. Geradot yoshligidan sayohat qilishni yaxshi ko‘radi. Galikarnos port shahri, savdo-sotiq bilan shug‘illanuvchi savdogarlar, yo‘lovchilar shahri bo‘lgani uchunmi o‘spirinlik yillaridayoq u yaqin atrofdagi mamlakatlarga borib qoladi. Dengiz shunqori va sayohlari tilidan g‘aroyib sarguzashtlarni tinglashni juda–juda yoqtiradi. “eron tarixi kitobi” Geradot etiborini ayniqsa o‘ziga tortadi. Xaronning “Eron tarixi” kitobida Ahamoniylar davlatiga qaram bo‘lgan Osiyodagi ko‘pgina malumotlar haqida qimmatli malumotlar bor.

Gerodot tug‘ilgan o‘lka tarixiy sarguzashtlarga boy edi. Bunday tarixiy voqealarni ko‘p eshitgan Gerodot keyinchalik haqli ravishda tarixiy hikoyalar ijodkori bo‘lib, qoladi. Gerodotning ona shahri Galikarnos hokimi Lagdimid qarshi ko‘tarilgan isyonda Paniasid bilan bostiriladi. Geradot esa mamlakatdan quvg‘in qilinadi. Shundan so‘ng bo‘lajak tarixchi Osiyo

bo‘ylab safarga chiqishga qaror qildi. Geradot qora dengiz qirg‘oqlari bo‘ylab safardaligida Olviya shahri va ularga yaqin joylashgan skiflar haqida qiziqarli malumotlarni eshitadi. Undan ilgari ham skiflar haqida talaygina kitoblarni o‘qib ularning hayot kechirish tarziga qiziqib qolgan edi.

Geradot Samos orolida bir muncha vaqt bo‘lib, Osiyo bo‘ylab safarga jo‘naydi. Geradot dastlab, Ahamoniylar davlatining markazi bo‘lgan suz shahriga keladi. Efes va Sard shaharlarida bo‘ldi. Kichik Osiyodagi Galis, Mesopatamiyadagi Efrat va Tigr daryolaridan o‘tadi. Geradotning fikricha, Kaspiy bo‘ylarida ko‘chmanchi massagetlar yashaydi. Massagetlar baliq go‘shiti, parranda va sutli taomlarni istemol qilishadi. Bu erning xalqlari juda jangari bo‘lishgan. Aytishlaricha Eron shohi Kir ham ularni o‘ziga bo‘ysudira olmagan. Geradot Mesopatamiya va Vaviloniya o‘lkalarining tabiatiga ham keng to‘xtaladi. Bu joylar Orol dengiziga yaqin bo‘lib, ayrim tadqiqotchilar bu o‘lkalarga Geradot kelmagan deyishsa, boshqalar kelgan deyishadi. Geradot O‘rta Osiyo haqida muhim malumotlar keltiradi. Bu erda bir necha hokimliklar mavjudligini, ularning hammasi ulkan Eron davlatiga qaram ekanligini tasdiqlaydi. Bu hokimliklarni aniq nomi bilan ataydi. Jumladan, Baqtriya, Girkaniya, Kaspiy, so‘g‘dlar, saklar, xorazmiylar va oriylar, bu o‘rinda izoh talab nomlardan oriylar Afg‘onistonning g‘arbiy qismiga joylashgan elatlardir. Baqtriyaning poytaxti o‘sha vaqtda Balx shahri bo‘lgan kaspiy hokimligida Turkmanistonning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan qabilalar kirgan Xorazmiylar xorazmliklar, so‘g‘dlar Politmet (Zarafshon) bo‘ylarida, saklar Tyanshan tog‘ining g‘arbiy etaklarida joylashgan edilar. Shundan so‘ng Geradot Hindiston o‘lkasida sayohatini davom ettirib, Panjobga boradi. Bu erga bostirib kelgan Doro haqida qimmatli ma’lumotlar to‘playdi. Geradot keyingi asarlarida Liviya, Misr o‘lkalarini ham keng tasvirlaydi. Geradot tarixning shunchaki xabarchisi emas, balki tarixni jonlantirib ko‘rsatuvchi etuk ijodkordir. Uning skiflar haqidagi asarlari nihoyatda bebaho va qadrlı.

Geradotning “skiflar” asari jahon xazinasida munosib o‘rin tutgan, bu asar juda ko‘plab tillarga tarjima qilingan. Skiflarni birinchi bo‘lib, jahonga tanitgan ham Geradotdir, XVII – XVIII asrlardayoq rus imperatorlari Geradotning “skiflar” asarini juda katta qiziqish bilan o‘qishgan va juda ko‘p nusxalarda tarjima qilishga buyuruq berishgan. Natijada, asar bir necha marta tarjima qilinib, qayta-qayta nashr etiladi. Skiflar haqida Geradotdan ilgari Yunon olimlari Gomer, Esxil ham yozganlar, lekin skiflarning haqiqiy va birinchi targ‘ibotchisi Geradot edi. Geradotning “skiflar” asarining uslubi, undagi hikoyalarning xarakterli xususiyatlari haqida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga keldi. Bu ilmiy tadqiqotlar

ichida ayniqsa, I. Ya. Timoshenkoning “Geradot va uning asari” Vitold Klingerning “hikoyachilik motivlari” asarlari shuningdek, sharq xalqlarini tarixiy hikoyalari” kabi juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan ijod durdonalari yuzaga keldi. Geradot katta ishga qo‘l uradi. Faqat skiflarni emas Yevropa va Osiyodagi hatto Afrikadagi ko‘pgina qabilalarning hayotiga oid ma’lumotlarni aks ettiradi. Geradot ijodi Tarix nomli To‘qqiz kitobi katta ilmiy xazinani tashkil etib, bu kitoblarning har qaysisi yuzlab hikoyalarni o‘z ichiga olgan. Geradot antik davrdagi boshqa olimlardan shu bilan farq qiladiki, u fidoyi tarixchi edi. O‘z hayotini tahlikaga qo‘yib bo‘lsada ijod dardida uzoq yurtlarni kezdi. Jahongashta tarixchi ne-ne xavf–xatarlarga duch kelmadi. Bu safarlarida u avval o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, qulog‘i bilan eshitgach, keyin ijod qilardi. Har qanday faraz va taxminlar uning uchun begona edi. U minglab qabila va elatlarda bo‘ladi. Yuzlab daryolarni kechib o‘tadi. O‘sha paytda hech bir olimning qadami etmagan uzoq o‘lkalarni kezadi. Hali ko‘p ko‘rilmagan mavzularni birinchi bo‘lib yoritadi. Shuning uchun ham Geradot nomi tariximizda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi faktlar asosida biz aytishimiz mumkinki ilmiy tarixning yaratilishida Geradotning Tarix asari muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Polibiy.**

Eramizdan avvalgi II asrning ikkinchi yarimida Polibiy “umumiy tarixni” yozgan. Unda eramizdan avvalgi 264-146 yillardagi voqealar bayon qilingan. Uning bu asari ilmiy tadqiqotdir. Polibiy grek istoriografiyasining eng yaxshi ana’nalariga amal qilgan. Ammo uning siyosiy qarashlari Rim jamiyatidagi konservativ tabaqalarning manfaatlarini ifoda qilgan. Polibiy Rimning o‘rta dengiz sharqiy qismining hayotiga aralashishini kuzatib, unda Rim hokimiyati o‘rnatilishi muqarrar degan xulosaga kelgan. U o‘zining asrida Rimning bir qancha qabilalar va xalqlarni o‘ziga bo‘ysundirilishining sabablarini ko‘rsatib berishga, yani rim davlatining vujudga kelish tarixini yaratishga harakat qilgan. Polibiy Rim davlatining qudratini uning davlat tuzumidagi xususiyatlaridan deb bilgan, uning nazarida bu tuzumni idora qilishining aristokratik, demokratik va monarxik shakllari ajoyib tarzda bir–biri bilan qo‘shilib ketgan. Polibiy manbalarni juda sinchiklab tekshirgan, mamlakatning geografik holati va uning iqlimini o‘rgangan. U antik davr tarixining odat hukmidagi adabiy usullaridan foydalangan. U voqeaning bayonotida voqeada ishtirok qiluvchi nutqlarini kiritgan. Polibiy bu bilan ularning gaplariga mumkin qadar “haqiqiy” tus berishga harakat qilgan. U manbalarning naqadar rostligini aniqlab, tarixiy voqealarning sabablarini ayrim shaxsning ish va harakatlarida ko‘rgan xolos.

Polibiy tarix chinakam voqealarni izohlashga va bu voqealarning keyinchalik taraqqiyot yo‘lini belgilashga imkon beradi. Yani tarix “nasihat berishi” “o‘rgatishi” mumkin amaliy jihatdan foydali bo‘lishi mumkin deb faraz qilgan.

### **Tit Liviy.**

Tit Liviy Rimning afsonaviy zamondan boshlab o‘zi yashagan davrga o‘tgan butun tarixini yozishga harakat qilgan. Uning bu g‘oyat puxta asari 142 ta kitobdan iborat bo‘lgan, lekin undan atigi 38 tasi va boshqa ba’zi kitoblaridan parchalar saqlangan xolos. Tit Liviy tarixni yodgorlik deb bilgan. Uning fikricha, tarix o‘rnak bo‘la oladigan namunalarni ko‘rsatishi bizning avlodlarimiz ko‘p yillar davomida ko‘rib kelgan, ofatlardan qanday qilib, saqlanishiga o‘rgatishi lozim.

Tit Liviy voqealarning sababli bog‘lanishlarini aniqlash ularni izohlash va bu voqealar rostmi – yo‘qmi, bu haqda bosh qotirmagan. Uning asarlarida Fukidid, Polibiy asarlariga xos tarixiy tanqidlar yo‘q. Tit Liviy, Tsitseronga taqlid qilishga uringan u bu urinishda muvaffaqiyat qozona olmagan. Uning birinchi ikkinchisidan asrlar ajratib turgan qahramonni bir xil chiroyli fikr yuritishadi, bir xil harakat qilishadi va bir xil gapirishadi. Tit Liviyning respublika tarixidan qimmatli manba bo‘lish asarlari muallifning fikricha kitobxonga chuqur tasir qilmog‘i lozim bo‘lmagan. Uning asarlari ilmiy tadqiqot emas, balki V.G.Belinskiy aytganidek, sanatkorning asari sanat asaridir.

### **Korneliy Tatsit**

Korneliy Tatsit (taxminan 54-120 yillar) bu davr eng mashhur tarixchilardandir. Zodagon suvoriy oilasidan chiqqan Tatsit yoshligida Britaniyada harbiy xizmatda bo‘lgan. U mashhur lashkarboshi Yuliy Agrikolaning yaqin do‘sti bo‘lgan. Imperator Domitsian Agrikolani qatl qildirgandan keyin unga homiylik qilgan Tatsit imperatorning qahridan ko‘r qilib bir necha vaqtgacha surgunda yurgan. Domitsian halok bo‘lgandan keyingina Tatsit Rimga qaytganidan so‘ng u senator bo‘lib olib, magistraturada buyuk lavozimni egallab kelgan. Uning abadiy faoliyati ham ana shu davrga mansubdir. Tatsit eramizning 68 yilidan to 96 yiligacha bo‘lgan davrni ichiga olgan “tarixlar” ni, Avgustning o‘limidan (eramizning 14 - yili) Neronning halokatigacha (eramizning 68 – yili) bo‘lgan davrning “Yilnomalar”ini, shuningdek “Germaniya” nomli kichikroq asarini yozgan. Tatsit bu so‘nggi asarida german qabilalarining va Rim imperiyasi tuprog‘idan tashqari yashagan boshqa Yevropa qabilalari va elatlarining etnografiyasini mufassal bayon qilgan. Tatsit o‘z asarlarida ayniqsa “

Yilnoma” larida Rimning o‘tmish respublika davrini ko‘klarga ko‘tarib maqtagan bo‘lsa, o‘z zamonasining siyosiy tartibini Yuliy – Klavdiylar sulolasidan bo‘lgan imperatorning o‘zboshimchaligi va istebdodini qattiq qoralab yozgan. F.Engels Tatsitni eski Rim patritsiylari tafakkurining so‘nggi namoyandasi degan edi. Tatsit siyosiy voqealarning borishini bayon qilar ekan, u o‘zining bayon qiladigan materiallarini asl hujjatlar asosida sinchiklab o‘rganib chiqqan “Yilnoma” larida keltirilgannutqlar ham obidalardagi yozuvlar va arxeologiya malumotlari bilan tasdiqlanadi. Tatsit asarlarining bir qismigina zamonamizgacha saqlanib kelgan. “Tarixlar”ining uchdan bir qismigina saqlangan “Yilnomalar”ini ko‘p qismi saqlanmagan, shunday bo‘lsada, Tatsitning tarixiy asarlari eramizning I asridagi Rim imperiyasi tarixi to‘g‘risidagi tasavvurimizning negizini tashkil etadi.

### **Savollar:**

1. Teokratik tarix va afsona haqida nimalarni bilasiz?
2. Ilmiy tarixning yaratilishi to‘g‘risida ayting.
3. Tarix fani va ahamiyati to‘g‘risida yunon ta’limoti?
4. Rim tarixchilari qarashlarini ayting.
5. Yunon-rim tarixshunosligining tavsifiy xususiyatlari?



## ILK XRISTIANLIK TARIXI FALSAFASI

Rim imperiyasi parchalanib, uning o'rnida o'rta asr G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasi yuzaga kelgunga qadar o'ziga xos o'tish davri sodir bo'ldi. O'tish davrida yangi sivilizatsiya manaviyati va mafkurasi asoslari shakllandi. Eski dunyoning majusiy manaviyati uning dunyoqarashi va tafakkur tarzi Rim imperiyasi tanazzulga uchragan vaqtda mavjud bo'lgan ijtimoiy mafkuraviy va axloqiy muhitga zid kelganligi uchun turli elatlar va etnik guruhlardan tashkil topgan fuqarolar va qullarning manaviy madaniyatining yani sivilizatsiya kurtaklari bo'lgan xristian manaviyati, dunyoqarashi va falsafasiga o'z o'rnini bo'shatib berishi davr taqozosi bo'lishi bilan birgalikda uning shakllanishiga majusiy madaniyat va manaviyat ananalari qattiq qarshilik ko'rsatadi. Rim imperatorlari bu kurashda ijtimoiy siyosiy va manaviy – tashkiliy taqib qilish usullarini qo'lladilar. Sharqdan kelgan dinlarning tarqalishi imperiyaning o'zida turli bidatchi diniy yo'nalishlarning faoliyat ko'rsatishi manaviy va mafkuraviy vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Mana shunday sharoitda xristianlik inson va jamiyatni manaviy poklikka, ruhiy kamolotga olib boradigan ta'limot ekanligini asoslash shu ta'limotni himoya qilish, yani apologik (yun. Oro logia – biron narsani yoki kimsani himoya qilish) tadbir ko'rish ehtiyoji tug'ildi.

II va III asrda xristianlik tarixida apologetika yoki apologetlar davri vujudga keldi. Apologetika so'zining lug'aviy manosi himoya qiluvchi demakdir. Yani xristian diniy aqidalarini turli hujumlardan himoya qilishdir. Apologetlar davlatining xristianlikka nisbatan dushmanligini bartaraf qilishga intilishi bilan birgalikda o'zlarining asarida xristianlik ta'limotini asrashga qolaversa, Rim saltanatini oqlab bo'lmasligini ko'rsatishga harakat qildilar. Afinada Misrlik oilada tug'ilgan Kliment xristian falsafasini ishlab chiqishga harakat qilgan apologetlardan biridir. U platonizm va stoitsizmni chuqur o'rgangan, xristianlikni qabul qilganidan keyin ham falsafaga nisbatan hurmatini saqlagan. Uning fikricha yunon falsafasini xristianlik bilan shunday sog'lomlashtirish kerakki, undagi har bir odam xristian falsafasini qimmatini ko'ra olsin va yana shuni takidlaydiki, falsafa xristianlikka, xususan ilohiyot ilmiga muqaddima bo'lishi mumkin, xolos.

Falsafani xristian etiqodiga nisbatan muqaddima ekanligi, deydi. Kliment, Iso Masihning o'zi tomonidan belgilangan insonlarni qutqarish uchun tanada mujassamlanib kelguniga qodir Iso Masih yahudiylarga qonun va ellinlarga falsafa berdi. Shu bilan xristian olamini qutqaruv ishiga

tayyorladi. Xristian diniy-falsafiy taraqqiyotining yanada rivojlanishi bosqichi III-V asrlarga to'g'ri keldi. Bu davrda rivojlangan patristikada (patristikaning lug'aviy manosi "ota"ni anglatib, bu nom ko'pincha hurmat manosida harbiy episkoplarga berilgan) o'zgacha g'oyaviy va mafkuraviy vazifalar turgan edi. Patristika davrida xristian ilohiyotini tartiblashga harakat qilgan cherkov otalari tomonidan ikki sobor Ilkiy (325 – yil) va xalqidan (451- yil) oraliq'ida birinchi muhim asarlar yozildi. Sharqda ulardan biri Ioan Zlotust (347-407) dir. G'arbda esa cherkovning eng yirik otasi Avreliy Avgustin bo'lib, muqaddas (Blajenniy) deb nom olgan edi (354 – 430).

### **Avgustin va uning ta'limotida xristian dinning tasiri.**

Avgustin shimoliy Afrikada joylashgan Numidiya viloyatining Tagosta shahrida rimlik amaldor oilasida tug'ilgan. Otasi majusiy bo'lib, onasi xristianlikni qabul qilgan. U lotin tilini puxta egallaydi. Avgustin adabiy merosini 100 ga yaqin kitob, 500 vaznasi – xat 200 noma tashkil qiladi. Uning tarkibidan "Akademiklarga qarshi" (386), "Baxtli hayot haqida" (386), "tartib haqida" (386) "Monologlar"

(387) "Jon manguiligi haqida" (387-389) "O'qituvchi haqida" (388-389), "to'g'ri din haqida" (390), "Erkin iroda haqida"(388-395), "Tavba" (401), "Tazarru" "ilohiy shahar haqida" (413-426) kabi asarlar joy olgan. Avgustin xristian ilohiyotchilaridan biri sifatida G'arbiy Yevropa o'rta asr manaviy – diniy hayotiga katta tasir ko'rsatdi. U antik falsafaga yangicha talqin berdi. XIII asrga qadar ijtimoiy tafakkurning asosi hisoblangan diniy-falsafiy ta'limotni ishlab chiqdi. Shuningdek xristian tarix falsafasiga asos soldi. Avgustin falsafasi xristian diniy ta'limoti va qadimgi ta'limotlarni taqqoslash mahsulidir. Avgustin uchun aniq davr falsafiy doktrinalaridan Platon ta'limotini asosan neoplatonchilar talqini orqali o'rgangan. Avgustin ta'limoti o'rta asr tafakkurini belgilochi manaviy omilga aylanib, butun G'arbiy Yevropa xristianlik ta'limotiga katta tasir ko'rsatadi. O'rta asr patristika vakillaridan birortasi Avgustin darajasiga ko'tarila olmagan. U uning izdoshlari diniy falsafada xudoni va ilohiy muhabbatni anglash inson ruhining asosiy maqsadi, yagona hayot qadriyati, deb bilganlar. U sana'tga madaniyat va tabiiy fanlarga nihoyatda etibor bergan. Avgustin o'z falsafasining xristian asosiga katta ahamiyat bilan qaragan uning falsafasi Geotsentrik ruhda, yani xudo falsafiy tafakkur markazidir. Xudo birlamchi va boshlang'ich printsiptan kelib chiqib, u jon tanadan iroda va sezgi aqldan ustun, deb ta'kidlaydi. Xudo bilish sababchisi hamdir, xudo inson ruhiga tafakkuriga nur kiritadi, odamlarga haqiqatni tanishda yordam beradi. Xudoga intilish inson uchun tabiiy va faqat u tufayli kishi baxtga

erishishi mumkin. Shunday qilib, Avgustin falsafada ilohiyot uchun katta yo‘l ochib beradi.

Avgustinning butun falsafasi yagona mutlaq va mukammal xudo haqidagi ta‘limotda mujassamlashgan. Dunyo ilohiy yaratish kabi ahamiyatga ega emas, u faqat sharpadir, xudosiz hech narsa qilish ham, hech narsa bilish ham mumkin emas.

Avgustin ta‘limotiga, xudoning erkin faoliyatining mahsuli bo‘lgan olam aqli yaratilgan xudo uni o‘z shaxsiy g‘oyasi bilan yaratgan. Xristian platonizmi – Platonning g‘oyalar haqidagi ta‘limotning Avgustinga talqini (varianti)dir. Avgustin ta‘limotiga, xudoga real dunyoning ideal timsoli yashiringan. Avgustin falsafasida yaxshilik va yomonlik ular o‘rtasida farq masalasi muhim masalalaridan biri edi. Uningcha bir tomondan yani xudo tomonidan yaratilgan dunyo yaxshilik bo‘lmashligi mumkin emas. Ikkinchi tomondan yomonlikning mavjudligi shubhasizdir. Shuning uchun Avgustin takidlaydiki yomonlik tabiatiga xos emas, u erkin ijodning mahsulidir. Xudo dunyoni yaxshilik manbai qilib yaratgan lekin yovuz iroda zaharlangan. Bundan o‘z navbatida boshqa bir xulosa chiqariladi. Yomonlik yaxshilikka mutlaq ravishda qarama – qarshi emas, u faqat yaxshilikning noqis tomoni, Mutlaq yomonlik yo‘q, mutlaq yaxshilik bor. Avgustin dunyoda yomonlik mavjudligini inkor qilmaydi, lekin uni faqat yaxshiligi yo‘qligidan deb hisoblaydi. Yaxshilik va yomonlik masalasi Avgustin axloqiy ta‘limotida ham muhim o‘rinni egallaydi. Uningcha yomonlik odamlardan kelib chiqadi, xudo mehribonligining mahsulidir. Inson yomonlik uchun javob beradi, yaxshilik uchun emas.

### **Avgustin asarlarida ikki – ilohiy va dunyoviy shaharlar mohiyatining tahlili.**

Avgustinning yirik apologetik asarlaridan biri “Ilohiy saltanat haqida” risolasidir. 410 – yilda Alarix tomonidan Rimning xonavayron qilinishidan vahimaga tushgan odamlar, bu falokat rimliklarning eski dinlaridan voz kechib, xristianlikni qabul qilganliklari uchun yuz berdi, deb hisobladilar. Avgustin o‘z do‘sti Markellinning iltimosi bilan bunday qarashlarga zarba bermoqchi bo‘ldi. U takidlaydiki, davlatning ravnaqi eski ko‘pxudolik dini tufayli bo‘lmagan, chunki rimliklar xristianlikni qabul qilganlarida ham mag‘lubiyatlar uchun abadiy farovonlikka erishish uchun Rim xudolariga sig‘inishi zarur bo‘lmagan. Avgustin fikricha mushriklar xudolari hayotda ham manaviyatda ham hech qanday yordam berolmaydi. Xristianlik esa rimliklar foydalangan hamma moddiy boyliklarni berishi mumkin.

Avgustining bu asarida tarix falsafasi o‘ziga xos ishlab chiqilgan. Unda Avgustin ikki ilohiy va dunyoviy shahar mohiyatini tashkil qiladi. “xudo

shahri” xudoga muhabbat bilan o‘zaro birlashgan odamlardan iborat. Dunyovi shaharda o‘z–o‘ziga muhabbat qo‘ygan o‘z sharafi va forovonligiga intiluvchi jonotlar yashaydi. Shunday qilib bu shaharlar muhabbatning turlari bilan bir – biridan farqlanuvchilariga bo‘lingan. Shaharlar haqida gapirganda, Avgustin Rim imperiyasini nazarda tutmaydi. Uning qarashlari universal xarakterda bo‘lib, o‘sha paytda keng tarqalgan. Tarix qaytarilishlar (tsikl) bilan rivojlanadi degan qarashlarga qarshi qaratilgan edi. Avgustin ikki shahar o‘sishi va ravnaqini tahlil qiladi hamda ularning taqdiri haqida bashorat qiladi. Qiyomatdan keyin ilohiy shahar aholisi umumiy baxtga erishadi, dunyoviy shahar aholisi esa abadiy jazoga lekin Avgustin takidlaydiki, bu shaharlar o‘rtasidagi ikki xil holat vaqtga, zaruriy emas va u xudo irodasi bilan tugatiladi. Avgustin fikricha, yunon tarixchilari ham insoniyat rivojiga bo‘lgan qarashlarida buni anglab etmaganlar. Xudo tarix ustida hukmronlik qiladi, unga bo‘ysunmaydi (keyinchalik buni Hegel ham aytgan edi) Tarix qaytariqlar bilan emas, to‘g‘ri chiziq bo‘ylab rivojlanadi. Xudo yaratganga qadar o‘z ongida ma’lum vaqtda amalga oshirgan rejaga ega bo‘lgan. Bu rejada ikki shahar o‘rtasida kurash mavjudligi ko‘zda tutilgan, oqibatda bu reja tarixiy rivojlanish chegarasidan tashqarida g‘ayritabiiy kuchning aralashuvida amalga oshadi Avgustin tarixda hamma odamlarning “umumiyligi” va “Yakka”ligini ko‘radi. Masalan Geradot fors urushida faqat yunonlar va forslar o‘rtasidagi kurashni ko‘rgan bo‘lsa, Avgustin butun inson irqining yagonaligini takidlaydi. Bundan tashqari uning fikricha taraqqiyot faqat axloqiy va manaviy jabhada bo‘ladi. Bu kurashning eng cho‘qqisi gunoh natijasida vujudga kelgan. Ikki shahar o‘rtasidagi kurashni ilohiy shahar g‘alabasi foydasiga tugatish bo‘ladi. Shunday qilib, Avgustin fikricha tarixning so‘nggi maqsadi undan tashqarida, abadiy xudo hokimligidadir umuman olganda Avgustin o‘rta asrlar manaviy hayotiga juda katta tasir ko‘rsatgan mutafakkirlardan biri edi. U “cherkov otasi” nomiga nisbatan ko‘proq faylasuf sifatida mashhur bo‘lgan.

### **Savollar:**

1. Xristian dunyoqarashining ta’siri to‘g‘risida ayting.
2. Avliyo Avgustin – “Xudo shahri to‘g‘risida” fikrlaringiz.
3. Ilohiy olam va inson dunyosi ta’rif bering.
4. Vaqt haqida tasavvur tushuntirib bering.
5. Xristian tarixshunosligining tavsifiy xislatlari ayting.

## O'RTA ASR TARIXI TEOLOGIYASI

### **Tarixiy manbalarning o'ziga xos xususiyatlari.**

Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida tarix fanining ham buyuk mutafakkirlari etishib chiqadi. Bunga shaxsan sohibqiron Amir Temurning tarix faniga bo'lgan qiziqishi, hurmat va etiqodi sabab bo'lgan bo'lsa ajab emas.

XV asrda tarix ilmi sohasida yozilgan asarlarini sanab ko'rsatishning o'zi temuriylar davrida bu fanning nechog'lik taraqqiy etganligidan guvohlik beradi. Bu davr tarix fanning ham o'ziga xos xususiyatlarini ko'rish mumkin.

Birinchidan - bu davr tarixchilari o'zlari voqealarni guvohi, shohidi, bo'lib ishtirok etish asosida asarlar yaratishi. Ikkinchidan – biron bir tarixiy shaxsni keltirayotganda o'zini kelib chiqish tarixi faoliyatini yozishda manbalarga asoslanmog'i. Uchinchidan – voqealar ketma – ket izohlanishi orqali va hokozo. To'rtinchidan – manbalarni yutuq va kamchiliklari tarixiy manbalar ichida hozirgacha etib kelgan, fors tilida yozilgan Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Hofizi Abro'ning “Zubdat at – Tavorix” Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” Fasih Ahmad Havofiyning “Mujmali fashhiy”, Abdurazzoq Samarqandiy-ning “Matla usadayin”, Mirxondning “Ravzat us – safo, Xondamirning “Habib us – Siyar” va Ibn Arabshohning arab tilida yozilgan “Ajoyib al – maqdurri tarixi Taymur” asarlaridir. Bu ro'yxatga yana 1404 yilda Samarqandga Amir Temur huzuriga tashrif buyurgan ispan sayohi Rui Gonzales de Klavixoning safar xotiralarini ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

### **Sh.A.Yazdiyning “Zafarnoma”si tarixiy manba sifatida.**

Sharafiddin Ali yazdiyning “Zafarnoma”si (1424 – 1425) tarixiy kechinma va voqealar bayonini izchilligi va batafsilligi bilan ajralib turadi.

Sh.A.Yazdiyning “Zafarnoma” asarida sohibqiron Amir Temur tarixiga oid malumotlardan tashqari Temurdan oldingi o'tgan davr tarixi haqida ham bag'oyat qiziqarli malumotlar berilgan. Muallif bu asarni temuriylardan Shohruxning o'g'li Ibrohim Sultonning tashabbusi bilan yozgan. Ibrohim Sulton bobosi Temur haqida maxsus kitob yozdirishni niyat qilgan va 1419-1420 yillarda turli kotiblarni baxshi va munislar forsiy tilda yozilgan mavjud malumotlarni to'plash haqida farmon bergan. To'plangan malumotlar bo'lgan voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilar hikoyasi bilan taqqoslangan, so'ngra Sharafiddin Ali Yazdiyga bu hujjatlar bilan tanishish va Ibrohim Sultonga ahborot berish topshirilgan.

Taniqli sharqshunos olim A. O‘rinboev “sharq yulduzi” jurnalining 1992 yil 3-sonida bosilgan “Temuriylar davrining nodir yodigorligi” maqolasida quyidagilarni hikoya qiladi: “Zafarnoma” ning Temur tarixidan bahs etuvchi asosiy qismida Sh.A.Yazdiy shunday yozadi: “Podishohlikning birga tomonlaridan Temur haqidagi turkiy va forsiy tillarda bayon etilgan hikoyalarning hamma sheriy hamda nasriy nusxalari to‘planib bo‘lingach, ular bilan tanishish uchun 3 ta guruh tuzilgan, turkiy va forsiy tillarning bilimdonlari ikki guruhni voqealarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rganlar esa bir guruhni tashkil etgan. Dastlab Temur haqidagi har bir hikoya o‘qilgan, agar u voqea bayoni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan kishining talqiniga to‘g‘ri kelmay qolsa, Ibrohim Sulton haqiqatni topish uchun turli shaharlarga choparlar yuborib, mazkur voqeani Temurning boshqa zamondoshlaridan surishtirgan yoki qo‘shimcha malumotlar to‘plagan. Ibrohim Sulton aytib turgan bu asarning dastlabki xomakisi qalamga olingan. Ana shu asosda Sharafiddin Ali “Zafarnoma” asarini yozgan Ibrohim Sultonning buyurug‘iga muvofiq kitobni bitish vaqtida sanalar, joy nomlari, ular orasidagi masofa haqida barcha malumotlar juda sinchiklab tekshirilishi shart bo‘lgan” “Zafarnoma” asarini yozishda Sharafiddin Ali Yazdiyning shaxsiy hujjatlaridan keng foydalanilgan. Asar muqaddima, ikki fasl va xotimadan iborat, muqaddimada Amir Temurga qadar bo‘lgan turkiy xonliklar tarixi bayon qilingan. Asosiy fasllarda esa Amir Temurning tarixi mukammal yoritilgan. “Zafarnoma” asosiy qism avvalida “Qissayi Sohibqiron” deb atalgan mutaqorib bahridagi sheriy qissa bor. Unda sohibqiron Amir Temurning fazilatlar va sifatlar haqida ko‘tarinki ruhda muhtasar so‘z yuritilib, Tarixiy Amir Temurning badiiy obrazini chizishga qadam qo‘yilgan.

“Zafarnoma” fransuz, ingliz, usmonli turk tillariga ayrim qismlari rus tilida nashr etilgan. “Zafarnoma” XV asrda Lutfiy nazmda o‘zbek tiliga o‘girilgan degan xabar berishsada ammo uning o‘zi hozirgacha topilgan emas. “Zafarnomaning to‘liq asl matni 1972 yilda A. O‘rinboev tomonidan Toshkentda (“Fan nashriyoti”) nashr etildi.

### **Klavixo va uning “kunaligi”**

Mashhur sayoh va elchi Rui Gonsales de Klavixoning kitobi Temur va Temuriylar davri tarixidan baho yurgizuvchi muhim asarlardan biri hisoblanadi. Kitob 1404 yili Samarqandda Temur saroyida turgan Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III (1390-1406) ning elchisi Rui Gonsales de Klavixoning yo‘l xotiralaridan iborat. Yani uning 1403-1404 yillari Turkiya, Eron va Movarounnahrda xususan Amir Temur saroyida ko‘rgan bilganlarini o‘z ichiga olgan muhim asardir. “Kunalik” muallifi Rui

Gonsales de Klavixo badavlat va nufuzli oqsuyak oiladan chiqqan. Klavixoning Amir Temur yurtiga ham elchilik sayohati 1403 yilning 22 mayda boshlanib, o'n besh oy deganda u Samarqandga etib keldi. Bu sayohatda Klavixoga ilohiyot ilmining nomzodi (magistri) Alfonso Paes de Santa Mariya, qirolning maxsus soqchisi Gomes de Salazar hamroh bo'ldilar. "kundalikda" o'sha vaqtlarda Amir Temur qo'l ostidagi mamlakatlar va shaharlarning umumiy ahvoli, xalqning kun kechirishi, Temur va uning yaqinlari tashabbusi bilan barpo etilgan binolar: qasrlar, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, savdo rastalari, do'konlar, ustahonalar: Temuriylar davlatining Xitoy, Hindiston, Oltin O'rda (Klavixo uni Tatariston deb ataydi), Mo'g'uliston va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan siyosiy va savdo aloqalari, Temur saroyida amalda bo'lgan tartib – qoidalar va nihoyat, Sohibqironning xotinlari va ularning mamlakat ijtimoiy – siyosiy hayotida tutgan o'rni haqida etiborga molik malumotlar keltirilgan. Bu malumotlar, shubhasiz, Turkiston zaminining o'sha vaqtlardagi ijtimoiy – siyosiy tarixini ota – bobolarimizning turmush tarzini o'rganishda muhim tarixiy manbalardan biri rolini o'tashi turgan gap, so'zimizning isboti uchun misol keltiraman. Saroyimulkxonim tasviri: "barcha xalq o'yinlariga o'tirib saranjomlik o'rnatilganidan keyin to'yda podshoh huzurida bo'lishi lozim bo'lgan katta Kano chodirlar yonidagi sarpardalarning biridan chiqib keldi. Xonim mana bunday kiyingan edi: egnida zar bilan tikilgan, etagi ergacha sudralib turgan uzun va keng engsiz qizil shoyi ko'ylak. Yoqa va ikki eng o'rnidan bo'lak ochiq joyi bo'lmagan bu ko'ylak belidan to qaytarilgan etagiga qadar kengayib boradi...

Klavixoning "Kundaligi" da ayrim noaniqliklar, xato va kamchiliklar ham uchraydi. Masalan kishi va joy nomlarini yozilishidagi chalkashliklar mavjud. Albatta, boshqa millat kishilari uchun mahalliy atamalar va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish juda qiyin. "kundalikda" tilga olingan Amirat Murod, Karil Sulton – Xalil Sulton, Karamish – To'xtamish, Orasan – Xuroson, Baldat – Bag'dod ekanligini anglash mumkin. Asar birinchi marta 1582 yili, yani yozib tugallangandan 150 yil keyin Ispaniyaning Sevilya shahrida "Buyuk Temurning hayoti va faoliyati" nomi bilan chop etildi.

### **Ravzat us – Safo – poklik bog'i**

"Ravzat us – Safo" tarzida shuhrat qozongan asarning muallifi Muhammad ibn Xovandshoh ibn Mahmud bo'lib, Mirxond tarzida mashhurdir. Mirxondning tarixdan bilimdonligidan xabardor bo'lgan Alisher Navoiy unga umumiy tarix jumladan Amir Temur va Temuriylar haqida xususan Sulton Husayn Boyqaro tarixiga oid asar yozishni buyurib,

o‘z kutubxonasini uning ixtiyoriga topshiradi, hamda shu jarayonida uni moddiy jihatdan to‘la taminlaydi. Mirxond Navoiyning taklifiga binoan umumiy tarix bo‘yicha katta asar yaratdi. Bu haqida Navoiy bunday deb yozgan. “Bu faqir iltimosi bilan ofariniydan bu kungacha tarixi jomiy bitibdurkim, tasnifiga, etibdur, inshoolloh tugaturga tavfiq topg‘aykim, tavorix orasida andin muayyanroq tarix bo‘lmagusidir. Asar muqaddima, etti jild va xulosadan iborat tarzida rejalashtirilib, Mirhond uning olti jildini (qadimdan 1464 yilgacha bo‘lgan voqealar qismini) yozadi va 1498 yilda vafot etadi. Shundan so‘ng asarning ettinchi jildi (Sulton Husayn Boyqaro va uning o‘g‘illari tarixini – 1523 yilgacha) hamda xotimasini Mirxondning nevarasi G‘iyosiddin Xondamir yozib olgan.

### **Savollar:**

1. Dunyo va insonning o‘rta asrlardagi tushunchalari tushuntirib bering.
2. Abadiyat va vaqt to‘g‘risidagi o‘rta asr tushunchalari aytib bering.
3. O‘rta asr tarixi teologiyasida taraqqiyot g‘oyasi haqida fikrlaringiz.
4. O‘rta asr tarixshunosligining tavsifiy xislatlari ayting.



## ISLOM TEOLOGIYASI VA TARIX FALSAFASI

Mifologik tafakkur tabiat va jamiyat hodisalarini anglash, uni tushunishga intilishning, olamni hissiy bilishning eng qadimgi kurtaklaridan biridir. Miflar – asotirlar odatda ertaklardan farq qilib, asosan olamning qanday paydo bo‘lgani, er, osmon, yulduzlar, yil fasllarining almashuvi, hayotning tugashi va yangilanishi, qor, bo‘ron, zilzila, tog‘ ko‘chkilari, er ustidagi va ostidagi, daryo, dengiz, ummonlardagi va, hatto, boshqa olamlardagi mavjudotlarning o‘zaro bog‘liqligini, sababiyat va oqibat jihatidan aloqadorligini ibtidoiy-xayoliy poetik, falsafiy hamda allegorik – majoziy ravishda tasavvur qilishdan kelib chiqqan.

Mifologik tasavvurga ko‘ra butun olam mavjudotlari his qilish qobiliyatiga ega. Ular o‘ziga xos tarzda o‘ylaydi va harakat qiladi. Eng qadimiy Misr mifologiyasida borliq tabiatning har yili «o‘lib» va yana «tirilib» turishi «tangri» Osirisning hayoti bilan bog‘lanadi. Qadimgi Misr dinida Ozirisning sadoqatli umr yo‘ldoshi, hosildorlik, suv va shamollar ilohasi Izida o‘lganlarning ruhini avaylab, asrab, yana tiriltiradi. Qadimgi yunon mifologiyasiga qo‘ra (Homerning «Iliada», Ovidiyning «Metamorfozalar» – «Evrilishlar» asarlarida tasvirlanishicha), samoviy yuksak Olimp tog‘ida yashaydigan Quyosh va momoqaldir oq tangrisi Zevs, er, suv, onalik ma‘budasi Hera, bahodirlik va san‘at homiysi Apollon, ilm-fan, donishmandlik ma‘budasi Afina, go‘zallik ma‘budasi Afrodit, urush tangrisi Mars, marhumlar yurtining tangrisi Aid, dengiz, ummonlar tangrisi Poseydon (yoki Neptun) va boshqalar Er yuzidagi odamlarning hayotini boshqarib, taqdirini hal etib turishgan.

Qadimgi Misr va yunon mifologiyasining ayrim e‘tiqodlari keyinchalik xristian diniga, so‘ngra islom diniga ham ko‘chib o‘tgan. Zotan, insoniyat ibtidosi bilan bog‘liq bo‘lgan ilk tasavvurlar, xayoliy-ehtimoliy qarashlar odam qaysi makon va qanday sharoitda yashamasin, odam va olam, inson va borliq haqidagi qarashlarda umumiylik mavjud bo‘lgan. Chunki, qarashlar, o‘ylar va tasavvurlar qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, ularning zamirida bitta haqiqat, bitta mohiyat yotgan. Bu – inson va uning kelib chiqishi, olamning yaralishi va hayot mohiyati. Shuning uchun ham mifologik tasavvurlarga, ilk odamlarning mifologik e‘tiqodlariga e‘tiborsizlik bilan qarash mumkin emas. Ana shu miflar asosida ming yillar davomida daho san‘atkorlar adabiyot va san‘atning durdona asarlarini vujudga keltirganki, ularda umuminsoniy qadriyatlar, odam va olam taqdiri bilan bog‘liq qarashlar yuksak badiiy-falsafiy, tarixiy-tabiiy, ma‘naviy-ruhiy drammatizm o‘z ifodasini topgan. Jumladan, Homer («Iliada»,

«Odissey»), Esxil («Agomemnon», «Zanjirband Prometey», «Evminidalar»), Sofokl («Shoh Edip», «Antigona», «Ayaks»), Evripid («Herakl», «Elena», «Elektra», «Vayuh qizlari»), Dante («Ilohiy komediya»), Bokkachcho («Dekameron»), Tasso («Quddusning ozod etilishi»), Milton («Boy berilgan jannat»), Shekspir («Lukretsiya», «Yoz kechasidagi tush», «Bo‘ron»), Gyote («Faust»), Bayron («Qiyomat manzaralari»), Lermontov («Demon»), Adam Mitskevich («Dzyadi ko‘li») va boshqa daho san‘atkorlar diniy mifologiya syujeti asosida yozgan asarlarida, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafaelning yaratgan tasviriy san‘at namunalari eng muhim umuminsoniy muammolarni badiiy talqin etishgan.

Hozirgi G‘arb estetikasida va umuman falsafiy tadqiqotlarida mifologik maktab deb atalgan yo‘nalish vujudga kelgan. Hozirgi mifologik maktab vakillari XVII–XVIII asr buyuk mutafakkirlari B. Fontenel, J. Viko, I. Gerder fikrlaridan kelib chiqib mif – jamiyat taraqqiyoti va inson ruhiyati bosqichlarini ifodalovchi qimmatli madaniy xazinalardir, degan fikrga kelishgan.

Ingliz olimi Jeyms Frezer hozirgi mifshunoslik yo‘nalishining asoschilaridan biridir. U o‘zining «Oltin butoq» va «Axdul qadim («Tavrot») folklori» kitoblarida qadimgi Xitoy, Hindiston, Misr xalqlari folklori va xristian mifologiyasi ildizlarini xalq e‘tiqodlarining shakllanish bosqichlari bilan bog‘lab tadqiq etadi. Hozirgi mifologik yo‘nalish Zigmund Freyd ta‘limotidan ham oziqlangan bo‘lsada, undan farq qilib, mif yaratuvchilar patologiyasi va psixikasiga ortiqcha e‘tibor bermay, falsafiy tafakkur va e‘tiqodlar shakllanishiga kengroq e‘tibor beradi. Bu yo‘nalish vakillari miqlarni animizm, totemizm va tabu bilan bog‘laydilar. Mifologik maktabning yirik vakillaridan biri, Toronto universiteti professori Nortrop Fray fikricha, miqlar inson tasavvurlarining ibtidoiyligini emas, balki poetik yorqinligi va falsafiy teranligini aks ettiradi. «Musavvir asari, – deydi u, – yaqindan qaraganda yaxshi ko‘rinmaydi, uzoqdan qaraganda esa asarning barcha fazilatlarini yaxlitlikda ko‘rinadi». Demak, jahon tarixining ibtidosi, insoniyat taraqqiyotining ilk kurtaklari bevosita ilk odamlarning ibtidoiy qarashlari va xayolotidan boshlanadi va u kishilik jamiyati evolyutsion taraqqiyoti davomida shakllana borgan, uzoq, o‘ta uzoq asrlar mobaynida rivojlangan. Odam va olamning yaralishi haqidagi tasavvurlar, o‘tmish to‘g‘risidagi tushunchalar ham vaqt o‘tgani sayin yorqinlashib boraveradi.

Amerikalik atoqli sharqshunos Frants Rouzentaling «Bilim tantanasi» kitobida ilk islom olamida «bilim va binobarin, olimlar yuksak qadrlanganligini boy faktik materiallar, birinchi manbalar – Qur‘on suralari, oyatlari asosida tadqiq etadi. Islomga qadar arab she‘riyatidayoq Gyote

aytganday, «Soʻz qudrati va aql ishorati» koʻzga tashlanadi. «Qadimiy arab shoirlari, – deb yozadi «Bilim tantanasi» kitobining masʼul muharriri A.V.Sagadeev, – oʻz qabilasi nomidan gapiradi, uning shon-sharafini himoya qiladi yoki dushman qabilalarni qoralaydi, avliyo, paygʻambar sifatida qabiladoshlari tomonidan eʼzozlanadi».

### **Insonning paydo boʻlishi haqidagi dunyoviy qarashlar**

Insonning paydo boʻlishi, uning omillari, sharoitlarini ilmiy asosda oʻrganish masalasi atrofidagi ilmiy-nazariy munozaralarni yaxlit tizimga solishga urinish fanda juda katta tarixga ega emas. U keyingi ikki-uch asr mobaynida turli nazariy qarashlar, ehtimollar, aniq isbotini topolmagan qarashlar tizimi sifatida yuzaga keldi va hali-hamon xilma-xil yondashuvlar davom etmoqda. Boshqacha qilib aytganda, inson antropogenezi, sotsiogenezi, uning biologik, fiziologik, psixologik rivojlanish tamoyillari, shakllanish jarayonlari, evolyutsiyasi bir qarashda fanda oʻz isbotini topganday, maʼlum bir ilmiy-nazariy umumlashmalar, xulosalar, asoslar yaratilganday koʻrinadi. Biroq bu qarashlar va nazariyalarning turli-tumanligi, xilma-xilligi nuqtai nazardan qaraganda hali fan insonning paydo boʻlishi toʻgʻrisidagi aniq bir xulosaga kelmaganidan dalolat beradi.

Insonning paydo boʻlishi haqidagi ilmiy tasavvurlarning bir yoʻnalishi tadrijiylik nazariyasi bilan asoslanadi. Bu bevosita Er sayyorasining fizik, kimyoviy, biologik tuzilishi bilan bogʻliq boʻlgan xulosalarga borib taqaladi. Boshqa bir olimlar esa Quyosh tizimining ilk tumanliklari nazariyasi bilan bogʻlaydilar. Bunda tabiiy hodisalar, koinotdagi oʻzgarishlar, fazoviy holatlar keltirib chiqargan shart-sharoitlarni, hodisalarning inson paydo boʻlishi va rivojlanishiga qulay muhit yaratganligini roʻkach qiladilar.

Ingliz tabiatshunosi Darvin oʻzining «Zoonomiya» kitobida hayvonlarning genezisi va tadrijiy rivojlanish jarayonlarini tashqi muhit bilan bogʻlab izohlaydi. Jan Lamark esa yaxlit organik olam evolyutsiyasi xususida gapirar ekan, u hayvonot, oʻsimliklar va boshqa turlarning rivojlanish asoslarini birmuncha oʻrganib, unda tashqi tabiiy taʼsir, tabiiy iqlim natijasida jonli tananing moslashishi orqali asta-sekinlik bilan murakkablashib borishi, ichki salohiyatning, hayotga intilishning va yashashga ishtiyoqning tadrijiy ravishda rivojlanib borishi jarayonini insonning paydo boʻlishiga asos deb biladi.

Umuman olganda insonning paydo boʻlishi va uning «aqli odam» darajasiga etguniga qadar yuz million yillar oʻtgani fanda maʼlum. Inson antropogenezi va tabiat taraqqiyoti bilan shugʻullanuvchi olimlarning qarashlari harholda ana shunday. Ayrim mutaxassislarining xulosalariga

ko‘ra dastlabki odamlar xordalilar tipiga mansub bo‘lib, ular bundan yuz million yillar muqaddam noma‘lum kayxoniy falokatlar, tabiiy hodisalar tufayli yo‘q bo‘lib ketgan. Umurtqalilarga mansub bo‘lgan dinozavrlar esa 60 million yil muqaddam sut emizuvchilar sifatida dunyoga kelgan. Insonning eng qadimiy ajdodlari sifatida gominitlar tipi paydo bo‘lgan. Dastlabki nutq elementlariga, tovush orqali fikrlarini ifodalash imkoniyatlariga, qo‘l harakatlari orqali nimalargadir erishish, qaysidir vazifalarni bajarish imkoniyatlariga ega bo‘lgan maymun-odam shaklidagi inson bundan ikki-uch million yil avval paydo bo‘lgan va u tadrijiy rivojlanish, evolyutsion taraqqiyot orqali murakkab mavjudot sifatida o‘zini namoyon qila bilgan. Ana shu murakkablik bevosita tana tuzilishi, yashashga intilish holatlari, ilk aqliy kurtaklar va ong elementlarining paydo bo‘lishi jihati bilan alohida ajralib turadi. Ana shu tarzda ular fanda qadimgi odam maqomini egallashdi. Boshqacha qilib aytganda, 150 ming yil muqaddam kelib chiqqan odam turining miyasi rivojlana boshlagan, nutqi birmuncha shakllangan, fikrini va munosabatini so‘z orqali ifodalay oladigan, turli mehnat qurollarini yasay oladigan, ikki oyoqqa tayanib, gavnani ko‘tarib, tikka yura oladigan odam sifatida o‘zini ko‘rsata bilgan. Bizning davrimizdagi odam – fan tili bilan aytadigan bo‘lsak, «aqli odam» turi sayyoramizda 90–100 ming yil avval paydo bo‘lgan va ulkan takomillashuv, shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan.

Yuqorida aytganimizday, insonning paydo bo‘lishi haqidagi tasavvurlar yo‘nalishlari fanda xilma-xil va o‘ziga xosdir. Jumladan, umumkayxoniy nazariyada tadrijiylik nuqtai-nazaridan umumsayyoraviy holatlar, tabiat va koinotda yuz bergan hodisalar insoniyatning kelib chiqishiga sharoit yaratganligi g‘oyasi ilgari suriladi. Ayni ana shu tabiiy shart-sharoitlar tufayli hayotning vujudga kelishi, uning rivojlanishi natijasida insonning paydo bo‘lishi haqidagi qarashlar bayon etiladi.

Darvinizm nazariyasida esa irsiyat va o‘zgaruvchanlik omillari asos qilib olinadi. Charlz Darvin (1809–1892) o‘zining nazariy xulosalariga tirik tabiatning tadrijiy rivojlanish va biologik moslashish – shakllanish me‘yorlarini asos qilib oladi. Jumladan, uning «Madaniy o‘simliklarning va uy hayvonlarining o‘zgarishi», «Insonning kelib chiqishi va jinsiy tanlanish», «Inson va hayvonlarda emotsiyaning ifodalanishi» singari asarlarida tabiatning rivojlanish g‘oyalari, tirik mavjudotning shakllanish qonuniyatlari xususvda o‘ziga xos nazariya ilgari suriladi. Biroq uning ta‘limoti hali genetika fani yuzaga kelmagan, insonning biologik, ruhiy va ijtimoiy olami atrofdagi xulosalar shakllanmagan paytda yuzaga kelganligi yaqqol ko‘rinadi. Shuning uchun uning tadrijiylik nazariyasida ijtimoiy masalalar, jumladan, insonning ijtimoiy mohiyati, tuyg‘u, ong va aql bilan

bogʻliq boʻlgan qadriyati oʻz ifodasini topmagan. Demak, bu taʼlimot ham insonshunoslikda tugal echim maqomini egallay olmaydi.

Mehnat nazariyasida esa insonga, tirik mavjudot olamiga oʻziga xos urgʻu beriladi va uning kelib chiqishi turli tub oʻzgarishlar, inqilobiy yangilanishlar mahsuli sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda, albatga, mehnatning oʻrni va roliga alohida eʼtibor beriladi. Ayni ana shu nazariyaga koʻra insonning qaysi hayvondan qanday tarzda, qanday holatda kelib chiqqanligi toʻgʻrisidagi masalalarga javob izlanadi. Bunda ham Charlz Darvin gʻoyalari birmuncha ustuvorlik qiladi. Jumladan, odam dastlab maymunlar, xususan, odamsifat maymunlar – shimpanze va gorilla bilan inson qiyofasi oʻzaro oʻxshashligi asos qilib olinadi. Biroq, mehnat nazariyasiga koʻra insonning maymundan kelib chiqqanligi haqidagi qarashlar fanda hamon muammoligicha qolmoqda.

Masalaning diqqatga sazovor tomoni shundaki, Ch.Darvinning materialistik qarashlariga asoslangan evolyutsion taraqqiyot nazariyasi islom dunyosida – tasavvuf falsafasida bir necha asr oldin mohiyatan yaqin, shaklan butunlay boshqa holatda kashf etilgan. Masalan, materialistik qarashlarda moddiyat birlamchi boʻlib, moddiy manfaatdorlik, nafs va hayot zavqi ustuvorlik qilsa, tasavvuf falsafasvda ruh, maʼnaviy taraqqiyot, etuklikka intilish, kamolotga erishish ishtiyoqi balandlik qiladi. Jumladan, Jaloliddin Rumiy (1207–1273) qarashlari bunga yaqqol misol boʻla oladi. Yaʼni unda «Inson yaralishidagi tadrijiylik holati va asoslarini maʼdandan oʻsimlikka, oʻsimlikdan hayvonga, hayvondan insonga qarab rivojlanish tizimini koʻzda tutadi».

Insonning tadrijiy kamoloti, etuklikka intilib borish jarayonida ruhning bosqichma- bosqich taraqqiyoti xususida gapirar ekan, Aziziddin Nasafiy (1240– 1300) «Har bir yangi doiradan boshlab yangi ibtido boshlanadi va u kamolotga erishish uchun darajama-daraja intiladi», – deydi. Agar hozirgacha mavjud ilmiy qarashlar va nazariy xulosalar hamda hozirgi zamon sivilizatsiyasi yutuqlari tahlil etilsa, inson hamisha kamolotga muhtoj va umri davomida evolyutsion taraqqiyot, tadrijiy takomil, oʻzini oʻzi uzluksiz rivojlantirib borishga ehtiyoj sezishi zarurat ekanligi maʼlum boʻladi.

Olamning yaratilishi, insonning vujudga kelishi va kishilik jamiyatining taraqqiyot bosqichlari Sharqda oʻziga xos tarzda talqin etiladi. Bu bevosita milliy tafakkur tarzi, Sharq Gʻarb oʻrtasidagi tafovutga, munosabatlar va qarashlarning turlichaligiga olib kelgan ruhiyat, feʼl-atvor, maʼnaviy-axloqiy mezonlar natijasi sifatida yuzaga keldi.

Sharqda azaldan tarixga qiziqish, insoniyat tarixiy taraqqiyoti bosqichlarini oʻrganish keng taraqqiy topgan. Bu qadimiy makonda inson

va kishilik jamiyati, uning dunyoga kelishiga doir tarixiy-falsafiy, tarixiy-badiiy asarlar ko'plab yaratilgan. Jumladan, Abu Ja'far Tabariy (839–923) o'zining «Tarixi Tabariy», «Ta'rix ar-rasul val-muluk» (Payg'ambarlar va shohlar tarixi) nomli asarlarida eng qadimgi davrdan 915 yilgacha bo'lgan voqealar ancha keng va batafsil bayon etiladi.

Abu Bakr Narshaxiyning (899–959) «Tahqiq al-viloyat» (Mamlakat haqida aniq tadqiqotlar), «Ta'rix Buxoro», «Axbor al-Buxoro» singari asarlari tarixiy tahlil, voqealar va hodisalarning falsafiy-mantiqiy ifodasi bilan alohida ajralib turadi.

Abu Muhammad al-Kufiy (926 yilda vafot etgan) «Futuhi ibn A'sam», arab tarixchisi va faylasufi Abu Ali Miskovayx (1030 yilda vafot etgan) «Adab al-arab val-furs» (Arab va forslarning axloq qoidalari) hamda olti jilddan iborat «Tahsil al-axloq» (Axloqiy tarbiya) nomli kitoblarida umumiy tarix, insoniyat yaxlit o'tmishining taraqqiyot omillari, bir qator xalqlarning an'analari, turmush tarzi, hayot tajribalari va tafakkur qirralari bayon etilgan.

Abul-Hasan al-Jazoiriyning (1160–1233) 12 jilddan iborat umumiy tarix haqidagi kitobi uning tarixiy tafakkur va tarixiy jarayonlarni tahlil etishda o'ziga xos maktab yaratganidan dalolat beradi. U Tabariy va Bayhaqiylarning ilmiy tajribalariga tayanib, ularni rivojlantirdi. «Olamning yaralishi» dan o'z davrigacha bo'lgan tarixni falsafiy tahlil etdi va tarixiy tafakkurning falsafiy tahliliga doir jiddiy tadqiqotni amalga oshirdi. «Komil fi tavorix» (Mukammal tarix) nomli asari Jazoiriyning tarix falsafasi sohasidagi juda katta ilmiy jasoratidan dalolat beradi. Rashididdin Hamadoniy (1248–1318) o'zining betakror tarixiy-falsafiy qarashlari, noyob ilmiy-nazariy kashfiyotlari bilan mashhur bo'lgan allomadir. U muarrix, geograf, tabiatshunos, faylasuf, etnograf va antropolog sifatida o'z davrida nom chiqargan edi. Uning «Ta'rix g'azaniy», «Ta'rix muboraki g'azaniy» nomli asarlarida insonning yaralishi, olamning paydo bo'lishi va qadimgi dunyodan 1300 yillargacha bo'lgan mo'g'ullar tarixi bayon etilgan. V.V.Bartold xulosalariga ko'ra Rashididdin Hamadoniyning asarlari – tarixiy qomus, qaysiki bunday mukammal asar Osiyoda ham, Yevropada ham biror bir xalqda yo'q. Uning mukammalligi, boshqa manbalarda uchramaydigan tahliliy-mushohadaliligi, tarixni talqin etishda mutlaqo o'ziga xosligi shundaki, Yevropa, Hindiston, Xitoy, Eron, mo'g'ullar istilo etgan turk mamlakatlari va xalqlari tarixi juda keng miqyosda tadqiq etiladi. Tarixiy jarayon oqimida tahlil orqali falsafiy tafakkur yorqin namoyon bo'ladi. Tarixiy jarayonlar, voqealar, hodisalar tarixiy-falsafiy, ijtimoiy-mantiqiy uslubda o'rganiladi. Xullas, jahon tarixi va umumiy tarixiy taraqqiyot qoidalari, asoslari, omillari va yo'nalishlari ancha chuqur tadqiq

etiladi. Aslini olganda olamni tadqiq etish, insonni tushunish, uning rang-barang va xilma-xil olamiga qiziqish Sharqda G'arbga nisbatan ancha ilgariroq yuzaga kelgan va bu o'z-o'zidan ilmiy qarashlar orqali fanning dunyoga kelishi, shakllanishi va taraqqiyotiga o'ziga xos zamin yaratdi.

### **«Avesto» – ijtimoiy-tarixiy hodisa**

Ko'hna Sharq juda katta tarixiy-madaniy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan, insoniyat tafakkur olami tadrijiy rivojini rag'batlantiruvchi, ruhlantiruvchi, boyitib boruvchi omillariga asos solgan muqaddas makon. Zotan, ana shu tabarruk zaminda ilk odamlar ibtidoiy tasavvurlarining shakllanishi, ularning hayot va yashashga intilish tuyg'ularining rivojlanishi, olamni idrok etish va tasavvur qilishning dastlabki mo''jizaviy holatlari yuzaga kelgan.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti turli davrlarda, turli makon va zamonda yuzaga kelgan katta siljishlar, g'oyaviy-ma'rifiy sakrashlar, kuchli ruhiy ta'sirlar orqali takomillashish jarayonini boshdan kechirgan. Qadimiy Turonda esa ana shunday holatlar va tub burilish hodisalari boshqa xalqlarga nisbatan birmuncha oldinroq, shaklan va mohiyatan birmuncha xilma-xilroq tarzda yuzaga keddiki, bu nafaqat ana shu hudud, balki butun dunyo xalqlari madaniy taraqqiyotida alohida voqea sifatida ijtimoiy-tarixiy rol o'ynadi.

Bundan uch ming yil ilgari qadimiy Xorazmda dunyoga kelgan «Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sifatida katta ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy voqelikka aylandi. «Avesto»ning ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatidagi qadriyati faqat shugina emas. Balki u butun insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi, tasavvur va tafakkur olamining yangi sarchashmasi, inson, ijtimoiy hayot, yashash zavqi va mohiyati bilan bog'liq bo'lgan g'oyat insonparvar g'oya sifatida yuzaga keldi.

«Avesto»dagi ijtimoiy adolatga yo'g'rilgan, g'oyat insonparvar qarashlar nafaqat inson, balki butun borliq, tuproq, havo, suv, koinot, yulduzlar, hayvonlar, hasharotlar, parrandayu darrandalar yaxlit olamining o'zaro munosabatlari orqali inson ma'naviy-axloqiy me'yorlarini ilk bor ishlab chiqdi. Inson faoliyati, hatti-harakatlari va munosabatlarining qonuniyatlarini dastlabki ko'rinishlarda, ammo qiymatini yo'qotmaydigan darajada yuzaga keltirdi. Xuddi ana shu umuminsoniy, dunyoviy g'oyalar orqali «Avesto»ning tarixiy hodisa sifatidagi mohiyati belgilanadi.

Ko'pdan-ko'p qirg'in-barot urushlar, mahv etishlar, vayronagarliklarni ko'p ko'rgan Turonda «Avesto» tinchlik va hamkorlik, do'stlik va o'zaro hurmat orqali inson va insoniyat tub mohiyatini yuksak darajada targ'ib qilish bilan birga ana shu jangu jadallarning qurboniga ham aylandi. Uning

dunyoga kelishi, yaratilishi va jamiyatda tutgan mavqei atrofidagi munozaralar ham turli davrlarda turlicha shaklga kirdi. Bir-biriga zid, qarama-qarshi fikrlar o'rtaga tashlandi.

Abu Rayhon Beruniy «Avesto» va uning ayanchli taqdiri haqida gapirar ekan:

«Podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistonning) 12 ming qora mol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Abistonning beshdan uchi yo'qolib ketdi. Abisto 30 «nask» edi, majusiylar qo'lida 12 nask chamasi qoddi. Biz Qur'on bo'laklarini haftiyaklar deganimizdek, nask Abisto bo'laklaridan har bir bo'lakning nomidir», – degan edi.

Albatta, Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga yurishi nafaqat «Avesto»ning boshiga solgan kulfat bilan, balki butun Sharq sivilizatsiyasini izdan chiqarib, bu erda yashovchi xalqlar madaniyati, ma'rifati, ijtimoiy hayot darajasi va kishilik jamiyati taraqqiyotiga katta zarba bergani bilan izohlanadi. Bu tarixiy jarayon sifatida O'rta Osiyo sivilizatsiyasining bosqinchilar tomonidan barbod etilganligi singari ko'pdan-ko'p va ayni paytda g'oyat iztirobli voqelikdir.

«Avesto»ning yaratilishi va uning buyuk qadriyati haqidagi ma'lumotlar ko'p. Jumladan, muarrix Balxiyning «Forsnoma» kitobida «Avesto» 12 ming oshlangan mol terisiga bitilgan hikmatlar kitobi ekanligi qayd etiladi. Abu Ali Muhammad bin Muhammad Bal'amiyning «Tarixi Bal'amiy» kitobida esa «Avesto» shoh Gushtasb farmoni bilan 12 ming mol terisiga podshoh mirzolari tomonidan tillo suvida yozilgani haqidagi fikrlar bayon etilgan.

VII–VIII asrlarda O'rta Osiyoga arablarning bostirib kelishi juda ko'p madaniy-tarixiy yodgorliklarning yo'qolishiga sabab bo'ldi. Jumladan, «Avesto»ning mavjud nusxalari ham ana shunday fojialardan, mislsiz jaholatdan chetda qolmadi.

Abu Rayhon Beruniyning xulosalariga ko'ra «Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi... Keyin Qutayba Ibn Muslim al-Boxiliy Xorazmliklarning kotiblarini halok etib, bilimdonlarini o'ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani sababli ular savodsiz qoldi. O'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyanadigan bo'ldilar. Uzoq zamon shunday bo'lgach, ular ixtilofli narsalarni unutib, kelishib olganlarini yodda saqlab qoldilar».



Ana shu tarzda O'рта Osiyo, jumladan, Xorazm jaholat, bid'at va xurofot hukmron bo'lgan makonga aylantirildi. Mislsiz madaniyat, adabiyot, san'at, falsafa va tafakkur taraqqiyotiga chek qo'yildi. Tobora shakllanib borayotgan hayot, olam, jamiyat va uning mohiyati haqidagi tasavvurlar o'rnida fikrlamay yashashga mahkum etilgan jamiyat yuzaga keldi. Biroq, har qanday zo'ravonlik, xurofot o'z kuchini ko'rsatmasin, xotira quvvati, qalb hofizasi yuksak bo'lgan ushbu makon odamlari xotirasida «Avesto»ning insonparvar g'oyalari saqlanib qoldi.

«Avesto» ta'limotining zardushtiylik g'oyalari dunyoning qator mamlakatlarida turli mutaxassislar tomonidan tadqiq etildi va zardushtiylik dinining kishilik jamiyatini takomillashtirish, inson-jamiyat-jarayon yaxlitligi va izchil taraqqiyoti, inson va tabiat o'rtasidagi yuksak axloqiy munosabatlarni o'zida mujassam etgan islohchilik jihatlari ilmiy-nazariy tomondan ancha chuqur o'rganildi va e'tirof etildi. Jumladan, V.A.Livpdning xulosalariga ko'ra «Ruhoniy Zardusht eng qadimgi diniy tasavvurlarni isloh qilgan shaxs sifatida maydonga chiqadi, uning yashagan payti, vatani va qaerlarda o'z ta'limotini targ'ib qilgani munozarali bo'lsa-da, uning afsonaviy shaxs emas, real inson bo'lganligiga shubha yo'q»<sup>1</sup>.

«Avesto» g'oyalarida inson va tabiat, hayot va uning mohiyati atrofida ilk tasavvurlar ilgari suriladi va bu g'oyalar insoniyat sivilizatsiyasining ilk kurtaklari sifatida o'zini namoyon etadi. Darhaqiqat, tarixiy taraqqiyot shundan dalolat beradiki, insoniyat tafakkuri va tasavvuri evolyutsion taraqqiyotining ilk bosqichlari bevosita «Avesto»ga borib taqaladi va undan etarli darajada quvvat oladi.

Bundan uch ming yil burungi odamlar tasavvuridagi ilk o'zgarishlar bevosita «Avesto» orqali umuminsoniy qadriyatlar maqomini egalladi. Jumladan, «Avesto» turli qabilalar, guruhlar o'rtasida mavjud bo'lgan ko'pxudolilikka nuqta qo'yib, yakkaxudolik g'oyasini ilgari surdi. Bu bevosita diniy ta'limotda inson qanday guruh, urug', qabila yoki millatga mansub bo'lmasin, er yuzining qaysi hududida yashamasin, u yolg'iz Allohning bandasi va yagona Alloh uning asraguvchisidir, degan g'oyaga olib keldi. Yakkaxudolik orqali «Avesto» turli qabila va urug'larni yagona e'tiqod, yagona maslak va yagona g'oya orqali birlashtirib, umumiy manfaatlar atrofida jipslashishiga da'vat etdi.

Ikkinchidan, Allohning yagonaligi – yakkaxudolik orqali turli qabila va urug'lar o'rtasidagi nizolar, kelishmovchiliklar hamda manfaatlar to'qnashuviga chek qo'yib, umumiy maqsadlar, umumiy g'oyalar, yagona e'tiqod atrofida birlashishga olib keldi. Natijada kishilik jamiyatining ilk shakllanish bosqichiga asos solib, ilk boshqaruv tizimining vujudga

kelishiga, ilk davlatchilik boshqaruvining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Uchinchidan, odamlarni ezgulikka, yaxshilikka da'vat etuvchi ilohiy manba bo'lib dunyoga keldi: «Zardusht iloh Ahura Mazdadan so'radi:

–Ey, Ahura Mazda!

Zaminni hammadan ham baxtiyor qiluvchi zot kim? Ahura Mazda javob berdi:

–Ey, Zardusht!

Kimki uni yaxshilab haydasa va ziroatga tayyorlasa!..

Ey, Zardusht!

Kimki g'alla eksa, u haqiqatni ekadi...»

Ana shu tarzda «Avesto» tuproqqa munosabat, zaminga mehr-muhabbat orqali insonni ezgulikka da'vat etadi, bunyodkorlik, yaratuvchilikka chaqiradi va to'kinlik, farovonlik, rizqu ro'z haqidagi g'oyalarni ilgari suradi. Shu bilan birga el dasturxoniga baraka kirituvchi g'alla etishtirishni yuksak qadriyat darajasiga ko'taradiki, uning mohiyatida mehnat va rohat, yaxshilik va ezgulik, farovonlik va to'kin-sochinlik tuyg'ulari yotadi.

Zardushtiylik dini insoniyat tarixida yuzaga kelgan barcha dinlarning eng qadimiysi, eng ko'hnasi va ayni paytda insoniyat taraqqiyotiga ilk rag'batlantiruvchi, da'vat etuvchi ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-axloqiy qudrat bo'lib dunyoga keldi. Sharqning juda katta hududidagi xalqlar ayni ana shu «Avesto» g'oyalari orqali o'z turmush tarziga axloq va ma'naviyatning, komillik va etuklikning o'ziga xos me'yorlarini qabul qildilar va turmush tarziga aylantirdilar.

Olov, suv zardushtiylik ta'limotida eng muqaddas va pokizalik timsoli. Uni ifloslashtirishga, bulg'ashga intilishlar g'ayriinsoniy va g'ayriilohiy voqelik sifatida talqin etilgan. «Pokiza suv va yonib turgan olov qarshisida gustohlik qilgan zotning do'zaxda tortguvchi jazosi bu dunyoning jamiyki dardu ozorlaridan mudhishdir...» Ana shu tarzda suv va olov ruh pokizaligi, tuyg'u musaffoligi, qalb go'zalligi va e'tiqodu umidlarning bezavolligi darajasiga ko'tariladi. Natijada kishilik jamiyati ma'naviy qiyofasi, odamlarning ichki dunyosi, fikr-o'ylari va amaliy hatti-harakatlarining madaniylashishiga olib keladigan qudratli mafkuraga aylandi. Inson, jamiyat va hayot jarayonining mislsiz ravnaqiga asos bo'lib xizmat qildi.

«Avesto» ana shu tarzda odamlarni ezgulikka da'vat etuvchi, yaxshilikni himoya qiluvchi, yovuzlik va jaholatdan uzoqlashishga chaqiruvchi g'oyalarni ilgari surdi:

«Zardusht Ahura Mazdadan so'radi:

– Butun vujudi ilohiy kalom – mansaralar bilan qurollangan qudratli iloh Surushning Sravashavarizi kim?

Ahura Mazda javob berdi:

–Ey, Ashavan Zardusht!

U Pravdarsh qushidir (xo‘roz)... Bu qush bomdod mahali erta tongda shunday deb bong uradi:

–Ey insonlar!

Oyoqqa qalqing! Devlarni itqitib tashlaguvchi eng go‘zal Asha – haqiqatni vasf aylang!..»

Bir necha ming yillarki, insoniyat tongni xo‘roz qichqirig‘i bilan kutib oladi. Bomdod paytida xo‘rozning qichqirig‘i uyqudagi odam yuragiga qaysidir holatda sirli, sinoatli tuyg‘ularni junbushga keltiradi. O‘sha qichqiriq orqali hayot mavjudligini, hayot davom etayotganligini, inson ezgulik, yaxshilik va muhabbat bilan yangi kun tongida yangi quvvat va tuyg‘ular bilan qadam tashlashi zarurligini eslatganday bo‘ladi. Bu o‘ziga xos ruhiy holat kishini ezgulikka da‘vat etishi tabiiy. Ana shu tarzda «Avesto» insonning eng nozik hislariga ta‘sir etadi, uni uyg‘otadi, yaxshilikka boshlaydi. Zardushtiylik ta‘limotining mo‘‘jizaviy qudrati va ijtimoiy-tarixiy mohiyati ana shunda ko‘zga yaqqol tashlanadi.

«Haqiqat – oliy sharofatdir», deyiladi «Avesto»da. Zotan, haqiqat buyuk mo‘jiza. U asrlar mobaynida insoniyatning oliy maqsadi, inson qadru qimmatining mislsiz o‘lchovi bo‘lib keldi. Odamlar har daqiqada haqiqatga intiladilar, undan najot izlaydilar, Ayni haqiqat adolatga, sharofatga eltadigan buyuk qudrat. Ana shu qudrat «Avesto»da o‘zining butun mohiyati bilan o‘z ifodasini topgan.

«Madh etaman ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal ila ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalni. Jami ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalga bag‘ishlanaman, jumla yovuz fikrat, yovuz kalom va yovuz amallardan yuz buraman». Bunday mo‘‘jizakor da‘vat – insonning ming bir hujayrasini, tizginsiz va chegarasiz xayolotini, orzu-maqsadlarini junbushga keltiradigan ruhiy holat, axloqiy da‘vat, ma‘naviy chaqiriq har qanday bag‘ritosh insonning qalbini yumshatadi. Unda mehr-shafqat, yaxshilik xislarini uyg‘otadi. Oqibatda ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal – hatti-harakat, munosabatlar, pokiza xayolot va yaxshiliklar bilan yashash umidi odamni chulg‘ab oladi. Inson o‘zining hayotini, umrini mana shu ezguliklarga baxshida etib, jamiki yovuz fikrat – yovuz xayolot, yovuz niyat, yovuz kalom – yovuz so‘z, munosabatlar, yovuz amal – yovuz hatti-harakatlar va fe‘l-atvorlardan yuz burib, komillikka intiladi. Bu insonning ichki go‘zalligi, botiniy kamoloti va zohiriy amaliyoti jamuljami – yaxlit qiyofasining benuqson suvrati emasmi? Ulug‘ faylasuf Forobiyning «Inson

mohiyati aqlda, aqlning mohiyati hatti-harakatda bilinadi», degan hikmatining mazmuni undan ikki ming yil burun dunyoga kelgan va bugun ham o'z qiymatini yo'qotmagan «Avesto»dagi ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal tushunchalaridan kelib chiqmaydimi? Bu uch unurning yaxlitligi, uyg'unligi ayni inson mohiyatini, uning butun borlig'ini, qadriyatini belgilamaydimi?

Qariyb uch ming yil avval ko'hna Xorazmda dunyoga kelgan, bugungacha nafaqat qadimiy Sharq, balki bugun Er shari ahlini ezgulikka da'vat etayotgan mo'jizakor hayqiriq-«Avesto»ning o'lmasligi, abadiyligi va buyuk qadriyati ana shunda. Zotan, millat yashar ekan, hayot davom etar ekan, ezgulik va yaratuvchilik abadiy. Millat qonida, xalq qalbi va tafakkurida an'analar, urf-odatlar, turmush tarzi qatlarida «Avesto» g'oyalari yashayveradi.

### **Forobiy falsafasi: inson – jamiyat – jarayon**

To'liq nomi Abu- nasr Muhammad bin Tarxon bin O'zlug' bo'lgan Forobiy jahon falsafiy tafakkuri taraqqiyotida burilish yasagan buyuk faylasuflardandir. U Uyg'onish davri mutafakkirlarining yirik namoyandasi sifatida tafakkur olamida o'ziga xos yo'l ochdi. Jumladan, inson, jamiyat, tarixiy jarayon, davlat va boshqaruv borasidagi falsafiy qarashlarga asos soldi.

Albatga, Forobiy yunon allomalari Aflotun va Arastu falsafasi bilan o'z zamondoshlaridan ko'ra ko'proq shug'ullangan, uning mohiyatini boshqalardan ko'ra chuqurroq o'rgangan va o'zlashtirgan edi. Natijada shunday novatorlik yo'lini topdiki, ayni ana shu qadimgi yunon falsafasining o'z davri qarashlari va ehtiyojlari nuqtai nazaridan kutilmagan holatda yangi qirralarini ochib, uni boyitdi, rivojlantirdi.

Yana shunga alohida e'tibor berish kerakki, Forobiy falsafiy qarashlariga munosabatda, uni tushunish va talqin etishda hamon sho'ro imperiyasi siyosati va kommunistik mafkura talablari saqlanmoqda. Allomaning g'oyat katta ilmiy merosi umumiy va yuzaki, zamonasoz ma'lumotlar shaklida bayon qilinmoqda. Forobiy falsafasining barcha qirralari, ko'lami va ilmiy-nazariy jamiyati bir yoqlama, ya'ni dunyoviy tafakkur tarzi me'yorlariga mos tomonlari tadqiq etilmoqda. Vaholanki, Forobiyning ilmiy-falsafiy fenomeni dunyoviy va diniy qarashlar o'zaro kesishgan joyda yaqqol namoyon bo'ladi. Qomusiy bilimlar majmui bo'lgan ushbu holatni akademik M. Xayrullaev to'g'ri talqin etadi va uning qator sohalar bo'yicha ilmiy qarashlari yaxlit tizimi haqida fikr yuritadi hamda ularni sanab o'tadi: til haqidagi bilim, mantiq, matematika, optika, sayyoralar, musiqa, og'irlik, mexanika, tabiiy va ilohiy ilmlar (metafizika),

siyosat, yurisprudentsiya (fiqh), musulmon teologiyasi (kalom) va boshqalar. Demak, Forobiy har qanday qarashlardan qat'i nazar inson va hayot falsafasining yorqin ijodkori. U fan va xayolot, ilmiy-nazariy tahlil va vahiylikning mushtarak yo'lini topa bildi. Xuddi ana shu jihati bilan dunyoviy taraqqiyotga, ilk uyg'onish davri sivilizatsiyasiga misli ko'rilmagan hissa qo'shdi yoki S.M.Hotamiy iborasi bilan aytganda «Forobiy – islom falsafasi va mustahkam ratsional (aqlga asoslangan) tafakkur tizimini yaratgan odam. Uning maktabi yunon faylasuflari qarashlari bilan jamiyki o'xshash jihatlariga qaramay, umuman olganda ham, alohida tomonlarini olganda ham, nodir hodisadir».

Inson va jamiyat, inson va tabiat, olam va odam o'rtasidagi munosabatlar dunyoviy tafakkur asosida Forobiy zakosi bilan butunlay yangicha talqin etildi. Bu davrda mavjud bo'lgan ilohiy qarashlar, islom tafakkur tarzi ilk bor dunyoviy fanlar bilan uyg'un holda tahlil qilindi. Ana shu tarzda jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari, insoniyat tadrijiy rivojining asoslari va kishilik jamiyati shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiy topishining o'ziga xos talqini Forobiy maktabida vujudga keldi. Bu maktabda falsafiy va tabiiy fanlar bir-birini to'ldiradigan, shaklan turlicha, mohiyatan mushtarak holda o'ziga xos maqomga ega bo'ldi.

Darhaqiqat, Forobiyning buyukligi va falsafada benazirligi, falsafiy tafakkurining inson hayotini va istiqbolini ratsional o'rganishdagi keng imkoniyatlari shundaki, u ilmning barcha sohalarida o'zigacha bo'lgan davrda birinchi bo'lgan shaxsdir. Masalaning ikkinchi tomoni ham borki, Forobiy yaratgan buyuk maktab tufayli dunyo falsafiy taraqqiyoti, uning barcha yutuqlari bevosita Forobiy qarashlari asosida qurilgan. Bu – shubhasiz. Buni Sayyid Muhammad Hotamiy quyidagicha izohlaydi: «Shariat, tariqat va ratsionalizmning hamda nimaiki Islom sivilizatsiyasi o'z cho'qqisida borliqni sharhlab tushuntirish, hayot yo'lini ko'rsatish borasida erishgan bo'lsa, jamlab ifodalagan «Sadrul Mutolihin» kitobidan keyin biror arzigulik g'oya dunyoga kelmadi. Mazkur kitob esa shu sohada yakuniy to'plamday bir asardir».

Forobiyning inson va jamiyat haqidagi ratsional falsafasi bevosita tarixiy taraqqiyot, tarixiy rivojlanish asoslari, uning o'ziga xos omillari, dunyoviy va diniy qarashlarning sintezi sifatida yuzaga keldiki, bu insoniyat tarixida o'ziga xos qarashning yorqin namunasidir.

Forobiy kishilik jamiyati, uning rivojlanish qonuniyatlari, shahar (mamlakat) aholisi va hokim muammolari, davlat va boshqaruv masalalari xususida gapirar ekan, u real voqelik va uning istiqboli hamda tanazzuli sabablarini qidiradi. Biroq biror joyda tarixiy tajriba, tarixiy jarayon tahlili va uning saboqlari, tarixni anglash, idrok etish va baholash tamoyillari

haqida aniq fikr yuritmaydi. Ammo, Forobiy ilmiy-falsafiy merosining beqiyos qadriyati shundaki, u bevosita inson va uning mohiyati, kishilik jamiyati va uning qonuniyatlari, rivojlanish omillari, boshqaruv usullari, erkin fuqarolik jamiyati haqidagi favqulodda xulosalari bilan istiqbolni belgilashda, ijtimoiy-tarixiy jarayonni ezgulik sari burishda katta ahamiyat kasb etdi, o'zidan keyingi tarixiy taraqqiyotda muhim dastur vazifasini o'tadi.

Forobiy mutaassiblikka qarshi ravishda ma'rifatlilik g'oyasini ilgari surdi. Inson tafakkurining jamiyatga bo'ysundirish haqiqatan to'g'ri ish ekanligini», – aytadi. Yana bir joyda jamiyat hayotiga zarar keltiruvchi, tahdid soluvchi ishlar haqida gapirar ekan, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida «sa'y-harakati, huquqlari va maqsadlari (adolatli) hokimlarga qarshi bo'lgan yovuz niyatli odamlardan shaharni tozalashdir» – degan g'oyani ilgari suradiki, bu davlat, boshqaruv, hokimiyat va uning adolatli faoliyati masalalarida o'rta asrlarda shakllanayotgan falsafiy, siyosiy, tarixiy, ijtimoiy tafakkurning naqadar yuksakligidan dalolatdir.

### **Beruniyning tarix falsafasi (973-1048)**

Ulug' Sharq mutafakkiri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy Sharq tafakkur olamining o'ziga xos yo'nalishini ochib berdi va insoniyat tarixi, uning vujudga kelishi, taraqqiyoti hamda tanazzullari atrofidagi mavjud fikrlarga aniqlik kiritdi. Turli zidtsiyatli qarashlarni butun mohiyati bilan o'rganib, unga o'ziga xos yondashib, mavjud qarashlarni keskin tarzda boyitib, uning o'zanini o'zgartirib yubordi. Aniqroq qilib aytganda, Beruniy olamning yaralishi, insonning vujudga kelishi, xalqlarning taraqqiyot bosqichlari, tarixiy voqealar, tabiiy hodisalar, ularning mohiyatini ilmiy asosda o'rganish maktabini yaratdi. Ushbu maktab bugun mohiyat-e'tibori bilan dastlab Sharq, keyinchalik G'arb falsafiy tafakkurining tamal toshini qo'ydi.

Beruniyning 1030 yilda yozgan va «Hindiston» nomi bilan mashhur bo'lgan «Tahqiq mo lil-hind min ma'qula maqbula fil-aql av marzula», ya'ni «Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash» deb nomlangan asarida bayon etilgan betakror ilmiy g'oyalar odam va olam haqidagi tasavvurlarni keskin o'zgartirib yubordi. Bu asar butun mohiyati bilan tarix falsafasining o'ziga xos va noyob ko'rinishidir. Unda insoniyat taraqqiyoti, uning omillari va mohiyati dunyoviy tafakkur orqali tadqiq etildi va kutilmagan xulosalar ilmiy asoslangan holda o'rta tashlandi.

Asarning o'ziga xos tarixiy, ilmiy va falsafiy qadriyati shundaki, u hamon jahon xalqlari tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat

qilmoqda va tarix falsafasi taraqqiyotida, tarixni falsafiy anglash jarayonida zabt etib bo'lmay cho'qqi darajasiga chiqdi. Darhaqiqat, bu asarga Mag'ribu Mashriq olimlari, yirik mutaxassisleri doimo qiziqish bilan qaraydilar. Uni juda katta ehtiros bilan o'qiydilar. Shuning uchun ham taniqli olim V.R.Rozen «Sharq va G'arbning qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyotida bunga teng keladigan asar yo'q», degan edi.

Asar garchi «Hindiston» deb nomlansada, «hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarni aniqlash»ga bag'ishlangan bo'lsada, uni butun mohiyati bilan insoniyat o'tmishining tarixiy-falsafiy talqinini, ilmiy-nazariy echimlari va asoslagan xulosalarini nazarda tutib ushbu yo'nalishda G'arbu Sharqning butun dunyo dinlari, qarashlari va dunyoviy tafakkur o'lchovlarining sintezi sifatida yuzaga kelgan nodir asar deyish mumkin. Aslida ham shunday. Zotan, unda inson kelib chiqishining diniy va dunyoviy qarashlari, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlari, davrlari, podsholiklar va payg'ambarlarning dunyoga kelishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va axloqiy ta'sirlari, qarashlari va munosabatlari qiyosiy tarzda o'rganiladi.

Beruniyning ushbu asari o'z davrining mutlaq yagona voqeligi emas edi. Chunki bu paytda podsholiklar va payg'ambarlar hayotiga bag'ishlangan turli-tuman xotiralar, afsonalar va rivoyatlarga asoslangan ma'naviy-ma'rifiy asarlar, sayohatnomalar, badialar ko'pdan-ko'p yozilgan edi. Beruniyning daholik qudrati shundaki, u o'zigacha yaratilgan va mavjud bo'lgan manba hamda adabiyotlarning eng asosiylarini mumkin qadar chuqur o'rganib, ularning har biriga munosib baho berib, eng asosli xulosalarni ilgari surdi. Bu xulosalar hozirga qadar ilmiy yangiligi, dolzarbligini, nazariy asoslanganligi, muhim kontseptual ahamiyatga egaligi va ulkan ijtimoiy mohiyat kasb etganligi bilan alohida qadrli.

Tarixni o'rganar ekan, insoniyat kelib chiqishi va uning rivojlanish dinamikasini tahlil qilar ekan, Beruniy haqiqatga ishonmovchi kishilar bilan munozara qilib, ularni skeptitsizmda ayblaydi va bular «qat'iy hujjatlarni qabul etishda xuddi sherdan qo'rqib qochgan eshaklardek qochadilar», – deydi.

Sharq tarix falsafasining o'ziga xosligi shundaki, unda turli davrlarda hukm surgan podsholiklar va ularning sulolalari tarixiy davr sifatida qabul qilinadi va ana shu davrda yuz bergan barcha voqealar, ma'naviy-axloqiy mezonlar, madaniy va ijtimoiy taraqqiyot bevosita ana shu podsholiklar va ularning sulolalari yurgizgan siyosat asosida o'rganiladi.

Beruniy ham ana shu tartibotdan unumli foydalangan. U o'zining «Osor al-boqiya» deb nomlangan asarida turli davrlarda hukm surgan podsholiklar va sulolalarning ko'pdan-ko'p jadvallarini kiritgan:

Makedoniyalik batlimuslar (ptolemeylar), rum, xristian, qadimgi Eron, sosoniylar sulolasi podshohlari, arab xalifalari (ummaviylar va abbosiylar) kabilarning o'z davriga xos shajaraviy-tarixiy jadvalini yaratdi. Ular o'ta aniq va ishonchli manbalardan olingan bo'lib, podshohlarning hukmronlik qilgan davrlari deyarli to'g'ri ko'rsatilgan. Ular boshqa tarixiy kitoblar bilan solishtirish natijasida to'la isbot etilganligi bilan alohida ajralib turadi. Beruniyning ushbu asari insoniyat tarixini o'rganuvchi mutaxassislar, tarixchilar, sotsiologlar, faylasuflar, etnograflar va demograflar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Atoqli manbashunos Ismatulla Abdullaev Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asari xususida fikr yuritar ekan, alloma o'z davrining ijtimoiy muhiti, kishilik tarixiy taraqqiyoti, xalqlar, urf-odatlar, madaniyatlar va olamni avaylash borasidagi qarama-qarshi fikrlarni ancha chuqur egallaganligini bayon etadi. Jumladan, Beruniy yunonlar, rumliklar, eroniylar, sug'diylar, xorazmliklar, qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha bo'lgan arablar va musulmonlarning vaqt o'lchovlari, yil hisoblari, hayitlari va muqaddas kunlarini ijtimoiy-tarixiy, madaniy va ma'rifiy jihatdan ancha chuqur o'rgangan. Bu insoniyat tarixini bevosita falsafiy o'rganish, mantiqiy xulocalar chiqarishga asos bo'lgan.

Beruniyning tarix falsafasi ayni ana shu turli xalqlar, mamlakatlar, mintaqalarda mavjud turmush tarzi orqali rivojlanish omillari, taraqqiyot yo'nalishlarini o'rganadi va tegishli xulosalar chiqaradi. Bu bevosita antropologiya, antropogenez, demografiya va etnografiya bilan bog'liq bo'lgan qomusiy tadqiqot usulini taqozo etadi.

Beruniy qadimgi xalqlar tarixi, ularning ma'naviy-madaniy yodgorliklari, ijtimoiy-axloqiy qarashlari xususidagi ushbu asarini qanday maqsadda yozganini quyidagicha ifoda etadi: «Adiblardan biri mendan (turli) xalqlar haqidagi tarixlar, ularning boshlanishlari va shoxobchalari, ya'ni oylar va yillari ustida u tarix egalarining ixtiloflari va bu ixtilof sabablari, mashhur bayramlar, (har xil) vaqtlar va yumushlar uchun belgilangan kunlar, millatlarning ba'zisi amal qilib, ba'zisi amal qilmaydigan boshqa (marosimlar) haqida so'radi va meni imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, o'quvchi fahmlaydigan, (turli) kitoblarni axtarish va shu kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qolmaydigan (bir asar yozishga) da'vat etdi».

### **Ibn Xaldunning tarix falsafasi (1332-1406)**

Sharq tarix falsafasini jiddiy ravishda rivojlantirgan, uni o'zining ilmiy qarashlari bilan birmuncha boyitgan, tarixga falsafiy yondashish usullarini



ishlab chiqqan yirik olimlardan biri Abdurahmon Muhammad Ibn Xaldundir.

Ibn Xaldun o'z davrining etuk mutafakkiri, faylasufi va tarixchisi sifatida o'zini namoyon etgan va «Valiuddin» unvonini olgan etuk shaxs edi. U yirik siyosiy arbob sifatida ham jamiyatni boshqarish, kishilik jamiyati ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish borasida etarli tajribaga ega bo'lgan va ayni paytda diniy hamda dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan allomadir.

Ibn Xaldun insoniyat tarixi, uning shakllanyshi, rivojlanish omillari va bosqichlari, inson va jamiyat, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etish borasida o'zining noyob qobiliyatini namoyon etgan va bu borada qator ilmiy-nazariy yutuqlarni qo'lga kiritgan olimdir.

Ibn Xaldun falsafasi tarix va sotsiologiya, insonshunoslik, falsafa hamda mantiq bilan qorishib ketgan. Shu bilan birga diniy tafakkurning dunyoviy tafakkur bilan uyg'unlashgan shakli sifatida dunyoga kelib, Sharqu G'arb tafakkur olamida o'ziga xos maktab yaratdi. Uning eng mashhur asarlaridan biri «Muqaddima» deb ataladi va bu asari bilan u tarixni anglash, tarixni tushunish, insoniyat tarixiy tajribalarini diniy va dunyoviy tafakkur orqali talqin etishning o'ziga xos uslubini yaratdi. U tarix haqida gapirar ekan, «Fanning ikki jihati bor. Birinchisi qadimgi mamlakatlar va davlatlar haqida hikoya etuvchi tashqi tomoni bo'lsa, ikkinchisi tadqiqotlarning birining tarixi va yangi fikrlarni kashf etish bo'lgan ichki tomonidir. Tarix Olam asoslari sababiyatini aniq izlaydigan fan. Bu voqealar va ularning sabablari haqvdagi chuqur ilm», deydi.

Ibn Xaldun ana shu tarzda tarixiy tadqiqotning umumiy va ichki jihatlari alohida e'tibor beradi. Ilmiy tahlilning tashqi tomoniga turli mamlakatlar, davlatlar, xalqlar, ularning boshidan kechirganlari, xullas, tarixiy voqeliklar kirsa, ichki tomoni bevosita ana shu voqeliklarni tafakkur elagidan o'tkazib, uning atrofida falsafiy fikr yuritib, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazib, mantiqiy xulosalar chiqarishdir. Ana shu jihatdan ham u tarixning ildizini falsafada ko'radi. Munosib falsafiy fikrlar, umumlashmalar, xulosalar chiqarishga chaqiradi va natijada tarixni falsafiy fanlar qatoriga qo'shadi.

Ibn Xaldun o'z davrining nodir tarixshunosi sifatida tarixnavislikdagi mavjud an'anaviy usullardagi kamchiliklar, nuqsonlar, jumladan, o'tmishni soxtalashtirish, chalkashtirish, voqeliklarni o'z manfaatlariga moslashtirib bayon etish kabi illatlarni keskin qoralaydi. Har bir millat va qavmning kelib chiqishi, ularning taraqqiy topish yo'llari, tarixiy rivojlanish manbalarini chuqur o'rganish millatning uygonishiga, o'z qadru qimmatini

bilishiga va istiqbol rejalarini aniqroq tuzishiga yordam berishini alohida ta'kidlaydi.

Tarixda adolat ustuvorligi, tarix haqiqati hamisha bosh mezon bo'lishi, har qanday voqea va hodisa tahlili to'g'ridan-to'g'ri munosabatni, odillik bilan yondashishni taqozo etishini muhim fazilat deb biladi. Tarix haqida asar yozar ekan, u o'zini tarixshunoslikka bo'lgan munosabatini va yondashish usulini quyidagicha bayon etadi: «Bu kitobni tuzish va boblarga bo'lishda men hali ma'lum bo'lmagan yo'ldan bordim, ajoyib yangi usul yaratdim, o'quvchi bo'lib o'tgan voqealarning sababini o'rganishdan foyda olsin uchun tarixiy-ijtimoiy voqealar va insoniyat jamiyati taraqqiyoti qonuniyatini sharhlab berdim», deydi.

Ibn Xaldunning ana shu «yangi usul»i tarixdagi bayonchilik, oshirib-toshirib yozishlar, safsatabozlik, xush ko'rmagan voqealarni keskin tanqid qilish kabi illatlarga nuqta qo'ydi. Tarixshunoslikning fan maqomini egallashiga doir o'ziga xos ilmiy-nazariy me'yorlarni yaratdi. Buni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

Birinchi, har qanday voqea va hodisalarning sababini o'rganish, uning mohiyatini ochish tarixiy voqelik mazmunini bilib olishga zamin yaratadi. Uning atrofida fikr yuritib, aqlni ishlatish, fikrlash, tafakkur qilish imkonini beradi.

Ikkinchi, Ibn Xaldun har qanday tarixiy voqelikka ijtimoiy tus beradi, ijtimoiy mohiyat qatlarini ochish orqali o'sha davr mohiyatiga, ijtimoiy-siyosiy muhitga, turmush tarziga baho beradi.

Uchinchi, «kishilik jamiyati taraqqiyoti qonuniyatlarini sharhlab berish» orqali davlat va jamiyat qurilishiga tegishli bo'lgan fanlar – huquqshunoslik, falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, mantiq singari fanlarning rivojlanishiga turtki berdi. Ana shu sharhlash orqali Ibn Xaldun aqliy takomil, fikriy rivojlanish yo'lini ochdi. Qachonki o'quvchi uning kitoblarini ko'zdan kechirar ekan, tarixiy voqeliklarni o'rganish bilan birga voqealar atrofida fikrlaydigan, unga munosabat bildiradigan, baholaydigan bo'lib qoladi. Bu esa ayni tarix falsafasining o'ziga xos ko'rinishi edi.

Ibn Xaldun tarixnavislikda mavjud bo'lgan xilma-xil rivoyatlardan, turli hikoyatlardan va afsonalardan foydalanishga chek qo'yib, real hayot va real jarayon tahliliga ko'proq e'tibor berish tamoyilini ilgari surdi va shu tarzda tarixnavislikning butunlay yangi yo'nalishini rivojlantirishga muhim hissa qo'shdi. Uning xulosalariga ko'ra tarix «...o'rganilish ob'ekti insoniyat jamiyati va odamlar jamoasi bo'lgan mustaqil fandır, uning faoliyat maydoni birin-ketin almashib keladigan voqealar sababi va vaziyatlar xususiyatlarini tushuntirishdir».

Ana shu tarzda Sharq tarix falsafasi shakllana bordi. Demak, tarixning tadqiqot ob'ekti bevosita kishilik jamiyati hisoblanadigan bo'ddi. Jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, voqeliklar, hukmron siyosat va boshqaruv usulining tahlili orqali ma'lum voqelik asoslari o'rganildi. Tadqiqotning bunday shakli tarix fani predmetiga aylantirildi. Natijada Ibn Xaldunning tadqiqot usuli va tarixnavislik uslubi ana shu tarzda ijtimoiy fanlar taraqqiyotini belgilaydigan muhim hodisaga aylandi.

Ibn Xaldun ilmiy faoliyatining va tarix falsafasining ahamiyati shugina emas. U inson va jamiyat, odam va olam, kishilik jamiyati tuzilishi, vujudga kelishi, shakllanishi va tanazzullari borasida o'ziga xos fikr yuritgan, o'ziga xos talqin etgan va o'ziga xos falsafiy mushohada yuritgan yirik shaxsdir. Ibn Xaldun yashagan davr hamda o'sha paytdagi mavjud musulmon madaniyati va falsafasi namoyandalari uning falsafasini rivojlantirishdi va davom ettirishdi.

Yana bir narsani alohida ta'kidlash kerakki, bugun tarix falsafasi, sotsiologiya, ijtimoiy falsafa borasida ilmiy maktab yaratgan G'arb olimlari o'z davriga xos sivilizatsiya nuqtai nazaridan yondashib, Sharq falsafasidan unumli foydalanishdi. Jumladan, Forobiy, Beruniy, Ar-Roziy, Abulhasan Movardiy, Nizomulmuluk, G'azzoliy, Ibn Bojja, Ibn Xaldun, Ibn Rushd va boshqalarning ilmiy merosini, falsafiy qarashlarini musulmon dunyosi xalqlariga nisbatan ancha chuqur o'rganishdi. Mahorat bilan o'zlashtirishdi va ularni yangi davr sivilizatsiyasi nuqtai nazaridan tartibga solishdi, yaxlit tizimini ishlab chiqib, yangicha ilmiy-nazariy uslub bilan ifodalab berishdi.

Ibn Xaldunning kishilik jamiyati qonuniyatlarini tadqiqot ishga qaratilgan asarlari, xususan «Muqaddima»si shundan dalolat beradiki, uni «Islom fikriy doiralarida, istibdod va despotizm tuzumining jamiyatshunosi deb atashimiz mumkin. ...Darhaqiqat, diqqat qilsa, fikr biddirsa arziydigan yangi tasavvur va talqinlarni taqdim etadi», deydi Sayyid Muhammad Hotamiy.

Ibn Xaldun jahon tarixini o'rganar ekan, madaniyatlar, sivilizatsiyalarning yuzaga kelishi, madaniyatlararo integratsiya va jahon hamjamiyatining umumiy taraqqiyoti qonuniyatlarini o'ziga xos tarzda tadqiq etadi. Turli madaniyatlarning vujudga kelishi, ko'chmanchi xalqlarni, kichik etnoslar va millatlarni bir-biriga qo'shib yuborish natijasida kelib chiqadigan integratsiyalashuvning salbiy oqibatlarini aniq ko'rsatadi va har qanday kichik madaniyatlar «madaniy integratsiya» oqibatida katta xalqlarga madaniy tobelik orqali yo'q bo'lib ketishi mumkinligi kabi og'riqli g'oyalarni ilgari suradi. Asrlar o'tib V. Shmit, O.Mengen, V. Koppers, A. Toynbi kabi Yevropa falsafasi namoyandalari

ayni ana shu g'oyani ilgari surdilar va Ibn Xaldun nazariyasi tarixiy haqiqat ekanligini ko'rsatdilar.

Ibn Xaldun tarix falsafasining biz sharqliklar uchun yoqimli bo'lgan va ayni paytda katta ruh, rag'bat, kelajakka ishonch, buyuk istiqbolga imon keltirishga da'vat etadigan yana bir g'oyasi borki, nazarimizda buni alohida ta'kidlash zarur: u bir joyda «dunyoda ikki millat hokim bo'lishga yaratilgandir: biri arablar, boshqasi turklar» desa, boshqa bir joyda «Temur davri bashariyat tarixi inkishofining eng yuksak nuqtasidir. Dunyo yaratilganidan beri bunday bir davlat qurilmagandir. Bobil va Eron hukmdorlari va Iskandar bu buyuk turk hukmdoriga nisbatan ko'laga bo'lib qoladi. Zero, davlat asabiya ruhi ustiga quriladi va uning ahamiyati ham shu milliy asabiyatning qudrati darajasida bo'ladi. Asabiya xususida esa dunyoda hech bir millat turklarga teng kelolmaydi», deydi.

### **To'g'on va Sharq tarix falsafasi**

Sharqda tarixni o'rganishning asosan ikki yo'nalishi mavjud. Bu bevosita tabiat, tabiiy hodisalar, olamning yaralishi bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlar, ikkinchisi esa insonning dunyoga kelishi, insoniyat tarixi bilan bog'liq bo'lgan kishilik hayotining vujudga kelishi, insoniyat tarixiy-tadrijiy rivojining bosqichlari, mohiyati, mazmunini qamrab olgan tarixiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy hamda ularning barchasini o'ziga mujassam etgan mantiqiy tahlil va tadqiq tashkil etadi.

Har bir tarixchi o'z davri ijtimoiy tuzumi, uning mazmuni va qadriyatlari nuqtai-nazaridan o'tmishga yondashadi va ana shu qarashlar hamda ehtiyojlar asosida tarixiy taraqqiyotga baho beradi. Biroq tarixiy jarayonlarga, ma'lum voqea-hodisalarga ichki va tashqi ta'sir – jamiyat ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy asoslari va tabiiy hodisalar mohiyati, ular ta'sirida kelib chiqqan real voqelik o'zaro bog'liqlikka tadqiq etilmog'i lozim. Chunki uning zamirida tabiiy va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning butun mohiyati har ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham atoqli tarixshunos Ahmad Zaki Validiy o'zining «Tarixda usul» nomli kitobida «o'z hayotimizni tadqiq etar ekanmiz, ko'ramizki, bizning butun borlig'imiz asosan ikki narsaga bog'liqdir. Bir tomondan ehtiyojlarimizga muvofiq keluvchi yoki ularga ters keluvchi tashqi ahvol, shart-sharoitlar, boshqa tomondan esa shaxsiy xohish-istaklarimiz mavjud. Jamiyat ham xuddi shunday mavjuddir. Umumiy shart-sharoit, masalan, zilzilalar, osmondan yog'ladigan har xil ofatlar, urushlar va vabolar, iqlimning o'zgarib ketishi kabi tabiiy hodisalar bilan birga alohida individual guruhiiy istak insoniyatning ichki ta'sir quvvatlari insonlar borlig'ida qat'iy ta'sir ko'rsatuvchi omillar vazifasini o'taydi», deb yozadi.

Insoniyat taraqqiyotida va kishilik jamiyati rivojlanishida tashqi ta'sir – tabiiy ofatlar, turli yuqumli kasalliklar, urushlar va ommaviy qirg'inlar qanchalik kuchli ta'sir etsa, ichki mohiyati bilan ma'lum bir ijtimoiy guruh, siyosiy manfaatlar o'rtasidagi ziddiyatlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Bular esa bevosita tarixda insonning o'rni, roli, maqsad va intilishlari, orzu va umidlarining ifodasi sifatida o'zini namoyon etadi. Ba'zi holatlarda ayrim shaxslar favqulodda voqelik mohiyatiga ega bo'ladilar. Natijada ular daholar, ulug' sarkardalar, payg'ambarlar timsolida mavjud ijtimoiy tuzumni keskin o'zgartirib yuboradilar. O'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy me'yorlarni o'rnatishadi. Ana shu tarzda «Tarix insoniyatning go'yoki bir tarjimai holi va ruhiyati»ning ifodasi sifatida dunyoga keladi.

Ahmad Zaki Validiy To'g'on insoniyat tarixini o'rganish va tarix falsafasining nazariy-metodologik jihatlarini ishlab chiqar ekan, quyidagi tamoyillarni ilgari suradi:

–tarixning teokratik va dualistik talqini; –tarixni materialistik tushunish; –tarixning pozitivistik talqini; –tarixni idealistik tushunish; — tarixni ekspressionistik talqini; –tarixning gumanistik talqini va hokazolar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Sharq tarix falsafasi metodologiyasining o'ziga xos jihatlari mavjud. Bu bevosita tarixiy haqiqat, real voqelik bilan birga mavjud bo'lgan afsonalar, rivoyatlarning uyg'unlashib ketishi kabi holatlardan o'tmishni tarixiy, falsafiy, mantiqiy tushunishning ilk va noyob tajribasi sifatida dunyoga kelgan qarashlardir. Bu davrda tarix juda katta shavqu shuur, quvvai hofizani talab etadigan yuksak badiiy tasvirlar, obrazlar, o'xshatishlar bilan ifoda etilgan jozibador va hayajonli tarixiy-badiiy uslubni tashkil etadi. Ba'zi bir tarixiy asarlarda tarixiy shaxslar, payg'ambarlar, sarkardalar, sipohdorlar, podshohlar fe'l-atvori, xarakter belgilari, jang holatlari tasvirlari yuksak badiiy mahorat bilan bayon etiladi (Masalan, Firdavsiyning «Shohnoma», Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo», «Tarixi mulki Ajam», Boburning «Boburnoma»; Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» asarlari, turli sayohatnomalar va boshqalar). Ayni ana shu san'atning o'zida etnografiya, antropologiya, sotsiologiya, falsafa, mantiq, siyosatshunoslik va boshqa fanlar yo'nalishlariga xos bo'lgan qarashlar ham uyg'un holda o'z aksini topganki, bu tarixni o'rganishda, voqealar mohiyatini anglashda beqiyos shavqu zavq, ajdodlar hayotiga katta qiziqish va hayajon bilan qarash, ular turmush tarzi, dunyoqarashi va an'analariga katga ehtiyoj sezishga olib kelgan.

Ahmad Zaki Validiy To'g'on Sharq tarix falsafasining dunyoga kelishi, uning rivojlanish omillari va tadrijiy taraqqiyoti xususida fikr yuritar ekan,

ulug' islomshunos mutafakkirlardan biri Ibn Miskavayxning ilmiy qarashlariga mufassal to'xtaydi va uning «Davlat idorasi, davrning ruhiyati, millatlarning uyg'onishi va inqirozlarning sabablari kabi masalalarni ichki bir aloqadorlik bilan tushuntirgan, o'rni kelganda ularni oydinlashtirishga jur'at qilgan» buyuk muarrix sifatida baholaydi. Demak, Sharq tarixshunosligi va tarix falsafasida davlat, jamiyat, boshqaruv va inson tushunchalari atrofidagi mulohazalar, mushohada va ilmiy muhokamalar ancha ilgari vujudga kelgan va G'arb tarixiy tafakkurining shakllanishida, tarix falsafasi predmeti hamda metodologiyasining yangi sivilizatsiyaviy davr talablari darajasiga ko'tarilishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

Ahmad Zaki Validiy To'g'on islom olami tarixshunosligi va tarix falsafasi predmeti, uning metodologiyasi, o'rganish usullari va uslublari, tadqiqot ob'ekti va sub'ekti xususida fikr yuritar ekan, qator Sharq allomalari ilmiy merosini chuqur o'rganganini ko'rsatadi.

Ahmad Zaki Validiy To'g'onning tarix falsafasini yaratishdagi ilmiy qadriyati shundaki, u Turkiston tarixiga doir turli qarama-qarshi, ziddiyatli g'oyalarga aniqlik kiritdi. Zotan, Turkistonning boy madaniyati va ulkan sivilizatsiyaviy taraqqiyotiga turli manfaatlar orqali qarash, boshqacha qilib aytganda, uni talon-toroj qilish, har kim o'zining mulkiga aylantirish tendentsiyasi hukumronlik qilar edi. Jumladan, kimlardir yevropaparastlik, g'arbparastlik, yana kimlardir slavyanparastlik, boshqa birovlar esa eronparastlik manfaatlari nuqtai nazaridan yondashib, qadimiy Turkiston madaniyatiga egalik qilish da'volari bilan yashardilar. Vaholanki, Turkiston azal-abaddan yaxlit makon hisoblangan. Turkiston xalqlari tarixi insoniyat tarixi bilan tengdosh, jahon tarixining ibtidosi bilan hamohang ravishda rivojlangan va umuman insoniyat hayotiga madaniyat olib kirgan buyuk tarix va mo''jizaviy qadriyatdir.

Turkiston xalqi o'z hududi doirasida insonning ilk paydo bo'lishi, jamoachilikning boshlanishi, ma'lum jamiyat qiyofasiga ega bo'lgan ijtimoiy hayot tarzidan boshlab bugungi sivilizatsiyaviy darajagacha bo'lgan noyob, o'ziga xos, jozibador va ayni paytda nihoyatda iztirobli, ziddiyatli, keskin vayrongarliklar va buyuk kashfiyotlar, sevinchu iztiroblarni o'zida mujassam etgan yaxlit tarihdir. Ahmad Zaki Validiy To'g'on Turkiston tarixiga ana shunday yondashadi va uni butun buyukligiyu fojialari bilan yaxlit holda tadqiq etadi.

Ahmad Zaki Validiy To'g'on tarix fani taraqqiyotini tor doirada tushunmadi. U tarix mantig'ini izlashda manbashunoslik, tarixiy tilshunoslik, arxeologiya, etnografiya, poleontologiya, epigrafiya, numizmatika, sotsiologiya, falsafa va mantiq fanlarining umumiy talablari

va metodologik asoslari orqali o'rgandi. Tarixni anglash va tushunishda bu juda ulkan va o'ziga xos, ilmiy-nazariy jihatdan progressiv hodisa edi.

**Savollar:**

1. Musulmon tarix teologiyasining tavsifiy xususiyatlarini ayting.
2. Dunyo va insonning yaratilishi to'g'risidagi ta'limotlar.
3. Abu Nasr-al-Farobiyning ijtimoiy – siyosiy qarashlari tushuntirib bering.
4. Ijtimoiy hayotning turlari, shakllari, kelib chiqishi va o'rganilishi.
5. Ibn-Xaldun va uning ijtimoiy taraqqiyot nazariyasini aytib bering.
6. Davlat: paydo bo'lish va chetlashish.

## UYG‘ONISH DAVRINING TARIX FALSAFASI. XIV-XVI ASRLAR

G‘arbiy Yevropada Uyg‘onish davri deb atalgan davr XIV -XV asrlarni o‘z ichiga qamrab olgan va Yevropa madaniyatining eng buyuk davri deb hisoblanadi. Bu davr olamga Nikolay Kuzanskiy, Mishel Monten, Leonardo da Vilgi, Dj. Bruno, va ko‘pgina boshqa buyuk mutafakkirlar va daholarni berdi.

Falsafa tarixida Uyg‘onish davrining ahamiyati mavzusida mashhur rus tadqiqotchisi Gorfunkel quyoshdagi fikrlarni bayon etadi. Uning fikricha Gegel va Vindelband bu davrni o‘rta asr sxolastik falsafasidan G‘arbiy Yevropaning yangi davr falsafasiga o‘tish davri deb hisoblaydilar va faqat uyg‘onishga xos bo‘lgan maxsus xususiyatlar va buyuk kashfiyotlar haqida batafsil to‘xtab o‘tmaydilar. Mashhur ingliz faylasufi B.Rassel esa uyg‘onish davri falsafasini o‘rta asr metafizik naturfalsafa deb hisoblaydi va naturfalsafaga xos bo‘lgan fantastik dunyoqarash elementlarini tanqid qilib o‘tadi. Rassel fikricha Spinoza, Leybnits, Dekart ta‘limotidagi ilmiy qarashlar, yangi davr falsafasiga asos solgan va bu falsafa uyg‘onishning naturfalsafiy qarashlaridan ko‘ra katta ahamiyatga ega.

Gorfunkel Garen, Ch Vazzoli asarlarida uyg‘onish davri falsafasi G‘arbiy Yevropada yangi kapitalistik ijtimoiy-siyosiy tuzumning boshlanish davri deb hisoblanadi va tuzum o‘tlidagi feodal monarxiyalarga qattiq zarba bergan yangi iqtisodiy munosabatlarni yuzaga keltirgan madaniyat va ma‘rifatni antik davr madaniyatiga o‘xshash bo‘lgan xususiyatlarini yuzaga keltirgan.

Uyg‘onish davrining buyuk geografik astrnomik, matematik kashfiyotlari bu davrda sayyohatchilar tomonidan yangi erlarning ochilishi falsafiy dunyoqarash doiralarini benihoya kengaytirdi. Natijada bu davrning faylasuflari entsiklopedik bilimlarga ega bo‘lgan olimlarga aylanishdi. Badiiy adabiyot, san‘at, haykaltarshlikning rivojlanishi esa badiiy obrazli fikr yuritishga birinchi darajali ahamiyat berdi.

Uyg‘onish davri falsafasining markazida inson va koinot masalalari yotadi. Inson koinotni o‘z ichiga jamlagani inson-mikrokosmos tushunchasida ifoda etadi. Uyg‘onish davri falsafasi birinchi darajali ahamiyatni inson masalasiga qaratdi va bu masalani insonning tabiatda egallagan o‘rni va insonni tabiatga bo‘lgan ta‘siri bilan bog‘ladi.

Bundan tashqari Uyg‘onish davrida astrologiya va magiya ham rivoj topdi.



Buni biz N. Kuzanskiy va J. Bruno falsafiy qarashlarida ko‘rishimiz mumkin.

Uyg‘onish deb nomlangan davr o‘rta asrlarda unutilgan antik falsafiy va madaniy merosni qaytadan yuzaga keltirdi. Italiya shaharlarida neoplatonik, aristotelik va platonik ta‘limotlarni Mandzolli, Fichino Papponadi, Bruno ta‘limotlarida uchratishimiz mumkin.

Uyg‘onish davri falsafasi panteistik tusga ega, ya‘ni tabiat **puxatlantiriladi** va tabiatda xudo tajalli etadi deb hisoblanadi. Bunday qarash tabiatni ilohiy va muqaddas kuchga aylantiradi.

Kuzanskiy, Bruno, Mandzolle, Yakob Byome ta‘limotlarida panteistik qarashlari bilan bir qatorda astrologiya va magiya bilimlariga xos bo‘lgan elementlar mavjuddir. XX asrning oxirida falsafasida inson masalasi yana dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Uyg‘onish davri, Renessans – Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy (9-12 va 15-asrlar), G‘arbiy Yevropada yuz bergan alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri. “Renessans” atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma‘naviy yuksalish (14– 16-a.lar)ga nisbatan qo‘llanilgan, uni o‘rta asrchilik turg‘unligidan yangi davrga o‘tish bosqichi deb baholaganlar. Renessansning asosiy alomatlari: tafakkurda va ilmu ijodda dogmatizm, jaholat va mutaassiblikni yorib o‘tib, insonni ulug‘lash, uning iste‘dodi, aqliy-fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish; antik davr (yunon-rum) madaniyatiga qaytib, uni tiklash, boyitish; cherkov sxolastikasidan qutulib, adabiyot va san‘atda dunyoviy go‘zallik, hayot taronalarini qizg‘in kuylash; inson erki, hurfikrlilik uchun kurashish. Buning natijasi o‘laroq, ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyish etadigan ulug‘vor badiiy asarlar, salobatli binolar yaratildi, ilm-fan rivojlandi. Italiyada shoir Petrarka va Dante, rassom Jotto, adib va mutafakkirlar Bokkachcho, Ariosto, Tasso, Byome Renessans g‘oyalarining jarchilari bo‘lib maydonga chiqdilar. Keyinchalik Mikelanjelo, Rafael, Shekspir, Servantes Yevropaning turli mamlakatlarida buni davom ettirdilar.

Ammo Renessans, ya‘ni Uyg‘onish faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o‘rgangan olimlarning ishlari shuni ko‘rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (9– 12-a.lar) ulkan madaniy ko‘tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg‘or insonparvarlik g‘oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida “Musulmon Renessansi” (A. Mets) yoki “Sharq Uyg‘onishi” (N. I. Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. Sharq uyg‘onish davrida Yevropa uyg‘onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo‘shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani,

aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning yaratilgani shundan dalolat beradi.

Eron va Markaziy Osiyo xalqlari bir necha ming yillik sivilizatsiya tarixiga ega. Zotan, qadimiyati, qadimgi davlatchiligi bo'lmagan xalqda uyg'onish davri ham bo'lmaydi. Markaziy Osiyoda 9–13 asrlarda o'z xalqining qadimiyatiga qaytish, Avesto falsafasini Qur'on ma'rifati bilan uyg'unlashtirib, qayta tiklashga intilish tasavvuf ta'limoti, "ishroq" falsafasida namoyon bo'lgan. Shu asosda turli nazariyalar, ta'limotlar yuzaga kelib, fikriy xilma-xillik rivojlandi. Tasavvufiy orifona ta'limotning qaror topishi, tariqatlar ham, aslida, hurfikrlik va inson kamolotiga bo'lgan ishonchning nishonasi edi. uyg'onish davri vakillari dinga emas, balki dinni sxolastika va jaholat manbaiga aylantirgan kishilarga qarshi kurashganlar.

Tafakkurdagi ikki: aqliy (ratsionalizm) va vajdiy (irratsionalizm) yo'nalish namoyandalari zohiran o'zaro kelishmay kelgan bo'lsalarda, amalda Yevropa uyg'onish davrida bo'lganidek, inson ongini bedor etish, uni aqidaparastlik (taqlidchilik) g'uboridan tozalashda hamkorlik qildilar. Shu bois hurfikrli mutafakkirlar orasida ratsionalist olimlar bilan birga, orif sufiylar ham bor edi.

Sharq uyg'onish davri vakillari o'z xalqlarining qadimgi madaniyat bilan birga, yunon va hind xalqlari merosidan ham foydalanishgan. Yunon olimlarining asarlari 8–9-asrlarda arab tiliga tarjima qilindi, sharhlandi. Aflotun, Arastuni Sharq faylasuflari ham o'z ustozlari deb hisoblashgan, Plotin qarashlari Ibn al-Arabiya ta'sir etib, "vahdatul vujud" falsafasiga turtki berdi. Biroq yunonlar ko'p fikrlarni qadimgi osiyoliklardan olganlar. Bu tarix qonuniyati: Abu Rayhon Beruniyning "Kitob at-tafhim li avoil sinoat attanjim" asari qo'lyozmasi (13 asr) yuksalishga shaylangan xalq o'z madaniyati va o'zigacha yaratilgan bashariy yutuqlarni o'zlashtirib, yana yuksaklikka ko'tariladi.

Sharq uyg'onish davri keng ko'lamlil: ta'lim va tahlil, madrasa-maorif rivojlangan, ulkan kutubxonalarda yuz minglab jild kitoblar yig'ilgan, "xazinat ul-hikma", "dor ul-ulum"larda tolibi ilmlar, ustoz-shogirdlar suhbatlari bardavom edi, olimning obro'-e'tibori yuksak qadrlandi. Sharq uyg'onish davri yutuqlari G'arbiy Yevropadagi uyg'onish davriga bevosita ta'sir etgan. Chunki 12–14-asrlarda musulmon olami bilan Yevropa davlatlari orasida aloqa kuchaygan edi. Ayniqsa, tutash chegara mamlakatlari: Qurdoba (Ispaniya), Kavkaz, Bolqon yarim orolida bu jarayon kuchli bo'lgan. Yevropaliklar Sharq olimlarining asarlarini lotin, ispan, yahudiy tillariga qilingan tarjimalar orqali yoxud bevosita arab tilida o'qib o'rganganlar. Ibn Sinoning "Tib qonunlari", "Ash-Shifo", Forobiyning "Ilmlar tasnifi", Ahmad Farg'oniyning "Samo harakatlari va

yulduzlar ilmining jami kitobi”, Muhammad Muso Xorazmiyning “Aljabr val muqobila”, Ibn Rushd, Abu Bakr Roziy asarlari tarjima qilinib, keyinchalik nashr etilgan. Algebra, algoritm fanlari Xorazmiy asarlari tufayli shakllangan. “Tib qonunlari” 7 asr mobaynida Yevropa universitetlarida tibbiyot darsligi sifatida xizmat qildi. Ibn Sino shogirdi Ibn Rushd g‘oyalari Italiya, Frantsiya hurfikrligini boshlab bergan. Ibn Sino – Avitsenna, Ibn Rushd – Averroes, Ahmad Farg‘oniy – Al Frageni, Abu Bakr Roziy

– Al Ramzats, Abu Ma’shar Balxiy – Albumazar degan lotincha nomlar ostida mashhur bo‘lgan. “O’sha paytda (13–16-a.) jaholat changalidagi Yevropaning ko‘pgina qismida musulmonlar ilm charog‘ini yoqdilar...; ispanlar yozuvi ham, shimoliy oramiy yozuvi ham Osiyodan olingan; shimoliy, g‘arbiy va sharqiy Yevropa madaniyati yunon – rumo – arab urug‘idan unib chiqqandir” (G.Gerder). Platon, Aristotel asarlari ham Yevropaga dastlab arabcha tarjima va talqinlar orqali kirib borgan. “Sharqliklar G‘arbni Aristotel falsafasi bilan yoritdilar” (Gegel).

Aniq fanlar va ularni o‘rganish usullarini, dehqonchilik va chorvachilik ilmlari, dengizda suzish, harbiy texnikani Yevropa sharqdan olib rivojlantirdi. “Matematika, kimyo, tibbiyot sohasida musulmonlarning xizmati buyuk... bu fanlarda musulmonlar Yevropaning muallimlari bo‘lib qoldilar” (G. Gerder). Yevropa uyg‘onish davri adiblari Dante, Petrarka, Bokkacho Sharq ilm-fani, adabiy asarlaridan ilhomlanganlar. Dante “Bazm”, “Ilohiy komediya” asarlarida Ibn Sino va Ibn Rushdni o‘z ustozlari qatorida ehtirom bilan tilga oladi. Ahmad Farg‘oniy asarlaridan foydalanganini qayd etadi. K. Marloning “Buyuk Temur” dramasida Amir Temur jasur, xaloskor inson sifatida tasvirlangan.

### **Nikolay Kuzanskiy**

Nikolay Kuzanskiy (1401-1464) Prir eparxiyasining Kuza deb nomlangan qishlog‘ida Germaniyada tug‘iladi. Uning otasi baliq savdosi bilan shug‘ullangan boy savdogar edi. O‘zining ilk ma‘lumotini Deventer shahridagi “umumiy hayot birodarlari” maktabida oladi. Bu maktab diniy tusga ega bo‘lib, Iso payg‘ambarning hayotiga taqlid qilar edi. Birodarlarning mistik dunyoqarashi yosh Nikolay Kuzanskiy fikrlariga katta ta’sir ko‘rsatdi va uni sxolastik ratsional qarashlarida uzoqlashtirdi. Keyingi ma‘lumotini u Geydelberg va Paduya universitetlarida davom ettiradi va bu erda kanonip ilmining doktori unvonini oladi, keyinroq u Keln Universitetida o‘qiydi va bu erda buyuk Albert tarafdorlari bilan yaqin munosabatlarla bo‘ladi. Nihoyatda iqtidorli olim bo‘lganligi uchun u diniy muhitda katta obro‘ qozonadi va yosh bo‘lishiga qaramay kardinool

unvonini oladi. Kuzanskiyning diniy faoliyatda nihoyatda har taraflama bo‘lgan. U katolik cherkovini kuchaytirishda ko‘p xizmat qildi, gusidlar bilan muzokaralar olib bordi pravoslav cherkovini katolik cherkovi bilan yaqinlashtirishga harakat qildi. Papa Piy II ning unga bo‘lgan do‘stona munosabati Nikolay Kuzanskiyning faoliyatida va mansabining yuqoriligida yordam berdi. Nikolay Kuzanskiy o‘zining faol diniy harakatlari bilan bir qatorda ilm sohasida ham shuhrat qozondi. Nikolay Kuzanskiyning dunyoqarishga Dionsiy Arepagit, Miyster Ekkart, Shartr maktabining platoniklari, Ioann Skott Eriugen kabi buyuk mistik mutafakkirlar kuchli ta’siri etadilar. Buning natijasida Nikolay Kuzanskiy sxolastikaga xos bo‘lgan ratsional falsafiy qarashlarga tanqidiy yondoshadi va o‘zining original neplatonik falsafiy sistemasini yaratadi.

Nikolay Kuzanskiy o‘z davrining mashhur gumanistlari Eni-Silvie Pikkolomini, Lorentso Valla, Ambrod jo Traversari, Paolo Poskanellilar bilan do‘stona munosabatda bo‘lgan. Uning antik madaniyatga qiziqishi ham, aynan shu gumanistlarning ta’siri natijasida bo‘ldi.

### **“Bilimdon bilimsizlik”**

Kuzanskiy falsafasining markazida xudoning borliqdagi o‘rni masalasi egallaydi. Bu masalani hal qilishda Kuzanskiy barcha oldingi sxolastik qarashlardan tubdan farq qiladi.

Kuzanskiy ta’limotida xudo cheksiz yaratuvchi kuchdir. U butun olamlarni yaratadi, va olamning ichida yashiringan, ya’ni olam va xudo yagona bir borliqdir. Lekin xudoning olamidagi borlig‘i pardalangan yashirindir va barcha narsalarning mohiyatini tashkil etadi. U xristian diniga xos bo‘lgan xudoni uch qiyofada ko‘rinishini tanqid qiladi va xudoni ko‘proq ruhiy qudrat tabiatda yashiringan muqaddas ruh sifatida tushunadi. U xudoni cheksiz qudrat manbasi deb hisoblaydi va tabiatdagi barcha mavjudotlarda va tabiiy hodisalarda muqaddas ruhning tajallisini ko‘radi. Bunday panteistik qarashlar Nikolay Kuzanskiyning yangicha dialektik fikr yuritishga olib keldi. Nikolay Kuzanskiyning xudo haqida qarashlari dialektik fikrlar bilan sug‘orilgan va bilimdon-bilimsizlik tushunchasida Kuzanskiy tomonidan aniq va ravshan ochiladi.

Xudoning tabiatdagi oddiy ratsional fikr yuritish qolipiga sig‘maydi. U mistik e’tiqod, Ollohga bo‘lgan mistik ishonch orqali ochiladi. Bunday e’tiqod har qanday mantiqiy fikr yuritishdan xolidir va uni tushunish uchun biz Kuzanskiy ta’limotidagi dialektik tushunchalarni o‘rganishga o‘tamiz.

### **Cheksizlik muammosi va kosmologiya**

Olohning mavjudligi yashirin imkoniyatlarning ochilishi jarayonida sodir bo‘ladi. Bu imkoniyatlar esa cheksizdir. Shuning uchun olamning cheksizligi aslida Olohning borlig‘ida yashiringan imkoniyatlarning cheksizligidan kelib chiqadi. Bu imkoniyatlarning ochilishi yaratish jarayonini tashkil etadi. Natijada koinot doimiy cheksiz o‘zgarish va rivojlanish jarayonidir. Demak, xudoning yashiringan qiyofasining ochilishi, olamning yaratilishi va tuzilishiga sababdir. Koinotdagi barcha hodisalar va narsalar mohiyatida xudoning qiyofalarini ko‘rish mumkindir. Bu qiyofalar o‘zgaruvchan bir-biriga o‘tib turadigan niqob ostidagi Olohning jamolidir.

### **Inson tabiati**

Inson tabiati Olohning eng buyuk yaratgan borlig‘idir. Insonning tabiatida koinotdagi barcha ... jonzotlar birlashadi va yagona borliqni tashkil etadi. Shuning uchun insonning tabiatida Olohning yagona borlig‘i mavjuddir. Lekin bu yagona borliq inson tabiatida yashiringan va ayrim insonlarda bu yagona borliqning faqat bir qismi ochiladi. Olohning borligi va mavjudligi butun odamzotning borlig‘ida mavjuddir. Butun odamzotning borlig‘ini ya’ni uning zotini o‘z ichiga qamrab olgan shaxs ilohiy odamdur. Bu ilohiy odamni xristian dini tilida Nikolay Kuzanskiy xudoning o‘g‘li ya’ni mutloq ruhdan yaratilgan Iso Masih deb hisoblaydi. Iso Masihning borlig‘ida Olohning nurli siymosi tajalli etadi va u butun olamni o‘z ichiga jamlaydi. Iso Masihning tabiati ilohiy tabiatdir va u butun borliq koinot bilan qo‘shilib ketadi. Borliqning har bir nuqtasida Iso Masih mavjuddir va Iso Masihning ichida butun borliq mavjuddir. Ayrim odamlarning tabiati esa bu yagona borliqning faqat bir qirrasini aks ettiradi. Lekin har bir insonda cheksiz rivojlanish imkoniyatlari mavjuddir.

### **Florentsiyaning Platon akademiyasi**

O‘rta asrlarda Platonning ijodi nihoyatda kam ma’lum bo‘lgan. Bular asosan “Piliy” “Fedon” va “Menon” kabi dialoglar bo‘lgan edi. Uyg‘onish davrida antik madaniy meros qaytadan kashf etildi va ma’lum bo‘lmagan ko‘pgina asarlar tarjima qilina boshladi. Endi bu asarlarning estetik, siyosiy va badiiy tomonlariga ham katta e’tibor berilar edi. Florentsiyalik mashhur mutafakkir Marseleo Fichino butun e’tiborini Platon ijodiga qaratdi va o‘z atrofidagi shogirdlari bilan birgalikda yirik akademiyaga asos soldi. Marsello Fichino Filiino (Toskana) da 1433 yilda tug‘iladi. Boshlang‘ich ta’limni Florentsiya va Piza shahrida olgan edi.

Fichino yosh paytidayoq antik merosga bo'lgan zo'r qiziqishi bilan barcha odamlarni hayratga soldi. Florentsiyaning mashhur hokimi Kozimo Medichi ham nihoyatda Fichinoga e'tibor berdi va o'ziga yaqinlashtirdi. Fichino bilan hamsuhbat bo'lishi uchun unga o'zining villalaridan birini sovg'a qildi va grek kodeksi deb nomlangan Platon ijodiga mansub barcha kitoblarni sovg'a qildi.

Fichinoning mehnatkashligi va serg'ayratligi tufayli Florentsiyaning yaqinidagi Koredjo shahrida joylashgan uning villasi nafaqat Italiya balki Yevropaning ham yirik antik merosni o'rganuvchi markazlaridan biriga aylanadi.

Fichino atrofida yig'ilgan uning hamfikrlari, shogirdlari, do'stlari va homiylari o'sha davrda Platon Akademiyasi nomi bilan mashhur bo'ldilar. Bu Akademiya erkin jamoa bo'lib, hech qanday Universitet yoki cherkov qoshida bo'lmagan. U erkin fikr yurituvchilarning hamjihatligi bo'lib, ular xuddi Platon davridagi Akademiyaga o'xshashar edi. Bu erda yig'ilgan erkin fikr yurituvchi olimlar, tarjimonlar va hokazolar bog'ni aylangan payt suhbat qurishar, bir-biri bilan fikr almashishar va Platon ruhiyatiga yaqin bo'lgan dialoglarda qatnashishar edi. 1468 yil 7 noyabrda bu akademiya dargohida Platon tavalludiga bag'ishlangan katta yig'in o'tkazildi.

### **Fichino asarlari**

Ko'p yillar davomida Fichino Platon asarlari va neoplatonizmga tegishli bo'lgan kitoblarni tarjima qilib bordi. U ayniqsa Germetik traktat deb atalishi Pifagor va Platon maktablariga mansub bo'lgan faylasuflarning kitoblarini ham tarjima qildi, ham chuqur o'rgandi. Germest Tristligist nomi bilan mashhur bo'lgan qadimgi yunon taraktati eramizning II va III asrlarida neoplatonizm oqimiga asos sodldi va Platon ruhiyatidagi xristian diniy oqimlarini ham yuzaga keltirdi.

1460 yillarda Fichino Platonning barcha ma'lum bo'lgan asarlarini tarjima qilib bo'ldi. Bundan tashqari u Prokl Yamvli, Porfirii, Plotin ijodiga mansub bo'lgan ko'pgina traktatlarni ham tarjima qildi. XII asrda Yevropada mashhur bo'lgan vizantiyalik neoplatonik faylasuf Mixail Panni ham aynan Fichino tarjima qilgan edi. Fichinoning qalamiga mansub bo'lgan ko'pgina asarlar ham o'sha davrda chiqa boshladi. Bular: Platonning "Pir" asariga tahlil (1469), "Jonning abadiyligiga bag'ishlangan Platonning diniy qarashlari" (1469-1474, nashrga chiqqan yili 1482 yil), "Xristian dini haqida" (1474 hayot haqida 1489) "Xabarlar" deb nom olgan kichik asarlar to'plami (1495).

### **Neoplatonizm ijodini renessans ruhiyatida qayta ishlab chiqish**

Marsello Fichino Katolitsizm diniga mansub bo'lgan chin dildan xristian diniga ishonuvchi faylasuf bo'lgan. Shunga qaramay u sxolastik diniy qarashlar o'rniga Platon va neoplatonizm davriga mansub bo'lgan falsafiy g'oyalarni qo'yadi. Bu g'oyalar asosi xudo va tabiat, xudo va inson, jonning abadiyligi, ruhiy muhabbat mavzulari edi. Sxolastik diniy dunyoqarashga xudoni dunyodan tabiatdan va insondan o'tib bo'lmas to'siq bilan ajratish xos bo'lgan. Bu qarashlarga binoan xudo dunyoni yaratadi. Lekin keyinchalik unga aralashmaydi, chetdan kuzatadi. Fichino aynan shu qarashlarga qarshi chiqadi. Uyg'onish davri falsafasi va ayniqsa Fichinoning qarashlarida xudo bilan olamning aloqasi birlikdan ko'plikka o'tishga va bundagi aloqalarga o'xshaydi. Xudo va dunyo masalasida Marsello Fichino xuddi Nikolay Kuzanskiy va Pikodela Mirondolaga o'xshab, koinotda xudo va uning yaratgan olami yagona birlikni tashkil etadi deb hisoblaydi.

### **Ierarxiya va birlik**

Fichino qarashlariga binoan butun olam pog'onama-pog'ona tashkil topgan va bu pog'onalardagi quyidagi bosqichlar yuqoriga intiladi, bu pog'onalarning barchasi ilohiy, ruhiy qudrat tomonidan boshqariladi. Eng yuqori pog'onadagi ruhiy kuch asta-sekin pastga tarqaladi. Olamni Fichino besh pog'onasini ajratadi. Eng yuqori pog'ona bu xudodir. Keyingi pog'onlar "Farishtalar", "jon", "sifat" va nihoyat "materiya" yoki vaznga ega bo'lgan modda.

Fichinoning Platon diniy qarashlari deb nomlangan asarida xudo va dunyo bir-biridan ajralmas birlik va ko'plik aloqalari bilan bog'liqligi ko'rsatishadi. Eng oliy pog'onadan Ollohning nuri butun dunyoga tarqaladi va dunyodagi barcha jonzotlarda Ollohning nuri mavjuddir. Bu nur orqali Olloh ham erda ham mavjullir.

Fichino qarashlariga mistik ruhiyatdagi panteizm xos bo'lgan. Xudo dunyoda tajalli etmaydi dunyo xudoda tajalli etadi ya'ni xudo faqatgina moddiy borliq bilan chegaralanib qolmaydi. Moddiy borliq ruhiyat olamining bir qismidir. Materiya va ruh aloqalarida ruh birlamchi o'rinni egallaydi.

Eng oliy bosqichdagi xudo butun yaratgan dunyosi bilan farishtalar orqali aloqada. Farishtalarni Fichino sof aql deb ataydi. Bu sof aqlda yoki farishtalar aqlida barcha narsalarning shakli ham mavjuddir.

Sof aqldagi shakllardan osmon jismlari paydo bo'ladi. Ulardan keyin esa o'simliklar hayvonot olami, to'rtta unsur (er, suv, havo o't) va tosh ma'danlar paydo bo'ladi. Sof aqlda barcha narsalarning shakli mavjud. Sof

aqldagi mavjudlik harakatsiz sukunat holatidagi mavjudlikdir. Bu harakatsiz pogʻonadan xilma-xil shakllarning harakatli shakliga oʻtish sodir boʻladi. Marselio Fichinoning emonatsiyasida uchinchi bosqich yoki pogʻona eng muhim ahamiyatga egadir. Bu bosqichda jon joylashgandir. Bu jonni Fichino olamiy jon yoki tabiat deb ham ataydi.

Aristotel sxolastikasi fikricha, tabiatni bevestia harakatga keltirgan birlamchi sabab xudodir. Fichino fikricha esa xudo olamni jon orqali harakatga keltiradi. (U) xudo jonga butun muhabbatini beradi va bu ilohiy muhabbat kuchi orqali jon butun olamni, harakatga keltiradi. Shunday qilib ruhiy muhabbat olamdagi barcha narsalarni bogʻlovchi va harakatga keltiruvchi kuchdir. Bu kuch eng yuqori bosqichdan boshlanib, eng pastdagi bosqichlarga etib boradi va ularni yana yuqori bosqich bilan bogʻlaydi. Koinotni harakatga keltiruvchi barcha narsalardagi goʻzallikni garmoniya holatining sababi ham ruhiy muhabbatdir. Barcha narsalardagi goʻzallik Ollohning goʻzalligidan kelib chiqadi. Fichino uchun bu oʻtkinchi olam dard va azob chekish olami emasdir. Uning uchun bu dunyo xudo tomonidan yaratilgan goʻzallik va muhabbat dunyosidir. Olloh butun dunyoga shu qadar buyuk muhabbat va goʻzallikni ato etdi-ki, undagi barcha jonzotlar bu kuchdan lazzatlandilar va zavqalanadilar. Agar inson ham oʻz qalbida ruhiy muhabbatni his qila olsa u bundan zavqalanadi va lazzatlanadi. Shunday qilib Marselio Lukretsiy Kar taʼlimotidagi lazzatlanish va zavqlanish tushunchalarini neoplatonik ruhiyatida talqin qildi. Fichino taʼlimotida koinot bu goʻzallik, muhabbat va zavqlanish olamidir. Olamdagi Ollohning tajallisi nur orqali sodir boʻladi. Bu nur emonatsiyaning barcha bosqichlarida mavjuddir. Haqiqatning oʻzi ham aslida Ollohning nuridir. Xudo nur orqali barcha ayrim narsalarda mavjuddir va bu mavjudlik orqali narsalar chegarasini biladi va ularga uning usturlabi orqali qaraydi.

Narsalar xudo uchun bir koʻzgudir. Bu koʻzguda u oʻz aksini koʻradi.

Dunyoviy goʻzallik ham Marselio Fichinoning fikricha narsalarda yashiringan Olloh timsoli aksidir. Shunday qilib dunyoviy goʻzallik ham ruhiy tusga ega.

### **Inson madhiyasi**

Insonga madqiya keltirar ekan Fichino uni ilohiylashtiradi. Fichino fikricha xudo yaratuvchilik kuchini borliqdagi hech bir jonzotga bermadi, uni faqat insonga beradi va aynan shu ijodkorlik kuchi orqali insonni oʻziga yaqinlashtirdi. Oʻz ijodkorligi orqali inson xudoning eradig xalifasidir. Insonning erdagi xalifaligi barcha narsalarni ruhiy iroda kuchi orqali boshqarishdan kelib chiqadi.



U nafaqat tabiatni oʻzni ham boshqara oladi. Insonning ruhi ozod va erkin yaratilganligi uchun u doimo erkinlikka intiladi, u boshqa barcha jonzotlar bilan erkinlikka intilishi bilan farq qiladi. Insonning daholigi unda buyuk bilimlar yashiringanligidan dalolat beradi. Barcha jonzotlar ichida insonning oʻrni beqiyosdir. U oʻzining ezgu xislatlari orqali Ollohga eng yaqin turadigan mavjudotdir. Fichino tomonidan insonga aytilgan madqiya uni surta asr sxolastik diniy dunyoqarashdan tubdan farq qilar edi.

Oʻzining “Xristian dini haqida” asarida Fichino er yuzidagi xilma xil dinlarning mavjudligi haqida fikr yuritadi. Uning fikricha oldingi koʻp xudolik dinlarida inson oʻzining erkin ruhi orqali xudoni bilishga intilgan lekin u xudoni birligi orqali emas balki koʻplik shaklda anglagan. U tabiatning barcha kuchlarida yagona xudoni xilma-xil shakllarini koʻrgan va bu shakllarni inson xudo sifatida qabul qilgan. Koʻp xudolilik dinlarida ham Fichinoning fikricha asosiy xudoning mavjudligi xudoning yagonaligidan darak beradi. Koʻp xudolilik dinlari insondagi hissiy tasavvurning rivojlangan paytida mavjud boʻlishgan va inson bu hissiy tasavvur orqali inson xudoni barcha shakllarda his qilgan. Oʻsha davrda inson tabiatga yoqinroq boʻlgan va u xudoni borligini aqli orqali emas balki his-tuygʻulari va tasavvuri orqali sezgan. Shuning uchun Fichini ham yagona xudoga boʻlgan eʼtiqodning bu fikrlari uning hurfikrligi va diniy bagʻrikengligidan dalolat berib turadi.

### **Piko dela Mirondola**

Marselio Fichinoning neolatonik qarashlariga nisbatan kuchliroq ifoda etilgan. “Sevgi haqidagi kontsona yozilgan tahlilda u butun dunyoni doimiy yaratilishi haqida yozadi. Bu yaratilishi jarayoni cheksiz va tinimsizdir. Uning qarashlariga binoan dunyoning yaratilishi uch bosqich asosida sodir boʻladi. Bular: farishtalar, osmon bosqichi va elementar bosqichlardir. Piko fikricha goʻzallik tushunchasi xudoga tegishli emasdir. Negaki Xudo mukammal, goʻzallik esa qandaydir nuqson bilan bogʻliqdir. Har bir narsani Piponing fikricha ikki tomoni bor. Bu tomonlar bir-biriga zid va bu zid qutblarni borligi narsani borligini belgilaydi. Goʻzallik ham oʻziga zid boʻlgan tomonsiz mavjud boʻla olmaydi. Koinotdagi irarxiya bu dunyoning oʻzaro munosabatlarini belgilaydi. Tabiatdagi barcha kuchlar oʻzining mohiyatini anglab etmaydilar. Lekin ular koinotni bilishga intiladilar.

Piko fikricha xudo bu ierarxiyadan tashqarida lekin u tabiatdagi barcha jismlarni yaratadi va bir-biriga bogʻlaydi. Ollohning tabiatda mavjudligi moddiy va ruhiy narsalarning aloqasidan kelib chiqmaydi. Xudo tabiatning barcha zarrasida mavjud u tabiatning birligi va mohiyatini tashkil etadi.

Xudo barcha narsalarning mohiyatida yashiringan. Narsalarning go‘zalligi va latofati ham xudoning bu narsalarda mavjudligidan kelib chiqadi.

### **Insonning erkinligi haqidagi ta’limoti**

Piko yulduzlarga qarab inson kelajagini aytib bergan astrologlarga ishonmaydi va ularni tanqid qiladi. Buning o‘rniga u osmon jismlarining harakatini matematik usullar orqali o‘rganishga da’vat etadi.

Pikoning fikricha insonning o‘zi ham butun borliqni qamrab oluvchi mikrokosmosdir. Piko insonni ierarxiyaning barcha bosqichlaridan xoli deb hisoblaydi.

Koinotning zinopoyasida insonning aniq egallagan o‘rni yo‘qdir. Inson bu o‘rinni o‘zining, xohishi va irodasiga binoan tanlaydi. Xudo insonga tanlash huquqini bergan va inson o‘z baxtining egasidir. Inson koinotning markazida joylashgan va u o‘zidagi barcha ijodkorlik kuchlarini o‘zi voyaga etkazish kerakdir. Insonning ierarxiyadagi o‘rni, uning ruhiy erkinligi bilan ham bog‘liqdir. Insonga xudo tomonidan komillikka erishish qobiliyati berilgan va u bu qobliyatni inson o‘zining har kungi hayotida ham, faoliyatida ham rivojlantirib borishi kerak. Agar inson bu qobliyatlarini o‘zida o‘stirmasa u tubanlik botqog‘iga botadi. Demak inson doimo rivojlanish va komillikka intilishi lozimdir. Xudo tomonidan insonga barcha kuch–quvvat berilgan va inson bu kuch-quvvat orqali oldiga qo‘ygan barcha maqsadlariga erishishi mumkin. Piko o‘z ijodining markaziga insonning erkin tanlash huquqini quyadi. Bu boradagi Mirandolaning fikrlari inson tabiati va fe’lini o‘z-o‘zini tashkil etuvchi va rivojlantiruvchi sistema sifatida ko‘radi. U insonning erkin ijodiy faoliyatining mahsulidir. Inson qotib qolgan tosh emaski u o‘zgarmasa. Insonning asosiy qudrati uning harakatchanligida. Olloh insonni o‘ziga o‘xshatib yaratgan. Demak insonning ichki tabiatida komillikka erishishi uchun barcha kuchlar mavjuddir. Inson bu kuchlarni yuzaga chiqazishi kerak. Bunga esa faqat faoliyat, harakatchanlik orqali erishiladi.

Piko barcha falsafiy ta’limotlar va diniy qarashlardagi ijobiy fikrlarni birlashtirishga harakat qildi. Ularni yagona haqiqatning xilma-xil qirralari deb hisoblar edi. Pikoning ijodi eklentek tuchga ega bo‘lmadi, aksincha u insoniyatning xilma-xil tajribasidan o‘rganishga harakat qildi va u o‘z ong xazinasini insoniyatning beqiyos ong xazinasini hisobiga boytishga urindi.

Uyg‘onish davri tabiiyshunosligining falsafiy masalalari.

Uyg‘onish davrining gumanistik qarashlari o‘sha davrning tabiiyshunos fanlarining rivojlanishiga bog‘liq edi. Bu borada ikki buyuk olim Lenardo

da Vinchi va Nikolay Kopernik tadqiqotlari oʻrta asr sxolastik dunyoqarashi oʻrniga, yangi gumanistik falsafiy taʼlimotning shakllanishiga olib keldi.

### **Leonardo da Vinchi fenomeni**

Leonardo ijod qilgan sohalar shu qadar xilma-xil ediki, uning zamondoshlari bunday gʻayrat, kuch-quvvat va dohoga xos xislatlarga ham taajublanib, ham shubhalanib qarashar edi. Leonardo rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, arxitektura, fortifikatsiya, biologiya, botanika, geologiya, zoologiya, minerologiya, mexanika, astronomiya, fizika sohalarida ham ijod va kashfiyotlar qildi.

Leonardoning chop etgan asarlari va kashfiyotlari shu qadar ulkan ediki, bularning barchasini bir inson yaratganiga aql bovar qilmas edi. Leonardo oʻzini kamtarinlik bilan “bilimsiz” deb ovoza qilgan edi. Lekin u oʻz zamonasining barcha bilimlarini egalladi. Leonardoning barcha ijodi kuzatish tajriba quyishlardan iborat edi.

Leonardo oʻz davrining fani tomonidan qoʻyilgan benihoyat murakkab masalalarni osonlik bilan echdi. Leonardo aql bovar qilmaydigan masalalarni echishga bel bogʻlaganda u sxolast faylasuf emas balki buyuk olim edi. Quyoshning harakati va botishi, oʻsimliklarning unib chiqish, hayvonlarning yugurishni kuzatar ekan Leonardo bu narsalarning mohiyatini ochishga harakat qildi. Bu sohadgi uning fikrlari diniy dunyoqarashdan uzoqlashib, falsafaga yaqinlashib bordi. Diniy bilimlar tajriba va eksperimentga asoslanmagan edi. Endilikda esa yangi tabiiyshunos fanlarning asosiy quroli tajribadir va ular tajriba orqali dunyoning barcha sohalarida yangi bilimlarni kashf etishmoqda. Fanda bahslashishlar faqatgina munozara natijasida yuzaga kelmaydi. Leonardoning qoʻygan tajribalardan barcha jonzotlarni harakatga keltiruvchi kuch borligi uning nazariga tashlandi. Bu tabiiy kuchni oʻrganish uchun Leonardo eksperimental usulni ishlab chiqdi va undan keng foydalana boshladi.

### **Eksperemental usulning kashf etilishi**

Leonardo da Vinchi oʻz kashfiyotlarining asosiga kuzatish va tajriba usulini qoʻyadi. Uning hisobsiz suratlari va yozuvlarining yonida insonning anatomik tasviri ham berilgan edi. Murdalarni anatomik oʻrganib Leonardo oʻzining butun dunyoga mashhur boʻlgan asarlarini yaratdi. U barcha narsalarning yashiringan mohiyatini ochishga intilar edi. Bu maqsadga etishish uchun u xilma-xil tajribalar va kuzatishlarni amalga oshirdi. Uning koʻpgina izlanishlari Leonardo yashagan davrdan oldinga qarab ketgan edi. M: Delta planning kashf qilinishi, suv osti kemasi, batiskaf va shunga oʻxshash kashfiyotlar Leonardoning zamondoshlarini hayratga solar edi. U

faqat rassom emas haykaltarosh, olim, san'atkor, faylasuf ham bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda Leonardo da Vinchi o'z davrining buyuk entsiklopedist olimlaridan edi.

Leonardo tabiiyshunos fanlarning asosida matematika qonunlari ..... deb hisoblar edi. Lekin u o'zi foydalangan o'rta asr matematikasi yangi kashfiyotlarni tushuntirishga ojizlik qilar edi yoki bu kashfiyotlarni noto'g'ri talqin qilishga olib kelar edi. Bu kashfiyotlarni tushuntirish uchun yangi mexanika zarur edi. Bu vazifani Leonardodan keyin Galiley bajardi. Lekin Leonardo kashf etgan narsalar o'z davrining genial injenerlik qobliyatini ko'rsatar edi.

### **Dunyoqarash va inson**

Insonning joni va tanasi o'rtasidagi munosabat masalasida Leonardo ularni bir-biridan ajratmaslik kerak deb hisoblar edi. Uning fikricha jon tana orqali harakatga keladi o'zining ijodkorlik faoliyatini tananing har hil qismlari orqali amalaga oshiradi. Tananing o'limdan keyin jon olamiy jonga qo'shiladi va o'zining individual barhoyotligiga ega emas. Bu masalada Leonardo da Vinchining fikri Fichino va uning Florentsiya akademiyasidan farq qiladi.

Leonardo dunyoning markazida quyi joylashgan deb hisoblaydi. Lekin uning bu qarashi hali to'la geliotsentrik nazariyaga o'tishni anglatmas edi.

Leonardo da Vinchining geliotsentrik qarashlari ko'proq antik yunon faylasufi Pifagorning qarashlari ostida shakllangan edi. U Galiley, Kopernik va Brunolar kabi pishiq nazariy asos va tajribalardan kelib chiqmagan. Buning uchun Leonardoning davrida etarli ilmiy asoslar hali vujudga kelmagan edi. Leonardo o'zining asarlarida quyoshga madhiya to'qigan xuddi Pifagor singari uni barcha jonzotlarga nur ato etuvchi eng oliy osmon jismi deb hisoblar edi. Lekin Leonardoning tadqiqotlarida astronomik tahlillar, Quyosh, Er va boshqa sayyorlarning epitsikllari, yangi mexanikaning asosida hisoblangan sayyoralarning bir-biriga nisbatan aylanish doirlari hisob-kitob qilib o'rganilmagan edi. Bu vazifani keyinchalik Kopernik bilan Galiley bajardilar. Leonardo da Vinchi yaratgan dunyoqarash asosida konkret badiiy obrazlar yotadi. Aynan shu obrazlar orqali u narsalar mohiyatini ochishga harakat qildi. Uning dunyoqarashida qotib qolgan mantiqiy mulohazalarga o'rin yo'q. Yangi davrga xos bo'lgan matematik, empirik fikr yuritish ham Leonardoning dunyoqarashiga yotdir. Keyinchalik aynan shunday mexanik dunyoqarash falsafaga kirib keladi va dunyoga xos bo'lgan tiriklik va go'zallik siymosini o'ldiradi. Leonardoning falsafiy dunyoqarashida borliq, tabiat va inson ruhiy jonli va go'zal siymolar orqali tasavvur etiladiyu Leonardoning bu tasavvuri uning tabiat

oldida boʻlgan hayratlanishi buyuk san'atkor, rassom sifatidagi tabiatdagi barcha go'zallikni ko'ra olishdan kelib chiqadi. Shunday qilib Leonardo da Vinchining dunyoqarashi o'tmishidagi sxolastik dunyoqarashdan ham kelajakdagi mexanistik dunyoqarashdan ham keskin farq qiladi. Bunday dunyoqarash uyg'onish davri italyan gumanizmga xos bo'lgan. U tabiatni xudoni va insonni bir-biriga bog'langan va ulardagi go'zallik, abadiylik va ruhiy muhabbat siymolarini ochib bergan. Masalan biz Leonardoning madonnalar chizilgan suratlarida ularning nigohlarida ruhiy muhabbat siymosini his qilishimiz mumkin. Leonardoning mashhur surati Jakonda bizni zamondoshlarimizni hayratga solishining sabablaridan biri uning sirli nigohidagi ruhiy jilvalanishdir. Shunday qilib Leonardo konkret er obrazlari ilohiy, ruhiy siymolarni ochishga harakat qildi.

### **Nikolay Kopernik**

Nikolay Kopernik yashagan davrda (1473-1543) buyuk geografik kashfiyotlar sodir bo'ldi. M. Magellan, Xristofor Kolumb kabi dengizchilarning kashfiyotlari er shari xaritasining o'zgarishiga olib keldi. Kopernik ijod qilgan davrda universitetlar davrasida eski sxolastik dunyoqarash hali hukmron edi. Kopernik birinchi bo'lib bu dunyoqarashga eng kuchli zarbani berdi va yangi geliotsentrik dunyoqarash uchun yo'l ochdi. Lekin bu geliotsentrik dunyoqarashni Kopernik kuchli kurash natijasida yara-tishga muvoffaq bo'ldi. Uning asosiy asari "Osmon jismlarining harakati" deb nomlangan edi. U bu asarni o'lim bo'sag'asida yozadi.

### **Yangi kosmologiya**

Kopernik o'zining astronomik dunyoqarashning yartar ekan, uning zaminida geometriya fani yotadi. Kopernik o'zining asosiy asariga yozilgan kirish so'zida u kashf etgan yangi astranomik nazariya mutloq haqiqat emasligini qayd qilib o'tadi. Bu yangi geliotsentrik nazariya astronomik hisob-kitoblarda eng qulay keladigan nazariya deb yozadi. Kopernikning bu kirish so'zi uni xristian cherkovi ta'qibidan himoya qilishga qartilgan edi. Kopernik haqiqatda ham ilmiy bilimlarni nisbiy amaliy hayotga xizmat qiladigan bilimlar deb hisoblar edi. Uning fikricha diniy va falsafiy bilimlar omma ongidan yuqoriroqda va ularni tushunish uchun maxsus o'qish va bilimga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa diniy haqiqat pardalangan va har qanday kimsaning nigohiga ko'rinmaydi. Antik davrdagi Ptolomey astronomik nazariyasida er markazda jonlashgan edi va shu haqiqatga asoslangan ushbu nazariyadagi hisob-kitoblar dengizchilik sohasida yaxshi xizmat qilgan. Lekin ancha vaqt o'tgandan keyin er atrofidagi Magellanning dengiz sayohatlari va Xristofor Kolumbning "Hindiston" deb

ochgan yangi erlari Ptololiy nazariyasini yangi kashfyotlarga nisbatan nuqsonli ekanligini ko'rsatdi. Endi buyuk geografik kashfiyotlarni to'g'ri tushuntirish uchun astronomik va matematik hisob-kitoblarda o'zgartirishlar kiritilishi kerak edi. Bu esa er shari Quyosh va boshqa sayyoralarni o'z o'qi va bir-biri atrofida aylanadigan doiralarni yangitdan hisoblashga olib keldi. Bu hisoblashlar er va Quyoshni aylanish doiralarini Ptolomey nazariyasiga nisbatan butunlay boshqacha joylashganligini ko'rsatar edi. Kopernikning olib borgan geolirik va matematik hisob-kitoblari bo'yicha quyosh er atrofida emas, er quyosh atrofida aylanadi.

Epitsikllarni ya'ni doira shakllarini matematik va geometrik parametrlarini hisoblash Kopernikni bunday geolitsentrik nazariyaga olib keldi. Lekin Kopernik bu nazariyani falsafiy darajaga ko'tarmadi, umumlashtirmadi. Uning fikricha tabiiyshunos bilimlarning chegaralari nisbiydir va ular kashf etgan haqiqat ham nisbiydir. Tavrot va injildagi bilimlar inson tafakkuri chegarasidan tashqaridagi bilimlar va ulardagi haqiqatni ilm-fan o'lchovi bilan o'lchash Kopernikning fikricha xatodir. Yangi davrda Frantsuz materialistlari «Tavrot» va «Injil»dagi bilimlarni tanqid qilishganda Kopernikning bu ogohlantirishga e'tibor berishmadi. Vaholanki, Ptolomeyning nazariyasi ham o'z davrida nisbiy haqiqat bo'lgan va u Evklidning o'ch o'lchamli fazo geometriyasiga asoslangan. Kopernik o'z nazariyasida ishlagan geometriya Evklid geometriyasi edi.

XIX asrga kelib, Evklid geometriyasi Lobachevskiy tomonidan tahlil qilindi va Lobachevskiy Evklid geometriyasidan mutloq farq qiladigan o'z geometriyasini yaratdi. Bu geometriyaga binoan qiyshiq fazoda hech qanday markaz yo'q. Demak, quyosh ham koinotning markazi bo'la olmaydi. XX asrga kelib Eshnteyn o'zining nisbiylik nazariyasini kashf etdi.

Bu nazariyaga binoan vaqt ham, makon ham nisbiydir. Demak quyoshni erga erni esa quyoshga nisbatan aylanish doiralari nisbiydir va ular koinotning evalyutsiyasi jarayonida joy almashishlari mumkin. Ptolomeyning astronomik nazariyasi o'z davri uchun haqiqat bo'lgan. Hozirgi zamon fan tarixini o'rganish aynan shu xulosaga olib keladi.

### **Gumanizm va Utopiya**

Italiyada tug'ilgan gumanistik qarash asta-sekin Yevropaning ko'pgina davlatlarida tarqala boshladi. Niderland davlati, Germaniya, Angliya, Frantsiyada gumanizm harakati ortodoks diniy dunyoqarashva sxolastik falsafaga qarshi bosh ko'tardi. Gumanistik dunyoqarash yangi shakllanib borayotgan burjuaziya sinfiga feodal tuzumiga qarshi bo'lgan kurashda katta yordam berdi. Burjua sinfining yirik vakillari gumanistik

dunyoqarashga xayrihoh bo'lishdi va bu dunyoqarashning tarqalishida xizmat qilishdi.

### **Rotterdamlik Erazm**

Rotterdamlik Erazm (1469-1536) xuddi Petrarkaga o'xshab XVI asrning boshi va o'rtalarida Yevropaning eng mashhur nom taratgan yozuvchisi, va gumanist faylasufiga aylandi. Ruhoniyning nikohsiz o'g'li bo'lgan Rotterdamlik Erazm boshlang'ich ta'limni xuddi Nikolay Kuzanskiyga o'xshab, "umumiy hayot birodarlar" iga tegishli bo'lgan maktablarida olgan. Keyinchalik u Sarbonna Universitetini tugatib, teologiya doktori unvonini oladi. Bu yosh ruhoniy Parijda yashagan davrda gumanistlar ta'limoti bilan tanishib ularning davrasiga ham qo'shiladi. Erazm reformatsiya davridagi to's-to'polonlardan o'zini chetga olib Bazel shahrida o'z shogirdlari davrasida panohtopadi.

### **Asarlari**

Erazm o'zidan keyin nihoyatda boy badiiy falsafiy meros qoldirgan. Bular qatorida "Nodonlikning maqtovi", "Osmonga chiqishga ruxsat berilmagan Yuliy", "Oddiy suhbatlar", "Maqollar" to'plami, "Xristian askariga nasihatlar", "Xristian hukmdorining tarbiyasi", "Dunyoning shikoyati" "Til" "Iroda erkinligi haqidagi traktol".

### **Xristian axloqini gumanistik tarzda ishlab chiqilishi.**

Erazmning xristian axloqi o'z davridagi katolik xristian qarashlaridan tubdan farq qilgan. Katolik cherkovining urf-odatlarining fikricha haddan tashqari marosimlarning tashqi shakliga e'tibor bergan. Undan tashqari xristian inkvizitsiyasi ichki dushmanlarni qidirish bilan ovora bo'lgan va ulrani gulxanda yoqib vahshiyona qatl qilgan. Bularning barchasi Erazm fikricha xristian dinining asl mohiyatiga to'g'ri kelmaydi. Xristian katolik cherkovining bunday faoliyatini Erazm to'g'ri yo'ldan adashish deb hisoblaydi. Uning fikricha ilk bor xristianlikda diniy bag'rikenglik insonlarga bo'lgan mehr –adolat va hikmat yotadi.

Erazm tabiatni ulug'laydi va xristian katolik dinga xos bo'lgan tabiatni xudodan ajratishga qarshi chiqadi. "Iso Masih aytgan hikmatlarida tabiat va xudo yagona borliqni tashkil etadi" deb yozadi. Erazmning bu qarashlari panteistik tusga ega edi. U materiyani ruhdan ajratmaydi va shundan kelib chiqib erdagi hayotni ham ulug'laydi. Riyozat chekish o'rniga inson erdagi hayotdan lazzatlanish va zavqalnishi kerak deb hisoblaydi Erazm. Bu fikrni Erazm o'zining «Epikur» asarida aytib o'tadi va Epikur ta'limotidagi

lazzatlanish g'oyasini ilk bor xristianlikdagi tabiatni ruhlantirish g'oyasi bilan birlashtiradi.

### **Gumanizm va reformatsiya**

Erazmning diniy bag'rikenligi reformatsiyaning ayrim vakillariga yaqin edi.

M:ulardagi diniy bag'rikenglik, tabiatga bo'lgan ruhiy munosabat, marosimlarni sodda shaklda o'tkazish va barcha diniy odatlarni soddalashtirish. Erazm ta'limotini reformatsiya harakatining ayrim vakillari qarashlari bilan yaqinlashtirar edi.

Erazmning hurfikrliligi protestant va katolik Yevropa davlatlaridagi ziyolilarga qattiq ta'sir etdi. Erazmning zamondoshi Xudoluis Vives falsafiy tilni badiiy xalq tiliga yaqinlashtirish kerak va uni sxolastikaning murakkab tushunchalari va mushohadalaridan ozod qilish kerak deb hisoblar edi.

Erazmning adolat va tinchliksevarlik g'oyalari Vivech Andje madjevskiy va shunga o'xshash Yevropaning mashhur mutafakkirlarining fikricha katta ta'sir ko'rsatdi.

### **Tomas Mor**

Rotterdamlik Erazmning qarashlariga uning buyuk zamondoshli bo'lgan Tomas Morning qarashlari yaqin edi.

Tomas Mor Londonda 1478 yil qirol sudyasining oilasida tug'iladi. Grammatik maktabidagi o'qish unga lotin tilini yaxshi egallashga imkoniyat berdi. Yoshlik davrida Tomas Mor Kenterbereylik arxiepiskop Jon Mortanning oilasida xizmat qiladi. Arxiepiskopning xonadonida o'sha davrning mashhur yozuvchilari, olimlari, sahxatchilari siyosatchilari va ruhoniylar tez-tez yig'ilib turishar edi.

XV asrning 90 yillarida arxiepiskopning maslahatiga binoan Tomas Mor gumanistik qarashlarning markaziga aylangan Oksford Universitetining kolledjida ta'lim oladi. Kolledjdagi o'qishni tamomlagach Tomas Mor Londonning yuridik maktabini bitirib, yurist va advokat sifatida xizmat qiladi. Yosh sudyaning halloligi va o'tkir zehni unga katta hurmat va e'tibor keltirdi va Tomas Mor Angliya parlamentining umumiy palatasiga saylanadi.

Tomas Morning siyosiy faoliyati Angliya qiroli Genrix II ning iqtisodiy talablariga qarshi chiqishdan boshlandi. Morning bu harakatlari umumiy palata deputatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

XVI asrning boshlarida Tomas Mor oksford gumanistlari qarashlarini qo'llab-quvvatlaydi, antik yozuvchilari va faylasuflari asarlarini Italyan



faylasufi Piko dela Mirandolaning tarjimai holini va xatlarini ingliz tiliga tarjima qiladi.

O‘zining yozuvchilik ijodini Mor London sherifiga yordamchisi sifatidagi hikmati bilan birlashtiradi.

Qirol Genrix III ga fidokorona xizmat qilganligi uchun Tomas Mor qirol kengashining a‘zosi etib sayladi. Keyingi yillarda Tomas Mor muhim davlat mansablarini egallaydi va nihoyat Angliyaning lord-kantsleri darajasiga ko‘tariladi. Genrix III tomonidan Angliyada o‘tkazilgan reformatsiya Tomas Morda keskin norozilik uyg‘otdi.

Tomas Mor Yevropada yagona xristian katolik cherkovi hukmronligini saqlab qolishi tarafdori edi. U Martin Lyuter Genrix III ning reformatsion harakatlariga qarshi chiqdi.

Tomas Mor Angliyada fermerlar erini tortib olish siyosatiga qarshi chiqadi. “Qo‘ylar odamlarni edi” degan mashhur ibora Tomas Morga tegishli edi. Qirolning qonunbuzar harakatlariga qarshi chiqqan Tomas Mor Tauer qamoqxonasiga tashlanadi va uzoq davom etgan sud jarayonidan keyin 6 iyul 1535 yilda qatl qilinadi.

Tomas Morning qahramonona harakatlari gumanistlarning inson hurmati, ruhiy ozodligi va hurfikrliligiga butkul to‘g‘ri kelar edi.

Morning qatl qilinishi Yevropadagi gumanistik harakatni o‘z nihoyasiga etganligidan dalolat berar edi.

### **“Utopiya” asari**

Ilk bor katitalizm jamiyatidagi ziddiyatlarga qarshi chiqqan Tomas Mor o‘zining «Utopiya» asarida bu ziddiyatlarni tanqid qilib, sinfsiz ijtimoiy tenglik mavjud bo‘lgan jamiyat timsolini yaratadi. Tomas Morning Utopiya asari gumanistlarning siyosiy axloqiy qarshilari bilan bevosita bog‘liq edi.

“Utopiya” asarida Tomas Mor o‘zi yashagan Angliya siyosiy tuzumini qattiq tanqid qiladi. Ayniqsa, xususiy mulkchilikka asoslangan bu davlati tuzumini kambag‘al dehqonlarga qarshi qilgan zulmlarini, daydilarga qarshi chiqarilgan qonunlarni qoralaydi.

Daydilikning sababi Morning fikricha o‘z erini yo‘qotib qo‘ygan dehqonlarning kelib chiqishdandir. Bu dehqonlarga davlat tomonidan qilinadigan zulmlar xalq sabr kosasini to‘ldirib yuborgan deydi. Mor Davlat boyligini yaratuvchi bu dehqonlar yovvoyi hayvonlar kabi yashaydilar. Ularning qismati har qanday vijdonli odamni norozi bo‘lishiga olib keladi. Davlat ularga yordam o‘rniga quvg‘in qiladi va qamoqxonalarga tashlaydi. Ularning peshonalarga esa tamg‘a uriladi. Ularning oilasi bola-chaqasi ham daydilarga aylanib, Angliya yo‘llarida darbadardirlar.

Ularning bir qismigina shaharlarda eng qashshoq lyumpen qatlamini tashkil etadi. Ko'pchiligi esa qamoqxonalarda va surgunlarda azob-uqubat va surgunlarga chiday olmay jon beradi. Bunday adolatsiz tuzumni Tomas Mor butun borlig'i bilan qoralaydi. Umumiy mulkchilikka asoslangan tuzum haqida yozar ekan. Tomas Mor Injil va Tavrotda ham bu haqda aniq fikrlar keltirib o'tishganligini aytadi. Uning fikricha insondagi qabihlik nafs va hirsning zo'rligidan kelib chiqadi, inson ular ustidan nazoratni yo'qotib qo'ysa, har qanday razillikka qodir bo'lib qoladi.

Xudo buni oldindan ko'ra olganligi uchun deb yozadi Mor insonlarni ko'proq umumiy manfaatlarni o'ylashga da'vat etadiyu iso Masih ham ilk bor xristianlarga jamoa bo'lib yashashiga va umumiy mulkka ega bo'lishga maslahat berganlar. Xususiy mulkchilik mulkchilik Morning fikricha insondagi eng tuban xislatlarni rivojlantiradi va jamiyatni shahvatparastlik, tubanlik va poraxo'rlik domiga tortadi.

Morning "Utopiya" asaridagi afsonaviy shahar Tavrot va Injilda ko'rsatib o'tilgan "Fozil davlat"ga o'xshab ketadi. Bu orolda joylashgan shaharda ish kuni bor yo'g'i 6 soatni tashkil etadi. Qolgan vaqtni esa "Utopiya"liklar o'z-o'zini rivojlanish dam olish, ilm fan bilan shug'ullanishga bag'ishlaydilar.

### **Tomas Morning axloqiy ta'limoti**

O'z falsafasining markaziga Tomas Mor axloqiy masalalarni qo'yadi. Uning fikricha jamiyatning rivojlanishi fuqarolarning hallolliqi, vijdonliliga bog'liqdir.

Xudo insonni ozod va erkin qilib yaratdi va unga barcha narsalarning me'yori o'lchamini berdi. Toki inson o'z nafsini dardida bu me'yorni unutar ekan baxt-saodatga etishishi ancha mushkuldir. Boshqa jonzotlarga nisbatan xudo insonga o'z-o'zini anglash, o'z xatolarini tushunib etish qobiliyatini ham bergan. Bundan kelib chiqib odamlar jamiyat tuzumini o'zgartirishlari va adolatli tuzum ham barpo etishlari mumkin.

Baxt nima degan savolga javob berar ekanlar. Utopiyaliklar Epikur ta'limotiga yon bosadilar va dunyoviy lazzatdan rohatlanishini baxt deb hisoblaydilar. Morning "Utopiya" sida o'rta asr xristian diniga xos bo'lgan tarkidunyolik g'oyasini tanqid qiladi. Insonga berilgan buyuk ne'matlardan biri salomatligidir. Inson uning qadriga etishi va asrab-avaylashi kerakdir. Utopiyalikda diniy e'tiqod va tafakkur bir-birini inkor etmaydi. Aksincha ular bir-birini to'ldirib turadilar.

### **Gumanizmning siyosiy ta'limotlari Nikolo Makiavelli**

XV asr oxiri-XVI asr boshlari Italyan gumanizmi quyoshining botishiga to'g'ri keladi. Bu davrda gumanistlarning oltin davr haqidagi

umidlari chilparchin bo‘ldi. Butun Italiyan larzaga keltirgan ichki nizo va urushlar bu davlatni bir necha asrga turg‘unlik botqog‘iga botishiga sabab bo‘ldi va natijada Italiya Yevropaning qoloq davlatiga aylanib qoldi.

Italiyaning respublika shaharlari o‘z manfaatlari doirasida chegaralanib qoldilar va Italiyani birlashtiruvchi milliy harakatni barpo etolmadilar.

Italiyada yagona milliy davlatga asos soluvchi biron-bir siyosiy kuch topilmadi. Hatto Angliya, Frantsiya, Ispaniyada hukm surgan absolyut monarxiyalarga o‘xshash davlatni yaratishga Italiyaning mayda hukmdorlari jur‘at eta olmadilar. Ularning ichida bunday vazifani bajara oladigan na kuchli rahbarni diniy rahnomo topilmadi.

Aynan shunday murakkab siyosiy vaziyatda Nikolo Makiavellining ta‘limoti yuzaga keldi.

### **Nikolo Makiavelli**

Nikolo Makiavelli (1469-1527) Florentsiya Respublikasining kambag‘allashib qolgan nobillar oilasidan edi. Nikolo Makiavelli 1469 yil yurist oilasida tug‘iladi. Otasining daromadi past bo‘lganligi uchun Nikolo Universitetda o‘qiy olmadi. U mustaqil ta‘lim oldi. Lotin tilini mukammal egallab antik davr faylasuflari va shoirlarining asarlarini qunt bilan o‘qidi.

Makiavelli Florentsiyaning neoplatonik akademiyasidagi qarashlariga mutlaq befarq edi. Uni o‘rta asr universitetlarining sxolastik ta‘limoti ham qiziqitirmas edi. Ammo yosh Nikolo «narsalar tabiati» haqidagi Lukretsiyning asarini katta e‘tibor bilan o‘qidi va tahlil qildi.

1498 yil 30 yoshli Nikolo Makiavelli Florentsiyaning siyosiy sahnasida birinchi bor paydo bo‘ldi. U ikkinchi kotselyarining ilmiy kotibi bo‘lib saylandi. Keyinchalik esa Florentsiya hukmatining 10 ta hukmdoridan tashkil etilgan kengashga kotib bo‘lib saylandi.

14 yil davomida Nikolo Florentsiya hukmatining muhim siyosiy vazifalarini bajarib Frantsiya, Germaniya va Rimga diplomatik ishlar bilan borib keladi. Uning katta siyosiy bilimdonlik bilan yozilgan asarlari Italiya va Yevropa davlatlaridan siyosiy ahvolni yaxshi bilishdan dalolat berar edi.

1512 yilda Medichi hukmronligi tiklanganidan keyin Makiavelli siyosiy hayotdan chetda qoldi. Uni fitnada ayblab qamoqqa olishdi. Keyinchalik esa qishloqdagi dala hovlisiga jo‘natib yuborishdi. Ikkinchi bor Medichi hukmronligi tugatilgandan keyin Florentsiya respublikasi yana tiklandi. Ammo bu ikkinchi respublika o‘zining katta kengashida Makiavellining xizmatiga muhtoj emasligini bayon qildi. Bunday qarorga ko‘nika olmagan Makiavelli 27 iyun 1527 yilda vafot etdi. Surgun paytida Makiavelli o‘zining asosiy asarlarini yaratdi. Bular: “Humdor”,

“Florentsiya respublikasining tarixidan Tit Liviyning birinchi dekadasiga mansub bo‘lgan mulohazalar”, “Mandragora” komediyasi va boshqalardir.

### **Tarix falsafasi**

Makiavellining yaratgan tarixida ilohiy qudrat uchun joy yo‘qdir. Jamiyatdagi barcha voqealar va hodisalar uning fikricha tabiiy qonunlarga binoan sodir bo‘ladi.

Davlat to‘ntarishlari, siyosiy tuzumning o‘zgarishlarining asosiy sababi Makiavelli fikricha insonning tabiatiga borib taqaladi.

“Tarixiy voqealarni tahlil qilib” deb yozadi Makiavelli “Jamiyat doimo bir xil ekan degan fikrga keldim.

Unda doimo yaxshilik va yomonlik o‘rtasida kurash ketadi. Lekin bu kurash har xil shakllarda bo‘lib, bir davlatdan ikkinchi bir davlatga o‘tib turadi”.

Makiavelli fikricha barcha davlatlar paydo bo‘ladi rivojlanadi va nihoyat inqirozga uchraydi. Bu xuddi tabiatdagi girdob harakatiga o‘xshaydi. “Har bir davlatning va hukmdorni hayotini belgilovchi taqdiri bordir. Taqdiridagi o‘zgarishlar inson harakatiga ham bog‘liqdir. Uning faolligi yoki sustkashligi taqdiridagi o‘zgarishlarga ham ta’sir qiladi.-deb yozadi Makiavelli.

### **Taqdir va shon-sharaf**

Makiavelli fikricha inson faqat taqdirga bo‘ysunib yashash xatodir. U o‘z qo‘lidan kelgan faoliyatni yuritishi kerak va bu faoliyat orqali u o‘z taqdiriga ta’sir ko‘rsatadi. “Taqdir xuddi asov daryoga o‘xshaydi, u yo‘lida duch kelgan barcha narsalarni oqizib yuboradi. Ammo bu daryoning o‘zani va oqimini bilgan siyosatchi ehtiyotkorlik bilan oldindan harakat qilishi mumkin. U xavf- xatarni oldini olish uchun darayoning ayrim joylariga to‘g‘on qurishi mumkin va bu to‘g‘onlar orqali o‘zini xavf-xatardan asaraydi. Taqdir o‘yinlarida omad ko‘proq tavakkal qiluvchilarga kulib boqadi” deb yozadi Makiavelli.

Insonlar tomonidan sodir bo‘ladigan buzg‘unchiliklarga qarshi davlat qonun-qoidalar ishlab chiqaradi.

### **Siyosat va din**

Dinning kelib chiqishi masalasiga to‘xtab Makiavelli bu masalani uning ijtimoiy zaruriyatdan paydo bo‘lganligini uqtirib o‘tadi. Xalq birligini ta’minlovchi asosiy ijtimoiy kuchlardan biri bu dindir.

Xristian dinining axloqiy asoslari Makiavelli davridagi biron-bir Yevropa davlatlarida e'tiborga olinmadi. Agar bu axloqiy printsiplarga rioya qilinganda edi deb hisoblaydi. Makiavelli-Yevropa davlatlari o'rtasidagi nizolarga barham berilgan bo'lur edi.

Makiavelli Rim katolik cherkovini axloqsizlikda ayblab qoralaydi va bu cherkovning faoliyati ko'p fuqarolarni yo'ldan adashishiga sabab bo'ldi deydi Makiavelli.

Jamiyatdagi barcha buzg'unchiliklar Makiavelli fikricha diniy, axloqiy qarashlar ularga to'siq bo'lishi mumkin edi. Lekin diniy rahbarlarning o'z nafs va hirslarga berilib ketishi natijasida din o'zining ijobiy natijasini bajarmay qo'ydi.

### **Davlat manfaatlari.**

Makiavelli fikricha barcha usullarni oqlaydigan yagona maqsad bu milliy davlatdir. Yagona markazlashgan davlatni yaratish yo'lida har qanday usullar o'zini oqlaydi.

Keng davlat manfaatlari yo'lida diniy va ma'naviy qadriyatlar ham qurbon qilinishi mumkin. Makiavelli yagona milliy davlatning shakllanishi jarayonida xalq rolini yuqori baholaydi. Jamiyatda oddiy xalq va zodagonlar o'rtasida kurash ketadi. Shu kurash natijasida hurfikrlilik mavjuddir. Makiavelli Rim respublikasining qudrati va erkinligi plebey va patriitsiyalar o'rtasidagi kurashning natijasi edi. Bu kurash o'z nihoyasiga etkandan keyin respublika o'rnida imperiya paydo bo'ldi. Rim imperiyasida esa kurash sustkashlanib keldi. Imperator barcha tabaqalarni o'ziga bo'ysundirib olgan va imperator davlat manfaatlari deb o'zining shaxsiy manfaatlari va xohishlarini birinchi o'ringa qo'ydi. Natijada imperiya chuqur ruhiy tubanlik va inqirozga uchradi va o'z intihosiga etdi. Hukmdor Makiavelli fikricha zadagonlarni avom xalqning manfaatlarini birdek ko'rishi lozim. Makiavelli avom xalq deb atagan tabaqa aslida esa shaharning o'rta hol xususiy mulk egalari edi.

Italiyada bu tabaqadagi kishilarni nobelllar deb atashar va Makiavelli xalq deb atagan tabaqa aslida o'rta hol burjuaziya sinfi edi.

Makiavelli zadagonlar deb ataganlar esa yirik er egalari va feodallar edi. "Men dvoryanlar deb atagan tabaqa bu yirik er egalari. Ular hech qanday

foydali mehnat qilmaydilar. Ularning butun hayoti tekinxo'rlik va topgan tutganini eb ichish bilan o'tadi. Ularning butun hayoti bazmu jamshid bo'lib, o'z vatani va xalqiga hech qanday foyda keltirmaydilar" deb yozadi Makiavelli.

### **Makiavelli va makiavellichilik**

Makiavelli va Makiavellichik o'rtasidagi munosabatlar ancha murakkabdir. Maqsadga etishishda barcha choralar yaxshi degan Makiavellining fikri murakkab vaziyatni yuzaga keltirdi. Lekin Makiavelli xalq deb atagan sinf aslida o'rta tabaqadagi burjua sinfi edi va bu sinfning manfaatlarini himoya qilishda barcha choralar yaxshi deydi Makiavelli. Lekin bunday siyosat keng xalq manfaatlarini hech qachon himoya etmagan va etmaydi ham. Marks Makiavellining "Maqsad yo'lida barcha choralar yaxshi" degan fikrga keskin qarshi chiqadi. O'z dushmanlariga zahar ichirish fitna uyushtirishi suiqasd qilishi bu choralarning hammasi hech qachon keng xalq manfaatlariga xizmat qilmagan va qilmaydi ham. Makiavellining siyosat ta'limoti siyosatni ahloq va diniy qarashlardan ajratdi va faqat sinfiy manfaatlar bilan bog'ladi. Makiavellining bu qarashlari xristian cherkovi tomonidan ham qoralandi. Italyan gumanizmining vakillari ham unga qarshi chiqishdi. Masalan Tomazzo Kampanella milliy maqsad sari barcha choralar yaxshi degan fikrini keskin qoralaydi. Kompanella fikricha inson qanday sinf yoki tabaqaga mansubligidan tashqari insoniy-axloqiy tabiatga egadir va bu insondagi axloqiy tabiatni hisobga olmaslik ruhiy tubanlik va inqirozga olib keladi. Natijada esa har qanday davlat inqirozga yuz tutadi. Kompanella fikricha Rim imperiyasining emirlashining asosiy sababi sinflar o'rtasidagi kurash emas, aslida ruhiy tubanlik va inqiroz edi. Shunday qilib Makiavelli fikrlarida ko'pgina ziddiyatlar va qarama qarshiliklar mavjud. Aslida u xalq deb atagan omma tor doiralari bilan chegaralangan o'rta hol burjuaziya sinfi edi.

Makiavelli xalq tushunchasini sinf tushunchasi bilan almashtirishga harakat qildi. Lekin hech qanday sinf ... omma manfaatlarini birlashtira olmaydi. Inson manfaatlarini birlashtiradigan narsa sinfiy manfaatlar emas barcha sinflar vakillari aslida yagona insoniy tabiatga egadirlar va bu insoniy tabiatning yagona mezoni Kompanella fikricha axloq va e'tiqoddir.

### **Brunoning naturalistik panteizmi**

J. Brunoning paneistik natur falsafasi uyg'onish davrining eng buyuk va kuchli falsafiy sistemalaridan edi. U o'zining falsafiy qarashlarida tabiatni ruhlantirdi va uning go'zalligini madh etdi. Inson va tabiatning mutanosibliigi insondagi barcha ezgulik va ruhiy kuch tabiat bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Bruno o'z davrining eng hurfikr, irodasi bukilmay va qo'rqmas mutafakkirdan edi. U nafaqat faylasuf buyuk shaxs sifatida ham undan keyingi avlodlar e'tiborini o'ziga tortadi.

U o‘z qarashlarida Ibn Rushd, Ibn Giberol Piko dela Mirandolo, Marselio Fichino va ko‘pgina boshqa mutafakkirlarning inson va tabiat haqidagi fikrlarini o‘zida mujassamlashtirdi.

Bruno N. Kopernik ta’limotidagi gemitsentrik nazariyani davom ettirib koinot cheksiz degan xulosaga keldi. J.Brunoning ta’limoti undan oldin yashagan buyuk mutafakkir N.Kuzanskiy ta’limotiga falsafiy jihatdan o‘xshab ketar edi.

Bruno Kuzanskiyda mavjud bo‘lgan paneistik va dialektik fikrlarni rivojlantirdi va o‘zining panteistik ta’limotini eng yuqori cho‘qqiga olib chiqdi. Bruno materiya va ruhni, tabiat va xudoni birlashtirdi. Butun borliqni koinotni birlashtiruvchi kuch xudo. U tabiatda tajalli etadi va xilma-xil qiyofalarda ko‘rinadi.

Brunoning bunday izchil qarashlari xristian falsafasi qarashlariga zid edi. Xristian dinida xudo tabiatni yaratgan. Uni harakatga keltirgan va undan tashqarida mavjud Brunoda esa xudo tabiatning ichida mavjud va o‘zining yaratuvchilik kuch-qudartini tabiatdagi jarayonlar orqali namoyish etadi. Ruhiiy kuch borliq sari intiladi va uning bu intilishini hech qanday boshqa kuch eng olmaydi. Xudo borliq birla mavjud.

Undan tashqarida yaratuvchilik qudratini axtarish Bruno fikricha behuda urinishdir.

Bruno bu fikrlarni ochiq-oydin izhor etdi. U hech qanday ikkilanishga o‘rin qoldirmadi. Uning fojiali taqdiri undagi qat’iyat va jasorat bilan bog‘liq bo‘lgan hurfikrlilikdan kelib chiqdi.

### **Brunoning yagona borliq haqidagi ta’limoti**

Brunoning yagona borliq haqidagi ta’limotida borliqning asosida yotuvchi barcha narsalarni birlashtiruvchi yakkayu-yagona ruhiy kuch haqidagi gapiriladi. Yagonalik kuchi borliq asosida yotadi va borliqning o‘zi ham yagona kuchning borlig‘idir.

Bruno fikricha borliqdagi barcha narsalar bir-biri bilan bog‘liqdir. Materiya va ..... tabiat va inson, xudo va tabiat, yagona borliqni tashkil etadilar. Bu borliqdan tashqarida hech qanday borliq mavjud emas. Yagonalik printsipi bu dunyodagi barcha narsalarni bir-biriga bog‘lab qo‘yadi. Yagonalik printsipi mutlaq va absolyut, harakatsizdir.

Brunoning yagonalik printsipi aslida yagona borliqdir. U moddiy shaklga ega emas. U materiya emas. Chunki uning moddiy shakli yo‘q. U aslida butun koinot va borliqdir. Yagona borliq harkatsizdir va barcha moddiy narsalarning harakati zaminida yotadi. Yagona borliq ta’limoti asosida ziddiyatlarning birligi masalan: maksimum va minimumlarning birligi, shakl va materiyaning birligi, xudo va tabiat birligi yotadi. Barcha

narsalarning xilma-xilligi asosida ham yagona borliq printsipli yotadi. Bu g'oyani Bruno o'zining "Shondon" komediyasida ifoda etgan.

### **Panpsixizm va "olamiy jon"**

J. Brunoning ta'limotida materiyaning shakllar yaratishga qodirligi olamiy jon deb nom oladi. Bu olamiy moddiy borliqda mavjud va undagi barcha narsalardan ustun turadi. Olamiy jon va borliqdagi barcha jonlarni, undagi barcha moddiy narsalarni ham yaratadi. Koinotning ruhlanganligi haqidagi ta'limot Aristotelning harakatsiz borliq haqidagi ta'limotiga qaratilgan edi. Aristotel ta'limotida barcha narsalarning harakat sabablari tashqi birinchi turtki bilan bog'langan edi. Bruno ta'limotida esa barcha narsalar ichki harakat manbasiga ega. Bu manbaga ulardan olamiy jonning faoliyatidir.

Bu faoliyat ruhiy kuch va qudard natijasida paydo bo'ldi. Bruno fikricha koinotdagi barcha narsalar o'zining ruhiy kuchiga egadir. Aynan shu kuch harakatning ichki sababchisidir. Undan tashqari bu ruhiy kuch koinotdagi barcha narsalarni ongligiga sababchidir. Shunday qilib Bruno o'zining ta'limotida koinotdagi barcha moddiy narsalarning harakatini va ongini ularda yashiringan ichki ruhiy kuch mavjudligidan kelib chiqadi deb hisoblaydi. Bu ruhiy kuch narsalarni harakatga keltiradi va ularga ongni ham beradi.

### **Bruno ta'limotida makon va zamon**

Bruno Aristotel ta'limotidagi bo'shliqni inkor etuvchi haqidagi g'oyani inkor etadi. Bruno o'zining makon haqidagi ta'limotida bo'shliq va xaos to'g'risidagi fikrlarni aytib o'tadi. Bruno fikricha makon materiya bilan birgalikda bo'shliq sifatida mavjud bo'lgan. Materiya joylashgan bo'shliq Bruno fikricha makondir.

Makon materiyaning joylashgan joyi bo'lib materiyaning harakati ham makonda bo'shliq mavjud bo'lganligi uchun ham mumkindir. "Makonning bo'shlig'i bu moddiy narsalarning harakatga keladigan joyidir» deb yozadi Bruno.

Bruno Aristotel tomonidan vaqtni harakatdan materiyadan va makondan ajratilgan holatda tushinishga qarshi chiqadi. Bruno fikricha vaqt materiyaning harakati va makon bilan bog'liqdir. Shuning uchun vaqt nisbiydir. Bruno vaqtni materiyaning harakati bilan bog'lar ekan uni davomiylik sifatida tushunadi.

Vaqt borliqdagi osmon jismlarining harakati bilan ham bog'liqdir. Har xil moddiy jismlarning harakatlari bilan bog'liq bo'lgan vaqt ham har



xildir. J.Brunoning makon va zamon haqidagi ta'limoti uning yangi kosmogonik nazariyani yaratishi bilan bog'liq edi.

### **Brunoning yangi kosmologiya uchun kurash**

Brunoning yangi kosmologiyasi uning naturalistik panteizmi bilan bevosita bog'liq edi. Bruno Kopernikning kashfiyotini faqat matematik nazariya deb hisoblashga qarshi chiqdi va uni rivojlantirib, o'zining yangi kosmologiyasining asosiga qo'ydi. Kopernik nazariyasini maqtar ekan Bruno uni N. Kuzanskiy ta'limoti bilan bog'laydi va buning natijasida Kopernikning nazariyasi Bruno kosmologik ta'limotida o'zgargan holatda ishlatiladi.

J.Brunoning kosmologiyasining asosiy g'oyalari Aristotelning ratsionalistik formal mantiqqa asoslangan falsafiy ta'limotidagi g'oyalarga qarshi qaratilgan edi. Brunoning kosmologiyasida koinot cheksiz shuning uchun unda hech qanday markaz yo'q. Hatto quyosh ham koinotning markazini tashkil etmaydi. Cheksizlikdagi har bir nuqta markaz bo'lishi mumkin. Bu kosmologik nazariyadan Bruno olamning yagonaligi va birligi haqidagi fikrni ham shakllantiradi.

Borliqning yagonaligi haqidagi g'oya koinotdagi barcha jismlarni bir turdagi ruhlangan materiyadan tashkil topganligiga olib kelar edi. Er, va boshqa osmon jismlari bir-biri bilan bevosita aloqada va ularning harakatlari bir xil qonunlarga bo'ysunadi. Er va erdagi hayot koinotdagi barcha borliq jismlarga va ulardagi hayotga o'xshaydi.

Tiriklik va hayotiylik materiyaning asosiy xususiyatlaridan biridir. Shuning uchun boshqa sayyoralarda ham hayot mavjud. Lekin uning shakllari har xil bo'lishi mumkin. Bundan tashqari Bruno fikricha kosmosdagi barcha osmon jismlar xuddi erga o'xshash ruhlangandir. Ularni o'ziga xos ongi mavjud. Demak boshqa osmon jismlarida ham ongli mavjudotlar bo'lishi mumkin. Butun koinot tirik, harakatda va onglidir. Koinotdagi osmon jismlari tinimsiz harakatda bo'lgan barcha narsalar o'tkinchidir. Shuning uchun osmon jismlari va ulardagi turli tuman mavjudotlar qachonlardir paydo bo'lgan vaqt o'tgandan so'ng yo'qoladilar. Brunoning xulosasi: Koinotdagi barcha narsalar o'tkinchidir, lekin koinotning o'zi abadiydir. Bruno ta'limotida koinot materialistik ta'limotdagi koinotdan katta farq qiladi. Undagi koinot ruhlangan onga ega va undagi harakat manbaasi qalbi bo'lgan olamiy jon mahsulidir. Brunoning panteistik ta'limoti irratsional xarakterga egadir. Unda materiya va ruh birlashgan. Materializm va idealizmga xos bo'lgan birlamchi ekanligi masalasi Bruno falsafasida o'xshamaydi materialistlar ta'limotida materiya birlamchi, ruh esa ikklamchidir idealistlarda ruh

birlamchi, materiya esa ikklamchi edi. Brunoning panteistik natur falsafasida esa nima birlamchiyu nima ikklamchi masalasi qo'yilmaydi. Uning o'rniga Bruno materiyani ham ruhiy ruhlangan shaklda tushunadi. Materiya o'zi Bruno uchun Ollohning qalbi bo'lgan olamiy jonning mahsulidir. Bunday dunyoqarashni XX asr falsafasida irratsionalizm deb atashdi. Brunoning panteistik naturfalsafasidagi juda ko'p g'oyalar ayniqsa makon va zamonning nisbiyligi vaqtning davomiylik sifatida tushunish ularning harakat bilan bog'liqligi materiyaning ruhlanganligi, materiyada hayotiy jo'shqinlik mavjudligi va bu hayotiy jo'shqinlik ijodkorlik kuchini tashkil etishi Bergsonning hayot falsafasidagi nihoyatda ko'p fikrlar bilan bir xildir.

#### Koinotning cheksizligi

Brunoning fikricha koinotning o'zi cheksiz, undagi osmon jismlari chegaralangan ya'ni ular qachonlardir paydo bo'lgan va qachonlardir yo'qoladi. Undan tashqari bo'shliqda ularning o'z o'rnini bor. Koinot esa abadiydir. Koinot hech qachon yo'qolmaydi. U harakatsizdir va undan tashqarida hech qanday makon va zamon yo'q. Bo'shliq, undagi harakat qiluvchi jismlar nisbiy makon va nisbiy zamon bularning barchasi koinotga xosdir. Lekin koinotning o'zi abadiydir.

#### **Cheksiz koinot va xudo**

Sxolastika falsafasi moddiy olamni chegaralangan deb uni Ollohning borligiga qarama-qarshi qo'yishgan. Bruno aynan shu qarma-qarshilikka qarshi chiqadi. Xudoning cheksizligi va qudrati moddiy olamning cheksizligi orqali tajalli etadi. Undan tashqarida emas. Shunday qilib Brunoda tabiatdagi mutanosiblik, mukammallik va go'zallik xudo tabiat bilan birlashib ketganligidan kelib chiqadi. Tabiat xudoga teng emas. Xudo tabiatning o'zida mavjud va u bilan birlashib ketgan. Tabiatdagi barcha o'zgarishlar ham xudoning yaratuvchilik qudratidan kelib chiqadi.

Shunday qilib Brunoda tabiat xudo, xudo tabiatdir.

#### Ijtimoiy-siyosiy qarashlari

Bruno o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy tuzumning kamchiliklarini ko'rib, ularni tuzatish yo'llarini o'ylab chiqqan edi. U xristian cherkovining davlat ishlariga aralashishini qoralaydi va cherkovni davlatdan ajratish kerak deb hisoblanadi. U sanoat, dehqon va hunar-kasblarni rivojlanish zarur deb hisoblaydi. Bu sohadagi ishlaydigan shaharning mehnati ozod va erkin bo'lishi kerak. Davlatdagi barcha vahshiy qonunlar va hur fikrlilikka qarshi bo'lgan qoidalar yo'qotilishi kerak.

Uning fikricha jamiyatda feodallarga bo'lgan imtiyozlar yo'qotilishi kerak. Bruno jamiyatda fuqarolarning huquqlari teng bo'lishi kerak deb

hisoblagan. Uning bu fikrlari o‘z davri uchun ham ilg‘or fikrlar edi va yangi shakllanayotgan burjua sinfining manfaatiga to‘g‘ri kelar edi. O‘zining “geroik ektuziozi” asarida Bruno sinfiy tabaqalanishni oqloydi va jamiyatda sinflarning mavjudligi zarurdir deb hisoblaydi. Sinflar va shaxsiy mulk rivojlanishning zaruriy sharoitini tashkil etadilar.

Shunday qilib J. Bruno o‘z davrining burjua sinfi manfaatlarini himoya qilgan edi.

Yakob Byumening mistik panteizmi

Yakob Byumening mistik panteizmi o‘rta asr mistik oppozitsion qarashlarining ajralmas bir qismi edi. Bu qarshlarga binoan inson va tabiat, tabiat va xudo bir-biridan ajralmas yagona borliqdir, inson qalbidagi ilohiy zarra orqali u bevosita xudo bilan aloqada bo‘lishi mumkin va xristian katolik cherkovining vositachilik ahamiyati ham shu bilan barham topadi. Bunday mistik qarashlar xristian katolik cherkoviga qarshi qartilgan edi, shuning uchun cherkov tomonidan shavqatsiz ta‘qib etilgan.

Gorfunkelning fikricha Yakob Byume Galileyning zamondoshi bo‘lishiga qaramasdan o‘zining fikrlari va panteistik qarashlari bo‘yicha uyg‘onish davrining eng oxirgi, yakunlovchi davriga tegishlidir. Byomening teosofik qarashlari

L.Feyerbaxning fikricha Ya.Byome diniy naturfaylasuf, uning qarashlari uyg‘onish davri gumanistlari qarashlaridan keskin farq qiladi. Uning falsafiy qarashlariga teotsentrizm ruhiyati xos edi.

Ya. Byomening fikricha tabiat mohiyatini inson tabishunos bilimlarga asoslangan tarzda emas, balki o‘zining intuitiv dunyoqarashiga asoslangan holda bilishi mumkin.

Byomening o‘zi ham o‘zining falsafiy qarashlarida go‘zal, badiiy timsolaridan keng foydalanadi. Va bu timsollar asosida inson, tabiat va xudo o‘rtasidagi aloqalarni ifodalaydi. Byome fikricha borliq bular o‘rtasidagi dialektik munosabatlardan tashkil topadi.

### **Yakob Byome panteizmining o‘ziga xos xususiyatlari.**

Byome asarlarila kitobxon mantiqiy izchillik, tarixiylik, davriylik va boshqa falsafiy sistemaga xos bo‘lgan talablarga binoan qurilgan yaxlitlikni topa olmaydi. Lekin uning asarlari markazida xudoning borligi g‘oyasi yotadi va muallifning barcha fikrlari xudo g‘oyasi bilan birlashadi. Buni biz quyoshdan taralgan nurlarga o‘xshatishimiz mumkin. Quyosh-bu xudo g‘oyasi bo‘lsa undan taralgan nurlar esa Byomening barcha falsafiy fikrlari va g‘oyalaridir. Byome asarlariga intuitiv dunyoqarashi xos bo‘lganligi uchun u ratsional sistemaga o‘xshab qurilmagan. Uning falsafasi markazida xudo g‘oyasi joylashgan va barcha boshqa g‘oyalar badiiy obrazlar (timsoli)

orqali bu bilan birlashadi. Vaholanki ratsional dunyoqarshda faylasufning fikrlari bir-biridan mantiqiy izchilik bilan kelib chiqishi kerak. Bu talab fanlarning ratsional talablariga ham to'g'ri keladi. Byome asarlarining barchasi bularga to'g'ri kelmaydi. Gorfunkel fikricha, Byome asaridagi yaxlitilik irratsional tusga egadir.

Byome fikricha xudo-bu eng oliy birlikdir. Xudoda barcha narsalar, beqiyos xilma-xil olam birlashadi. Lekin faqat buni tan olishgina etarli emasdir.

Byomemning fikricha xudoning birligini inson tafakkuri tahlil qila olmaydi. Bu shunday sirli birlikki. Xudoning o'zi ham o'z borlig'i haqida tushunchaga ega emas. Xudo bu borliqning o'zi va u har qanday bilimdan ustundir va uning borlig'ini hech qanday bilim olamning doimiy o'zgarishi xudoning yaratish qudarti bilan bog'liq. Olam bilan xudoning o'zi ham cheksiz bor, harakatda va yaratilishi jarayonidadir. Xudoning o'zi o'zgarimas bo'lsa ham u o'zining yaratish qudarti orqali doimiy o'zgarishda va yaratilishi jarayonidadir. Olamdagi barcha narsalar er va osmon, sanamlar va butlar bular barchasi xudodir. "Ey nodon inson deydi Byome o'zining «Erta tong yoki Avrora» asarida -sen xudoni borliqdan tashqarida axtarmagin, u borliq ichida, pardalar orqasida yashiringan. Xudoni yashirgan pardalar esa moddiy olamdagi o'tkinchi narsalardir. Ularning barchasi xudoning liboslari va xilma-xil kiyimlaridir.

### **Umumiy xulosalar**

Uyg'onish davri falsafasi sxolastik davridan ma'rifat davriga o'tish uchun zarur bo'lgan buyuk xizmatni bajardi. Bu davr uyg'onish deb bekorga nom olmadi, antik yunon va rim falsafiy me'rosini tiklashdan tashqari bu davr insoniyatga buyuk daholar, mutafakkir, san'atkor va shoirlarni berdi.

XIV-XVI asr buyuk mutafakkirlari yangi dunyoqarash va insonni dunyodagi markaziy o'rnini ko'rsatib berishdi. Teotsentrizm nazariyasi o'rniga Renessans falsafasi gumanizm va antropotsentrizm g'oyalarini kiritdi. Sxolastik diniy ta'limotida xudo kosmos va tabiatdan ajralgan holatda mavjud edi. U tabiatni, koinotni yaratgan, lekin o'zi yaratgan olamdan tashqarida edi. Xuddi shunday inson ham xudodan ajratilgan va inson borlig'i xudoning borlig'idan alohida mavjud edi. Insonni sxolastikka gunohkor. Nomukammal banda deb hisoblar edi. Uyg'onish davri falsafasi insonni ulug'ladi va inson borlig'ini butun koinot va xudoning borlig'i bilan birlashtirdi. Endi olam cheksiz, doimiy harakatda va o'zgarishda, inson esa mikrokosmos deb hisoblana boshladi. Ruhiiy olam va moddiy olam

birlashdi. Shuning uchun Renessans davrining naturfalsafasi panteistik xarakterga ega bo'ldi.

Yangi dunyoqarash moddiy olamni cheklangan harakatsiz deb hisoblaydigan sxolatsikaga qarshi chiqdi. Moddiy olam ham ruhiy olam ham yagona borliqni tashkil etib doimiy harakatda o'zgarishda va cheksizlikka intilishda.

Cheksizlikning o'zi yagona. Olamning xususiyalaridan biridir. Bu abadiy doimiy harakatdagi yagona borliq ruhlangan va jonlidir.

Uyg'onish davri falsafasida materiya abstrakt tushuncha emas, u barhayot tirik, xilma-xil jilolanadigan borliqdir. Bu borliq qotib qolgan o'zgarmaydigan emas. Borliq tirik ruhlangan bo'lganligi uchun doimiy harakatda va o'zgarishdadir. Renessans naturfalsafasi falsafiy ta'limot bo'lib XVII-XVIII asrning ilm fan darajasiga ham ko'tarilmagan edi. Yuzaki qaraganda bu kamchilik bo'lib ko'rinisa ham aslida bu uning eng kuchli tomoni edi.

Renessans naturfalsafasi fan darajasiga ko'tarilganligining sababi bu davrning ziddiyatlaridan kelib chiqmasdi. Aksincha Renessans davri falsafa tarixida o'ziga xos buyuk betakror ahamiyatga ega davr hisoblanadi. XIV-XV asrning naturfalsafasi buyuk geografu kashfiyotlarga asoslangan tarzda sxolastikaning (qotib qolgan) dunyoqarashiga zarba berdi. Bu zarbani u etuk rivojlangan fan nuqati nazaridan emas balki, afsonlar ruhiyati va kuzatishlariga asoslangan tarzda berdi. Fandan haqiqat mezoni ishlab chiqilmagan va renessans davri dunyoqarashi panteistik tusga ega edi.

Renessans faylasuflariga magiya bilan qiziqshiga xos bo'lgan. Masalan: Tiko delo Mirandola, Fichino J.Bruno falsafiy ta'limotlarida magiyaga katta e'tibor berilgan. Bu erda nima uchun? degan savol tug'iladi. Buyuk mutafakkirlar bilimni faol kuchga aylanishini benihoyat istashgan. Buning uchun bilim insonning amaliyotiga qo'shib ketishi va undagi ijodkorlik kuchlariga turtkich bo'lishi kerak. Bilimni faol kuchga aylantirishda insonga xudo tomonidan berilgan iroda yordam beradi.

XVII asr ma'rifat davri falsafasi uyg'onish davri falsafasiga xos bo'lgan panteistik va sensualistik qarashlarni inkor etdi va ular o'rniga mexanistik dunyoqarashni yuzaga keltirdi.

### **Savollar:**

1. Uyg'onish davri dunyoqarashining tavsifiy xislatlari.
2. Uyg'onish davri insonparvarligi.
3. Uyg'onish davri tarixchiligi haqida fikringiz.
4. Uyg'onish davrida tarixiy fikrning asosiy yo'nalishlari ayting
5. A. Valla. F.Patritsi. L.Leruaa. N.Makiavelili. J.Boden.

**MA'RIFAT DAVRINING TARIX FALSAFASI  
(XVII – XVIII ASRLAR).**

Tomas Gobbs (1588-1679) ingliz bo'lib, Angliya inqilobining zamondoshi edi. Olti yoshida u lotin va grek tillarini o'rgandi va juda erta Oksford universitetiga o'qishga kirdi. Lord Kavendish (Lord Cavendish) qo'lida kotiblik qilish jarayonida u xizmat yuzasidan ko'p sayohatga chiqdi va o'z davrining ko'pgina buyuk shaxslari (jumladan, Galiley) bilan uchrashdi. Fuqarolar urushi boshlangach, u Frantsiyaga jo'nab ketdi va Angliyaga 1651 yilda qaytib keldi. 88 yoshida u Gmerni ingliz tiliga tarjima qildi.

Asarlari. Eng mashhur asari Leviafan (Leviathan, yoki materiya, shakl, cherkov va fuqarolik davlati hokimiyati Leviathan on the Matter, Form, and Power of a Commonwealth Ecclesiastical and Civil) 1651 yilda chop etilgan. Gobbs, shuningdek, Fuqaro haqida (De Give, 1642), Tana haqida (De corpore, 1655) va Inson haqida (De homine, 1658) kabi asarlarning ham muallifidir.

Jamiyat soat murvati sifatida Gobbs royalistlar va parlament tarafdorlari o'rtasida ochiq, fuqarolar urushi ketgan siyosiy beqaror davrda yashadi. Uning barcha siyosiy asarlari bir maqsadni: tinchlik va tartibni ta'minlashga qodir kuchli boshqaruvning qaror topishini ko'zlaydi. Bu maqsad yo'lida Gobbs absolyut monarxiyani qo'llab-quvvatlaydi. Ammo Gobbsning monarxiyani g'oyaviy asoslashini ikki ma'noda tushunish mumkin edi. Gobbs uchun eng muhimi tinchlik va tartib. Shu bois hokimiyat shakli meros qoluvchi monarxiya bo'ladimi, boshqami jiddiy ahamiyatga ega emas.

Gobbsning siyosiy nazariyasi nihoyatda individualistik va nihoyatda absolyutistik hisoblanadi. Boshqa ko'plab holatlarda bo'lgani singari, bunda hech qanday ziddiyat yo'q. Ijtimoiy muxtoriyat va istibdod yonmayon turishi mumkin. Agar odamlar bir-birlari bilan ichki insoniy rishtalar bilan bog'langan bo'lmasa, u holda anarxiyaning oldini olish uchun tashqi kuchni qo'llash zarur bo'ladi.

Gobbsdagi individualizm va absolyutizmning bunday uyg'unligi ilk kapitalizm davrida uchinchi tabaqa manfaatlarining ideologik ifodasi sifatida tushunilishi mumkin. Kuchli milliy monarx kitoblarning eski imtiyozlarini bekor qilish uchun, bundan tashqari, tinchlik va tartibni ta'minlash uchun hamda savdo-sotiq bitimlarining xaridorlar, sotuvchilar va raqobatchilar tomonidan bajarilishining kafolatchisi sifatida zarur. Hammaning bir-biri bilan iqtisodiy raqobatlashuvi asosida individualistik jamiyat yuzaga keladi. Bu jamiyatning maqsadi uning a'zolarining jon

saqlashi hisoblanadi va jon bilan mol-mulkni saqlash vositasi bo'lib absolyut monarx boshchiligidagi kuchli hokimiyat xizmat qiladi.

Makiavelli jamiyatni o'tmish va bugunning alohida faktlari asosida tushunishga urinadi. Faktlarni batafsil o'rganib, u davlatdan boshqarayotganlar yoki davlatni qo'lga olishga intilayotganlarga yordam berishi mumkin bo'lgan amaliy bilimni orttirishga umid qiladi. Bu bilim "agarunda" ko'rinishiga ega bo'lishi kerak. (Agar biz ma'lum tarzda harakat qilsak, unda tegishli natijani qo'lga kiritamiz.)

Makiavelli insonning tabiati tarix davomida asosan o'zgarmay qolayotir, deb hisoblaydi. Aniqrog'i, u tarix, binobarin, insonlar ham, masalan, davlatlarning yuzaga kelishi, ravnaqi va tanazzuli shaklidagi o'zgarishlar sub'ektidir, deb faraz qiladi. Ushbu shartdan kelib chiqib va o'tgan davrlarning siyosiy hodisalarini o'rganib, biz hozirgi kunda ham foyda berishi mumkin bo'lgan bilimni orttirishimiz mumkin. Masalan, Rim lashkarboshisi va uning askarlari yoki lashkarboshi bilan Rim siyosiy arboblari o'rtasidagi konkret ixtilofni bilish bizning davrimizda hukmdor va qo'shin o'rtasidagi shunday ixtiloflarni qanday hal qilish kerakligini tushunib yetishga yordam berishi mumkin.

Xullas, Makiavelli alohida xususiy hodisalarga asoslanib, universal umumlashtirish mumkin, deb hisoblaydi. Modomiki, bunday yo'l bilan olingan bilim doim ham aniq bo'lavermas ekan, bu bizning bilimlarimiz va hodisalarni nazorat qila bilish qobiliyatimizni chegaralovchi taqdirning aralashuvi tufayli ro'y beradi.

Odatda, Makiavellini tanqid qilganda, u insonning xislatlari o'zgarimasligi haqidagi farazni asos qilib olar ekan, jamiyatda radikal o'zgarishlarning yuz berishini tushunishda qiyinchiliklar bilan to'qnashadi, deb ko'rsatadilar. Buning ustiga, o'z davrining siyosiy hodisalarini psixologik tushunchalar (egoizm singari) va tarixni siklik tushunish (davlat, hukmdor, xalq, aristokratiya, qo'shin o'zining qo'mondon va askarlari bilan, ravnaq va tanazzul holati) dan olingan oddiy siyosiy tushunchalar yordamida tushuntirar ekan, u oz darajada ko'rgazmali hisoblangan fundamental iqtisodiy va madaniy siljishlarni tushuntirishda yanada katta muammolarga duch keladi.

Umuman olganda, Gobbs Makiavellining asosiy fikrlariga qo'shiladi. Jamiyat va siyosat ratsional, ilmiy tushunilishi kerak, insonning tabiati esa printsiptial ravishda o'zgarimas, tarixdan tashqari bo'lib hisoblanadi. Ammo Gobbs Makiavellining tavsifiy usuliga, xususiy hodisalarni o'rganishga asoslangan umumlashtirishlariga qo'shilmaydi. Gobbs yanada ishonchli usulni izlaydi. U bevosita idrok qilinayotgan hodisalarning ichiga, biz

bevosita kuzatayotgan narsalarni tushuntirishi mumkin bo'lgan asosiga chuqur kirib borishga urinadi.

Frantsuz Rene Dekart (Rene Descartes, 1596-1650) La Flesh iezuitlar kollejida sxolastik falsafani o'rgandi. Unda kitobiy olimlikka shubha juda erta uyg'ondi, zotan, uning fikricha, ko'pgina fanlarda ishonchli asos mavjud emas edi. Kitoblarni tashlab, u sayohat qila boshladi. Garchi Dekart katolik bo'lsada, ma'lum vaqt O'ttiz yillik urush davrida protestantlar tarafida qatnashdi. Uning qiziqishlari doirasiga chavandozlik, musiqa, qilichbozlik va raqs kirar edi. 23 yoshida u Germaniyada qishki kvartiralarda bo'lishi chog'ida o'z metodining asosiy g'oyalarini ta'rifladi. Oradan o'n yil o'tib u tinchlik va osoyishtalikda tadqiqotlar bilan shug'ullanish uchun Gollandiyaga ko'chib keldi. 1649 yilda u Stokgolmgga qirolicha Kristina huzuriga tashrif buyurdi. Shvetsiya qishi Dekartga haddan tashqari og'irlik qildi, u betoblanib yotib qoldi va 1650 yilning fevralida vafot etdi.

Asarlari. Uning asosiy asarlari jumlasiga Metod haqida mulohazalar (*Discours de la methode*, 1637) va Metafizik fikr-mulohazalar (*Meditations metaphysiques*, 1647) kiradi. Boshqa asarlaridan Falsafa asoslari (*Principes de la philosophie*) va Aqlni boshqarish qoidalari (*Regies pour la direction de l'esprit*) ni qayd etish mumkin. Metod haqida mulohazalar frantsuz tilida yozilgan dastlabki falsafiy asarlardan biri hisoblanadi. Dekart ham lotin, ham frantsuz tilida ijod qilgan.

Dekart bir vaqtning o'zida ham yangi, ham eski davrlarning vakili hisoblanadi. Bir tomondan, u falsafaga yangi mustahkam poydevorga asos solishga urinadi. Ikkinchi tomondan esa, u sxolastik an'anaga qattiq bog'langanki, buni, jumladan, uning Xudoning borligiga doyr dalillari ham isbotlaydi.

Dekartning fikricha, falsafada qarama-qarshi fikrlar har qanday masala bo'yicha mavjud bo'ladi. Birdan-bir chindan ham ishonchli metod matematik deduktsiya hisoblanadi. Shuning uchun Dekart ilmiy ideal sifatida deduktiv tizimga qaraydi. Bu ideal Dekart falsafasini belgilovchi omilga aylandi.

Agar falsafa Yevklid geometriyasiga o'xshash deduktiv tizim bo'lishi kerak bo'lsa, unda to'liq darajada aniq va haqiqiy dalillar (aksiomalar)ni topish zarur. Agar dalillar noaniq va, shubhali bo'lsa, deduktiv tizimning xulosalari (teoremlar) kam qimmatga ega bo'ladi.

Dekart matematikadan olgan va ilmiy metodning ayrim o'ziga xosliklarini ifodalovchi bu ilmiy ideal uni deduktiv falsafiy tizim uchun mutlaqo aniq va ma'lum dalillarni qanday topish mumkinligi masalasiga olib keladi. Bu masalaga javob topishga metodik shubha yordam beradi. U



biz mantiqan shubha qilishimiz mumkin bo'lgan barcha qoidalarni istisno etish va mantiqan shubhasiz sanalgan qoidalarni izlash vositasi xisoblanadi. Aynan shunday shubhasiz qoidalaridan biz deduktiv tizimimizning dalillari sifatida foydalana olamiz.

Metodik shubha, shunday qilib, asosli yoki asossiz shubha qilish mumkin bo'lgan narsani emas, balki mantiqan shubha qilish mumkin bo'lgan narsani topishni ko'zlaydi. Metodik shubha deduktiv falsafiy tizimga dalil bo'la olmaydigan barcha fikrlarni istisno etish usuli (metodi) hisoblanadi.

Dekart uchun shubhaning o'zi ham ma'lum dalillar bilan bog'liq. Masalan, tadqiqotchilar guruhi emas, balki aynan individning o'zi, alohida fikrlovchi sub'ekt savollar beradi, ya'ni shubha qiladi. Shuning uchun ham aniqligiga Dekart shubha qilmaydigan qoida individning o'zi fikrlovchi mavjudot ekanligiga bo'lgan ishonchi hisoblanadi. Bu shubha qilib bo'lmaydigan xulosa Dekart tomonidan qo'llanuvchi masalalarni qo'yish usuliga singdirilgan.

Yangi davrdagi ham ratsionalistik, ham empiritsistik falsafaning aksar qismi uchun fikrlovchi individ epistemologik tayanch nuqtasi bo'lib hisoblanadi. Faqat keyinchalik, tarixga asoslangan Gegel uchun yoki, e'tibor markazida tadqiqotchilar ham jamoasi va ilmiy bilishning taraqqiyoti turgan Pirs uchun bo'lgani singari, birinchi o'ringa intersub'ektiv bilish g'oyasi ko'tariladi. Xuddi shu vaqtda bilish harakatlar, ya'ni biz qilayotgan ishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi haqidagi tasavvur katta ahamiyat kasb (Gegel va Marksdan Pirs orqali Vitgenshteynga) eta boshlaydi.

Eng yangi davrda, Nitsheddan boshlab postmodernistlargacha, aql va taraqqiyotga bo'lgan ishonchni bu ishonch avtonom sub'ektlarga bog'liqmi yoki tadqiqotchilarning ochiq jamiyatigami, qat'iy nazar, tanqid ostiga oladilar. Metodik shubha yordamida Dekart bilimning har xil turlarini sinovdan o'tkazadi.

1) Dastlab u falsafiy an'anani ko'rib chiqadi. Umuman olganda, faylasuflarning fikrlariga shubha qilish mumkinmi? Mumkin, deb javob beradi Dekart. Shuning uchun ham mumkinki, faylasuflar ko'pgina masalalar bo'yicha kelishmaganlar va shunday bo'lib qolayotir.

2) Bizning hissiy idroklarimiz qanday? Ularga mantiqan shubha qilish mumkinmi? Mumkin, deydi Dekart va quyidagi dalilni keltiradi. Shu narsa aniqki, ba'zan biz illyuziya va gallyutsinatsiyalarga berilamiz. Masalan, minora yumaloq bo'lib ko'rinadi, ammo keyin uning kvadrat shaklida ekanligi ma'lum bo'ladi. Binobarin, biz bitta o'sha narsa haqida ikki xil bir-biriga zid hissiy tasavvurlarga ega bo'lamiz. Amalda biz bir sezgiga

boshqasiga qaraganda ko‘proq ishonamiz. Biz, aytaylik, minoraga yaqinroq kelganda u aslida kvadrat shaklida ekanligiga ishonch hosil qilamiz, chunki u kvadrat shaklida bo‘lib ko‘rinadi, holbuki, uzoqdan u yumaloq bo‘lib ko‘ringan

**Jon Lokk** (John Locke, 1632—1704) puritanlar oilasida tug‘ildi. Uning otasi yurist bo‘lib, parlament tarafdori edi. Lokkda sxolastik falsafaga tanqidiy munosabat va tabiiy fanlarga, ayniqsa, tibbiyot va kimyoga qiziqish juda erta paydo bo‘ldi. Lokk o‘z oldiga intellektual "tozalash"ni amalga oshirish, ya‘ni bilishni tanqidiy tekshirishni maqsad qilib qo‘ydi. U aynan axloqiy va diniy muammolarga doyr tunganmas bahslar uni qo‘llanuvchi tushunchalarning ko‘pchiligi umidsiz darajada noaniq va noto‘g‘ri emasmi, degan savolni berishga majbur qilganini tan oladi. Lokk faylasuflar ham, tabiat hodisalarini tadqiq qiluvchi olimlar singari, tajriba yordamida qadam baqadam olg‘a yurishlari kerak, deb hisoblaydi. "Buyuk" muammolarni ko‘rib chiqishga o‘tishdan oldin, o‘z vositalarimiz, ya‘ni o‘z tushunchalarimizni o‘rganib chiqishimiz kerak. Shuning uchun Lokk bilishni tanqid qilish va tilni tahlildan o‘tkazishdan boshlaydi. Ammo "vositalar"ga bo‘lgan qiziqish uning konkret muammolar bilan shug‘ullanishiga ham halaqit bermaydi. Lokk pedagogika va siyosiy nazariyaning klassiklaridan biri hisoblanadi.

Asarlari. Boshqaruv haqida traktat (Two Treatises of Civil Government, 1690) asarini liberalizmning bibliyasi deb ataydilar. Uning birinchi qismi absolyutizm ideologi ser Robert Filmer (Sir Robert Firmer, 1588—1653) ni tanqid qilishga bag‘ishlangan. Ikkinchi qismida Lokkning davlat va tabiiy huquq haqidagi o‘z g‘oyalari ko‘rib chiqilgan. Bu asarni Vilgelm Oranskiy (William of Orange, 1650—1702) konstitutsiyaviy monarxiyasining asoslanishi sifatida baholaganlar, ammo uning g‘oyalari Frantsiyada ham, Amerikada ham inqilobiy rol o‘ynagan. Lokk shuningdek Diniy bag‘rikenglik, Tarbiya haqida o‘ylar, Xristianlikning aqlga muvofiqligi asarlari hamda Insonning bilishi haqida tajriba (1689) (An Essay Concerning Toleration, Some Thoughts Concerning Education, The Reasonableness of Christianity, An Essay Concerning Human Understanding) nomli epistemologik asarlar muallifidir.

Epistemologiya va bilishni tanqid. Lokkning ta‘limoti ko‘p jihatlardan har xil g‘oyaviy yo‘nalishlar kesishuvida yotadi. Uning falsafasi ildizlari tabiiy huquq kontseptsiyasi tarafdorlari hamda nominalistlar (Okkam)ga borib taqaladi. Unga ratsionalist Dekart ta‘sir ko‘rsatdi, ammo u karteziyanlik ratsionalizmiga qarshi empiritsistik dalillar keltirdi. Lokk Ma‘rifat davrining darakchisi va shu bilan bir vaqtda, Ma‘rifat davri

falsafasining ayrim aspektlarini qattiq tanqid qilgan falsafiy oqim Britaniya empiritsizmining o'tmishdoshi edi.

Ratsionalistlar aniq tushunchalar bizga reallikni bilish imkonini beradi, deb hisoblaganlar. Agar biz aniq tushunchaga ega bo'lsak, ishonchli bilimga ega bo'lamiz. Ular inson o'z aql-idrokidan to'g'ri foydalangan taqdirda to'g'ri bilim olishi mumkinligiga juda ishonganlar. To'g'ri, ratsionalist Dekart shubhaga asoslangan, ammo unga bilishni to'g'ri yo'lga solish vositasi sifatida qaragan.

Ammo ratsionalistlar nima aniq va oydin, ya'ni to'g'ri ekanligi yuzasidan bahslashadilar. Bu bahs-munozaralar, o'z navbatida, ratsionalizmga qarshi dalillarni ilgari surish uchun qulay zamin yaratadi. Lokkdan Kantgacha ilgari surilgan bunday standart dalillardan biri tushunchalarni anglab yetish bironbir real narsani muqarrar anglab yetishga olib kelmasligi haqidagi dalil edi. Bizning o'qish-yozishni biladigan ongli mushuk haqidagi tushunchamiz bunday mushukning mavjudligini anglatmaydi! Xuddi shu singari, Mukammal Mavjudot, Xudo haqidagi tushunchadan U mavjud degan xulosa kelib chiqmaydi. Biz tushunchadan mavjudlik haqida xulosa chiqara olmaymiz.

Lokk shubhadan faqat xatosiz bilim olishga olib kelishi mumkin bo'lgan bir martalik vosita sifatida emas, balki doimiy tekshiruv vositasi sifatida ham foydalanadi. Zotan bilish jarayoni uzil-kesil emas, balki ayrim oraliq natijani beradi. Shuning uchun bizning vazifamiz, tabiiy fanlarda bo'lgani singari, mavjud bilimni doimiy va tanqidiy takomillashtirishdan iborat bo'ladi.

Uyg'onib kelayotgan tabiiy fanlarning ta'siri ostida Lokk, ratsionalistlar Dekart, Spinoza va Leybnitsdan farqli o'laroq boshqa qoida va bilish ideallariga keladi. Lokkda empirik fan bo'lgan tibbiyotga qiziqish ayniqsa kuchli bo'lganini eslatib o'tamiz. Ma'lumki, bu fanda kuzatish va tasniflash asosiy o'rin tutadi. Tajribaga asoslangan va nazariyaga skeptik yondashgan tibbiyot fani va falsafa o'rtasidagi aloqa Antik davridayoq mavjud bo'lgan (Gippokrat).

XVII—XVIII asrlardagi ham ratsionalistlar, ham empiritsistlarga mansub ko'pgina faylasuflar singari, Lokk ham epistemologiya bilan juda ko'p shug'ullanadi. Ular singari, Lokk ham insonning bilishi nimalarga erishishi mumkinligini aniqlashga urinadi. Inson bilishining chegarasi qaerda? Bu juda muhim masala. Zotan inson bilishining chegaralarini aniqlab, biz o'zimizni to'g'ri bo'lmagan narsaning to'g'riligiga bo'lgan ishonchdan xalos etishimiz mumkin. Bilishni tanqid qilgan ratsionalistlarga epistemologiya falsafiy sistemalarni yaratish uchun istehkom bo'lib xizmat qiladi. Lokk bilan boshqa empiritsistlar uchun esa, aksincha, terapevtik

xususiyatga ega bo'lgan va fanning rivojlanishiga imkoniyat yaratadigan bilimning tanqidi mustaqil maqsad bo'lib hisoblanadi. Bu shu bilan bog'liqki, bilishning empiritsistik tahlili bizning bilish qobiliyatlarimizga nisbatan ehtiyotkorlik bilan qarashga olib boradi.

Leybnits monadalar va belgilab qo'yilgan uyg'unlik. Gotfrid Vilgelm Leybnits (Gottfried Wilhelm von Leibniz, 1646-1716) nemis edi, ammo, qirol oftob Lyudovik XIV (1638-1715) davrining faylasufi bo'lgani bois, asosan frantsuz tilida hamda lotin tilida ijod qilgan. Uning turmush tarzi Spinozaning turmush tarziga tamomila teskari bo'lgan. Leybnits tom ma'nodagi dunyoviy inson bo'lib, uning uyi butun Yevropa hisoblangan. Uning qobiliyati turli nazariy va amaliy sohalarda namoyon bo'lgan. Masalan, u konchilik, siyosiy islohotlar, moliya, qonunchilik, optika, transport muammolari va ilmiy hamjamiyatlarni tashkil qilish bilan shug'ullangan. Bundan tashqari, Leybnits juda ko'p sayohat qilgan va o'zidan 15 mingdan ortiq xatdan iborat epistolyar meros qoldirgan. U turli qirol saroylari bilan aloqa qilgan va qirol naslidan bo'lgan shaxslar bilan tanish bo'lgan. Nazariy miqyosda u falsafa, teologiya, huquq, fizika, tibbiyot, tarix va filologiya sohalarida faoliyat ko'rsatgan. U ayniqsa Nyuton bilan bir vaqtda va unga bog'liq bo'lmagan holda yaratgan o'zining differentsial hisoblash kashfiyoti bilan mashhur.

Asarlari. Ko'plab asarlaridan faqat ikkitasini tilga olib o'tamiz. Teoditseya (Essaias de Theodicee, 1710) la Leybnits Xudo va iblisning o'zaro aloqasi masalalarini ko'rib chiqadi va mumkin bo'lgan dunyolarning eng yaxshisi hisoblangan bu dunyodagi yomonliklar uchun javobgarlikdan Xudoni xalos etishga urinadi. Monadologiya (Monadologie, 1714) esa asosiy va fundamental elementlari "monadalar" bo'lgan olamning tuzilishi muhokama qilinadi. Leybnits shuningdek Lokkning epistemologiyasini Inson bilishi haqidagi yangi tajribalar (Nouveaux essais l'entendement humain, 1703) da tanqidiy tahdiddan o'tkazgan.

Maqsad va sabab yangi sintez. Leybnits dunyoning mexanistik manzarasini teleologik (aniq maqsadga yo'naltirilgan) olam g'oyasi bilan kelishtirishga intiladi. Qisqacha aytganda, Leybnits mexanistik manzara chuqurroq qaraganda izchil, teleologik bo'lgan olamni faqat yuzaki tushuntiradi, deb hisoblaydi. Ko'r-ko'rona harakat qilayotgandek ko'rinuvchi mexanik sabablar oqibat natijada Ilohiy niyatni nazarda tutadi. Bundan kelib chiqib, Leybnits, yuzaki qaraganda moddiy va passiv bo'lib tuyuluvchi narsalar o'z mohiyatiga ko'ra kuchlardir, deb hisoblaydi. Mexanistik va moddiy olam uchun nomoddiy, teleologik "poydevor"ni Leybnits qanday o'rnatganini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Kuchlarning markazlari sifatida xarakterlash mumkin bo'lgan ayrim jismonan bo'linmas asos elementlarga yetishmagunimizga qadar alohida narsalar bo'linish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Leybnits bu elementlarni monadalar deb ataydi. Monadalar olamni tashkil qiluvchi asos elementlar hisoblanadi.

Monadalar noorganik tanalardan inson ruhigacha bo'lgan barcha mavjud narsalarga turli darajada xos onga ega bo'ladi. Monadalar, shunday qilib, ma'lum ierarxiyaning bir qismi hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtda alohida monadaga boshqa monadalar ta'sir qilmaydi. Talabalar hazil qilganidek, monadalarning eshik-derazasi bo'lmaydi. Ular bir-biri bilan aloqa qilmaydi va bir-biriga ta'sir ko'rsatmaydi. Ular bir-biriga nisbatan shunday uyg'un ravishda harakat qiladilarki, ruhiy va moddiy holatlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik yuzaga keladi. Bu barcha monadalarning o'ziga xos bir xilda "dasturlashtirilganligi" tufayli ro'y beradi. Barcha monadalar bitta ilohiy rejaga muvofiq harakatga keltirilgandir. Xudo olamni shunday loyihalashtirgan o'ziga xos universal injener bo'lib qatnashadiki, bunda monadalar, masalan, ruh va tana bir-biri bilan muvofiqlashadi. Bu ma'noda barcha narsalar, barcha monadalar Xudo orqali aloqa qiladi. Olamning teleologik jihati aynan shunda namoyon bo'ladi. Leybnitsning so'zlari bilan aytganda, monadalar belgilab qo'yilgan uyg'unlikning bir qismi hisoblanadi.

Mumkin bo'lgan dunyolarning eng yaxshisi. Modomiki, Xudo olamda ro'y beruvchi hamma narsalarni loyihalashtirgan injener ekan, unda bu olamda yomonlikning mavjudligini qanday tushuntirish mumkin? Axir Xudo bir vaqtning o'zida ham marhamatli, ham hamma narsani biluvchi hisoblanadi. Leybnits haqiqatning ikki turini: zarur (mantiqiy) haqiqatlar bilan aslidagidan boshqacha bo'lishi mumkin bo'lgan aniq haqiqatlarni farqlaydi. Aniq haqiqatlar empirik shart-sharoitlarga bog'liq bo'lib, ehtimollik darajalari bilan xarakterlanadi va shuning uchun ular variantlarda mavjud bo'ladi. Zarur (mantiqiy) haqiqatlarni hatto Xudo ham o'zgartira olmaydi. Aniq haqiqatlar masalasiga kelganda, Xudo, marhamatli va aql-idrokli, har xil empirik holatlar orasidan eng yaxshi kombinatsiyani tanlab oladi. Aniq haqiqatlarni alohida ko'rib chiqishda alohida odamga ayrim holatlar, agar ular boshqacha bo'lsa, yaxshiroq bo'lishi mumkindek bo'lib ko'rinishi mumkin. Biroq, agar biz Xudo singari hamma narsani ko'rishga qodir bo'lganimizda, biz yashayotgan dunyoda hamma narsa eng yaxshi tarzda to'zilgani, ya'ni Xudo mumkin bo'lgan kombinatsiyalardan eng yaxshisini tanlaganini bilgan bo'lardik.

Shuning uchun Leybnits hamma narsa o'z asosiga ega deb ko'rsata oladi. Bu asos yo mantiqan zarur bo'ladi, yo dunyo mumkin bo'lgan

dunyolarning eng yaxshisi bo'lishi haqidagi talabdan kelib chiqadi. Binobarin, biz mumkin bo'lgan dunyolarning eng yaxshisida yashaymiz.

Xullas, Leybnitsning falsafasi Xudo tanlagan dunyoni oqlashdan iboratdir. Xudo dunyoda mavjud yomonlik uchun javobgar emas. Siyosiy nuqtai nazardan bu bir vaqtning o'zida mavjud jamiyatni ham oqlash deb aytish mumkin. Modomiki, biz dunyolarning eng yaxshisida yashar ekanmiz va unda biz duch keladigan azob-uqubat va muhtojliklar biz uchun mumkin bo'lgan azob-uqubat va muhtojliklarning eng ozi ekan, unda jamiyatni o'zgartirish istagi uchun asos juda kamdir. Teoditseya, shunday qilib, bir vaqtning o'zida mavjud jamiyatni hamda yashash sharoitlari va hokimiyatni taqsimlash borasida mavjud tengsizlikni qonuniylashtirish vositasi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi.

Shuningdek, Leybnitsning siyosiy falsafasi aniq individualizmni ifodalaydi, deb ham aytish mumkin: har bir monada o'ziga xos bo'lib, unga boshqa monadalar ta'sir qilmaydi. Ikkita bir xil monada (individ)ning mavjud bo'lishi mumkin emas, zotan Xudo eng yaxshi imkoniyatni tanlaydi. Bundan tashqari, ikki to'liq yangi hodisa o'rtasida ratsional tanlovni amalga oshirib bo'lmaydi, chunki ulardan istalgan birini tanlash uchun bir xil ma'qul asoslar mavjud. Biroq, agar Xudo tanlaydigan bo'lsa, Uning ratsional tanlovi sharti bo'lib to'liq yangi individ (narsa)larning yo'qligi hisoblanadi. Bundan radikal metafizik individualizm kelib chiqadi: olam cheksiz miqdordagi individual substantsiyalardan tashkil topadi.

Shu bilan bir vaqtda bu har xil individlar, bir-biriga bevosita ta'sir qilmagan holda, bir-biri bilan uyg'unlikda bo'ladi. Ular bevosita, belgilab qo'yilgan uyg'unlik orqali o'zaro aloqa qiladi. Siyosiy jihatdan buni shunday tasavvur qilish mumkin: Leybnits odamlar haqida janob bilan qulni bu tushunchalarning feodal ma'nosida bir-biriga qarshi qo'yish doirasida fikr yuritmaydi. Bu ma'no shundan iborat ediki, janob bilan qulning aynan o'xshashligi ularning bir-biriga o'zaro munosabatida aniqlanardi, bunda ularning birinchisi ikkinchisi uchun tanlardi. Leybnitsning fikricha, odamlar o'rtasidagi o'zaro aloqa zohiriy majburliksiz, individning internalizatsiya qilingan normalar (belgilab qo'yilgan tartib)ga bog'liq bo'lgan spontan harakatlari natijasida ro'y beradi. Bu, aftidan, hech kim zohiriy majburlik asosida harakat qilmaydigan kapitalistik bozor ishtirokchilarining xulq-atvoriga javob beradi. Ishtirokchilar har birining o'zida bo'lgan bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan kelib chiqadi.

Berkli empiritsizmning ichki tanqidi. Jorj Berkli (George Berkeley, 1685—1753) irland yepiskopi bo'lgan. Uning eng mashhur asarlari Inson bilimining tamoyillari haqida traktat (Treatise on the Principles of Human

Knowledge, 1710) va Gilas bilan Filonus o'rtasidagi uch suhbat (Three Dialogues between Nu las and Philonous, 1713) hisoblanadi.

"Esse" = "percipi". Idealistik empiritsizm. Berkli o'zini to'g'ri fikr va teistik dunyoqarash (xristianlik dunyoqarashi) ni ateizm va materializmdan himoyalovchi deb hisoblaydi. U to'g'ri fikrni metafizikadan, teistik dunyoqarashni esa ateizm bilan materializmdan himoya qiladi. Materiya mavjud emas va Xudo biz bilan bevosita hissiy idrok orqali muloqot qiladi, deb ko'rsatib, u to'g'ri fikr va xristianlik e'tiqodini kelishtira oldim, deb o'ylaydi. Berkli bunday xulosaga o'zidan oldingi empiritsistlar, jumladan, Lokkning epistemologik qarashlarini tanqidiy rivojlantirish yo'li bilan keladi.

Lokk birlamchi va ikkilamchi sifatlarni farqlaydi. Birlamchi sifatlar (ko'lam, shakl, qattiqlik) ni biz narsalarning o'zida bo'lgan va bizning ular haqidagi hissiy taassurotlarimiz (impressiyalar)ga mos keluvchi sifatlar deb tushunamiz. Biz narsalar bilan bog'lovchi rang, hid, ta'm va sh.k. taassurotlar esa, aksincha, narsalardagi tegishli sifatlarni ifodalamaydi. Narsalar bizning sezgi organlarimizga ta'sir ko'rsatib, bu ikkilamchi taassurotlarni tug'diradi.

Lokk ikkilamchi sifatlarning sub'ektivligi haqidagi tezisni himoya qiladi: narsalardan kelib chiquvchi ma'lum stimullar ta'sirida barcha odamlar rang va ta'm singari sifatlarni idrok qiladilar. Bular narsalarda topib bo'lmaydigan, ammo narsalardan olingan taassurotlar natijasida bizda ma'lum tarzda tug'iluvchi xossalar (atributlar) bo'lib hisoblanadi.

Binobarin, Lokk bizning tasavvurimizdagi dunyo (g'oyalar, hissiy taassurotlar) bilan haqiqiy, bizning sezgi organlarimizga bog'liq bo'lmagan dunyoni ajratadi. So'nggi dunyo haqida biz faqat taxmin qilishimiz mumkin. Berkli bu ajratishni rad etadi. Biz hissiy idrok qiluvchi dunyo yagona mavjud dunyo hisoblanadi. Bizning tasavvurlarimiz asosida yotuvchi va biz idrok qiluvchi dunyoni paydo qiluvchi hissiy idrok qilinmaydigan hech qanday ob'ektlar mavjud emas, taassurotlarning zanjiri hisoblanadi. "Materiya" so'zi ma'nosizdir, chunki u bunday hissiy taassurotlarga ishora qilmaydi.

Shunday qilib, biz Lokk epistemologiyasining ayrim qoidalari (birlamchi va ikkilamchi sifatlarning farqlanishi, hissiy tasavvurlar bilishning asosiy negizi ekanligi haqidagi reprezentativ realizm) biz empiritsizm deb atagan epistemologik an'anada qanday rivojlantirilganini ko'rib chiqdik. Lokk tomonidan yaratilgan assotsiativ psixologiya ufqi doirasida bo'lgan Yum uchun va o'z fikr mulohazalarining tayanch nuqtasi sifatida asosan mantiq va ilmiy metoddan foydalangan keyingi empiritsistlar uchun empiritsizmning radikal ko'rinishi har tomonlama

muhokama predmetiga aylandi. Agar butun bilish hissiy taassurotlar yoki ularning yig'indisiga olib borib bog'lanar ekan, unda faqat empiritsistik tezisni o'z holicha qonuniylashtirishgina qiyin bo'lmaydi. Chunki unda o'z-o'zini referentsiyalovchi noziddiyatlilikning yo'qligi haqidagi klassik dalil kuchda qoladi. Bundan tashqari, empiritsizmning radikal shakli masalan, tashqi dunyoni va boshqa onglarning mavjudligini bilishga nisbatan, skeptitsizmga olib keladi. Bu masalalar hozirgi zamon tahliliy falsafasining e'tibor markazida qolib, kelayotir.

Yum empiritsizm tanqid sifatida. Empiritsistik tanqid. Sababiyat haqida tasavvur. Foma Akvinskiy uchun tabiiy huquq kontseptsiyasi Xudo tomonidan o'rnatilgan ob'ektiv tartib bilan bog'liq bo'lgan edi. Lokk uchun bu kontseptsiya harakatlanuvchi sub'ekt sifatidagi inson bilan bog'liq bo'ldi. Alohida individ bo'linmas huquqlarga ega deb hisoblandi. XVIII asr mobaynida tabiiy huquq kontseptsiyasini romantiqlar ham, empiritsistlar ham (Yum) tanqid qildilar. Romantiklar tabiiy huquq kontseptsiyasining umumiy aspektini tanqid qildilar va har bir xalq uning tarixiy rivojlanishi bilan belgilanuvchi o'ziga xos qonunlariga ega bo'ladi, deb ko'rsatdilar. Empiritsistlar bu kontseptsiyani epistemologik tahlil asosida tanqid qilib, undan biz tabiiy huquq kontseptsiyasi nazarda tutuvchi me'yorlarning to'g'riligi haqida bilimga ega bo'la olmaymiz, degan xulosa chiqardilar.

David Yum (David Hume, 1711-1776) Ma'rifat davrida Volter (Voltaire, 1694-1778) va Russo (Rousseau, 1712-1778) bilan deyarli bir vaqtda yashadi. Yumning asosiy falsafiy g'oyalari juda erta rivojlandi. "Inson tabiati haqida traktat" e'lon qilganida u hali o'ttiz yoshga ham to'lmagan edi. Yum bu asar katta shov-shuvga sabab bo'ladi deb o'ylagan edi, ammo u boshida o'quvchilarda juda kam qiziqish uyg'otdi. Keyinchalik uning falsafasiga qiziqish paydo bo'ldi. Bugungi kunda Yum empiritsistik maktabning buyuk faylasuflaridan biri hisoblanadi.

Klassik ingliz empiritsizmi haqida gan ketganda, odatda Lokk, Berkli va Yum nazarda tutiladi. Yumning quyidagi asarlarini ko'rsatib o'tish mumkin: "Inson tabiati haqida traktat" (1739), "Axlok va siyosat haqida esselar" (Essays Moral and Political, 1741) va "Insonning bilishi haqida tadqiqot" (Enquiry Concerning Human Understanding, 1749).

Ma'rifat davri faylasuflari asossiz an'ana va xurofotlarni vayron qilishning quroli sifatida aql-idrokga murojat qildilar. Ammo aql-idrok tushunchasining o'zi hali yetarli darajada tadqiq qilingan emas edi.

Epistemologik ma'noda shotlandiyalik Yum empiritsist bo'lib, uning uchun bilish (fan)ning faqat ikki turi mavjud edi. Bilishning birinchi turi tajribaga (pirovard natijada hissiy taassurotga), ikkinchisi bitimga ko'ra belgilangan tushunchalarning o'zaro aloqasi qoidalariga (empiritsistik talqinga binoan, bunday bilish matematika va mantiqqa xos).



## **XVIII-XIX ASR O‘RTALARI TARIX FALSAFASI**

Yevropada tarix falsafasi yuqorida aytganimizdek, falsafaning muhim yo‘nalishi sifatida XVIII asrlarda yuzaga keldi. Bu paytga kelib tarixni falsafiy idrok etish ijtimoiy fanlar doirasida ilmiy-nazariy tadqiqotning butunlay yangi bosqichi darajasiga ko‘tarildi. Tarix falsafasi atamasi birinchi marta 1765 yili Volter tomonidan ilgari surildi va tarixshunoslik, jamiyatshunoslik, demografiya, etnografiya hamda falsafa fanlarining umumiy va uzviy bir qismi sifatida butunlay yangi yo‘nalishni ochib berdi. I. G. Gerder tadqiqotlarida tarix falsafasining fan sifatidagi aniq yo‘nalishlari belgilab berildi.

Tarix falsafasi taraqqiyotida Gegel, O. Kont, N. Ya. Danilevskiy, O. Shpengler, A. Toynbi, P. A. Sorokin, K. Yaspers, K. Popper va boshqalar beqiyos hissa qo‘shdilar.

### **Anglo-frantsuz tarix falsafasi**

Keyingi yuz yilliklarda jahon tarixini o‘rganish, uni tadqiq etishda sivilizatsiyaviy yovdashuv tendentsiyasi ustuvorlik qilmoqda. Bu Osvald Shpengler falsafasining Arnold Toynbi tomonidan davom ettirilganligi va lokal sivilizatsiya nazariyasi mumtoz shaklining vujudga kelganligi bilan belgilanadi.

Darhaqiqat, Toynbi «Mashhur sivilizatsiyalar soni unchalik ham katta emas, bizga faqat yigirma bitta sivilizatsiyaga bo‘lish mumkin bo‘ldi. Biroq ularni davom ettirish mumkin. Turli xalqlar, davrlar va mamlakatlarda o‘ziga xos turli rivojlanish hodisalari yuz bergan. Biroq har tomonlama mustaqil va jiddiy sivilizatsiyalar soni o‘ndan ortmaydi», – deydi. Toynbi shunday qilib yigirma bir sivilizatsiya hodisasini e’tirof etadi. Ular qatoriga Arab, Xitoy, Shumer, Mayam, Hind, Ellin, G‘arb, Xristian (Rossiya), Uzoq Sharq (Koreya va Yaponiya), Eron, Misr, Arab, Meksika, Vavilon va boshqa sivilizatsiyalar kiradi.

Frantsuz falsafasining yirik namoyandalaridan biri Reymon Arondir. U milliy tarix falsafasiga ratsionalistik yo‘nalishning yorqin namoyandasi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Uning tarixni o‘rganish va tarixiy tafakkur masalalariga bag‘ishlangan «Falsafaga kirish», «Tanqidiy tarix falsafasi», «Tarixiy tafakkur o‘lchovlari», «Sotsiologik tafakkur taraqqiyoti bosqichlari», «Taraqqiyot sog‘inchi», «Demokratiya va totalitarizm» singari asarlari frantsuz tarix falsafasi maktabida butunlay yangi yo‘nalishni boshlab berdi.

**Nemis tarix falsafasi**

Nemis tarix falsafasining yirik namoyandalaridan biri Osvald Shpenglerdir. U o'zining mashhur «Yevropa quyoshining so'nishi» asarida tarix falsafasining o'ziga xos yo'nalishi haqidagi g'oyalarini ilgari suradi. Shpengler dunyoni mistik qarashlar orqali anglash, insonning intuitsiyasi, ichki hissiyot va voqelikni his qila olish imkoniyatlari xususida fikr yuritadi.

Shpengler xulosasiga ko'ra «Qancha odam va madaniyat bo'lsa, shuncha dunyo mavjud. Har bir alohida inson uchun yagona, mustaqil, abadiy dunyo mavjud. Dunyoning bunday mavjudligi har bir inson uchun doimiy yangi, bir marta amalga oshadigan, hech qachon qaytarilmaydigan kechinmadir». Bir qarashda, darhaqiqat, har bir odam alohida va mustaqil olam. Uning o'z dunyosi bo'lganidek, o'z ibtidosi va intihosi ham bor. U tashqi dunyoni o'zining ichki olami orqali o'zicha tushunadi, o'zicha anglaydi, unga o'zicha baho beradi. Demak, insoniyat tarixi har bir odam uchun garchi u yaxlit, bir butun tarix, real tarixiy jarayon bo'lsa-da, uni anglashda o'ziga xoslik, unga yondoshishda xususiylik bo'lishi tabiiy. Demak, real tarixiy jarayon real inson tasavvurida real fikr-xulosaga aylanishi mumkin. Ana shu holatdan kelib chiqib ham Shpengler «ilmiy bilish bu o'z-o'zini anglashdir» degan g'oyani ilgari suradi.

Tarixni anglash, tarixni falsafiy tushunish orqali inson o'zligini anglaydi va o'ziga xos qadriyatga aylanadi. Bunday jarayon insonda intuitiv imkoniyat, his qilish qobiliyati orqali ham yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun Shpengler tarixni tushunish va tarixga munosabatda intuitsiya, his-tuyg'u mohiyatini ustuvor qiladi. Ana shundan kelib chiqib tarix mushohada, voqelikni to'g'ri his qila olish, tabiiy intuitsiya natijasi degan g'oyani ilgari suradi. Hatto, u tarixni hissiyot orqali tushunish g'oyasini ilgari surar ekan, «agar kim buni his qilmasa, tarix bilan shug'ullanmasin, tabiatni bilishga o'rganish mumkin, lekin tarixchi bo'lib tug'ilish kerak. Tarixchining kuchi shundan iboratki, u ongsizlik darajasida tarix jarayonini instinktiv ravishda biladi, bunday uslubda har qanday inson ham ishlay olmaydi», – deydi. Ana shu fikrdan ma'lum bo'ladiki, tabiatni bilish uchun bilimning o'zi etarli, tarixni anglash uchun esa uni his qila olish, tarixiy jarayon ortida yotgan inson taqdiri, mohiyati, hayot mazmuni va kechinmalari, sevinch va iztiroblari yotganligini ham anglamoq zarur ekan. Ana shunda har bir tarixiy voqelik tarix falsafasiga aylanadi. Demak instinkt va his qila olish qobiliyati, intuitsiya quvvati tarixchi uchun noyob va qimmatli fazilatdir.

Shpengler sivilizatsiyani madaniyat belgisi sifatida tushunadi va har qanday madaniyat o'z taraqqiyot bosqichlariga, o'zining sivilizatsiyasiga

ega degan goyani ilgari suradi. Uning nazardagi sivilizatsiya madaniyatli insonlarga xos hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

O.Shpengler madaniy taraqqiyot, tarix rivoji, uning dinamizmi xususida fikr yuritir ekan, «har qanday madaniyat insondek hayot kechiradi. Ularning o'z bolaligi, o'smirligi, o'rta yoshliga va qariligi bo'ladi», - deydi. Demak, har qanday madaniyat o'zining ibtidosi va intihosiga ega. Shuning uchun ham turli davrlarda yuz bergan turli mintaqalardagi sivilizatsiyalar qaysidir darajada susayish, orqaga ketish holatlarini ham boshdan kechirgan. Ana shu tarixiy dalillar hamda insoniyat o'tmishidagi buyuk ko'tarilishlar va tanazzullarni nazarda tutib O.Shpengler har qanday sivilizatsiya tanazzulga mahkumdir, degan fikrni ilgari suradi. Sivilizatsiyalar taqdiri, uning istiqboli xususida gapirar ekan, «mening fikrimning markazini taqdir g'oyasi tashkil qiladi. O'tib ketganlarning taqdiri ham shunday bo'lgan, hozirgi G'arbiy Yevropa madaniyatini ham halokat kutmoqda», deydi.

Shunday qilib, O.Shpengler insonning biologik mavjudot sifatida yaratuvchilik imkoniyatlarini, bu imkoniyatlarni ro'yobga chiqaruvchi ilohiy qudrat ruh, e'tiqod ekanligini ta'kidlaydi. Dunyoni anglashda, olamni tushunishda uning ana shu g'oyalari yaqqol ko'zga tashlanadi va «tabiatni mushohada qilish asnosida diniy e'tiqod yotadi. Dindan oldin paydo bo'lgan tabiiy bilim yo'qdir. Ana shu nuqgai nazardan qaraganda katolikcha va materialistik tabiatni bilish o'rtasida hech qanday farq yo'qdir. Ular bir narsa to'g'risida, lekin har xil tilda gaplashadi. Hattoki ateistik soha ham diniy asosga egadir. Hozirdagi mexanika ham xristian aqidalaridan andoza olgandir», deydi. Bu bilan O. Shpengler ruh birlamchi, e'tiqod hatti-harakatlar va voqeliklarni boshqaruvchi ilohiy qudrat degan xulosaga keladi. Uning nazarda insoniyat tarixi – bu juda uzoq va ming yilliklarni qamrab olgan yaxlit olam, ruh va e'tiqod orqali inson tomonidan amalga oshirilgan buyuk haqiqatdir.

Olamni anglash o'z-o'zini anglashdan boshlanadi, deydi O. Shpengler. Bunday qarashlar qaysidir darajada undan bir necha asrlar oldin Sharqda yuzaga kelgan ruh falsafasini eslatadi. Jumladan, A.Bedil, J.Rumiy, A.Nasafiy, N.Kubro va boshqalar ilgari surgan g'oyalarda ruh birlamchi, jism esa o'g'kinchi, ruh – botin, jism – moddiy tariqasida talqin etiladi. Jumladan, A.Nasafiy «... ulug' olamning avvalu oxiri, zohiru botini, mohiyat va shakllarini anglab etish uchun o'zining mohiyatini, zohiru botinini anglab etkin. Bundan boshqa yo'l yo'q», degan edi.

Nemis tarix falsafasi maktabi jahon falsafa fanining I.Gerder, V.Gumboldt, G.Gegel, I.Kant, A.Shopengauer, G.Rikkert, V.Diltey, E.Trelch singari yirik namoyandalarini etishtirib berdi. Mutaxassislarning

fikriga ko'ra nemis tarix falsafasi ingliz-frantsuz ma'rifatparvarligi qarashlariga teskari bo'lgan yo'nalishni ishlab chiqdilar va o'z g'oyalari ilgari surdilar. E. Trelchning xulosalariga ko'ra nemis va ingliz-frantsuz tarix falsafasi o'rtasidagi farq ko'zga yaqqol tashlanadi. Nemis maktabi o'zining diniy-mistik xarakteri bilan alohida ajralib turadi. O'z navbatida ingliz-frantsuz maktabi tarix cho'qqisini ma'rifatparvarlik ideallari orqali kashf etdi.

Tarixiy taraqqiyotning universal kontseptsiyasi Gegel tomonidan vujudga keltirildi. Ayni u tarixiy dinamika nazariyasini yaratdi va bu sohada o'ziga xos olamshumul yangilikni vujudga keltirdi. Yoki boshqacha qilib aytganda, E. Trelch xulosalariga ko'ra «barcha tarixiy taraqqiyot nazariyalari qandaydir undan chekinganday, unga qarshi turganday ko'rinsada, biroq ularning barchasi uni butunlay inkor eta olmadi. Shuning uchun ham tarixiy dinamikaga doir barcha tadqiqotlar tarixiy dialektika tushunchasidan kelib chiqmog'i darkor».

Ayni ana shu tarixiy dialektika tarixiy taraqqiyot dinamikasini, uning taraqqiyot qonuniyatlarini, rivojlanish omillarini o'zida mujassam etadi va barcha tarix falsafasiga doir qarashlar, yo'nalishlar, kontseptsiyalar va metodologiyalarga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy ana shunday holatdan kelib chiqib, K. Yaspers «Bu kontsentratsion lagerlarning real voqeligi, bu azoblovchilar va azoblanuvchilar doirasidagi kelishilgan harakat, inson ma'naviy qiyofasining bunday yo'qolishi barchaga halokat tahdidini soluvchi kelajak imkoniyatlaridan darak beradi... ushbu xavf atom bombasidan ham qo'rqinch-li, chunki u inson qalbiga tajovuz qiladi», deydi.

Bir qarashda Yaspers sivilizatsiya oqibatlarini, fan-texnika taraqqiyoti natijalarini tushkunlik bilan qabul qilganday ko'rinadi. Biroq uning qarashlarida yuksak ko'tarinkilik, optimistik ruh yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, insoniyat kelajagi to'g'risida gapirar ekan, har qanday sivilizatsiya tasodifiy hodisa emas, aksincha, insonning aql-zakovati, fe'l-atvori mahsulidir, degan xulosaga keladi. O'tmishda yuz bergan barcha yutuqlar bilan birga tanazzullar va fojialarni butun ko'lami bilan anglab etish, undan zarur xulosalar chiqarish, buning uchun esa tiniq va keng qamrovli tafakkur kerakligini uqtiradi va, jumladan, shunday deydi: «O'tmishning fojialarini unutishga yo'l qo'ymaslik kerak. Negaki, bizdagi qo'rquv o'tmishda sodir bo'lgan voqealar qaytarilishi, tarqalishi, butun dunyoni qamrab olishi mumkinligi tufayli paydo bo'ladi. Biz xavf bilan faol kurashga aylanuvchi ushbu qo'rquvni saqlashimiz lozim».

Shunday qilib, G'arb tarix falsafasi XVIII asrdan keyin jahon tarixini o'rganishning misli ko'rilmagan metodologik asosini yaratdi. Bu bevosita

butun ko‘lami, ilmiy-nazariy yaxlitligi, inson va uning mohiyati, insoniyat tarixi taraqqiyoti tajribalari haqidagi Sharq mutafakkirlari ilmiy-metodologik qarashlarining, falsafiy yo‘nalishlari va g‘oyalarining yangi sivilizatsiyaviy shakli sifatida o‘zini namoyon etdi. Zotan, G‘arb mutafakkirlaridan biri «Hyp – Sharqdandir» degan edi. Bu dono bashorat har ikki ma’noda – hayot manbai bo‘lgan quyoshning Sharqdan chiqishiga, tafakkur manbai bo‘lgan aql-idrok, daholik quvvati va zakovat mo‘‘jizasi ham Sharqda yuz bergani va keyinchalik butun insoniyatni zabt etganiga haqqoniy ishora edi!

### **J.J. Russoning ijtimoiy – siyosiy qarashlari.**

J.J. Russo 1712 yil Jenevada soatsozlar oilasida dunyoga keladi. U dastlabki ta’limni o‘zi tug‘ilib o‘sgan joyidan oladi. U 1741 yili Parijga kelib, u erda Golbax Didro va boshqalar bilan juda yaxshi munosabatda bo‘ladi. Russo Didro tashkil etgan “Entsiklopediya”da uning taklifiga binoan ishtirok etadi. Russoning jamoatchilikka keng tanilishida uning “fan va sanat haqidagi mulohazalar” (1750) asri muhim ahamiyat kasb etganligi malum.

Russoning “Insonlar o‘rtasidagi tengsizlikning kelib chiqishi va asoslari to‘g‘risida mulohazalar” asri uning obro‘sigacha yana obro‘ qo‘shadi. U “fanlarning manaviyatga tasiri” asarida o‘zi yashab turgan sivilizatsiyani tengsizlik sivilizatsiyasi deb tanqid qiladi. Shuningdek, u takidlaydiki, fan taraqqiyoti inson tabiatini, manaviyatini takomillashtirmaydi. Albatta bu bilan u fan va madaniyatga qarshi chiqqan, deyish noto‘g‘ridir. Fanga hujum qilayotganim yo‘q, lekin ezgulikni himoya qilayapman deydi u. Russo ijtimoiy muammolar va huquqsizlik, zulmining manbaini ijtimoiy tengsizlikda, yani mulkiy tengsizlikda ko‘radi. Mulkiy tengsizlik azaliy emas. U quyidagi bosqichlardan iborat.

Ijtimoiy tengsizlikning birinchi bosqichi – boy va kambag‘alning yuzaga kelishi.

Davlatning kelib chiqishi bunda boylar bilan kambag‘allar bitm tuzadilar. Qonuniy hokimiyatninig zo‘ravonlikka aylanishi. Avval xalq podsho va huquq tomonidan aldangan bo‘lsa, zo‘ravonlikda esa zo‘ravon qonunlar xalqni aldaydi va unga hamla qiladi.

Keyinchalik uning asarlari hukumat tomonidan taqib qilinib boshlandi. U xibsga olinishidan qo‘rqib, Fransiyadan qochib, Shvetsariya (1762) ga keladi. Russo ko‘p yillar Volterbilan bahs munozaralar yuritgan. Russo faylasuflar bilan munozaralarda takidlaydiki, xudo aql va yaxshilik manbaidir. Russoning ijtimoiy–siyosiy qarashlari uning ijodida markaziy o‘rin egallaydi. Tenglik jamiyatning tabiiy holati inson o‘z mohiyati

jihatidan xoh ishlab chiqarishda xoh istemolda hech kimga bog‘liq emas. Bunday jamiyat idealdir. Kelajakda bunga erishish mumkin emas, lekin unga qaytish mumkin. Unda kishilar boylik, xususiy mulk nimaligini bilishmasdi. Xususiy mulk bo‘lmagan erda adolatsizlik bo‘lishi mumkin emas. Xususiy mulkning kelib chiqishi insonlar manfaatlariga ziddir. Bu aslida birovlar hisobiga boyish demakdir. Umumiy erk umumiy manfaatlarni nazarda tutadi. Barchaning erki shahsiy manfaatlarini hisobga oladi. U yakka – yakka manfaatlar yig‘indisidan iborat. U feodalizmni qoralab, adolatli jamiyat tashkil etish yo‘lida ijtimoiy kelishuvni ishlab chiqdi. U o‘z ijtimoiy qarashlarida fransuz jamiyatining kambag‘al fuqarolar manfaatlarini himoya qildi. Shuning uchun ham Russo ijodining markazida inson muammosi va ijtimoiy tengsizlik masalasi yotgan. Faylasuf ijtimoiy fikrlar tarixida o‘zining ijtimoiy axloqiy muammolar va tarbiya nazariyasi bilan mashhur bo‘lgan. “Yangi eloiza” romani “Emil yoki Tarbiya haqida” gi risolalarida axloq va tarbiya masalalarini mohirlik bilan ifodalagan. Russoning siyosiy ideali – to‘g‘ridan – to‘g‘ri demokratiyadir. Unda qonunlar bevosita barcha fuqarolarning majlisida qabul qilinadi. Albatta, bu g‘oyalarni hududiy jihatdan kichik bir davlatlarda amalga oshirish mumkin. Russoning axloqiy ta’limoti tenglik g‘oyasi va shaxs erkinligi bilan chambarchas bog‘liq. Bu axloq – fuqaro jasorati, respublikachining vatanparvarligidir.

### **Pozitivizm.**

Pozitivizm g‘arb falsafasida juda keng tarqalgan yo‘nalish sifatida XIX asrning 30 yillarida frantsuz faylasufi Ogyust Kont (1798-1857) tomonidan asos solingan. Pozitivizm dastlab Frantsiyada, so‘ngra Angliyada va G‘arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida rivojlandi:

Birinchi davr - O.Kont, E.Littre, E.Renan, Robert (Frantsiyada), D.S.Mill, G.Spenser, Dj.Lesevich, N.Mixaylovskiy (Rossiyada), K. Kattanso, D. Ferrari, r. Ardigo (Italiyada) kabilarning ijod etgan davri.

Ikkinchi davri – mexanizm va empiriotkrito‘tsizizm davri deb ataladi. Uchinchisi nepozitivizm davriga bo‘linadi.

“Pozitivizm” tushunchasini O.Kont quyidagicha tariflaydi: birinchidan yolg‘onga qarshi haqqoniylik: ikkinchidan, keraksizlikka qarshi foydalanish: uchinchidan shubhalilikka qarshi aniqlik: beshinchidan salbiylikka qarshi ijobiylik va nihoyat oltinchidan buzg‘unchilikka qarshi tuzuvchanlik.

Inson bilimi, tafakkuri oldinga qarab harakat qiladi. Shuning uchun u o‘z tarixiga ega insoniyat taraqqiyotni shu tarzda o‘rganish quyidagi qonuniyatni ochishga olib keladi, yani u uch bosqichli qonuniyat deb

ataladi. Birinchisi – teologik, ikkinchisi – metafizik yoki mavhumlashgan, uchinchi – pozitiv yoki ilmiydir. Inson bilish jarayonida ana shu yo‘llardan, alabatta o‘tadi. Demak bu uslublardan uch turdagi falsafiy dunyoqarash yoki umumiy qarashlar tizimi vujudga keladi. Birinchisi ijod tafakkurining boshlang‘ich harakatga keluvchi nuqtasi: ikkinchisi – o‘tuvchanlik rolini o‘ynaydi: uchinchi - aniq yakuniy holatdir.

### **Nemis klassik falsafasining tarixiy falsafiy g‘oyalari.**

Nemis klassik falsafasi tarix falsafasini o‘rganishning nihoyatda murakkab qismi bo‘lib, uni nihoyatda masuliyat bilan o‘rganish zarurdir. Nemis klassik falsafasi frantsuz ma‘rifatchiligi kabi eski illatlarni bartaraf etishda hamda kapitalistik munosabatlarning qiyinchiliksiz rivojlanishida yangi tuzum manfaatlarini himoya qilgan. Shuning uchun u aqlni eski ideologiyaga qarshi hukmronligi to‘g‘risidagi g‘oyani e‘tirof etadi va rivojlantiradi. Nemis jamiyatiga hamda nemis ijtimoiy fikrlariga XV asr oxirida bo‘lib o‘tgan frantsuz inqiloblari juda katta tasir ko‘rsatgan. Bu inqilob shu davrgacha bo‘lib o‘tgan inqiloblardan izchil va qat‘iy farq qiladi. Germaniyada falsafiy va ijtimoiy – siyosiy fikrlarning ma‘lum darajada rivojlanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Nemis klassik – falsafasida Germaniyadagi o‘tmish falsafiy fikrlar an‘analariga nisbatan murosachilik munosabatda bo‘lishda diniy nuqtai nazar ustun turadi. Ularning ijtimoiy – siyosiy xulosalari o‘zlari ilgari surgan “sof” fikrlash doirasidagi umumiy fikrlarga qarama-qarshi turar edi. Lekin o‘z pozitsiyalarida izchil bo‘lmasdan nemis klassik falsafasi falsafiy fikrlar taraqqiyotida muhim qadam hisoblanadi.

### **I.Kant tarixiy – falsafiy qarashlari.**

Kant ota tomonidan Shotlandiyalik bo‘lgan bo‘lsa, ona tomonidan Germaniyalik edi. Onasining ismi Reytir bo‘lgan. Onasi diniy ruhda tarbiyalanganligi uchun o‘z farzandlari ongiga diniy ta‘limotlarni chuqur singdirishga harakat qiladi. Otasi hunarmandchilik bilan shug‘ullanib, ular oddiygina uyda istiqomat qilishar edi. Kant to‘rtinchi o‘g‘il bo‘lgan. Keyinchalik ilohiyot bilan shug‘illangan. O‘g‘il tarbiyasi bilan ko‘proq ona shug‘illangan “onamni men hech qachon unuta olmayman va unitishga haqqim yo‘q. Chunki onam meni tabiatga va insonlarga muhabbatli bo‘lish ruhida tarbiyalangan. Manaviy kamolotga erishishimda onamning xizmatlari beqiyos ulkandir” deydi. O‘spirinlik chog‘ida Muls ismli professor Kantda ilohiyotga havas uyg‘otgan bo‘lsa, Knuttsen ismli faylasuf esa unga Leybnits ta‘limotini o‘rgata boshlydi. Universitetga kirishdan avval u onasidan ajraladi. Bu vaqtda Kant 13 yoshli bola edi.

Kant onasining vafotidan keyin togʻasining moddiy yordami bilan Kant universitetning ilohiyot fakultetga oʻqishga kiradi. Onasining vasiyatiga binoan Kant universitetning ilohiyot fakultetiga hujjatlarini topshiradi. Kant talabalik yillarining daslabki vaqtlarida ilohiyotni havas bilan oʻrgana boshlagan edi. Lekin keyinchalik ovozi past boʻlganligi uchun qiroat bilan ilohiy duolarni oʻqishga koʻzi etmagach, uni tark etadi. U boshqa fanlarga mehr qoʻyadi, uni shu yoʻlga burib yuboradi. Kant besh yil (1740-1745) davomida universitetda oʻqib uni tugatadi. 1746 yili otasi vafot etadi. Otasi vafotidan soʻng uning moddiy hayoti yanada ogʻirlashadi. Baxtiga oʻgay togʻasi qoʻllab-quvvatlab turadi. Uning birinchi risolasi “Tabiatdagi jonli kuchlarning haqiqiy bahosi haqida fikrlar” togʻasining hisobiga chop etiladi. Bu risolani u 23 yoshida yozgan edi.

I.Kantning falsafiy ijodi asosan ikki qismga boʻlinadi.

1.Tanqidiy davrdan ilgari (XVIII asrning 70 yillariga qadar).

2.Tanqidiy davri (XVIII asrning 70 yillaridan ijodining oxirigacha).

Kuno Fisher esa Kantning falsafiy tizimi tarixini quyidagi davrlarga boʻladi.

1) dastlabki davr (naturfalsafa davri).U vaqtda faylasuf ratsionalizm nuqtai – nazarida turgan. 2) empirizm davri. U davrda Yumning tasiri umuman, Shotlandiya va Angliya falsafasining tasiri katta boʻlgan va nihoyat 3) tanqidiy davr. Bu davrda Kant uzil – kesil mustaqil oʻziga xos yoʻlni tanlagan. Shuni takidlash lozimki, Kant falsafasini davrlarga boʻlib oʻrganish osonlik tugʻdiradi, lekin shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki uning oʻzidan oldin hukumronlik qilgan falsafiy maktablarga mustahkam munosabati uning barcha asarlarida, yani dastlabki asarida ham, umrining oxirida yodgan asarlarida ham oʻz ifodasini topgan. Kant fikricha, ilohiyot mukammal dunyoning gʻoyasiga ega boʻlmogʻi lozim. Buni rad etish demak, xudo fikrlovchi barcha olamlardan yaxshiroq olam bor degandek boʻlamiz. Lekin eng yaxshi haqiqiy olamni xudo yaratgan. Farovonlik gʻoyasi bu xudoning maqsadidir. Keyinchalik u yum tasirida oʻzining tanqidiy davridagi faoliyatini boshlaydi. Kantning butun umri sof aqlning tanqidiy asarida oʻzining falsafiy ifodasini topgan. Kant juda haqgoʻy boʻlganligi tufayli boshqalardan haqgoʻylikni talab etadi. Shuni takidlash kerakki Kantning falsafiy qarashlari 1762-1765 yillarda shakllandi. U oʻzining “Hayotbaxshlik haqida” risolasida dogmatik falsafani ifoda etgan edi.

“Salbiy meyorlar va real asoslari” nomli asarida (1763) Kant oʻzining emperizm va ratsionizm oʻrtasida moʻtadil oʻrin egallaganligi haqida gapiradi. “Ruhoniyning tushlari” (1766) asarida uning Yum agnostitsizmiga yaqinlashganligini koʻramiz. Oradan ikki yil oʻtgach, yani 1768 yildan



etiboran emperizmdan krititsizm tomon o'tganligi haqida fikr yuritadi. Kant mazkur risolada makon nima? Uning xossasi nima bilan belgilanadi? – degan savollarni ko'taradi. Jismlarning makoniy munosabati deydi Kant, ularning holatlariga bog'liq holatlarning o'zaro munosabatlarini Kant soha deb ataydi.

Soha degan tushuncha nafaqat masofani balki yo'nalishni ham o'z ichiga oladi. Bunga kant oddiygina misolni keltiradi. Oq qog'ozga ikki marotaba aynan bir so'zni yozaylik. Masalan inson, inson so'zining harflari bir xil harflarning joylashishi tartib ham bir xil lekin ikki so'z yozilishida chap va o'ngda joylashgan. Biz o'ngga chapga deyish bilan harflarning joylashishini kuzatuvchiga qaratamiz. Agar makonning xossasi obe'ktlarning qismlari o'rtasidagi munosabatga bo'g'liq bo'lsa unda biz ikki predmetni farqiga bormagan bo'lar edik. Jismlarning o'zaro bir – biridan farqi shundaki bittasi chapga joylashgan bo'lsa, ikkinchisi o'ng tomonga joylashgan bo'ladi. Qizig'i shundaki Kant bunday xulosa chiqaradi Chapga – o'ngga, yuqoriga – pastga, oldinda – orqada degan iboralarimiz mutlaq makonning xossasi bo'ladi va shundan keyin ularni ham ularni kuzatuvchi xossasiga bog'liqligini hal etadi. Kan oliy darajadagi fikrlarni ilgari suradi.

Birinchi davrda Kant erishilgan eng katta yutuqlardan biri – bu kosmologik gipotezalar to'g'risidagi ishlari edi.

Ikkinchi davr – tanqidiy davrda kant dualistik falsafiy kontseptsiyani ilgari suradi. Agnostitsizm va apriorizm uning ajralmas qismi bo'lib qoladi.

Kantning yutug'i shundaki, shak – shubhasiz inson tafakkurining zaruriy xususiyatidir. Shak – shubhasizlik to'g'risidagi bunday fikrlashni Kant aql doirasiga kiritadi. Kant fikricha, bunday fikrlashning predmetini sof aqlning g'oyasi tashkil etadi. Kant fikricha, sof aql g'oyasi 3 xildir.

Jon haqidagi g'oyalar (psixologik g'oyalar).

Yaxlit dunyo to'g'risidagi g'oya (kosmologik g'oya).

Xudo haqidagi g'oya (teologik g'oya).

Umuman kant falsafasi mohiyatan ziddiyatlidir. Shuning uchun Kantni ham so'ldan, ham o'ngdan tanqid qilishadi. So'ldan materialistlar Kant falsafasining idealisti tomonlarini tanqid qilishsa, o'ngdan idealistlar uning falsafadagi materialistik tomonlarini tanqid qiladilar. Nemis klassik falsafasining keyingi taraqqiyoti Kant falsafasini o'ngdan tanqid qilish yo'li bilan rivojlanib, dunyoni idealistik tushunishni chuqurlashtirib bordi.

**Savollar:**

1. J. J. Russoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
2. I.G.Gerder va uning “Jahon tarixi falsafasi bo‘yicha g‘oyalari”.
3. I. Kantning tarixiy – falsafiy qarashlari.
4. I.G.Fixte. F.Shiller. F.V.Shelling. G.V.F.Gegelning tarixiy falsafasi.
5. K.A.Sen – Simonning taraqqiyot nazariyasi.

## XIX ASR OXIRI - XX ASR TARIX FALSAFASI

Osvald Shpengler 1880 yilning 29 mayida Gori yaqinidagi mo'jazgina Blankenburg shahrida tug'iladi. 1887 yilda Shpingler oilasi Zost shahriga ko'chib o'tishadi. Shpengler bu erda gimnaziya o'qishga kiradi. U yillar o'tgach yana Goriga ko'chib o'tishadi. Shpengler Latinadagi o'quv bilim yurtida o'qiydi. Bu o'quv bilim yurti o'z asoschisi ilohiyotchi, pedagog Avgust German Farnke nomida edi. Bu erda qadimiy tillar chuqur o'rgatilar edi. O.Shpengler nemis faylasufi va XX asr tarix falsafasi kontsepsiyasining namoyandasi hisoblanadi. 1904 yilda Shpengler Garida "Geraklit falsafasining metafizik g'oyasi" mavzusida imtihon topshirib, gimnaziya tabiiy fanlardan, matematika, tarix va nemis tilidan dars berish huquqiga ega bo'ldi. 1908 yildan 1911 yilgacha Gamburgdagi Genrix Gerts gimnaziyasida dars beradi keyinchalik u bu ishni tashlab yozuvchilik bilan shug'illanadi.

Shpengler keyinchalik Myunxenga ko'chib borib, u erda hech kim bilan muloqotga kirishmay "Evrpoaning so'nishi nomli mashhur asarining qoralama variantini yozadi. Nihoyat bu kitobning birinchi jildi 1918 yilda nashr qilindi va u muallifga shon-shuhrat keltiradi. 1919 yilda "Prussilikva sotsializm" nomli uncha katta bo'lmagan asarini yozadi. 1922 yilda esa, "Yevropaning so'nishi asarining ikkinchi jildi nashrdan chiqadi.

1925 yilda Shpengler siyosatdan qat'iy ravishda uzoqlashadi. U o'z diqqatini ilmiy faoliyatga qaratadi. Shpengler falsafaning metafizik masalalari to'g'risida yakunlanmagan qisqa asarlar yozadi. Shu bilan bir qatorda Shpengler etnologiya, masalalari bilan ham shug'illandi. Bu faoliyat uni dunyoning yangi tarixini ishlab chiqishga olib keladi. Uning bu g'oyasi bir necha maqolalarida o'z aksini topadi: "Amerika madaniyati", "Falak gardishi va uning dunyo tarixidagi ahamiyati", "Xristianlikning ikkinchi ming yilligida dunyo tarixi masalalariga oid lavhalarda bu maqolalar birlamchi savollarda nomli to'plamda nashr qilinadi.

### **O. Shpengler – Yevropaning so'nishi.**

Shpengler falsafasining markaziy mavzusi – tarix lekin tarix madaniyat orqali tushuntiriladi. Har bir madaniyat aylanma harakatga ega, yani tug'iladi, ravnaq topadi va halokatga yuz tutadi. Yevropa madaniyati ham oxirgi uchinchi bosqichni o'z boshidan kechirmoqda. Tarix taqdirga o'xshamaydi. Har bir madaniyat o'z qobig'iga joylashgan boshqa madaniyatga o'z yutuqlarini bera olmaydi. Shpengler o'zining tarixiy

kontsepsiyasini yaratganda ko'pgina falsafiy masalalarni ko'taradi. Jumladan, ijtimoiy – siyosiy muammolar ham o'ziga xos ravishda madaniyat tushunchasi orqali o'z echimini topgan.

“Yevropaning so'nishi” asari nashr etilishi nafaqat Germaniyaning turli qatlamlari orasida, balki rus ziyolilari orasida ham katta qiziqish uyg'otdi. Tarix falsafasini yaratishda u mistik intuitsiyaga tayandi. Xuddi ana shu uslub unga katta muvaffaqiyat olib keldi. “Yevropani so'nishi” asrida Shpengler etiborini Yevropa madaniyati taqdirini ochib berishga qaratilgan. Asarning boshlanishi u ” hali hech kimning miyasiga tarixni tushunishdagi bunday inqilobiy fikr kelmagan”, - deydi, u o'zining tarixiy ta'limotini o'zi bilgan ta'limotlarga qarshi qo'ydi. Lekin ayrim g'oyalarni Nitsche va Gyotedan olganligini tan oladi. Shpengler tabiat haqidagi fanlarga ruh haqidagi fanlarni qarshi qo'yadi. Tabiat va tarix faqatgina sube'ktning ongidagina kechinmalaridagina o'z voqeligini oladi. Mustaqil reallik sifatida ular mumkin emas, faqat ruhdagina mavjud, yani subektsiz obekt mumkin emas” subekt “umuman ongdir”, dunyo asosida “men” yotadi, ana shu “men”orqali u o'zini nomayon qildi. “Men” – yakka ong emas, balki xalq, madaniyat, insoniyat va turli kechinmalar Shpenglarning asosiy g'oyasi tarix, alohida yashirin madaniyatlarning almashinuvidir. U tarixni uzluksiz jarayon sifatida inkor qiladi va tarixiy taraqqiyotni ham inkor qiladi. Shpengler fikricha, G'arb odami uchun tarix butunlay o'zgacha ko'rinishga ega. Tarixning markazi “dunyo tarixining” bitta kichkina sayyoradagi olti ming yilligini tashkil qildi. Shu manzara, Shpengler takidiga mohiyatan, bizning uyg'oq ongimiz mahsulidir. Shu asosda G'arb ruhi o'zini angelaydi, shu zaruriy shakl orqali mavjudlikni mushohada qiladi.

Tarixni faqat his etish kerak, tarixda faqat yashash kerak. Shpengler uchun tarixni bilish uslubi o'xshashliklardir (anologiya) shunday qilib qarixiy voqealarni tahlil qilganda, ularning ichki qonuniyatlari, mantiqiy bog'liqliklarini qidirmasdan balki, o'xshashlikni paralellarini topishga harakat qilish ana shu asosda tarixni yaratish kerak.

Shpenglarning fikricha uni “Hayot falsafasi” namoyandalariga yaqinlashtiradi, lekin shu bilan bir qatorda farqi ham bordir, yani tabiat bilan tarix ziddiyati ularning obektlarida emas, balki bilish uslublarida farqlanadi. “Tabiat va tarix – deb yozadi Shpengler – mana shu ikki qarama– qarshi uslub, o'ziga borliqni tartibga solishga urinadi. Agar har bir vujudga kelayotgan jarayonni mavjudlik nuqtai nazaridan ko'radigan bo'lsak, borliq tabiatga aylanadi, imkoniy vujudni zaruriy vujudga (jarayonga) bo'ysundirsak tarix bo'ladi, deydi Shpengler. Jumladan tafakkur ishga solinsa, uning o'lik tushunchalari va qonuniyatlari tabiatni tushuntirishga harakat qiladi.

Ichki ishlarimizga, hissiyotimizga, intuitsiyamizga murojaat qilsak ko‘z o‘ngimizda tarix namayon bo‘ladi. Tabiat tafakkur faoliyati natijasidir, bilish oqibatidir. Tarix esa mushohada, intuitsiya natijasidir. Har bir madaniyatning hayotini taqdir boshqaradi. Taqdirni Shpengler fikricha his qilish kerak. Agar kim uni his qilmasa, tarix bilan shug‘illanmaslik, tabiatni bilishga o‘rganish mumkin lekin tarixchi bo‘lib tug‘ilish kerak. Tarixchining kuchi shundan iboratki, u ongsizlik darajasida tarix jarayonini instinktiv ravishda biladi, bunday uslubda har qanday inson ham ishlay olmaydi.

Tarixning mazmuni uning ruhida namoyon bo‘ladi. Madaniyat ruhiyatning tashqi ko‘rinishidir. Shpengler sakkizta madaniyatni sanab o‘tadi. Bular Xitoy, Bobil, Misr, Hind, antik, arab, g‘arb va maya xalqining madaniyatidir. Rus madaniyati haqida alohida etibor bilan gapiradi. Har bir madaniyat qaytarilmas, o‘ziga xos va yagonadir. Har bir madaniyatning asosida o‘ziga xos ruhiyat yotadi. Masalan antik madaniyatda – Apollon ruhiyati arab madaniyatida mistik (afsungarlik) ruhiyati g‘arb madaniyatida – Faust ruhiyati yotadi.

Shpengler tarixchi va faylasuflarni butun dunyo tarixini “Qadimgi va yangi davr” tarixiga ajratishlarni tanqid qiladi. Bu ajratish faqat g‘arb mamlakatlariga xosligini Shpengler yozadi va shu erda G‘arb tarixchilarining Yevropa markazchiligi tamoyilini tanqid qiladi.

Shpenglarning “Yevropaning so‘nishi” asari nafaqat tarix falsafasiga bag‘ishlangan, unda siyosiy masalalar ham ko‘tarilgandir. U so‘z boshida shunday yozadi: “ Bu kitobda kelajak tarixni aniqlashga harakat qilingan, vazifa shundan iboratki, nihoyasiga etayotgan er yuzasidagi yagona madaniyatning, yani G‘arbiy Yevropa madaniyatining taqdirini o‘rganishdir”. Muammo G‘arb halokati sivilizatsiya masalasiga kelib taqaladi. U ko‘hna tarixning asosiy masalalaridan biridir.

Har bir madaniyatning o‘z sivilizatsiyasi bo‘ladi. Sivilizatsiya eng oxirgi, eng suniy holatdir. Sivilizatsiya eng madaniyatli insonlarga xosdir. Shpengler sivilizatsiya haqida gapirib, shahar to‘g‘risida ham fikr yuritadi. Yani shahar o‘zlikni yo‘qotishlik sifatida ruhiyatning o‘lishi sifatida paydo bo‘ladi.

“Madaniyat – ruhiyat, sivilizatsiya esa tafakkurdir” – deb yozadi Shpengler. G‘arbda madaniyatdan sivilizatsiyaga o‘tish qadimda qadimda – VI asrda sodir bo‘lgan. Shahar sivilizatsiyaning oqibatidir. Madaniyatli insonda quvvat inson ichiga yo‘naltirilgan sivilizatsiya inikosida esa quvvat tashqariga yo‘naltirilgan. Hayot imkoniyatni amalga oshirishdir, tafakkurli insonlarda imkoniyat cheksiz kengdir. Shpengler qat’iy ravishda umumdunyo tarixini inkor qiladi. U shunday yozadi: “Insoniyat men uchun

zoologik birlikdir". Men G'arbiy Yevropa faylasuflarining fikrlarida insoniyat ravnaqi, maqsadi va yo'llarini ko'rmayapman. Tarixni ananaviy tarzda qadimgi, o'rta va yangi davrga bo'lishni Shpengler juda tor doiradagi provintsializmga kiritadi. Uning uchun yagona insoniyat tarixi yo'q, faqat alohida ajralgan madaniyatlar mavjuddir. Ular tasodifan paydo bo'ladi, rivojlanadi va halok bo'ladi. Misoli dalada o'sgan gul taqdirini boshidan kechiradi, o'simliklar, hayvonot olamiga o'xshash morfologik organizmlar bo'lgani kabi tarixda ham xuddi shunday organizmlar mavjud, bu tarix morfologiyasi har bir madaniy organizm uchun davr va bosqichlarni belgilaydi. "har qanday madaniyat – deb yozadi Shpengler, - insondek hayot kechiradi. Ularning o'z bolaligi, o'smirligi, o'rta yoshi va qariligi bo'ladi".

Shpengler fikricha yagona falsafiy taraqqiyot yo'li mavjud emas. Shu jumladan turli madaniyat mutafakkirlari uchun yagona masalalar ham yo'q. Sanat asarlari, axloqiy tamoyillar kabi falsafiy masalalarni ham faqat o'z dari ruhiyatida aks ettiradi. Shuning uchun ham, - deydi Shpengler tabiat bilan ruhning ziddiyati faqatgina bizning faylasuflarimizni qiziqtiradi. Boshqa madaniyat faylasuflari uchun bu masala qiziqish ham uyg'otmaydi, uni anglamadilar ham. Har bir masala o'z davrining faqat o'z davrining inikosidir. Har bir shunday falsafa - deb yozadi Shpengler - birinchi so'zidan to ohirgi jumlasigacha mavhum mavzulardan o'ziga xos xususiyatlarigacha, tarixiy chegaralangan insoniyatning sof belgisidir, shuning uchun ham ular o'tkinchidir, ular o'z hayotiy davriyligiga harakat tezligiga ega. Har bir davrning o'zining mavzusi bor ushbu mavzu faqat shu davr uchun ahamiyatga egadir.

Paydo bo'lgan madaniyatning taqdiri qanday bo'ladi? qanday yo'lni bosib o'tadi? Shpengler fikricha, bu yo'l uch davrdan iborat. Birinchisi, eng uzundur. Bu davr tayyorlov davridir, yani xaos (tartibsizlik) ning dastlabki holati, bolalik va va kuchning to'planishidir. Keyin madaniyat davri boshlanadi. Bu davr muayyan madaniyatning berilgan ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va amalga oshirishdir, suratli ijodiyotdir. Ana shu davrda hamma manaviy qadriyatlar shakllanadi, diniy etqodi mustahkamlanadi, metafizik tizimlar tuziladi, sanatning noyob sohalari, asarlari vujudga keladi.

So'ngra, madaniyat o'zining uchinchi oxirgi davriga qadam qo'yadi – orqaga ketish davri, yani sivilizatsiya davri boshlanadi. Bu davrda manaviy hayot so'na boshlaydi, diniy etiqod susayadi, falsafiy ta'limotlar yuzaki bo'lib qoladi, sana't ham o'ladi. Quruq ratsionalizm va materializm dunyoqarash asosini tashkil qiladi. Hayotning tashqi tomonlari ichki ruhiyatni engib boradi.

Har bir madaniyat davri, hayoti, Shpengler fikricha 1000 yilni tashkil qiladi, sivilizatsiyaning oxirgi davri 200-300 yilni tashkil qiladi. Har bir madaniyat, taqdir taqozosi bilan bir xil davrni boshidan kechiradi. Shpenglarning tarix falsafasini asosiy g'oyasi shulardan iborat.

### **A.Toynbi kontsepsiyasi**

Arnold Toynbi 1889 yilda dunyoga kelgan. U ham XX asr falsafasining yirik vakillaridan biri hisoblanadi. U 33 yoshida Buyuk Britaniya ichki ishlar vazirligi mahkamasida katta lavozimda ishlaydi. U shu paytda tarixiy jarayonni tadqiq qilish dasturini tuzadi va " tarix davrlari" nomli 12 jilddan iborat asosiy asarini yozadi.

Toynbi dunyoviy tarixni harakatga keltiruvchi kuchli sivilizatsiyani tug'diruvchi va halokatga olib keluvchi imkoniyatlarni ochib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. XX asrning boshlarida esa sivilizatsiyalar ham yo'q bo'lib ketuvchi xususiyatga egaligi aniq bo'lib qolgan edi. Jumladan birinchi jahon urushi, kimyoviy qurollarning qo'llanilishi, suv osti va samo urushlari, Xirosima va Osventsim hodisalari fikrimizning dalili bo'la oladi. Shunday davrda madaniyatning tug'ilishi, rivojlanishi va halokati dolzarb masalaga aylanadi. Toynbi o'z tadqiqotini rivoji va halokati dolzarb masalaga aylandi. Toynbi o'z tadqiqotini tarixiy jarayonning predmet chegarasini (hamma uchun tushunarli tilda) aniqlab olishdan boshlaydi. U Angliyaning tarixiy yo'lini o'rganadi, va shunday xulosaga keladiki, bunday birlik milliy davlat bo'la olmasligini tasdiqlaydi. Buning sababi, Angliyaning tarixi boshqa mamlakatlar tarixi bilan minglab sotsiomadaniy rishtalar orqali chambarchas uzviy bog'lanib ketgan edi, uni bu munosabatlardan uzib olib, xolis o'rganish bajarib bo'lmaydigan vazifaga aylanadi. Shuning uchun ham tahlil sifatida tarixchi yuqoriroq birlikni olishi zarur.

Toynbini tushunish uchun uni diniy faylasuf ekanligini xotirada tutish lozimdir. Diniy xristianlik ongi uchun esa haqiqat mezoni tafakkurini ham, ilohiy anglashni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun Toynbi o'z ijodida qat'iy ilmiy bilish hamda ratsional intuitsiya uslublaridan foydalangandir, u inson orqali amalga oshadi, shu jihatdan uni bilish ilohiy anglashni talab qiladi. Ilohiy anglash bo'lganligi uchun tarix mazmunga egadir. Inson ana shu mazmuni egallashi shart.

Toynbi butun tarixni egallashni istaydi, shuning uchun ham xuddi shifokor bemorining alohida organizmini o'rgangandek, tarixni tashkil etuvchi qismlarini tahlil qilishga kirishadi tadqiqotning maqsadi esa sotsiogenezning mexanizmini ochib berishdan iboratdir. Bu mexanizm yuqori darajada umumiylikka ega bo'lishi kerakki, alohida sivilizatsiyalarni

ham jumladan butun tarixni ham qamrab olsin. Toynbi sotsiogenezisni harakatga keltiruvchi umumiy kuchni topish mushkulligini anglab etadi. U ana shu kuchni qanday ishlash mexanizmini ochishga intiladi.

Toynbi sivilizatsiya genezisini uch komponentdan iborat deydi. Ular universal davlat, dunyoviy cherkov va qabila harakati. Ana shu tuzilmaning mavjudligi sivilizatsiyani tashkil qiladi. Biroq sivilizatsiyalar o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Uning rivoji uchun o‘ziga xos tarixiy davr bo‘lishi shart. Bunday davrni Toynbi “Chaqiruv va javob” deb belgilaydi. Garchi sivilizatsiya genezisida uch komponentning xammasi mujassam bo‘lib, chaqiruv bo‘lmasa, u holda javob xam bo‘lmaydi, natijada sivilizatsiya taraqqiy etmaydi.

Chaqiruv davri – shunday davrki, bunda jamiyat qandaydir xavf ostida bo‘ladi. Chaqiruv turlicha bo‘lishi mumkin. Chaqiruv davrini qadimgi Yunoniston shahar – davlatlari o‘z boshlaridan kechirganlar ular aholi soni o‘sib ketishi oqibatida ozuqa maxsulotlarining kamayib ketishi va eroziya natijasida hosildor erlarning qisqarib ketishidan azob chekkanlar. Shahar davlatlar (polislar) bu chaqiruvga turlicha javob berganlar: ayrimlari (korinf, Xolkida) O‘rta er dengizi qirg‘oqlarida yashovchi mahalliy aholini kaloniyalarga aylantirganlar: ayrimlari (spartaliklar) harbiy yurishlar uyushtirib qo‘shni aholini bosib oldilar va va o‘zlariga bo‘ysundirdilar, uchinchilari (Afina) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini import qilib, hunarmandchilikni jadallik bilan rivojlantirishga kirishdilar. Shunday qilib bitta chaqiruvga uch hil javob berishdi. Buning natijasida bir – biridan tubdan farq qiladigan uch xil jamiyat va madaniyat tashkil bo‘ldi.

Jumladan, Avstriyaning rivoji, Toynbi fikricha, Turkiyaga qarshi turishga olib keldi, Yevropaning forportiga aylandi. Daryolar o‘rtasidagi sivilizatsiyaning va Misrning rivoji tabiat chaqiruviga javob tarzida shakllanadi – bu vaqti-vaqti bilan daryoning toshib turishi bilan bog‘lanadi. Demak, yangi sivilizatsiya genezisining asosi uchun chaqiruv davrining bo‘lishi majburiydir, usiz sivilizatsiyaning spontan taraqqiyoti mutlaqo mumkin emas.

Shunday qilib, chaqiruv va javobning o‘zaro munosabatidan iborat bo‘lgan tarix yo‘li abadiy ravishda turg‘unlik yoki halokat o‘rtasida harakat qiladi. Chaqiruv va javob har bir madaniyatning tarixiga oiddir, ular doim bir birlari bilan o‘rin almashdi. Toynbi madaniy genezisning universal kalitini topishga intilmaydi, u ana shu genezisning ishlash mexanizimini o‘ziga xos mazmun bilan to‘ldiradi. Toynbining sivilizatsiyasi ba’zi kamchiliklardan ham xoli emas. Unda qilingan xulosalar yaxlitlikni tashkil qilmaydi. Shunday bo‘lsa ham, Toynbining tarix falsafasi ochiq tizimdir va insoniyat dunyo hayotining har bir chaqiruviga javob berishga qodirdir.



Demak, Toynbi madaniyat va insoniyat tarixini tsikllik (davriy) rivoji g'oyasini ilgari suradi. Uning fikricha, yagona dunyoviy tarixiy jarayon mutlaqo bemanilikdir. Dunyoviy tarix, alohida mustaqil "sivilizatsiyalar" tarixidan iborat. Sivilizatsiyalar esa o'ziga xos madaniy tuzilmadir. Ular o'z hayot yo'llarida uch davrni bosib o'tadilar : shakllanadi, unib – o'sadi, gullaydi va nihoyat halok bo'ladi. Boshqasining tuzilishi uchun o'z o'rnini bo'shatib beradi.

Shpinglerdan farqli ravishda Toynbi shuni takidlaydiki, yani sivilizatsiyalarni birlashtiruvchi holqa mavjuddir. Bu holqa insoniyatning manaviy kamol topishini o'z ichiga oladi. Shunday bo'lsa ham, Toynbi Shpinglarning ko'pgina g'oyalaridan foydalanadi. Lekin u professional tarixchi sifatida aniq yorqin dallilarga suyangan holda o'z nazariy umumxulosalarini bayon etadi.

### **Jahon rivojining zamonaviy kontseptsiyasi**

Sobiq ittifoq va jahon sotsializm tizimining falokatga yuz tutishi bilan halqaro hamjamiyatning geosiyosi strukturasi o'zgardi. Xalqaro munosabatlarning ikki buyuuk davlatni AQSh va Sobiq Ittifoqi o'rtasidagi kuchlarning ayniqsa harbiy sohadagi nisbiy mutanosibligiga kapitalistik va sotsialistik tizimlar o'rtasida dunyoni "sovuq urush" asosida qarama-qarshi bloklarga bo'linishiga asoslangan ikki ikki qutbli sistemasi barham topdi halqaro hamjamiyat halqaro munosabatlarning yangi davriga – yangicha dunyoviy tartibotga qadam qo'ydi. Jahon siyosatshunosligida dunyoda yuzaga kelgan yangicha vaziyat to'g'risida bahs-munozaralar avj ola boshladi.

### **"Tarixning intihosi (nihoyasi)" kontseptsiyasi**

Mazkur munozaraga birinchilar qatori "tarixning intihosi" ta'limotining asoschisi amerikalik siyosatshunos olim Frensis Fukuyama hisoblanadi. Uning fikricha eng buyuk kommunistik davlat – Sovet Ittifoqining qulashi va ijtimoiy tuzum sifatida sotsializm o'z-o'zidan barham topishi dunyoning bapolyar, yani ikki qutbli tizm tugashi va ko'pqutblilik holatiga o'tishi bilan cheklanib qolmasdan anana'viy, yani ijtimoiy manoda tarixning ham intihosiga etishini anglatadi. "Tom manoda tarix yakuniga etdi: mafkuraviy evolyutsiya tugadi va boshqaruvning so'nggi shakli sifatida G'arb liberal – demokratiyasining universiallasuvi boshlandi", - deb yozadi u. Dunyo endi liberal – demokratiya darajasiga etgan tarixdan keyingi" xalqlar va hali "tarixda mavjud", lekin rivojlanishning asosiy maqsadi mutlaq g'arblashish (vesternizatsiya) bo'lgan hamda AQShda o'zining yorqin ifodasini topgan g'arbona qadriyatlar orqali "tarixdan keyingi" mamlakatlar hamjamiyatiga

qo‘shilishidan iborat xalqlarga bo‘linadi. Aynan AQSh jahon hamjamiyatiga etakchilik vazifasini va yangicha dunyoviy tartibot uchun masuliyatni o‘z zimmasiga oluvchi yagona buyuk davlat sifatida ko‘rsatmadi.

### **Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi kontsepsiyasi.**

Siyosatshunos olimlardan yana biri bo‘lgan Amerikalik S.Xantington “sovuq urush” tugaganidan so‘ng o‘zgargan dunyoda ijtimoiy madaniy jarayonlar dinamikasini tushuntirishga zamonaviy dunyoda ixtiloflarning boshlanibgina aniqlashga yo‘naltirilgan yangi paradigmani yaratishga harakat qiladi. U “sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” modelini ilgari surdi.

Xantington fikricha, ilgari uch xil dunyodan – kapitalizm, sotsializm va “uchinchi dunyo”dan tashkil topgan xalqaro sistema endi 8 ta asosiy: g‘arbo, konfutsian, yapon, islom, induizm, provaslav – slovyan, Lotin Amerikasi va Afrika sivilizatsiyalarini o‘z ichiga olgan yangi tizimga o‘tmoqda. Raqobat qiluvchi harbiy bloklar uning fikricha ushbu sivilizatsiyalardan qaysi biriga tegishli ekanligi bilan farqlanadi. Oxir – oqibat kishilar uchun siyosiy mafkura yoki iqtisodiy manfaatlar emas, balki etiqod va oila, qon–qarindoshlik va ishonch, yani kishilar o‘zlarini qanday anglashlari nima uchun kurashlari va halok bo‘lishlarini bilish muhimroqdir. Ammo Xantington madaniy – tarixiy maktabning asoschilari (Shpengler, Toynbi, Danilevskiy, Sarokinlardan farq qilib, sivilizatsion o‘zlikni anglashning yangi mezonlarini ilgari surdi, xususan bu qurol – yarog‘, ayniqsa ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishi, inson huquqlari va immigratsiya bilan bog‘liq jahonshumil muammolarni uzil kesil hal etilishi edi. Sivilizatsiyalar o‘rtasidagi chegara aynan shu muammolarning hal etilishiga qarab aniqlanadi. Bunda G‘arb bir tomonda, qolgan sivilizatsiyalar yani qolgan dunyo esa, boshqa tomonda joylashadi.

Xantington G‘arb sivilizatsiyasining yaxlit bir butunlik sifatida sistemalararo ixtiloflar davriga nisbatan dahshatliroq fojea oldida turganligi haqidagi tezis bilan chiqdi. Xantington kontsepsiyasiga binoan kelajakda geosiyosatdagi markaziy muammo G‘arb va qolgan sivilizatsiyalar o‘rtasidagi ixtilof bo‘lib qoladi. “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi jahon siyosatining belgilovchi omiliga aylanadi. Sivilizatsiyalar orasidagi o‘tmish chizig‘i G‘arb va qolgan dunyo o‘rtasidagi munosabatlar orqali o‘tadi” shundan kelib chiqib, u G‘arbdagi hukmron doiralarga g‘arbiy sivilizatsiya chegaralarida, ayniqsa AQSh va Yevropa o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarda G‘arbning manfaatlarini himoya qilish maqsadida ularning ularning imkoniyatlarini qaytarish zarurligi haqidagi g‘oyalar bilan murojaat qiladi. “Sivilizatsiya

to‘qnashuvi” modeli tsivilizatsion bag‘rikenglikka rahna soladi. U jahon jamoatchiligiga kelajakda g‘arb va boshqa mamlakatlar o‘rtasidagi ixtilof geosiyosatning markaziy o‘q chizig‘i bo‘lib qolishligini isbotlashga qaratilgan. Ushbu model nafaqat olimlar o‘rtasida turli mamlakatlar, xususan islom dunyosidagi siyosiy doiralarida ham turlicha bazan salbiy munosabatga sabab bo‘lmoqda. Masalan, Eron Islom Respublikasining sobiq prezidenti Sayyid Muhammad Hotamiy tashabbusi bilan sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot masalasi YUNESKOning 1999 yildagi sessiyasidagi va BMTning 2000 yildagi 53-bosh assambleyasida muhokama etildi. Mazkur ming yillik sammitida XXI asr – sivilizatsiyalararo muloqot asri, deb elon qilindi.

Bir qator G‘arb ayniqsa amerikalik olimlarning qarashlarida avj olgan globalizm g‘oyalari, xususan, Ayru L.Strausning 1997 yilda nashr etilgan “Bir qutblilik, yangicha dunyoviy tartibotning markazlashgan strukturasi va Rossiya” maqolasida yangicha dunyoviy tartibotning “birqutblilik” kontseptsiyasi o‘z ifodasini topdi. U xalqaro munosabatda zamonaviy tizimini majoziy manoda oddiy yong‘oqqa qiyoslaydi. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlaruning milliy qobig‘ini tashkil etsa, ichidagi asosini – yadrosini qolgan dunyoni boshqarib turuvchi buyuruq beruvchi markaz – G‘arb tashkil etadi. Butun tarixning ilgarilanma harakatini u ko‘p qutblilik ikki qutblilik bilan almashinuvida ko‘radi. Shundan kelib chiqib, u G‘arbni butun dunyoni boshqaruv markazi sifatida tavsiflovchi kelajak dunyoning bir qutblili kontseptsiyasini yaratdi.

Birqutblilik, Straus fikricha, jahon tarixida yuksak salmoqqa ega bo‘lgan industrial demokratiyalardan tashkil topadi va u doirasida AQSh boshqa davlatlarga etakchilik qiladi.

Jahon hamjamiyatida birqutblilikning salmog‘i faqat uning yaqqol namoyon bo‘lgan, iqtisodiy va texnologik salohiyati bilangina emas, balki qolgan jamiyatlarning modernizatsiyasi g‘arblashtirish tomon borayotganligi bilan ham belgilanadi, deydi Straus. Boshqacha qilib aytganda, birqutblilikning, yani G‘arbning ustuvorligi, eng avallo, mafkuraviy omilga aynan esa liberalizm mafkurasiga bog‘liq. AQShning sobiq davlat kotibi Zbignev Bjezinskiy ham “sobiq ittifoqning mag‘lubiyati va parchalanib ketishi, AQShning yagona va haqiqatda birinchi asl umumbashariy davlat sifatida g‘arbiy yarimshar shohsupasiga tez suratlar bilan ko‘tarilishida yakunlovchi akkord bo‘ldi. Deb takidlaydi. Aksaryat ilmiy va siyosiy doiralarda mazkur kontseptsiyaga, bir maydonli, bir qutbli dunyo haqidagi mulohazalarga ilmiy jihatdan ham siyosiy jihatdan ham etarlicha asoslanmagan nuqtai nazarlar sifatida tanqidiy munosabat bildirildi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan G‘arbning ayniqsa, AQShning hozirgi zamonda keskinlashib borayotgan barcha umumbashariy muammolarni faqat o‘z manfaatlaridan kelib chiqqan holda o‘zi xohlagancha hal etish “huquqini asoslovchi kontseptsiyalardan tashqari bunday kayfiyatlardan ogoh bo‘lishlilik g‘oyasini ilgari suruvchi ta’limotlar ham mavjud, xususan amerikalik tadqiqotchi Pol Kenndi o‘zining “Buyuk davlatlarning ravnaqi va inqirozi” kitobida “imperiyaning zo‘riqishi” nazariyasini ishlab chiqdi. U o‘z zimmasiga xalqaro hayotni tashkil etish va yakka holda etakchilik qilish ma’suliyatini olgan hech bir davlat bunday maqomni uzoq vaqtgacha saqlab tura olmasligini ko‘rsatib berdi. bunday davlat o‘zining ichki kuchlarini eng avvalo, iqtisodiy hayotini barbod qildi va oxir-oqibat oddiy davlat holatiga beixtiyor o‘tib qoladi. Fransuz tarixchisi Emmanuel Todd “Imperiyadan so‘ng Amerikacha tizimning inqirozi haqida esse” (2002) kitobida imperiyaning tarixi odatda, ta’lim sohasidagi, so‘ngra esa iqtisoddagi yuksalishdan boshlanadi, deb yozadi. Ularning asosida harbiy kuch shakllanadi. Lekin iqtisodiy baza torayib va qisqarib borgan sari, so‘nggi saqlanib qoladigan narsa – harbiy mashina bo‘ldi. Sobiq Ittifoqda ana shunday bo‘lgan hozir AQShda shunga o‘xshash holat yuz bermoqda.

### **Savollar:**

1. Neokantlikning Baden maktabi: V. Vindelband, G. Rikkert.
2. B. Krone: Tarix va falsafa. Tarix va tabiat.
3. K.Popper “tarixiylik qashshoqligi”.
4. Tarixning ekzistentsional falsafasi.
5. Frantsiyada “Yangi falsafa”.
6. Neotomistik tarix falsafasi.

## SOVET TARIX FANINING FALSAFIY MUAMMOLARI

Inson o'zining ichki imkoniyatlarini daxlsiz va ozod ijtimoiy vaziyat mavjud bo'lgan sharoitdagina ro'yobga chiqarishi mumkin bo'ladi. Zotan, ana shunday sharoitda u o'zini birmuncha erkin his qiladi. Maqsadlar va manfaatlar ro'yobini ta'minlashda o'zining butun imkoniyatlarini safarbar etadi. Tashqi ta'sirni kamroq sezadi. Boshqacha qilib aytganda, atrofidagilarning imkoniyatlarni cheklashga, turli buyruqlar va hukmlarga nisbatan bo'ysunishga, itoatkor bo'lishga imkon bermaydi.

Kollektivizmda esa uning aksi sifatida belgilangan va oldindan rejalashtirilgan maqsadlar atrofida birlashib, kuchlar uyg'unlashtiriladi. Oldindan tuzilgan va aniq rejalashtirilgan vazifalarning bajarilishini kimdir yoki kimlardir nazorat qiladi, buyruq beradi, ommaviy safarbarlikni tashkil etadi. Mutloq ko'pchilik esa itoatgo'y, labbaygo'y ijrochiga aylanadi. Bunday holat jamiyatda erkin fikr, erkin faoliyat va demokratiyaning boshqa ko'rinishlarini cheklab qo'yadi. Natijada totalitarizm vujudga keladi, shakllanadi, ildiz otadi va bora-bora avtoritar mohiyat kasb etib, jamiyatni buyruqlar asosida boshqarish, ijtimoiy hayotni bir kishining kayfiyati va talablari asosida tashkil etish tamoyillari vujudga keladi. Jamiyatni bunday boshqarish usuli, ayniqsa, sotsializm sharoitida asosiy qoidaga aylantirildi.

Garchi sotsializm g'oyasi va shakllariga munosabatlar hamon turlicha bo'lsada, sotsialistlarning o'zining orasida ham yondashuvlar va fikrlar xilma-xilligi mavjud bo'lgan. Lekin mohiyati bir xil bo'lgan. F.Xayek sotsialistlar xulosalarini o'rganar ekan, tuzumning mohiyati xususida gapirib, «ular da insonning jamiyatdagi mavqeini bevosita davlat belgilab berishi lozimligi to'g'risida hech qanday tafovut bo'lmagan. Lekin ularning orasida konkret sinf va guruhlar o'rinlarini belgilashda chuqur tafovutlar bo'lgan edi va doimo bo'ladi», degan edi. Ana shu holatning o'zi faoliyatlarni, maqsadlarni rejalashtirish va uni markazlashgan boshqaruv tizimi orqali amalga oshirish tamoyili ustuvorligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

G'oyaviy hukmdorlik, yakka shaxs fikrining ustuvorligi diktatura maqomini egallaydi. Zo'ravonlik va xudbinlik shaklidagi avtoritar axloq, avtoritar kayfiyat va fe'l-atvor garchi fuqarolar manfaatlariga zid bo'lsada, o'ziga xos qadriyatlar darajasiga majburan ko'tariladi. Natijada hammaning bir xil fikrlashi, yuqoridan bildiriladigan har qanday buyruqning muhokamasiz, munozarasiz, mushohada qilmasdan to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish va so'zsiz bajarish tamoyili vujudga keladi. Bu o'z-o'zidan bir necha asrlar mobaynida shakllangan an'analar, urf-odatlar, turmush tarzi,

adabiyot, san'at va, umuman, yaxlit olganda fuqarolar qalbi va ruhiyatini o'zida mujassam etgan bir butun madaniyatning inqiroziga olib keladi. Natijada fikriy boqimandalik, befarqlik, hissizlik kayfiyati butun jamiyat kayfiyatiga, axloqiy me'yorlariga aylanadiki, bunday sharoitda taraqqiyot va istiqbolga o'rin qolmaydi.

Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, kollektivizm ikki bosqichda o'zini namoyon etadi va bu bosqichlarni yaqin o'tmishimizda – sovet imperiyasi davrida yaqqol ko'rdik. **Birinchi bosqich** – totalitarizmning «Faqat buyruq berilgan narsanigina bajarish mumkin, boshqasi mumkin emas», avtoritarizmning «Faqat siyosatga aralashma, boshqa hamma narsa mumkin» shiorlarida to'la mujassam. Bunday holatni «Kollektivistik tafakkurning fojiasi shundaki, aql-idrokni taraqqiyotning oliy omili sifatida ta'riflansa oqibatda undan voz kechiladi. Chunki bunday sharoitda aql-idrok ongli harakatning asosi bo'lgan jarayonlar noto'g'ri talqin qilinadi. Individualizmning o'zi jamiyatda individualizmning tepasida turgan kuchlarning ahamiyatini anglashga imkon berayotgan bir vaqtda, kollektiv doktrina paradoksli ravishda «ongli» rejalashtirish tamoyillarini ilgari surgan holda majburiy ravishda qandaydir aql-idrokni inkor etuvchi mexanizmga oliy hokimiyat maqomini berishga majbur bo'ladi. Ijtimoiy kuchlar bilan murosa qilish va turfa xil fikrlarga bag'rikenglik bilan yondashish individualizmga xosdir. Bunday insonparvar g'oya, jamoatchilik hayotining yagona kishi tomonidan boshqarilishiga oid har qanday g'oyaning ortida turgan intellektual takabburlikning butunlay aksidir», deb sharhlaydi F. Xayek.

Demak, kollektivizm sharoitida boshqarish maqomiga ega bo'lgan shaxsning har qanday xulosasi oliy hokimiyat va davlat maqomiga ega bo'ladi. Uni bajarishga ommaviy majburiylik tartiboti o'rnatiladi. Turli ijtimoiy kuchlar, alohida individlar yoki fuqarolarning xulosalari inobatga olinmay, boshqaruvchi – individning hukmi ustuvorlik qiladi. Boshqaruvchilik maqomiga ega bo'lgan individning intellektual takabburlik illatlari ko'zga yaqqolroq tashlanadi va «dohiy»lik singari yuqumli, tuzalmas kasallikni vujudga keltiradi. Sovet imperiyasida ayni ana shu kasallik keng tarqalib, bir-biriga ulanib ketgan, vorisiylik maqomiga ega bo'lgan «dohiy»lar sulolasi bejiz paydo bo'lmagan edi. Natijada bu butun jamiyat ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muhitini belgilaydigan bedavo illatga aylangan edi.

Aslini olganda har qanday avtoritar rejimda ham individual va jamoatchilik kayfiyatlari mavjud bo'ladi. Lekin o'rnatilgan tartib va qabul qilingan rejim talablari asosida buyruq beruvchining shaxsiy xulosalari hal qiluvchi maqomni egallaydi.

Sotsialistik tuzumga xos bo'lgan individuallik va kollektivchilik tamoyillarini, ularning o'ziga xos kontseptsiyalarining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotda tutgan o'rni va rolini, kishilik jamiyati rivojlanishida o'tkazayotgan ta'sirini tahlil qilar ekan, A. Ivin quyidagi tamoyillarni ilgari suradi:

zamonaviy tarix eng avvalo G'arb individual jamiyatlari va kollektiv jamiyatlar o'rtasidagi qarama-qarishliklar hamda kurashlarni o'zida aks ettiradi;

zamonaviy G'arb jamiyati anglangan aniq maqsadga yetishish uchun xizmat qilmaydigan, tarix taqozosi bilan ko'plab tasodifiy tizimlarda yuzaga kelgan murakkab chambarchaslikdir; kollektiv jamiyat oldindan ishlab chiqilgan reja asosida paydo bo'ladi va aniq belgilangan muayyan maqsadga erishishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi;

shaxs avtonomiyasi, inson turmush tarzidagi qarashlar va moyillikning mutloq suverenitetini tan olish individualistik jamiyatning asosiy xususiyatlari hisoblanadi; kollektivistik jamiyat esa individ va uning erki qadriyat hisoblanuvchi avtonomiyaning har qanday sohasini rad etadi;

kollektivizmning qat'iy yagona maqsadga intilishi raqobat o'rni bosuvchi markazlashgan rejalashtirish mexanizmi yaratilishiga olib keladi;

kollektiv loyihalar mohiyati davlatning jamiyatda ustuvorligini ta'minlaydi, individ va jamiyatning barcha sohalari nazoratda bo'lishiga, barcha turdagi individlar va alohida shaxslar uchun bir xil qadriyatlar va kollektiv axloq normasi bo'lgan bir xil fikrlash tartibining o'rnatilishiga, totalitar tuzumning terrori va bag'ritoshligi bir qarashda yagona maqsadga asoslangan jamiyat hayotini ilohiylashtirishga olib keladi va natijada demokratik sotsializm o'zining xom-xayollik mahsuli ekanligini ko'rsatadi, bunday sharoitda diktatura va totalitarizm muqarrar voqelikka aylanadi;

iqtisodiy erkinlik shaxs barcha huquq va erkinliklarining poydevori hisoblanadi; uning yo'q qilinishi kollektiv jamiyatda shaxsning barcha huquq va erkinliklariga barham berilishiga olib keladi;

sotsializm (kommunizm) va natsionalsotsializm (natsizm) sharoitida kollektivizm butun mazmun-mohiyati bilan totalitarizmning uzviy holati va yaqqol qiyofasi hisoblanadi;

sotsializm va natsionalsotsializm sotsializmning ikkita shaklini o'zida eksi ettiradi; bu – baynalminallik va demokratiya shiorlarini ilgari suruvchi radikal yo'l sotsializm hamda konservativ natsizm va irqchilik g'oyalari bilan jamiyatni boshqarishga asoslangan o'ng sotsializmdir;

sotsializmning ushbu shakllari o'zaro doimiy raqobatda bo'lsada, individualistik jamiyat ular uchun asosiy raqib hisoblanadi;

natsizm sotsialistik ildizlarga egadir; sotsializmning qator mamlakatlardagi inqirozi individualizm imkoniyatlari va intilishlarining ro'yobiga olib keldi;

oxir-oqibatda kollektivizm iqtisodiy taraqqiyotning turg'unligiga olib keladi va iqtisodiy soha individualizm raqobatiga dosh bera olmaydi.

Kollektivizm sharoitida yetishib chiqqan totalitar rejimda partiya asosiy rol o'ynaydi. Ana shu holatda jamiyat boshqaruvi, tuzilgan rejalar va tanlangan yo'l bevosita partiyaviy rahbarlik orqali amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, partiya davlat va hokimiyatning barcha vakolatlarini qo'lga olib, yagona boshqaruvchi va rahbar maqomiga ega bo'ladi.

Bir partiyali rejim sharoitida yagona mafkuraning ustuvorligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Bunday mafkuraviy yakkahokimlik butun jamiyat barcha qatlamlarini qamrab oladi va ijtimoiy hayotning hamma sohalariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Mutaxassislarining xulosalariga ko'ra sotsialistik va natsionalsotsialistik qarashlar ayni partiyaviy g'oyalar asosida shakllanadi va hokimiyat boshqaruvini o'z yo'rig'iga soladi. Buni biz Mussolini va Gitler siyosiy yo'l-yo'rig'ida, qarashlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Partiyaviy hayotning kommunistik shakli ham bunday qarashlardan begona emas. Kommunistlar fikrlar xilma-xilligini, qarashlar rang-barangligini, siyosiy plyuralizmni xush ko'rmaydilar. Aniqroq qilib aytganda, unga tish-tirnoqlari bilan qarshi turadilar. Bunga yaqin o'tmishimizda guvoh bo'ldik. «Aytganim aytgan, deganim degan» qabilidagi siyosiy va mafkuraviy yakkahokimlik kommunistik partiyaning asosiy tamoyili, uning siyosiy fenomenidir.

Darhaqiqat, KPSS o'z vaqtida barcha xalqlarni birlashtirishni, millatlarni assimilyatsiyalash, milliy til, madaniyat, turmush tarzi va an'analarni eskilik sarqiti sifatida qoralab, yangi ijtimoiy birlik – sovet xalqini vujudga keltirish g'oyasini ilgari surdiki, natijada jahon tarixiga kollektivizm tamoyillarining va g'ayriinsoniy qarashlarning eng yuksak cho'qqisi sifatida kirdi.

Hokimiyatni monopoliyalashtirish, erkinlik va demokratik qadriyatlarni cheklab qo'yish, unga qarshi holatda zo'ravonlik va tazyiq, tahdid va qo'rquv orqali jamiyat birligini ta'minlash kabi nomaqbul ish uslubini shakllantirdi.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda natsistlar va kommunistlar shaklan, amaliy faoliyati jihatidan farq qilsada, butun maqsad va mohiyati bilan aynan o'xshashligi, g'oyaviy jihatdan bir-biridan farq qilmasligi ayon. Tashqi ko'rinishda har ikkala rejimda ham siyosiy yakkahokimlik, davlat va



hokimiyat maqomiga ega bo'lgan g'oyaviy hukmronlik ko'zga yaqqol tashlansa, ichki mohiyati va tub mazmuni bilan zo'ravonlik va tahdid, fuqarolar qalbiga qo'rquv tuyg'ularini kuchaytirib, ularning insoniy qadriyatlarini mensimaslik, tahqirlash va oxir-oqibatda ularni fikrlamaydigan, o'zligini yo'qotgan zoologik mavjudotga aylantirish siyosati ustuvorlik qiladi.

Kommunistik partiya mafkurasida garchi «hamma narsa inson uchun, insonning baxt-saodati uchun» degan shior va shunga o'xshagan balandparvoz da'vatlar bot-bot takrorlansada, uning tub mohiyatida siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ruhiy terror maqsadlari mujassam edi. Ayni ana shu terror usuli bilan u navbatma-navbat, bosqichma-bosqich repressiyalarni tashkil etdi. Aholining ma'rifatli qatlamini yo'q qilib, omi va avom xalqdan iborat itoatkor, labbaygo'y, hamma narsaga fikrlamasdan, munosabat bildirmasdan tayyor turish illatlarini egallagan, ruhan ozurda, ma'nau qashshoq jamiyatni vujudga keltirdi. Bunday holatni R.Aron quyidagicha ifodalaydi: «Partiya yakkahokimlikka ega bo'lgan sharoitlarda ortodoksallik majburiydir. Hukmdorlar bilan kelisha olmaslik halokatga olib kelishi muqarrar edi. Shu singari rejimlar uchun, ularning so'l yo o'ng yo'nalishlaridan qati nazar, ba'zi bir huquqiy harakatlar shakllarida o'xshashlik, masalan, lagerlarga mustaqil fikrlaydigan fuqarolarni jinoiy aybdorlar bilan bir xil maqomda qamash ularning har ikkisiga ham xos bo'lgan».

Jamiyatda muxolif kuchlarga yo'l bermaslik totalitarizm uchun xususiyat. O'z saflarini zo'r berib sadoqatli maslakdoshlari, ko'r-ko'rona labbaygo'ylari bilan to'ldirish jamiyat barcha qatlamlarini bir xil fikrlab, bitta g'oyani qo'llab-quvvatlashga olib keldi. Boshqacha qilib aytganda, kommunistik aqidaparastlik, mafkuraviy fanatizm barqaror bo'lgan jamiyat qurildi. Ana shu tarzda osonlik bilan, hech qanday to'siqlarga uchramay hokimiyatni egallash imkoniyatini qo'ldan bermay yashadi. Bunday tarixiy jarayon totalitarizmning eng oliy ko'rinishi sifatida umum-insoniyat tarixiga alohida bosqich sifatida kirdi. Totalitarizmning ijtimoiy-tarixiy va siyosiy mohiyatini o'rganar ekan, R.Aron unga besh yo'nalishda ta'rif beradi:

totalitarizm qandaydir bir partiyaga siyosiy faoliyat yurgizish uchun monopol huquq beradigan sharoitda yuzaga keladi;

ushbu partiya, eng avvalo yagona, boobru avtoritet maqomini beruvchi mafkuraga ega bo'lib, keyinchalik ushbu mafkurani u rasmiy davlat haqiqati darajasiga ko'taradi;

ushbu rasmiy haqiqatni targ'ib qilish uchun davlat tazyiq o'tkazishning mutloq huquqi va e'tiqod vositalariga bosim o'tkazish vakolatini qo'lga

kiritdi. Davlat va uning vakillari ommaviy axborot vositalariga butunlay o'z hukmini o'tkaza boshlaydi;

iqtsodiy va kasbiy faoliyatning ko'pchilik turlari davlat ixtiyoriga o'tadi;

Bunga qo'shimcha qilib yana aytish mumkinki, har qanday faoliyat yagona partiyaning tajovuzkor mafkurasiga bo'ysundirilganligi bois, turli sohalardagi har qanday mayda va zararsiz kamchilik, xatolik darhol mafkuraviy tus olib, siyosiy aybdorlik, g'oyaviy qo'poruvchilik holatiga tushib qoladi. Har qanday insonning barcha xatoliklari siyosiyashtiriladi, mafkuralashtiriladi, natijada ayovsiz jazolanadi.

Kollektivizm g'oyasi totalitar rejimning tub mohiyati sifatida uning manbaiga, harakatga keltiruvchi kuchiga, quvvat beruvchi vositasiga aylandi. Ana shu tarzda butun jamiyatni taraqqiyotdan orqada qolishiga, umuminsoniyat sivilizatsiyasidan chekinishiga, oxir-oqibatda qoloqlikka yuz tutishiga olib keldi. «Rivojlangan sotsializm» va kommunizm singari balandparvoz shiorlar jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqimida o'zning mavqeini yo'qotdi. Dunyo taraqqiyoti poygasida yaroqsiz ekanligini, ojiz va notavonligini ko'rsatdi.

Tarixiy jarayon oxir-oqibatda jahon sotsialistik tizimini butun ko'lami va salmog'i bilan tanazzulga olib bordi. Insoniyat tafakkuridagi tub burilishlar, inson huquqlari va erkinliklari haqidagi g'oyalar tantanasiga yo'l ochib berdi. Ana shunday ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida XX asrning oxirlari totalitarizmga munosib baho berish, uni tub ildizlarini ochish davri bo'ldi.

Totalitarizm mohiyatini tushunish va unga baho berish xususida gap borar ekan, «Totalitarizmni aniqlashda, shubhasiz, partiyaning mutloqligi, xo'jalik faoliyatining davlatlashtirilishini yoki mafkuraviy terrorni asos qilib olish mumkin. Ammo, ushbu hodisaning o'zi mazkur xususiyatlar birlashgan va to'liq, yaxlit aks etgandagina tugallangan ko'rinishga ega bo'ladi», deydi R.Aron.

Totalitarizm dunyoning turli mamlakatlarida turli shaklda vujudga kelgan va yashagan. Deylik, fashistlar Italiyasida ana shu rejimning rahnamosi bo'lgan partiya g'oyaviy zo'ravonligi, tahdidlar va tazyiqlarning serqirraligi, mafkuraviy yakkahokimlikning shafqatsiz darajadagi ta'sirchan usullaridan keng foydalanganligi bilan SSSR hukmronlik qilgan totalitar rejim oldida ojiz edi. Uning ko'lami, jamiyatda tutgan o'rni jihatidan sovet totalitarizmiga teng kela olmas edi. Bularni inobatga olgan R.Aron «Kommunistik rejim tomonidan yaratilgan odam ma'lum bir e'tiqoddan yuzaga kelgan mavjudot sifatida emas, balki ikkilamchi naturadir. U umumiy tamoyillarni katta yohud kichik e'tiqod, ishonch bilan qabul qiladi,

real holatda sharoitga qarab nimani gapirish mumkinligini, nimaning mumkin emasligini tushunadi. Bu odam industrial jamiyatga tegishli bo'lgan, o'zi goh spektik, goh fanatik munosabatni his qiladigan ta'limot bilan qurollangan odamdir», degan xulosaga keladi.

Kollektivizm, demak, butun mohiyati bilan shaxs, alohida individ imkoniyatlarini cheklab qo'yadigan, aniq, oldindan belgilab qo'yilgan tartibotlar, rejimlar va qoliplar doirasidagina yashash mumkin bo'lgan hodisa. Buni biz yaqin o'tmishimizda – sotsializm sharoitida yaqqol ko'rdik. Chunonchi, kollektivlashtirish (kolxozlashtirish) siyosatining o'zi millionlab fuqarolar faoliyatini cheklash orqali butun jamiyat taraqqiyotini izdan chiqardi. Bu bevosita mehnat taqsimotida, mehnatga qarab haq to'lash tartibotida ham o'zini namoyon etdi. Ya'ni jamoaga a'zo bo'lgan besh kishi jismoniy va ma'naviy jihatdan besh xil mehnat qilish imkoniyatiga ega, besh xil ishlaydi. Biroq ularning barchasi bir xil maosh oladi.

Kollektivizm tushunchasining Sharqda, xususan, o'zbeklarda ma'naviy-ijtimoiy mazmuni ham borki, bu bevosita turmush tarzida, kundalik tashvishlar va muammolarni birgalikda hal etishda namoyon bo'ladi. Ya'ni odamlar – millati, elati, kasbu kori, ma'lumoti, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar uyushib yashash, mahalla atrofida birlashib kun kechirish an'analari asosida yashashadi. Buni mahallaning axloqiy-tarbiyaviy, ma'naviy-ruhiy qo'llab-quvvatlash faoliyati shaklan kollektivizmga o'xshashi mumkin. Biroq tub mohiyati bilan undan keskin farq qiladi.

Jahon tarixiy taraqqiyoti tajribasi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini, inson faoliyatini individualizm orqali ro'yobga chiqarish tendentsiyasini ilgari suradi va qo'llab-quvvatlaydi. Ana shunday tarixning rivojlanish tendentsiyasini buzmasdan davom ettirish bugun mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanishlar, o'zgarishlar va ko'p qirrali islohotlar mohiyatini o'zida mujassam etadi. Birinchi Prezident Islom Karimov evolyutsion taraqqiyot nazariyasining tagida xuddi ana shu g'oya yotadi va unga suyanadi.

Masalan, asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich fuqarolar ongi va tafakkurida tub burilishlar yasash – mulkchilik, mulkka egalik qilish, mulkni boshqarish tajribasini egallash orqali kollektivizm sharoitida shakllangan boqimandalikka, tayyorga ayyorlik illatlariga barham berish tamoyili shakllanmoqda. Jumladan, jamoa va davlat xo'jaliklarini tarqatib yuborib, ularning o'rnida fermer xo'jaliklarining keskin rivojlanib borayotganligi fuqarolar yaratuvchilik imkoniyatlarini ko'proq ro'yobga chiqarmoqda. Mehnatga ijodiy munosabat moddiy manfaatdorlik asosida

o'zgarib bormoqda. Natijada jamiyatda yalpi safarbarlik, ruhiy ko'tarinkilik, ma'naviy va moddiy rag'bat kuchaymoqda.

Jamiyatni tabiiy rivojlantirishni e'tiborga olish, yuzaga kelayotgan muammolarni tadrijiy ravishda hal etish maqsadi tufayli «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaslik», «Islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish», «Jamiyatni tubdan o'zgartirishning revolyutsion yo'lini emas, evolyutsion yo'lini tanlash», «Islohotlarni inson ongi va qalbi orqali amalga oshirish», «Islohot – islohot uchun emas, islohot inson uchun» kontseptsiyalarini amalga oshirish yo'lidan borilmoqda. Bunda jamiyatni bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tkazish jarayonida fuqarolar tafakkurini yangilanishlar oqimida o'zgartirish va ularda yangilanayotgan hayot ko'nikmasini shakllantirish singari g'oyalar ilgari surilmoqda hamda izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda totalitarizm nazariyasiga, uning tub mohiyatiga, butun metodologiyasiga faqat va faqat evolyutsion nazariyagina qarshi turishi mumkinligini O'zbekistonda qaror topayotgan va tobora shakllanib borayotgan ijtimoiy-siyosiy va tarixiy jarayonlar misolida ko'rmoqdamiz.

Individualizmning hozirgi zamondagi eng samarali ko'rinishi fuqarolik jamiyati qonuniyatlarida va mohiyatida yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Zotan, fuqarolik jamiyati – jamiyatni davlat tomonidan emas, fuqarolar tomonidan boshqarilishiga asoslangan, ularning maqsadi va manfaatlari inobatga olingan ijtimoiy-siyosiy tizim. Bunda mamlakatning bir fuqarosi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini jamoat tashkilotlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy uyushmalar, partiyalar va nodavlat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiradilar. Fuqarolik jamiyatida davlat fuqarolar ustidan emas, balki fuqarolar davlat faoliyati ustidan to'la nazorat o'rnatadilar, davlatning ko'pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Davlat hokimiyati esa mamlakatning umumiy taraqqiyot rejalarini tuzadi, uning strategiyasini ishlab chiqadi, mudofaa, milliy xavfsizlik, davlat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini, uning suverenitetini ta'minlash, pul, moliya, soliq, bank siyosati, tashqi siyosat va jahon hamjamiyati bilan aloqalar tizimini yaratadi, uni boshqaradi.

Fuqarolik jamiyati haqidagi ilk tasavvurlar Aristotelning «Siyosat» asarida bayon etilgan. Unga ko'ra insonning erkin yashash huquqi, kishilik jamiyatining adolat va haqiqat ustuvorligi asosida tashkil etish orqali ta'minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Davlatning kuch-qudrati, farovonligi, uning jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi vosita ekanligi kabi g'oyalar ilgari suriladi, Fuqarolik jamiyati haqidagi bu g'oyalar XVII

asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, Gobs asarlarida takomillashtirildi. Kant, Russo, Gegel, Popper g'oyalari jahon ijtimoiy tafakkuri olamida fuqarolik jamiyatining yangidan-yangi qirralarini, umuminsoniy qadriyat sifatidagi mohiyatini ochib berdi.

Sharqda fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini mavjud. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan sintezlashgan, fe'l-atvor, hatti-harakatlar va qoida-me'yorlarning uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Demak, jamiyatda qonun ustuvor bo'ladi, qonun oldida barchaning tengligi, javobgarligi ta'minlanadi. Inson manfaatlari, haq-huquqlari ayni ana shu qonunlar bilan kafolatlanadi. Bunday qarashlar Sharqda azaldan mavjud bo'lgan. Bu tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib, rivojlanib bordi. Jumladan, eng qadimiy madaniy yodgorlik – «Avesto»da kishilarning uyushib yashashi, o'zaro munosabatlar va aloqalarning axloq va me'yorlarga tayanishi kabi g'oyalar ilgari suriladi. Bu o'z-o'zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni hukmron shaxs tomonidan emas, e'tirof etilgan me'yorlar boshqarishi kabi fuqarolik jamiyatining ilk elementlaridan dalolat beradi.

Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol fuqarolar jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etiladi. Qonunlari mukammal bo'lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo'lishi muqarrar ekanligi bayon etiladi. «Shahar (mamlakat) aholisi xush-xulqqa ega bo'lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi», deydi alloma. Uning xulosalariga ko'ra jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiy-ma'naviy jihatdan barkamol bo'lmagan sharoitda avj oladi. Bunday xalqni tartibga chaqirish uchun kuchli ta'sir o'tkazuvchi hokimiyat kerak bo'ladi. Erkin jamiyat, ozod fuqaro tamoyiliga fuqarolik jamiyatining asosiy xususiyati sifatida qaralgan va qonun ustuvorligiga jamiyat barkamolligi orqali erishilgan. Bu kabi g'oyalar Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalar tomonidan ham ilgari surilgan va amaliyotda mohirlik bilan qo'llanilgan. Bular hozirgi zamon tushunchasidagi fuqarolik jamiyatining muhim elementlaridir.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish tarixiy an'ana bo'lsada, u butunlay yangi tarixiy sharoitlarda jahon davlatchiligi ilg'or tajribalari va ko'p ming yillik milliy an'analarning sintezi sifatida dunyoga kelmoqda. Ya'ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, hurriyat va qat'iy tartib-intizom uyg'unligida barkamol kishilik jamiyati shakllantirilmogda. «Biz, degandi Birinchi Prezident Islom Karimov, fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni

o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir». Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy adolat printsiplari to'la ta'minlanadi. Jamiyatni bevosita har bir fuqaro va qonun boshqaradi. Inson tom ma'noda hayot gultojiga, inson qadru-qimmati, yashash huquqi va ehtiyojlari qadriyatga aylanadi. Inson ustidan insonning hukmronligiga yo'l qo'yilmaydi. Totalitarizm, avtoritarizm qarashlariga keskin qarshi holda jamiyatda individualizm, shaxs ozodligi va erkinligi ta'minlanadi.

Qayta qurish siyosati o'zining ko'zlagan maqsadiga, kutgan natijasiga erisha olmadi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kutilmaganda o'z o'zanini o'zgartirib yubordi. Demokratiya to'lqinlari erkin so'z, erkin fikrni zaruratga aylantira boshlagan bir paytda sho'ro jamiyatini totalitarizmdan erkinlik sari, hurriyat sari sifat o'zgarishiga olib kelayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida namoyon bo'ldi.

Biroq Kreml bundan manfaatdor emas edi. M.Gorbachev boshchiligidagi Sovet hukumati rahbariyati nomigagina erkinlikka yo'l berib, inson huquqlari xususida ko'pirtirib gapirib, asl mohiyatda esa totalitar tuzum va ma'muriy buyruqbozlik rejimini saqlab qolishdan manfaatdor edi. Zotan, ular hech qachon SSSRning tarqalib ketishini nazarda tutmagan va undan manfaatdor ham emas edi.

Tarixiy jarayonlar shu darajada tezlashdiki, oxir-oqibatda nafaqat notiq M.Gorbachevni, balki butun Siyosiy Byuroni, partiya Markaziy qo'mitasini, hukumatni talvasaga solib qo'ydi. Natijada ma'muriy organlar kuchidan foydalanish yo'li tanlandi. Turli shaharlarda, mintaqlarda, SSSRning faol va demografik jihatdan qulay bo'lgan, geo-siyosiy jihatdan muhim nuqtalarida beqarorlikni vujudga keltirish orqali mamlakat aholisini chalg'itish yo'lga o'tildi.

Ammo endi uyg'ongan kishilarni g'aflat pardasiga solishning iloji yo'q edi. Chunki erkin fikrlash, erkin yashash nashidasini sura boshlagan ozod fuqaroni qaytadan zanjirband qilishga qanchalik urinmasin, hukumatning kuchi yetmas, fuqaroning esa xohishi yo'q edi. Boshqacha qilib aytganda, mamlakat fuqarolari manfaati bilan totalitar rejimdagi davlat qiziqishlari o'rtasida "Xitoy devori" tiklanib bo'lingan edi. Ana shunday ziddiyatli bir paytda davlat o'z mavqei va rolini yo'qotmaslik uchun ozodlikka intilayotgan, hurriyat uchun kurashayotgan uyg'oq fuqarolar o'rtasida turli nizolarni uyushtirishi zarur bo'lib qolgan edi. Ana shu maqsadda Boltiq bo'yidagi to'qnashuvlar, Armaniston, Ozarboyjon, Gruziyadagi qonli fojialar, Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) va Rossiyaning boshqa ayrim mintaqalarida bo'hronlar va po'rtanalar avj olib ketdi.

Qizil imperiyaning tajovuzkorona siyosati ana shu tarzda 73 yil mobaynida asta-sekinlik bilan chok-chokidan so'tila bordi. Natijada

mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini ham, odamlar hatti-harakatini ham boshqarib bo‘lmaydigan murakkab va tahlikali holat vujudga keldi.

...Aslini olganda Sovet hokimiyati tizim sifatida juda ham mustahkam emas edi. U oktyabr to‘ntarishining urho-ur, surho-surlari oqibatida vujudga kelgan, boshqacha qilib aytganda, poydevori qumdan ko‘tarilgan jamiyat edi. Inson manfaatlari, haq-huquqlari butkul inkor etilgan, zo‘ravonlik va tazyiqni asosiy ish usuliga, siyosiy boshqaruv uslubiga aylantirgan hokimiyat sifatida ko‘zga tashlandi.

Ana shunday g‘ayri-insoniy va g‘ayri-axloqiy jamiyat asoschisi sifatida V.Lenin hokimiyatni qo‘lga kiritgan dastlabki kunlaridanoq siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma‘naviy va jismoniy terrorni hokimiyatni boshqarishning muhim omili darajasiga ko‘tardi va uni mohirona amalga oshirdi. Zero, oktyabr to‘ntarishining qonli «g‘alaba»si ham xuddi ana shu tamoyil asosida qurilgan va amalga oshirilgan edi.

Ommani chalg‘itish, jamiyatdagi barqarorlikni barbod etish, mutelik va qullik ruhiyatini chuqurlashtirish yo‘lida turli holatlarda va vaziyatlarda turli shakldagi siyosiy-tashkiliy tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Strategik maqsad – dunyoga mutloq hokim bo‘lish, jahon sotsializmini amalga oshirish orqali insoniyat dohiysiga aylanishga harakat qilindi. Ana shunday maqsadlarini amalga oshirish uchun Lenin turli-tuman nayranglarni o‘ylab topdi va ularni o‘ta shafqatsizlik bilan amalga oshirdi.

Natijada Sovet hukumatida «Yangi iqtisodiy siyosat»ni amalga oshirish singari siyosiy-tashkiliy «islohot» o‘tkazildi. Mashhur olim D.Volkogonovning fikricha, Lenin bu siyosatga yuzaki qaraganda xayrixoh bo‘lsada, asl mohiyati bilan unga qarshi edi. D.Volkogonov shunday misol keltiradi: 1919 yil 5 dekabrda Sovetlarning Butun Rossiya VII s‘ezdida nutq so‘zlar ekan, Lenin juda baland ruh bilan o‘z maqsad iddaolarini ochiq-oydin bayon etadi: «Kim non savdosi erkinligini xohlar ekan, xato qiladi. Biz bunga bir tomchi qonimiz qolguncha kurashamiz. Bu sohada hech qanday chekinishlarga yo‘l qo‘ymaymiz». Bu inqilob dohiysining mamlakatni xonavayron qilish, xalqni abgor etish borasidagi ko‘p qirrali siyosatidan birigina, xolos. Ayni ana shunday ocharchilik va ataylab uyushtirilgan kambag‘allashtirish siyosati O‘rta Osiyoni ham chetlab o‘tmadi. Farg‘ona vodiysining o‘zida 1921 yili 64 ming 315 kishi ochlikdan vafot etdi. Bu Lenin «xalqparvar» siyosatining Turkistondagi tantanasidan dalolat berar edi.

Leninning safdoshlaridan biri A.Ioffe quyidagilarni yozadi: «Qachonki, 1921 yili Markaziy Qo‘mita meni Turkistonga ishga yuborar ekan, safar oldidan bo‘lgan suhbatda va keyinchalik menga yozgan xatlarida V.I.Lenin

doimiy xavotirda ekanligini alohida ta'kidlardi. «Turkiston – bu bizning jahon siyosatimiz. Turkiston – bu Hindiston», derdi.

Turkistonning geo-siyosiy o'rni va ahamiyati o'sha paytdayoq inqilob dohiysi diqqatini o'ziga tortgan edi. Ayni Turkiston orqali Osiyoni zabt etish siyosati, Osiyoga egalik qilish maqsadini amalga oshirish uchun Turkiston muhim strategik ahamiyatga ega ekanligi Sovet hukumati turli davrlardagi arboblarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan, Lenin Turkistonga juda katta ochko'zlik va ishtaha bilan qaragan.

Sovet hokimiyati uchun, xususan, dastlabki yillarida Rossiya sanoatini xom ashyo bilan, dahshatli ochlik iskanjasida qolgan xalqini esa non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun Turkiston katta strategik ahamiyatga ega edi. Shuning uchun ham Lenin «hammamizga ma'lumki, yengil sanoat xorijdan keltiriladigan paxtaning yetishmasligi bois juda kuchli inqirozni boshdan kechirmoqda... Yagona manba – bu... Turkistondir», degan edi.

Xom ashyo taqchilligi muammosini hal etish uchun 1921 yili Leninning eng sodiq safdoshlaridan biri M.P.Tomskiy Turkistonga yuborildi. Uning rahbarligida o'sha yilning o'zida oldingi yilga nisbatan dehqonchilik maydoni 300 ming desyatinaga, paxta maydoni esa 100 ming desyatinaga ko'paydi.

Povoloj'edan dahshatli ocharchilikni boshidan kechirayotgan 300 mingdan ortiq kishi ko'chirib kelinib, Turkistonda joylashtirildi. Leninning Rossiyaning markaziy tumanlari aholisiga yordam shioriga javoban Narkomprodga 250 ming pud, Moskvaga 600 ming pud bug'doy yuborildi.

Bular hali inqilob olovi butkul so'nmagan bir paytda Sovet hukumati dastlabki talon-tarojchilik siyosatining natijasi edi. Vaholanki, bu siyosat O'zbekiston SSSR tarkibidan to'la va butkul chiqib ketgunga qadar davom etdi. O'zbekistonda yetishtirilgan paxta, pilla, qorako'l teri, meva-sabzavot, poliz mahsulotlari, oltin, gaz va boshqa yer osti boyliklari muntazam ravishda tashib ketildi. Ana shu tarzda lenincha siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy terror «rivojlangan sotsializm» sharoitida ham «qardosh» o'zbeklar va «sharq mash'ali» O'zbekistonning sho'rini quritdi.

Leninning tajovuzkor ruhi chegara bilmas edi. U hech qanday milliy, ma'naviy manfaatlar doiralariga sig'mas edi. Axloqiy-diniy tafakkur va turli xalqlarning milliy-an'anaviy turmush tarzi, asrlar mobaynida shakllangan ruhiyati bilan bog'lanmagan, faqat dunyoni zo'ravonlik bilan egallash ruhi unda ustunlik qilar edi. Shuning uchun ham inqilobiy o'zgarishlar doirasi kengayib, bir davlat doirasidan chiqib ketdi. Jahon sotsializm vasvasasi mintaqa va butun sayyorani egallab olishga intilgan xayolparastlik kasalligining natijasi edi.



Lenin shu darajada o'zining havoyi xayollariga qat'iy ishonar ediki, uning ko'lami va salmog'ini baholash qiyin edi. Dunyoni egallash vasvasasi uning ongu shuurini butunlay qamrab olgan va natijada ma'naviy-ruhiy jihatdan butun vujudi bilan unga intilardi. Bu bevosita inson va shaxs sifatida uning ma'naviy-ruhiy qiyofasi, siyosiy madaniyati va axloqiy tarbiyasi mahsulidir. D. Volkogonovning tili bilan aytganda, Lenin ana shu maqsad yo'lida o'z qalbigagina emas, balki butun insoniyat sivilizatsiyasiga ham o't qo'yishga tayyor edi. Yana shuni aytish kerakki, unga xalqning, millatning ahamiyati yo'q edi. U hatto rus xalqining juda katta qismini qurbon qilishdan ham o'zini tiymas edi. Ana shu qurbon bo'lganlar kulini ko'kka sovurib, huzur qilar va dunyoga o't ketishini kutib yotar edi.

Aytish mumkinki, Lenin faqatgina beshafqat bolshevik emas, ayni paytda planetar «islohotchi» ham edi. U o'zining «islohotlar nazariyasi» bilan dunyoni «yangi»lamoqchi, yangi «payg'ambar»lik da'vosi bilan yashaydigan holatga kelib qolgan edi. Shuning uchun ham 1917 yildayoq ulkan davlatni qo'lga kiritgani hamono, u Germaniya, Vengriya, Eron, Hindiston, Xitoy, Polsha va boshqa mamlakatlarni ham zabt etishga intildi. Uning ana shunday zo'ravonlik siyosatini, maqsadlarini nazarda tutgan mashhur rus olimi N. Berdyaev o'z vaqtida «Lenin antigumanistgina emas, ayni paytda u antidemokrat» ham deb nihoyatda to'g'ri baho bergan edi.

Aslini olganda diktaturaga, zo'ravonlikka intilish inson ruhiyati nuqtai nazaridan avval-boshda siyosiy maqsadlarga erishish uchun imkon yaratadi. Keyinchalik yaxlit faoliyatga, hatti-harakatlar tizimiga aylanadi. Natijada, bora-bora bunday ruhiy moyillik kayfiyati kuchayib, asta-sekinlik bilan ma'naviy imkoniyatlarni chegaralab qo'yadi. Ana shunday paytda inson shaxsiy manfaatlari va intilishlari yo'lida o'zini juda katta siyosiy iroda va siyosiy madaniyat bilan boshqarmasa, o'zini o'zi yengib yashamasa, havoyi intilishlar quliga aylansa, umuminsoniy qadriyatlardan uzoqlashib boradi. Natijada ozodlikning tanazzuliga, hurriyatning inqiroziga, inson haq-huquqlarining poymol etilishiga keng yo'l ochiladi. Lenin va leninchilar xuddi ana shunday insoniy qadriyatlardan ham, hech bo'lmaganda shaxs sifatida insoniy fazilatlaridan ham ancha olisda edilar. Ular kayfiyati va fe'l-atvoridagi tajovuzkorlik shaklan turlanib, zamonga moslanib tursada, mohiyatini mazmunan yo'qotmadi.

Lenin har doim o'z atrofidagi rahbarlarga va safdoshlariga bir narsani takrorlab kelgan (1921 yil): «Yashirin ravishda terror tayyorlansin: bu zarurat va shoshilinch». Aytish mumkinki, bunday lenincha qattiqqo'llikning manbai va mohiyatini anglash unchalik qiyin emas. Tashqi ko'rinishda «ko'ngilchan», «mehrison», «odamlarga e'tiborli» bo'lgan dohiyning bunday qarashlari jinoiy, siyosiy va yoki milliy manfaat

yoʻlidagi qattiqqoʻllik emas, aksincha, butun lenincha dunyoqarash zulmining, uning falsafasining, mantigʻining, bugun feʻl-atvoriyu munosabatlarini oʻzida mujassam etgan tafakkur tarzining mayib-majruh qiyofasi edi.

Biroq buyuk imperiyachilik shovinizmi Lenin faoliyatida va siyosatida alohida oʻrin va mavqega ega edi. Zotan, u barcha ittifoqdosh respublikalarga oʻz erkini oʻziga berish tamoyillarini soʻzda qoʻllab-quvvatlasada, tub mohiyati bilan unga qarshi edi. Jumladan, uning milliy masalaga doir qarashlarini tahlil qilar ekan, A.Avtorxonov «Leninning milliy mustamlakachilik masalasidagi siyosiy dasturi – katta imperiyalarni tugatib, tobe xalqlarni ozod qilish emas, barcha milliy imperiyalarni bir sovet super imperiyasiga yigʻib, bolsheviklar dasturining ikkinchi qismini amalga oshirish – yaʼni barcha millatlarga qoʻshib yuborib, ham mustamlaka, ham hokim millatlarni yoʻqotish natijasida kommunistik insoniyat qiyofasidagi yagona baynalmilal chatishma yaratishdir» , degan edi.

Millatlarni yoʻq qilish, milliy urf-odatlar, anʼanalar va milliy tilga eskilik sarqiti sifatida qarash, «din – afʼyundir» degan shior ostida butun mamlakat xalqlarini iymoni va eʼtiqodidan ayirish sovet imperiyasining asosiy maqsadi edi. Bu ulkan maqsadni amalga oshirishning lenincha «nazariya»si yaratildi va bu gʻoya shafqatsizlik bilan hamma joyda joriy qilindi. «Toki turli millatlar bir davlatga uyushgan ekan, markschilar hech qachon federatsiya printsiplarini ham, markazni kuchsizlantirishni ham qabul etmaydilar», deb Lenin qatʼiy xulosaga kelgan edi.

Darhaqiqat, turli millatlarning bir davlatga emin erkin, oʻz xohishistagi bilan birlashishi, umuminsoniy qadriyatlar tantanasi yoʻlida oʻziga xos federatsiyani tashkil etish bir qarashda ijobiy hodisa edi. Biroq, lenincha «markazni kuchsizlantirmaslik» siyosati yangi mustamlakachilikning, zoʻravonlikning hali insoniyat tarixi koʻrmagan hodisasi edi.

Lenin diktatura va zoʻravonlik siyosatiga alohida eʼtibor berar edi. Ayni paytda bu siyosatni izchillik bilan, doimiy ravishda rivojlantirib, takomillashtirib va oʻz navbatida oʻta hushyorlik bilan nazorat qilib borar edi. Uning xulosalariga koʻra «Proletariat diktaturasi – eski jamiyat kuchlari va anʼanalariga qarshi qonli va qonsiz, zoʻravonlik va tinchlik, harbiy va iqtisodiy, maʼmuriy va maʼrifiy yoʻllar bilan keskin kurashdir».

Lenin milliy siyosatining qirralari koʻp va xilma-xil edi. U bir qarashda turli millatlar va xalqlar orasida tinchlik, ijtimoiy-iqtisodiy bagʻrikenglik, milliy erkinlik va maʼrifiy targʻibot usullari orqali oʻz gʻoyalarini singdirishga harakat qilsa, asosiy maqsadiga erishish uchun zarur boʻlib

qolganda qon to'kishdan, zo'ravonlik ko'rsatishdan, harbiy kuchlardan shafqatsizlarcha foydalanishdan ham o'zini tiymas edi.

Ana shunday xulosalardan kelib chiqib, Leninning milliy mustamlakachilik siyosati strategik maqsadga aylangan edi. Uning asl maqsadi asta-sekinlik bilan katta imperiyalarni tugatib, mustamlakachilik azobini tortayotgan xalqlarga «rahmdillik» qilish, ularning «qadru qimmatini» tiklash va inson huquqlarini barqaror etish emas edi. Aksincha, sovet gegemon davlatini tashkil etib, barcha millatlarni va elatlarni qo'shib yuborib, ularni o'zligidan ayirib, sun'iy urchitilgan bedavo xalqni yaratishdan iborat edi. Bunday bedavolardan iborat jamiyatni esa har qanday kuyga solish va o'z manfaati yo'lida xohlaganicha boshqarish mumkin bo'lar edi.

Garchi kichik xalqlarning, millatlar va elatlarning yo'q qilinishi, yagona rus tilida so'zlashuvchi yangi xalq yoki ijtimoiy birlikni vujudga keltirish Lenin boshchiligidagi imperiya uchun qanchalik manfaatli bo'lsa, begunoh va jabrdiyda rus xalqining o'zi uchun shunchalik xatarli va, ayni paytda, tanazzulga boshlovchi siyosat edi. Lenin boshchiligidagi siyosiy qo'poruvchilar «ruslashtirish» siyosati bilan rus millatiga mansub xalqni chalg'itar edi. Biroq ularning bu siyosatning tag-mohiyatini tushunish uchun vaqtlari yetmasdi. Chunki siyosiy jarayon nihoyatda tig'iz va ataylab ushbu tadbirni tezlashtirish manfaatdor kuchlarning ish uslubi edi. Umuman olganda fuqarolarga erkin fikrlash imkoni berilmas, jarayonlar borishini tahlil qilish va ularga munosabat bildirish sharoiti yo'q edi. Xullas, Lenin «ruslashtirish» siyosatini amalga oshirishning yo'llari ko'p va xilma-xil edi. Buni A. Avtorxonov quyidagilarda ko'radi.

1. 1958 yilgi maktab islohoti munosabati bilan milliy maktablarda milliy tilni o'rganish va milliy tilda o'qitishni ko'ngilli deb e'lon qilgan qonun qabul qilindi. Farzandini milliy maktabga beradimi, o'ris maktabigami – endi ota-onalarning o'ziga bog'liq. Milliy maktabda darslar o'ris tilida olib boriladimi, milliy tildami – buni ham ular xal qilishadi. O'z o'zidan ma'lumki, ota-ona farzandlarining kelgusi mavqei «yuqori» ga ko'tarilishi uchun o'ris tili, o'ris maktabi orqali ekanini yaxshi biladi va farzandini o'sha yoqqa beradi.

2. Milliy tillarning lug'aviy jamg'armasiga shu tilda muqobil so'zlar bo'lishiga qaramasdan, ataylab o'rischa so'zlar va atamalar kiritiladi. Hatto texnika taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan yangi o'rischa so'z birikmalarini ham, garchi milliy so'z birikmalari bilan shu ma'noni berish imkoni bo'lsada, milliy tillarga kiritish taklif etildi.

3. Turkiston va Kavkazdagi respublikalar umumiy milliy tarkibida slavyanlar ko'payishi mo'ljallanib, slavyan aholisini respublikalarga ko'chirib kelib, ommaviy mustamlakalashtirish ishiga kirishildi».

Ana shu tarzda milliy siyosat ba'zan o'ta noziklik bilan va ba'zan o'ta qo'pollik bilan amalga oshirildi. Tarixidan ayrilgan, o'tmishini unutgan, milliy madaniyati va an'analaridan mosuvo bo'lgan sovet xalqi singari ijtimoiy birlik dunyoga kelishi uchun hamma choralar ko'rildi.

Umuman olganda «sovet xalqi» degan atamaning tagida nima yotadi? Bu qanday tushuncha? U nimani anglatadi? Sovet olimlari buni quyidagicha sharhlashdi: «Sovet xalqi insonlarning yangi tarixiy, ijtimoiy va baynalminal umumlashmasi bo'lib, o'z yagona hududiga, iqtisodiga, mazmunan sotsialistik madaniyatiga, ittifoq umumxalq davlatiga va kommunistik qurishda umumiy maqsadiga egadir. Umumiy til... O'ris tilidir».

Bu Lenin milliy siyosati asosidagi ilmiy metodologiyaga tayangan o'sha davr fanining nuqtai nazari. Zotan, u paytda har qanday fan – u ijtimoiy-gumanitar bo'ladimi yo tabiiy-aniq fanlar bo'ladimi, qat'iy nazar, yagona siyosatga bo'ysundirilgan va har qanday fan metodologiyasi Lenin qarashlariga asoslangan edi. Fan siyosiyashtirilgan va mafkuralashtirilgan edi.

Bunday illatlar faqat Leningagina xos emasdi. Uning ishining davomchilari ham ayni ana shu maqsad va g'oya bilan yashashardi. Stalin, Xrushchov, Brejnev, Suslov, Andropov, Chernenko va boshqalar ham ayni ana shu maktab ta'limini olgan, ana shu ta'limotning sodiq davomchilari edi.

Milliy masalaga munosabatda lenincha yondashuv butun sovet davlatining izchil, doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib borgan siyosatiga aylandi. Zotan, «dohiy» sovet hokimiyatining dastlabki yillaridayoq «bashorat» qilgan edi: «...millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi ularning g'ayri millatlar jamoalaridan davlat bo'lib ajralishi, o'z mustaqil milliy davlatini tuzishi demakdir» .

Demak, Lenin millatlarga erkinlik berish va milliy ravnaqni ta'minlashdan manfaatdor emas. U tom ma'nodagi ma'naviy terror tarafdori. Shuning uchun ham o'z siyosatini izchil va shafqatsiz ravishda davom ettirdi: «Bir davlatning ichida turli millatlar bo'lishi zarurdir, biz markschilar ularni yaqinlashtirib, qo'shib yuborishga intilamiz», dedi. Demak, bir mamlakat ichidagi turli millatlar madaniyatlararo integratsiya orqali bir-birini tushunish, o'zaro hurmat va milliy madaniyatlar ravnaqini ta'minlash emas, balki ularni birlashtirib, qo'shib, yo'q qilib borish yo'lidan borar edi.

Lenin ta'limoti uning sodiq izdoshlari tomonidan zamonga moslashtirilib davom ettirildi. Jumladan, Stalin «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik», Brejnev «mazmunan yagona sotsialistik, milliy shakllari turlicha, ruhan baynalminal madaniyat»ni yaratish uchun kurashdilar.

Kommunistik g'oyada vorisiylik butun qonuniyatlari bilan ta'minlangan edi. Leninning g'oyaviy shajarasi shu darajada mustahkam, sadoqatli va e'tiqodli ediki, ularni bir-biridan kam qo'yish mumkin emas edi. Ana shunday siyosiy sadoqatni yorqin ko'rsatgan Brejnev sun'iy sovet xalqini vujudga keltirish borasida o'ziga xos «shafqatli», «yumshoq» yo'lni tanladi. Bu bilan u hech kimga yomon ko'rinmadi, hech qanday millatlar va elatlarga to'g'ridan to'g'ri tazyiq o'tkazmadi. Hammasining ishonchini qozonishga harakat qildi. Biroq ana shu yumshoqlik va siyosiy «madaniyat» bilan millatlarni o'zligidan ayirishning o'ziga xos yo'llarini topdi. U juda ustomonlik bilan kichik xalqlar va millatlar tarixini butunlay qaytadan yaratishga da'vat etdi. Butunlay yangi g'ayri-milliy, g'ayri-ilmiy, soxtalashtirilgan, sun'iy lashtirilgan tarix dunyoga keldi. Buni A.Avtorxonov uchta yo'nalishda ko'radi:

birinchi aqida – barcha o'ris bo'lmagan xalqlar chor imperiyasiga o'z xohishlari bilan qo'shilgan emishlar;

ikkinchi aqida – bunga qarshilik ko'rsatgan hamma milliy ozodlik harakatlari jaholatparast kuchlar ekan;

uchinchi aqida – bu xalqlarning ko'hna chor imperiyasiga qo'shilishi go'yo ular uchun taraqqiyparvar hodisa bo'libdi».

Ana shu «taraqqiyparvar» lik millatlarning asta-sekinlik bilan yemirilishiga olib keldi. Biroq, bu bilan haqiqiy milliy xususiyatlar, e'tiqod va iymon, urf-odatlar va an'analar tag-tomiri bilan yo'qolmadi. Yuzaki qaraganda hukmron siyosatga «labbay»go'ylik, ichki mohiyati bilan esa milliy qadriyatlarga e'tiqod parallel ravishda yashadi.

Garchi o'sha davrdagi fan, mafkura lenincha milliy siyosatning brejnevona talqinini zo'r berib tadqiq etib, nazariy «asoslab», ilmiy metodologiyasini yaratishga va uni ommaviy axborot vositalari jon-jahdi bilan targ'ib etishga intilsalarda, bu jiddiy o'zgarishlarga olib kelolmadi. Jumladan, 70-yillar ilmiy nazariyada bu masala birmuncha tadqiq etilgan va aniq xulosalarga kelingan edi: «Aholining o'sib borayotgan harakatchanligi... millat va elatlarning doimiy yaqinlashuviga, bir-biriga o'zaro ta'sir etib, tili boyishiga olib keladi. Ularning biri – o'ris tili – barcha sotsialistik mamlakatlar uchun umumiy tilga aylanadi». Biroq hayot haqiqati, milliy xususiyatlar va o'ziga xoslikning «temir» qonuniyatlari bunday soxta, asossiz, baland parvoz ilmiy «haqiqat» lardan ustun keldi. Tarixiy taraqqiyot me'yorlari ustuvorlik qildi.

Gorbachyov esa mazkur g'oyani birmuncha «demokratlashtirgan» holatda, «qog'ozga o'rab» ilgari surdi: «Ziyolilar o'z tarixiy ildizlarini o'rganmoqdalar. Bu gohida tarixni va u bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalarni, taraqqiyotga zid tarixiy narsalarni ham ilohiylashtirishga olib kelmoqda».

Demak, birinchidan, Bosh kotib milliy tarix va u bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarni o'rganishga qarshi. Uni «taraqqiyotga zid narsalar» deb tushunadi. Chunki Gorbachyovning maqsadi yagona sovet xalqining shakllanishiga, ulug' davlatchilik va ulug' millatchilik g'oyalarini amalga oshirishga intilishdir.

Ikkinchidan, tarixni o'rganish oxir oqibatda millatlarning uyg'onishiga olib keladi. Har bir xalqning o'ziga xos buyuk o'tmishi, ulug' madaniyati, milliy o'zligini belgilaydigan an'analari bor. Ajdodlar qoldirgan ma'naviy meros ularni rag'batlantiradi, milliy taraqqiyotga da'vat etadi. Natijada sovet milliy siyosati chok-chokidan so'tilib, «buyuk» imperiya inqirozga uchraydi. Buni yaxshi bilgan Gorbachyov ziyolilarni kishanlash, tarixni o'rganishni ilohiylashtirish tamg'asi bilan «shovinizm»da ayblash yo'lidan bordi.

D.Volkogonov shunday ma'lumotni keltiradi: Afg'onistonda uzoq davom etgan urush tugagach, Sovet rahbariyatining o'ylamasdan boshqa bir mamlakat ichki ishlariga aralashganligi aniq bo'ldi. 1990 yillarda ham, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida insoniylashuv tendentsiyalarining paydo bo'layotganini, zo'ravonliklarning ibtidoiylashayotgan hodisa sifatida tan olinayotganini sovet rahbarlari payqashmas edi. Ular hatto dunyoga egalik qilish kabi lenincha tafakkurdan xalos bo'lmaganligini ko'rsatadi. SSSR Mudofaa Vaziri D.T.Yazov KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy Byurosida qo'shni mamlakatda amalga oshirilgan «internatsional burch»ning o'n yillik yakunlari xususida hisobot berdi. 1971 yil dekabridan 1989 yilning fevraligacha Afg'onistonning tog'li yo'llarini 546 ming 255 sovet harbiylari bosib o'tdi. «Internatsional burchi»ni bajara turib o'n uch ming 826 kishi, shundan 1977 ofitser qurbon bo'ldi. Afsuski, ularning asosiy qismi musulmon xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqi vakillari edi. Ayni ana shu urush keltirgan zarar bir necha o'n milliard so'mni tashkil etadi.

Sovet hukumati 1980 yillarda amalga oshirgan bu xunrezliklar xalqlar otasi Stalin iborasi bilan aytganda «vazifani bajarishga intilish kerak, qurbonlar bilan hisoblashmaslik lozim», degan g'oyasining amaldagi ko'rinishi edi.

Repressiya va qon to'kishlar Sovet hokimiyatining doimiy ish usuli edi. Turli davrlarda, turli nomlar va bahonalar bilan xalqni qirish, millatning eng

sara vakillarini yo‘q qilish tamoyilga aylanib qolgan edi. «Eron josusi», «Xitoy josusi», «Xalq dushmani», «Yod unsurlar», «Buzg‘unchilar», «Irodasizlar» singari turli nomlar bilan millionlab kishilar qatl etilgan va surgun etilgan.

«Qabohat saltanati» kitobida keltirilishicha, 1917-1929 yilgi fuqarolar urushida 15 million kishi, 1929-1933 yilgi ochlik davrida 8 million kishi, 1933-1939 yildagi qatag‘onlarda 16 million, 1945-1954 yillardagi surgunlar va ochlikdan 4 million kishi qurbon bo‘lgan. Xulosa qilib aytganda, Sovet tuzumi ayni ana shu yillarda o‘z aholisining uchdan bir qismini – yetmish milliondan ziyolini ataylab yo‘qotgan.

«Bosmachilik» nomi bilan «milliy ozodlik harakati»ga qo‘shilganlardan 16 yil davomida 1 million 200 ming o‘zbek qurbon bo‘ldi. Bir yarim million musulmon xudosizlar jamiyati bilan kelisholmay xorijga chiqib ketdi. 1 million 700 ming kishi «bosmachilik harakati»ni qo‘llab quvvatlaganlikda ayblanib, Sibirga surgun qilindi.

Faqat shugina emas. Sovet hokimiyati yillarida O‘zbekiston chor hukumati siyosati davrida qanday bo‘lsa o‘shanday strategik ahamiyatga ega bo‘lgan maydonga aylantirildi. Aniqrog‘i, SSSRning paxta mustaqilligi siyosati O‘zbekiston orqali amalga oshirildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining paxtadan boshqa hamma sohalari keskin qisqartirib yuborildi. O‘zbeklar faqat paxta yetishtiruvchi dehqonlarga aylantirildi. Sanoat, transport, aloqa tarmoqlari eng quyi ko‘rsatkichlarda amalga oshirildi. Ijtimoiy soha, fan, ta‘lim, madaniyat va sog‘liqni saqlash ittifoq ko‘rsatkichidan eng past darajada tashkil etildi. Ekologik muammolar asta sekinlik bilan chuqurlashib borib, oxir oqibatda butun insoniyat fojiasiga aylantirildi.

Bir qarashda Brejnev rahbarlik qilgan davrlarda mamlakatda birmuncha sokinlik va tinch taraqqiyot ta‘minlanganday edi. Biroq insonning eng katta iqtidori – daholik qudrati so‘ndirildi. U to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarish vositasi bo‘lib qoldi. Fikrlamay yashash, inson tafakkurini cheklash, munosabat bildirish kabi aqliy salohiyat barham topdi. Mutelik va tobelik kayfiyati chuqur ildiz otdi. Bu asta-sekinlik bilan o‘z o‘tmishini unutish, kelajakka ko‘r-ko‘rona nazar tashlash va shunchaki kun kechirish kayfiyatini chuqurlashtirdi.

Kommunistik mafkura odamlar qalbiga tahdid soldi. Hukmron g‘oya oldida fuqaro o‘zini nochor his etadigan, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarolmaydigan jonzotga aylandi. Ana shunday tarzda xalqning erkin mehnat qilishga bo‘lgan rag‘bati so‘ndirildi.

Mustaqil fikrlaydigan, yuz berayotgan voqea hodisalarga mustaqil baho beradigan kishilar o‘zboshimcha, mahmadona deb qoralanar, tazyiqqa

olinar edi. Bu tuzum shunday nosogʻlom muhitni vujudga keltirgan ediki, natijada layoqatsiz, fikrsiz, laganbardor, boshliqqa taʼzim, xodimga zugʻum koʻrsatadiganlar qadr-qimmat topib yashardi. Negaki, mustamlakachilik siyosatining tabiati shuni taqozo qilar edi.

Bularning barchasi jamiyatning maʼnaviy tanazzulini tezlashtirdi. Xalq manfaatini oʻylagan, uning ongiga nur, qalbiga ziyo bagʻishlashga intilgan, vijdon va aql bilan ishlashga, hurriyat uchun kurashga chorlaganlar esa kommunistik partiyaning labbaygoʻy yugurdaklari tomonidan soʻroq tergovga tutilar, maʼnaviy jihatdan badnom qilinlar, baʼzan esa hatto jismoniy mahv ham etilar edi.

Natijada bunday beayov va shafqatsiz bedodliklardan ogoh boʻlib turgan xalq butunlay umidsizlikka tushdi. Jamiyatda na partiyaga, na siyosatga, na davlat va uning yoʻlboshchilariga ishonch qoldi. Ishonchidan ayrilgan kishi esa ruhan oʻlikdir.

Maʼlumki, ruhiyati shikasta va ozurda, hadik va qoʻrquv girdobiga tushgan odamda yaratishga, bunyod etishga intilish boʻlmaydi. Va hatto hayotga, yashashga ragʻbat ham shunchaki «kun koʻrish»ga aylanadi.

Hayotga befarq qarash, loqaydlik aksariyat koʻpchilikning yashash tarziga aylandi. «Sovet kishisi» oʻz soyasidan choʻchib yashaydigan boʻlib qoldi. Chunki yuragining tub-tubiga qoʻrquv bilan qoziq qilib qoqilgan tobelik, mutelik tuygʻusi uni tirik murda holiga solib qoʻygan edi.

Tarixiy tajriba har qanday islohot va yangilanishlar eng avvalo inson ongi va qalbi orqali oʻtgan taqdirdagina samarali natija berishini koʻrsatmoqda. Shuning uchun ham Oʻzbekistonda ozodlikning ilk kunlaridanoq odamlar ongi va tafakkurini oʻzgartirishga eʼtibor berib kelinmoqda. «Iqtisodiy islohotlarni hal etish mumkin. Xalqning taʼminotini ham amallab turish mumkin. Ammo maʼnaviy islohotlar, qullik va mutelik iskanjasidan ozod boʻlish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris boʻlish – bu dunyoda bundan ortiqroq va bundan sharafliroq vazifa yoʻq». Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bayon etgan bu fikr xalqni maʼrifiy uygʻoqlikka chorlash yoʻlidagi otashin daʼvat boʻlish bilan birga, bu sohadagi ishlarimizning asosiy yoʻnalishlarini ham belgilab bergan edi.

Dunyoda hech kim yer yuzida jannat yaratgan emas. Biroq, Oʻzbekiston Sovet hokimiyati davrida Lenin va leninchilarning saʼyi harakati bilan doʻzaxga aylantirilgani tarixiy haqiqat. Zotan, bu fojialarni, bu koʻrguliklarni tarix, millat hech qachon unutmaydi. Ayni ana shunday gʻoyani amalga oshirishning yangi, sivilizatsiyalashgan, zamonaviy shaklini oʻylab topgan M. Gorbachyov «qayta qurish» siyosati strategiyasini ishlab chiqqani va amalda qoʻllagani haqiqatdan ham uning leninizmga



sadoqatligini ko'rsatdi. Ayni paytda u o'ziga xos «novator» sifatida Lenin g'oyalarini amalga oshirishning yangi shaklini amalda joriy etdi. U 1987 yil oktyabr oyida KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy Byurosida nutq so'zlab, o'z maqsadini aniq-ravshan o'rtaga tashladi va «Lenindan bizgacha ko'prik tashlash lozim. Bugungi kundagi ishlarimiz bilan o'sha davrdagi voqealarga lenincha munosabat o'rtasida aloqa o'rnatish lozim. Bu – dialektika. Lenin hal etgan masalalar – bu hozirgi vazifalarni hal etish uchun kalitdir», dedi va ayni o'sha zo'ravonlik va yakkahokimlik g'oyasi, xalqlarni xonavayron qilish yo'li bilan hokimiyatni mustahkamlash pozitsiyasining mavjudligini ko'rsatdi.

Leninning shaxsi, uning siyosiy pozitsiyasi xususida gapirar ekan, mashhur rus olimi N. Berdyaev proletariat dohiysining quyidagi gapini keltiradi: «Nimaiki inqilobga xizmat qilsa – barchasi ezgulik, unga xalaqit beradigan hamma narsa – yovuzlikdir».

Bunday keskin va bir yoqlama qarash 70 yil mobaynida yashadi. Biroq turli davrlarda turli shaklga kirdi. Deylik, Gorbachyov tilida «Nimaiki Kommunistik mafkuraga xizmat qilsa – ezgulik. Unga zid bo'lgan har qanday fikr – yovuzlik»ka aylandi. Oxir oqibatda butun leninizm g'oyalarini ham, yaxlit jamiyatni ham inqirozga olib keldi.

1980 yillarning oxiriga kelib vaziyat birmuncha o'zgardi. Bu ayni demokratik jarayonlarning chuqurlashishi va uyg'onayotgan xalqning uyg'onayotgan tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan hodisa edi. Biroq har bir respublikaning ijtimoiy-siyosiy iqlimi, tarixiy jarayonning borishi bevosita ana shu respublika rahbarining hatti-harakati, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqimiga munosabati bilan bog'liq edi.

Siyosiy jasorat, siyosiy iroda, voqelikni to'g'ri anglash, to'g'ri baholash haqiqiy rahbar uchun noyob fazilat. Demokratiya haqida ko'pirtirib gapirib, zo'ravonlik rejimini kuchaytirishga intilgan M.Gorbachyovning siyosiy yo'li, aniqrog'i, pozitsiyasi O'zbekiston uchun va umuman milliy respublikalar uchun manfaatli emas edi. Ittifoqdosh respublikalar rahbarlari orasida birinchi bo'lib Islom Karimov M.Gorbachevga buni ro'yi-rost aytdi. Respublika rahbari sifatida o'z yurtining barcha yutug'iyu nuqsonlariga o'zini qalqon qildi. Rahbar sifatidagi qat'iy va mustahkam irodasini ko'rsatdi. Islom Karimovning bunday fe'l-atvori va hatti-harakatiga har kim har xil baho berdi. Jumladan, M.Gorbachyov uni shartakilikka, betgachoparlikka yo'ysa, uning gumashtalari bu fikrlarni qo'llab-quvvatlashdi. O'zbeklar qatorida barcha sovet xalqi esa Islom Karimov intilishlarini qo'llab-quvvatladi. Chunki Islom Karimov pozitsiyasi nafaqat qardosh respublikalar xalqlari, balki Rossiya aholisi manfaatlarini ham o'zida mujassam etgan edi. Shuning

uchun ham Moskva nashrlaridan biri «O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov ittifoq miqyosidagi siyosiy arbob sifatida SSSR xalq deputatlarining IV s‘ezdi kunlarida tug‘ildi. U M.Gorbachyovni qattiq tanqid qilib, «komanda»ni o‘zgartirishni talab qildi. Ko‘pchilik uchun bu butkul kutilmagan hodisa edi. Uzoq yillar mobaynida an‘anaga ko‘ra O‘rta Osiyo respublikalari oliy rahbarlari Markaz siyosatiga ergashib yurar edilar. Qanday o‘zgarish yuz berdi? Karimov o‘z kuchiga bunday qatiyatli ishonch qaerdan paydo bo‘ldi? » deb yozgan edi. Bunday hayrat va hayajonni tushunish mumkin. To‘g‘ri ta’kidlanganidek, 130 yildan beri davom etayotgan mutelik kayfiyati kattayu kichikni o‘z domiga tortgan edi. O‘zbekiston rahbari ittifoqdosh respublikalar rahbarlari orasida birinchi bo‘lib shakllangan siyosiy tafakkur olamida to‘ntarish yasadi. Yangicha fikrlaydigan, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to‘g‘ri baholaydigan mard va jasur kishilarlin iborat yangi «komanda» to‘plashi zarurat ekanligini, siyosiy demagogiyaga barham berish vaqti kelganligini ochiq oydin aytdi. Shunday qilib, Islom Karimov ayni ana shu qolipni – lenincha boshqaruv tamoyillarini chippakka chiqardi. Darvoqe, u hech qanday oldindan tayyorlangan yoki rusumga aylangan «qolip»ga sig‘maydi! U ayni ana shunday o‘ziga xosligi, haqiqat va adolat yo‘lidagi o‘ta qaysarligi va o‘jarligi bilan butunlay yangi tipdagi rahbar fenomenini kashf etdi.

Faqat shugina emas. Aniqrog‘i, Moskva nashrlari bayon etganidek, Islom Karimov SSSR xalq deputatlari s‘ezdi kunlarida «tug‘ilmadi». U ayni ana shu s‘ezd minbarida Ittifoq doirasidagi shakllangan islohotchi, zamonaviy tafakkur egasi sifatida SSSRga tanildi va tan olindi, xolos.

Islom Karimov respublika Davlat reja qo‘mitasi Raisi va Moliya vaziri bo‘lib ishlagan paytlardayoq SSSRdagi mavjud holatlar, siyosiy tanazzul va iqtisodiy ijtimoiy chekinishlar hodisasidan xabardor edi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati rahbari bo‘lgan paytlarda Kremlning O‘zbekistonga munosabati orqali sovet hokimiyatining zo‘ravonlik siyosati «quyushqon» dan chiqib ketayotganini payqagan edi. Natijada, respublika rahbarligiga saylanganidan to‘rt oy o‘taro‘tmas Islom Karimov uzoq yillar mobaynida vujudga kelgan qatiy xulosalarini O‘zbekiston KP MKning XVIII plenumida bayon etdi va (1989 yil, 25 noyabr) «Barcha masalalarni hal etish uchun siyosiy sistemani isloh qilish zarur», dedi.

Ana shu birgina so‘z butun Sovet Ittifoqi siyosiy tizimini, lenincha ta’limotning «inqilobiy» harakatini larzaga keltirdi. Gorbachyov boshliq arboblarning saltanatini talvasaga solib qo‘ydi. Buni nimalarda ko‘rish mumkin?

**Birinchi**dan, mavjud va hukmron siyosiy sistemani isloh qilish sovet jamiyatini tubdan yangilashni taqozo etadi.

**Ikkinchi**dan, KPSS rahbar bo'lgan boshqaruv tizimi va uning butun faoliyatini isloh qilishga to'g'ri keladi. Bu o'z o'zidan lenincha boshqaruv va milliy siyosatda tub burilish qilishni taqozo etadi.

**Uchinchi**dan, ittifoqdosh respublikalar va Markaz o'rtasidagi munosabatlarga aniqlik kiritishni, ularning Konstitutsiyaviy vakolatlarini kengaytirishni talab qiladi.

**To'rtinchi**dan, gap agar faqat O'zbekiston haqida borayotgan bo'lsa, mavjud siyosiy tizim yana davom etadigan bo'lsa, O'zbekiston SSSR tarkibidan chiqib ketishi mumkinligini ko'rsatadi.

**Beshinchi**dan, siyosiy yetakchining tafakkur tarzini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini oldindan payqash, baholash salohiyatini va, eng muhimi, shaxs sifatidagi siyosiy jasorat, siyosiy qat'iyat, mislsiz iroda va yuksak madaniyat fazilatlarini ko'rsatadi.

Islom Karimov tarixan juda qisqa vaqtda o'zini «tafakkur inqilobchisi» sifatida ko'rsatdi. Bu uning uchun ataylab, islohotlar qilish orqali, uzoq yillar mobaynida inson tafakkurini o'rab-chirmab olgan fikrlash tarzini buzish, buzg'unchi va shiddatkor oqimga qarshi turishga intilish orqali emas, aksincha, tabiiy holatda, shaxsiy fazilatlari, ichki imkoniyatlari, qobiliyati tufayli yuzaga kelayotgan, vaqt o'tgani sayin shakllanib borayotgan voqelik sifatidagi fenomenidan kelib chiqadi.

Darhaqiqat, Islom Karimov fe'l-atvori, tafakkur tarzi jihatidan o'zidan oldingi andozalarning tor, biqiq o'lchovlariga sig'maydi. Xuddi ana shu fazilatlari tufayli ham butun siyosiy tizimni sindirib tashlashga jur'at etdi. Iqtisodiy-ijtimoiy bo'hronlar, ma'naviy-ruhiy parokandaliklar, siyosiy va g'oyaviy tanazzullarni hammadan oldin ko'ra bildi. Totalitar aqidaparastlik va siyosiy dogmatizm sharoitining tobora chuqurlashib borayotganini boshqalardan oldinroq payqadi va katta jasorat bilan unga qarshi chiqdi. Ana shu tarzda jamiyatni tubdan yangilashga jur'at etdi.

Islom Karimov o'zining radikal fikrlari va voqelikni kutilmaganda, favqulodda yondashuvlari bilan sovetlar imperiyasining inqirozini tezlashtirdi. Kommunistik afsonaning sarobligini isbot etdi. O'zbekistonni, qolaversa, barcha ittifoqdosh respublikalarni g'oyaviy tanazzul girdobiga tortgan sovet totalitarizmiga qarshi tura oldi va uni qat'iyat bilan yengdi. Harbiy kommunizm va fuqarolar sotsializmining lenincha g'oyalari uydirmalarini fosh etish bilan o'zining noyob mafkuraviy va siyosiy jihatidan butunlay yangi, tasavvurimizga sig'maydigan dunyoning kashf etuvchisi sifatida ko'rsata oldi.

Boshqacha qilib aytganda, Islom Karimov fenomeni haqidagi mulohazalar shaxsning tarixdagi oʻrni toʻgʻrisidagi fikrgina emas. Balki tarixning shaxs borasida taqdiri va qadriyati bilan bogʻliqligi hamdir. Zotan, kamdan-kam tarixiy shaxslar tarixning tub burilish nuqtasini belgilab beradilar, jarayonlar va turmush tarzining bir xildagi oqimini keskin oʻzgartirib yuboradilar. Butunlay yangi, hayotbaxsh va huzurbaxsh turmush kechirish, aniqrogʻi, Inson va Insoniyat taqdiridagi mislsiz maʼnaviy koʻtarilishlar davrini boshlab beradilar.

Ana shu nuqtai-nazardan qaraganda Islom Karimov shaxsi xalqimizning tarixiy taqdiri, uning kechinmalari, iztirob va quvonchlari sifatida vujudga keldi. Boshqacha qilib aytganda, Islom Karimov fenomeni oʻzbek xalqining milliy qadriyatlari va ruhiyati, millat sifatidagi fenomeni orqali umuminsoniy qadriyatlar va umumjahon siyosati fenomeniga aylandi.

Tarix gʻildiragining bir tekisdagi harakatini, meʼyorini boʻzish hamma vaqt ham quvonchli boʻlavermaydi. Bu bir jihatdan islohotchining moʻljalni qay darajada toʻgʻri olgani bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan ayni shu harakatni halokatlarga yoʻl qoʻymasdan, sinab koʻrilmagan, birov yurmagan xavfli xatarli dovondagi ishonchli harakatni taʼminlash hamdir. Ana shu tarzda uchinchi eng muhim masala yuzaga keladi. Bu bevosita shaxs hayoti, taqdiri bilan bogʻliq boʻlgan tarixiy hodisa.

## G'ARB TARIX FALSAFASI

Yevropada tarix falsafasi yuqorida aytganimizdek, falsafaning muhim yoʻnalishi sifatida XVIII asrlarda yuzaga keldi. Bu paytga kelib tarixni falsafiy idrok etish ijtimoiy fanlar doirasida ilmiy nazariy tadqiqotning butunlay yangi bosqichi darajasiga koʻtarildi. Tarix falsafasi atamasi birinchi marta 1765 yili Volter tomonidan ilgari surildi va tarixshunoslik, jamiyatshunoslik, demografiya, etnografiya hamda falsafa fanlarining umumiy va uzviy bir qismi sifatida butunlay yangi yoʻnalishni ochib berdi. I.G.Gerder tadqiqotlarida tarix falsafasining fan sifatidagi aniq yoʻnalishlari belgilab berildi.

Tarix falsafasi taraqqiyotida Gegel, O. Kont, M. Ya. Danilevskiy, O. Shpengler, A. Toynbi, P. A. Sorokin, K. Yaspers, K. Popper va boshqalar beqiyos hissa qoʻshdilar.

### **Anglo-frantsuz tarix falsafasi**

Keyingi yuz yilliklarda jahon tarixini oʻrganish, uni tadqiq etishda sivilizatsiyaviy yondashuv tendentsiyasi ustuvorlik qilmoqda. Bu Osvald Shpengler falsafasining Arnold Toynbi tomonidan davom ettirilganligi va lokal sivilizatsiya nazariyasi mumtoz shaklining vujudga kelganligi bilan belgilanadi.

Darhaqiqat, Toynbi «Mashhur sivilizatsiyalar soni unchalik ham katta emas, bizga faqat yigirma bitta sivilizatsiyaga boʻlish mumkin boʻldi. Biroq ularni davom ettirish mumkin. Turli xalqlar, davrlar va mamlakatlarda oʻziga xos turli rivojlanish hodisalari yuz bergan. Biroq har tomonlama mustaqil va jiddiy sivilizatsiyalar soni undan ortmaydi», deydi. Toynbi shunday qilib yigirma bir sivilizatsiya hodisasini eʼtirof etadi. Ular qatoriga Arab, Xitoy, Shumer, Mayam, Hind, Ellin, Gʻarb, Xristian (Rossiya), Uzoq Sharq (Koreya va Yaponiya), Eron, Misr, Arab, Meksika, Vavilon va boshqa sivilizatsiyalar kiradi. Ana shu sivilizatsiyalarni tadqiq etish natijasida A.Toynbi «...Tabiiy muhitdagi va odamlar tegrasidagi yashash sharoitlarining ogʻirligi sivilizatsiyaning vujudga kelishiga sabab boʻladi», degan xulosaga keladi.

Demak, har qanday sivilizatsiya ehtiyoj farzandi. U umumiy manfaatlar ifodasi sifatida yaxlit xalq, mamlakat, hudud taqdiri bilan bogʻliq boʻlgan taraqqiyot omillarini qamrab oladi va zarurat darajasiga koʻtaradi.

A. Toynbining tarix falsafasini tahlil etar ekan, A. A. Ivin uning butun mohiyatini, qarashlar silsilasini quyidagicha bayon qiladi: «Daʼvatlarning besh xili mavjud: qattiq iqlim daʼvati, yangi makonlar daʼvati, tashqaridan

keluvchi kutilmagan zarbalar da'vati, doimiy tashqi bosim da'vati hamda cheklab qo'yish da'vati. Bunda jamiyat hayotiy zarur bo'lgan narsasini yo'qotib, o'z kuch-quvvatini ushbu yo'qotishning o'rnini to'ldiruvchi xususiyatni ishlab chiqishga yo'naltiradi. Mazkur barcha holatlarda «Da'vat qanchalik qudratli bo'lsa, rag'bat ham shunchalik kuchli bo'ladi» degan qoidaga asoslangan ijtimoiy qonun amal qiladi. Biroq, da'vat o'zining o'ta keskinligi bilan farqlanadigan bo'lsa, u idrok etish darajasidan chiqib ketib, samarali rag'bat bo'lolmaydi».

Toynbi kontsepsiyasi bo'yicha texnika rivojlangani sari sivilizatsiya sustlashadi va, hatto, inqirozga uchraydi yoki aksincha – texnika rivojlanmagan paytda sivilizatsiya dinamik tarzda rivojlanadi. Chunki bunday sharoitda taraqqiyotga ehtiyoj kuchli bo'ladi. Zotan, har qanday izlanish va ijodkorlik talab va ehtiyojdan kelib chiqadi. Ehtiyoj qondirilgach, maqsadlar ro'yobga chiqa boshlagach insonda tabiiy ravishda qoniqish hissi va yengil yashash kayfiyati ustuvorlik qiladi.

Sivilizatsiyaning rivojlanishi bu bevosita ozchilikni tashkil etgan ijodkorlar yoki alohida shaxslar faoliyatining natijasidir. Toynbining fikricha, har qanday sharoitda ham ijodkor shaxslar, yaratuvchilar ozchilikni, alohida qatlamni tashkil etadi. Biroq ayni ana shu ozchilik yangi hayotning mohiyatini belgilab beradi. Har qanday o'sib borayotgan sivilizatsiya, hatto u ommaviylashgan jamiyatni jonlantirib yuborgan paytda ham, xalq ommasi stagnatsiya holatidan chiqa olmaydi.

Albatta, bunday qarashlarda qaysidir darajada asos bor. Jamiyatda hech qachon butun xalq ommasi teng ravishda aqliy salohiyatga, ijodiy imkoniyatga, yaratuvchilik iste'dodiga ega bo'la olmaydi. Bu tabiiy hol. Jamiyatni tashkil etgan alohida odamlar har birining fiziologik va biologik kamolot darajasiga qarab o'ziga xos aqliy salohiyati, intellektual imkoniyati bo'ladi. Ana shu jihatdan qaraganda kishilik jamiyati taraqqiyoti hamma vaqt fuqarolarning ijodiy va yaratuvchilik imkoniyati, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga nechog'lik ishtiroki va bu ishtirokning qay darajadagi samarasi bilan ham bog'liq.

Albatta, har bir inson o'z vazifasi, kasbu-kori, kasbiy salohiyati va bajarayotgan ishi bilan, xohlaymizmi yo'qmi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Biroq umumiy jamiyat ravnaqini belgilaydigan, uni ta'minlaydigan, butunlay yangi o'zanlarga burib yuboradigan, jiddiy tarixiy siljishlarga da'vat etadigan, boshqacha qilib aytganda, yangi sivilizatsiya davrini boshlab beradigan qatlam ozchilikni tashkil etadi. Bu o'z o'zidan yaratuvchilar, bunyod etuvchilar elitesini tashkil qiladi.

Umuman olganda, sivilizatsiyalar o'z mohiyati, yuzaga kelish shakli va insoniyat taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri bilan alohida farq qiladi.

Jumladan, sivilizatsiya Yunonistonda nafosat, Hindistonda din, Yevropada moddiy texnika taraqqiyoti, O'rta Osiyoda esa axloq ko'rinishida yuzaga keldi. Shuning uchun ham oradan necha asrlar, ming yilliklar o'tmasin, bugungi kunda ham yunon yurtida go'zallikka intilish, nafosatga oshuftalik, san'at va madaniyatga ixlosmandlik va uni qadrlash, shu orqali o'zining ma'naviy ehtiyojlarini qondirish fazilatlari ustuvorlik qiladi. Yunon taraqqiyotida nafosat va go'zallik, san'at va madaniyat hal qiluvchi, yo'naltiruvchi, jamiyatni harakatga keltiruvchi vositaga aylangan. Bugungi kunda ham ana shu hudud xalqlari turmush tarzida, dunyoqarashida, ruhiyatida fe'l-atvorida bunday xislatlar yorqin namoyon bo'lmoqda.

Hindistonda esa hozirga qadar aqidalarning turlichaligi, diniy qarashlarning xilma-xilligi, e'tiqodlar va ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarning diniy vositalar orqali qondirish kayfiyati ustuvorlik qiladi. Kim nimaga e'tiqod qo'ysa, uning uchun Xudo o'sha.

Sivilizatsiya Yevropada ancha kechroq XVII-XVIII asrlarda yuzaga kelgan. Bu bevosita kam mehnat sarflab, ko'p narsaga erishish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash orqali mehnat samaradorligini oshirishga bo'lgan intilish, ruslar iborasi bilan aytganda «oyoq bilan emas, kalla bilan ishlash»ga ehtiyoj moddiy texnika taraqqiyotiga asos bo'ldi. Ana shu makonda ilk bug' mashinalari, velosiped va boshqa mexanik, texnik vositalarning yaratilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Natijada axloq va ma'naviyatdan moddiy manfaatdorlikning ustun bo'lishiga olib keldi.

Qadimiy Movarounnahrda esa sivilizatsiya axloq shaklida yuzaga keldi. Natijada ezgulik bilan yovuzlik, yaxshilik bilan yomonlik, muhabbat bilan nafrat o'rtasidagi kurashda ezgulik, yaxshilik va muhabbat tantanasi singari ma'naviy-axloqiy mezonlar doirasida hayot falsafasi, hayot mantig'i va inson olamining barcha qirralari qamrab olingan. Yaxlit inson fenomeni mohiyatini o'zida mujassam etgan ma'naviy-axloqiy mezonlar, tartib va me'yorlar bu sivilizatsiyaning asosini tashkil etadi.

Ilk xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan «Alpomish», «Guro'g'li», «Kuntug'mish» va boshqa qator dostonlarni nazarda tutsak, qadimiy Xorazmda dunyoga kelgan ilk madaniy yodgorlik – «Avesto»dagi g'oyat insonparvar g'oyalarni inobatga olsak, bunga yaqqol guvoh bo'lamiz. Zotan, «Avesto»dagi ko'pxudolilikka, turli mayda qabila va urug'lar o'rtasidagi har xil nizolarga, to'qnashuvlarga barham berib, yakka xudolikka da'vat etish g'oyasi insoniyatni umumiy manfaatlar atrofida birlashtirish kabi g'oyat yuksak darajadagi ezguliklar, jumladan, ezgu xayol, ezgu fikr, ezgu amal tamoyili, o'ylaring, aytayotgan g'aping va bajaradigan ishing bir bo'lishi kabi yuksak darajadagi axloqiy mezonlar bugun ham ana shu hudud xalqlari ma'naviy ehtiyojiga aylanib qolgan.

«Avesto»ning jahon sivilizatsiyasidagi misli koʻrilmagan qadriyati yana shundan iboratki, u tarqoq yashash printsiplariga nuqta qoʻyib, jamoa boʻlib yashash qonuniyatlarini ilgari surdi va jamoachilik tendentsiyasi orqali ilk tizimli boshqaruv usullari va dastlabki davlatchilik elementlarining dunyoga kelishiga katta zamin yaratdi.

Ayrim Gʻarb olimlari insoniyat tarixini sivilizatsiyalar oqimida koʻradi. Uning taraqqiyoti, rivojlanish omillari bevosita inson tafakkuri va yaratuvchilik ishtiyoqi bilan bogʻliq degan fikrni bildirishadi. Jumladan, A.Toynbi sivilizatsiya hodisasiga jiddiy eʼtibor bilan qaraydi.

Albatta, sivilizatsiyalar davri bir necha yuz yilliklarni qamrab oladi. Bir inson bunga guvoh boʻlishi mumkin emas. Tarixiy taraqqiyotning achchiq saboqlaridan biri shundaki, sivilizatsiya oʻzining eng yuksak choʻqqisiga chiqqan davrlarda yashayotgan inson ham uni butun koʻlami bilan idrok eta olmaydi. Uning nazarida xuddi ota-bobolari ham shunday yashaganday, uning keyingi avlodlari ham xuddi shunday yashashi muqarrarday tuyuladi. Bunday paytda tarixchi tarixiy jarayon dinamikasini, rivojlanish bosqichlarini aniq-ravshan idrok etishga harakat qilsada, uning ham yalpi sivilizatsiya tub mohiyatini butun salmogʻi bilan yaxlit ifoda qilishi ancha qiyin. Ana shu hayotiy qoidani tadqiq qilar ekan, «Alohida individning yashash davriga nisbatan, deb yozadi A.Toynbi, sivilizatsiyaning yashash davri shunchalik kattaki, undan yetarli darajada uzoqlashgandagina bu davrni oʻlchashga umid qilish mumkin. Bunga faqat oʻlgan jamiyatni tadqiq etish bilan erishiladi. Tarixchi oʻzi yashayotgan jamiyatdan hech qachon butunlay ozod boʻla olmaydi».

Toynbining tarix falsafasiga muvofiq jamiyat taraqqiyotining asosiy mexanizmi sifatida elita va xalq ommasi oʻrtasidagi munosabatlar mushtarakligi, faoliyat uygʻunligi alohida oʻrin tutadi. Bunday yuksak darajadagi yalpi hamkorlik va oʻzaro tushunish bevosita maʼlum bir jamiyat moddiy va maʼnaviy madaniyatining nechogʻlik yuksakligiga, axloqiy meʼyorlarining birmuncha yetukligiga, aholi turli tabaqalarining maʼnaviy maʼrifiy darajasi balandligiga bogʻliq. Darhaqiqat, jamiyatni tashkil etgan har bir fuqaro maʼnaviy ehtiyoji, uning hayot mazmuni va istiqbol rejalari umumjamiyat manfaatlariga qanchalik mos boʻlsa, taraqqiyot shunchalik tezlashadi. Jamiyatning aqliy salohiyatini belgilaydigan, uni harakatga keltiruvchi kuch sifatida oʻzini namoyon etgan elita esa bevosita oʻz qarashlarida, ilgari surayotgan gʻoyalarida umumjamiyat manfaatlarini aks etmogʻi shart.

Toynbi tarixiy taraqqiyotda va umuminsoniyat oʻtmishida sivilizatsiya bevosita insonga bogʻliq va maʼlum bir davr taraqqiyoti oʻsha davr kishilarining aqliy imkoniyati, intellektual salohiyati va tafakkur darajasini



belgilaydi, degan g'oyani ilgari suradi. Shuning uchun ham qaysidir davrda taraqqiyot yuksak cho'qqiga chiqadi, qaysidir davrda u tanazzulga uchraydi. Chunki oldingi davr taraqqiyotining eng yuqori nuqtasidan turib ilgariga siljish, uni davom ettirish, rivojlantirish uchun keyingi davr odamlari ham o'sha davrda yashagan ajdodlari singari yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lmoqlari lozim.

Inson imkoniyatlari qanday yondashishga qarab ham cheksiz, ham cheklangan. Demak, u nisbiy voqelik. Shuning uchun ham inson ba'zan mo'jizalar yaratib, aql va tafakkur cheksizligini ko'rsatsa, ba'zan eng oddiy hodisalarni bari bir tabiiy ravishda cheklangan bo'ladi. Chunki olam cheksizligi aql cheksizligidan ko'ra uzoqroqdir. Boshqacha qilib aytganda aql tashqi olamga nisbatan cheklangan va u olam ichra olam sifatida voqea hodisalarni o'z imkoniyatlari doirasida qabul qiladi, idrok etadi, ular atrofida mushohada yuritadi. Odam o'zi bilmagan holda tasavvur qilish qobiliyati, idrok etish imkoniyatlari pasayib yo rivojlanib borayotganini o'z vaqtida anglamasligi mumkin. Yoki qaysidir tarixiy, ijtimoiy, siyosiy sabablar tufayli taraqqiyot yo'nalishlari tarqoqlashib, o'zanini o'zgartirib yuborishi hollari ham yuz beradi. Deylik, urushlar, turli milliy va diniy nizolar, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi kurashlar, ziddiyatlar va qaramaqarshiliklar avj olgan davrlarda yalpi taraqqiyot uchun imkon qolmaydi. Natijada, mavjud yutqlar ham esdan chiqarilib, mayda manfaatlar atrofidagi ziddiyatlar kuchayib boraveradi.

Umuman olganda Arnold Toynbining tarix falsafasi tarixni anglash, uni tushunish va baholash, insoniyat o'tmishini yangicha qarashlar asosida o'rganish sohasida o'ziga xos maktabga aylandi.

Anglo-frantsuz tarix falsafasida insoniyat tarixini antropologik tadqiqotlar orqali o'rganish tendentsiyasi ko'zga yaqqol tashlanadi. Ular xalqlarning etnik xususiyatlari, kelib chiqishlari, turli tarixiy bosqichlardagi rivojlanish omillari asosida tarix falsafasini yaratish yo'lidan borishdi.

Anglo-frantsuz tarix falsafasining o'ziga xos jihatlaridan yana biri, Karl Popper ta'kidlaganidek, essentsializmdir. Popporning xulosasiga ko'ra «Essentsializm metodologik makgabiga har qanday ilmiy tadqiqot hodisalar mohiyatiga asoslanmog'i lozimligini o'rgatgan Aristotel asos solgan edi». Demak, ingliz tarix falsafasining ushbu metodologiyasi qadimiy yunon falsafasidan kelib chiqqan va undan bahra olgan.

Frantsuz ratsionalistik va madaniy falsafasini yaratish o'z davrida hamma vaqt, hamma joyda dolzarb tadqiqot ob'ektiga aylandi. Yevropa sivilizatsiyasiga mos keladigan va asoslangan, unga xizmat qiladigan tadqiqotlarni frantsuz tarixchilari va faylasuflari ayni ana shu antropologik asoslarni qidirish, insoniyatning evolyutsion taraqqiyotida tarixning

xususiyligi va umumiyligi jihatlariga katta e'tibor berishadi. Jumladan, har bir etnos yoki xalqning kelib chiqishi, shakllanishi, rivojlanish bosqichlari asosida jahon tarixi taraqqiyoti evolyutsiyasini o'rganishga va uni umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarishga harakat qilishdi.

Frantsuz sivilizatsiyasi va madaniyatida an'anaviy ravishda har bir davrning o'ziga xos talablari va ehtiyojlari asosida inson omiliga e'tibor berish va insonning ichki imkoniyatlari, yaratuvchilik, bunyodkorlik qobiliyatlari orqali insoniyat taraqqiyotiga hissa qo'shish omillarini jiddiy ravishda o'rganishdi. Insoniyat taraqqiyoti darajasi anglo-frantsuz jamoatchilik tafakkurining shakllanishiga asos bo'lishini va ayni paytda bu milliy taraqqiyotga tayanch, muhim omil, shu bilan birga insoniyat taraqqiyotiga kuchli ta'sir etuvchi vosita sifatida talqin etildi.

Frantsuz konstruktiv tarix falsafasining asoschilaridan biri R.Dekart «Fikrlayapman, demak yashayapman» degan fikri orqali insonni tafakkur manbai sifatida biladi va uning tafakkur tarzi aynan aql va zakovat orqali yashash, istiqbolga erishish tuyg'ularini o'zida mujassam etgan jonzot degan xulosa chiqarishga olib keladi. Zotan insonning butun mohiyati aqlda, eng oliy qadriyati fikrlay olishida, his qilishida, tuyg'ular va hissiyotlar olamida yashashida. Dekartning fikricha, inson hamonki fikrlayapti ekan, demak, u insonligicha qolaveradi. Aksincha, u fikrlashdan qoldimi, mavjudligini yo'qotadi, zoologik mohiyat kasb etadi.

Dekart ikkita qaramaqarshi substantsiya – tabiat va ruh o'rtasidagi holatga alohida e'tibor beradi. Uning fikricha, tarixiy jarayon bu faqat o'tmish haqidagi hisobot emas, aksincha, u inson aql-zakovatining, manfaatlar va qiziqishlarining natijasi va in'tiqosidir.

Dekartning tarix falsafasini o'rganish asnosida inson va jamiyat, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar xususida fikr yuritar ekan, Per Shonyu «hayotimning har bir lahzasi – bu tanlov, qaysiki mening sirli «men»imdan kelib chiqadigan mohiyat. Men shunchaki ozodlik emas, balki, ekzistentsial nuqtai nazaridan qaraganda o'zini o'zi bunyod qilayotgan ozodlikdir», degan edi.

Frantsuz ma'rifatparvarlarining tarix falsafasi insonning o'z ichki imkoniyatlarini maqsadlar ro'yobi sari safarbar etish orqali o'z taqdirining xo'jayiniga aylanishi kabi uyg'onish va shakllanish jarayonini o'zida ifoda etadi. Buning uchun insonning irsiy imkoniyatlari va xotira maydoni alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shu axloqiy va estetik olam o'rtasidagi dramatik holatlar, o'zaro qaramaqarshiliklar, tafakkurdagi o'zgarishlar jarayonining murakkabligi ma'naviy dunyoqarash va estetik tafakkur o'rtasidagi o'zaro mutanosibliklar frantsuz ma'rifatparvarlari falsafasining antropologik asoslarini tashkil etadi. Shu bilan birga ular ayni ana shu

holatlar Yevropa sivilizatsiyasining tarixiy taqdirini belgilaydi, degan fikrni bildirishadi.

Ma'rifat davri va undan keyingi frantsuz inqilobi davrida tafakkurning antologik maqomi keskin oshdi. Natijada dunyoqarashlarning ratsional imkoniyatlarini yana ham chuqurroq o'rganish imkoniyati tug'ildi. Bu paytga kelib P.Golbax, Didro, Russo, Volter, Gelvetsiy va boshqalar tarixni anglash hamda tarixiy tafakkurning yangidan-yangi yo'nalishlarini ishlab chiqdilar.

Yuqorida nomlari zikr etilgan faylasuflar va ularning qator izdoshlari Dekartning tarix falsafasiga suyanib antropologik kelib chiqish va shakllanish qonuniyatlari orqali taraqqiyot g'oyasini ilgari surdilar. Ularning fikricha, inson tabiati har qanday davrda ham o'zgarmasdir. Faqat uning aql-zakovati, tafakkuri rivojlanadi. Insonning o'zini o'zi anglashi, tajriba va mahorati uzluksiz, tadrijiy tarzda oshib boradi.

Frantsuz romantik tarix falsafasi (F.Gizo, O.Terri, J.Mishle) pozitivizm (O.Kont, E.Laviss) yo'nalishlari ham o'ziga xos tafakkur tarzi sifatida anglo-frantsuz tarix falsafasida alohida mavqega ega.

Insoniyat tarixining antropologik omillar orqali o'rganish pozitivizm falsafasida o'z aksini topgan. Bu g'oyalar bevosita tarixning ijtimoiy-darvinistik, irqiy-antropologik va biologizatorlik kontseptsiyasi jihatlarini o'rganishda Frantsiyada Lamark, Kabanis, Demulen, Gobino va boshqalar o'z qarashlari bilan juda katta ta'sir ko'rsatishdi. Ular bilan bir qatorda E.Dyurkgeymning sotsiologik tarix falsafasi alohida o'rin tutadi. Ayni ana shu yo'nalish tarixning ijtimoiy mohiyatini, uni rivojlanish asoslarini o'ziga xos tarzda aniqlab berdiki, bu bevosita tarixni anglashning biologik tushunish tendentsiyasidan ijtimoiy instinkt orqali anglashga o'tishga olib keldi.

Dyurkgeymning tarixiy taraqqiyot falsafasi insonning biologik va ijtimoiy kelib chiqishidan individual va ijtimoiy mohiyatga ega bo'lgan jamiyat bilan bog'liqligi jihatlarini o'zida qamrab oladi.

Frantsuz falsafasining yirik namoyandalaridan biri Reymon Arondir. U milliy tarix falsafasiga ratsionalistik yo'nalishning yorqin namoyandasi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Uning tarixni o'rganish va tarixiy tafakkur masalalariga bag'ishlangan «Falsafaga kirish», «Tanqidiy tarix falsafasi», «Tarixiy tafakkur o'lchovlari», «Sotsiologik tafakkur taraqqiyoti bosqichlari», «Taraqqiyot sog'inchi», «Demokratiya va totalitarizm» singari asarlari frantsuz tarix falsafasi maktabida butunlay yangi yo'nalishni boshlab berdi.

**Nemis tarix falsafasi**

Nemis tarix falsafasining yirik namoyandalaridan biri Osvald Shpenglerdir. U o'zining mashhur «Evropa quyoshining so'nishi» asarida tarix falsafasining o'ziga xos yo'nalishi haqidagi g'oyalarini ilgari suradi. Shpengler dunyoni mistik qarashlar orqali anglash, insonning intuitsiyasi, ichki hissiyot va voqelikni his qila olish imkoniyatlari xususida fikr yuritadi.

Shpengler xulosasiga ko'ra «Qancha odam va madaniyat bo'lsa, shuncha dunyo mavjud. Har bir alohida inson uchun yagona, mustaqil, abadiy dunyo mavjud. Dunyoning bunday mavjudligi har bir inson uchun doimiy yangi, bir marta amalga oshadigan, hech qachon qaytarilmaydigan kechinmadir». Bir qarashda, darhaqiqat, har bir odam alohida va mustaqil olam. Uning o'z dunyosi bo'lganidek, o'z ibtidosi va intihosi ham bor. U tashqi dunyoni o'zining ichki olami orqali o'zicha tushunadi, o'zicha angelaydi, unga o'zicha baho beradi. Demak, insoniyat tarixi har bir odam uchun garchi u yaxlit, bir butun tarix, real tarixiy jarayon bo'lsada, uni anglashda o'ziga xoslik, unga yondashishda xususiylik bo'lishi tabiiy. Demak, real tarixiy jarayon real inson tasavvurida real fikr xulosaga aylanishi mumkin. Ana shu holatdan kelib chiqib ham Shpengler «ilmiy bilish bu o'z o'zini anglashdir» degan g'oyani ilgari suradi.

Tarixni anglash, tarixni falsafiy tushunish orqali inson o'zligini angelaydi va o'ziga xos qadriyatga aylanadi. Bunday jarayon insonda intuitiv imkoniyat, his qilish qobiliyati orqali ham yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun Shpengler tarixni tushunish va tarixga munosabatda intuitsiya, his-tuyg'u mohiyatini ustuvor qiladi. Ana shundan kelib chiqib tarix mushohada, voqelikni to'g'ri his qila olish, tabiiy intuitsiya natijasi degan g'oyani ilgari suradi. Hatto, u tarixni hissiyot orqali tushunish g'oyasini ilgari surar ekan, «agar kim buni his qilmasa, tarix bilan shug'ullanmasin, tabiatni bilishga o'rganish mumkin, lekin tarixchi bo'lib tug'ilish kerak. Tarixchining kuchi shundan iboratki, u ongsizlik darajasida tarix jarayonini instinktiv ravishda biladi, bunday uslubda har qanday inson ham ishlay olmaydi», deydi. Ana shu fikrdan ma'lum bo'ladiki, tabiatni bilish uchun bilimning o'zi yetarli, tarixni anglash uchun esa uni his qila olish, tarixiy jarayon ortida yotgan inson taqdiri, mohiyati, hayot mazmuni va kechinmalari, sevinch va iztiroblari yotganligini ham anglamoq zarur ekan. Ana shunda har bir tarixiy voqelik tarix falsafasiga aylanadi. Demak instinkt va his qila olish qobiliyati, intuitsiya quvvati tarixchi uchun noyob va qimmatli fazilatdir.

Shpengler sivilizatsiyani madaniyat belgisi sifatida tushunadi va har qanday madaniyat o'z taraqqiyot bosqichlariga, o'zining sivilizatsiyasiga

ega degan g'oyani ilgari suradi. Uning nazarida sivilizatsiya madaniyatli insonlarga xos hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

O.Shpengler madaniy taraqqiyot, tarix rivoji, uning dinamizmi xususida fikr yuritar ekan, «har qanday madaniyat insondek hayot kechiradi. Ularning o'z bolaligi, o'smirligi, o'rta yoshligi va qariligi bo'ladi», deydi. Demak, har qanday madaniyat o'zining ibtidosi va intihosiga ega. Shuning uchun ham turli davrlarda yuz bergan turli mintaqalardagi sivilizatsiyalar qaysidir darajada susayish, orqaga ketish holatlarini ham boshdan kechirgan. Ana shu tarixiy dalillar hamda insoniyat o'tmishidagi buyuk ko'tarilishlar va tanazzullarni nazarda tutib O.Shpengler har qanday sivilizatsiya tanazzulga mahkumdir, degan fikrni ilgari suradi. Sivilizatsiyalar taqdiri, uning istiqboli xususida gapirar ekan, «mening fikrimning markazini taqdir g'oyasi tashkil qiladi. O'tib ketganlarning taqdiri ham shunday bo'lgan, hozirgi G'arbiy Yevropa madaniyatini ham halokat kutmoqda», deydi.

Shunday qilib, O.Shpengler insonning biologik mavjudot sifatida yaratuvchilik imkoniyatlarini, bu imkoniyatlarni ruyobga chiqaruvchi ilohiy qudrat ruh, e'tiqod ekanligini ta'kidlaydi. Dunyoni anglashda, olamni tushunishda uning ana shu g'oyalari yaqqol ko'zga tashlanadi va «tabiatni mushohada qilish asnosida diniy e'tiqod yotadi. Dindan oldin paydo bo'lgan tabiiy bilim yo'qdir. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda katolikcha va materialistik tabiatni bilish o'rtasida hech qanday farq yo'qdir. Ular bir narsa to'g'risida, lekin har xil tilda gaplashadi. Hattoki ateistik soha ham diniy asosga egadir. Hozirdagi mexanika ham xristian aqidalaridan andoza olgandir», deydi. Bu bilan O.Shpengler ruh birlamchi, e'tiqod hatti-harakatlar va voqeliklarni boshqaruvchi ilohiy qudrat degan xulosaga keladi. Uning nazarida insoniyat tarixi bu juda uzoq va ming yilliklarni qamrab olgan yaxlit olam, ruh va e'tiqod orqali inson tomonidan amalga oshirilgan buyuk haqiqatdir.

Olamni anglash o'z o'zini anglashdan boshlanadi, deydi O. Shpengler. Bunday qarashlar qaysidir darajada undan bir necha asrlar oldin Sharqda yuzaga kelgan ruh falsafasini eslatadi. Jumladan, A.Bedil, J.Rumiy, A.Nasafiy, N.Kubro va boshqalar ilgari surgan g'oyalarda ruh birlamchi, jism esa o'tkinchi, ruh botin, jism moddiy tariqasida talqin etiladi. Jumladan, A.Nasafiy «... ulug' olamning avvalu oxiri, zohiru botini, mohiyat va shakllarini anglab yetish uchun o'zining mohiyatini, zohiru botinini anglab yetkan. Bundan boshqa yo'l yo'q», degan edi.

Nemis tarix falsafasi maktabi jahon falsafa fanining I.Gerder, V.Gumboldt, G.Gegel, I.Kant, A.Shopengaer, G.Rikkert, V.DilteY, E.Trelch singari yirik namoyandalarini yetishtirib berdi. Mutaxassislarning

**fikriga** ko'ra nemis tarix falsafasi ingliz-frantsuz ma'rifatparvarligi qarashlariga teskari bo'lgan yo'nalishni ishlab chiqdilar va o'z g'oyalari ilgari surdilar. E.Trelchning xulosalariga ko'ra nemis va ingliz-frantsuz tarix falsafasi o'rtasidagi farq ko'zga yaqqol tashlanadi. Nemis maktabi o'zining diniymistik xarakteri bilan alohida ajralib turadi. O'z navbatida ingliz-frantsuz maktabi tarix cho'qqisini ma'rifatparvarlik ideallari orqali kashf etdi.

Tarixiy taraqqiyotning universal kontseptsiyasi Gegel tomonidan vujudga keltirildi. Ayni u tarixiy dinamika nazariyasini yaratdi va bu sohada o'ziga xos olamshumul yangilikni vujudga keltirdi. Yoki boshqacha qilib aytganda, E.Trelch xulosalariga ko'ra «barcha tarixiy taraqqiyot nazariyalari qandaydir undan chekinganday, unga qarshi turganday ko'rinsada, biroq ularning barchasi uni butunlay inkor eta olmadi. Shuning uchun ham tarixiy dinamikaga doir barcha tadqiqotlar tarixiy dialektika tushunchasidan kelib chiqmog'i darkor».

Ayni ana shu tarixiy dialektika tarixiy taraqqiyot dinamikasini, uning taraqqiyot qonuniyatlarini, rivojlanish omillarini o'zida mujassam etadi va barcha tarix falsafasiga doir qarashlar, yo'nalishlar, kontseptsiyalar va metodologiyalarga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy taraqqiyotning tabiiy rivoji inson tafakkurining tabiiy rivoji bilan uzviy ravishda bog'liq. Inson va jamiyat taraqqiyoti bir-birini to'ldirib boradigan, bir-biriga turtki bo'ladigan, bir-birini takomillashtirib, sivilizatsiyaning yangi bosqichiga olib boradigan ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy hodisa. Bunda, albatta, biz kishilik hayotida ezguliklar himoya qilingan, adolat ustuvor bo'lgan, yalpi bunyodkorliklar avj oldirilgan davrlarni nazarda tutmoqdamiz. Vaholanki, keksa tarix bunday jarayonlarning teskarisiga ham guvoh.

I. Kant tarix falsafasiga bilish nazariyasi va metafizika, erkinlikning axloqiy olami hamda tarixiy hayot ma'naviy tizimiga chuqur kirib borish orqali tabiatning qarama-qarshilik qonunidan kelib chiqadi. Uning fikricha «tarix bu tabiat olamidani farq qilgan holda erkinlik ramzidir. Qaysiki u tabiat va erkinlik bir-biri bilan bog'liqligi to'g'risidagi qonuniyat asosida faoliyat ko'rsatadi. Falsafa esa tafakkur tizimi, aql va zako maydonidir».

Tarixiy taraqqiyot tafakkur qonuniyatlaridan kelib chiqadi. U o'zida madaniyat olami qadriyatlarini ifoda etadi.

Gegel tarixiy taraqqiyot dinamikasi va uning bosqichlari xususida fikr yuritar ekan, tarixni mantiqiy o'rganish, tarix haqiqati orqali tarix mohiyatini ochish zarurligini uqtiradi. Ana shundan kelib chiqib, V.Vin Delband: «Dialektik jarayon taraqqiyoti Gegelda ratsional tanqid bilan birga bir shakldan ikkinchi shaklga o'tish mantig'idir», degan edi.

Gegelning tarix falsafasi asosan ikki yoʻnalishdan boradi: birinchisi, anteistik falsafaga muvofiq barcha reallik ruhda namoyon boʻladi, deydi. Ikkinchi yoʻnalish, bilish nazariyasini yanada chuqurlashtirgan holda «Tezis – antitezis – sintez» shaklidagi mantiqiy uchlikdan iborat tadqiqot yoʻnalishini oʻrtaga tashlaydi. Birinchi yoʻnalishda, darhaqiqat, tarixiy tafakkur ruh orqali oʻzini anglaydi, oʻzni tushunadi va oʻzini inkor etadi. Natijada tarix oʻzini butun qarama-qarshiliklari va barcha realliklari bilan tiklaydi va oʻzaro birlikka, yaxlitlikka erishadi.

Gegel tarix falsafasi ayni madaniy-tarixiy yoki, boshqacha aytganda, maʼnaviy-tarixiy mazmunga ega. Shu bilan birga u chuqur universallikka, serqirralikka ham ega. Qarashlar yoʻnalishining bunday turlichaligi ayni paytda tarixni anglashning universal shakli bilan birga umum-insoniy qarashlar birligiga ham olib keladi. Demak, insoniyatning har qanday qarama-qarshiliklar, fikrlar xilma-xilligi va xalqlar oʻrtasidagi kurashlar manfaatlar mushtaraqligi va insoniyat birligiga intilsagina, oʻzaro tushunish orqaligina umum-insoniy manfaatlar ustuvorligiga olib keladi.

Nemis tarix falsafasida A.Myuller, F.Shelling, V.Gumboldt singari yirik namoyandalar ham borki, ular insoniyat tarixini oʻrganish, uning ichki qonuniyatlarini tadqiq etishda oʻziga xos yoʻnalishni kashf etdilar. V.Vundtning pozitivizm, F.Nitsshe va V.Dilteyning hayot falsafasining psixologik tahlili sohasidagi qarashlari alohida ahamiyatga ega.

Ayni jahon tarixini ruhiy holat, inson kayfiyati va feʼlatvori orqali tahlil etish kontseptsiyasi jahon tarix falsafasi taraqqiyotida oʻziga xos yirik nazariya sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

F.Nitsshe va V.Diltey pozitivizmga qarshi tafakkur va ratsional harakatdagi kuchlar hamda ilgʻor tarixiy taraqqiyot qonuniyatlariga va maqsadlariga qarshi holda ruhni irratsional maʼnaviyatga aylantirish yoʻlidan bordilar. Ularning fikricha ruhiy qadriyat xususiy, erkin va mustaqildir. Insonning ayni ana shu uch xususiyati tarixiy taraqqiyotga zamin boʻla oladi.

Nitsshening hayot falsafasi tarix faniga jiddiy oʻzgarish kiritdi. Natijada ushbu falsafa irratsional hissiy qadriyatga aylandi.

Nemis tarix falsafasi maktabining tarixiy dinamikaga doir qarashlari bugungi kunda ham davom etmoqda. U bevosita insoniy feʼlatvorni oʻzida ifoda etuvchi taʼlimotga aylandi. Tarixiy taraqqiyotning maʼnaviy-diniy omillari, eʼtiqod va axloq tushunchasining tarixni anglashdagi roli, insoniyatning maʼnaviy birligi, tarixiy taraqqiyotda universallik va tarixiy dinamika singari koʻp qirrali masalalarni oʻzida ifoda etadi.

Atoqli nemis olimi Artur Shopengauer tadqiqotlarida tarix falsafasining maʼnaviy-ruhiy talqini, insonning ichki olami va ijtimoiy taraqqiyot omili

tahlili alohida o‘rin tutadi. Shopengauer falsafiy tafakkurida asosan ikki yo‘nalish yorqin namoyon bo‘ladi. Birinchisi, olam – bu hodisa, tasavvur, ikkinchisi, olam reallik dunyosi, iroda olami. Bunday xulosalar faylasufning 1819 yilda yozgan «Olam iroda va tasavvur sifatida» asarida ilgari surilgan. Shopengauer falsafasi zamondoshlari Shelling, Fixte va Gegelning metafizik qarashlaridan keskin ajralib turadi. U katta qiziqish bilan Kant, Platon, Berkli, Yum, Sharq falsafasi, ayniqsa, buddizm g‘oyalarini chuqur o‘rganadi. Asarning nomlanishiyoq faylasufning hayot va borliq, olam va odam, inson va tabiatga o‘ziga xos munosabatini ko‘rsatib turibdi. Zotan, u anglangan, tasavvur qilingan olam tasavvurdagi olam hamda yaxlit olamning o‘zidagi mavjudlikdir. Demak, Shopengauer falsafasidagi olam, hodisa, tasavvur, alohida olinganda reallik, iroda olamidir. Unda insoniyat taraqqiyoti, uning bosqichlari, rivojlanish yoki tanazzul omillari bevosita inson bilan bog‘liq tarixiy hodisa, o‘tmish esa butun yaxlitligi bilan inson olami, his-tuyg‘ulari va iroda kuchining mahsuli sifatida talqin etiladi.

Boshqacha qilib aytganda, tasavvur shaklidagi olamda sababiyat, makon va zamonda mavjud bo‘lgan barcha narsa, jumladan, ijtimoiy hayot, tarix va istiqbol mujassam. Chunki inson tasavvuri doirasidagina olamni anglaydi. Reallik olamida esa cheksizlik, bepoyonlik mavjud. Uni butun ko‘lami bilan anglash mushkul. Demak, zamon va makondan tashqaridagi real olamni busbutunligicha, yaxlitligicha tasavvur etish mumkin emas. Uning rang-barangligi va serqirraligi shundaki, kimdir real olamning ma’lum tomonlarini idrok etsa, boshqasi umuman boshqa jihatlarini ko‘radi va idrok etadi. Shuning uchun ham insoniyat tarixi turli davrlarda turlicha talqin qilinadi, turlicha idrok etiladi.

Shopengauer iroda tushunchasiga alohida e’tibor beradi va uni ob’ektiv reallik tarzida qabul qiladi. Uningcha inson tushunchasi tasavvurga asoslanadi. Aql esa o‘ylab javob berish qobiliyatidir. Inson mohiyati va olam mohiyati bevosita iroda orqali ochiladi. Iroda aql va tushunchadan qat’iy nazar boshqarish holati, darajasidir. Demak, u kuch-qudrat. Real hayot esa uning aniq ifodasidir. Yoki boshqacha aytganda, inson tarix ijodkori va muallifidir.

Shopengauer inson fenomenini o‘rganishga alohida e’tibor beradi. Inson qanday maxluq, u nimalarga ega (qodir), u qanday olam, bu olam nimalardan iborat? degan savollarga javob izlaydi va insonni jonzot sifatida munosabat bildirish, xayrixohlik yoki rad etish, ezgulik va yovuzlik, axloq-odob, go‘zallikni his etish imkoniyatiga ega bo‘lgan, muhabbat va nafrat tuyg‘ularining ayovsiz to‘qnashuvidan iborat yaxlit, xususiy, ayni bir odamga xos bo‘lgan ziddiyatli olam sifatida baholaydi.



Shopengauer falsafasida inson mohiyati ijodkorlikda namoyon bo'ladi. U san'at, musiqa, so'z orqali o'z olami imkoniyatlarini ochadi. O'zining daholik qudratini ko'rsatadi. Demak, tuyg'u inson fenomenini, boshqacha qilib aytganda «meni»ni ko'rsatadigan olam. Ana shu xulosadan kelib chiqib u «haqiqiy shoir lirikasida butun insoniyatning ruhi aks etadi, o'tmishda, hozirda va kelajakda yashovchi millionlarning kechinmalari, his-tuyg'ulari qayta-qayta jonlanib, sof she'riyatda o'z aksini topadi. Shoir insoniyat ko'zgidir», deydi. Demak, Shopengauer falsafasida inson tuyg'u hamda hissiyot majmui va u xuddi ana shu jihati bilan boshqa jonzotlardan farq qiladi.

Shuningdek, Shopengauer musiqa san'atida ham inson mohiyatini yaqqolrok ko'radi va «musiqa irodani bevosita, to'liqligicha, xuddi o'zidagidek qabul qiladi...», degan g'oyani ilgari suradi. Iroda bevosita insonni boshqaradigan, faoliyatini, hatti-harakatlarini, fe'latvorini ma'lum bir yo'nalishga soladigan ichki qudrat, ruhiy vositadir. Ana shu qudrat – iroda o'z darajasi va miqyosiga qarab insonni kamolotga yetkazadi.

A.Shopengauer san'at, musiqa, she'riyat xususida gapirar ekan, shu narsa aniq bo'ladiki, inson tuyg'usi, hissiy olami, ruhiy dunyosi uning uchun eng toza, sof, nur yanglig' bezavol, shabnamdek beg'ubor olam. Shuningdek, haqiqat, adolat, ezgulik, to'g'riso'zlilik faqat ana shu olamda muhayyo, degan fikrni ilgari suradi.

Shopengauer qarashlari ba'zi jihatlari bilan Imom G'azzoliy (1058 – 1111 yillar) falsafasini ham eslatadi. Jumladan, «Inson farishta va hayvon orasidagi maxluqdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati (tuyg'u irodasi) yo'q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o'zi pok, ilohiy nurdan iborat. Faqat insonda rivojlanish, ruhiy kamolot xislati mavjud», deydi G'azzoliy o'zining «Kimyoi saodat» asarida. Demak, insondagi rivojlanishga ehtiyoj, kamolotga, yetuklikka intilish hissi iroda, ruhiy harakat, ichki quvvat va ma'naviy ehtiyoj shaklida o'zini namoyon etadi. Ana shu ehtiyoj va intilishning darajasi bevosita amaliy harakat natijasi, intilishlar hosilasi orqali iroda kuchi va qudrati darajasini belgilaydi. Bunday fikriy o'xshashlik Shopengauerning Sharq, hind, xususan, Shri Aurobindo falsafasidan ancha xabardor ekanligidan dalolat beradi. Bu holat yana bir jihati bilan – inson va uning olami, tashqi olam, ichki olam, inson va tabiat, kishilik jamiyati va uning rivojlanish qonuniyatlari Sharqda G'arbdan ko'ra bir qadar oldin, IX asrlarda ancha mukammal o'rganilganligini ko'rsatish bilan ham qimmatli.

Shopengauer falsafasida irratsionalizm falsafasining ayrim elementlarini ham ko'rishimiz mumkin. Unda buddizm g'oyalari ham mavjud. Xulosa qilib aytganda, Shopengauer falsafasi irratsionalizm bilan

nirvana moddiy olamning ruhiy olam bilan sintezi sifatida namoyon bo‘ladi. Inson esa ruh va iroda ifodasi sifatida talqin etiladi.

Insoniyat tarixini o‘rganishda P. A. Sorokinning tarix falsafasi alohida o‘rin tutadi. Bu bevosita inson fenomenini belgilaydigan ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy mezonlarni o‘zida mujassam etgan ijtimoiy madaniyat va sivilizatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan keng miqyosli ta’limotni o‘z ichiga oladi.

Sorokin har qanday ijtimoiy madaniyatning asosini qadriyatlar tashkil etadi, degan g‘oyani ilgari suradi. Jumladan, u madaniyat va sivilizatsiyani juda katta mafkuraviy mohiyatga ega bo‘lgan fikrlar, g‘oyalar, til, fan, din, falsafa, huquq, axloq, adabiyot, rangtasvir, haykaltaroshlik, me’morchilik, musiqa, iqtisod, siyosat, ijtimoiyot va boshqa masalalar bilan bog‘liq bo‘lgan, jamiyatning yaxlit ijtimoiy fenomenini tashkil etadigan yo‘nalishlarning umumiy birligi sifatida tushunadi. Bu, albatta, har qanday sivilizatsiyaga asos bo‘ladigan, zamin yaratadigan eng muhim qadriyat deyishimiz mumkin. Ayni paytda sivilizatsiya, ijtimoiy-madaniy sakrashlar, u qaysi xalqqa tegishli bo‘lsa, o‘sha xalq milliy ruhiyati, turmush tarzi, boshqacha qilib aytganda, milliy qadriyatni anglash jarayoni bilan bog‘liq. Ana shulardan kelib chiqib, u turli tadbirlar, urf-odatlar, an’analar, hatti-harakatlar asosidagi umumiy aholi qatlamining ma’naviy ehtiyoji darajasiga ko‘tarilgan g‘oyalar tizimini ham tashkil etadi.

Darhaqiqat, bir necha ming yillik tarixiy obidalar, osori atiqalar, madaniy yodgorliklar avloddan-avlodga o‘tib, insoniyat tafakkurining buyuk mo‘jizasi sifatida o‘z qudratini namoyon etmoqda. Ayni ana shu mo‘jizalar zamirida inson taqdiri, sevinch va iztiroblari, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashlarda toblangan metin iroda va ulkan madaniyat, tabiiyki, axloq ham yotadi. Ana shularning hammasi tarixni anglash jarayonida bugungi kun odamlari tafakkurining shakllanishida, tarix orqali olis istiqbolga nazar tashlashida katta rol o‘ynaydi. Ayni ana shu holatning o‘zi insonning, insoniyatning o‘zini o‘zi «tamirlab», o‘zini o‘zi «isloh» qilib, o‘zini o‘zi yangilab, boyitib, qadriyatga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

Karl Yaspers qarashlarining asosiy yo‘nalishini esa jahon tarixi birligi masalasi tashkil etadi va uni umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘taradi. Bu tarix falsafasiga va uning umuminsoniyat tarixini o‘rganish borasida shakllangan xilma-xil yo‘nalishlarining biri sifatida fanda alohida mavqega ega.

Yaspers insoniyatning butun tarixini o‘zaro izchil ravishda almashinuvchi uch fazaga bo‘ladi: tarixdan avvalgi faza, tarix fazasi va jahon tarixi fazasi. Tarixdan avvalgi faza uzoq, davr hisoblanib, u insonning shakllanishi, til va irqning paydo bo‘lishidan tortib, to tarixiy

madaniyatlarning vujudga kelishigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Shu holatdan kelib chiqib «Bu yerda inson mohiyatining siriga duch kelamiz, insonning Yerda yashashi betakrorligini anglab yetamiz, oldimizda barcha narsalarning kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan va boshqa hech qaerda uchramaydigan erkinligimiz borasidagi masala paydo bo‘ladi», deydi K.Yaspers.

Tarix fazasi Xitoy, Xindiston, Yaqin Sharq va Yevropada sodir bo‘lgan taxminan 5 ming yillik voqealarni qamrab oladi. Universal yoki jahon tarixi dunyo va insoniyatning buyuk geografik kashfiyotlar davrida shakllanib, bugungi kunda yuzaga chiqayotgan global birligi bilan boshlanadi. Bu global birlikning boshlanishi XX asrga to‘g‘ri keladi. Tarix fazasida tasodifiy to‘qnashuvlarning mavjudligiga qaramay, ba‘zi buyuk madaniyatlar yonma-yon rivojlandi. Bular alohida tarixlar edi.

Jahon tarixi fazasida butunning birligi namoyon bo‘lib, undan tashqariga chiqib bo‘lmaydi. Demak, K.Yaspers xulosalariga ko‘ra «Mazkur faza – tarixiy voqelik emas, balki kelajakdagi imkoniyatlarni oldindan payqashdir. Shu sababdan u empirik tadqiqotning predmeti bo‘la olmaydi va faqat hozirgi zamondagi borliqni anglash uchun zarur ma‘lumotlar mavjud manba sifatida xizmat qiladi».

Tarix fazasida Yaspers tomonidan «vaqt o‘qi» deb nomlangan davr muhim ahamiyatga ega. Mazkur davrda, ya‘ni miloddan avvalgi 800 va 200 yillar o‘rtasida tarixda tub burilish ro‘y berdi: hozirgi kungacha yashab kelayotgan qiyofadagi inson paydo bo‘ldi va insoniyatning ma‘naviy asosi shakllana boshlandi. Demak, ana shu davrni jahon tarixining o‘qi deyishimiz mumkin. Ana shu yerda Yaspers falsafasining mohiyati ochiladi. Zotan, inson shakliga ega bo‘lgach, garchi o‘z davriga xos ibtidoiy holda yashagan bo‘lsada, uning tarixi boshlandi, degan gap. Inson va insoniyat tarixi ilk tasavvurlardan fikrlar va tafakkur olamida ulkan siljishlar yuz bergan insonning vujudga kelishi bilan boshlanadi. Inson tafakkuridagi bunday jiddiy o‘zgarishlar, aqliy salohiyatning, intellektual imkoniyatning oshib borishi, buyuk kashfiyotlar qilishning muqaddimasi bu – ilk insonning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va tobora izchil ravishda shakllanib borishining natijasidir.

Inson o‘z kelajagi haqida bashorat qilolmaganidek, insoniyat ham o‘z istiqboli to‘g‘risidagi xulosalarini mutloq haqiqat deb bila olmaydi. Xuddi shuningdek, fan qanchalik tasdiqlamasin, aniq misollar bilan isbot qilmasin, inson qanday paydo bo‘lgani, ilk ajdodlari qanday bo‘lganiga qiziqaveradi. Ammo aniq bir to‘xtamga kela olmaydi. Masala mavhumligicha qolaveradi. Shuning uchun ham Yaspers «Tarixdan avvalgi vaqt ibtidosidagi insoniyatning umumiy boshlang‘ich davri biz uchun, hozirgi kunda Yer

sharida hukmronlik qilayotgan, huquqiy jihatdan tartiblashgan birlikka yetishishi mumkin bo'lgan, moddiy va ma'naviy jihatdan mavjudlikning cheksizligiga intilayotgan insoniyatning kelajagi kabi qorong'udir», deydi.

Bunday qaraganda tarixning biror-bir inqilobiy burilishi fan va texnikaning vujudga kelishi kabi dunyoviy inqilobni vujudga keltirmagan. Ana shu voqeaning o'zi insoniyat hayotini ostin-ustun qilib tashladi va uning butunlay yangi, izchil rivojlanadigan, vaqt o'tgan sari takomillashib boradigan bosqichini boshlab berdi. Zotan, insoniyatning bugun baxtiyorligiyu baxtsizligi, sevinchu iztiroblari, sitamli onlariyu xushnud damlari ana shu fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq. Fan-texnika inqilobining tarixiy mohiyati haqida gapirar ekan, «Fan jahonga misli ko'rilmagan imkoniyatlar va xavf-xatarlar keltirdi. 150 yildan beri davom etayotgan texnika asri so'ngi yilliklarda gurkirab yuksaldi, uning keyingi jadallashuv darajasini bashorat qilish qiyin. Butun mavjudlikning yangi asoslari yaratildiki, uni inkor etib bo'lmaydi», deb xulosa chiqaradi K.Yaspers.

Yaspers qarashlariga asosan yalpi jahon tarixini o'rganish jarayonida inson o'z tarixini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Zotan, har qanday inson yoki jamiyat, ma'lum bir makonda yashayotgan xalq o'z taqdiri va tarixini o'z qobig'i doirasida o'rganishi bir yoqlamalikka yoki milliy mahdudlikka olib kelishi mumkin. Har qanday milliy tarixni o'rganish uchun ham umumiy insoniyat tarixi tadrijiy taraqqiyotiga, rivojlanish omillariga, xususan madaniyatlarning o'zaro ta'siriga alohida e'tibor berish va uni o'rganish lozim. Har bir kishidagi tarixiy tafakkur umuminsoniy taqdir va tarix bilan bog'liq holda rivojlangan, kengaygan holdagina, ma'lum bir hudud tarixi bo'ladimi yo umuminsoniyat tarixi bo'ladimi, uni butun ko'lami va mohiyatini anglash va tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qolaversa, har bir hudud yoki mintaqa xalqlari tarixidagi voqelikka tashqi ta'sir, hech bo'lmaganda dunyoviy tafakkur va sivilizatsiya ta'siri bo'lishi muqarrar.

Ya'ni, har qanday hududda yashayotgan ma'lum bir xalq tarixi, albatta, o'sha mintaqa va qolaversa, umuminsoniyat tarixi bilan bog'liq bo'ladi. Chunki ayni ana shu makonda yuz bergan tarixiy jarayon yoki ma'lum bir voqelik tashqi ta'sir, tabiiy makon va ijtimoiy manfaatlar natijasida ham yuz berishi mumkin. Qolaversa, inson tafakkuri u yashayotgan jamiyatning umumiy tafakkuri, umumiy saviyasining, tinimsiz va tizginsiz almashinayotgan axborotlar ta'sirida kengayib borayotgan tafakkurning natijasi.

Biz, albatta, bu yerda tarixiy shaxslar, daholar, sarkardalar, yirik olimu ulamolarni nazarda tutmayapmiz. Bu alohida masala. Lekin har qanday

jamiyatning umumiy ma'naviy-ma'rifiy saviyasi o'sha jamiyatni tashkil etgan fuqarolar saviyasining va aqliy darajasining umumiy yig'indisidan iboratgina emas, balki dunyoviy taraqqiyot yangiliklari va jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlari intiqosidir. Ana shu fikrlardan kelib chiqib, «tarix falsafasining biz berishga urinayotgan yaxlit konneptsiyasi, deb yozadi Yaspers, jahon tarixi doirasida o'z ahvolimizni yoritishga yo'naltirilgandir. Tarixiy kontseptsiyaning vazifasi hozirgi davrni anglashga yordam berishdan iborat. U bizga jahon tarixidagi o'rnimizni aniqlab beradi».

Darhaqiqat, jahon tarixining yaxlit ko'lamigina hozirgi XXI asrda turib yaqin asrlarda yuz bergan ulkan o'zgarishlar, taraqqiyot va tanazzullar, ezguliklar va yovuzliklarning oqibatiga ko'ra, o'tgan besh ming yillik tarixdan ma'lum bo'lgan voqealarga qiyoslab bo'lmasligini, bu sohada misli ko'rilmagan mo'jizalar va dahshatlar yuz berganini tushunishga imkon beradi.

Boshqacha qilib aytganda, insoniyat tarixiga, uning tadrijiy taraqqiyot bosqichlari va tanazzullariga o'z imkoniyatlarimizni, zafarlarimizni nuqsonlarimizni solishtirib, o'zimizning ma'naviy-axloqiy, intellektual qiyofamizni ko'ramiz, ustun va ojiz tomonlarimizni aniqlaymiz, ma'naviy qudratimiz, aql-zakovatimiz doirasida tegishli xulosa chiqaramiz.

Insoniyat tarixining izchilligi, tadrijiyligi inson tanasidagi avloddan avlodga o'tib kelayotgan genlar va unsurlarning bugungi kungacha saqlanganida o'z ifodasini topmoqda. Qadimgi va eng qadimgi ilk ajdodlarimiz ruhiyati hamda fe'l-atvoridagi fazilatlaru nuqsonlar yaxlit holda qaysidir darajada bugun jismimizda yashamoqda. Bu ilk tosh yozuvlardan tortib, hozirgi buyuk kashfiyotlargacha, oddiy ov asboblardan tortib bugungi ommaviy qirg'in qurollari. kosmosni zabt etish, internet, haybatli havo laynerlari va hatto insonni klonlashtirish kabi dahshatli mo'jizagacha – barcha barchasi sivilizatsiyaning ulkan, uzundan uzoq zanjirini o'zida ifoda etadi. K.Yaspers ana shu hodisadan kelib chiqib: «O'sha davrda sodir bo'lgan, yaratilgan va kashf etilganlar bilan insoniyat hozirgi kungacha yashab kelmoqda. Odamlar o'zlarining har bir intilishlarida vaqt o'qini eslab, unga murojaat etadilar, shu davr g'oyalaridan ilhomlanadilar. Mazkur davrdan boshlab vaqt o'qini xotirlash va uning imkoniyatlarini tiklash Renessans doimo ma'naviy yuksalishga olib keladi deb hisoblanadi», deydi.

Yaspers vaqt o'qining sabablarini ideallashtirishga harakat qiladi, biroq uning mohiyatini, kelib chiqish omillarini, manbalarini aniqlay olmasligini tan oladi va «hech kim bu yerda nima sodir bo'lganligini, jahon tarixining o'qi qanday paydo bo'lganligini to'liq anglay olmaydi! Biz bu bosqichni hamon chuqurlashib borayotgan sir sifatida eslab turish maqsadida ushbu

tub burilish davrining tarixini yozishimiz, uning turli jihatlarini ko'rib chiqishimiz, ahamiyatini izohlab berishimiz lozim», deydi.

Darhaqiqat, olamning paydo bo'lishi kabi odamning paydo bo'lishi ham hamon fan olamida munozarali mavzu. Garchi bu boradagi diniy va dunyoviy qarashlarda ma'lum darajada xulosalar mavjud bo'lsada, u mutloq haqiqat ham emasday tuyuladi kishiga.

A. Ivin xulosalariga ko'ra, Yaspers insoniyat tarixining to'rt geterogen davrini ajratib ko'rsatadi: Prometey davri (nutqning, mehnat qurollarining paydo bo'lishi, olovdan foydalanishni o'rganish davri), uzoq o'tmishning yuksak madaniyatlari davri, inson borlig'ining ma'naviy asoslari davri (vaqt o'qidan boshlanuvchi bu davrda o'z ma'naviyati bilan olamga yuz ochgan haqiqiy inson shakllangan) va texnika taraqqiyoti davri.

Insoniyat tarixida, shunday qilib, ikki bosqich kuzatiladi. Birinchisi, Prometey davridan uzoq o'tmishning yuksak madaniyatlari orqali o'tib, barcha oqibatlari bilan birgalikda vaqt o'qiga olib boradi. Ikkinchisi, insoniyat tarixidagi ikkinchi prometey davridan, fan va texnika davridan boshlanadi va ehtimol, yangi, hali olis va ko'rinmas ikkinchi vaqt o'qiga, insonning haqiqiy yuksalishiga olib kelishi mumkin. Mazkur ikki bosqich o'rtasida muhim farqlar bor. Ikkinchi bosqichda biz tarixiy tajribaga ega bo'lamiz; agar birinchi bosqich davri bir nechta yonma-yon harakat qilayotgan qismlarga bo'lingan bo'lsa, ikkinchisi insoniyatni yaxlit holda qamrab oladi. Ikkinchi bosqich qanday bo'lishini tasavvur qilib bo'lmasada, u komil insonning yaratilishi bilan tugaydi deb taxmin qilish mumkin.

Inson tafakkuri kengayib borgani sayin uning yangidan yangi imkoniyatlari paydo bo'laveradi, faoliyat doirasi kengayib, ochilmagan qirralari ochilib boradi. Bu o'tmishimizda yuz bergan tarixiy taraqqiyot va uning oqibatlarida yaqqol ko'rinadi.

Lenin boshchiligidagi zo'ravonlik bilan o'rnatilgan imperiya tazyiq, tahdid va qo'rquv orqali jamiyatni boshqarish tamoyilini to'la amalga oshirdi. Ketma-ket davom ettirilgan repressiyalar xalq ommasi aqliy qatlamini – elitesini, intellektual boyligini yo'q qildi. Natijada qo'rquv bilan yashaydigan avom xalqdan iborat bedavo jamiyatni vujudga keltirdi. Yoki diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning dunyo miqyosida xuruj qilayotgani, ular keltirayotgan mislsiz fojialarning shakllari, usullari doirasi tobora kengayib ketayotgani ularning kasbiy mahorati va tajribalari oshib borayotganini ko'rsatmaydimi? Aslida esa ezguliklar, buyuk kashfiyotlar qanchalik aql mahsuli bo'lsa, yovuzliklar va beqiyos xunrezliklar ham aql orqali amalga oshirilgan salbiy hodisalardir. Darhaqiqat, bugun olamni ostin-ustun qilayotgan, insoniyat boshiga mislsiz kulfatlar keltirayotgan, dahshatu vahshatlarga to'la buzg'unchi g'oyalar faqatgina aqidaparastlik,

fanatizm illatlari emas, balki aqidaparastlik «balosi» hamdir. Faqat ana shu hodisalarni amalga oshirayotgan kamikadzlar esa o'zligini unutkan zombilar bo'lishi mumkin, xolos.

Ana shunday holatdan kelib chiqib, K.Yaspers «Bu konsentratsion lagerlarning real voqeligi, bu azoblovchilar va azoblanuvchilar doirasidagi kelishilgan harakat, inson ma'naviy qiyofasining bunday yo'qolishi barchaga halokat tahdidini soluvchi kelajak imkoniyatlaridan darak beradi... ushbu havf atom bombasidan ham qo'rqinchli, chunki u inson qalbiga tajovuz qiladi», deydi.

Bir qarashda Yaspers sivilizatsiya oqibatlarini, fan-texnika taraqqiyoti natijalarini tushkunlik bilan qabul qilganday ko'rinadi. Biroq uning qarashlarida yuksak ko'tarinkilik, optimistik ruh yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, insoniyat kelajagi to'g'risida gapirar ekan, har qanday sivilizatsiya tasodifiy hodisa emas, aksincha, insonning aql-zakovati, fe'l-atvori mahsulidir, degan xulosaga keladi. O'tmishda yuz bergan barcha yutuqlar bilan birga tanazzullar va fojialarni butun ko'lami bilan anglab yetish, undan zarur xulosalar chiqarish, buning uchun esa tiniq va keng qamrovli tafakkur keraqligini uqtiradi va, jumladan, shunday deydi: «O'tmishning fojialarini unutishga yo'l qo'ymaslik kerak. Negaki, bizdagi qo'rquv o'tmishda sodir bo'lgan voqealar qaytarilishi, tarqalishi, butun dunyoni qamrab olishi mumkinligi tufayli paydo bo'ladi. Biz xavf bilan faol kurashga aylanuvchi ushbu qo'rquvni saqlashimiz lozim».

Shunday qilib, G'arb tarix falsafasi XVIII asrdan keyin jahon tarixini o'rganishning misli ko'rilmagan metodologik asosini yaratdi. Bu bevosita butun ko'lami, ilmiy-nazariy yaxlitligi, inson va uning mohiyati, insoniyat tarixi taraqqiyoti tajribalari haqidagi Sharq mutafakkirlari ilmiy-metodologik qarashlarining, falsafiy yo'nalishlari va g'oyalarining yangi sivilizatsiyaviy shakli sifatida o'zini namoyon etdi. Zotan, G'arb mutafakkirlaridan biri «Nur – Sharqdandir» degan edi. Bu dono bashorat har ikki ma'noda – hayot manbai bo'lgan quyoshning Sharqdan chiqishiga, tafakkur manbai bo'lgan aql-idrok, daholik quvvati va zakovat mo'jizasi ham Sharqda yuz bergani va keyinchalik butun insoniyatni zabt etganiga haqqoniy ishora edi!

## DEMOKRATIYA VA TARIXIY JARAYON

### Demokratiya haqida mulohazalar

Milliy istiqlol bilan bogʻliq, boʻlgan butunlay yangi tarixiy-ijtimoiy voqelik, demokratiya deganda domlalarimiz uqtirgan, falsafa fanida aniq mazmunga ega boʻlgan «xalq hokimiyati» degan ancha sodda va yuzaki tushuncha mohiyatini xiyla chuqurlashtirdi. Darhaqiqat, bungacha uning asl mazmuni, jamiyat taraqqiyotida tutgan oʻrni, inson haq-huquqlarini belgilashdagi vazifasi xususida koʻp ham oʻylamaganmiz. Chunki bizda bunday sharoit ham, zarurat ham yoʻq edi.

«Qizil imperiya» demokratiyani oʻzicha tushundi va bizni ham oʻz tushunchasi doirasida tarbiyaladi. Qarashlarimiz uning taʼsirida shakllandi. Ongimiz va tafakkurimizga inson manfaatlariga, uning yashash huquqiga zid boʻlgan gʻoyalar singdirildi. Inson oʻylamaslik, fikrsizlik qobiigʻida qolib ketaverdi.

Demokratiya kishilik tarixida insonning ongli hayoti boshlangan davrdan boshlab, uning erk-irodasini, xohish-istagini belgilaydigan mezon boʻlib kelmoqda. Albatta, bu borada kishilik jamiyati shakllanish davridan tortib to sivilizatsiyalashgan turmush tarzi, har jihatdan chuqur ildiz otgan davlatchilik va shu asosda maʼlum tartib qoidaga kirib qolgan aniq yoʻnalishlar oʻrtasida katta farq bor. Chunki asrlar mobaynida odamlar dunyoqarashi oʻzgarib, talab ehtiyojlari oshdi. Hayotga munosabatlari yangicha tus oldi. U har bir davrning oʻziga xos mahsuli sifatida yangidan yangi shaklga kira boshladi.

Demokratiya bevosita jamiyat taraqqiyoti, uning siyosiy, huquqiy, maʼnaviy va boshqa jihatlari bilan birga ana shu jamiyatni tashkil etgan aholi umumiy dunyoqarashini oʻzida mujassam etadi. Boshqacha qilib aytganda, aholining turmush tarzi, anʼanalari va urf-odatlarini asosida shakllangan maʼnaviy-ruhiy olami jamiyatda qaror topadigan demokratik jarayonlar mazmunini belgilaydi. Aks holda, demokratiya davlat mafkurasi asosida qurilsa, uning oʻz manfaatlariga mos keladigan siyosatiga xizmat qiladi. Agar demokratiya siyosiy «oʻyin» lar holatiga kirsas, mamlakatda parokandalik, anarxiya vujudga keladi. Zero, har qanday davlat oʻz huquqiy asosiga, siyosiy rejimiga boshqaruvdagi aniq tamoyillariga ega boʻlmasa, fuqarolar esa oʻz haq-huquqlarini himoya qilish bilan birga jamiyat va davlat oldidagi, oʻz mamlakati istiqboli yoʻlidagi vazifalari va burchlarini toʻla anglab olmagan taqdirda demokratiya oʻzining tom maʼnodagi mazmuniga va jahon tajribasida tan olingan mohiyatiga ega boʻla olmaydi.



Jahon davlatchiligi tarixi turli davrlarda turlicha davlat tizimlarini va boshqaruv yoʻnalishlarini koʻrgan. Demak, inson va jamiyat, davlat va fuqaro oʻrtasidagi munosabatlar turli davrlarda turlicha tus olgan. Ana shundan kelib chiqib yer sharining turli mintaqalarida xalqlar dunyoqarashi, turmush tarzi, anʼanalari va urf-odatlarini asosida turlicha siyosiy rejimlar, tartib-qoidalar va rusumlar dunyoga kelgan.

Jahon davlatchiligi tajribalari tobora boyib, xalqning oʻzligini anglash jarayoni tobora tezlashib borgani sayin demokratiyaning shakli, mazmuni va uning jahon taraqqiyotida tutgan oʻrni xususidagi munozaralar avj oldi. Ayniqsa XX asr kishilik tarixida keskin burilish yasadi. Yer kurrasida ikki qarama-qarshi ijtimoiy-siyosiy tuzumning paydo boʻlishi dunyo davlatchiligi tajribasida va jahon xalqlari tafakkurida turlicha bir-biriga zid boʻlgan gʻoyalarni keltirib chiqardi. Ana shu gʻoyalar, tabiiy ravishda, oʻzlari hukmron boʻlgan hududda odamlar ongini oʻzgartirib yubordi. Aniqrogʻi, ular tafakkuriga singib ketdi. Ikki lager oʻrtasidagi bunday siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va mafkuraviy raqobat kuchayib, bir birini mahv etishga urinishlar inson huquqlarini maʼlum bir tartibga solib turish, uni himoya qilish maqsadiga yoʻnaltirilgan bir qator xalqaro tashkilotlarning paydo boʻlishiga ehtiyoj tugʻdirdi.

Totalitar tuzumda inson huquqlarining cheklanganligi, mafkuraviy yakkahokimlik jamiyat maʼnaviy taraqqiyotini cheklab qoʻydi. Bu – birinchidan. Ikkinchidan, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida ozodlik uchun kurash, milliy davlatchilikka zamin yaratish va shu asosda inson huquqlarini himoya qilish, har tomonlama barkamol demokratik jamiyatni vujudga keltirishga intilish kuchaydi. Natijada ana shu qitʼalarda milliy ozodlik harakatlari avj oldi. Bu harakatlar zamirida insoniyatning azaliy orzu umidi – ozodlik va hurriyatga erishish, erkin yashash ehtiyoji yotardi.

Qadim Sharqda azaldan huquqiy demokratik davlatchilik va fuqarolik jamiyatining turli elementlari mavjud edi. Bunga uzoq oʻtmishimizdan qoraxoniylar, Xorazmshoh, temuriylar va boshqa qator sulolalar davlatchiligini misol keltirish mumkin. Bu davrlar haqiqat va adolat gʻoyasi nihoyatda baland koʻtarilgani va butun mamlakatda aniq tartib intizom oʻrnatilgani natijasida inson hayoti, aholi turmushi kafolatlanganligi bilan alohida ajralib turadi. Agar ana shu davrlarda soʻz va fikr erkinligi, gʻoyalar xilma-xilligi mavjud boʻlmaganda edi, bu qadimiy makonda fan, madaniyat va maʼnaviyat rivojlanmagan, jahon taraqqiyotiga bu darajada kuchli taʼsir koʻrsatmagan boʻlar edi.

Sharq uygʻonish davri va keskin yuksalish paytlarida dunyoviy ilmlar bilan islom madaniyati nazariyasi va falsafasi uygʻun holda taraqqiy topdi. Uning natijasida vujudga kelgan maʼnaviy-axloqiy anʼanalar turmush

tarzimizga aylanib qoldi. Aks holda islom dinining buyuk namoyandalari, ulamo va fuzalolarining dunyo tan olgan asosiy ko'pchiligi qadimiy Turon zaminida yetishib chiqmas edi. Bu bizga «din – af'yundir» deb o'rgatib kelgan, bizni xudosizlikka, imonsizlikka va e'tiqodsizlikka da'vat etgan, jaholat yo'lini tutgan yolg'on mafkuraning yolg'on umridan darak berganidek, islom dini va Sharq turmushi falsafasining abadiyatini, haqiqati va qadriyatlarining boqiyiligini ham ko'rsatadi. Sohibqiron Amir Temurning birgina «Kuch – adolatda» degan shiorida huquqiy demokratik davlatning ham, fuqarolik jamiyatining ham ayrim belgilari, insonning yashash huquqi – uning barcha erkinliklari ham mujassam bo'lgan. Ayni paytda xuddi ana shular hozirgi zamon demokratik harakatlar ilg'or tajribalarining o'q ildizini, bosh yo'nalishini tashkil etadi.

Albatta bu ancha-muncha munozarali masala. Mamlakatimizda yangi tarixiy sharoitlarda yangicha davlatchilik qaror topayotgan bir paytda demokratiya, fuqarolik jamiyati, aholi va jamiyat, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlar turli soha mutaxassislari o'rtasida turlicha talqin etilmoqda. Biroq har qanday xulosalardan qat'iy nazar, shu narsa aniqki, qadimiy Sharq davlatchiligida inson erki, haq-huquqlari ko'p jihatdan himoya qilingan hamda o'z davriniig talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, inson ozodligi va hatti-harakatlari erkinligi ta'min etilgan edi. Bu ayni demokratik jamiyatning muhim va asosiy belgilaridan hisoblanadi.

Endi biz butunlay yangi tarixiy sharoitlarda yashayapmiz. Jahon demokratik jarayonlari tobora chuqurlashgan, uning imkoniyatlari ancha kengaygan, odamlarning onglilik darajasi birmuncha oshgan bir paytda yashayapmiz. Jahon voqealaridan va ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridan xabardor bo'lish va bu jarayonlarning mamlakatlararo, mintaqalararo va qit'alararo ta'siri tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda kun kechiryapmiz. Bularning barchasi inson ongi, tafakkuri va qalbini hech qachon chetlab o'tmaydi. Endi demokratiyaning shunchaki oddiy «erkinlik», «hurriyat», «ozodlik» degan tushunchalari va ayni paytda «xalq hokimiyati» degan mazmuni ham birmuncha o'zgarmoqda. Odamlar ongi va tafakkuri kengaygani sayin, ularning demokratiyaga munosabatlari ham o'zgarmoqda. Ayni paytda demokratiya imkoniyatlari tobora kengayib, miqyosi oshib bormoqda.

Bizning yaqin o'tmishimizda «qizil imperiya» demokratik harakatlar tamoyillariga mos keladigan inson erki va yashash huquqini ancha-muncha chegaralab qo'ygan edi. G'oyatda zo'ravonlikka tayangan siyosat tabiatan ozodlikni yoqtirmas va tom ma'nodagi demokratiyani tan olmas edi. Amerikalik siyosatchi Diana Revich ta'biri bilan aytganda, «Totalitar siyosiy tuzumlar sustlik va loqaydlik kayfiyatini rivojlantiradi. Tuzum

itoatkor va labbaygo‘y fuqarolarni shakllantirishga intiladi. Bundan farqli o‘laroq, demokratik jamiyatning fuqarolik madaniyati alohida shaxslar va guruhlarining erkin ravishda ixtiyor etgan faoliyati tufayli shakllanadi. Ozod jamiyat fuqarolari o‘z manfaatlari yo‘lida harakat qiladilar, o‘z huquqlaridan foydalanadilar va o‘z hayotlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmalariga oladilar». Ana shu mas’uliyatning o‘zi odamni jamiyat oldidagi burchini ham, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni ham belgilaydi. Bu bevosita shaxs, jamiyat va demokratiya tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligidan, munosabatlar o‘rtasidagi madaniyatdan kelib chiqadi.

O‘tish davrida, jamiyat bir holatdan ikkinchi bir holatga yuz berayotgan paytda, ayniqsa, totalitar rejimidan erkin fuqarolik tuzumiga o‘tayotgan bir sharoitda demokratiyani anglash, uning butun mohiyatini tushunish va mas’uliyatini zimmaga olish ancha qiyin ish. Eng avvalo, odam yangicha sharoit mazmun-mohiyatini anglashi, unga o‘zini o‘zi tayyorlab borishi, erkin fikrlash ko‘nikmasini hosil qilishi darkor. Garchi inson tabiatan hur va ozod yashashga intilib yashasada, eng avvalo, o‘ziga o‘zi shunday sharoitni yarata bilishi, ma’naviy-ruhiy jihatdan unga tayyor bo‘lishi lozim. Qotib qolgan tushunchalar qobig‘ini sindirish, fikrsizlik va tanballik ruhiyatidan xalos bo‘lish oson emas. Biz hozir ana shunday murakkab jarayonni boshdan kechirmoqdamiz.

Vanderblit universitetining professori Chester Finn «Insonlar shaxsiy ozodlikka tashnalik hissi bilan tavallud ko‘rishlari mumkin, ammo ular ozodlikni o‘zlari va farzandlari uchun ro‘yobga chiqaruvchi ijtimoiy va siyosiy vositalarni bilish ko‘nikmasi bilan tug‘ilmaydilar. Bunday narsalar qo‘lga kiritilishi lozim. Ular o‘rganilishi kerak», deydi.

Darhaqiqat, ijtimoiy hayot, mamlakatda yuz berayotgan jiddiy o‘zgarishlar va inson hayotining daxlsizligini ta’minlash yangidan-yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Odamlar esa ana shu muammolarni birin ketin hal etish jarayonida o‘z erki va haq-huquqlarini himoya qilib boraveradi. Jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda aholi «tarbiyalanib», shakllanib, barkamollashib boradi. Bu tabiiy hol.

Demokratiyaning murosachilik va yakdillik madaniyati, yuqorida ta’kidlaganimizdek, mamlakat ichki hayotida ham, tashqi siyosatda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, odamlar – mamlakat fuqarolari o‘rtasidagi munosabatlar qanchalik iliq bo‘lsa, umumxalq va umumdavlat manfaatlari yo‘lida birlashishga qanchalik ko‘proq ixtiyor sezilsa, muammolarni hal etishda yakdillik bilan faoliyat ko‘rsatilsa, barcha uchun umumiy bo‘lgan vazifalar oldida mas’uliyat chuqur his qilinsa, bu – demokratiyaning mamlakat ichki hayotidagi madaniyatini, boy ma’naviy qiyofasini belgilaydi.

Demokratiyaning tashqi siyosatdagi ko‘rinishi bu bevosita Birinchi Prezident Islom Karimovning dunyo muammolarini hal etishdagi yondashuviga juda mos keladi. Jumladan:

Birinchi Prezident Islom Karimov tasavvurida har qanday mojaroli masalalarni tinch yo‘l bilan hal etish, muzokaralar yo‘li bilan fikr almashish va eng to‘g‘ri, hamma uchun birday manfaatli bo‘lgan xulosalarga kelish lozim.

Har qanday zo‘ravonliklarga, tazyiq va kuch ishlatishlarga qarshi ravishda sharqona munosabatlar ilmini egallash, demakki, sharqona demokratiya tamoyillari asosida ish yuritish kerak.

Darhaqiqat, Sharqda, Sharq davlatchiligida har qanday zo‘ravonliklardan xoli holda masalalarni aql idrok bilan, ro‘yi-rost va oshkora muloqot qilish asosida hal etish tamoyillari mavjud. Bu har qanday jizzakilikdan xoli, aql-idrokka va donolikka asoslangan, har qanday siyosiy muxolif bilan o‘zaro hurmat asosida gaplasha olish, munozara qila bilish, oxir-oqibatda o‘z fikri va g‘oyasining to‘g‘riligiga ishontira bilish kabi sharqona munosabatlar ilmini – diplomatiyani talab etadi.

O‘zbekiston rahbarlarining ana shunday munosabatlari hozirgi zamon jahon demokratik harakatlarining eng ilg‘or tajribalariga juda mos kelmoqda va hatto, uni boyitmoqda. Bu Yer yuzida har qanday zo‘ravonlik va kuch ishlatishni rad etish bilan birga jahon siyosati madaniyatini oshirishga da‘vat etish orqali siyosatta demokratik tamoyillarni olib kirishning o‘zbekona yo‘lidir. Zotan AQShlik siyosatshunos Diana Revich fikri bilan aytganda, «Ittifoq tuzish demokratik jarayonning asl mohiyatini tashkil etadi. U mushtarak manfaatlar zamirida birlashgan guruhlarni boshqalar bilan muzokaralar olib borish, kelishuvga erishish va konstitutsion tizim doirasida ish olib borishga o‘rgatadi. Ittifoq tuzish sari intilar ekan, o‘zaro farqlar mavjud guruhlar tinch yo‘l bilan munozara olib borish, o‘z maqsadlariga demokratik yo‘l bilan erishish va pirovardida xilma-xilliklar mavjud dunyoda qay tariqa yashash kerakligini o‘rganadilar».

Demokratiya bir yo‘la qurilgan bino yoki doimiy bir xil tarzda o‘zgarmay turadigan buyum emas. Balki, u doimiy harakatdagi jonli hodisadir. Ayni paytda u jamiyat taraqqiyoti va mavjud siyosiy rejim ta‘sirida o‘zini o‘zi to‘ldirib, boyitib, yangi tarixiy sharoitlarda yangicha mazmun kasb etib boruvchi voqelikdir. Muxtasar qilib aytganda, demokratiya tajribaga asoslangan va doimiy mazmunan boyib, shaklan barkamollashib, mohiyatan chuqurlashib boradigan uzluksiz harakatdagi faoliyatdir.

### **Demokratiyaning siyosiy madaniyati**

Haqli ravishda savol tug'iladi. Xo'sh, O'zbekiston demokratiyaning qaysi yo'nalishlaridan bormoqda? Huquqiy demokratik davlatni barpo etish, fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish oliy maqsad ekan, unga erishishning yagona yo'li demokratiyani chuqurlashtirishdir. Ayni paytda O'zbekistonda davlatchilikning xuddi ana shu jihatiga qanday qaralmoqda?

Eng avvalo shuni ta'kidlash kerakki, demokratik jamiyatni barpo etishning xalqaro tamoyillari, dunyo tan olgan, e'tirof etgan, barcha uchun umumiy bo'lgan yo'riqlari mavjud.

Bu bevosita fuqaroning o'z xohish irodasini erkin ifodalash huquqiga egaligi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, saylash saylanish huquqi va boshqalardir.

Bular qariyb barcha mamlakatlar konstitutsiyalarida qat'iy belgilab qo'yilgan tartib qoidalar hisoblanadi.

Ana shundan kelib chiqib demokratiyaning turli shakllari vujudga kelishi muqarrar. Ayrimlar O'zbekistondagi demokratik jarayonlar, uni hayotga tatbiq etishning sharqona tamoyillari haqida gapirar ekan, demokratiya demokratiyada, uning sharqonayu g'arbonaligi bormi? degan fikrlarni bildirishmoqda. To'g'ri, yuzaki qaraganda demokratiya – demokratiyada. U hamma uchun birday ijtimoiy hodisa! Biroq, uning mag'zini chaqsangiz, mazmunini chuqurroq anglasangiz, masala anchamuncha murakkab ekanligini sezish qiyin emas. Erkin fikr, eng avvalo, fikrlash tarzidan, ma'naviy ruhiy ko'nikmadan, erkin hatti-harakat esa, turmush tarzidan, axloqiy mezonlardan kelib chiqadi. Ana shuning o'zi G'arbda g'arbonalikni, Sharqda sharqonalikni taqozo etadi. Demak, demokratiyani hayotga tatbiq qilishda xalqning milliy ehtiyojlaridan kelib chiqib yondashish kerak bo'ladi. Aks holda, demokratiya tadbirbozlik va kampaniyabozlikka aylanib kolishi mumkin, xolos.

Ma'lum bir mamlakatda demokratiyani joriy etishda faqat shuning o'zi kifoya qiladimi? Faqat shuning o'zi aholining barcha ehtiyojlarini qondira oladimi, ma'naviy-ruhiy olamini qamraydimi? Yo'q! Chunki, har bir xalqning o'z turmush tarzi, tarixiy an'analari, hayotga munosabatlari va boshqa jihatlaridan kelib chiqib, demokratiyaga yondashish usuli bor. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Birinchi Prezident Islom Karimov «Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va astasekin taraqqiy topadi. Bu

sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni G'arb olimlari ham «ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli» deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi», deganida demokratiyani joriy etishning bosqichma-bosqich, astasekinlik bilan, odamlar ongi va qalbi orqali amalga oshirish kabi o'zbekona tamoyillari mavjudligini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bir qator mamlakatlar, jumladan, Turkiya, Germaniya, Angliya, Frantsiya va boshqa davlatlar o'z taraqqiyot dasturlari va modellarini tavsiya etdilar. Aslida bu mamlakatlarda demokratiyaning ibratli va o'rganishga arzirli tajribalari mavjud. Biroq, O'zbekiston Prezidenti bu takliflarga o'zining munosabatani aniq qilib ko'rsatdi. Har bir millatning o'z milliy ruhiyatidan kelib chiqib masalaga yondashish zarurligini bildirdi. Ayniqsa, o'zbeklar singari juda qadimiy millat va juda boy an'analarga ega bo'lgan xalq ehtiyojlarini hisobga olmaslik og'ir natijalarga olib kelishi mumkinligini uqtirdi va «Odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va suratlari bir-biriga qanchalik mutanosib bo'lishiga bog'liq» ekanligini ko'rsatib berdi.

Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, demokratik jarayonlarni chetdan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirish aslo samara bermaydi. Aksincha, bunday yo'l chalkash va xatarli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Demak, boshqaruvda bo'lgani kabi hurriyatga munosabatda ham boshqalardan andoza olish, mamlakat tub aholisi ruhiyatini hisobga olmaslik rahbarni ham, aholini ham, butun mamlakatni ham boshi berk ko'chaga kiritib qo'yadi. Masalan, G'arb demokratiyasini Sharq mamlakatlarida joriy etish mumkin emas. Unga taqlid qilish kutilmagan fojialarga olib kelishi mumkin. Buning achchiq natijalarini Tojikiston misolida ko'rdik. Erkinlikka ortiqcha yo'l berish, davlat va boshqaruv apparatining behad bo'shshib ketishi, hokimiyat jilovining o'z holiga tashlab qo'yilishi ming-minglab xonadonlar boshiga kulfat keltirish bilan yakunlanishini ko'rdik, ko'plab salbiy hodisalarga guvoh bo'ldik. Qolaversa, Rossiya Federatsiyasidagi ahvol hammamizga saboq bo'lishi kerak. U yerda bundan qariyb ikki yuz yil burun bashorat qilib ketgan Krilovning mashhur «Oqqush, qisqichbaqa va cho'rtanbaliq» masalidagi voqea sodir bo'ldi. Mamlakatni har kim o'z tomoniga tortgani, davlat, hukumat va parlament o'rtasidagi kelishmovchiliklar chuqurlashib ketganligi sababli xalq hayoti tahlikali tus oldi.

Mamlakatimizda vujudga kelayotgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarishdagi uzluksiz jarayon umumxalq va

umumdavlat manfaati yoʻlidagi qattiqqoʻllik, talabchanlik va qatʼiy intizom natijasidir.

Odatda yakka-yakka shaxslarning ruhiy kechinmalari, hatti-harakatlari va feʼl-atvoridan umumjamiyat kayfiyati, uning maʼnaviy qiyofasi shakllanadi. Mustaqillik hayotimizga tobora chuqurroq kirib borayotgan, yangicha maʼnaviy-siyosiy muhit shakllanayotgan bir paytda bu muhim ahamiyat kasb etadi. Endi har galgidan ham hushyorroq boʻlishimiz, qoʻlga kiritgan buyuk neʼmatni asray olishimiz kerak.

Hatti-harakatlar, intilishlar har qanday sharoitda ham umumxalq manfaatini hisobga olib, unga tayansagina qadriyatga aylanadi. Qadriyatlar esa bebaho mulk, uni xalq yaratadi, xalq baholaydi. Uning oʻzi asraydi, avaylaydi. Demokratiya xuddi ana shunday buyuk neʼmat. Uni oliy qadriyat sifatida tushunish, asrash yoki toptash avvalambor har bir fuqaroning ichki madaniyatidan, maʼnaviy-axloqiy qiyofasidan, soʻng esa butun millatning umumiy madaniy saviyasidan, siyosiy va ijtimoiy faoliyatidan dalolat beradi.

Ayrimlar soʻz va fikr erkinligi zarur, deb bong urishdi. Biroq, ular hech narsa bilan chegaralanmagan soʻz va fikr erkinligi, nooʻrin va beoʻxshov, xalq boshiga kulfatlar keltirishi mumkin boʻlgan hatti-harakatimizni chegaralab turish zarurligini tushunishmaydi. Atoqli faylasuf Andre Jid ham «erkin fikrlash imkoniyatiga ega boʻlish uchun eng avvalo hatti-harakatimiz ogʻir oqibatlariga olib kelmasligi kafolatiga ega boʻlmogʻimiz lozim», degan edi.

Hurriyat – bu faqatgina yaxshi turmush kechirishga va koʻngil tusagancha yashashga daʼvo qilish imkoniyati emas! Aksincha, u erkin mehnat qilish, yaratish, bunyod etish imkoniyati! Barcha ehtiroslaru junbushlardan xoli boʻlgan aql-idrok tantanasi! Biz demokratiyani ana shunday tushunishimiz, anglashimiz lozim. Ana shunda u aholining iroda kuchi, idroki va tafakkuri bilan turmush tarziga, yaxshi yashash vositasiga, jamiyatni ham, inson hayotini ham ezgulik sari yoʻnaltiradigan qudratli kuchga, buyuk qadriyatga aylanadi. Demokratik jarayonlar va bevosita shaxsning unga tayyorlanish hodisasi birmuncha murakkab. U qatʼiy iroda va oʻz-oʻzini boshqarishni, maʼlum qonun qoidalar doirasida erkin faoliyat koʻrsatish va erkin fikrlash tamoyillarini oʻzlashtirishni, «demokratiya zanjiri» ostida yashashga koʻnikma hosil qilishni talab etadi.

Demokratiyaning takomillashish jarayoni, uning umuminsoniy qadriyatga aylana borish hodisasi bevosita shaxs yetukligi, komillik darajasi va maʼnaviy qiyofasi bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan oʻta murakkab voqelikdir. Ayni paytda u butun jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonidir. Darhaqiqat, jamiyatning maʼnaviy qiyofasi bevosita demokratik

jarayonlarning nechogʻlik chuqurlashishi va fuqarolar onglilik darajasining miqyosi bilan belgilanadn. Yoki, Diana Revich taʼbiri bilan aytganda, «demokratiya bir jarayon, mushtarak hayot va ish usuli boʻlib, qotib qolgan emas, rivojlanayotgan hodisadir. Demokratiya barcha fuqarolar orasida hamkorlik, kelishuv va oʻzaro munosabatlarda chidamli boʻlishni taqozo etadi. Bunga rioya etish oson emas. Erkinlik burchdan ozod etilish emas, aynan burch degani».

Amerikalik ilohiyotchi Reynxold Niburning fikricha, «insonning adolatparvarlik qobiliyati demokratiyaning roʻyobga chiqishiga imkoniyat yaratadi, ammo insonning adolatsizlikka moyilligi demokratiyani zarurat darajasiga koʻtaradi». Bu nihoyatda jiddiy va ayni paytda nihoyatda murakkab maʼnaviy-ruhiy hodisa. Demak, inson qanchalik adolatga, haqiqatga intilsa, bu jamiyatda demokratik rejimning, turmush tarzining shakllanishiga imkon yaratadi, uning yashab ketishiga sharoit tugʻdiradi. Biroq faqat shuning oʻzigina emas. Inson tabiatan adolatga qanchalik intilsa, adolatsizlikka ham shunchalik moyil boʻladi. Chunki adolat va haqiqatga intilish maʼlum qonun-qoidalarga boʻysunib yashashni taqozo etadi. Adolatsizlik esa, aksincha, koʻngil tusaganini, turli xildagi suiisteʼmolchilik va ashaddiy xudbinlik illatlarining kuchayishiga zamin yaratadi. Bunday paytda maʼlum bir toifadagi odamlar yaxshi yashaydi, «zamona zoʻrniki» boʻladi. Aholining asosiy qismi tazyiq va zoʻravonlik iskanjasida qoladi. Natijada tom maʼnodagi demokratiyaga zarurat kuchayadi.

Demokratiyani Prezident yoki hukumat bir farmon yoki qaror bilan, parlament bir qonun bilan oʻrnatib bermaydi. Uni xalq oʻziga oʻzi aql-idrok bilan yaratadi. Keng dunyoqarash, boy tafakkur, yetuk siyosiy tushuncha, barkamol maʼnaviy-axloqiy mezonlar, qonun ustuvorligiga erishish erkinlik asosdir.

Demokratiyani anglash – shaxsning hamma uchun birday zarur boʻlgan qonunlarga toʻla rioya etish, aniq tartib-intizomga tayanib yashash salohiyati. Demokratiya bizga inson haq-huquqlarini himoya qiladigan umumxalq va umumdavlat manfaatlarini asraydigan barcha qonunlarga boʻysunib yashashni oʻrgatadi.

Qolaversa, har bir xalqning fikrlash darajasi voqea va hodisalarga munosabati, uni baholash tarzi, oʻzining tarixiy kelib chiqishi, qadimiy anʼanalar asosida shakllangan turmush tarzi va tabiati bilan belgilanadi. Gʻarb demokratiyasida ochiqdan-ochiq munosabat, Sharq demokratiyasida esa aksincha – andishalilik, Gʻarbda ota-onasini sensirash, Sharqda esa oʻzidan kattalarga, oqsoqolga hurmat bilan qarash, aql bilan ish tutish anʼanalari mavjud. Umuman, hayot tarzi, anʼanalar hamma vaqt har bir



mamlakat xalqlarining xulq-atvorini shakllantiradi, hatti-harakatini, voqealarga munosabatini odatga, fe'l-atvorga aylantiradi. Demak, zarurat tug'ilganda, yuqorida aytganimizdek, Mag'ribdagi voqeani Mashriqqa ko'chirish, Mashriqdagi holatni Mag'ribda zo'rlab amalga oshirish mumkin emas. Ana shundan kelib chiqib, mamlakatimizda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatib, aytish mumkinki, o'z milliy davlatchilik tajribalarimiz va an'analarimizga tayanib har qanday sharoitda ham og'ir vazminlik va aql-idrok bilan ish tutish demokratiyani joriy etishning «o'zbek modeli» dir.

O'zbekistonda demokratik jarayonlarning aholi ongi va dunyoqarashi, qalbi va ma'naviy-ruhiy dunyosi orqali tabiiy ravishda chuqurlashayotgani uning tom ma'nodagi siyosiy madaniyatini, sog'lom va go'zal ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Bu asta-sekinlik bilan turmush tarzimizga aylanib borayotgan noyob qadriyat, shuurimizga o'rnashib qolayotgan oliy haqiqatdir.

### **Demokratiyaning ma'naviy qiyofasi**

Mamlakatimiz aholisi hayotida yuz berayotgan demokratik jarayonlar, shubhasiz, ijobiy hodisa ekanligi endi sir emas. U yashash tarzimizning sifat o'zgarishiga asos bo'lmoqda. Har kimning qobiliyatini, kasb mahorati va onglilik darajasini namoyon etishga imkoniyat yaratdi. Ana shu imkoniyat kishini oylashga, fikr yuritishga, aqlni ishlatish yo'li bilan farovon turmush kechirishga da'vat etadi. Har bir oila farovonligi esa butun mamlakat farovonligini belgilaydi. Bundan davlat bilan fuqaro ham, jamiyat bilan oila ham yutadi.

Hurriyat, erkinlik, demokratiya – ulkan oyna. Bu oynaga qarab ayrimlar o'zining unchalik ham ko'rkam bo'lmagan basharasini, changu g'ubor bosgan ma'naviy qiyofasini aniqlavshan ko'ryapti, Erkinlik imkoniyatlaridan «unumli» foydalanish uchun bironlar ne ko'ylarga tushishmayapti. Oramizda hurriyat, uning imkoniyatlarini chuqurlashtirish o'rniga undan iloji boricha ko'proq yulib olib, uni o'z maqsadiga qurbon qilish yo'liga o'tib olgan kishilar ham bor.

Erkinlik, demokratiya o'ziga hammani bo'ysundirmasligi, hammani zabt etmasligi, balki u insoniy aql-idrokka, yaxshilik va yomonlikni ajratadigan tuyg'uga bosh egishi, uning yuragida yurishi lozim. Aks holda biz yana o'zimizdagi yaigidan-yangi illatlarni ko'rsataverishimiz va shu bilan bugun hayotimizga, qolaversa, jamiyat hayotiga ham kulfatlar keltirishimiz hech gap emas. Ana shundan kelib chiqib biz eng avvalo erkinlikni, demokratiyani tarbiyalashimiz kerak. Chunki u sog'lom fikrlar va shakllangan aql-idrok ta'sirida bo'lsagina bizni tarbiyalashi, jamiyatni sog'lomlashtirishi mumkin. Aksincha emas!

Odatda yakka-yakka shaxslarning ruhiy kechinmalari, hatti-harakatlari va o'zgarishlaridan umumjamiyat kayfiyati, uning ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Mustaqillik hayotimizga tobora chuqur ildiz otayotgan, yangicha ma'naviy-axloqiy muhit shakllanayotgan bir paytda bu o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Endi har galgidan ham hushyorroq, va ziyrakroq bo'lishimiz, qo'lga kiritgan buyuk ne'matni, bebaho gavharni barcha changu g'uborlardan toza tutishimiz kerak. Mustaqillik sha'ni va nufuzi barcha shaxsiy ikir-chikirlardan, jamiki manfaatlardan muqaddasroqdir.

Shaxsning faqat o'zini o'ylashi, barcha tashabbuslar tagida o'z manfaati turishi, shaxsiy g'amho'rlik, o'zi uchun yashash, o'zgani o'ylamaslik, barcha umumiy manfaatlardan o'z manfaatini ustun qo'yish kayfiyati demokratiyaning chuqurlashishiga monelik qiladi.

Biz jahon madaniyatiga daxldor bo'lgan, umuminsoniy qadriyatlar taraqqiyotiga olamshumul hissa bo'lib qo'shilgan ulkan madaniyat merosxo'rlarimiz. Biz kishilik tarixini insonparvarlik, insonning o'zligini anglash sari burib yuborgan buyuk allomalar vorislarimiz. Rus olimi JI.Gumilevning fikricha, Turkistonda fan, madaniyat eng yuqori darajaga ko'tarilgan bir paytda «franklar va normanlar vizantiyaliklar va arablardan ilohiyot va hammomda yuvinishni endigina o'rganishayotgan edilar...»

Biroq yana shuni ta'kidlash kerakki, biz qanchalik ulug'vor va jahonshumul madaniy merosga voris bo'lmaylik, o'zimizni uning qonuniy merosxo'ri sanamaylik, bari-bir inson ekanligimizni, har qanday sharoitda ham butun fazilatlarimiz bilan birga nuqson va illatlardan ham xoli emasligimizni ochiq-oydin namoyish etyapmiz.

Demak, har qanday sharoitda milliy madaniyat tagida milliy «yovvoyi»lik – xudbinlik, hamma narsadan o'z manfaatini ustun qo'yish, barchani o'ziga qurbon qilish kayfiyati ham turar ekanda. Ana shunday bir sharoitda kimdir siyosiy shon-shuxrat va nom chiqarish yo'lini tutdi. Adolatu insofni bayroq qilib irodasi sust bo'lgan, nimadandir alamzada odamlarni o'ziga ergashtirib, mitinglaru yurishlar uyushtirdi. Kimdir davlat mulkini talon-oroj qilsa, yana boshqasi o'zini ishbilarmon tijoratchi deb e'lon qildi. U do'kondan narsa olib, bu do'konga xohlagan bahosini qo'yib, unga insof, diyonatu vijdonni qo'shib, hech og'rinmay sotaverdi.

Nafs – ofat! Nafs – balo! U inson va insoniylik kushandasi, zulm va sitam manbai! Havoyu havas avj olgan, nafsiga erk berilgan joyda muruvvat yo'qoladi. Shafqat yuzini chang bosadi. Ma'rifatni zulmat qoplaydi. Nafs xuruj qilgan joyda odamiylik xoru-zor bo'ladi. Inson degan muqaddas jon oyok osti bo'ladi. Bugun biz ana shunday xurujdan ehtiyot bo'lishimiz, nafsning beqiyos darajadagi hujumini barbod etishga

intilishimiz, butun irodamizni, kuch-qudratimizni, aql-zakovatimizni ishga solib, insof va diyonatni himoya qilmog'imiz kerak. Zero, Hazrat Alisher Navoiy ham;

*Erkin ulkim, sa'd etib nafsoniyat,  
G'olib o'lsa umrida ruhoniyyat, –*

degan edilar. Darhaqiqat, kimki nafsini tiyib, uni yenggan bo'lsa, ruhiy dunyosi pok, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lsa, erkin bo'la oladi, erkinlik mazmunini chuqur tushunadi, uni asray oladi. Qolaversa, ruhiy poklik, ruhiy tozalik o'zini o'zi boshqarishga, o'zini o'zi idora qilish, barcha yaxshi-yomon narsalardan tiyib turishga qodir bo'lgan noyob fazilat. Hatti-harakatlar, intilishlar har qanday sharoitda ham umumxalq manfaatini hisobga olib, unga tayansagina qadriyatga aylanishi mumkin. Xohlagan paytda xohlagan gapni gapiraverish erkinlik emasligini, aksincha, bu shaxsiyatimizni, ma'naviy imkoniyatlarimizni, qolaversa, milliy qadru qimmatimizni poymol etilishi ekanligini ba'zan o'ylab ham o'tirmaymiz.

Demokratiya – ongli fikrlash, har qanday ehtirolardan xoli, aql-idrokka tayangan munosabatdir. Demokratiya – yuksak ma'naviyat va ichki madaniyatni oshkor etish imkoniyati! Demokratiya bizga inson haq-huquqlarini himoya qiladigan, umumxalq va umumdavlat manfaatlarini asraydigan barcha qonunlarga bo'ysunib yashashni o'rgatadi va talab etadi. Aksincha bo'lgan joyda jamiyatda boshboshdoqlik, parokandalik avj oladi. Kishilar hayoti tahlikali tus oladi.

Yillar mobaynida ongimiz va shuurimizda o'rtnashib, vujudimizda ildiz otib ketgan siyosiy aqidaparastlikdan, hodisalarga ko'rko'rona ergashish va qotib qolgan tushunchalardan voz kechish, uyg'onish hayotiy ehtiyojdir. Ana shu ehtiyoj biz uchun demokratiya va uning imkoniyatlarini, mazmun-mohiyatini, siyosiy va ijtimoiy hodisa sifatida mantig'ini to'g'ri anglashga intilishni zarurat darajasiga ko'taradi. Shaxs va jamiyat erkinligining mushtarakligi, ruhiy va ma'naviy-axloqiy uyg'unligi oliy maqsad, turmush tarzi va eng muhim taraqqiyot yo'li bo'lmog'i kerak.

Hozirgi islohotlar davri, tub burilishlar jarayoni bizdan fikrlovchi, tafakkurga yo'g'rilgan qarashlarni talab etadi. Bugun – milliy uyg'onish va jahon saxnasida o'zimizni ko'rsatish paytida siniq va o'ychan emas, fikrlaydigan, harakatga undaydigan, ishlaydigan, munosabat bildiradigan jonli va uyg'oq nigohlar zarur.

Kishi o'zligini anglashi, o'z sha'nini himoya qila olishi va barcha yomonliklardan o'zini tiya olishi uchun orif bo'lmog'i, qalbining tubida, ma'rifat shamchirog'i yonib turmog'i lozim. Ana shunda odam gunohdan hazar qilish, barcha ne'matlardan aql-idrok va insof doirasida foydalanish yo'lini tutadi. Nojo'ya hatti-harakatlari uchun tavba-tazarru qilish

zarurligini anglay boshlaydi. Tavba – qurum bosgan qalb hujayralarini sog‘lomlashtiradigan, uni barcha illatlardan omon saqlaydigan ma‘naviy imkoniyat. Shuning uchun ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiy: «Tavba – gunohkor bandaning ko‘ngil ko‘zqusini gunoh zangidan tozalaydi: afv sayqali bilan u ko‘zguning yuzini yoritadi. Tavba – baxtsizlik yo‘lining oxiri va to‘g‘rilik yo‘lining boshlanishidir; u takabburlik g‘aflatidan seskanmoq va g‘aflat uyqusidan uyg‘onmoq va o‘zining noloyiq ahvolini anglamoq va behuda fe‘llarini tashlamoq, qabih ishlar, sharmandalik va rasvogarchilik tufayli xijolatga qolishdan ogoh bo‘lmoqdir. Tavba – insonga xos sarkashlikdan voqif bo‘lmoq, kishini to‘g‘ri yo‘ldan ozdiruvchi nafs balosidan va ko‘ngil itoatsizligidan nafratlanmoqdir», degan edi. Bu haqiqat! Bundan tonib bo‘lmaydi! Biroq uning butun haqiqatini anglab olish va odam tavbaga – o‘zini o‘zi tozalashga intilishi uchun ham o‘zida ma‘naviy kuch, rag‘bat, intilish, o‘zini o‘zi boshqarishga qodir bo‘lgan iroda sezmog‘i darkor.

Erkinlik, demokratiya hayotimizni xam, o‘zimizni ham zabt etdi. Mustaqillik bunga yo‘l ochib berdi, shunday imkoniyat yaratdi. Endi biz o‘zimizni anglashimiz, dunyoni tushunishimiz va shu bilan birga demokratiyaning butun mohiyati va imkoniyatlarini chuqurlashtirishimiz lozim. Ana shunda biz ham, demokratiya ham, mustaqillik ham buyuk ne‘matga, hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan oliy qadriyatga aylanadi. Xullas, hazrat Mir Alisher Navoiy aytganlaridek,

*To hirsu havas xirmanini barbod o‘lmas,  
To nafsu havo qasri baraftod o‘lmas,  
To zulmu sitam joniga bedod o‘lmas,  
El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas.*

Darhaqiqat, to ma‘naviy kamolotga yetmaguncha, to hatti-harakatlarimiz, munosabatlarimiz aqlu-idrok va umumiy manfaat doirasi bilan chegaralanmaguncha demokratiyaning mazmuni ham, ko‘lami ham kutganimiz darajasida bo‘lmaydi. Bu bevosita fuqarolar ongi va dunyoqarashini tubdan o‘zgartirish, yaqin o‘tmishimizdan qolgan loqaydlik va boqimandalik kayfiyatlarini yo‘qotish, shu asosda milliy davlatimiz, milliy vatanimiz istiqboli uchun kuyinish tuyg‘ularini kuchaytirish kabi murakkab, uzoq muddatli jarayon bilan bog‘liq. Ana shundan kelib chiqib Birinchi Prezident Islom Karimov «...demokratiya o‘z o‘zidan vujudga kelmaydi. Demokratiya tinimsiz aqliy va jismoniy mehnat qilib, ter to‘kib, hayotning achchiq chuchugini obdan totib, qiyin, aytish mumkinki, hatto fojiali tajribalarni ham boshdan o‘tkazib, og‘ir sinov va kurashlarga

mardona bardosh beribgina erishish mumkin», degan edi. Zero, ana shu juda murakkab jarayonga hamma va har bir kishi alohida tayyorgarlik ko'rish, o'zini tayyorlab borishi, eng muhimi, o'zini o'zi ichki bir ma'naviy qudrat bilan tarbiyalab borishi kerak. Shuning uchun ham Islom Karimov «demokratik o'zgarishlar va yangi demokratik jarayonlarni boshqarishni, hayotga tatbiq qilishni hamda ularni himoyalashni jamiyatning o'zi anglamog'i darkor», deb alohida ta'kidlaydi. Ana shuning o'zi bizning jamiyat oldidagi, yangilanayotgan hayot oldidagi va butun kelajak oldidagi vazifalarimizni belgilaydi.

### **Jamiyatni erkinlashtirishning «o'zbek modeli»**

Har qanday jamiyatning ma'naviy qiyofasi ayni ana shu jamiyat tizimi, uning qanday g'oyalarga va maqsadlarga ergashayotgani, qanday tafakkur asosida qaror topayotgani bilan bog'liq. O'zbekiston tanlagan yo'l inson manfaatlari to'la himoya qilingan, uning haq-huquqlari har tomonlama kafolatlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirishdir. Bu, albatta, inson ongi va tafakkurini o'zgartirish orqali turmush tarzini yangilash singari qator murakkabliklar, qiyinchiliklar, ziddiyatlarni yengib o'tishni taqozo etmoqda. Ularni nimalarda ko'rish mumkin?

Birinchidan, eskilik va yangilik o'rtasidagi ziddiyatlar. Eski tuzum illatlari yashashni istaydi, o'z o'rnini bo'shatishni xohlamaydi. Yangi tuzum g'oyalari esa jamiyatni yangilash zaruratini taqozo etadi va bu zarurat hayot mamot mohiyatiga, har bir fuqaro taqdiriga, ma'naviy va ruhiy ehtiyojiga, asrlar mobaynida shakllangan turmush tarzi va dunyoqarashiga bog'liq bo'lgan, uni har jihatdan himoya qiladigan fikr sifatida maydonga keladi. Bu g'oyaning yashashi va turmush tarziga aylanishi ayni ana shu eskilik illatlari bilan kurashning naqadar og'ir va hatto iztirobliligi bilan belgilanmoqda.

Ikkinchidan, fuqarolar ongi va dunyoqarashining jamiyatni tubdan o'zgartirish va yangi mazmun bilan boyitish uchun unchalik ham tayyor emasligi. Zotan, 130 yillik mustamlakachilik davri bizni fikrlamay yashashga majbur etdi. Fikriy tanballik, fikriy boqimandalik ko'nikmalarini vujudimizga singdirib yubordi. Endi esa aqlni ishlatib, o'z kunimizni o'zimiz ko'rishimiz va shu asosda O'z iqtidorimizni, yaratuvchilik qudratimizni namoyon etishimiz kerak. Bu osonlik bilan yuzaga chiqadigan hodisa emas.

Uchinchidan, inson ozodligi, hur va erkin yashash tarzi bu shunchaki «bersang yeyman, bermasang o'laman» qabilidagi turmush tarzi emas. Aksincha, inson ozodligi ozod so'z, ozod fikr, erkin hatti-harakat orqali jamiyat erkinligini, jamiyat ozodligini va umuman hurriyat mazmun-

mohiyatini anglashdan iborat bo'lgan siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-ruhiy hodisadir.

To'rtinchidan, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish sharoitida fuqarolarni ayni demokratik jarayonlarning faol ishtirokchisi, uning faol himoyachisi sifatida tayyorlash. Bu o'ta murakkab, vaqt talab etadigan hodisa. Chunki mustamlakachilik davri illatlaridan qutulish azobini, fikrlab yashash, aql-idrok yuragi bilan kun ko'rish mashaqqatini yengish uchun insonda ichki iroda, ma'naviy qudrat kerak. Ana shu iroda va qudratni uygotish, shakllantirish, unga quvvat baxsh etish oson ish emas.

O'zbekiston fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lini tanlagan ekan, ana shu inson ongi va qalbi bilan bog'liq bo'lgan, uni isloh qilish, tirik, mavjud insonni «yangi»lash, ma'naviy-ruhiy «ta'mirlash» kabi sermashaqqat yo'ldan bordi. Bu har qanday davlatdan juda katta siyosiy qudrat, siyosiy madaniyat va siyosiy iroda talab etadigan buyuk hodisadir.

Birinchi Prezident Islom Karimov jamiyatni erkinlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash haqida gapirar ekan, Konstitutsiya qabul qilingan kunning 13 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishdagi maruzasida uchta muhim tamoyilni o'rataga tashladi: «Birinchidan, barchamiz hayotimizda hanuzgacha uchrab kelayotgan loqaydlik va beparvolik asoratlaridan butunlay xalos bo'lishimiz zarur.

Ikkinchidan, mamlakatimiz va uning atrofida sodir bo'layotgan voqea hodisalarga doimiy daxldorlik hissi bilan yashashimiz darkor.

Toki shu yurtda yashaydigan har qaysi inson ana shu murakkab ijtimoiy jarayonlardan har tomonlama xabardor bo'lib, ularga nisbatan o'z fikri va munosabatiga ega bo'lsin, nima haqiqatu nima bo'hton va uydirma ekanini anglab yeta olsin.

Uchinchidan, har bir fuqaro o'zining, oilasining taqdiri va ertangi kuni uchun rivojlanish yo'limizda g'ov bo'lib turgan to'siqlarga qarshi qat'iy kurash olib borishi kerak».

Siyosiy madaniyat, siyosiy ong va tushunchalar darajasi jamiyat hayotida inson ishtirokining qandayligini belgilaydi. Zotan, siyosiy madaniyat va siyosiy ong yuksak bo'lgan joyda odamlar hokimiyat ishida faolroq ishtirok etishadi. Qarorlar qanday qabul qilinishi, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganligini kuzatib borishadi, munosabat bildirishadi. O'z hayotlariga daxldor bo'lgan ma'muriy tadbirlarga befarq qarashmaydi. Aksincha, ularni tayyorlashda ishtirok etishadi, natijada "qarorlar ijrosi uchun o'zlari manfaatdor sifatida mas'uliyatni his qilishadi.

Birinchi Prezident Islom Karimov aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish

zarurligiga alohida e'tibor beradi. Bu mexanizm eng avvalo jamiyatni erkinlashtirish orqali odamlarning saylovlarga munosabatini o'zgartirishni, yaqin o'tmishimizda dunyoqarashimizda o'rnashib qolgan soxta saylovbozlik va siyosiy o'yinlardan voz kechishni taqozo etadi. Odamlar o'z manfaatlarini va maqsadlarini amalga oshirish, haq-huquqlarini himoya qilish uchun saylovlarda ishtirok etish zarurligini anglamog'i lozim. Saylash va saylanish huquqi ayni har bir fuqaro siyosiy faolligini, jamiyat taraqqiyotiga daxldorligini belgilovchi omil sifatida o'zini ko'rsatmog'i darkor.

O'zbekistonda saylovlar o'tkazishning demokratik tamoyillari mavjud. Bu tamoyillar jahon saylov o'tkazish tajribalari asosida dunyoga keldi va shakllanmoqda. Fuqarolar esa uni to'la to'kis qo'llab quvvatlamog'ida.

Inson haq-huquqlarini himoya qilish, uning ehtiyojlarini qondirishda davlat qurilishi, boshqaruv tizimi va jamiyatni erkinlashtirish alohida ahamiyatga ega. Bu borada Birinchi Prezident Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq o'zining strategik maqsadlarini aniq va ravshan ifodalab berdi va davlat o'z vakolatlarini asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlari zimmasiga o'tkazishi, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarining rolini oshirib borish orqali demokratik jarayonlarning chuqurlashtirish zarurligini aytgan edi. Ana shu tamoyilning o'zi fuqarolarning bir jihatdan erkinligi va ozodligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan o'z hayotlarini izga solishga, demakki, jamiyatni boshqarishga ishtiyogini kuchaytiradi. Asta-sekinlik bilan jamiyat hayotining hamma sohalariga daxldor, uning oldida burchli va mas'uliyatli ekanligini anglab boradi. Bu mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlar asnosida insonni isloh qilish, yangi jamiyat fuqarosini shakllantirish, insonni «yangilash» singari «insoniy islohotlar»ning samarasini ko'rsatadi.

Birinchi Prezident Islom Karimov taraqqiyotning O'zbekiston uchun maqbul tamoyillarini ishlab chiqar ekan, avvalo, mamlakatda yaratilajak jamiyat qanday bo'lishiga e'tibor beradi va uning fikricha, O'zbekistonda bunyod etiladigan jamiyat barcha «izm»lardan xoli va u qanday nomlanishidan qat'iy nazar, adolatli, xalqchil, insonparvar jamiyat bo'lmog'i lozim.

Shuning uchun ham, mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari pirovard natijada chinakam mustaqil O'zbekistonda yangi, adolatli jamiyat barpo etishga qaratildi. «Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil, adolatli jamiyatni bunyod etish bosh vazifadir», deb uqtiradi Islom Karimov. Bu boradagi fikrini davom ettirib, u «O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu –

insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbaidir», degan qoidani ilgari surdi.

Ijtimoiy hayot, mamlakatda yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlar va inson hayotining daxlsizligi bevosita yangidan-yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Odamlar esa ana shu muammolarni birin-ketin hal etish jarayonida o'z erki va haq-huquqlarini himoya qilib boraveradi. Jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda aholi «tarbiyalanib», shakllanib, barkamollashib boradi.

### **Demokratik jarayonlar: dastlabki saboqlar**

XX asr insoniyat tarixida juda katta hodisalarni keltirib chiqargani bilan alohida o'rin egallamoqda. XXI asr jahon siyosatida yangi davrni – yuksak ma'naviyatga tayangan, aql-idrokka suyangan, eng chigal muammolarni hal etishda ham tafakkur kuch qudratini ko'rsatish davrini boshlab bermoqda.

Tarix nuqtai-nazaridan qaraganda, kuni kecha mustaqillikka erishgan O'zbekiston ikki asr oraliq'ida sertashvish va muammolar qurshovida qolgan eski dunyoga yangicha tafakkur, voqea hodisalarga yangicha yondashish, aniqrok qilib aytganda, sharqona donishmandlik va sharqona munosabatlar ustunligini ko'rsatib, o'zligini namoyon etmoqda.

Darhaqiqat, tarixan nihoyatda qisqa davrda – mustaqillik yillarida O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'z o'rnini va o'z nufuziga ega bo'ldi. Dunyo muammolarini hal etishda «o'zbek modeli» vujudga keldi.

Islom Karimov, O'zbekiston hukumati eski dunyoning yangidan-yangi muammolarini butunlay yangi nazar bilan o'rganadi. Uning o'zi shaxs sifatida jahon siyosiy maydonida mutloq yangi hodisa bo'lgani uchun ham dunyo mojarolarini yangicha tafakkur bilan idrok qilish, uni yangicha tushunish, butunlay yangi yo'nalishlarga burib yuborish yo'lini tutdi. Xuddi shunday yondashuv Islom Karimovning jahon siyosatidagi o'ziga xos yo'lini, milliy davlatchilikning nodir xususiyatlarini, qolaversa, dunyoviy muammolarni hal etishda va insoniyat taqdirini belgilashda o'zbek modelining ta'siri tobora oshib borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 23 fevralda bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida Birinchi Prezident Islom Karimov mamlakatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, inson HUQUQLARINI kafolatlash, eng insonparvar, adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish xususida gapirar ekan, «O'zbekiston XXI asr ostonasida» dasturini ishlab chiqish zaruriyati haqida alohida to'htalgan edi. Oradan



ko‘p utmay ana shu keng tarmoqli dastur Islom Karimovning o‘z tashabbusi bilan yaratildi. «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» deb nomlangan yirik ilmiy, nazariy, tahliliy asar O‘zbekiston davlat siyosatining bosh dasturi sifatida dunyoga keldi.

Birinchi Prezident Islom Karimov demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish xususida gapirar ekan, dunyo muammolarini, dunyo tajribalarini, insoniyat taraqqiyoti davrida to‘plangan ijobiy xulosalarni chuqur o‘rganadi va unga o‘ziga xos baho beradi. Jumladan, u bugun jahon siyosatida har qanday zo‘ravonlik va kuch ishlatishdan, har qanday qurol-yarog‘ va tazyiqlardan ustun keladigan tafakkur dunyoga kelayotganini, «zo‘r bo‘lsang, o‘zingni aqling bilan ko‘rsat» qabilida ish ko‘rsatish vaqti kelganligini boshqalardan ko‘ra tezroq angladi, boshqalardan ko‘ra chuqurroq tushundi. Endi borgan sari ochiqlik, yuzma-yuz turib fikrlashish, muammolarni muzokaralar yo‘li bilan hal etish va ana shu muzokaralar paytida sog‘lom aql-idrok tantanasiga erishish zarurligini ko‘rsatib bermoqda.

Birinchi Prezident Islom Karimov mazkur kitobida mustamlakachilik va irqiy kamsitishlikning yo‘q qilinganligi, sotsializm va kommunistik mafkuraning zo‘ravonlik da‘volari barbod etilganligi, jahon xaritasida yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lganligi, mintaqalararo munosabatlarda muvozanatning o‘zgarib ketganligi, aniqrok qilib aytganda, jahon taraqqiyotida Osiyo qit‘asi mamlakatlari rolining oshib borayotganligi XXI asr ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining o‘zgarib borishiga sabab bo‘lishini chuqur tahlil etadi.

Muallif nazarida demokratik taraqqiyotning turli qadriyatlari, tamoyillari va me‘yorlari takomillashib, bir-birini boyitib, ommabop tus olmoqda. Endi ana shu qadriyatlar yer yuzining turli mamlakatlarida turli xalqlar va millatlarning yagona, umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlariga aylanmoqda.

Muallif demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida fikr yuritar ekan, quyidagilarni muhim omil sifatida ko‘rsatib beradi.

Birinchiidan, Birinchi Prezident Islom Karimov tasavvurida «Fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘z-o‘zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi». Demak, jamiyatda eng avvalo qonun ustuvor bo‘lishi, barchaning qonun oldida tengligini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Ana shunda fuqarolarning huquq va erkinliklari to‘la ta‘min etilishiga imkon yaratiladi.

Har qanday kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmaydi va inson hayoti to‘la kafolatlanadi.

Demokratiya siyosiy va huquqiy hodisagina emas, ayni paytda u yuksak ma‘naviyat, boy madaniyat, shaxs kamoloti bilan bog‘liq bo‘lgan, har bir fuqaro ma‘naviy-axloqiy va ruhiy holatini belgilaydigan oliy qadriyat. Muallif demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish xususida gapirar ekan, demokratiya erkinliklarini, jamiyat ma‘naviy qiyofasini va shaxs ozodligini ana shunday yaxlit holda, bir butun jonli organizm shaklida tasavvur etadi.

Ikkinchidan, demokratiyani chuqurlashtirish omillaridan biri sifatida ko‘p partiyaviylik haqida alohida to‘xtaladi va o‘z fikrini aniq, lo‘nda qilib o‘rtaga tashlaydi. Hech qachon partiyalar soni demokratiya ko‘lamini, miqyosini, darajasini va qadriyatlarini to‘la-to‘kis belgilay olmasligini ko‘rsatib beradi. Turli ijtimoiy guruhlar manfaatini himoya qila oladigan turli partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari o‘z faoliyat doirasidagina o‘z a‘zolari manfaatini himoya qilishi mumkin, xolos. Biroq, umumiy manfaat – xalq, jamiyat, mamlakat manfaati singari eng oliy va eng qimmatli ehtiyojlar ham borki, bu barcha siyosiy partiyalar g‘oyalari va mafkuralarining umumiy yig‘indisidan, turli va xilma-xil qarashlarning uyg‘unligidan kelib chiqadi. To ana shunga erishilmas ekan, demokratiya shunchaki rusumga aylanib qolaveradi. Ana shunday nuqtai-nazardan kelib chiqib Islom Karimov: «Partiyalarning paydo bo‘lishi, ularning soni, dasturi, yo‘l yo‘riqlari o‘ziga xosligi va hokazolar esa ijtimoiy manfaatlar yig‘indisi va jamlanishi orqali tabiiy yo‘l bilan belgilanmog‘i kerak. Siyosiy partiyalar mavjud bo‘lishining asosiy va birdanbir printsiipi davlatning konstitutsiyaviy me‘yorlarini hurmat qilish va ularga rioya etishdan iborat bo‘lmog‘i lozim», deydi.

Uchinchidan, muxolifat haqida. Prezident tasavvurida muxolifatning mavjudligi demokratik jamiyat uchun zaruriy hodisa va normal holatdir. Biroq, bu shaxsiy manfaatlar zaminidan unib chiqqan, o‘z orzu-umidlariga erishish uchun intilgan yoki jamiyatning orzu qilingan amallaridan mahrum etilgan bir hovuch norozi, nolinchoq shaxslaridan iborat bo‘lgan alamzadalar «armiya»si emas, aksincha, tashkiliy jihatdan rasmiylashgan, huquqiy maqomga ega bo‘lgan, Konstitutsiya va amaldagi qonunlarga bo‘ysunib yashashni turmush tarziga aylantirgan, o‘z hatti-harakati bilan davlat va jamiyatdagi barqarorlikka mas‘ul bo‘lgan yuksak darajadagi siyosiy madaniyat ko‘rinishidir.

Haqiqiy muxolifat tom ma‘noda davlat va jamiyat taraqqiyotiga yordam beradigan, hukumat faoliyatining takomillashishiga ko‘maklashadigan, konstruktiv, ilmiy va amaliy jihatdan asosli bo‘lgan,

hayotiy jihatdan xalq tomonidan maqullangan xulosalar bilan yashaydi. Boshqacha bo‘lishi mumkin emas.

To‘rtinchidan, jamoatchilik fikrining qay darajadiligini bilish, uni shakllantirish va takomillashtirish jamiyat va shaxs, davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirishda muhim omildir. Zotan, jamoatchilik fikri ayni jamiyat siyosiy-ma’naviy qiyofasini belgilaydi va davlat siyosatining nechog‘lik hayotiy va asosligini, xalq manfaati va ehtiyojlariga qanchalik esh bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Ana shu ma’naviy-ruhiy va siyosiy iqlimni barqarorlashtirishda siyosiy partiyalarning roli benihoya katta. Shuning uchun Islom Karimov «Partiyalarning paydo bo‘lishi, ularning soni, dasturi, yo‘l-yo‘riqlari o‘ziga xosligi va hokazolar esa ijtimoiy manfaatlar yig‘indisi va jamlanishi orqali tabiiy yo‘l bilan belgilanmog‘i kerak. Siyosiy partiyalar mavjud bo‘lishining asosiy va birdan-bir printsipli davlatning konstitutsiyaviy me‘yorlarini hurmat qilish va ularga rioya etish... partiyalar va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish katta ahamiyatga ega. Bunda ommaviy axborot vositalari rolini oshirish zarur. Ayniqsa, o‘tish davrida, tub islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda turli toifa, saviya va dunyoqarashga ega bo‘lgan xalq fikrini bir nuqtaga jamlash, uni asosiy yo‘nalishga burib turish islohotlar taqdirini xalq qiladigan eng muhim omillardan biridir. Shuning uchun ham matbuotga munosabatni o‘zgartirish, uning jamiyatda tutgan o‘rni va rolini aniqlash, “to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga kutarish zarurdir», deb alohida uqtiradi.

Albatta, jamoatchilik fikrini shakllantirish, uni ijtimoiy va siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta‘minlashda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish zarur. Biroq hayot haqiqati, mantig‘i va falsafasining yana bir muhim jihati bor. Bu bevosita so‘z va fikr erkinligining me‘yori, demokratik jarayonlarning tabiiy Harakati yoki aksincha, uni sun‘iy yo‘l bilan tezlashtirish holatlari bilan bog‘liq bo‘lgan jiddiy hodisa. Darhaqiqat, demokratiyaga haddan tashqari ruju qo‘yish, unga ortiqcha erk berish jamiyatni anarxiyaga olib keladi. Demokratik anarxiyaning oldini olish uchun kuchli davlat kerak. Buning uchun esa hokimiyatning barcha tarmoqlarini kuchaytirish lozim. Chunonchi, kuchli ijro hokimiyati, kuchli sud hokimiyati va kuchli qonunchilik hokimiyatini yo‘lga qo‘yish lozim.

Masalaning ikkinchi tomoni ham bor, aholi dunyoqarashini, uning ma’naviy-ruhiy ehtiyojlarini hamda jamiyat siyosiy qatlamlari imkoniyatlarini hisobga olmasdan demokratiyani zo‘rlab joriy etish demokratik diktaturaga olib keladi. Tabiiyki, demokratik diktatura, demokratik totalitarizm demokratik tamoyillarning umuminsoniy

qadriyatlarga daxldor bo'lgan mezonlari mazmunini pasaytiradi. Unga monelik qiladi.

Agar siyosat haqiqiy xalqchilik, barqarorlik, milliy qadriyatlarga daxldorlik kasb etsa, o'z o'zidan tabiiy ravishda demokratik shakl va mazmunga ega biladi. Bunday siyosat xalq taqdirini, turmushi va kelajagini kafolatlagan, uning yashash erki va butun ozodligini ta'minlagan bo'ladi. Zotan, uning zamirida sof umuminsoniy qadriyatlar va shaxs barkamol turmush tarzining to'la kafolati mavjuddir.

Taniqli davlat va siyosat arbobi Cherchill demokratiya «hokimiyat boshqaruvnning eng yaroqsiz shakli, lekin insoniyat hozircha undan maqbulroq shaklini topa olganicha yo'q», deb aytgan edi.

Siyosatshunoslarning ayrimlari buni paradoks sifatida tushunishadi. Biroq, demokratiyaning bunday Cherchillcha talqinining ham mantig'i bor.

Xalqimizda «qars ikki qo'ldan chiqadi» degan naql bor. Yoki odatda ikki va undan ko'p g'oyalar mavjud joydagina o'zaro kurash, fikrlar xilma-xilligi va qarama-qarshiligi yuz beradi. Deylik, yer yuzidan sotsializmning yemirilishi bilan kapitalizm o'z qiymatini yo'qotdi. U umrini o'tab bo'lgan eski mafkuraga aylanib qoldi. Ikki qarama-qarshi tomonini biri yuqolsa, ikkinchi tomon o'z muvozanatini yo'qotishi tabiiy hodisa. Ana shu mantiqdan kelib chiqib ham aytish mumkinki, hozir hech qanday «izm» larning qiymati qolmadi.

Xo'sh, totalitarizm ham, diktatura ham butunlay barbod etilgach, inson ozodligi va yashash erki to'la ta'min etilgach, u qonunlar bilan kafolatlangach, demokratiyaga ehtiyoj qoladimi? Demokratiya bunday sharoitda odamlarning dam, jamiyatning ham qon-qoniga singib ketgan bo'ladi. Ana shu xulosalardan kelib chiqib aytish mumkinki, demokratiya bu – umuminsoniy qadriyatlar tantanasining ostonasidir!

Agar yaponlardan «Nimaga sizlarda demokratiya haqida munozaralar yoq» deb so'rasangiz, ular «Biz normal yashayapmiz. Bu demokratiya emasmi?» deyishadi. Chunki ular uchun demokratiya kundalik hayotning oddiy xususiyatiga aylanib qolgan.

AQShda esa demokratiya milliy, an'anaviy ramzga aylangan. Bu haqdagi munozaralar tor ilmiy doiralardagina dunyoning boshqa mintaqalari bilan qiyosiy tarzda o'rganiladi, xolos.

Shunday hayotiy haqiqat borki, faqat toza havoga muhtoj odamgina toza havo yetishmasligini muammo qilib ko'taradi. Olamga jar soladi. O'ziga o'xshagan odamlar orasidagina munozaralar, asabiy tortishuvlar avj oladi. Unga yetishgach, kishini hayratga soluvchi osoyishtalik paydo bo'ladi va u kundalik turmushning oddiy holatiga aylanib qoladi.

Eskicha fikr yuritish, eskicha tafakkur tarzi hamma vaqt yangilikning yo‘lini to‘sadi. Birinchi Prezident Islom Karimov «Eski sarqitlardan judo bo‘lish dunyoqarashlar, psixologiyalar, turli da‘volar o‘rtasidagi ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin tinkani quritadigan kurashlar bilan birga bormoqda. Hayotning o‘zi ana shu dunyoqarashlar, psixologiyalar, da‘volar orasidan o‘tishga majbur qilmoqda», deydi. Darhaqiqat, bugun O‘zbekiston ana shunday murakkab, ziddiyatli bir davrni kechirmoqda. Bu kurashlar qanchalik qiyin bo‘lmasin, eskicha tafakkurni sindirish, yangilikni qabul qilish qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin, ayni paytda u millionlab kishilarni o‘ziga ergashtirib olmoqda. Kelajakka qat’iy ishonch bilan qaralmoqda.

Jamiyatni bir holatdan ikkinchi holatga o‘tkazishdek tub islohotlar hech qachon oson kechmagan. Ana shunday tarixiy jarayonlarda O‘zbekistonda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish va jahon tajribasini boyitishda yangi «o‘zbek modeli» vujudga kelmoqda.

### **Demokratiyaning yangi davri**

Mamlakatimizda tub islohotlarni bosqichma bosqich amalga oshirish tamoyillarining joriy etilishi avvaliga ayrim muxoliflarimizga unchalik ham xush kelmagan edi. Ular buni sustkashlikka, ma‘muriy buyruqbozlik tuzumining illatlariga, yangi hokimiyat demokratik o‘zgarishlarga qodir emasligiga yo‘yishdi.

Aslini olganda, islohotlarni inqilobiy yo‘l bilan amalga oshirish bizning hayot va tafakkur tarzimizga butkul zid narsadir. Bunday yo‘l tutilganda jamiyatni mislsiz fojialarga olib kelishi bugun barchaga ayon. Hissiyot aqldan ustun kelgan joyda jamiyat inqirozga yuz tutishini, har qanday islohot esa asta-sekinlik bilan odamlar qalbi va ongi orqali amalga oshirilgandagina yuksak madaniy va ma‘naviy mazmun kasb etishini muxoliflar tushunishmas yoki tushuna turib, boshqacha maqsadlarni ko‘zda tutishar edi.

Oradan birmuncha vaqt o‘tgach, avvalo iqtisodiy islohotlarning dastlabki samaralari ko‘zga tashlana boshladi. Bu davlat mulkini xususiy lashtirishdan tortib, pul va bank kredit tizimini butunlay yangi izga solish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish, ishlab chiqarishni tubdan o‘zgartirish, sanoatni yangi, ilg‘or zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlashgacha bo‘lgan va boshqa jihatlarni qamrab olgan islohotlarni o‘zida mujassam etadi. Ayni ana shu yangilanish jarayonida «o‘zbek modeli» vujudga keldi.

Xo‘sh, O‘zbekistonning tub islohotlardagi o‘z taraqqiyot yo‘li faqat shulardan iboratmi?

Bugun ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida butunlay yangicha munosabatlar qaror topdi. Jamiyat taraqqiyotining aholi ma'navay-ruhiy, siyosiy-madaniy qarashlaridan kelib chiqqan o'ziga xos yondashish usuli shakllana boshladi. Jumladan, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda ham muhim bosqich, yangi davr boshlandi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanok Islom Karimov huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish masalasini dolzarb vazifa qilib o'rtaga tashladi. Ayni ana shu tamoyillar asosida jahon davlatchiligi eng ilg'or tajribalariga mos keladigan, dunyo tan oladigan, inson huquqlari har jihatdan kafolatlanadigan jamiyat barpo etish ko'zda tutilgan edi.

Ma'lumki, XX asr 90-yillarining boshlarida mamlakat mustamlaka tuzumdan meros bo'lmish og'ir ijtimoiy, iqtisodiy po'rtanalar girdobida qolgan, demokratiya «O'yin»lari avj olgan, aholining ayrim guruhlarida ehtiroslar junbushga kelgan bir payt edi. Biz bu xususda kitobimizning avvalgi sahifalarida imkon doirasida to'xtalib o'tdik. Ana shu ogir vaziyatdan eson-omon chiqib olish, Islom Karimov iborasi bilan aytganda «hech qanday larzalarsiz», qon to'kmasdan, mamlakatda barqarorlikni saqlab turgan holda astasekinlik bilan hayotni izga solish yo'li tanlab olindi va qat'iyat bilan amalga oshirildi. «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaslik» singari hayot sinovidan o'tgan tajribalar yo'lidan borildi. Bu g'oya islohotlarning hamma sohalariga – huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlariga tegishli edi. Unda siyosatning insonparvarlik mazmuni, har bir fuqaro, har bir tirik jon hayotining daxlsizligini ta'minlashga mas'ullik, butun mamlakat tinchligi va osoyishtaligi uchun javobgarlik hissi mujassamlashgan edi.

Islom Karimov o'sha paytdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishi xususida fikr yuritar ekan, jumladan, shunday degan edi: «Dastlabki kezlarda O'zbekistonni sustkashlik va konservatizmga ayblashardi. Ammo O'zbekiston bugungi kunga kelib, bozor o'zgartishlarining teranligi, ijtimoiy yangilanishning sur'atlari va taraqqiyoti yuzasidan sobiq sovet hududidagi aniq dasturga ega bo'lmay turib, asossiz va mulohazasiz islohotlar jarayonini tezlashtirishga uringan, besabrlik qilgan, soxta obro'ga intilgan ko'pgina respublikalardan oldinlab ketdi.

Ming afsuski, ana shu yuzaki urinishlarning hammasi pirovard natijada islohotlarning o'zini ma'lum darajada obro'sizlantirdi. Ularga ortiqcha siyosiy tus berdi. Jamiyatdagi ichki qarama-qarshilikni kuchaytirdi. Bu bor gap va undan hech qayoqqa qochib qutulib bo'lmaydi».

Mana, oradan yillar o'tib, toshqinlar tindi, atay loyqalatilgan suvlar tiniqlashdi, bulutlar tarqaldi. Haqiqiy hayot manzarasi aniq-ravshan ko'zga

tashlandi: siyosatning o‘tkinchi hissiyot va tuyg‘ulardan xoli bo‘lgan, aql-idrok va tajribaga tayangan amaliy qiyofasi namoyon bo‘ldi, Aytish mumkinki, shu holning o‘zidoq yangilikni evolyutsion yo‘l bilan amalda joriy qilishning, qat’iy intizomga tayangan demokratiyaning ma’naviy qiyofasi edi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq, birinchi sessiyasida (1995 yil 23 fevral) Islom Karimov tomonidan demokratiya haqidagi ilmiy-nazariy jihatdan asosli, hayotiy jihatdan amaliy xulosalar o‘rtaga tashlandi. Davlat siyosatining demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishga doir strategiyasi ishlab chiqildi.

Bugunga kelib hammamizning demokratiya haqidagi tasavvurlarimiz birmuncha kengaydi. U hayotimizning muhim va ajralmas qismi, ma’naviyatimizning ko‘zguosi ekanligini tushundik. Hurriyat shunchaki so‘zbozlik va tadbirbozlik, guruhbozlik yoki ko‘chakuyda ayyuhannos solib qichqirish emas, ta’bir joiz bo‘lsa, haqiqiy demokratiya – qonunlar diktaturasi!

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996 yil 29 avgustda bo‘lib o‘tgan VI sessiyasi ijtimoiy hayotimizda demokratik o‘zgarishlarning yangi davrini boshlab berdi va bu jarayonlarni chuqurlashtirish tamoyillarini yangi bosqichga ko‘tardi. Buni nimalarda ko‘rish mumkin?

Birinchi, mustaqillikning dastlabki yillarida, avvalo, odamlar yangicha turmush tarziga ko‘nikma hosil qilishlari kerak edi. Islohotlarning mazmun-mohiyatini anglab, mustaqil taraqqiyot afzalliklari va beqiyos imkoniyatlarini tushunib olishlari lozim edi. Busiz hech qanday natijaga erishib bulmasdi. Chunki har qanday sharoitda, har qanday jamiyatda ham inson asosiy hal qiluvchi omil, jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Shuning uchun ham hayotdagi yangilanishlar dastlab har bir fuqaroning qalbidan, ongi va tafakkuridan o‘tkazilishi lozim.

O‘zbekistonda, iqtisodiy islohotlarda bo‘lgani kabi, demokratiyaga munosabatda ham shu tarzda yo‘l tutildi. Oldin jamiyat barqarorligini ta’minlash, odamlarni demokratik hayot tarziga o‘rgatish, ularga demokratik tamoyillarni tushuntirish va shu tariqa demokratik jarayonlarni faollashtirib, ularni turmushga joriy etib borish zarur edi.

Aslida, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘li tanlangandayoq demokratiyani joriy etishning strategik dasturlari ishlab chiqilgan edi. Bu dasturlarni amalga oshirish uchun nazariy faoliyatni kuchaytirish, tafakkur va tushunchalarni o‘zgartirish yo‘li bilan odamlarni ham, jamiyatni ham demokratik islohotlarga tayyorlash taqozo etilardi.

Ikkinchidan, jamiyatni tubdan yangilash, turmushimizning barcha sohalarida keng miqyosli islohotlarni amalga oshirish va shu asosda

demokratik tamoyillarni turmush tarziga aylantirish uzoq davom etadigan uzluksiz jarayon. Bu kundalik hayotimiz bilan bog'liq bo'lgan va umuman mamlakat taqdirini belgilashda izchillikni taqozo etadigan, sobitqadamlik bilan turli qarshiliqlar va to'siqlarni yengib, eskicha qoliplarni bartaraf etib, yangicha tafakkur tarzini joriy qilishni o'z ichiga olgan murakkab jarayon.

Qolaversa, jamiyatni demokratlashtirish bu iqtisodiy islohotlardan tortib huquqiy, siyosiy va ma'naviy yangilanishlarga bevosita tayangan voqelikdir. Sessiyada ta'kidlanganidek, «demokratiya jarayonining ayni ana shu huquqiy, siyosiy va ma'naviy jarayonlari iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolmoqda». Buning sababi, Islom Karimov aytganidek, «talay muhim qonunlar tegishli qonun hujjatlari bilan mustahkamlanmaganligida, qabul qilingan huquqiy me'yorlar va kafolatlarni ro'yobga chiqarishning aniq mexanizmi yetarli darajada ishlab chiqilmagan»idadir.

Binobarin, bu holat hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tizimlari hamda jamoat tashkilotlarining faoliyatini kengaytirishni, ularning ta'sirchanligi va samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Yoki, aniqroq qilib aytganda, ular faoliyatini inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning butun bir tizimini yaratishga, pirovard maqsadlarni inobatga olgan uzoq muddatli strategik dasturlarni ishlab chiqishga, uni hayotga izchillik bilan joriy etishga va shu yo'l bilan odamlar tafakkurida o'zgarish yasab, jamiyat ma'naviy qiyofasini shakllantirishga safarbar etish lozimligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, qonun ustuvorligiga erishish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash lozim. Buning uchun, eng avvalo, huquq tartibot ishlarini, qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni xalqaro mezon va andozalarga moslashtirish zarur. Hozirgi paytda jahonda mazkur masalaga doir yetmish xil andoza mavjud. Bularning hammasi jahon hamjamiyatida tan olingan tamoyillar hisoblanadi. O'zbekiston hozir ana shu andozalardan o'n beshtasiga qo'shilganligi uning juda qisqa muddatda demokratiyani turmush tarziga va tobora shakllanib boradigan jonli hodisaga aylantirish borasida erishgan katta yutug'idir.

Islom Karimov mustaqillik davrida bosib o'tilgan yo'l, to'plangan tajribalar va imkoniyatlarni tahlil qilar ekan, muhofaza qilish organlari faoliyatini qaytadan ko'rib chiqish, uni jahonning eng ilg'or tajribalari bilan boyitish kerakligini uqtiradi.

Sessiyada inson huquqlarini kafolatlash va bu sohadagi me'yoriy hujjatlarni amalga oshirish ustidan nazoratni kuchaytirishning eng zamonaviy shakllarini vujudga keltirish zarur, deb ta'kkidlandi. Jumladan, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili instituti hamda huquqparvar jamoa tashkilotlarining mavqei va maqomini ko'tarish, inson



huquqlarini himoya qilish vakili – Ombudsman instituti, Jamoatchilik fikri instituti, Amaldagi qonunchilik Monitoringi instituti, Inson huquqlari milliy markazi singari tashkilotlar ishini rivojlantirish, takomillashtirish hamda boshqa bir qator institutlarni tashkil etish zarurligini ko‘rsatdi.

Islom Karimov sessiyadagi maruzasida masalaning ana shu jihatiga alohida e‘tibor qaratdi: «Aholida inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish borasida yangi qadriyatlar va ko‘nikmalarni shakllantirish, pirovard natijada esa inson huquqlariga hurmat ehtiromni va ularga rioya etishni umummillat darajasida rivojlantirishga qaratilgan madaniyatni yuzaga keltirish g‘oyat muhimdir. Insonning o‘z huquqlari va majburiyatlaridan yaxshi xabardor bo‘lishi shaxs huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlarini ruyobga chiqarishning eng asosiy sharti bo‘lib qolishi kerak».

Bu vazifa odamlarning tafakkurida o‘zgarish yasash, ularning o‘z haq-huquqini chuqurroq anglab olishiga yordam berish, umuman olganda, har bir fuqaroning huquqiy bilimlari saviyasini oshirishni taqozo etadigan jarayon. Zotan, o‘z haq-huquqini aniq bilgan, o‘zini himoya qilishga qodir shaxs jamiyat oldidagi burch va majburiyatlarini ham chuqur his etadi. Fuqaroning huquqiy ongi va siyosiy bilimi qanchalik yuqori bo‘lsa, davlat va jamiyat oldidagi majburiyatini hamda fuqarolik mas’uliyatini shunchalik chuqur anglaydi. Ana shunday holatning o‘zi shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning uyg‘unlashgan, barkamol ma’naviy qiyofasini belgilaydi.

To‘rtinchidan, aholining siyosiy faolligi bevosita uning jamiyat ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga qanchalik daxldorligi bilan belgilanadi. Agar fuqaro siyosiy va ijtimoiy jihatdan faol bo‘lsa, u o‘z o‘zini boshqarishga va shu orqali jamoa harakatini shakllantirishga, uning mazmunini chuqurlashtirishga qodir bo‘ladi. Yangilanayotgan jamiyat aholini kundalik tashvishlar va har xil ikir-chikirlar girdobidan olib chiqadi, uni hayotga teranroq va sergakroq qarashga o‘rgatadi. Agar har bir fuqaro hayotda o‘zini ana shunday tutsa, ana shunday qobiliyatga ega bo‘lsa, demokratiya o‘z -o‘zidan jamiyatning tarkibiy qismiga aylanadi, ijtimoiy turmushimizda mustahkam qaror topadi. Bunday hodisani Islom Karimov «Bir so‘z bilan aytganda, mustaqillik, hurriyat xalqimizga nihoyatda qimmatga tushgan. Hurriyatning bahosi doimo avlodlar taqdiri, iymoni, vijdoni bilan o‘lchanadi», deb to‘g‘ri baholagan.

Aholining siyosiy madaniyatini oshirish, uning jamiyat rivojida tutgan roli va mavqeini ko‘tarish ko‘p jihatdan ko‘p partiyaviylik tizimini shakllantirish va uning faoliyatini chuqurlashtirish bilan belgilanadi. Ayni paytda mamlakatimizda «Jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi qonun amal qilmoqda. Hozir shu qonun doirasida mamlakatimizda beshta partiya, bitta

xalq harakati, kasaba uyushmalari, jami ikki yuzdan ortiq jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishda bu tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, Islom Karimov ta'бири bilan aytsak, «jamiyatimiz tuzilmalarida muvozanatni saqlaydigan kuchli ommaviy, jamoat birlashmalari bo'lmas ekan, davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlarida o'zboshimchalik, volyuntarizm, avtoritar tafakkur va boshqaruv apparatining korruptsiyasi singari illatlar paydo bo'lmasligiga jiddiy kafolat ham bo'lmaydi».

Beshinchidan, demokratiyaning yana bir belgisi jamiyatda muxolifatning mavjudligidir. Ma'lumki, bizning muxolifat haqidagi tushunchalarimiz hali-hamon jo'n va sodda. Chunki biz uchun muxolifat yangi davrning mahsuli sifatida istiqlol arafasidagina tilimizda paydo bo'ldi. Buning o'ziga xos sabablari bor. Avval Rossiyada demokratiya va so'z erkinligining avj olishi, aniqrogi, junbushga kelishi, uning ibtidoiy va «yovvoyi» shaklining Sharq aqidalariga zid holda Markaziy Osiyoga «bostirib» kirishi ana shu omillardan biridir.

Qadimda Sharq davlatchiligida adolat tamoyillarining ustun turganligi, qonun oldida barchaning tengligi, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlarning tizimi mavjudligi jamiyatda barqarorlikka asos bo'lgan. Umuman, Sharqda axloq kategoriyasining odamlar turmush tarzida ham, davlat siyosatida ham yetakchi rol o'ynagani, unga hamma bo'ysunib yashagani uchun muxolifatga ehtiyoj ham yuk edi. Qolaversa, muxolifat tushunchasi jahon davlatchiligi tajribasida ham XX asr «ixtirosi» sifatida demokratik jarayonlarning tobora chuqurlashishi sharoitida vujudga kelgan hodisadir. Totalitar tuzum manfaatiga mos kelmaydigan bu jarayonning sobiq ittifoq hududiga kirib kelishi qat'iy man qilingan edi. Shuning uchun ham biz bu zamonaviy demokratik tushunchalardan uzoqda yashaganmiz.

Muxolifat mavjud siyosiy kuchlarni taroziga solib turadigan, jamiyat taraqqiyoti muvozanatini saqlab turadigan, uning ravnaqiga xizmat qiladigan yangidan yangi g'oya va fikrlarni ishlab chiqishga da'vat etadigan ijobiy voqelik. Biroq, biz ana shu voqelikning haqiqiy mazmunini kashf etolganimiz yoq.

Ochig'ini aytganda, bizda haqiqiy ma'nodagi muxolifat bo'lmagan. Tog'ri, bir paytlar – XX asr 80-yillarining oxiri va 90-yillarining boshlarida demokratiya «o'yinalari avj olgan paytda bir guruh kishilar muxolifat qiyofasida maydonga chiqishdi. Ularning ayrimlari shon-shuxrat va amal ilinjida bo'lsa, bir qismi sovet davrida yuqori partiyaviy mansablarda ishlab, imtiyozlar mazasiga o'rgangan va keyinchalik quruq qolib, yangi niqobda yana hokimiyatni qumsab qolgan – alamzada kishilar edi. Ularga

ergashganlarning aksariyati esa hayotdan norozi bo'lgan, turmushda o'z o'rnini topolmagan, jamiyatga bir narsa berishdan ko'ra undan ko'proq narsa olishga ishtiyoqmand odamlar edi.

Umuman olganda, bu guruhlarni muxolifatchilar emas, balki hayotdan norozilar, deb atash mumkin. Bundaylar esa, taassufki, har qanday sharoitda, har qanday jamiyatda va hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham bo'lgan va hozir ham mavjud. Bu – tabiiy hodisa. Chunki mavjud siyosat, tartib qoidalar, qonunlar qaysidir jihati bilan cheklangan bo'ladi. Ular aholi barcha tabaqasining talab ehtiyojlarini tola qamrab ololmaydi. Qisqa qilib aytganda, tartib intizomning chegarasi bor, ehtiyojlar esa nihoyasizdir. Ana shu holatning o'zi qonunlarni doimo takomillashtirib, qo'shimchalar bilan boyitib borishni taqozo etadi. Demak, hech qachon mukammal demokratik hayot mavjud bo'lmaydi. U doim fuqarolar talabi, hayot ehtiyoji va yangidan yangi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'sirida o'zgarib, rivojlanib, boyib boraveradi.

Shu bois I.Karimov muxolifat tushunchasi xususida gapirar ekan, «tushunchaning asl ma'nosini aniq anglab olishimiz lozim. Biz siyosiy muxolifatni muqobil muxolifat sifatida tushunamiz. Turmushimizning hamma sohasida muqobillik bo'lishi lozim. Shu sababli muxolifat haqida so'z borar ekan, eng avvalo, islohotlar o'tkazishga, jamiyatning taraqqiyot va yangilanish yo'lidan olg'a borishi bo'yicha muqobil dastur turlarini taklif etishga doir amaliy muxolifatni nazarda tutamiz», degan g'oyani ilgari surdi.

Darhaqiqat, jahon demokratik jarayonlari huquqiy maqomi va konstitutsiyaviy kafolatlari mavjud bo'lgan, o'z faoliyatini jamiyat taraqqiyoti va fuqarolar osoyishtaligi asosida qurgan, uning butun mas'uliyatini zimmasiga olgan, davlat ravnaqini ta'minlashga xolisona ko'maklashadigan, har tomonlama – ilmiy va hayotiy jihatdan asoslangan dasturlarga ega bo'lgan muxolifatni tan oladi. Taraqqiy topgan mamlakatlarda va demokratik tamoyillar rivojlangan davlatlarda muxolifatga ana shunday ko'z bilan qaraladi. «Biz rasmiy hokimiyat bilan g'oyaviy va amaliy jihatdan raqobatlasha oladigan, amaliy takliflar kirita biladigan, jamiyatimizning turli siyosiy qatlamlari manfaatlarining ifodachisi tariqasida maydonga chiqqa oladigan muxolifatni ko'rishni istaymiz», deb uqtirar ekan, I.Karimov masalaga ana shu xalqaro talablar nuqtai nazaridan yondashadi, bu boradagi jahon tajribalariga tayanadi. Muxolifatchilikning hayotiy zarurati, mas'uliyati, burchi va majburiyati haqidagi adolatli mulohazalarni o'rta tashlaydi.

Oltinchidan, sessiyada hokimiyat bo'linishi tamoyillariga qat'iy amal qilish demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning muhim omili ekanligi

alohida ta'kidlab o'tildi. Bu, ayniqsa, o'tish davrida jamiyat boshqaruvini takomillashtirishga, uning barqarorligini ta'minlashga, fuqaro va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirishga zamin yaratadi.

Qonun chiqaruvchi organ jamiyatni qonunlar tizimi bilan ta'minlansa, ijro organlari bevosita ishlab chiqarishni takomillashtirish, joylarda qonunchilikni joriy etish, huquqiy demokratik davlat tizimini mustahkamlashni ta'minlaydi.

Sud hokimiyati esa insonparvar fuqarolik jamiyati ma'naviy qiyofasini belgilaydigan muhim omillardan hisoblanadi. Bizda endigina mustaqillik davriga kelib sud o'z vazifasini bajarishga kirishmoqda, o'z maqomi doirasida faoliyat ko'rsatishni tamoyilga aylantirmoqda.

I.Karimov sessiyada «Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatdan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim», deb alohida uqtirdi. Sud endi faqat jazolovchilik faoliyati bilan band bo'lmasdan, odamlarni himoya qiluvchi, haq-huquqini tiklashga yordam beruvchi insonparvar va adolatparvar tizimga aylanish yo'liga kirmoqda. Ana shundagina chinakam demokratik jamiyat vujudga keladi va uning hayotiyligi ta'minlanadi.

I.Karimov sud hokimiyatini isloh qilishga huquqiy demokratik davlatni barpo qilishning asosi sifatida qaraydi. Sud faoliyatini demokratiyalashtirishni esa xalq, maslahatchilari tizimini takomillashtirish, sud ishlarida keng jamoatchilik vakillarining faol ishtirok etishini ta'minlash orqali amalga oshirish zarur. Shunda demokratik jamiyat poydevori har tomonlama mustahkam bo'ladi.

Yettinchndan, biz-butunlay yangi tarixiy sharoitda yashayapmiz. Biz o'z hayotimizni qaytadan qurmoqdamiz. Jumladan, sud hokimiyati faoliyatida ana shunday yangilanishlar davrini boshdan kechiryapmiz. Endi uning tarkibini kengaytirish, yo'nalishlarini ko'paytirish, samarali tizimini shakllantirish darkor. «Shu maqsadda, deydi I.Karimov, transport va soliq sudlarini tuzish, xolis hakamlar sudlari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozim».

1993 yil sentyabrida qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi qonunda nazarda tutilganligiga qaramay, sudlar tarkibida hanuzga qadar ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudyalarning lavozimlari joriy etilmadi.

O'zbekiston sudyalari uyushmasini tashkil etish ham maqsadga muvofiq ko'rinadi. Bu uyushma Xalqaro sudyalarning uyushmasiga to'la huquqli a'zo bo'lishi mumkin».

Bularning barchasi huquqiy demokratik davlat ildizlarini chuqurlashtirishga, uni qudratli mexanizmga aylantirishga yordam beradi.

Davlat kuchli bo'lgan joyda taraqqiyot tezlashadi. Jamiyat ma'naviy jihatdan yuksaladi, siyosiy jihatdan yanada insonparvar va demokratik qiyofa kasb etadi.

Qonun barqaror bo'lgan joyda fuqarolarning erkinliklari, o'z o'zini boshqarish imkoniyatlari kengayadi, ichki salohiyatini yaqqol namoyon qilish, yaratuvchilik iqtidorini rivojlantirish sharoitiga ega bo'ladi. Fuqarolari o'z taqdirini o'zi belgilab, har bir kunini bunyod etish, kashf qilish, izlanish bilan o'tkazadigan mamlakatda, albatta, aholi ehtiyojlari qonun bilan kafolatlanadi. Davlat esa butun choralar bilan ana shu qonunlar harakatini nazorat qilib borish, uni yunaltirib turish, yo'l-yo'lakay «ta'mirlab», takomillashtirib borish singari muhim vazifani bajaradi.

Mazkur holatlarning barchasi bevosita fuqarolarning huquqiy bilimlarni nechog'lik egallashiga, o'z haq-huquqini anglab olishiga, mavjud qonunlar kafolatlab bergan imkoniyatlardan qanchalik foydalana olish darajasiga bog'liq Ikkinchidan, huquqshunos kadrlar sifatini yaxshilash, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish katta ahamiyat kasb etadi. I.Karimov essiyada shu masalalar haqida so'z yuritir ekan, huquqshunos kadrlarga ehtiyoj katta ekanligini alohida uqtirdi. Jumladan, bizda har yuz ming aholiga sudlar Germaniyadagiga nisbatan olti marta, advokatlar esa Amerika Qo'shma Shtatlariga nisbatan 55 marta kam ekanligini ko'rsatib o'tdi.

Bosh islohotchi – davlatning istiqbol rejaları va strategik dasturlariga to'xtalib, I.Karimov quyidagi xulosani bayon etgandi: «Shunday davlat va ijtimoiy tuzilma yaratish kerakki, unda kuchli markaziy hokimiyat O'z sa'y-harakatlarini mudofaa, davlat xavfsizligi va fuqarolarning xavfsizligi, tartib intizom, tashqi siyosat, valyuta, moliya, soliq tizimini shakllantirish, qonunlar qabul qilish va jamiyatning boshqa strategik vazifalarini amalga oshirish singari asosiy umum milliy vazifalarga qaratmog'i zarur.

Boshqa masalalarni hal etish esa asta-sekin markazdan joylarga, davlat hokimiyati organlaridan jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'z o'zini boshqarish organlariga o'tkazilishi lozim».

Ana shunday sharoitda jamiyatda demokratiya chuqurlashadi, fuqarolarning ijtimoiy faoliyati kuchayadi. Joylarda mahalliy o'z o'zini boshqarish organlari ishi bevosita barcha fuqarolarning ishtiroki asosida takomillashib boraveradi. Natijada odamlar o'zlarini jamiyatning muhim, yo'naltiruvchi kuchi ekanliklarini yaxshiroq anglay boshlaydilar. Ularning dunyoqarashi, maqsad va intilishlari bevosita jamiyat istiqbolini belgilaydi. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib, I.Karimov «demokratiya jamiyatning har bir a'zosi hayotining uzviy bir qismiga aylangan taqdirdagina

demokratiya hisoblanadi. Farzandlarimizni bolalikdan ayni shu ruhda tarbiyalab borish zarur», degan g‘oyani ilgari suradi.

Biz demokratik tamoyillarni chuqurlashtirishning uch omili xususida so‘zlab o‘tdik. Hokimiyat bo‘linishidagi tarmoqlarning har biri haqida alohida to‘xtaldik, qonun chiqaruvchi, ijro hokimiyati va sud hokimiyatining faoliyatlari yuzasidan fikr yuritdik. Ularning demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish borasida tutgan o‘rni va roli haqidagi mulohazalarimizni bayon etdik.

## **YANGI MING YILLIKDA JAHON SIVILIZATSIYASI ISTIQBOLLARI**

### **Hozirgi davrning global muammolari**

Insoniyat taraqqiyoti hech qachon va hech qaerda oson, to'siqsiz kechmagan. Har doim va hamma joyda kishilar oldida muayyan muammolar ko'ndalang bo'lib turgan. Bular bir tomondan tabiat stixiyasining natijasi sifatida namoyon bo'ladigan yer silkinishlari, suv toshqinlari, qurg'oqchilik, turli epidemik kasalliklar va hokazolardir. Kishilar ularning oldini butunlay ololmasalarda halokatli oqibatlarini kamaytirishga erishib borishadi.

Ikkinchi tomondan, bular inson faoliyati kechishining ayrim jihatlari natijasi bo'lganligidan ijtimoiy tarix davomida nafaqat e'tiborni o'ziga jalb etib turdi, balki u yoki bu darajada hal etib ham keldi.

Hozirgi zamonda mutafakkirlar va olimlar Yer sayyorasi miqyosida yagona sivilizatsiya qaror topayotganligi xususida tobora ko'proq gapirmoqdalar. Fan va amaliyotda bu g'oyaning mustahkam o'rin olishi bilan «globalizatsiya» atamasi qo'llanila boshlandi. Globalizatsiya sotsiumning barcha sohalarini qamrab olgan. Sanoat ishlab chiqarishi anchagina jihatlardan transmilliy korporatsiyalar nazorati ostidadir. Barcha mamlakatlar amalda yagona bozorga birlashgan desa bo'ladi. Internet tufayli Sayyoraning istagan joyi tezda turli soha yangiliklari bilan ta'minlanishi mumkin. Ko'rinadiki, insoniyat «umumiy uy», «umumiy taqdir» va, albatta, umumiy tashvishlarga ham ega bo'ldi. Buni payqagan Arnold Toynbi «XX asrda yalpi jahon tarixi boshlandi», degan edi.

Globalizatsiya ijobiy jihatlari bilan birga qator jiddiy muammolarni ham tug'dirdi. Ularning muayyan qismini «hozirgi davrning global muammolari» deb atash qabul qilingan.

Jahon miqyosida yuz berayotgan global jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda quyidagilar inson uchun dolzarb muammolar hisoblanadi:

Yer yuzida yalpi tinchlikni saqlash, termoyadro urushining oldini olish va adolatli xalqaro iqtisodiy tartibot o'rnatish;

Atrof-muhitni samarali muhofaza qilish (ekologik muammo);

aholi soni va tarkibi bilan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratilishi mutanosibligiga erishish (demografik muammo);

yer yuzi aholisini zarur oziq-ovqat va quvvat manbalari bilan ishonchli ta'minlash;

ochlik, qashshoqlik va loloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlanish va ulardan keyinda qolgan mamlakatlar o'rtasidagi keskin farqni bartaraf etish; xavfli kasalliklarni tugatish;

inson ma'naviy muhiti sofliqini ta'minlash (etikologiya muammosi) va boshqalar.

Mazkur muammolarning har biri u yoki bu darajada o'rganilgan. Biroq hamon oddiy mehnatkash insondan tortib olingacha, davlat va siyosat arbobidan tortib ruhoniy ulamogacha bu haqda fikr yuritmoqda. Global jarayonlar xalqaro anjumanlarda muhokama ob'ekti bo'lib qoldi. Davlatlar tuzgan shartnomalar va ular uyushgan turli tashkilotlar hujjatlarida bu narsa qayd qilinmoqda. Global muammolar barcha maslakdagi siyosiy guruhlar va oqimlar dasturida tegishli ravishda ifodalangan. Natijada ushbu muammolar atrofida turli-tuman g'oyalar, qarashlar va siyosiy ta'limotlar kurashi davom etmoqda.

Kelib chiqishi, mavjudligi va hal etilishi jihatlariga ko'ra global muammolarni uch guruhga ajratish mumkin:

Birinchisi – bu kishilar uyushgan jamiyatning tabiati, turli mintaqalar davlatlarining (masalan, Sharq G'arb, Janub Shimol, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar) xilma-xil manfaatlari majmui bilan bog'langan, boshqacha aytganda, baynal ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy o'zaro munosabatlar tug'dirgan muammolardir.

Ikkinchi guruhga inson va u mansub bo'lgan jamiyat tizimida yuzaga kelgan munosabatlarni ifodalaydigan muammolar kiradi.

Uchinchi o'z ichiga «jamiyat tabiat» tizimi doirasidagi munosabatlar tug'dirgan muammolarni oladi.

Global muammolarning bu guruhlari o'zaro bir-biridan farq qilsada, inson, uning hayot shart-sharoitlari va kelgusi rivoji jihatidan yaxlitlik, umumiylik kasb etadi. Ikkinchi umumiylik u yoki bu darajada hozirgi davrning bosh omili – fan-texnika taraqqiyoti bilan aloqadorlikda ko'rinadi. Fanda erishilgan kashfiyotlar tezda yangi texnologiyalar yaratishni ta'minlasa, o'z navbatida texnika rivojlanishi ham fanda yangi o'zgarishlarni sodir etishga jiddiy turtki bermoqda. Agar insoniyat yozuv ixtiro qilgunga qadar taxminan 3 million yil og'zaki aloqa qilgan bo'lsa, keyingi 5 ming yildagina kitob bosishni o'rgandi. Keyingi 500 yil ichida telefon, radio va televideniye ega bo'ldi, an'anaviy eshituv-ko'ruv vositalaridan kompyuterlarga o'tish uchun atigi 50 yilcha vaqt kerak bo'ldi. Bularning natijasi o'laroq, erishilgan kashfiyotlarni kim qanday maqsadlarni ko'zlasa, o'shalarga tatbiq etilmoqda. Bu esa global muammolarning yanada o'tkir, dolzarb bo'lib turishiga olib kelmoqda.



Tinchlik va urush muammolarining baynal ijtimoiy mazmuni tobora oshmoqda. Tinchlik xalqlar uchun bebaho ne'mat bo'lganidek, urush ham insoniyatning butun tarixi davomida uning doimiy yo'ldoshi bo'lib keldi. Yozma yodgorliklarning guvohlik berishicha, so'ngi 6 ming yil mobaynida Yer sharida 15 mingdan ziyod urushlar sodir bo'lgan. Shu davr ichida atigi 300 yilgina urushsiz kechgan. Amerikalik muallif R.Klarkning «Urush ilmi va tinchlik» kitobida keltirilishicha, 1820-1859 yillarda 92 ta urushda 800 ming (jami aholining 0,1%), 1860-1899 yillarda 106 ta urushda 4,6 million (0,4 %), 1900-1949 yillarda esa 117 ta urushshda 42,5 million (2,1 %) odam qirilib ketgan.

Bizning davrimizda ham xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar tarkibi, xalqaro siyosat mexanizmi, urushlarga tayyorgarlik ko'rish mexanizmlari va hokazolar o'zgarishsiz qolgan. Termoyadro raketa quroli to'planishi va tarqalishi avvalgi sharoitlar mantig'i asosida olib borildi.

Matematikaning so'ngi yutuqlari asosidagi hisob-kitob – modellash shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda to'plangan yadro zaryadlari portlatilsa, Amerika, Yevropa va Osiyodagi asosiy shaharlar yong'in ostida qolib ketishi, bir oydan so'ng yer ustidagi atmosfera harorati 1520 darajaga, Sibir markazi va boshqa ayrim mintaqalarda esa, 4045 darajagacha pasayib, uning aylanishi (sirkulyatsiyasi) mutlaqo o'zgarishi mumkin. Shimoliy yarim shardan janubga qarab nur o'tkazmaydigan qora qatlam butun sayyorani qoplab oladi. Chuchuk suvning barcha manbalari muzlaydi. Ekologiyaviy aloqalar buziladi, hosil halok bo'ladi. Yer ustida va okeanlarda hayot tugaydi. Bularning hammasi yadro quroli siyosat vositasi va, hatto, urush vositasi ham bo'lmay, balki insoniyat uchun o'z-o'zini halok etish quroli ekanligini ko'rsatadi.

Global muammo sifatida tinchlikni ta'minlash harbiy harajatlarni keskin kamaytirishni taqozo etadi. Negaki, insoniyat 1900 yildan beri harbiy ishga ajratilgan mablag'larni 30 martadan ko'prok oshirdi. U XX asrning 90-yillari boshiga kelib 500 milliard dollarga yetdi. Harbiy va aslaha sanoatida 60 million kishi faoliyat ko'rsatgan. Jumladan, muntazam qo'shinlarda 25 milliondan ortiq shaxsiy tarkib, 10 millionlik yarim Harbiy muassasalarda ishlovchi 5 million fuqaroviy kasb egasi bor. Bu sohalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida 500 ming kishi bandki, bu dunyodagi olim va muhandislarning qariyb 40 % ini tashkil etadi. Fan rivojlanishiga har yili ajratiladigan xarajatlarning beshdan ikki qismi yoki 30 milliard dollardan ortiqrog'i harbiy tadqiqot maqsadlariga ketgan.

Hozirgi vaqtda oddiy qurol-yarog'larning keltirishi mumkin bo'lgan ziyoni yadro quroli darajasiga yaqinlashib qolmoqda. Jahonda qurollanishga ajratilgan mablag'larning 80%i shu sohaga sarflanmoqda.

Urush va tinchlik masalalarida AQShning o'rnini hozirgi vaqtda hal qiluvchi darajaga yetdi. U bilan hech qaysi davlat raqobat qila olmaydi. Bu jihatdan olganda AQShga va uning ittifoqchilariga ijtimoiy-siyosiy ma'noda qarshi turgan davlat yoki davlatlar guruhi tomonidan jahon urushi xavfi yoq deyish mumkin. Lekin lokal miqyosda urushlar chiqishi xavfi saqlanib qolmoqda. Jumladan, terrorchilar tomonidan amalga oshiriladigan yadroviy xavfni ham nazardan qochirib bo'lmaydi.

Sayyorada global tinchlikni ta'minlash ehtiyojlari bilan G'arbning sobiq mustamlaka yoki vassali bo'lgan 130 dan ortiq «uchinchi dunyo» mamlakatlari ijtimoiy rivojlanishini jadallashtirish vazifalari o'zaro bog'liqdir.

Bu mamlakatlarda o'tmishda xo'jalik hayoti zo'rlik bilan o'zgartirilgani tufayli ko'pincha turgun holda bo'lgan, qoloq siyosiy munosabatlar saqlab qolingani edi.

Aksariyat rivojlangan davlatlar «uchinchi dunyo» mamlakatlariga xom ashyo manbai, salmoqli bozor va kapital chiqarish uchun qulay makon sifatida qaraydilar. Ularning qoloqligini tugatish global muammo hisoblanadi. Buning uchun hozirgacha va hozirda ham amal qilayotgan xalqaro iqtisodiy tartibotni o'rnatish zarur bo'ladi.

Yangi xalqaro iqtisodiy tartibot nafaqat rivojlanayotgan davlatlar uchun, balki sovetlardan keyingi hududlar davlatlari va sobiq sotsialistik mamlakatlar uchun ham zarurdir. Chunki ularning o'rtacha rivojlanganlik darajasi G'arbning ilgari ketgan industrial mamlakatlariga yetib olishini ta'minlamaydi.

Hozirgi vaqtda insoniyat ma'naviyati, uning sofligini asrash ijtimoiy rivojlanishning ichki jarayonlari tug'dirgan yana bir global muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Gap shundaki, zo'ravonlik va nafrat kishilar o'rtasidagi munosabatlarda chuqur ildiz otib, ma'naviy muhitni tobora zararlamoqda. Buni to'xtatib qolish va keskin kamaytirishga erishish vazifalari dunyo miqyosida kuch-g'ayratlarni birlashtirishni taqozo etmoqda. Albatta, nomi hozir qayd etilayotgan axloqiy xavf, axloqiy falokat u yoki bu darajada o'tmishda ham uchragan va u sivilizatsiyaning yo'ldoshi bo'lib kelgan. Bir tomondan madaniyat rivojlanib, boyib, tobora umuminsoniy tus olib borsa, ikkinchi tomondan turli-tuman manfurlik va og'u timsoli bo'lgan jinoyatchilik, sotqinlik, bangilik, fahsh, terrorchilik, ichkilikbozlik kabi illatlar ham kuchayib bordi.

Ma'naviy muhitni bulg'ashda keyingi vaqtlarda ayniqsa ichkilikbozlik va bangilikning o'rni katta bo'lmoqda. Ko'pgina mamlakatlar bu xil moddalarni tarqatganlik uchun og'ir jazo belgilanganiga qaramay, aholining muayyan qismida bangilikka ruju qo'yish avj olgan. Shuning uchun ham BMT darajasida tegishli tashkilotlar tuzilib, bu ijtimoiy illatga qarshi ommaviy kurashilmoqda. Lekin bangilik moddalarini tayyorlash va sotishdan g'oyat katta foyda olayotgan korchalonlar, bu og'udan o'layotganlar soni yildan yilga oshib borayotganligiga qaramay, barcha imkoniyatlardan foydalanmoqdalar.

«Eng qadimiy kasb» vorislari ham axloqshunoslik muammosini keskinlashtirishda o'z «hissalarini» qo'shishmoqda. Fahsh sindromi ko'p mamlakatlarda rivojlanib bormoqda. Shimoliy Yevropada behayo filmlar, adabiyotlar chiqarishdan olinayotgan foyda o'nlab milliard dollarga yetadi.

Axloqshunoslik muammosi tarkibida terrorchilikning o'rni alohidadir. Terrorchilik ijtimoiy antagonizm bilan bir vaqtda uning shakllaridan biri sifatida kelib chiqqan. Terrorchilikning xillari tobora ko'payib bormoqda. Hozirgi vaqtda siyosiy terrorchilikdan tashqari uning tijorat terrorizmi deb atalgan ko'rinishi tez-tez sodir bo'lmoqda. Chunonchi, havo qaroqchiligi yo'li bilan samolyotlarni olib qochish, odamlarni garovga olish, uning evaziga pul ishlashga urinishlar tez-tez ro'y bermoqda. Terrorchilik o'zining bir qator belgilariga ko'ra, shakllangan uyushma tusini olgan. Mayda reketadan boshlanib pornografiya, ishratxonalar, so'ngra bangilik moddalarini tarqatish orqali davlat tizimidagi amaldorlarni sotib olishga erishib, o'z faoliyatini davom ettirayotgan mafiya buning yaqqol timsolidir.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, yerda hayotni saqlab qolishning muhim sharti tinchlikdir. Sayyoramizning bir qancha mintaqalari xalqlari qoloqligini tugatib, insoniyat jamiyati mutanosib rivojlanishiga erishish va ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish uchun kuch-g'ayratlarni birlashtirish lozim bo'ladi.

«Inson – jamiyat» tizimidagi global muammolardan biri bu – rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy qoloqlik bilan bog'liq bo'lgan masala aholi o'sishidir.

Yer sharida paleolit davri boshida 100-200 ming, so'nggi paleolit boshida 1 million, neolit boshida 10 million, oxirida 50 million, milodning boshlarida 230 million odam yashagan. Oradan 1800 yilcha o'tgach, aholining soni dastlabki milliardga (1830 y), 180 yildan so'ng 2,1; 30 yildan keyin 3; 15 yildan so'ng 4; 10 yildan so'ng 5; hozirgi vaqtda 8 milliardga yetdi. Bu raqamlarda aholi yerni o'sib borganligigina qayd qilinganday ko'rinadi. Aslida esa ularda odamlarni tegishli moddiy vositalar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, turarjoy va h.k.) bilan ta'minlash, zarur

ma'lumot darajasi, tibbiy va huquqiy xizmat, tegishli ijtimoiy muhofaza, yosh avlod tarbiyasi va hokazolar bilan bog'liq bo'lgan jiddiy va ko'lamli vazifalarni kun tartibiga qo'yadi.

Ingliz iqtisodchisi R.T.Maltus bundan 200 yil avval shunday degan edi: «Ota-onasi farzandining yashashini ta'minlashi uchun zarur kapitalga ega bo'lmasa, bu farzandning yashashga qanday haqqi bor? Bunday farzand xayr-ehsonga ko'z tikishi mumkin».

Bu qarashlari bilan Rim klubi a'zolari J.Forreyster va D.Medouz tomonidan tayyorlangan «O'sish chegaralari» nomli kitobda insoniyat rivojlanishining beshta parametrlaridan biri bo'lgan demografik portlash haqidagi fikrlar hamohangdir. Mualliflar o'rtacha 23 bolali oila asosida aholini ishlab chiqarish darajasini nol bosqichdan oshirmaslikni taklif qiladilar.

Rim klubining keyingi tadqiqotlarida M.Mesaroviy va E.Pestolning «Insoniyat chorrahada qolganda» (1974) hamda Ya.Tinbergan boshchiligidagi mualliflar jamoasining «Xalqaro tartiblarni qayta ko'rib chiqish» (1976) deb nomlangan kitoblarida ham demografiyaviy muammolarga katta o'rin berilgan. Jumladan, mualliflar aholining ko'payishi masalasida mamlakatlar o'rtasidagi mavjud munosabatlarni o'zgartirish kerak, deb ta'kidlaydilar.

Aholi o'sishi birinchi navbatda mintaqaviy xarakterga ega. Mutlaq o'sishda Osiyo qit'asi birinchi o'rinda tursa, Afrika yillik o'sish sur'atlarida oldindadir.

«Ijtimoiyot asoslari» tizimiga mavjudligi sabablari borib taqaladigan jiddiy global muammolardan yana biri xavfli kasalliklarni tugatish vazifasidir. Bu kasalliklar birinchi navbatda aholi ko'payishini boshqarish va tashkil etish yo'lga qo'yilmagan mamlakatlardagi ochlik, oziq-ovqatlar tarkibida oqsillarning kamchilligidan kelib chiqqan.

Ma'lumki, Yer yuzida global miqyosdagi ochlik mavjudligi birinchi marta BMT tomonidan 1950 yilda tan olingan edi. O'shanda insoniyatning qariyb yarmi yetarli miqdorda kaloriyali oqsil iste'mol qila olmayotgani aytilgan edi. FAO tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda 60-yillarda 60% aholi u yoki bu darajada ochlikdan azob ko'rgan bo'lsa, 20% aholi muntazam ochlikdan qiynalgan. 70-80 yillarda bu sohada xalqaro miqyosda ancha ish qilinganiga qaramay, muayyan darajada ochlikka duchor bo'lgan aholining mutloq miqdori 0,8 milliardni tashkil etdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga (yetarli miqdordagi mablag'larning ajratilmasligi, malakali kadrlarning yetishmasligi va h.k.) ko'ra jahon aholisining 40% vodoprovod suvi, kanalizatsiya va sanitariya xizmatidan

foydalanmaydi. Bunday ahvol rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniqsa oʻtkirlikicha qolmoqda. Oʻz-oʻzidan ravshanki, bularning hammasi epidemiyalar tarqalishiga olib keladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda sil, bezgak kabi kasalliklar keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda bularning yoniga SPID ham qoʻshildi.

Kasalliklarning global muammo boʻlib qolganligi yana shunda koʻrinadiki, sanoati yuksak rivojlangan mamlakatlarda yurak-tomir, asab-ruhiy, allergik, rak va h.k. xastaliklar koʻpayib bormoqda. Masalan, bu mamlakatlarda yurak-tomir kasali birinchi oʻrinda, rak – ikkinchi oʻrindadir.

Inson ishlab chiqarish xoʻjalik faoliyatining sayyoraviy miqyosdaligi tufayli eng umumiy tarzda quyidagi ekologik oʻzgarishlar sodir boʻlmoqda:

1. Yer yuzidagi oʻrmonlar sahni har yili 11 million gektarga qisqarib bormoqda. Osiyo va Lotin Amerikasi tropik mintaqalaridagi oʻrmonlarda esa yangilanib turadigan oʻsimlik resurslarining asosiy zahiralari toʻplangan. Bundan tashqari, sayyoraning genetik boyligini tashkil etgan bu oʻrmonlar biosfera tabiiy vazifalarini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega.

2. Er yuzasining 31 millioncha gektar qismi «kislotali yomgʻirlar»dan zararlangan. Bu «yomgʻirlar» biosferada tez tarqalib oʻrmonzorlarga salbiy taʼsir etadi. Zararlangan daraxtlarning fiziologik kuchsizlanganligi natijasida oʻsimlikxoʻr hasharotlar koʻpayishi uchun qulay sharoitlar tugʻiladi.

Tuproq eroziyasi tufayli ekin maydonining 26 million gektarida har yili hosildorlik pasayib bormoqda. Suv va havo eroziyasidan har yili AQShda ishlov beriladigan 3,1 milliard tonna tuproq yaroqsiz holga kelmoqda. Bu degani yetishtirilgan 1 tonna bugʻdoy hisobiga 6 tonna tuproq yoʻqotilishini bildiradi. Shuning uchun AQShda dehqonchilikni ixtiyoriy qisqartirib, yerlarni rezervda saqlaydigan fermerlarga har yili 0,4 ga yer uchun 49 dollar toʻlanishi toʻgʻrisida qonun qabul qilingan.

3. XX asr ikkinchi yarmi «katta qurgʻoqchilik»larning tez-tez boʻlib turishi natijasida choʻllar maydoni yiliga 6 million gektarga kengaydi. Natijada anʼanaviy biologiyaviy tizimlarida (oʻsimlik va hayvonot olamida) salbiy oʻzgarishlar yuz bermoqda.

4. Sanoatlashgan Yevropa va Shimoliy Amerikadagi minglab qullar biologik jihatdan oʻlgan. Bunday jarayon boshqalarida ham davom etmoqda. Har yili jahon suv havzalariga 32 kub kilometr tozalanmagan sanoat oqava suvlari kelib tushmoqda.

5. Atrof-muhitga kishilarning taʼsir etishi, uni texnologen bulgʻash oqibatida hayvonot va oʻsimlik olami uchun jiddiy xavf yuzaga keldi. Har yili bir necha ming hayvonot va oʻsimlik turi yoʻqolishi oqibatida 20 yil dan

soʻng mavjud turlarning beshdan bir qismi batamom barham topishi mumkin.

6. Yer hukumat ekologik oʻzgarishlar oqibatida 2050 yilga borib atmosferadagi oʻrtacha harorat 1,54,5 darajagacha koʻtarilishi kutilmoqda. Atmosfera yuqori qismlarida ozon qatlami siyraklashib, Antarktida va Arktika ustidagi «tuynuklar» kengayib bormoqda. Ozon qatlamining yemirilishi natijasida oʻsimliklarda fotosintez jarayonining qisqarishi, kantserogen moddalar taʼsirida kelib chiqadigan kasalliklarning koʻpayishi va h.k. ruy berishi mumkin.

7. Tabiatda inson sogʻligi uchun xavfli boʻlgan metallar va ular birikmalarining yigʻilib qolishi tufayli zamondoshlarimiz tanasida ibtidoiy odamlardagiga qaraganda kadmiy (yurak kasalliklarini keltirib chiqaruvchi) 70 marta, qoʻrgʻoshin (ateroskleroz va buyrak kasalliklari sababchisi) 10, simob (asab kasalliklari chaqiruvchisi va genetik oʻzgarishlar sababchisi) 10, tellur 40 marta koʻp toʻplangan. Bundan tashqari, har yili 150 million tonna oltingugurt II oksidi, 260 million tonna chang, 70 million kub metr gaz, oʻn minglab tonna ftorli va xlorli birikmalar, koʻp miqdorda boshqa kimyoviy birikmalar atmosferaga chiqarib yuboriladi. Havoni bulgʻovchi moddalar soni 100 dan ortadi. Ularning koʻpi zaharli, baʼzilari esa kantserogen xususiyatlarga egadir.

Tevarak atrof-muhitning bulgʻanish muammosi bilan birga tabiiy resurslar, birinchi navbatda oziq-ovqat manbalari muammosi ham mavjud.

Global muammolar tizimida jahonning barcha mamlakatlari quvvatning yangi manbalarini topish zaruriyati oldida turganligi tobora oldingi oʻrinlarga chiqmoqda.

Maʼlumki, quvvat resurslari ikki xil – qayta tiklanmaydigan (neft, gaz, koʻmir) va tiklanadigan (suv quvvati, yogʻoch va h.k.) boʻladi. Shuningdek, quvvat manbalarini tashqi (Quyosh) va ichki yer osti resurslari (masalan, atom yadrosi) tarzida ham tasnif etish mumkin.

1900 yilda dunyo boʻyicha quvvat ishlab chiqarish 10 milliard kilovatt soatdan koʻproq boʻldi. Shu bilan birga quvvat muammosini xavfsiz va barqaror hal etish yoʻli hozircha topilgani yoq.

Hozir dunyoda 30 dan ortiq mamlakatlarda atom reaktorlari hisobiga jahon elektr quvvati ishlab chiqarishining 15% i toʻgʻri kelmoqda. Atom quvvati hosil etishning qulay va arzon usuli tezda topilishi toʻgʻrisidagi ilgarigi qarashlar unchalik toʻgʻri chiqmadi. Reaktorlar qurish va foydalanish xarajatlari yuqoriligicha qolmoqda. Keyingi paytlarda atom quvvati xavfsizligi xususida xilma-xil va qarama-qarshi fikrlar oldinga surilmoqda.

Quvvat muammosining kun tartibida jiddiy turganligi olim va mutaxassislarining quyosh nuridan, yer osti issiqlik manbalaridan foydalanishga yana ham ko‘proq e‘tibor berishlarini taqozo etmoqda.

Boshqa global muammolar qatori jahon okeani resurslarini o‘zlashtirish masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab insoniyat oldidagi eng muhim masala bo‘lib turibdi. Umuman olganda, sivilizatsiyaning butun tarixi davomida ham okean o‘rni halokatga bo‘lgan. Okean kislorod yetkazib beradi, g‘oyat katta miqdordagi ma‘dan xom ashyosi zahiralariga ega, oksid xomashyosi olish uchun zarur bo‘lgan biomoddalarni salmoqli hajmda hosil etadi, iqlimni tartibga solib turadi va muhim transport yo‘lidir.

Koinotni o‘zlashtirish masalalari ham insoniyat oldidagi global muammolardan hisoblanadi. Bu, birinchidan, fazoviy tadqiqotlarning qimmatlashishi, bu boradagi loyihalar narxining keskin oshib borishi va bunga hatto yirik davlatlarning ham qudrati yetmayotgani bo‘lsa, ikkinchidan, koinot butun insoniyatning mulki deb tan olingandir.

Insonning koinotga kirib borishi mikroolam fizikasi, molekulyar biologiya, kibernetika bilan birga XX asr fan-texnika taraqqiyoti asosiy yutuqlaridan biri bo‘lib qoldi.

Koinotni o‘zlashtirish kishilarda inson zotining yagonaligi, yaxlitligi to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

Global muammolarning eng asosiylari, tavsiflaridan ham ko‘rinib turibdiki, bunday bo‘hronlarni bartaraf etish nafaqat murakkab, balki bir xil yechimga ham ega emas. Shu bilan birga insoniyat bularni hal etish choralari tinimsiz izlamog‘i lozim. Hozirgi zamon tafakkuri darajasida mulohaza yurituvchi ko‘pgina mutaxassislarining hisoblashicha, global bo‘hronlarni bartaraf etishning dastlabki sharti – bu ma‘naviy yuksaklik, chuqur gumanizmdir.

Zamonaviy insonparvarlik eng kamida uchta asosga: globallashuvni anglashga, zo‘ravonlikdan voz kechishga va adolatlikka tayanadi. Bularning hammasi inson huquqlarini tan olishga va insoniyatning yaxlit ma‘naviy-axloqiy takomili tizimini yaratishga borib taqaladi.

Xalqaro kuchg‘ayratlarni birlashtirish global muammolarni hal etishning muhim omili hisoblanadi. Shu yo‘l bilan savdoni rivojlantirish, barcha sohalarda aloqalarni mustahkamlash mumkin.

Global muammolarning kelib chiqishi va mavjudligi xalqlar, mamlakatlarning xususiy va umumiy manfaatlari bilan aloqador bo‘lganidan, ularni hisobga olish zarur bo‘ladi. Bu haqda RiodeJaneyroda 1992 yili bo‘lib o‘tgan xalqaro anjumanda ham alohida ta‘kidlangan edi. Davlatlar va hukumatlar boshliqlari ishtirokida o‘tgan bu anjumanda

«Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi» qabul qilinib, unda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechimini atrof-muhitni himoya qilish, hozirgi avlod hayotiy ehtiyojlarini qondirishni kelajak avlod uchun ham shunday imkoniyatlar qoldirish bilan qo‘shib olib borish ko‘rsatib o‘tildi.

### **Global muammolar tizimida dunyo va insoniyat hayoti**

Yangi yuz yillik va ming yillik jahon tarixiga insoniyat hayoti va uning taraqqiyotining butunlay yangi yo‘nalishlarini ochib beradigan davr sifatida kirishi muqarrar. Biroq ana shu taraqqiyot va tinch-totuv yashash, ezgu maqsadlarini ruyobga chiqarish qator muammolarni hal etishni, mavjud ziddiyatlarni, qarama-qarshiliklarni yengishni taqozo qilmoqda. Zotan, har bir davr o‘ziga xos imkoniyatlari bilan birga muammolarni ham dunyoga keltiradiki, bu bevosita insoniyatni o‘ylashga, o‘z istiqbolini belgilashga da‘vat etadi.

Bugungi dunyo o‘z o‘zini asrash instinktini kuchaytirish yo‘lini tutmoqda. Shu bilan birga insoniyat hayoti davomiyligini ta‘minlash muammosini har galgidan ham keskin va dolzarb qilib ko‘tarmoqda. Insoniyat hayotiga tahdid uning bugun daholik qudrati, tafakkur kengliklari, fan-texnikaning mo‘jizaviy qudrati rivojlangan sari tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda. Boshqacha qilib aytganda, inson oldida kishilik jamiyati tabiiy-tarixiy taraqqiyoti orqali global muammolar ko‘ndalang bo‘lmoqda. Barcha xalqlar, millatlar, davlatlar qanday tuzum, rejim va ijtimoiy tizimda yashayotgan bo‘lmasin, Har bir insonning individ sifatidagi ijtimoiy mohiyati tobora chuqurlashib bormoqda va ayni ana shu ijtimoiy mohiyat ijtimoiy taraqqiyotni, yuksak madaniy-ma‘rifiy barkamollikni taqozo etmoqda.

Globalizm atamasi keyingi yuz yillarda tobora ahamiyat kasb etmoqda. «Global» tushunchasi lug‘aviy ma‘nosi nuqtai nazaridan frantsuz tilida «umumiy», lotin tilida esa «globus – Yer shari» ma‘nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu har ikki ma‘noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan katta muammolarni, «sayyoraviy», «umumsayyoraviy», «umuminsoniy», «dunyoviy» muammolarni, «umumplanetar ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar» va global taraqqiyot istiqbollari o‘ziga qamrab oladi. Tushunchaning mohiyatidan shu narsa ko‘zga yaqqol tashlanmoqdaki, bugungi dunyo har bir insondan, u qaysi hududda, qanday makonda yashayotganidan qat‘iy nazar dunyo taqdiriga taqdiridosh, Yer shari istiqboliga javobgar, insoniyat istiqboliga daxldor ekanligini ifoda etadi.

Atoqli faylasuf A.S.Kapto fikrlariga ko‘ra ayni ana shu global muammolarni quyidagicha tavsiflash mumkin:



Birinchiidan, zo‘ravonliksiz, yadro qurolisiz dunyoni tashkil etish, xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash, jahon termoyadro kataklizmini bartaraf etish, qurollanish poygasini to‘xtatish, qurolsizlanishga erishish, har qanday zo‘ravonliklarga, diskriminatsiyaga, tengsizlikka, irqchilik va aparteidga qarshi kurashib, ularni yoq qilish, barcha xalqlarning ozod va mustaqil taraqqiyotini mustahkamlash va boshqalardir.

Ikkinchiidan, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi qoloq davlatlarning muammolarini, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal etish, mustamlakachilik illatlarini bartaraf etish, qoloq xalqlarni jahon fan-texnikasi va madaniyati taraqqiyoti orqali rivojlanish yo‘liga olib chiqish, yangi xalqaro iqtisodiy va xalqaro axborot almashinuv tizimini vujudga keltirish.

Uchinchiidan, ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan asosiy omillarni izlab topish va rivojlantirish. Jumladan, iqtisodiy muammolarni hal etish, insoniyatning buguni va kelgusi avlodi bilan bog‘liq bo‘lgan turmush darajasini ta‘minlash uchun zamin hozirlash. Bu bevosita quvvat manbalaridan oqilona foydalanish, mineral hom ashyo, yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dehqonchilik samaradorligini oshirish, hosildorlikni yanada ko‘paytirish orqali oziq-ovqat muammosini hal etish, dunyo okeani miqyosida bu muammoni dolzarb vazifa sifatida hal etish choralari bilan bog‘liq.

To‘rtinchiidan, Afrika va Lotin Amerika mintaqasida tobora keng tarqalayotgan, davolanishi qiyin bo‘layotgan turli yuqumli kasalliklarning oldini olish, qambag‘allik, qashshoqlik, savodsizlikni bartaraf etish, madaniy merosni asrash, fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotni ta‘minlash, inson turmush darajasini oshirish va boshqalardir.

Darhaqiqat, bugungi dunyo qay darajada jadal sur‘atlarda rivojlanmasin, fan-texnika sohasida jiddiy, aqlga sig‘mas, hayratomuz kashfiyotlar qilinayotgan bo‘lmasin, ayni paytda ijtimoiy jihatdan jiddiy tahdid ostida yashayotgan mamlakatlar soni tobora ko‘payib bormoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi ming yillik dasturi ayni ana shu muammolarni hal etishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu nufuzli tashkilotning xulosalariga ko‘ra bugungi kunda dunyoning 54 ta mamlakati 1990 yilga nisbatan qambag‘allashib qolgan. 21 ta mamlakatda aholining katta qismi ochlikdan azob chekmoqda. 12 ta mamlakatda esa bolalarni boshlang‘ich ta‘limga jalb etish ko‘rsatkichlari keskin kamaymoqda. 34 ta mamlakatda insonning umr ko‘rish darajasi keskin kamaygan. Dunyoda 800 milliondan ortiq odam toza ichimlik suvining yetishmasligi va oziq-ovqat tanqisligidan aziyat chekmoqda. 100

milliondan ortiq bolalar maktabga qatnamayapti, shulardan 60 millioni qizlardir. 900 million kishi etnik, diniy, irqiy va insoniy mansubligi jihatidan to'qnashuvlarga uchramoqda («Ekonomicheskoe obozrenie» jurnali, 2004 yil, 10-son).

Ekologik muammolar insoniyatnint tobora o'zaro yaqinlashib, birlashib faoliyat ko'rsatishini taqozo etmoqda. Yer shari ekologik muvozanatini saqlash uchun tabiiy ofatlar zilzilalar, suv toshqinlari, o'rmon yong'inlari, vulqonlarning otilishi, tsunamilar va to'fonlarning ko'payib borayotganligi sayyoramiz iqlimini muvofiqlashtirib turish tizimining buzilganligi bois, litosfera bois, atmosfera, gidrosfera, flora va fauna, kosmosni tinchlik yo'lida o'zlashtirish va jahon okeani ekotizimini boshqarish va boshqa masalalarni tubdan hal etishni taqozo etmoqda.

Umuman olganda insoniyat hayoti qay darajada taraqqiy etishi, inson hayotining mazmunini boyitish va uning barkamol yashashi uchun sharoit yaratish qanchalik muammo sifatida yangi bo'lsa, shunchalik qadimiydir. Bundan bir necha ming yillar oldin ham otalarimiz hayotning mo'tabarligini, uni asrash zarurligini, har bir inson o'z manaviy-axloqiy darajasi, fe'l-atvori, hatti-harakati bilan uning yo'ijobiy, yo' salbiy tomonlarini kuchaytirib yuborishi mumkinligi haqida takror va takror gapirishgan. Urush va tinchlik, ziddiyatlar va kelishuvlar, murosalar atrofidagi xulosalar hamon o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Biroq bugungi dunyo ayni ana shu hayot muammolarining sivilizatsiyalashgan davr inson tafakkurining mo'jizaviy qudrati mahsuli sifatidagi butunlay yangi, g'oyat zalvarli, ayni paytda dahshatli holatlarini boshdan kechirmoqda. Umuman olganda urush bu yalpi taraqqiyotga qarshi hodisa. U qashshoqlik va yovuzlik orqali butun insoniyatni domiga tortadigan tubsiz ummondir. Taassufki, insoniyat ana shu dahshat va vahshatlar girdobida qolmoqda. Insonning individ sifatidagi xudbinlik fe'l-atvoridan kelib chiqadigan o'zaro manfaatlar to'qnashuvi doirasi kengayib, milliy yoki davlat maqomini egallashi, shu asosda buyuk davlatchilik shovinizmining yuzaga kelishi kishilik hayotini, tengsiz qadriyatlar va tarixiy-madaniy boyliklarni mahv etishi mumkin. Ana shuni nazarda tutgan holda «Urush qadimiy mashg'ulot. U har qanday tabiiylik va aqllilikka qarshi butunlay aqlsizlik va hayvoniy hodisadir... Issiqlik sovuqlikni quvadi, yorug'lik esa soyani. Shuning uchun ham men tinchlik quroli bilan qurollanaman va u bilan urushga qarshi kurashaman», degan edi S. Frank.

Albatta, urush va tinchlik muammosi qanchalik qadimiy bo'lsa, shunchalik zamonaviy ham. Zotan bu masala hech qachon eskirmaydi. Davrga qarab, yangilanayotgan tafakkur asosida shaklini, usulini, uslubini o'zgartirib borishi muqarrar. Tabiiyki, zamonaviy tafakkur, zamonaviy

sivilizatsiya asosida qurilgan urush va tinchlik muammosi ajdodlarimiz tilga olgan ma'naviy-axloqiy mezonlardan ko'ra ancha chuqurroq, ancha kengroq va dahshatliroqdir.

Atoqli faylasuf I.G.Gerder tinchliksevar ijtimoiy tafakkur xususida gapirar ekan, uni quydagilarga bo'ladi:

urushga qarshi nafrat;

harbiy shon-sharafga kamroq e'tiqod qo'yish;

vatanparvarlikni shovinizmdan, boshqa xalqlardan ustunlik tuyg'usidan tozalash;

boshqa xalqlarga nisbatan adolat tuyg'usini kuchaytirish;

xalqaro munosabatlarda qo'pol aralashuvni yo'qotish va boshqalar.

Bugungi dunyo siyosati va xalqaro munosabatlarni yuksak madaniyat va siyosiy axloq doirasida qurish, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini yaxshilik sari burish, ijtimoiy adolat, yuksak aql-idrok va siyosiy madaniyat asosida olib borish zarur bo'lib qolmoqda. Davlatlar ayni ana shu jihatlari bilan o'z qudratlarini namoyon etmoqlari lozim.

Atoqli nemis faylasufi German Raushning "Kuchdan qochib qutulolmaysan. Davlatning mohiyati kuchda, siyosat va kuch mushtarak, mazmuniga ko'ra siyosat kuch siyosatidir. Boshqacha bo'lishi mumkin emas. Kuchni yo'qotish mumkin emas. Uni faqat taqdirlamoq lozim", degan edi. Biroq xuddi ana shu yerda sohibqiron Amir Temurning «Kuch – adolatda!» degan tamoyili yana bir bor umumbashariy qadriyat maqomini egallaydi. Bugun global muammolar girdobida qolgan dunyoni asrashda siyosiy adolat, haqiqatga tayangan siyosat har galgidan ham kattaroq ehtiyojga aylanmoqda.

Darhaqiqat, har qanday davlat o'z qudrati, siyosiy ta'siri bilan o'zini namoyon etadi. Siyosat ham ayni o'z olamidagi mavqeiga, ta'sir kuchiga tayanadi. Albatta, bu qay darajada umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va hayot mohiyatini o'zida mujassam etgani bilan belgilanadi. Ana shunda davlatlar siyosiy manfaatlar, allaqanday nufuzlar, dunyoga egalik qilish istaklaridan qochib, umum-dunyoviy manfaat va insoniyat istiqboliga javobgarlik hissi bilan yashashlari lozim bo'ladi.

### **Axborot tig'izlashgan jamiyat va insoniyat tarixi**

Global muammolarning kelib chiqishi, mavjudligi va ularni hal etish zarurati insoniyat jamiyatining yangi sivilizatsiyaviy sifat o'zgarishini taqozo etmoqda. Bu jarayon mohiyatini anglash uchun uning jadalligiga, chuqurligiga va miqyosiga e'tibor berish lozim. Zero, o'nlab va, hatto, yuzlab yillar davomida o'zgarmas bo'lib ko'ringan ijtimoiy munosabatlar g'oyat qisqa vaqtda tubdan o'zgarimoqda. Bu hol kishilar hayoti

qatlamlarining barcha bo'g'inlarida ko'rinmoqda. Ko'lamiga ko'ra bu jarayon biron mintaqani chetlab o'tmagan.

Xo'sh, bu qanday sivilizatsiya bo'ladi? Hozirgi dunyoda G'arb qadriyatlarining barcha sohalarda ahamiyati tan olingan va qabul qilayotganini o'rgangan futurolog mutaxassislar axborot texnikaviy yoki axborot kompyuter sivilizatsiyasi haqida bashorat qilmoqdalar.

Ma'lumki, «axborot» tushunchasi dunyoqarashni ifodalaydigan bilimlarda qadimdan mavjud bo'lgan. Kibernetikaning kelib chiqishi va rivojlanishi bu tushunchani «aloqa» va «boshqaruv» tushunchalari bilan birga keng qo'llanishiga olib keldi. Hozirgi vaqtda axborotlarni hosil qilish, qayta ishlash, saqlash, ko'paytirish va tarqatish alohida ilmiy sohani – informatika (lotinchada tanishtirish, tushuntirish, sharq tillarida «xabar», «axborot») sohasini tashkil etadi. Bu so'z atama sifatida birinchi marta 1964 yilda Frantsiyada ilmiy muomalaga kiritilgan.

Axborotlar sohasining tez sur'atlar bilan o'sishi, uni avtomatlashtirish usullarining rivojlantirilishi kompyuterlarning yaratilishiga va kishilar hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirishga olib keldi. Bu esa o'z navbatida kelajakdagi «axborotli jamiyat» nazariyasini maydonga keltirdi.

Axborotli jamiyat nazariyasi hozirgi zamon industrial jamiyat to'g'risidagi ratsional ta'limotlar (Dj.Bell, U.Rostou, Z.Bjezinskiy va boshqalar) doirasida ilgari surilgan. Uning mualliflari bo'lib O.Toffler, Ye.Masuda, Dj. Pel on, Dj. Martin va boshqalar hisoblanadi. Bu mualliflar insoniyat tarzi modelini an'anaviy-industrial (sanoatlashgan) postindustrial ko'rinishda qarab, so'nggi bosqich kelajagini axborotli texnikaviy yoki axborotli – ekologiyaviy tarzda yuz berishini bashorat qilganlarida fan va texnika ta'sirini xiyla darajada ko'rsata olmaganlar.

Hozirgi vaqtda texnika va texnologiya ko'p jihatlardan fan mahsuli hisoblanadi. Fan esa inson yaratgan ma'naviy qadriyatlardan eng oliysi bo'lib, unga berilgan baholar hamisha birbiridan keskin farq qilishiga qaramay, tegishli axborotlar ifodasi sifatidagi ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Texnologiya fanning uskunaviy vositasi hisoblanadi. Texnologiyaviy vazifalarni hal etishda ilmiy yutuqlardan foydalanishning o'рни ham beqiyos.

Axborot texnologiyasi iqtisodiyot rivojlanishida qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish sohasidan keyingi to'rtinchi bosqichni egallaydi. Agar kapital va mehnat kishilik jamiyatining sanoatlashish davri mobaynida zarur tashkil etuvchi asoslaridan bo'lsa, axborot va bilim esa kelajak jamiyati asoslarini tashkil etadi.

Yuqorida aytilganidek, tushunchaviy maqomiga ko'ra «axborot» atamasi qadimdan qo'llaniladi. Xususan, axborotlashuv sohasidagi (buni

hozir informatsiologiya – axborot ta’limoti deb atash qabul qilingan) dastlabki jahon inqilobi milodiy birinchi ming yillik boshida yashagan Ptolomeyning dunyoning geotsentristik tizimi (bu tizim dunyoni uchta nahang yoki fil ko‘tarib turadi, degan avvalga nazariyaga zid bo‘lgan qarashlarida), ikkinchi inqilob N.Kopernikning (XVI asr o‘rtalarida geliotsentristik nazariyasi bilan vujudga kelgan edi. Bular axborotning ilmiy va ma’naiy ravnaqini ifodalagan edilar.

### **XXI asrda axborot-psixologik tahdid**

Axborot sohasining tez sur’atlar bilan o‘sishi, uni atomatlashtirish usullarining shiddat bilan rivojlantirilishi kompyuterlarning yaratilishiga va kishilik hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirishga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida bugungi kunda g‘oyatda tezkorlik bilan o‘sib borayotgan «Axborotli jamiyat» nazariyasini maydonga keltirdi.

Kompyuterlashtirilgan dunyo, yalpi axborotlashtirilgan global tizimning vujudga kelishi millatlar, xalq lar va bugun insoniyat taqdirini bir-biriga bog‘lab kuydi. Axborot olish, uni ishlash, saqlash va tarqatish texnologiyasining tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajadagi taraqqiyoti bugun jiddiy tashvishlar ham tug‘dirmoqda. Chunki Hozirgi zamon kompyuterlarining eng so‘nggi avlodi har birining protsessorida 80-100 million tranzistor bo‘lib, har soniyada ikki milliardgacha vazifani bajara oladi. Axborot texnologiyasining ana shunday mo‘jizasi tufayli xohlagan kishi Yer yuzining xohlagan nuqtasidagi odam bilan soniyalarda aloqa o‘rnatishi, muammoni lahzalarda hal etishi mumkin. Ana shu holatning o‘zi inson faoliyatini, tafakkur tarzini, axloqiy me’yorlarini, olamga munosabatlarini, yaxlit olganda esa yangi yuz yillikdagi insoniyat hayoti va taqdirini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, XXI asr sivilizatsiyasi axborot xuruji, information-psixologik urush qiyofasida o‘zini namoyon etmoqda.

Insoniyatning kelajakdagi taqdiri va istiqboli xususida o‘ylar ekanmiz, axborot texnologiyasi mohiyati, uning taraqqiyoti, inson va insoniyat hayotiga ta’sir o‘tkazishi omillarini chuqur o‘rganishni taqozo etadi. Bular quyidagilarda ko‘rinadi:

Birinchiidan, inson faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda yo‘lga qo‘yish, yo‘naltirish. Umum-manfaat atrofida birlashtirish, jamoa va jamiyat ishiga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish, insoniyat hayotini saqlashda mas’ullik, uning taqdiriga taqdirdoshlik hissini shakllantirish.

Ikkinchiidan, turli fe’l-atvorga, tabiatga ega bo‘lgan, o‘z manfaati ustuvorligiga intilayotgan siyosiy sub’ektlar o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash. Urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga o‘tish,

davlatlararo va mintaqalararo munosabatlarda bir-biridan qochish emas, bir-biriga intilish kayfiyatini yaratish, jahon muammolarini hal etishda sog'lom g'oyalarga tan berish ruhiyatini shakllantirish.

Uchinchidan, fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan bir paytda uning keng imkoniyatlarini umumiy taraqqiyot yo'liga safarbar etish kayfiyatining ustuvorligini ta'minlash. Aks holda g'ayri-axloqiy va g'ayri-insoniy kayfiyatdagi kimsalar qudratli texnologiyalarni jamiyat taraqqiyotiga zid bo'lgan g'oyat xatarli maqsadni amalga oshirishga ishlatishi mumkin. Bu, ayniqsa, xalqaro terrorizm, narkobiznes, diniy ekstremizm singari global fojialarni boshqarishda, davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni chalkashtirishda, bank, moliya-kredit tizimini izdan chiqarishda qo'l keladi.

To'rtinchidan, axborot texnologiyasining beqiyos imkoniyatlarini, ulkan qudratini to'la-to'kis inson hayotiga tatbiq etish, inson taqdiriga xizmat qildirishni ta'minlaydigan eng zamonaviy va samarali boshqaruv mexanizmini iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy va siyosiy sohalarda yuksak madaniyat bilan unumli foydalanish asosida tashkil etish.

Tig'iz axborotlashgan jamiyatda «shaxs jamiyat davlat» aloqadorligi, ularning o'zaro uzviyligi va yaxlitligini ta'minlash birmuncha qiyinlashadi. Chunki axborot oqimi tezlashgani va axborotlar girdobida yashash kabi murakkab, ziddiyatli vaziyatning yuzaga kelishi bevosita shaxs tafakkurining, inson dunyoqarashining keskin o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, har bir fuqaro o'z shaxsiy nuqtai nazari, o'z qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy imkoniyatlari doirasidagina faoliyat ko'rsatadi. O'z olami hududida yashaydi va tashqi olamga o'z aqli doirasida shaxsiy munosabatini bildiradi. Har bir individ mustaqil inson sifatida tabiiy-biologik kamolotidan va ruhiy ehtiyojidan kelib chiqib o'ziga mos axborotni qabul qiladi, uni tahlil etadi. Uning atrofida mushohada yuritadi, fikrlaydi va ana shu tahlillar asosida o'zining shaxsiy xulosasiga ega bo'ladi. Natijada u yoki bu tarzda o'z nuqtai-nazarini shakllantiradi.

Demak, har qanday axborot mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan «shaxs jamiyat davlat» mutanosibligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda milliy manfaatlarni asrash va rivojlantirishda axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning roli yana ham oshadi.

Umuman olganda axborotpsixologik xavfsizlik tushunchasi qanday paydo bo'ldi? Uning hayotiyliigi, insoniyat taqdiriga daxldorligi nimada? Ana shunday savol tug'ilishining o'zi muammoning dolzarbligini va o'ta

keskinligini ko'rsatadi. Bizningcha, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchi, axborot-psixologik xavfsizlik – bu bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, muqaddas ideallaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzgu'nchi g'oyalardan asrashdir. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, jumladan, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarga ma'naviy-ruhiy ta'sir buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi.

Ikkinchi, axborot-psixologik xavfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralari ko'rilmasa, buzg'unchi g'oyalar milliy qadriyatlarni barbod etish orqali tarixan mavjud bo'lgan xalqlar va millatlarni genotsidga olib kelishi muqarrar.

Uchinchi, tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotganligi shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta'sir o'tkazadi. Jamoatchilik fikrining qay darajada shakllanganligiga, jamiyatning siyosiy ongi, huquqiy bilimlar saviyasi, ma'naviy-ma'rifiy darajasiga qarab jamiyatning taraqqiyotga yoki tanazzulga yuz tutishi muqarrar.

To'rtinchi, ijtimoiy fikrni shakllantirishda axborot ta'sirini, axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va uslublarining tobora kengayib borayotganligini nazarda tutsak, axborot-psixologik xavfsizlik muammosi yana ham keskinlashib qoladi.

Beshinchi, mazkur atamaning mohiyati shundaki, u inson, jamiyat tushunchalari doirasidan chiqib ketib, yaxlit insoniyat, butun kishilik taqdiri bilan bog'liq bo'lgan global masalalarni ham qamrab oladiki, natijada hozirgacha mavjud bo'lgan global muammolarning eng tajovuzkori, eng buzg'unchisi yoki aksincha, eng tashabbuskori bo'lib qolishi muqarrar. Bu holatni xalqaro siyosatda, davlatlararo, mintaqalararo muammolarni hal etishda buyuk davlatchilik shovinizmi avj olishi mumkin bo'lgan holatlarda yana ham xavflirok, mohiyat kasb etadi, Bunday paytda ko'proq an'anaviy siyosiy muvofiqlashtirish tajribalaridan kengrok foydalanishni taqozo etadi. Ya'ni sharqona munosabatlar ilmi mulohazalilik, mushohadalilik, har qanday voqea va hodisalarga aql-idrok yo'rig'i bilan yondashish tamoyili ustuvor bo'lmog'i lozim.

Axborot siyosatini tig'iz axborotlashgan jamiyat shakllanayotgan bir paytga hozirgi zamonaviy talablardan kelib chiqib yangilash, modernizatsiyalash zarur.

Axborot orqali yuzaga keladigan psixologik mojarolar sharoitida davlat axborot siyosatining vazifasi jamiyatni salbiy axborot-psixologik xurujdan ishonchli saqlash, qat'iy himoya qilish mexanizmini yaratish bilan belgilanadi.

Har bir yangi axborot-psixologik mojaro himoya qilinayotgan jamiyat uchun yangi tahdidlarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Demak, tahdid qancha ko'p bo'lsa, qo'rquv, hadik va ishonchsizlik shuncha ko'payadi. Ana shunday ma'naviy, ruhiy, ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib, jamiyat kayfiyatini muvofiqlashtirib, yo'naltirib, boshqarib turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oltinchandan, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi ma'lum bir xalq, millat, mamlakat hayotida jiddiy ijtimoiy xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan tinchlik va barqaror taraqqiyot yo'lida unumli foydalanish, uni boshqarish, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga siyosiy tus bermaslik usullaridan foydalanishni taqozo etadi.

Bizning nazarimizda axborot-psixologik xavfsizlik – bu bevosita siyosiy mojarolarning oldini olish, eng avvalo, insonning o'zini o'zi tushunishi va fuqarolararo munosabatlarni yuksak ma'naviy-ma'rifiy mezonlar asosida shakllantirish, axborot qurolidan zamonaviy insonparvar tafakkurni, ijodkorlik ruhini, yaratuvchilik qobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini shakllantirishni taqozo etadi.

Jamiyatni boshqarish, hozirgi zamon me'yorlari asosida kishilik taraqqiyotini ta'minlashning yangi usul va uslublarini qidirib topish zarur. Jumladan, siyosiy-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va axborot tizimini boshqarish kabi qator, bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan yo'nalishlarda boshqaruvning eng maqbul uslubini topishni, bevosita hokimiyat va unga ishonchni, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlashda fuqarolar yakdilligini, ma'naviy va g'oyaviy jihatdan birligini ta'minlashni taqozo etadi.

Jamiyat shu darajada shakllanishi lozimki, uning a'zolari tig'iz axborotlar bozoridan umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Axborot olish kafolati bu bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummilliy manfaatga daxldor bo'lgan qadriyatga aylanmog'i lozim. Ana shunday sharoitda qanday mazmundagi axborotni tarqatishni man etish, jamiyatning psixologik holatiga salbiy ta'sir etuvchi, ijtimoiy, milliy, etnik, diniy



tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi, zo‘ravonlik va urushni targ‘ib etuvchi, pornografiya, maishiy buzuqlik, shaxslar mavqeiga, obro‘sig va sha‘niga salbiy ta‘sir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon bilan bog‘liq bo‘lgan, sog‘lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma‘naviy-ruhiy me‘yorlari vujudga keladi.

Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi ana shu tarzda ma‘naviy-axloqiy mezonga aylanadi. Erkin shaxs va ozod kishilik jamoasi bo‘lgan fuqarolik jamiyati sharoitida axborot-psixologik xavfsizlikning o‘ziga xos tizimlari shakllanmog‘ lozim. Bu bevosita OAV faoliyati va unda xizmat qiladigan axborot oluvchi, saqlovchi va tarqatuvchi xodimlarning siyosiy saviyasiga, kasb mahoratiga va eng muhimi, fuqarolik pozitsiyasiga, jamiyat ishiga daxldorlik tuyg‘usiga bog‘liq. Zotan, axborot-psixologik xavfsizlikni ta‘minlashning bosh mezoni va asosiy tayanchi – millatparvarlik, vatanparvarlik, fidokorlik tuyg‘usi!

Albatta, axborot-psixologik xavfsizlikni ta‘minlashning o‘ziga xos asoslari bor. Bular:

birinchidan, tashkiliy texnik jihatdan ta‘minlanganlik, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan yetarli darajada qurollanish;

ikkinchidan, mustahkam moddiy moliyaviy asoslarga ega bo‘lish, axborot psixologik xavfsizlikni ta‘minlashga xizmat qiladigan soha xodimlari moddiy manfaatdorligini oshirish;

uchinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalarini boshqaradigan, undan samarali foydalana oladigan, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan, har tomonlama keng fikrlaydigan qobiliyatli kadrlarni tayyorlash.

Demak, axborot xuruji tobora avj olib borayotgan, yakka tartibda har bir fuqaro, har bir inson ongiga kuchli ta‘sir o‘tkazayotgan, keng miqyosda olganda jamiyat taraqqiyoti va millat taqdirini hal qilishga qodir bo‘lgan, global miqyosda esa butun insoniyat hayotini kafolatlaydigan, uning taraqqiyoti yoki tanazzulini belgilashga qodir bo‘lgan tig‘iz axborot tizimini boshqarish, tartibga solish, undan foydalanish me‘yorlarini ishlab chiqish hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Insoniyat axborot oqimi tobora tezlashgan, Yer shari aholisi kayfiyatini, ruhiyatini, maqsad va intilishlarini, qolaversa, butun tafakkur tarzini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan axborot texnologiyasi vujudga kelgan bir davrda yashamoqda. Xalqlar, mamlakatlar, davlatlar o‘zaro munosabatlarini tobora yaqinlashtirishga, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini boshqarishga, dunyoviy kayfiyat, dunyoviy ruhiyat va maslakning vujudga kelishiga xizmat qiladigan mo‘jizakor hodisa.

Biroq, sivilizatsiyaning ana shunday ulkan, keng miqyosli va serqirra yutug‘idan kim qanday maqsadlarda foydalanyapti? Uni beqiyos va qudratli

kuchini nimalarga ishlatyapti? degan xaqli savol ham muammoga aylanmoqda.

Umuman olganda insoniyat tafakkuri kengayib, fan-texnika taraqqiyoti jadallashgani sayin insoniyat o'zining buyuk yaratuvchilik qudratini namoyon etmoqda. Shu bilan birga o'zini boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yadigan, o'z hayotiga o'zi tahdid soladigan, o'z istiqbolini mavhumlashtiradigan holatlarga ham duch kelmoqda.

Insoniyat yozuv ixtiro qilingunga qadar taxminan uch million yil og'zaki aloqa qilgan bo'lsa, undan besh ming yil keyingina sanoat asosida kitob bosishni o'rgandi. Undan besh yuz yil o'tib telefon, radio va televideniya ega bo'ldi. An'anaviy eshituv-ko'ruv vositalaridan kompyuterlarga o'tish uchun esa atigi ellik yilcha vaqt kerak bo'ldi, xolos. Ana shu tarixiy haqiqatning o'zi inson tafakkuri taraqqiyoti, fan-texnika rivoji bilan bog'liq bo'lgan olamshumul o'zgarishlar dinamikasini ko'rsatadi.

Kompyuterlarning yuzaga kelishi butun Yer sharini yagona axborot makoniga aylantirdiki, natijada har bir mamlakat taqdiri bilan ham, butun dunyo taqdiri bilan bog'liq bo'lgan voqelik yuzaga keldi.

Bugun O'zbekiston ana shu yagona axborot tizimining faol sub'ektiga aylandi. Uning dunyo bilan aloqasi, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ishtiroki, davlatlararo munosabatlar, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va madaniy aloqalari umumjahon axborot tizimi tarkibida amalga oshirilmoqda. Bu bevosita elektron pochta, elektron axborot almashish tizimi orqali ham milliy, ham dunyoviy muammolarni hal etishda faoliyat samaradorligini oshirishda, vaqtni tejashda, moliyaviy xarajatlarning keskin kamayishida, qolaversa, zamonaviy axborot almashtirish salohiyatini namoyon qilishda katta samara bermoqda.

Biroq bu jarayon bir qator muammolardan ham xoli emas. Jumladan, jahon axborot tizimidan foydalanish darajasining pastligi, internet tizimining keng rivojlanmaganligi, undan samarali foydalanish darajasining yetarli emasligi ko'zga tashlanmoqda.

Ammo masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Bu bevosita axborot bozoridan foydalanayotganda qanday axborotlarni qabul qilish, qanday axborotlardan foydalanish borasidagi ma'naviy salohiyatni ham taqozo etmoqda. Chunki bozorning oddiy haqiqati shundaki, har kim topganini savdoga chiqaradi. Sifati, mazasi, rangi, ta'mi yoki foydasi jihatidan tanlash xaridorning ixtiyorida. Ana shu hayotiy qonuniyat nuqtai nazaridan qaraganimizda jahon axborot bozorida bizning manfaatlarimizga zid bo'lgan, milliy xususiyatlarimizni, an'alarimizni, turmush tarzimizni kamsitadigan axborotlar ham xuruj qilmoqda, hayotimizga shiddat bilan

kirib kelmoqda. Bu o'zo'zidan axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash muammosini ko'ndalang qilib qo'yimoqda.

Hozirgi zamon axborot tizimi, uning juda keng imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umum-milliy manfaat va umum-milliy taraqqiyot nuqtai nazaridan boshqaruv mexanizmini yaratish, uning mohiyati va unsurlarni chuqur anglash zarur bo'lib qolmoqda. Ana shu hayotiy ehtiyojdan kelib chiqib axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimini yaratishning quyidagi usullarini qo'llash zarur deb hisoblaymiz:

Birinchi, sotsiologik yo'nalish. Bunda axborot olish va tarqatish jarayonida jamiyat taraqqiyotida axborotning ijtimoiy voqelik sifatidagi roldan kelib chiqib, jamiyatda shakllanayotgan ijtimoiy ong yo'nalishlari, ijtimoiy tafakkur darajasi va uning oqimlarini o'rganishni yo'lga qo'yish kerak. Aholi turli qatlamlari qarashlari, kasbiy va boshqa ijtimoiy holatlari asosidagi fikrlash tarzini aniqlab borish zarur.

Ikkinchi, statistik yo'nalish. Ko'p millatli mamlakatda, xususan, 130 dan ortiq millat va elat yashayotgan, 20 ga yaqin diniy konfessiyalar faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekistonda millatlararo va dinlararo mojarolarni, turli siyosiy manfaatlar va buzg'unchi g'oyalar ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolar manbalarini o'rganib borish, bu borada aniq hisobkitoblarga, tahliliy yechimlarga ega bo'lish.

Uchinchi, siyosiy konfliktologiya va siyosiy psixologiya. Axborot-psixologik xavf avj olayotgan bir paytda, turli buzg'unchi g'oyalar inson ongi va tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir sharoitda siyosiy mojarolar kelib chiqishi mumkin bo'lgan manbalarni o'rganish, omillarini aniqlash hamda uning natijasida jamiyatda shakllanishi mumkin bo'lgan jamoatchilik fikri, siyosiy qarashlari, ruhiyati – ijtimoiy-siyosiy psixologiya izchil ravishda o'rganib borilmog'i lozim.

To'rtinchi, mantiqiy tizimiy va funktsional tahlil. Axborot tizimi, xususan, axborot psixologik ta'sir axborot siyosati tizimi va vositasining muhim qismi sifatida baholanishi lozim. Voqelikka ana shu tarzda yondashib, ilmiy-tahliliy, nazariy va amaliy xulosalar chiqarish kerak. Tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot oqimi ta'sirida shakllanayotgan ijtimoiy fikr fan nuqtai nazaridan izchil o'rganilmog'i, uning predmeti va metodologiyasini ishlab chiqish muhim bo'lib qoldi.

Beshinchi, axborot tizimida milliy istiqlol g'oyasining ustuvorligi. Har qanday fuqaro axborot bozorida «mahsulot» tanlash jarayonida uning qalbida, ruhiyatida, kayfiyatida, fe'l-atvorida, bularning barchasining oqibati sifatidagi hatti-harakati va munosabatida mafkuraviy immunitet ustuvorligini ta'minlash.

Albatta, O‘zbekistonda mustaqillikning o‘tgan 29 yili mobaynida ommaviy axborot kommunikatsiyam sohasida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Eng avvalo, har bir fuqaroning so‘z va fikr erkinligi, axborot olish va tarqatish HUQUQI Konstitutsiya bilan kafolatlandi. Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi bir qator qonunlar yaratildi va amalda qo‘llanilmoqda. Mustaqil nashrlar soni keskin ko‘paydi. Bularning hammasi mamlakat ichki hayotida milliy axborot tizimining o‘ziga xos taraqqiyotidan dalolat beradi.

Shu bilan birga O‘zbekiston jahon axborot tizimidan foydalanishning eng zamonaviy va tezkor texnologiyasini joriy etdi. Bu nafaqat davlat va hokimiyatning, rasmiy idoralarning, balki nodavlat notijorat tashkilotlar, hatto, alohida fuqarolarning dunyo axborot bozoriga bimalol kirishi va undan bimalol foydalanishi imkonini beradi.

Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta‘minlash tizimi bevosita ijtimoiy xavf, milliy tahdid, taraqqiyotga to‘g‘anoq sifatida baholanmog‘ini va unga qarshi kuchli mexanizmni yaratishni taqozo etadi. Bunda davlat axborot siyosati alohida ahamiyatga ega. Albatta, O‘zbekistonda axborot tizimi, uni boshqarish, undan foydalanish borasida qator qonunlar bor. Jumladan, axborot olish kafolatlari, elektron pochta, elektron raqamli imzo to‘g‘risidagi qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Biroq, bular yetarli emas. Chunonchi, zamonaviy axborot texnologiyalari tobora takomillashib, rivojlanib, axborot olish, saqlash, uni ishlash va tarqatishning shakllari, usullari, uslublari tobora kengayib bormoqdaki, bu butun qalami bilan amaldagi qonunlarda o‘z ifodasini topmagan.

Masalaning ikkinchi tomoni ham bor. O‘zbekistonda hozirgi mavjud ijtimoiy fikr, jamiyatning umumiy siyosiy-ma‘rifiy darajasi zamonaviy axborot xurujiga va uning shiddatiga dosh berolmaydi. Aniqrog‘i, uning bugun ko‘lamini, mohiyatini, axborot ostidagi yashirin g‘oyani va axborot tarqatuvchi manba maqsadini yetarli darajada baholay bilmaydi. Natijada axborot bozorida mavjud bo‘lgan asosli, jiddiy, fikrlashga chaqiradigan, taraqqiyotga yordam beradigan axborotlarni yetarlicha qabul qila olmaydi. Aksincha, yengil-yelpi, shov-shuvli, hayotimizdagi mavjud o‘tkinchi kamchilik va nuqsonlarni bo‘rttirib ko‘tarib chiqqan xabarlarga berilib ketadi. Ularni tez qabul qiladi. Natijada jamiyatda yalpi o‘rtacha kayfiyat, ozurda ruhiyat paydo bo‘lishiga imkoniyat yaratiladi. Bunday vaziyatda milliy axborot tizimini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, uning faoliyatini takomillashtirish, ta‘sir doirasini oshirish zarur bo‘lib qolmoqda. Bu muammolarni hal etish uchun quyidagilarga e‘tibor bermoq lozim:

Ommaviy axborot vositalarida hozirgacha shakllangan til, uslub va ifoda usulini o‘zgartirish lozim. Jozibador, ayni paytda hayotga yaqin, eng

oddiy fuqaro qalbi va ruhiyatiga mos keladigan xalqchil ifoda usulini shakllantirish lozim. Boshqacha qilib aytganda, axborot makonini hayotga, odamlarga, ularning kundalik tashvishu iztiroblariga, yangilanayotgan jamiyat muammolariga yuksak mahorat bilan moslashtirish kerak.

Jamiyatni, uning har bir a'zosini axborot vositalariga qiziqishini orttirish yo'li bilan axborot orqali yuzaga kelayotgan ruhiy tanglik, ma'naviy ozurdalik, boshqacha qilib aytganda, buzg'unchi g'oyalarga ergashish kayfiyatining ommalashib ketishiga chek qo'yish lozim. G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat tamoyilining ustuvorligiga erishmoq kerak.

Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida fuqarolik jamiyati institutlari – jamoat tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ular so'zi va fikrining ta'sirchanligini oshirish kerak. Toki har qanday umummanfaat va umumtaraqqiyot yo'lida aytilayotgan so'z har bir tinglovchi qalbiga kirsin, ongiga singsin. Uni rag'batlantirsin, ruhlantirsin, milliy yakdillikka, milliy birlikka da'vat etsin.

Albatta, axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashning eng samarali yo'llaridan biri to'g'ridan to'g'ri har qanday buzg'unchi g'oyalarga, jamoatchilik fikrini buzadigan xabarlariga asosli tarzda qarshi tura bilish. Ikkinchi tomondan, ayni ana shu qarshi targ'ibot mexanizmini samarali boshqarishni ta'minlash.

Hozirgi zamon axborot tizimida shunday hodisalar mavjudki, unga qarshi chiqish u yoqda tursin, uni boshqarish, tartibga solish dam mumkin bo'lmay qolmoqda. Demak, bunday sharoitda eng maqbul va samarali usullarni ishlab chiqish zarur. Jumladan:

Birinchiidan, jamoatchilik fikrini o'zgartirayotgan, chalg'itayotgan vayronkor axborotlar tashqaridan, o'ziga xos himoya qalqoniga ega bo'lgan makonlardan kelayotganligini nazarda tutib, axborot tarqatish borasidagi mojarolarga yo'l qo'ymay, ularga yuksak siyosiy va kasbiy madaniyat orqali yondashish, befarqlik, sukut saqlash kayfiyatiga bardam berib, milliy oriyat, milliy nafsoniyat bilan bog'liq holdagi targ'ibotchilik imkoniyatimizni namoyon etish yo'lidan borish.

Ikkinchiidan, shuni nazarda tutish kerakki, har qanday hujumkor va buzg'unchi g'oyaga qarshi o'z vaqtida, mo'ljalni aniq olib munosabat bildirishda ehtiroslarga berilmaslik, ortiqcha shov-shuvlarga yo'l qo'ymasdan siyosiy vazminlik va bosliqlik, ayni paytda kuchli ta'sir o'tkazish usullarini o'zlashtirmoq lozim.

Axborot sohasida axborot xuruji qizg'in avj olgan bir paytda ayni ana shu xurujlar mohiyatini, uning manbalarini, rivojlanish omillarini, ilmiy til bilan aytganda konfliktogen jihatlarini chuqur o'rganish lozim. Buzg'unchi

va hujumkor axborotlar maqsadi, iddaosi, ularning tagida yotgan manfaatlar qanchalik to'g'ri o'rganilsa, ularga shunchalik to'g'ri va ishonchli zarba berish mumkin bo'ladi.

XXI asr sivilizatsiyasi oqibatida insoniyat hayoti axborot psixologik tahdid kuchayotgan jarayonni boshdan kechirmoqda. Bu, ayniqsa, rivojlanish yo'liga chiqib olgan O'zbekistondagi yosh mustaqil davlatlarga kuchli salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Chunki har qanday asossiz, buzg'unchi g'oya o'tish davriga xos bo'lgan uziy kamchiliklar va o'tkinchi ijtimoiy-iqtisodiy nuqsonlarni bo'rttirib ko'rsatib, jamoatchilik fikrini chalg'itishi, uning istiqbolga ishonchini susaytirib yuborishi mumkin. Zotan, bugun jahon siyosati tobora madaniylashib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar insoniylashib, davlatlararo manfaatlar ustuvorligi yumshab borayotgan bir paytda ommaviy qirg'in qurollaridan foydalanish, termoyadro xavfini kuchaytirish, atom, vodorod, turli biologik, bakteriologik va kimyoviy aslahalardan foydalanish ibtidoiy hodisaga aylanib qoldi.

Millatlarni yoq qilish, ularning ildizini qirqib tashlash, milliy xususiyatlari, an'analari va urf-odatlarini barbod etish yo'li bilan mamlakatlarni zabt etish sivilizatsiyaviy hodisaga aylandi. Bunday maqsadni amalga oshirishda axborot tizimidan foydalanish keng avj olib bormoqda. Mustaqil O'zbekiston esa ana shu jarayonda o'zining yangidan-yangi imkoniyatlarini, aqliy salohiyatini, o'zini o'zi himoya qilish va har qanday tajovuzlarga qarshi tura olish iqtidorini namoyon etmoqda. Biroq bu yetarli emas. Aniq natijalarga erishish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim, deb o'ylaymiz:

–insonning shaxs va fuqaro sifatidagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va uni shakllantirish;

–insonning o'zini o'zi himoya qila olish instinktini, o'zini o'zi boshqarish salohiyatini shakllantirish;

–alohida odamlar, guruhlar, qatlamlararo munosabatlarni yana ham barqarorlashtirish;

–jamoalar birligini, umumiy xonadon – yaxlit mamlakat taqdiri uchun javobgarlik hissini kuchaytirish;

–millatidan va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar O'zbekiston fuqarosi bo'lgan har bir shaxsning kelajak uchun mas'ulligini ta'minlash;

–kelib chiqishi mumkin bo'lgan mojarolar, kelishmovchiliklar asoslarini, yo'nalishlarini, ularning rivojlanish omillarini va dinamikasini doimiy tarzda, uzluksiz ravishda urganib borish.

Ana shu tarzda, albatta, axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashning O'zbekiston tajribasi takomillashib bormoqda. Bu bevosita

axborot xuruji avj olayotgan, axborot tarqatish texnologiyalari tobora takomillashib, uning usul va uslublari yangilanib borayotgan bir paytda O'zbekiston ayni ana shu sivilizatsiyaviy jarayonning eng samarali, eng insonparvar usullaridan yana ham kengroq foydalanish imkoniyatlarini qidirmoqda.

### **Madaniyatlararo integratsiya: tajriba va muammo**

XXI asr insoniyat tarixining yangi davrini ochmoqda. Zotan, yangi yuz yillik va yangi ming yillikda jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlari keskin o'zgarayotgan va inson tafakkuri butunlay yangilanayotgan, manfaatlar umumiyliги yuz berayotgan bir davrni boshdan kechiryapmiz. Darhaqiqat, bugungi dunyo bir xalq, mamlakat o'z hududi doirasidagina yashash bilan cheklanmaydi. Aksincha, dunyo xalqlarini manfaatlar mushtarakligi birlashtirmoqda. Har qanday «xususiy» muammo barcha uchun birday tegishlilik mohiyatini kasb etmoqda. Umumiy taqdir va umumiy istiqbol tushunchalari tobora chuqurlashib bormoqda.

Global mohiyatga ega bo'layotgan g'oyat zalvarli masalalar ko'payib bormoqda. U insoniyat tarixi va taqdiriga, buguni va istiqboliga jiddiy ta'sir etmoqda. Ayni ana shu muammolar tabiatini, mohiyatini qanchalik chuqur tushunsak, ruhiy ozurdalik shunchalik katta tahdid solayotganini yana ham chuqurroq his etamiz. Ommaviy axborot vositalari mazkur muammolarni shu darajada ko'p targ'ib etmoqdaki, bu ba'zan g'oyat fojiali, ziddiyatli vaziyatni vujudga keltirmoqda.

Xilma-xil dalillar va raqamlar atrofidagi mulohazalar, tahlillar, tadqiqotlar yo'nalishlari tobora ko'payib bormoqda. Ko'ngillarni g'ash qilib, ruhimizga ozurdalik keltiradigan «bashorat»lar va yangi texnologik izlanishlar shu darajada avj olib ketdiki, bu bevosita Yer shari taqdiri va insoniyat istiqboli bilan bog'liqlik hissini, daxldorlik tuyg'usini yana ham kuchaytirmoqda.

Ana shunday tig'iz va shiddatli bir sharoitda insonning eng yaqin va ishonchli himoyachisi madaniyat va ma'naviyatga extiyoj yana ham ko'proq ortadi. Biz tashqi olam, atrof-muhit va ijtimoiy hayotdagi muammolar haqida qanchalik chuqur oylasak, uning asosida inson mohiyati, qadriyati yotganini shunchalik ko'proq tushunamiz. Balki global muammolar tahdidi bizni qaysidir darajada chalg'itib qo'yar. Biroq har qanday muammo, har qanday tahdid inson ma'naviyati, ichki irodasi, ruhiy quvvati orqaligina o'zi yechimini topishi mumkin.

Inson ikki olam kesishgan nuqtada yashaydi. U tashqi dunyo, tabiat va hayot sarvari, ayni paytda o'z ichki olamining butkul itoatkoridir. Ayni ana shu ichki olam, tuyg'u va ruh tashqi olam mohiyatini, mazmunini va

istiqbolini belgilaydi. Muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik, oila, turmush, kundalik hayot ehtiyojlari va muammolari, atrof-muhitdagi barcha yaxshilik va yomonliklar kishilik jamiyati taraqqiyotiga O'z ta'sirini o'tkazadi. Demak, inson olami tashqi olamning ko'zgusi va ayni paytda insonning jamiyatdagi o'rni, hayoti va taqdiri bilan bog'liq, bo'lgan noyob qadriyat. Xuddi ana shu olamda insonning ma'naviy-ruhiy imkoniyatlari, tasavvurlari, hissiyotlari, ilhomi va ijodkorlik tuyg'ulari yashaydiki, bu tashqi olamni o'zgartirishga, hayotni har qanday sharoitda dam tartibga solishga qodir bo'lgan qudratli kuchdir.

Insoniyat yaratgan boy madaniy qadriyatlar, jumladan, kishilik tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyatning umri bir inson umridan ancha uzun va, hatto, cheksizdir. U insoniyat ibtidosi va intihosini o'zida mujassam etadi. Bugun biz Misr, Rim, Samarqand, Buxoro, Xiva deganda ana shu ulkan va o'lmas madaniyatning naqadar barhayotligiga, yashovchanligiga, kelgusi avlodlarga g'oyat kuchli ma'naviy ta'sir o'tkazishiga ishonch hosil qilamiz. Chunki ayni ular tufayli tarix saqlanmoqda, O'tmish yashamoqda. Ular ajdodlarimizning buyuk taraqqiyot davrlaridan, o'ziga xos sivilizatsiyasidan xabar berayotgani kabi qulog'imiz ostida ajdodlar ruhining qo'ng'iroqlari eshitilib turadi, qalbimizga harorat, jismimizga qudrat baxsh etadi, istiqbolga da'vat etadi.

Albatta, har qanday sharoitda ham fan, madaniyat, san'at faqat ozod sharoitdagina rivojlanadi. Ijodiy jarayon avj oladi. Demokratiya so'z va fikr erkinligi orqali namoyon bo'ladi. Hozirgi zamon jahon madaniyati esa yaxlit insoniyat ruhi ozodligining noyob mo'jizasi sifatida yuzaga kelmoqda. Zotan, ruhning qudrati ozodlikda!

Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, demokratiya va so'z erkinligiga ehtiyoj qancha kuchaysa, xuddi ana shu demokratiya va so'z erkinligini ta'minlaydigan, uni boshqarib turadigan demokratiya madaniyatiga, so'z va fikrni erkin ifodalash axloqiga ega bo'lishga ham katta ehtiyoj tug'iladi. Bu yalpi xalq va jamiyatning siyosiy madaniyatiga, ongillik darajasiga bog'liq bo'lgan jiddiy va ayni paytda murakkab masala.

Kishilik jamiyati tarixi XX asrdagi singari favqulodda holatlarga, to'qnashuvlarga va ziddiyatlarga duch kelmagan. Ayni ana shu hodisa yangi yuz yillik taqdirini, mohiyatini belgilaydigan omilga aylandi. Siyosiy tafakkur, ijtimoiy falsafa, urush va tinchlik haqidagi yuyalar rivojlangani sari insoniyat tobora tahdid girdobiga tushmoqda. Xalqlar, millatlar endi bir-biridan ko'chib emas, bir-biriga intilib yashash (Islom Karimov) ehtiyoj ekanligini tushunib bormoqda. Ana shu anglash jarayonining o'zi bu qadimiy makonda umumsayyoraviy madaniyat darajasining oshib, madaniy tushunchalarning kengayib borayotganidan dalolat beradi. Urush



madaniyatsizlikdan tinchlik madaniyatiga o'tish zarurat ekanligi tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. Ana shu jarayonda jamiyat hayotida daxldorlik tuyg'usi, ya'ni xalqlar va millatlarning madaniyatlar orqali o'zaro yaqinlashishi jarayonlari tobora faollashmoqda. Jarayonning ijobiy tomoni shundaki, madaniyatlararo yaqinlashuv, madaniyatlararo integratsiya xalqlar o'rtasida o'zaro bir-birini tushunish darajasining oshishiga olib keladi.

Aslini olganda har bir millat yoki elat umumsayyoraviy madaniyatga o'ziga xos hissasini qoshadi. Shu bilan birga har bir milliy madaniyat o'z tarixiy ildizlariga tayanib, uning sarchashmalaridan bahra olib, umumtarixiy tajribalar bilan oziqlangan holda boyib boradi.

Har qanday madaniyat o'z milliy xususiyatlariga, milliy manbalariga, tarixiy tajribalar va jarayonlar asosida shakllangan qiyofasiga ega. Biroq ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarning tobora shiddat bilan umumsayyoraviy mohiyat kasb etayotganligi sababli go'yo umuminsoniy madaniyat dunyoga kelayotganday tuyuladi. Aslida esa milliy madaniyat o'z mohiyatini yoqotmoqda, «chatishtirilgan», sun'iylashtirilgan holatdagi majruh qiyofaga kirmoqda. Bunday «bedavo»likdan qutulishda esa faqat va faqat milliy tafakkur, milliy ong, milliy ruh alohida ahamiyat kasb etadi. Ayni ana shu muhim uchlik ustuvor bo'lgan sharoitdagina milliy va ma'naviy xaloskorlik tuyg'usi, o'z milliy qadriyatlarini himoya qilish immuniteti kuchayadi va u har qanday sharoitda ham o'zining kuch-qudratini namoyon etmog'ini hayot taqozo etmoqda.

Bir qarashda o'z milliy qadriyatlari, an'analari va madaniyatini zo'r berib himoya qilish kishiga xuddi shovinizm, natsionalizm va irqchilik kabi salbiy holatday tuyuladi. Ikkinchi tomondan esa umuminsoniy madaniyat tushunchasining tobora kengayib borayotgani millatlar va elatlar o'ziga xosligining yoqolishiga olib kelmoqda.

Bugungi dunyoni faqat o'zaro sog'lom muloqot, o'zaro bir-birini to'g'ri tushunish madaniyati asrashi mumkin. Xuddi ana shu muloqot – bir-birini eshitish va tushunish madaniyati inson hayotini urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga o'tkazadigan g'oyatda murakkab va ayni paytda ehtiyojga aylangan tarixiy hodisadir. G'oyatda kuchli qurolyarog'lar, harbiy aslahalar va harbiy qudrat bilan zo'ravonlik qilish, qolaversa, buyuk davlatchilik shovinizmi tahdidi hozirgi zamon sivilizatsiyasi nuqtai nazaridan ibtidoiy hodisaga aylandi.

Darhaqiqat, bugungi kunda dunyoda Yer sharini o'z o'qi atrofidan chiqarib yuborishga qodir bo'lgan qudratli harbiy aslahalar mavjud. Biroq undan foydalanish mantiqdan ancha yiroqdir. Chunki sog'lom fikrli har qanday kishi bunga yo'l qo'ymaydi. Yo'l qo'ygan taqdirda o'zi ham tirik

qolmaydi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda urush va tinchlik singari global muammoni faqat sog‘lom aql, sog‘lom idrok va zakovat orqali hal etishni davr taqozo etmoqda.

Davlatlararo, mintaqalararo mojarolarning yuzaga kelishi ayni siyosiy madaniyat muammosini yana ham dolzarb qilib qo‘ymoqda. Bu dolzarblik o‘zo‘zidan yuksak madaniyatni taqozo etadiki, madaniyat bor joyda ochiqlik, qalban va ruhan yaqinlik, o‘zaro bir-birini tushunish tuyg‘ulari yashaydi. Demak, tinchlik madaniyati bu bevosita madaniyatlar muloqoti, o‘zaro ishonch va bir-birini tushunish ko‘zguisidir. Bir-birini hurmat qilish, o‘zaro yaqinlashish orqali umumsayyoraviy madaniyat vujudga kelishiga olib keladi. Bu, albatta, urush va tinchlik yo‘nalishidagi madaniy hodisa. Lekin yana bir yo‘nalish borki, bu bevosita har bir xalq, har bir elatning o‘ziga xosligi bilan, tarixiy madaniy merosi va ma‘naviy qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon.

Hozirgi zamon talablari nuqtai nazaridan har qanday milliy madaniyat turli xalqlar madaniyati bilan muloqot qilishga qodir bo‘lmog‘i lozim. Ana shu muloqot jarayonida bir madaniyat ikkinchi bir madaniyatga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi, ham o‘zi boyiydi. Boshqacha qilib aytganda, o‘z madaniy qobig‘idan chiqmaslik, har qanday madaniyatga qarshi turish ojizlik va notavonlikdir, bugungi sivilizatsiya yutuqlaridan orqada qolish kabi qoloqlikdir. Boshqa bir madaniyatga qo‘shilib ketish esa milliy tanazzuldan boshqa narsa emas. Bu millatning inqirozi bilan teng bo‘lgan fojia. Ana shunday murakkab, ziddiyatli bir sharoitda o‘zaro ta‘sir va ergashish tuyg‘usi me‘yor doirasida bo‘lmog‘i lozim.

Rivojlangan davlatlar, katta xalqlar madaniyatidan o‘zini ko‘r-ko‘rona asrash, faqat o‘z milliy an‘analariga tayanish, o‘z olami ichida yashash milliy mahdudlikka olib kelsa, jahon madaniyatiga, zamonaviy sivilizatsiyaga keragidan ortiqcha ruju qilish undan ham og‘irroq oqibatlariga olib keladi. Demak, har qanday madaniy ta‘sir me‘yorlarini anglash, tajovuzdan o‘zini o‘zi asrash omillarini topish lozim.

Madaniyatlararo integratsiya dunyoni yangilashga, insoniyat tafakkurini boyitishga, uning madaniy saviyasini oshirishga katta xizmat qiladigan ulkan ijtimoiy-tarixiy hodisa. Biz jahon sivilizatsiyasidan ortda qolmasligimiz kerak. Hech bo‘lmaganda u bilan barobar yurishimiz, uning yutuqlaridan foydalana olishimiz zarur va, hatto, o‘z yutuqlarimiz bilan zamonaviy sivilizatsiya tajribalarini boyitishga intilmog‘imiz lozim. Biroq, bundan milliy xususiyatlarimizga, an‘analarimizga, turmush tarzimizga zid bo‘lgan madaniyatni olib kirish mumkin degan fikrga bormasligimiz kerak.

Madaniyatning milliy o‘ziga xosligi bu ma‘lum bir millatning mohiyati, qiyofasi, uning asrlar qa‘ridan yetib kelgan qadriyatidir. Milliy

madaniyat tushunchasi orqali biz asrlar sinovidan o'tgan, o'tmish tajribalarini o'zlashtirgan va ayni paytda hozirgi zamon madaniy tajribalar asosida o'zini boyitib borayotgan, uning yangidanyangi qirralarini ko'rsatayotgan jarayonni tushunamiz. Bu bevosita milliy ong, milliy tafakkur tarzi bilan bog'liq bo'lgan keng miqyosli voqelik. Ayni ana shu har bir millat va xalqning milliy onglilik darajasi o'sha millat yoki xalqning sivilizatsiyalashganlik darajasini ko'rsatadi.

Madaniyatlararo integratsiya avj olayotgan hozirgi davrda masalaning ijobiy va salbiy tomonlari ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Jumladan:

Birinchidan, katta xalqlar madaniyati sivilizatsiya ramzi sifatida kichik xalqlar madaniyatining rivojlanishiga, ularning taraqqiy topishiga, jahon sivilizatsiyasiga yaqinlashishiga yordam bermoqda. Bu albatta, har qanday milliy madaniyat o'z ehtiyoji nuqtai nazaridan jahon madaniyatiga intilishi orqali uning eng samarali, ijobiy jihatlarini qabul qilib, salbiy tomonlarini qabul qilmaslik kabi o'ta nozik, katta milliy madaniyatni, ma'rifatni va tabiiy ravishda axloqni taqozo etadi.

Ikkinchidan, katta xalqlar madaniyati kichik xalqlar madaniyatini yutib yubormoqda. Ularga kuchli ta'sir o'tkazib, o'ziga xosligini, milliy xususiyatlarini, qadriyatga aylangan urfodatlar va an'analarini shafqatsizlik bilan poymol etmoqda.

Uchinchidan, kichik xalqlar, jumladan, rivojlanish yo'lga chiqayotgan mamlakatlar jahon taraqqiyotidan orqada qolmaslik uchun uning yutuqlarini o'zlashtirish yo'lidan borishi tabiiy. O'z-o'zidan bunday xalqlar uchun jahon madaniyatiga intilish hissi kuchli bo'ladi. U ko'ndirish qiyin bo'lgan ehtiyojga aylanadi. Jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga ko'r-ko'rona yondashish oqibatida esa milliy o'ziga xoslik yo'qolib, madaniy-ma'rifiy inqirozga yuz tutishi mumkin. Bunday holatni bir necha shakllarda ko'rish mumkin:

Siyosiy sohada. Urush va tinchlik muammosi doimiy va hamisha dolzarb bo'lgan masalalardan biri. Dunyoni termoyadro xavfidan qutqarish, xalqlar va davlatlar o'rtasida mo'tadil iqlimni vujudga keltirish, diniy ekstremizm, fanatizm, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish, narkotik moddalarning tarqalishiga chek qo'yish singari global muammolarni hal etishda, mintaqaviy mojarolarni bartaraf etishda yuksak siyosiy madaniyat, urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga o'tish jarayonida o'ziga xos munozaralar va muzokaralar madaniyatini yo'lga qo'yish XXI asrning og'riqli masalalaridan hisoblanadi. Ushbu global masalalar yuzasidan gapirar ekan, I.Karimov mustaqilligimizning ikkinchi yilidayoq BMTning 48sessiyasida so'zlagan nutqida «Dunyo mojarolarini hal etishda sharqona munosabatlar ilmini egallash zarur» degan fikrni bildirgan edi. Bu bilan

notiq buyuk davlatchilik shovinizmi, katta davlatlarning kichik davlatlarga tazyiqi, zo'rvonlik illatlariga bardam berish, dunyo muammolarini hal etishda va jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini yaxshilik sari burishda muzokaralar yo'lini tanlash, har qanday mojaroli masalalarni aql-idrok, yuksak siyosiy tafakkur va madaniyat orqali hal etish zarurligini ko'rsatgan edi. Bu bilan O'zbekiston rahbari siyosiy maydonda davlatimizning sharqona axloq, sharqona odob va sharqona munosabatlar madaniyati orqali o'z siyosiy madaniyatini namoyon etgan edi.

Diniy sohada. Jahon dinlarining o'zaro integratsiyasi o'z aqidalari, diniy qoidalari va huquqiy me'yorlari nuqtai nazaridan faoliyat yuritgan holda dunyoviy masalalar yechimini topishda umuminsoniy qadriyatlar orqali yondashishni taqozo etadi. Dinlarning bir-birini inkor etishi, kamsitishi, bir dinning boshqa bir din ustidan hukmronlik qilishi singari illatlarga barham berishni, masalaga diniy qarashlar va e'tiqodlar turlicha bo'lgani bilan Alloh yagona ekanligi jihatidan yondashishni talab qiladi. Demak, Allohga intilish, yaqinlashish yo'li xilma-xil, unga yondoshish usullari turli tuman bo'lishi mumkin. Biroq Yaratganning o'zi yagonadir!

Iqtisodiy sohada. Birinchidan, jahon bozorining tobora kengayib borayotganligi, rivojlangan mamlakatlar yashlab chiqarish texnologiyalarining dunyoni zabt etayotganligi, rivojlanish yo'liga chiqqan davlatlarning ilg'or texnologiyalarga ehtiyojining oshib borayotganligi iqtisodiy qaram siyosatning vujudga kelishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Teng huquqli hamkorlik, davlatlarning katta kichikligidan qat'iy nazar, jahon hamjamiyatining teng huquqli subyekti sifatida har tomonlama aloqalarni va hamkorlikni yo'lga qo'yish, kichik davlatlar suverenitetini hurmat qilish kabi huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, axloqiy kamolotni taqozo etadi.

Ikkinchidan, madaniyatlarning o'zaro ta'siri kishilik jamiyati mohiyatini dam birmuncha o'zgartirmoqda. Rivojlangan davlatlar zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarining rivojlanish yo'liga chiqib olayotgan davlatlarga kirib kelayotgani faqatgina ijtimoiy-iqtisodiy hodisa emas. U ayni paytda odamlar tasavvuri va tafakkurini o'zgartirib yuboradigan, yangicha qarashlarni keltirib chiqaradigan voqelik. Bu yalpi jahon ishlab chiqarish maydonining vujudga kelayotganidan, hamma uchun umumiy bo'lgan ulkan «xonadon» shakllanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga an'anaviy madaniyat bilan jahon madaniyati uyg'unlashib borayotganini ham ko'rsatadi. Demak, hayotimizga ilg'or texnologiyalar bilan birga yangicha qarashlar va o'ziga xos madaniyat ham kirib keladiki, ularning ta'sirida milliy madaniyatlarni ma'lum darajada o'z qiyofasini va mazmunini o'zgartirishi mumkin bo'lmoqda.

Insoniyat tarixi bunday hodisalarning ko‘piga guvoh. Deylik, Chor hukumatining O‘rta Osiyoga temir yo‘l tizimini olib kirishi har qanday maqsadlardan qat’iy nazar sivilizatsiyaviy voqelik edi. Chunki, dunyoni faqat qo‘qon aravadan iborat deb tushungan xalq uchun ikkita tasma temir ustida uzundan uzoq haybatli narsaning pishqirib yurishi hayratomuz hodisa edi.

Biroq, masalaning ikkinchi tomoni ham bor edi.

Birinchiidan, Turkistondan qimmatbaho xom ashyoni oson yo‘l bilan samarali tarzda tashib ketish, tekin boylik orttirish maqsadi ustuvorlik qilar edi. Ikkinchiidan, Turkistonga to‘la egalik qilish maqsadi bilan yuz minglab nasroniylar ko‘chirib kelindi. Natijada milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy-axloqiy mezonlarimiz poymol etildi. Asta-sekinlik bilan chorizm «sivilizatsiyasi» milliy turmush tarzimizda fahsh va ichkilikbozlikni ko‘nikmaga aylantirdi. Millat o‘zligidan mosuvo qilindi. Bu milliy dunyoqarash va milliy tafakkurni tubdan o‘zgartirdi.

Ijtimoiy sohada davlatlararo hamkorlik, rivojlanayotgan mamlakatlarga beg‘araz yordam berish eng avvalo beg‘arazlik mohiyatini yorqin namoyon etmog‘i lozim. Turli qo‘poruvchilik harakatlari, manfaatlar ustuvorligi, ijtimoiy yordam niqobidagi buzg‘unchilik kayfiyatlaridan xoli bo‘lgan chinakam do‘stlik va sog‘lom manfaatdorlikka asoslangan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmog‘i kerak.

Madaniyatlararo integratsiya eng avvalo ma’naviy-axloqiy va ma’rifiy mezonlar, umuminsoniy qadriyatlar o‘lchovlari va tan olingan me’yorlar asosida qurilmog‘i lozim. Aks xolda katta xalqlar ruhiyatida milliy xudbinlik, milliy kalondimog‘lik, milliy manmanlik va asta-sekinlik bilan dunyo madaniyatiga egalik illatlari xuruj qilishi mumkin. Bu ayni paytda o‘zining ayrim salbiy jihatlarini namoyon etmoqda. Xususan, hozirgi zamon sivilizatsiyasi nuqtai nazaridan kichik xalqlar va davlatlarni urush, qon to‘kish yo‘li bilan emas, asta-sekinlik bilan, bosqichma bosqich milliy o‘zligidan ayirish, milliy an’analariga va urf-odatlariga zarba berib, ularning tarixiy ildizlarini qirqish, dunyoni omonat va qalqib turgan bir holatga keltirish tendentsiyasi ustuvorlik qilmoqda. Bunga jahon axborot bozorining tobora kengayib borayotganligi, xususan, internet tizimining rivojlanib borayotganligi bir jihatdan hozirgi zamon sivilizatsiyasining nodir va mo‘jizakor yutug‘i bo‘lsada, ikkinchi tomondan buzg‘unchi g‘oyalar, tajovuzkor mafkuralar osonlik bilan kirib kelishiga yo‘l ochib berayotgan, o‘z tarixi va madaniyatiga ega bo‘lgan xalqlar va millatlarning fikrini chalg‘itayotgan qudratli vositaga aylanmoqda.

Albatta, jahon axborot maydonidan ajralgan holda, hozirgi zamon taraqqiyoti namunalaridan xabarsiz ravishda milliy qobiqda qolib ketish

maqsadga muvofiq emas. Bunday holat har qanday xalqni milliy mahdudlikka, o'z qobig'ida qolib ketishiga va jahon taraqqiyotidan orqada qolishiga olib kelishi muqarrar. Biroq ana shunday murakkab g'oyalar kurashi, mafkuralar qaramaqarshiligi, betayin va yengiltak axborotlar xuruji avj olgan bir paytda har bir kishi umummilliy taraqqiyotga xizmat qiladigan, milliy madaniyat rivojiga ko'mak beradigan axborotlarnigina qabul qilishi zarur bo'lib qolmoqda. Bu har bir fuqaroning katta ma'naviy va ma'rifiy saviyasiga, axloqiy kamolot darajasiga, mamlakat va millat taraqqiyoti uchun javobgarlik tuyg'usining qay darajada shakllanganligiga bog'liq.

Hozirgi dunyo millatlar va xalqlarning Yer sharining qaysi hududida yashayotganidan qat'iy nazar birbiridan qochib emas, bir-biriga intilib yashashini taqozo etmoqda. Biroq ana shu o'zaro bir-biriga yaqinlashish eng avvalo bir-birini tushunishdan, bir-birini qadrlashdan, umumdunyoviy manfaatlar atrofida birlashishdan va eng muhimi, inson bebaho qadriyat ekanligini tushunish, tan olish va uni asrash uchun javobgar ekanligini his qilishdan iboratdir.

Turli davlatlarning sarmoyadorlari, nodavlat notijorat tashkilotlari rivojlanayotgan mamlakatlarga keng miqyosli yordam berishmoqda, homiylik qilishmoqda. Bu ijobiy hodisa. Biroq ayrim holatlarda moddiy moliyaviy ko'mak niqobi ostida g'oyaviy ta'sir o'tkazish, mafkuraviy buzg'unchilik va tajovuzkorlik yo'lidan borish holatlari ham ko'zga tashlanmoqda. Natijada aholi qaysidir qatlamini homiylik yordamlari orqali o'z hukmlariga bo'sundirish, ularning fikrini chalg'itish, buzg'unchi g'oyalarni iymoni sust odamlar ongi va qalbiga singdirish yo'li bilan butun bir millat hayotiga tahdid solinmoqda. Turli davlatlarda mavjud jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik, homiylik chuqurlashib borgani sayin asta-sekinlik bilan siyosiy tus olmoqda, davlatlarning ichki ishlariga aralashish maqomini egallamoqda.

Ayni paytda dunyoda siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarini xorijiy sarmoyadorlar tomonidan moliyalashtirishning huquqiy me'yorlarini ishlab chiqish va bu jarayonni qonun yo'li bilan muvofiqlashtirish tajribasi yuzaga kelmoqda. Biroq erkin hamkorlikni qat'iy tartibga solish, uni nazorat qilish jarayonini kimlardir demokratik qadriyatlar me'yorlariga zid deb qarashmoqda. Ammo ayni ana shu qat'iy intizom milliy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, milliy taraqqiyot izchilligini, tadrijiyligini ta'minlash uchun zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Boshqacha qilib aytganda, haqiqiy demokratiya, erkinlik, ozodlik bu qonunlar diktaturasi! Faqat umummilliy manfaatlarga xizmat qiladigan qonunlar doirasidagina haqiqiy demokratiyani, keng miqyosli erkinlikni barpo etish mumkin. Vaholanki,

bunday tajriba dunyoning bir qator mamlakatlarida mavjud. Jumladan, Yaponiyada nodavlat tashkilotlarni moliyalashtirish qattiq nazorat qilinadi. Bu yerda qabul qilingan huquqiy me'yoriy hujjatlar asosidagina bunday faoliyatni amalga oshirish mumkin.

Isroilda nodavlat tashkilotlar uchun xorijdan ko'rsatiladigan moliyaviy yordam Moliya vazirligi tomonidan taqiqlangan. Mamlakatda davlat konstitutsion tuzumiga zarar keltiradigan va Nizom talablari doirasidan chiqib ketgan, unga rioya etmagan nodavlat tashkilotlar faoliyati ishi sudda ko'rib, uning ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomasi bekor qilinadi. Doimiy ravishda nodavlat tashkilotlarning barcha moliyaviy harakatlari tekshirib turiladi. Mablag' o'tkazish jarayoni shubha tug'dirgan taqdirda bank bu haqda o'sha zahotiy oq tegishli idoraga ma'lumot beradi va amaldagi qonunlar asosida chora ko'riladi.

Frantsiyada nodavlat tashkilotlarning xorijiy grantlar va o'zaro hamkorlik asosida keladigan har qanday mablag'lardan foydalanishi Tashqi ishlar vazirligi bilan kelishilgan holda Ichki ishlar vazirligi tomonidan berilgan ruxsatnoma orqali amalga oshiriladi. Bunga mamlakatning tinch va barqaror hayotiga, osoyishta turmush kechirishiga xizmat qiladigan qat'iy intizom sifatida qaraladi. Zotan, har qanday o'zaro aloqalar, hamkorliklar qonun asosida va me'yoriy hujjatlarga tayangan holda amalga oshirilsa faoliyat erkin, daxlsiz va ayni paytda samarali bo'lishi shubhasiz.

Madaniyatlararo integratsiya xususida gapirar ekanmiz, turli madaniyatlar, urf-odatlar, xususan, kiyinish, o'zaro muomala madaniyati va, ayniqsa, qo'shiqchilik san'atining odamlar hissiyotiga tez ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini jiddiy tarzda nazarda tutish va nazorat qilish lozim. Chunki inson tabiatan qanchalik axloqli, tarbiyali bo'lmasin, u shunchalik yengiltaklikka, yengil yashashga, rohat-farog'atga moyil jonzot. Ana shu moyillik kayfiyati insonning kushandasiga aylanishi tabiiy. Chunki xuddi ana shu moyillik fazilatlar rivojlanishidan ko'ra illatlar rivojlanishini yengillashtiradi. Birinchi Prezident Islom Karimov «Aslida mening nazarimda, odamning qalbida ikkita kuch – bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o'zaro kurashadi. Afsus bilan ta'kidlash lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya'ni hatti-harakatlarini qo'zg'atib yuborish osonroq», deganida inson fenomenidagi ana shu fojiviy illatlarni nazarda tutgan edi. Ana shu haqiqatdan kelib chiqib aytish mumkinki, Forobiy, Beruniy, Shekspir, Navoiy, Gyote, Pushkin va Boburlarni tarbiyalab yetkazishdan ko'ra Ben Laden, Shomil Basaev va Tohir Yo'ldoshlarni yetishtirish ancha oson. Inson qonidagi xudbinlik, manfaatparastlik, yengil yashashga ishtiyoqmandlik, oson yo'l bilan farovon yashashga ehtiyojning kattaligi,

nafsning cheksizligi, qanday g'oya va maqsad yo'lida bo'lmasin tekin keladigan boylikka tez sotilish imkonini beradi. Insonning ana shu fojiiyaviy qismatidan kelib chiqib aytish mumkinki, har qanday erkin, demokratik jamiyatda inson qanchalik ozod va hur yashamasin, u ma'naviy-axloqiy me'yorlar, qonun belgilab bergan chegara doirasidagina ozod va daxlsiz bo'lishi mumkin. Bu bugungi dunyo ma'rifatini, madaniyatini belgilaydigan bebaho qadriyatdir.

Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayot va tarixiy jarayon mohiyatini keskin o'zgartirmoqda. Bu borada, ayniqsa, bugun «sariq matbuot» deb ataladigan xususiy nashrlar alohida mavqe egallamoqda. Mayda, ikir-chikir, g'iybatnamo xabarlar bilan to'lib-toshgan, odamlarni fikrlashdan, mushohada yuritishdan to'xtatib, yengil yelpi ma'lumotlar bilan ular ongini band etish jarayoni tobora chuqurlashib bormoqda. Qaysidir mashhur xonandaning oilaviy mojarolari, uning boyliklari va yashash tarzi, boshqa bir xonandaning qanday kliplar yaratayotganiyu ularni qaysi tarzda namoyish etishi haqidagi xabarlar gazetxonlarni mayda fikrlaydigan ojiz kishiga aylantirib qo'yish bilan birga yaxlit jamiyatni ommaviy savodsizlikka da'vat etishdek g'oyat xatarli vazifani bajarmoqda.

Albatta, so'z erkinligi, fikr erkinligi turmush tarzimizga aylanib bormoqda. Bu jamiyatimiz ma'naviy qiyofasini, insonning ijtimoiy hodisa sifatidagi qadriyat ekanligini ko'rsatadigan buyuk voqelik. Biroq, ana shu erkinlik uchun, aytilayotgan so'z, bildirilayotgan fikr, ilgari surilayotgan g'oya uchun javobgarlik kimning zimmasida? Millatni jaholatga, yalpi savodsizlikka, xurofotga da'vat etish demokratiyaning buyuk qadriyat sifatidagi mohiyatini tushirib yubormaydimi?

Biz demokratik tamoyillarning tobora chuqurlashtirib borish, uning keng imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarurligi xususida ko'p gapiramiz. Bu, shubhasiz, Hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasining ehtiyojidir. Erkin jamiyat, ozod va hur inson turmush tarzini vujudga keltirish bizning strategik maqsadlarimiz. So'z va fikr erkinligi hamisha biz uchun ehtiyojdir. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, matbuotni erkinlashtirish, so'z va fikr erkinligini ta'minlashga intilamiz. Biroq so'z mas'uliyati, fikr uchun javobgarlik kimning zimmasida. Buning uchun kim javobgar bo'ladi? Aytilayotgan har qanday so'z, bildirilayotgan har qanday fikr jamiyat taraqqiyotiga qay daraja daxldor? Umummilliy manfaatlarga xizmat qiladimi, degan savollarni ba'zan unutamiz. Vaholanki, erkinlikni his qilish, ozodlikni tushunish hamda demokratiyani anglashdan oldin unga qay darajada ma'naviy-axloqiy jihatdan tayyorligimizni hisobga olmaymiz. Natijada ozodlik va demokratiya milliy madaniyat ravnaqiga to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan g'oyatda xavfli hodisaga aylanadi.



San'at sohasida. Ma'lumki, har qanday san'at asari millat ruhining ko'zgusi, qalb tug'yonlari va his-tuyg'ularining ifodasi. U ayni ana shu jihati bilan ham qadriyatga aylanadi. Qadriyatlar esa hamma vaqt moddiyatdan ustun turadi, muqaddas hisoblanadi. Afsuski, bugun qo'shiqchilik san'ati moddiy ehtiyojlar mezoniga, nafsni qondirish omiliga aylandi. Avj olib ketayotgan «shoubiznes» tadbirkorlikning har qanday shaklidan ko'ra serdaromad, soliq to'lanmaydigan, mo'may daromad manbai bo'lib qoldi. Bozorlarda, aholi gavjum joylarda turlituman behayo kassetalar va disklarning sotilayotganligi nazorat qilinmayapti. Beyuzlik, andishasizlik, ko'rimsiz turmush tarzi fazilatga aylanib bormoqda. Achinarlisi shundaki, ayni ana shu yo'lni tanlaganlar o'zlarini millat timsoli, qadriyatlar ramzi sifatida ko'rsatmoqdalar va bundan uyalmayptilar. Yoshlar esa ommaviy tarzda ularga ergashmoqda, ulardan ibrat olishmoqda.

Atoqli shoir Yevgeniy Yevtushenko bir paytlar reklamalar, kliplar va san'atdagi tuturuqsizlik haqida chuqur iztirob bilan gapirgan edi. U «Tabiat zilzilalar, dahshatli suv toshqinlari bilan bizni qo'rqitadi. Biroq, bu qo'rquv gazeta va jurnallar, televideniye orqali yopirilib kelayotgan majruh reklamalar tahdidi oldida hech narsa emas. Har qanday reklama falsafasi yo'q odamning falsafasiga aylandi. Kliplar esa sayyoramizning bosh imijmeykeri maqomini egalladi. Bugun Maykl Jekson Shekspirdan ko'ra mashhur. Rossiya yoshlari orasida pop qo'shiqchi Kirkorovning mashhurlik darajasi Chaykovskiy, Tolstoy va Soljenitsinning birgalikdagi mashhurligidan ham oshib ketdi», degan edi. Bu iztirobning tagida juda katta milliy dard, milliy armon, ayni paytda achchiq haqiqat yotadi. Chunki bugungi yoshlar yengiltak qo'shiqchilar va yengil fikrlaydigan odamlar ortidan quvadigan, ularga taqlid qiladigan bo'lib qolishdi. Bunday holat bizda yuz bermayapti, deysizmi?!

Televidenie orqali ketma-ket berilayotgan bema'ni qo'shiqlar, yarim yalang'och raqslar, o'g'rincha musiqalar yengiltak, axloqsiz hayotni targ'ib qilish vositasiga aylanmoqda. Bu, ayniqsa, aholisining 64 foizini 35 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar tashkil etadigan O'zbekistondagi bolajon mamlakatda g'oyat xatarli, millat istiqboliga tahdid soluvchi hodisa emasmi?

Balki bugungi milliy estradamizning «eksperiment»lari kimlar uchun zarurdir. Umuman olganda har qanday taraqqiyot tajribalar asosida quriladi, ular tufayli takomillashib, qadriyatga aylanadi. Biroq bunday tajribalar dastlab ayni ana shu yo'nalish ishqibozlari to'plangan joyda, maxsus auditoriyada sinovdan o'tkazilishi, ommaviy minbarlarni egallab olib, bir necha ming yillik an'analarimizni, madaniyatimizni, san'atimizni oyoqosti

qilmasligi kerak. Ana shu g'oyat og'riqli masala xususida gapirar ekan, «Ma'naviyat, mafkura borasida chetdan ko'rko'rona nusxa ko'chirib, biron natijaga erishib bo'lmaydi, chunki bizning dunyoqarashimiz, xalqimizning tafakkuri, turmush tarzi nihoyatda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi», degan edi Birinchi Prezident Islom Karimov.

Aslini olganda terrorchilik, kamikadzelik holatlari haqida ko'p gapiramiz. Buni gapirishga ehtiyoj ham bor. Zotan, bugungi dunyo ayni ana shu tajovuzkor hodisadan jabr ko'rmoqda. Buyuk qadriyatlar toptalmoqda. Insoniyat hayotiga misli ko'rilmagan tahdid solinmoqda. Biroq jismoniy harakat, fe'l-atvor va intilishlar bilan bog'liq bo'lgan, qandaydir manfaatlarni o'zida mujassam etgan bunday holatlarga yuksak madaniyat, ma'rifat, axloq-odob qaysidir darajada qarshi turishi, chek qo'yishi, unga qaqshatkich zarba berishi ham mumkindir. Qaysidir hududdagi qanchadir odam hayotiga zomin bo'ladigan bunday g'ayriinsoniy holatlarga chek qo'yish ham mumkindir. Lekin butun millatni buyuk tarixidan, ulkan madaniy merosidan ayirib, insoniyat hayotiga ma'rifat olib kirgan xalq hayotini izdan chiqarish, milliy an'analari va madaniyatini buzib yuborish orqali tanazzulga da'vat etishdek madaniy terrorning bahosi qancha? Uning o'lchovi, me'yori, ko'lami bormi? Bunday savollarga javob izlash XXI asr sivilizatsiyasining bugun mohiyatini belgilaydigan hodisa sifatida o'z bahosini olmogi lozim.

Boy musiqiy merosimizni asrab avaylash, zamonaviy ijrochilikni rivojlantirish, folklor an'analarini davom ettirish va yangi bosqichga ko'tarish, jahon madaniyatining eng sara namunalarini o'zlashtirish orqali biz o'z imkoniyatlarimizni, milliy qiyofamizni namoyon etamiz. Ana shu o'ziga xoslik, milliylik bizga ajdodlardan muqaddas meros, kelgusi avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatdir.

## MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA TARIX FALSAFASI

XX asrning so‘nggi o‘n yilligi insoniyat tarixida yangi davrni boshlab berdi. Totalitarizm, ma‘muriy-buyruqbozlik va zo‘ravonlik g‘oyalariga tayangan sotsializm barbod bo‘ldi. G‘ayriinsoniy goyalar tashviqotchisi bo‘lgan kommunizm mafkurasi inqirozga uchrab, mustamlakachilikning so‘nggi qo‘rgonlari quladi. Bashariyat taqdirida inson va jamiyatni ozod etishning yangi bosqichi, yalpi yangilanishlar jarayoni boshlandi. Bunday tarixiy o‘zgarishlar dunyo iqtisodiy, ma‘naviy hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining ilgari misli ko‘rilmagan keng miqyosli yangilanishlar pallasiga kirganliganing ravshan ifodasidir.

Umumjahoniy yangilanishlar jarayoni avval muayyan mamlakat, keyin bir guruh davlatlar, oxir-oqibatda barcha mamlakatlar taqdiriga, jamiyatlar va jamoalar, alohida insonlar hayotiga bevosita va bilvosita ta‘sir ko‘rsata boshladi. Dunyo yangilanishlari jarayoniga har bir davlat o‘z taraqqiyot ko‘lami, ilmiy-ma‘rifiy va ma‘naviy saviyasi, kamoloti darajasidan kelib chiqqan holda qo‘shila boshladi.

O‘zbekiston umumplanetar o‘zgarishlar jarayonlari oqimida o‘zining betakror ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy yangilanishlari dasturiga ega bo‘lgan mamlakat sifatida o‘ziga xos va o‘ziga mos mavqe egalladi. Yangi sivilizatsiya va insoniyat taraqqiyotiga kuchli ta‘sir o‘tkazishga qodir bo‘lgan davlat sifatida o‘zining keng imkoniyatlarini namoyon eta boshladi.

O‘zbekistonda amalga oshirilgan favqulodda keng ko‘lamdagi ishlar hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi bilan mushtarak ekanligi alohida qayd etilishi lozim.

O‘zbekistonda milliy, regional va umumplanetar mo‘ljallar doirasida izchil va tadrijiy kechayotgan yalpi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida o‘rganish, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil etish, baholash hamda ilmiy-nazariy umumlashmalar qilish asnosida bu jarayonlarni maqsadli boshqarish O‘zbekistondagi yangilanishlar rivoji o‘ziga xos kechayotganligini ifoda etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy hayotni maqsadli takomillashtirish, bu muhitni umuminsoniy va milliy tamoyillar uyg‘unligi ruhida rivojlantirish, siyosiy plyuralizmga shart-sharoitlar yaratish, liberalizm muhitini har tomonlama kengaytirishga da‘vat etish orqali mamlakatimizda yalpi yangilanishlar jarayoni boshlanishiga nazariy poydevor qo‘yidtsi. Davlat tuzumi, jamiyat qurilishi va shaxs ma‘naviy dunyosini tubdan isloh qilish yangilangan davlat, o‘zgargan jamiyat va komil shaxsni yaratish imkonini berdi. Davlat, jamiyat va shaxsni yangilash jarayonlari, bu jarayonlarni maqsadli boshqarish nechog‘li aqliy shijoat,

dono siyosat hamda matonatni talab etganligiga bugungi kunda amin bo'lib turibmiz. Zero, bu boshqaruv sermashaqqat va murakkab kechuvchi ijtimoiy-siyosiy voqealar, mafkuraviy ta'sir va tazyiqlar, maxsus yuzaga keltirilgan moddiy-moliyaviy tangliklar holatlari sharoitida amalga oshirildi.

O'zbekiston yalpi yangilanishlar jarayonini ikki o'zaro uzviy bog'langan yo'nalishlarda amalga oshirishga kirishdi. **Birinchisi**, mamlakatning ichki dunyosida, ya'ni iqtisodiyot, ma'naviyat, siyosat, turmush tarzida, xalq xarakteri va mentalitetida rejaviy asoslarda amalga oshirilayotgan yangilanishlar majmuidan iborat bo'lsa, **ikkinchi yo'nalish** – xalqaro ijtimoiy muhit manzarasini takomillashtirish, ya'ni qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlarni barqarorlashtirish, kolliziya muhitidan murosa, hamkorlik munosabatlari, tinchlik madaniyatiga o'tish, millatlararo, davlatlararo, konfessiyalararo tolerantlik munosabatlarini chuqurlashtirish, insoniyatga umumiy xavf tug'diruvchi terrorizm, narkobiznes, ekstremizmga qarshi xalqaro tashkilot tuzilmalariga asos solish va boshqa faoliyatlar majmuidan tashkil topadi.

O'zbekistonda yalpi yangilanishlar jarayoni Islom Karimovning **qonunlar o'zgarishlar jarayonlaridan avval yurishi kerak**, degan metodologik ko'rsatmasi asosida amalga oshirila boshlangandi.

Dastavval, O'zbekiston mustaqilligining huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. Mamlakatning istiqlol Konstitutsiyasi qabul qilindi. Milliy davlat tizimi an'anaviy davlatchilik g'oyalari va jahon davlatchiligi ilg'or tajribalarining sintezi shaklida barpo etildi. Boshqaruvda yangi usullar qaror tottsi. Mahalliy davlat hokimiyati tizimida tub o'zgarishlar yasaldi. Nodavlat tuzil-malar, jamoat tashkilotlari va o'z-o'zini boshqarish organlarining vakolatlari kengaytirildi.

Ko'p partiyaviylik tizimi tarkib topishiga keng sharoit yaratiddi. Jamiyat hayotida sog'lom demokratik jarayonlar muhiti vujudga keldi va chuqurlashdi. Inson haq- huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy asoslari vujudga kelmoqda. Sud hokimiyati mustaqillik mohiyati va hozirgi zamon xalqaro huquq tamoyillari negizida tubdan isloh qilindi.

Millatlararo totuvlikni ta'minlash choralari ko'rildi. **MILLIY** xavfsizlik kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Mamlakat hududiy yaxlitligini va tinchligini ta'minlashga qodir bo'lgan zamonaviy qurolli kuchlar tizimi yaratildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy tamoyillari doirasida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi qilib belgilandi.

Iqtisodiy islohotlarning «o'zbek modeli» vujudga keldi. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish, pul-kredit siyosati tamoyillari ishlab

chiqildi. Mulkchilik, mulkka egalik tushunchalari shakllandi. Mulkdorlar tabaqasi vujudga keldi. Xususiy mulkka egalikning yangi tizimi barpo etildi.

O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy poklanish, milliy qadriyatlarni tiklash, vorislik an'alariga sadoqatli avlodni tarbiyalash va amaliyotga joriy etish kontsepsiyasi ishlab chiqildi. Mamlakatimizni ozod va obod jamiyatga aylantiruvchi, vatan ravnaqini ma'naviy ta'minlab beruvchi milliy istiqlol goyasi shakllandi.

Milliy istiqlol mohiyati va mustaqillik g'oyalarini anglashda tarixiy shaxslar, buyuk allomalar va sarkardalar, xususan, Ahmad Farg'oniy, Burhoniddin Marg'inoniy, At-Termiziy, Imom Buxoriy, Al-Moturidiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ulug' ajdodlarimiz haqidagi tarixiy haqiqatning ro'yobga chiqishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning «yangi jamiyat qurishda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot va ta'lim-tarbiyaning roli oshirildi. Bu sohani tubdan isloh qilish va yangilash jarayonlari izchil amalga oshirilmoqta.

Mustaqil O'zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli va faol sub'ektiga aylandi. U Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida o'ziga xos va o'ziga mos o'ringa ega bo'lib, mintaqa taraqqiyotida muhim rol o'ynay boshladi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik va qardoshlik munosabatlarini yanada rivojlantirishning strategik yo'nalishlari ishlab chiqildi.

Bunday keng ko'lamdagi o'zgarishlar va yangilanishlar jarayoni chuqur asoslangan ilmiy-nazariy tahlilni, nazariy umumlashmalar, xulosalar chiqarishni, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni ijtimoiy-gumanitar fanlar oldiga dolzarb muammo sifatida qo'ymoqda.

Darhaqiqat, yalpi o'zgarishlar jarayonlarining pirovard natijasida ijtimoiy ong mazmunida o'zgarishlar yuz bera boshladi. Odamlar tafakkurida, fe'l-atvorida, sa'y-harakatlarida yangi qadriyatlar qaror topdi. Hayotga munosabatlar tizimi o'zgardi. O'zbek mentaliteti, milliy xarakter mazmunida yangi jihatlar tarkib topa boshladi. Bu bevosita siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy sohada tub yangilanishlarga, o'zgarishlarga ma'naviy asos bo'lib xizmat qildi.

Mamlakatda huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning o'zbekona tamoyillari vujudga keldi. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tarixi, qadimiy madaniyat tiklana boshlandi. Xalqning azaliy urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlarini uning o'ziga qaytarildi. Dinga munosabat ijobiy tomonga o'zgardi.

### **Iqtisodiy sohada tarkibiy o‘zgarishlar**

Istiqlol davrida iqqisodiy infratuzilmalar tarkibi tubdan o‘zgartirilib, mamlakatning ichki ehtiyojlari hamda tashqi integratsiyalashuv maqsadlari asosida-gi yaxlit ishlab chiqarish kompleksi vujudga keltirildi. Tarqoq, uzuq-yuluq, sobiq ittifoq manfaatlarini ifodalovchi ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatlarini qayta qurish, yangilarini barpo etish asosida mustaqil davlatning yagona ishlab chiqarish tizimi barpo etildi. Boshqacha qilib aytganda, mamlakatda sobiq ittifoq manfaatlariga yo‘naltirilgan koordinatsiyaga barham berilib, ichki va teng huquqli, foydali hamkorlik asosidagi xalqaro koordinatsiyalashuv jarayoni vujudga keltirildi. Shunday qilib, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, uning iqqisodini chetdan turib boshqarishga chek qo‘yilib, ichki imkoniyatlardan kelib chiqib boshqariladigan yagona, mustahkam asoslarga ega tizim yaratildi. Ayni paytda jahon iqtisodiy tizimining muhim bo‘g‘iniga aylana borib, O‘zbekiston xalqaro iqtisodiy koordinatsiyalashuv jarayoniga faol kirishdi. Uning uzviy va ishonchli bo‘g‘ini, keng imkoniyatli sub’ektiga aylandi.

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hammabop tavsiyalari, tayyor avdozalari bo‘lmaydi. Ayniqsa, madaniy, ma’rifiy, tarixiy tajribalari asrlar mobaynida shakllangan, mustahkam va barqaror an’analar mamlakati hisoblangan O‘zbekistonday qadimiy makonda o‘ziga xos va o‘ziga mos yo‘l tanlanganligi istiqbolni donishmandlarga xos bashorat qilishning yorqin namunasi edi. Zero, shu nuqtai nazardan Islom Karimovning «mustaqil O‘zbekiston tug‘ilgan kuniyoq oyoqqa turishga, o‘zi yurishga majbur edi», – deyishida chuqur mantiqiy asos bor edi.

Binobarin, istiqbol yo‘li taraqqiyot tamoyillarini ishlab chiqish jarayonlarida Islom Karimov sobiq sovet tuzumidan meros qolgan tajribalarni, mustaqil taraqqiyotning dastlabki yilida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqur tahlil qilib, «soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo‘l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o‘tish – tanlab olingan yo‘lning asosiy mazmun va mohiyatidir», – degan xulosaga keladi.

Ayni chog‘da Islom Karimov «O‘zbekiston o‘zi uchun tanlab olgan yo‘l ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan, respublikaning manfaatlariga, shart-sharoitlari va xususiyatlariga eng ko‘p darajada mos keladigan bozor iqqisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir. Ayni mana shunday yo‘l O‘zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqpari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an’analari va madaniyatining qayta tiklanishi, insonni shaxs sifatida ma’naviy, axloqiy kamol topishini ta’minlashi mumkin», – deb qatib ko‘rsatib bergan edi.

Islom Karimov mamlakatning dastlabki yillardagi rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, O'zbekistonda milliy davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi sifatida quyidagi beshta asosiy qoidani o'rta tashladi:

**Birinchi qoida** – iqtisodiy islohotlarning siyosatdan ortda qolmasligi, biror mafkuraga bo'ysundirilmasligi qoidasi.

**Ikkinchi qoida**–o'tish davrida davlatning bosh islohotchi bo'lishi, islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi qoidasi.

**Uchinchi qoida**– qonunlarga rioya etish ustuvor tamoyil bo'lishi, demokratik yo'l bilan qabul qilingan istiqlol Konstitutsiyasi va qonunlarni hech istisnosiz hamma tomondan hurmat qilinishi va ularga og'ishmay rioya etilishi qoidasi.

**To'rtinchi qoida**–aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazilishi qoidasi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasvdan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilib borildi va bu masala bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng dolzarb vazifa bo'lib qoldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

**Beshinchi qoida** – bozor iqtisodiyotiga o'tishda ob'ektiv iqtisodiy qonunlar talablari hisobga olingan holda «inqilobiy sakrash»larsiz, ya'ni evolyutsion yo'l bilan puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi qoidasidir.

Ana shu muhim qoida – tamoyillar O'zbekistonning mustaqil rivojlanish va taraqqiyot yo'liga asos qilib olindi hamda yangi ijtimoiy-siyosiy tizimga tadrijiy o'tish jarayonlarining negizini tashkil etdi. Istiqlol davrining o'tgan o'n yili shuni yaqqol isbotlaydiki, rivojlanishning mashhur besh tamoyilining amalga oshirilishi mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchil harakat qilishni to'la ta'minladi.

Islom Karimov o'zining «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli kitobida iqtisodiyotni tubdan isloh qilish kontseptsiyasini yana ham chuqurroq ko'rsatib beradi. Unda nazariy, ilmiy va hayotiy jihatdan muhim xulosalar asoslanib, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishning O'zbekiston uchun afzalliklari maxsus yoritib beriladi. Jumladan, «bir bosqichni tamomlagandan keyingina, zarur shart-sharoitlarni yaratib, yangi bosqichga o'tish mumkin, chunki har bir bosqichda tafakkurimizni o'stirib, eri-shilgan real natijalar bilan odamlarni yangi tuzumning afzalligiga ishontiribgina islohotlarni oxirigacha amalga

oshira olamiz. Iqtisodiy strukturasi rivojlangan, samarali ijtimoiy munosabatlarga ega bo'lgan jamiyatni qura olamiz».

Ushbu kitobning ikkinchi qismida Islom Karimov mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish borasidagi asosiy vazifalar – xususiylashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy valyutani mustahkamlash, ijtimoiy kafolatlari kuchli bo'lgan demokratik davlatni shakllantirish kabilarni belgilab, muammolarning nazariy, ilmiy va amaliy echimini topib beradi. Shunday ekan, mazkur masalalar rivojining ustuvor yo'nalishlari quyidagicha bo'lishi hayot mantig'ining tadrijiy o'zgarishlariga ham ayni muvofiq keladi:

**birinchidan**, mulkchilikning barcha shakllariga erkinlik berilishi, shaxsiy tashabbus va ishbilarmonlikka yo'l ochish, tadbirkorlikning qo'llab-quvvatlanishi;

**ikkinchidan**, iqtisodni jonlantirish uchun xususiylashtirish jarayonining tezlashuvi, mulkchilik, mulkka egalik huquqining kengaytirilishi;

**uchinchidan**, milliy valyutaning joriy qilinishi, jahon moliya tizimi maydonlariga endigina kirib kelgan valyutamiz qadr-qimmatini barqarorlik darajasining ta'minlanishi;

**to'rtinchidan**, iqtisodiy siyosatda dehqonchilikka, umuman qishloq hayotiga an'anaviy muhim tarmoq sifatida qaralishi;

**beshinchidan**, o'tmish madaniyati va qadriyatlarini tiklash ishlarini yo'lga qo'yish, bu borada izchil tadbirlarni amalga oshirishdan iborat kontseptsiya va iqtisodiy islohot nazariyasining yaratilishi.

Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli ilmiy-nazariy asarida islohotlarning «o'zbek modeli»ga xos yangi davr talablariga monand tamoyillarini o'rtaga tashladi va kechayotgan jarayonlar mohiyatini ochib berdi.

Keyingi yillarda ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida, eng avvalo, iqtisodiyotda ro'y bergan o'zgarishlar O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti asoslarini shakllantirishga qaratilgan tub islohotlarni bosqichma-bosqich, izchil, har tomonlama o'ylangan yondashuv, ilmiy-nazariy jihatdan puxta ishlab chiqilgan kontseptsiya asosida amalga oshirish ishonchli hodisa ekanligini ko'rsatdi.

Mamlakatda mavjud imkoniyatlardan ratsional foydalanib, taraqqiyot ehtiyojlariga to'la javob beradigan islohotni amalga oshirish quyidagi masalalarni hal etish imkonini berdi.



**Birinchi**dan, o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning me'yoriy-huquqiy bazasi yaratildi. Qabul qilingan yangi qonunlar hozirgi kunda bozor iqtisodiyotining me'yor va tamoyillariga muvofiq keladigan shart-sharoitlarni shakllantirmoqda. Iqtisodiy erkinliklar va xususiy mulk huquqining mustahkam yuridik himoyasini ta'minlamoqda. Iqtisodiyotning turli sohalarida bozor mexanizmlarining samarali ishlashi uchun keng huquqiy maydonni yaratmoqda.

**Ikkinchi**dan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tartibotlari va tuzilmalariga barham berish, institutsional qayta qurishlarni amalga oshirish, bir tomondan, iqtisodiyotni tashkil etishning bozor printsiplariga xos bo'lgan tuzilmalarini yaratish, tarmoq vazirliklarini tugatish, davlat mulki hissasini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish hisobiga keskin kamaytirish, ko'p ukladli iqtisodiyot va uni boshqarish tuzilmalarini yaratish.

**Uchinchi**dan, 80-yillar oxiridagi chuqur iqtisodiy tanazzulni engib o'tish, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, barqaror iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratish. Aynan iqtisodiy islohotlar «o'zbek modeli»ning amalga oshirilishi tufayli islohotlarning dastlabki yillarida ishlab chiqarishning keskin, halokatli pasayishini to'xtatishga, iqtisodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini saqlab qolishga, milliy iqtisodiyotni tiklashning mustahkam asoslarini yaratishga erishildi.

**To'rtinchi**dan, mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini, O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko'lamda qo'shilishini ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiyotning chuqur tarkibiy qayta qurish dasturini amalga oshirishga kirishildi. Qisqa davr mobaynida iqtisodiyot tarmoqlarini va aholi ehtiyojlarini o'zimizda ishlab chiqarilgan energetika resurslari, sifatli neft mahsulotlari hisobiga ta'minlash masalasi tubdan hal qilindi. G'alla mustaqilligi choralari ko'rildi.

Shunday qilib, yonilg'i va don mustaqilligiga erishildi, bu esa mamlakatning barqaror taraqqiyoti va odamlar farovonligining asosi va kafolatidir. Mamlakatning don va neft bozorlaridagi jahon narxlarining o'zgarib turishiga tobeligi ancha cheklandi, ulardan bo'shagan valyuta manbalari esa zamonaviy uskuna va texnologiyalar xarid qilishga yo'naltirildi.

**Beshinchi**dan, bozor infratuzilmasi asoslari, zamonaviy ikki darajali bank tizimi yaratiddi. Hozirgi kunda respublikada sug'urta kompaniyalari, tovar-xom ashyo birjalari, sarmoya fondlari tarmog'i ishlab turibdi, fond birjasi va ko'chmas mulk birjasi, Markaziy depozitariy va ikkinchi daraja depozitariylari, lizing va konsalting kompaniyalari, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Dehqon va fermer xo'jaliklari

uyushmasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bularning hammasi faol tadbirkorlik faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilishga yo'naltirilgan.

**Oltinchidan**, kuchli ijtimoiy siyosatni, aholining muhtoj qatlamlarini mo'ljalli ijtimoiy himoya bilan ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni, fuqarolar osoyishtaligini va millatlararo totuvlikni ta'minlash borasida aniq natijalarga erishildi.

Mustaqillik yillarida sodir etilgan iqqisodiy o'zgarishlar natijalariga berilgan bunday umumiy baho ham isloh qilish dastlabki bosqichlarining asosiy vazifa va maqsadlari muvaffaqiyatli amalga oshirilganligidan dalolat beradi.

Davlat iqtisodiy islohotlar o'tkazish uchun huquqiy, tashkiliy va iqqisodiy sharoitlar yaratish bilan birga ayrim korxonalarni, sohalarni, ba'zan esa butun iqtisodni boshqarishning bozor tamoyillariga o'tishini ta'minlashga harakat qildi. Buvda davlat boshqaruvi vazifalari va mexanizmlari tubdan o'zgarib, ma'muriy-buyruqbozlik tamoyillari o'rniga iqqisodiy va moliyaviy tartibga solish tamoyillarining roli tobora kuchayib bordi.

Ko'p qirrali islohotlar davrida, jamiyat mentaliteti tubdan o'zgarayotgan, tuzum yangi mazmun va tartibotlarga kirayotgan bir paytda aholi ma'naviy-ruhiy ehtiyojlariga mos keluvchi, xalqni istiqbolga etaklovchi hayotbaxsh intilishlar ifodasi bo'lgan g'oyalar va maqsadlar bilan qurollantirish katta ahamiyatga egadir.

Shunday ekan, islohotlar samarasi xalq dunyoqarashi, madaniy va ma'naviy qadriyatlariga ongli munosabati bilan bevosita bog'liq hodisadir. Agar yangilanishlar odamlar ongi va dunyoqarashi, qalbi va ruhiyati orqali o'zini namoyon etsa, u yashovchan va samarali bo'ladi. Shuning uchun ham O'zbekistonda davlatning yangilanishlar strategiyasi sifat jihatidan o'zgarayotgan jamiyat, yangicha tafakkur asosida vujudga kelayotgan ijtimoiy guruhlarning qadriyat mo'ljallari bilan uyg'unlashib ketgan.

Madaniyat va ma'rifatning ustuvor hodisa sifatida talqin etilishi ma'naviy voqelik sifatidagi takomillashuv jarayonining chin insoniylik mohiyatini belgilaydi. Inson ayni ana shu qadriyatlar orqali kamolotga etadi, hayotda, jamiyatda o'z mavqeiga, o'rniga, nufuziga ega bo'ladi. Inson faoliyatlari mahsuli ayni ana shu ma'naviyat va ma'rifat orqali qadriyatga aylanadi.

Islom Karimovning qadriyatlar ustuvorligi kontsepsiyasi xuddi ana shu jihatlar tufayli ham qimmatli. U ma'naviyatni, ma'rifatni jamiyatning yo'naltiruvchi kuchi deb biladi. Ana shu nuqqai nazardan ham «Men ma'rifatli jamiyat qurmoqchiman» deydi. Ma'rifatli jamiyatda esa inson,

ma'naviyat, axloq, tafakkur mezonlari hal qiluvchi mazmun kasb etadi. Shuning uchun ham Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq «Ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyat islohotlarga tayyor bo'ladi», degan edi.

I.Karimov mamlakat istiqboliga doir tadbirlar tizimini belgilar ekan, uning eng avvalo yuksak ma'rifat va madaniyat mamlakati bo'lishi, shu asosda barcha islohotlarning ma'rifiy negizini yaratish nuqtai nazaridan ish tutadi. I.Karimov iqqisodga, huquqiy va siyosiy islohotlarga, shuningdek, jahon muammolarini hal etish, tinchlikni ta'minlash masalalariga ham ma'rifiy ko'z bilan qaraydi, yuksak madaniy va umuminsoniy qadriyatlar talablari asosida yondashishga da'vat etgandi. Ana shu jihatlarni hisobga olgan Islom Karimov «Ilmiy va madaniy sohadagi mavjud imkoniyatlarni saqlab qolish, qayta tiklash, ko'paytirish maqsadida bundan buyon fundamental fanning, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga, aqliy va ijodiy mehnat xodimlarining obro'yini oshirishga davlat tomonidan zarur mablag'lar ajratilave-radi», – degan edi. O'tish davrida iqqisodiy jihatdan birmuncha qiyinchiliklar sezilayotgan bir paytda ma'naviy hayotimizga davlat e'tiborining ustuvor mavqe kasb etishi insoniy g'amxo'rlikning yorqin ko'rinishidir.

### **Demokratiya haqida mulohazalar.**

Milliy istiqlol bilan bog'liq bo'lgan butunlay yangi tarixiy-ijtimoiy voqelik, demokratiya deganda domlalarimiz uqtirgan, falsafa fanida aniq mazmunga ega bo'lgan «xalq hokimiyati» degan ancha sodda va yuzaki tushuncha mohiyatini xiyla chuqurlashtirdi. Darhaqiqat, bungacha uning asl mazmuni, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, inson haq-huquqlarini belgilashdagi vazifasi xususida ko'p ham o'ylamaganmiz. Chunki bizda bunday sharoit ham, zarurat ham yo'q edi.

«Qizil imperiya» demokratiyani o'zicha tushundi va bizni ham o'z tushunchasi doirasida tarbiyaladi. Qarashlarimiz uning ta'sirida shakllandi. Ongimiz va tafakkurimizga inson manfaatlariga, uning yashash huquqiga zid bo'lgan g'oyalar singdirildi. Inson o'ylamaslik, fikrsizlik qobig'ida qolib ketaverdi.

Demokratiya – kishilik tarixida insonning ongli hayoti boshlangan davrdan boshlab, uning erk-irodasini, xohish-istagini belgilaydigan mezon bo'lib kelmoqda. Albatta, bu borada kishilik jamiyati shakllanish davridan tortib to sivilizatsiyalashgan turmush tarzi, har jihatdan chuqur ildiz otgan davlatchilik va shu asosda ma'lum tartib- qoidaga kirib qolgan aniq yo'nalishlar o'rtasida katta farq bor. Chunki asrlar mobaynida odamlar dunyoqarashi o'zgarib, talab-ehtiyojlari oshdi. Hayotga munosabatlari

yangicha tus oldi. U har bir davrning o'ziga xos mahsuli sifatida yangidan-yangi shaklga kira boshladi.

Demokratiya bevosita jamiyat taraqqiyoti, uning siyosiy, huquqiy, ma'naviy va boshqa jihatlari bilan birga ana shu jamiyatni tashkil etgan aholi umumiy dunyoqarashini o'zida mujassam etadi. Boshqacha qilib aytganda, aholining turmush tarzi, an'analari va urf-odatlarini asosida shakllangan ma'naviy-ruhiy olami jamiyatda qaror topadigan demokratik jarayonlar mazmunini belgilaydi. Aks hodda, demokratiya davlat mafkurasi asosida qurilsa, uning o'z manfaatlariga mos keladigan siyosatiga xizmat qiladi. Agar demokratiya siyosiy «o'yin»lar holatiga kirsam, mamlakatda parokandalik, anarxiya vujudga keladi. Zero, har qanday davlat o'z huquqiy asosiga, siyosiy rejimiga boshqaruvdagi aniq tamoyillariga ega bo'lmasa, fuqarolar esa o'z haq-huquqlarini himoya qilish bilan birga jamiyat va davlat oldidagi, o'z mamlakati istiqboli yo'lidagi vazifalari va burchlarini to'la anglab olmagan taqdirda demokratiya o'zining tom ma'nodagi mazmuniga va jahon tajribasida tan olingan mohiyatiga ega bo'la olmaydi.

Jahon davlatchiligi tarixi turli davrlarda turlicha davlat tizimlarini va boshqaruv yo'nalishlarini ko'rgan. Demak, inson va jamiyat, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar turli davrlarda turlicha tus olgan. Ana shundan kelib chiqib er sharining turli mintaqalarida xalqlar dunyoqarashi, turmush tarzi, an'analari va urf-odatlarini asosida turlicha siyosiy rejimlar, tartib-qoidalar va rusumlar dunyoga kelgan.

Jahon davlatchiligi tajribalari tobora boyib, xalqning o'zligini anglash jarayoni tobora tezlashib borgani sayin demokratiyaning shakli, mazmuni va uning jahon taraqqiyotida tutgan o'rni xususidagi munozaralar avj oddi. Ayniqsa XX asr kishilik tarixida keskin burilish yasadi. Er kurrasida ikki qarama-qarshi ijtimoiy-siyosiy tuzumning paydo bo'lishi dunyo davlatchiligi tajribasida va jahon xalqlari tafakkurida turlicha bir-biriga zid bo'lgan g'oyalarni keltirib chiqardi. Ana shu g'oyalar, tabiiy ravishda, o'zlari hukmron bo'lgan hududda odamlar ongini o'zgartirib yubordi. Aniqrog'i, ular tafakkuriga singib ketdi. Ikki lager o'rtasidagi bunday siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va mafkuraviy raqobat kuchayib, bir-birini mahv etishga urinishlar inson huquqlarini ma'lum bir tartibga solib turish, uni himoya qilish maqsadiga yo'naltirilgan bir qator xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishiga ehtiyoj tug'dirdi.

Totalitar tuzumda inson huquqlarining cheklanganligi, mafkuraviy yakkahokimlik jamiyat ma'naviy taraqqiyotini cheklab qo'ydi. Bu– birinchidan. Ikkinchidan, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida ozodlik uchun kurash, milliy davlatchilikka zamin yaratish va shu asosda inson huquqlarini himoya qilish, har tomonlama barkamol demokratik jamiyatni

vujudga keltirishga intilish kuchaydi. Natijada ana shu qit'alarda milliy ozodlik harakatlari avj oldi. Bu harakatlar zahirida insoniyatning azaliy orzu-umidi—ozodlik va hurriyatga erishish, erkin yashash ehtiyoji yotardi.

Qadim Sharqda azaldan huquqiy demokratik davlatchilik va fuqarolik jamiyatining turli elementlari mavjud edi. Bunga uzoq o'tmishimizdan qoraxoniylar, Xorazmshoh, temuriylar va boshqa qator sulolalar davlatchiligini misol keltirish mumkin. Bu davrlar haqiqat va adolat g'oyasi nihoyatda baland ko'tarilgani va butun mamlakatda aniq tartib-intizom o'rnatilgani natijasida inson hayoti, aholi turmushi kafolatlanganligi bilan alohida ajralib turadi. Agar ana shu davrlarda so'z va fikr erkinligi, g'oyalar xilma-xilligi mavjud bo'lmaganda edi, bu qadimiy makonda fan, madaniyat va ma'naviyat rivojlanmagan, jahon taraqqiyotiga bu darajada kuchli ta'sir ko'rsatmagan bo'lur edi.

Sharq uyg'onish davri va keskin yuksalish paytlarida dunyoviy ilmlar bilan islom madaniyati nazariyasi va falsafasi uyg'un holda taraqqiy topdi. Uning natijasida vujudga kelgan ma'naviy-axloqiy an'analar turmush tarzimizga aylanib qoldi. Aks holda islom dinining buyuk namoyandalari, ulamo va fuzalolarining dunyo tan olgan asosiy ko'pchiligi qadimiy Turon zaminida etishib chiqmas edi. Bu bizga «din – af'yundir» deb o'rgatib kelgan, bizni xudosizlikka, imonsizlikka va e'tiqodsizlikka da'vat etgan, jaholat yo'lini tutgan yolg'on mafkuraning yolg'on umridan darak berganidek, islom dini va Sharq turmushi falsafasining abadiyatini, haqiqati va qadriyatlarining boqiyiligini ham ko'rsatadi. Sohibqiron Amir Temurning birgina «Kuch – adolatda» degan shiorida huquqiy demokratik davlatning ham, fuqarolik jamiyatining ham ayrim belgilari, insonning yashash huquqi, uning barcha erkinliklari ham mujassam bo'lgan. Ayni paytda xuddi ana shular hozirgi zamon demokratik harakatlar ilg'or tajribalarining o'q ildizini, bosh yo'nalishini tashkil etadi.

Albatta bu ancha-muncha munozarali masala. Mamlakatimizda yangi tarixiy sharoitlarda yangicha davlatchilik qaror topayotgan bir paytda demokratiya, fuqarolik jamiyati, aholi va jamiyat, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlar turli soha mutaxassisleri o'rtasida turlicha talqin etilmoqda. Biroq har qanday xulosalardan qat'i nazar, shu narsa aniqki, qadimiy Sharq davlatchiligida inson erki, haq-huquqlari ko'p jihatdan himoya qilingan hamda o'z davriniig talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, inson ozodligi va hatti-harakatlari erkinligi ta'min etilgan edi. Bu ayni demokratik jamiyatning muhim va asosiy belgilaridan hisoblanadi.

Endi biz butunlay yangi tarixiy sharoitlarda yashayapmiz. Jahon demokratik jarayonlari tobora chuqurlashgan, uning imkoniyatlari ancha kengaygan, odamlarning onglilik darajasi birmuncha oshgan bir paytda

yashayapmiz. Jahon voqealaridan va ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridan xabardor bo'lish va bu jarayonlarning mamlakatlararo, mintaqalararo va qit'alararo ta'siri tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda kun kechiryapmiz. Bularning barchasi inson ongi, tafakkuri va qalbini hech qachon chetlab o'tmaydi. Endi demokratiyaning shunchaki oddiy «erkinlik», «hurriyat», «ozodlik» degan tushunchalari va ayni paytda «xalq hokimiyati» degan mazmuni ham birmuncha o'zgarmoqda. Odamlar ongi va tafakkuri kengaygani sayin, ularning demokratiyaga munosabatlari ham o'zgarmoqda. Ayni paytda demokratiya imkoniyatlari tobora kengayib, miqyosi oshib bormokda.

Bizning yaqin o'tmishimizda «qizil imperiya» demokratik harakatlar tamoyillariga mos keladigan inson erki va yashash huquqini ancha-muncha chegaralab qo'ygan edi. G'oyatda zo'rvonlikka tayangan siyosat tabiatan ozodlikni yoqtirmas va tom ma'nodagi demokratiyani tan olmas edi. Amerikalik siyosatchi Diana Revich ta'biri bilan aytganda, «Totalitar siyosiy tuzumlar sustlik va loqaydlik kayfiyatini rivojlantiradi. Tuzum itoatkor va labbaygo'y fuqarolarni shakllantirishga intiladi. Bundan farqli o'laroq, demokratik jamiyatning fuqarolik madaniyati alohida shaxslar va guruhlarning erkin ravishda ixtiyor etgan faoliyati tufayli shakllanadi. U mushtarak manfaatlar zamirida birlashgan guruhlarni boshqalar bilan muzokaralar olib borish, kelishuvga erishish va konstitutsion tizim doirasida ish olib borishga o'rgatadi. Ittifoq tuzish sari intilar ekan, o'zaro farqlar mavjud guruhlar tinch yo'l bilan munozara olib borish, o'z maqsadlariga demokratik yo'l bilan erishish va pirovardida xilma-xilliklar mavjud dunyoda qay tariqa yashash kerakligini o'rganadilar».

Demokratiya bir yo'la qurilgan bino yoki doimiy bir xil tarzda o'zgarmay turadigan buyum emas. Balki, u doimiy harakatdagi jonli hodisadir. Ayni paytda u jamiyat taraqqiyoti va mavjud siyosiy rejim ta'sirida o'zini o'zi to'ldirib, boyitib, yangi tarixiy sharoitlarda yangicha mazmun kasb etib boruvchi voqeliqdir. Muxtasar qilib aytganda, demokratiya tajribaga asoslangan va doimiy mazmunan boyib, shaklan barkamollashib, mohiyatan chuqurlashib boradigan uzluksiz harakatdagi faoliyatdir.

### **Demokratiyaning siyosiy madaniyati**

Hakli ravishda savol tug'iladi. Xo'sh, O'zbekiston demokratiyaning qaysi yo'nalishlaridan bormoqda? Huquqiy demokratik davlatni barpo etish, fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish oliy maqsad ekan, unga erishishning yagona yo'li demokratiyani chuqurlashtirishdir. Ayni paytda O'zbekistonda davlatchilikning xuddi ana shu jihatiga qanday qaralmoqda?

Eng avvalo shuni ta'kidlash kerakki, demokratik jamiyatni barpo etishning xalqaro tamoyillari, dunyo tan olgan, e'tirof etgan, barcha uchun umumiy bo'lgan yo'riqlari mavjud.

Bu bevosita fuqaroning o'z xohish-irodasini erkin ifodalash huquqiga egaligi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, saylash-saylanish huquqi va boshqalardir.

Bular qariyb barcha mamlakatlar konstitutsiyalarida qat'iy belgilab qo'yilgan tartib-qoidalar hisoblanadi. Ana shundan kelib chiqib demokratiyaning turli shakllari vujudga kelishi muqarrar. Ayrimlar O'zbekistondagi demokratik jarayonlar, uni hayotga tatbiq etishning sharqona tamoyillari haqida gapirar ekan, demokratiya demokratiya-da, uning sharqonayu g'arbondaligi bormi?– degan fikrlarni bildirishmoqda. To'g'ri, yuzaki qaraganda demokratiya – demokratiya-da. U hamma uchun birday ijtimoiy hodisa! Biroq, uning mag'zini chaqsangiz, mazmunini chuqurroq anglasangiz, masala ancha-muncha murakkab ekanligini sezish qiyin emas. Erkin fikr, eng avvalo, fikrlash tarzidan, ma'naviy ruhiy ko'nikmadan, erkin hatti-harakat esa, turmush tarzidan, axloqiy mezonlardan kelib chiqadi. Ana shuning o'zi G'arbda g'arbondalikni, Sharqda sharqondalikni taqozo etadi. Demak, demokratiyani hayotga tatbiq qilishda xalqning milliy ehtiyojlaridan kelib chiqib yondashish kerak bo'ladi. Aks holda, demokratiya tadbirbozlik va kompaniyabozlikka aylanib qolishi mumkin, xolos.

Ma'lum bir mamlakatda demokratiyani joriy etishda faqat shuning o'zi kifoya qiladimi? Faqat shuning o'zi aholining barcha ehtiyojlarini qondira oladimi, ma'naviy-ruhiy olamini qamraydimi? Yo'q! Chunki, har bir xalqning o'z turmush tarzi, tarixiy an'analari, hayotga munosabatlari va boshqa jihatlaridan kelib chiqib, demokratiyaga yondashish usuli bor. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Islom Karimov «Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni G'arb olimlari ham «ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli» deb ataganlar.

Erkinlik, demokratiya hayotimizni ham, o'zimizni ham zabt etdi. Mustaqillik bunga yo'l ochib berdi, shunday imkoniyat yaratdi. Endi biz o'zimizni anglashimiz, dunyoni tushunishimiz va shu bilan birga demokratiyaning butun mohiyati va imkoniyatlarini chuqurlashtirishimiz

lozim. Ana shunda biz ham, demokratiya ham, mustaqillik ham buyuk ne'matga, hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan oliy qadriyatga aylanadi. Xullas, hazrat Mir Alisher Navoiy aytganlaridek,

*To hirsu havas xirmanini barbod o'lmas,  
To nafsu havo qasri baraftod o'lmas,  
To zulmu sitam jonig'a bedod o'lmas,  
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.*

Darhaqiqat, to ma'naviy kamolotga etmaguncha, to hatti-harakatlarimiz, munosabatlarimiz aqlu idrok va umumiy manfaat doirasi bilan chegaralanmaguncha demokratiyaning mazmuni ham, ko'lami ham kutganimiz darajasida bo'lmaydi. Bu bevosita fuqarolar ongi va dunyoqarashini tubdan o'zgartirish, yaqin o'tmishimizdan qolgan loqaydlik va boqimandalik kayfiyatlarini yo'qotish, shu asosda milliy davlatimiz, milliy vatanimiz istiqboli uchun kuyinish tuyg'ularini kuchaytirish kabi murakkab, uzoq muddatli jarayon bilan bog'liq. Ana shundan kelib chiqib Islom Karimov «...demokratiya o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Demokratiyaga tinimsiz aqliy va jismoniy mehnat qilib, ter to'kib, hayotning achchiq-chuchugini obdan totib, qiyin, aytish mumkinki, hatto fojiali tajribalarni ham boshdan o'tkazib, og'ir sinov va kurashlarga mardona bardosh beribgina erishish mumkin», – degan edi. Zero, ana shu juda murakkab jarayonga hamma va har bir kishi alohida tayyorgarlik ko'rish, o'zini tayyorlab borishi, eng muhimi, o'zini o'zi ichki bir ma'naviy qudrat bilan tarbiyalab borishi kerak. Shuning uchun ham Islom Karimov «demokratik o'zgarishlar va yangi demokratik jarayonlarni boshqarishni, hayotga tatbiq qilishni hamda ularni himoyalashni jamiyatning o'zi anglamog'i darkor», – deb alohida ta'kidlaydi. Ana shuning o'zi bizning jamiyat odtsidagi, yangilanayotgan hayot odtsidaga va butun kelajak oldidagi vazifalarimizni belgilaydi.

### **Jamiyatni erkinlashtirishning «o'zbek modeli»**

Har qanday jamiyatning ma'naviy qiyofasi ayni ana shu jamiyat tizimi, uning qanday g'oyalarga va maqsadlarga ergashayotgani, qanday tafakkur asosida qaror topayotgani bilan bog'liq. O'zbekiston tanlagan yo'l inson manfaatlari to'la himoya qilingan, uning haq-huquqlari har tomonlama kafolatlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirishdir. Bu, albatta, inson ongi va tafakkurini o'zgartirish orqali turmush tarzini yangilash singari qator murakkabliklar, qiyinchiliklar, ziddiyatlarni engib o'tishni taqozo etmoqtsa. Ularni nimalarda ko'rish mumkin?

**Birinchi**dan, eskilik va yangilik o'rtasidagi ziddiyatlar. Eski tuzum illatlari yashashni istaydi, o'z o'rnini bo'shatishni xohlamaydi. Yangi



tuzum g'oyalari esa jamiyatni yangilash zaruratini taqozo etadi va bu zarurat hayot-mamot mohiyatiga, har bir fuqaro taqdiriga, ma'naviy va ruhiy ehtiyojiga, asrlar mobaynida shakllangan turmush tarzi va dunyoqarashiga bog'liq bo'lgan, uni har jihatdan himoya qiladigan fikr sifatida maydonga keladi. Bu g'oyaning yashashi va turmush tarziga aylanishi ayni ana shu eskilik illatlari bilan kurashning naqadar og'ir va hatto iztirobliligi bilan belgilanmoqda.

**Ikkinchidan**, fuqarolar ongi va dunyoqarashining jamiyatni tubdan o'zgartirish va yangi mazmun bilan boyitish uchun unchalik ham tayyor emasligi. Zotan, 130 yillik mustamlakachilik davri bizni fikrlamay yashashga majbur etdi.

Fikriy tanballik, fikriy boqimandalik ko'nikmalarini vujudimizga singdirib yubordi. Endi esa aqlni ishlatib, o'z kunimizni o'zimiz ko'rishimiz va shu asosda o'z iqtidorimizni, yaratuvchilik qudratimizni namoyon etishimiz kerak. Bu osonlik bilan yuzaga chiqadigan hodisa emas.

**Uchinchidan**, inson ozodligi, hur va erkin yashash tarzi bu shunchaki «bersang eyman, bermasang o'laman» qabilidagi turmush tarzi emas. Aksincha, inson ozodligi ozod so'z, ozod fikr, erkin hatti-harakat orqali jamiyat erkinligini, jamiyat ozodligini va umuman hurriyat mazmun-mohiyatini anglashdan iborat bo'lgan siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-ruhiy hodisadir.

**To'rtinchidan**, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish sharoitida fuqarolarni ayni demokratik jarayonlarning faol ishtirokchisi, uning faol himoyachisi sifatida tayyorlash. Bu o'ta murakkab, vaqt talab etadigan hodisa. Chunki mustamlakachilik davri illatlaridan qutulish azobini, fikrlab yashash, aql-idrok yo'rig'i bilan kun ko'rish mashaqqatini engish uchun insonda ichki iroda, ma'naviy qudrat kerak. Ana shu iroda va qudratni uyg'otish, shakllantirish, unga quvvat baxsh etish oson ish emas.

O'zbekiston fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lini tanlagan ekan, ana shu inson ongi va qalbi bilan bog'liq bo'lgan, uni isloh qilish, tirik, mavjud insonni «yangi»lash, ma'naviy-ruhiy «ta'mirlash» kabi sermashaqqat yo'ldan bordi. Bu har qanday davlatdan juda katta siyosiy qudrat, siyosiy madaniyat va siyosiy iroda talab etadigan buyuk hodisadir.

Siyosiy madaniyat, siyosiy ong va tushunchalar darajasi jamiyat hayotida inson ishtirokining qandayligini belgilaydi. Zotan, siyosiy madaniyat va siyosiy ong yuksak bo'lgan joyda odamlar hokimiyat ishida faolroq ishtirok etishadi. Qarorlar qanday qabul qilinishi, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganligini kuzatib borishadi, munosabat bildirishadi. O'z hayotlariga daxldor bo'lgan ma'muriy tadbirlarga befarq qarashmaydi.

Aksincha, ularni tayyorlashda ishtirok etishadi, natijada qarorlar ijrosi uchun o'zlari manfaatdor sifatida mas'uliyatni his qilishadi.

Islom Karimov aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarurligiga alohida e'tibor beradi. Bu mexanizm eng avvalo jamiyatni erkinlashtirish orqali odamlarning saylovlarga munosabatini o'zgartirishni, yaqin o'tmishimizda dunyoqarashimizda o'rnashib qolgan soxta saylovbozlik va siyosiy o'yinlardan voz kechishni taqozo etadi. Odamlar o'z manfaatlarini va maqsadlarini amalga oshirish, haq-huquqlarini himoya qilish uchun saylovlarda ishtirok etish zarurligini anglamog'i lozim. Saylash va saylanish huquqi ayni har bir fuqaro siyosiy faolligini, jamiyat taraqqiyotiga daxldorligini belgilovchi omil sifatida o'zini ko'rsatmog'i darkor.

O'zbekistonda saylovlar o'tkazishning demokratik tamoyillari mavjud. Bu tamoyillar jahon saylov o'tkazish tajribalari asosvda dunyoga keldi va shakllanmoqda. Fuqarolar esa uni to'la-to'kis qo'llab-quvvatlamog'ida.

Inson haq-huquqlarini himoya qilish, uning ehtiyojlarini qondirishda davlat qurilishi, boshqaruv tizimi va jamiyatni erkinlashtirish alohida ahamiyatga ega. Bunday siyosat xalq taqdirini, turmushi va kelajagini kafolatlagan, uning yashash erki va butun ozodligini ta'minlagan bo'ladi. Zotan, uning zamirida sof umuminsoniy qadriyatlar va shaxs barkamol turmush tarzining to'la kafolati mavjuddir.

Taniqli davlat va siyosat arbobi Cherchill demokratiya «hokimiyat boshqaruvining eng yaroqsiz shakli, lekin insoniyat hozircha undan maqbulroq shaklini topa olganicha yo'q», deb aytgan edi.

Siyosatshunoslarning ayrimlari buni paradoks sifatida tushunishadi. Biroq, demokratiyaning bunday – Cherchillcha talqinining ham mantig'i bor.

Xalqimizda «qars ikki qo'ldan chiqadi» degan naql bor. Yoki odatda ikki va undan ko'p g'oyalar mavjud joydagina o'zaro kurash, fikrlar xilmaxilligi va qarama-qarshiligi yuz beradi. Deylik, er yuzidan sotsializmning emirilishi bilan kapitalizm o'z qiymatini yo'qotdi. U umrini o'tab bo'lgan eski mafkuraga aylanib qoldi. Ikki qarama-qarshi tomonning biri yo'qolsa, ikkinchi tomon o'z muvozanatini yo'qotishi tabiiy hodisa. Ana shu mantiqan kelib chiqib ham aytish mumkinki, hozir hech qanday «izm»larning qiymati qolmadi.

Xo'sh, totalitarizm ham, diktatura ham butunlay barbod etilgach, inson ozodligi va yashash erki to'la ta'min etilgach, u qonunlar bilan kafolatlangach, demokratiyaga ehtiyoj qoladimi? Demokratiya bunday sharoitda odamlarning ham, jamiyatning ham qon-qoniga singib ketgan

bo‘ladiku. Ana shu xulosalardan kelib chiqib aytish mumkinki, demokratiya bu – umuminsoniy qadriyatlar tantanasining ostonasidir!

AQShda demokratiya milliy, an’anaviy ramzga aylangan. Bu haqdagi munozaralar tor ilmiy doiralardagina dunyoning boshqa mintaqalari bilan qiyosiy tarzda o‘rganiladi, xolos.

Shunday hayotiy haqiqat borki, faqat toza havoga muhtoj odamgina toza havo etishmasligini muammo qilib ko‘taradi. Olamga jar soladi. O‘ziga o‘xshagan odamlar orasidagina munozaralar, asabiy tortishuvlar avj oladi. Unga etishgach, kishini hayratga soluvchi osoyishtalik paydo bo‘ladi va u kundalik turmushning oddiy holatiga aylanib qoladi.

Eskicha fikr yuritish, eskicha tafakkur tarzi hamma vaqq yangilikning yo‘lini to‘sadi, unga g‘ov bo‘ladi. Islom Karimov «Eski sarqitlardan judo bo‘lish dunyoqarashlar, psixologiyalar, turli da’volar o‘rtasidagi ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin tinkani quritadigan kurashlar bilan birga bormoqda. Hayotning o‘zi ana shu dunyoqarashlar, psixologiyalar, da’volar orasidan o‘tishga majbur qilmoqda», – deydi. Darhaqiqat, bugun O‘zbekiston ana shunday murakkab, ziddiyatli bir davrni kechirmoqda. Bu kurashlar qanchalik qiyin bo‘lmasin, eskicha tafakkurni sindirish, yangilikni qabul qilish qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin, ayni paytda u millionlab kishilarni o‘ziga ergashtirib olmoqda. Kelajakka qat’iy ishonch bilan qaralmoqda.

Jamiyatni bir holatdan ikkinchi holatga o‘tkazishdek tub islohotlar hech qachon oson kechmagan. Ana shunday tarixiy jarayonlarda O‘zbekistonda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish va jahon tajribasini boyitishda yangi «o‘zbek modeli» vujudga kelmoqda.

### **Demokratiyaning yangi davri**

Mamlakatimizda tub islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyillarining joriy etilishi avvaliga ayrim muxoliflarimizga unchalik ham xush kelmagan edi. Ular buni sustkashlikka, ma’muriy-buyruqbozlik tuzumining illatlariga, yangi hokimiyat demokratik o‘zga-rishlarga qodir emasligiga yo‘yishdi.

Aslini olganda, islohotlarni inqilobiy yo‘l bilan amalga oshirish bizning hayot va tafakkur tarzimizga butkul zid narsadir. Bunday yo‘l tutilganda jamiyatni mislsiz fojialarga olib kelishi bugun barchaga ayon. Hissiyot aqldan ustun kelgan joyda jamiyat inqirozga yuz tutishini, har qanday islohot esa asta-sekinlik bilan odamlar qalbi va ongi orqali amalga oshirilgandagina yuksak madaniy va ma’naviy mazmun kasb etishini muxoliflar tushunishmas yoki tushuna turib, boshqacha maqsadlarni ko‘zda tutishar edi.

Oradan birmuncha vaqg o'tgach, avvalo iqqisodiy islohotlarning dastlabki samaralari ko'zga tashlana boshladi. Bu davlat mulkini xususiyLashtirihsan tortib, pul va bank-kredit tizimini butunlay yangi izga solish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish, ishlab chiqarishni tubdan o'zgartirish, sanoatni yangi, ilgor zamonaviy texnologiyalar bilan jihazlashgacha bo'lgan va boshqa jihatlarni qamrab olgan islohotlarni o'zida mujassam etadi. Ayni ana shu yangilanish jarayonida «o'zbek modeli» vujudga keldi.

Xo'sh, O'zbekistonning tub islohotlardagi o'z taraqqiyot yo'li faqat shulardan iboratmi?

Bugun ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida butunlay yangicha munosabatlar qaror topdi. Jamiyat taraqqiyotining aholi ma'navay-ruhiy, siyosiy-madaniy qarashlaridan kelib chiqqan o'ziga xos yondashish usuli shakllana boshladi. Jumladan, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda ham muhim bosqich, yangi davr boshlandi.

Ma'lumki, XX asr 90-yillarining boshlarida mamlakat mustamlaka tuzumdan meros bo'lmish og'ir ijtimoiy, iqqisodiy bo'htonlar girdobida qolgan, demokratiya «o'yin»lari avj olgan, aholining ayrim guruhlarida ehtiroslar junbushga kelgan bir payt edi. Ana shu og'ir vaziyatdan eson-omon chiqib olish, Islom Karimov iborasi bilan aytganda «hech qanday larzalarsiz», qon to'kmasdan, mamlakatda barqarorlikni saqlab turgan holda asta-sekinlik bilan hayotni izga solish yo'li tanlab olindi va qatiyat bilan amalga oshirildi. «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaslik» singari hayot sinovidan o'ggan tajribalar yo'lidan borildi. Bu g'oya islohotlarning hamma sohalariga – huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlarga tegishli edi. Unda siyosatning insonparvarlik mazmuni, har bir fuqaro, har bir tirik jon hayotining daxlsizligini ta'minlashga mas'ullik, butun mamlakat tinchligi va osoyishtaligi uchun javobgarlik hissi mujassamlashgan edi.

Islom Karimov o'sha paytdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishi xususida fikr yuritar ekan, jumladan, shunday degan edi: «Dastlabki kezlarda O'zbekistonni sustkashlik va konservatizmga ayblashardi. Ammo O'zbekiston bugungi kunga kelib, bozor o'zgartishlarining teranligi, ijtimoiy yangilanishning sur'atlari va taraqqiyoti yuzasidan sobiq sovet hududidagi aniq dasturga ega bo'lmay turib, asossiz va mulohazasiz islohotlar jarayonini tezlashtirishga uringan, besabrlik qilgan, soxta obro'ga intilgan ko'pgina respublikalardan oldinlab ketdi.

Ming afsuski, ana shu yuzaki urinishlarning hammasi pirovard natijada islohotlarning o'zini ma'lum darajada obro'sizlantirdi. Ularga ortiqcha

siyosiy tus berdi. Jamiyatdagi ichki qarama-qarshilikni kuchaytirdi. Bu bor va undan hech qayoqqa qochib qutulib bo‘lmaydi».

Mana, oradan yillar o‘tib, toshqinlar tindi, atay loyqalatilgan suvlar tiniqlashdi, bulutlar tarqaldi. Haqiqiy hayot manzarasi aniq-ravshan ko‘zga tashlandi: siyosatning o‘tkinchi hissiyot va tuyg‘ulardan xoli bo‘lgan, aql-idrok va tajribaga tayangan amaliy qiyofasi namoyon bo‘ldi. Aytish mumkinki, shu holning o‘ziyoq yangilikni evolyutsion yo‘l bilan amalda joriy qilishning, qat’iy intizomga tayangan demokratiyaning ma’naviy qiyofasi edi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida (1995 yil 23 fevral) Islom Karimov tomonidan demokratiya haqidagi ilmiy-nazariy jihatdan asosli, hayotiy jihatdan amaliy xulosalar o‘rtaga tashlandi. Davlat siyosatining demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishga doir strategiyasi ishlab chiqildi.

Bugunga kelib hammamizning demokratiya haqidagi tasavvurlarimiz birmuncha kengaydi. U hayotimizning muhim va ajralmas qismi, ma’naviyatimizning ko‘zgusi ekanligini tushundik. Hurriyat shunchaki so‘zbozlik va tadbirbozlik, guruhbozlik yoki ko‘cha-ko‘yda ayyuhannos solib qichqirish emas, ta’bir joiz bo‘lsa, haqiqiy demokratiya – qonunlar diktaturasi!

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996 yil 29 avgustda bo‘lib o‘tgan VI sessiyasi ijtimoiy hayotimizda demokratik o‘zgarishlarning yangi davrini boshlab berdi va bu jarayonlarni chuqurlashtirish tamoyillarini yangi bosqichga ko‘tardi. Buni nimalarda ko‘rish mumkin?

**Birinchidan**, mustaqillikning dastlabki yillarida, avvalo, odamlar yangicha turmush tarziga ko‘nikma hosil qilishlari kerak edi. Islohotlarning mazmun-mohiyatini anglab, mustaqil taraqqiyot afzalliklari va beqiyos imkoniyatlarini tushunib olishlari lozim edi. Busiz hech qanday natijaga erishib bo‘lmasdi. Chunki har qanday sharoitda, har qanday jamiyatda ham inson asosiy hal qiluvchi omil, jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Shuning uchun ham hayotdagi yangilanishlar dastlab har bir fuqaroning qalbidan, ongi va tafakkuridan o‘tkazilishi lozim.

**Ikkinchidan**, jamiyatni tubdan yangilash, turmushimizning barcha sohalarida keng miqyosli islohotlarni amalga oshirish va shu asosda demokratik tamoyillarni turmush tarziga aylantirish uzoq davom etadigan uzluksiz jarayon. Bu kundalik hayotimiz bilan bog‘liq bo‘lgan va umuman mamlakat taqdirini belgilashda izchillikni taqozo etadigan, sobitqadamlik bilan turli qarshiliklar va to‘siqlarni engib, eskicha qoliplarni bartaraf etib, yangicha tafakkur tarzini joriy qilishni o‘z ichiga olgan murakkab jarayon.

Qolaversa, jamiyatni demokratlashtirish bu iqtisodiy islohotlardan tortib huquqiy, siyosiy va ma'naviy yangilanishlarga bevosita tayangan voqeliqdir. Sessiyada takidlanganidek, «demokratiyalash jarayonining ayni ana shu huquqiy, siyosiy va ma'naviy jarayonlari iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolmoqda». Buning sababi, Islom Karimov aytganidek, «talay muhim qonunlar tegishli qonun hujjatlari bilan mustahkamlanmaganligida, qabul qilingan huquqiy me'yorlar va kafolatlarni ro'yobga chiqarishning aniq mexanizmi etarli darajada ishlab chi-qilmagan»idadir.

**Uchinchidan**, qonun ustuvorligiga erishish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash lozim. Buning uchun, eng avvalo, huquq-tartibot ishlarini, qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni xalqaro mezon va andozalarga moslashtirish zarur. Hozirgi paytda jahonda mazkur masalaga doir etmish xil andoza mavjud. Bularning hammasi jahon hamjamiyatida tan olingan tamoyillar hisoblanadi. O'zbekiston hozir ana shu andozalardan o'n beshtasiga qo'shilganligi uning juda qisqa muddatda demokratiyani turmush tarziga va tobora shakllanib boradigan jonli hodisaga aylantirish borasida erishgan katta yutuqdir.

**To'rtinchidan**, aholining siyosiy faolligi bevosita uning jamiyat ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga qanchalik daxldorligi bilan belgilanadi. Agar fuqaro siyosiy va ijtimoiy jihatdan faol bo'lsa, u o'z-o'zini boshqarishga va shu orqali jamoa harakatini shakllantirishga, uning mazmunini chuqurlashtirishga qodir bo'ladi. Yangilanayotgan jamiyat aholini kundalik tashvishlar va har xil ikir-chikirlar girdobidan olib chiqadi, uni hayotga teranroq va sergakroq qarashga o'rgatadi. Agar har bir fuqaro hayotda o'zini ana shunday tutsa, ana shunday qobiliyatga ega bo'lsa, demokratiya o'z-o'zidan jamiyatning tarkibiy qismiga aylanadi, ijtimoiy turmushimizda mustahkam qaror topadi. Bunday hodisani Islom Karimov «Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik, hurriyat xalqimizga nihoyatda qimmatga tushgan. Hurriyatning bahosi doimo avlodlar taqtsiri, iymoni, vijdoni bilan o'lchanadi», – deb to'g'ri baholagan.

### **Tarixiy xotirani tiklash va yangi tarixni yaratish**

Yangi tarixiy davr ma'rifat davri, ma'rifatlilik davri sifatida vujudga kelmoqda. Istiqloq g'oyalari asosida bosh islohotchilik vazifasini bajarayotgan davlat odamlar ongi va tafakkurida tub burilishlar yasash, har qanday islohotlarni fuqarolar ongi, tafakkuri va qalbi orqali o'tkazish yo'lini tanladi. Ana shu yo'l odamlarning o'gmishga, bugunga va kelajakka munosabatlarini o'zgartirish, muayyan mafaatlarga yondashish psixologiyasini yangilash orqali asta-sekinlik bilan ularni ma'rifatli, komil

inson qilib voyaga etkazishga olib boradi. Fuqarolarning ma'rifatliligi orqali ma'rifatli jamiyat barpo etiladi.

Tarixiy tafakkur va tarix falsafasi ma'rifatli jamiyat qurishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Zotan, o'tmishni anglash, uni to'g'ri tushunish orqali kishilar ongi va ruhiyatida jidtsiy o'zgarishlar yasashga, shu orqali hayotni, turmush tarzini, oxir-oqibatda esa jamiyatni ma'naviy isloh qilishga erishiladi. Buni nimalarda ko'rish mumkin?

**Birinchidan**, tarixni anglash orqali hayotni anglash, insonning insonligini anglash qobiliyati shakllanadi.

**Ikkinchidan**, tarixiy tafakkur va tarix falsafasi orqali bugungi hayot mazmuni chuqurroq tushuniladi va istiqbolni ko'rish falsafasi dunyoga keladi. Bu har bir insonning o'ziga xos tafakkur tarzini shakllantirish orqali shaxs sifatidagi fenomenini vujudga keltirishga, fe'l-atvorining shakllanishiga xizmat qiladi.

**Uchinchidan**, tarixni o'rganish orqali mustamlakachilik ta'sirida va kommunistik zo'ravonlik mafkurasi natijasvda o'zligini yo'qotgan, o'z qadru-qimmatini butkul unutgan fuqaroni uyg'onishga, o'zligini anglashga, o'z haq-huquqini himoya qila oladigan barkamol shaxs sifatida shakllanishga da'vat etadi.

**To'rtinchidan**, ajdodlari buyuk bo'lgan, jahon sivilizatsiyasi va insoniyat taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shgan madaniyatga daxldor fuqaro qalbida o'tmishini o'rganish orqali milliy g'ururining uyg'onishi mamlakat mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan bir paytda katta ijtimoiy-ma'naviy qudrat va ulkan siyosiy iroda kuchi bo'lib xizmat qiladi. Ana shu anglash jarayoni insonning o'zini o'zi yangilashiga, o'zini o'zi ma'naviy tozalashiga, o'zini o'zi isloh qilishiga olib keladi.

**Beshinchidan**, har bir fuqaroni ma'naviy-ruhiy va axloqiy jihatdan yangilash orqali jamiyatni yangilash, turmush tarzini yangilash kabi g'oyatda chuqur, keng miqyosli islohot amalga oshiriladi. Bu bugungi islohotlar davrida qilinayotgan ko'p qirrali o'zgartishlarning asosiy omili sifatida qadriyatga aylanadi.

O'zlikni anglash, eng avvalo, o'tmishni o'rganishdan, tarixni bilishga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat, o'zini angelayotgan, o'zini tushunayotgan har bir odam shunday oilada dunyoga kelgani, o'z ajdodlari kimlar bo'lgani, ota-bobolari nimalar bilan shug'ullanishgani va qanday umr kechirishganini bilib olishga intiladi. Ularning fazilatlari va meroslari bilan faxrlanib yashaydi.

O'z naslu-nasabini bilish, kelib chiqishini o'rganish kishining hayotda omonatligini va ayni chog'da tasodifiy emasligini tushunishga imkon

beradi. Shu bilan birga atrof muhit, uni o‘rab turgan olam xususida o‘ylashga undaydi.

Darhaqiqat, olamni tadqiq etish tafakkurimizni boyitishning, dunyoqarashimizni kengaytirishning muhim yo‘llaridan biridir. Olamni anglash hissi insonning o‘zligini anglashga, o‘zligini tushunishga, olam va odam haqida o‘ylashga doimiy tarzda da’vat etib turadi. U jami insonlarga xos bo‘lgan idrok va irodani uyg‘otadigan mo‘‘jizaviy kuch hamdir. Biz olamni qanchalik keng va chuqur anglasak, inson va insoniyat olamini shunchalik ko‘proq tushunishga, mohiyatini anglashga, inson va hayot, insoniyat va mavjudot o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga, xullaski, insoniyat tarixi bilan qiziqishga harakat qilamiz.

Aslini olganda tarix faqat o‘tmish haqidagi ma’lumotlar yoki tushunchalarni ifodalash bilan cheklanmaydi. Uning buyuk qudrati, tarbiyaviy kuchi, murabbiylik mohiyati o‘tmishni o‘rganish, tadqiq etish orqali bugunni baholash, bugunni anglash, bugungi odamlarni tushunish va ularni yo‘naltirish borasidagi fikrlarni, g‘oyalarni o‘zida mujassam etganida namoyon bo‘ladi. Islom Karimov tarixga ana shu nuqtai-nazardan qaraydi va uning barcha imkoniyatlarini inson ma’naviyatiga to‘la safarbar etish zarurligini asoslab beradi. Yuqoridagi xulosalar va mushohadalarni hisobga olib, tarixshunoslikni Islom Karimov tom ma’nodagi insonshunoslik sifatida talqin etib, uni komil inson shaxsini tarkib toptirish ishiga yo‘naltiradi.

### **Tarixni xolsona o‘rganish masalasi.**

I. Karimov tarixga munosabatni tubdan o‘zgartirish hayot taqozosi ekanligini dolzarb masala qilib ko‘tardi. Yurtboshimiz o‘tmishimizni qayta ko‘rib chiqib, uni butunlay yangi nazar bilan g‘alvirdan o‘tkazishni kun tartibiga qo‘ymoqda, buning quyidagi asoslari bor.

Birinchidan, bugungi O‘zbekiston jahon xaritasida endigina paydo bo‘lgan tasodifiy mamlakat emasligini uning ildizlarini nihoyatda chuqur va qadimiy ekanligini dunyoga ko‘rsatish va farzandlarimiz ongiga singdirish.

Ikkinchidan, sobiq sho‘ro siyosati va kommunistik mafkura tazyiqi bilan soxtalashtirilgan tarixni o‘z o‘rniga qo‘yish, tarix haqiqatini ilmiy haqiqat asosida qayta tiklash. Unga munosib baho berish lozim.

Uchinchidan shu asosda halqimiz, ayniqsa yosh, navqiron avlodimiz qalbida milliy g‘urur, milliy iftixor, o‘z ajdodlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini kuchaytirish. Buyuk o‘tmishga munosib buyuk millat bo‘lish ertangi kunga katta ishonch va istiqlol g‘oyalariga etiqod bilan yashashni turmush tarziga aylatirish.



Hammamizga ma'lumki, sho'ro hukumati davrida xalqni ataylab savodsizlatirish o'z o'tmishidan ajratib qo'yish ajdodlari, naslu-nasabi va butun tarixidan bexabar qilish siyosati darajasiga ko'tarilgan kommunistik mafkuraning butun mazmun mohiyatini tashkil etgan edi. Shuning uchun ham yozilayotgan ilmiy kitoblar nuqul voqealar bayonidan iborat bo'lib, ma'lumotnoma tusini olgan edi. Ijtimoiy – siyosiy jarayonlarga bunday yuzaki munosabat va tarixiy sanalargina sinab o'tish kabi tarix fani metadologiyasi yaratildi. Bu metadologiyaning asosiy maqsadi odamlar ongini zaharlash ularni fikrini chalg'itishdan iborat edi. Natijada millatlarni yo'q qilib tasdiqlash, fuqarolar qalbidagi milliy g'urur milliy iftixor tug'ularini so'ndirish ularni dunyoqarashini chegaralab qo'yish uchun harakat qilindi. O'ziga ham o'tmishiyu kelajagiga ham befarqlik loqaydlilik bilan qaraydigan aholi qatlami "tarbiya" lab etishtirildi. Ana shunday noqobil va g'ayriinsoniy siyosat barbod bo'lgach, endi o'z tariximizni qaytadan tiklash uni ilmiy, tarixiy va hayotiy haqiqat nuqtai-nazaridan turib yangitdan yaratishni davlatning o'zi talab qilmoqda va bunga homiylik qilmoqda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarix insitutining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tarqatib yuborilishi va uni qaytadan tashkil etish to'g'risidagi siyosiy qadriyatni manaviy va ijtimoiy ahamiyatini alohida takidlash joiz. Hukumat qarori va shaxsan I.Karimov tashabbusi bilan Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida "O'zbekistonning yangi tarixi" markazining ochilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

### **Milliy o'zlikni anglashda tarixni tutgan o'rni.**

O'zlikni anglash eng avallo o'tmishni, o'rganishdan, tarixni bilishga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat, o'zini angelayotgan o'zini tushunayotgan har bir odam qanday oilada dunyoga kelgani, o'z ajdodlari kimlar bo'lgani, ota-bobolari nimlar bilan shug'illanganligi va qanday umr kechirishganini bilib olishga intiladi. Ularning fazilatlari va meroslari bilan faxrlanib yashaydi.

Hayotda abadiy yashaydigan mavjudod yo'q jamiki mavjudodning ibtidosi va intihosi bor. Ana shu ibtido va itiho o'rtasidagi voqelik hayot tarixiga aylanadi. Aslini olganda hayotda faqat abadiyat va unga daxldor bo'lgan tafakkurgina boqiydir. Zamonlar, jarayonlar, hodisa va voqealarning biri o'tkinchi shuning uchun ham vaqt o'tkinchi, tarix esa abadiydir.

Voqealar, jarayonlar shaklan o'zgaraveradi, yani hodisalar yangi voqealar hayot mazmunini o'zgartiraveradi. Turmush tarzini va hatto aqidalarni ham yangilaydi.

Biroq, yaxlit abadiyatga aylangan hayot va insoniyat shajarasi tarix abadiyatini va uzluksizligini soʻzsiz taminlaydi.

I. A.Karimov oʻzining “Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq” asarida shunday degan edi: “Oʻzlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbotlab boʻlmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga koʻtarilishi zarur”. Ayni oʻzlikni anglash insonning oʻz oʻtmishi va ajdodlariga qiziqishidan boshlanishini uqtirayapti.

Mustaqilikka erishganimizdan keyin xalqimizning oʻz yurti, tili, madaniyati, qadriyatlarini tarixini bilishga, oʻzligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzod borki avlod–ajdodlarini kimligini, nasl – nasabini, oʻzi tugʻilib voyaga etgan qishloq, shahar xullaski, Vatanning tarixini bilishni istaydi.

Hozir Oʻzbekiston deb ataluvchi hudud yani bizning Vatanimiz nafaqat Sharq balki, umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri boʻlganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy bilimlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan, eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari shu kungacha koʻrku fayzini mahobatini yoʻqotmagan asori atiqalarimiz qadim–qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, memorchilik va shaharsozlik sanati yuksak boʻlganidan dalolat beradi degan edi, I.A.Karimov.

Milliy oʻzligini anglashda xozirgi kelajak avlod nimalar qilishi kerak degan savol turadi?

Birinchi navbatda dunyoga kelgan har bir bolani ota–ona, keyin esa murabbiy oʻqituvchi uning taʼlimi jarayoni bilan birgalikda tarbiyasi bilan ham jiddiy shugʻillanish lozim. Oʻlikni anglash uchun yoshlikdan tarixdagi mashhur olimu fuzalolar, olimlarning, donishmandlarning qilgan ishlariyu oʻgʻitlari orqali shakllantirib borishimiz lozim.

Masalan, Geradotning “Tarix” kitobida yozilganidek, uch ming yil avvalgi ajdodlarimizda qadrlanadigan xislatlarning eng asosiysi jasurlik ekan. Undan keyingi muhim xislat adolatlilik va mohirlik boʻlgan. Har bir ishni bajaranda, jumladan otda yurish ov qilish kabilarni yuqori mahorat bilan bajarish ajdodlarimiz uchun fazilat hisoblangan.

Manaviy merosimiz hisoblangan epik rivoyatlarda, jumladan: “Avesto”, Firdavsiyning “Shohnoma” Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit – turk”, “Goʻroʻgʻli” va “Alpomish” dostonlari va boshqa asarlarda ajdodlarimizning vatanni sevish, or–nomus va doʻstlariga sadoqat kabi sifatlar ularning asosiy ijtimoiy xislatlari hisoblangan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” da tarbiya hayotning eng muhim tirgakni tarbiyalaganda u avallo yaxshi o‘qishni, yozishni o‘rganishi kerak, deyilgan “Avestoda” inson o‘z mehnati tufayli barcha yomonliklardan, yovuzliklardan qutilishi mumkin degan g‘oyalar bor, unda axloqiylikning asosi – yaxshi fikr, saxovatlilik yaqin kishiga mehribon bo‘lish, muhtojlarga ko‘maklashish yovuzlikka qarshi kurashish kishilarning tinchligi va baxt saodatini muhofaza qilish ahillik va do‘stlikda yashashga intilish yaxshi niyatlar va fikrlar tushunilgan. Mana shunday yuksak fazilatlar, xislatlar orqali hozirgi davrni kelajak avlodni o‘tmishimizdagi buyuk daholarning qilgan ishlari orqali ham ularga saboq berib ularni ana shunday ezgulikka, yaxshilikka, xuddi shularday shu tutishga chorlamog‘imiz lozim.

Ana shundagina bizning manaviyatimiz boy bo‘lishi bilan birgalikda o‘tmishimizning naqadar chuqur ildiz otganligi va yuksak tahsinga sazovor ekanligini his qilgan holda qalbda jo qilishimiz darkor. Mana shular orqali ham aytishimiz mumkinki milliy o‘zlikni anglashda tarixni tutgan o‘rni beqiyosdir.

### **Tarix va milliy tafakkurning shakllanishi.**

O‘rta Osiyo xalqlarining ulug‘ tarixiy o‘tmishiga murojat qilishi o‘z ajdodlarining olamshumul yutiqlaridan mamnunlik, shukronalik tuyg‘usini baxsh etadi. Fuqarolik hissini shakllantirish, o‘z milliy birligiga mansubligidan qonuniy faxrlanish hissini uyg‘otadi. Bizda, so‘nggi 70 yil mobaynida ildiz otgan milliy qadriyatlar, ananalar, madaniyat va turmush tarzidan halokatli o‘z ishini bartaraf etishda buning ahamiyati beqiyos. Chunki o‘z tarixiy ildizlarni o‘z xalqining tarixini tashkil etuvchi o‘tmish avlodlar hayoti bilan uzilmas manaviy aloqalarni anglab etmay turib, o‘z zamining chinakam fuqarosi va chinakam vatanparvari bo‘lishi mumkin emas.

Ayni vaqtda tarixni idrok etish madaniyatini, tarixiy tafakkur madaniyatini shakllantirish zarur zero tarix nechog‘li ahamiyatli bo‘lmaslik, kezi kelganda xavfli hamdir. Pol Valeri takidlaganidek, tarix orzular tug‘diradi, xalqlarni sarxush qiladi, soxta xotiralarni keltirib chiqaradi. Ularni eski yaralarini qo‘zg‘atadi, oromini buzadi, o‘zini ulug‘lashga olib keladi. Tarix har qanday istaklarni oqlaydi. U sirasini aytganda, hech kimga o‘rgatmaydi.

Boshqacha qilib aytganda, tarixni bilish faqat tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘libgina qolmay, balki undan milliy biqiqlik hislarini uyg‘otishda, boshqa xalqlarga nisbatan adovatga olib kelishda tajovuzkorlik siyosati va maqsadlarini asoslashda ham foydalanish mumkin.

Tarixiy tafakkur shunday qilib, milliy mustaqillik hissiyotini xalqlarimiz uchun fojeaviy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan milliy biqlikka aylanib ketishiga yo'l qo'ymaydigan nozik qadni topishga ko'maklashmog'i kerak.

O'tgan shunday muddat ichida bizning mudroq ongimizni uyg'otib yubordi. Tushunchalarimizda o'zgarish yasadi. Endi mamlakatning hech bir fuqarosi ertangi kunni aniq ravshan ko'rib turibdi. O'zining ham mamlakatning ham kelajagi buyukligicha qat'iy shakllanmoqda. Shuning uchun ham aniq maqsad va qat'iy iroda bilan mustaqillik yo'lini tub islohotlar jarayonini to'la qo'llab quvvatlamokda.

### **Milliy va umuminsoniy qadriyatlar.**

Qadriyatlar to'g'risida G'arbda keng tarqalgan aksialogiya (aksio – qadriyat, logos – fan, ta'limot manosini anglatadi) fani rivojlangan mamlakatlarda inson qadri va haq – huquqlariga doir ko'pgina tamoyillar amaliyoti uchun nazariy asoslardan biri bo'lgan ilmiy sohalar qatoriga kiradi.

Qadriyat tushunchasi nihoyatda xilma–xil manoda, turli sohalarda qo'llaniladi. Qadriyatlarning kundalik hayotdagi manosi kishilar o'rtasidagi muloqotlarda ommaviy axborot vositalarning xabarlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lmoqda. Kundalik hayotda ko'pchilik nazarida narsalar (masalan, qimmatbaho, buyumlar, taqinchoqlar, tabiat hodisalari, ijtimoiy voqealar jamiyatdagi talablar orzu–umidlar ana'na va marosimlar, madaniy boyliklar va boshqalar qadriyat sifatida tushuniladi. Bundan tashqari odamlar o'zlari ishonib gohida intilib, qiziqib, yoki orzu qilib yashaydigan maqsad orzu yoki ideallarga ham “qadriyat” tushunchasini qo'llaydilar.

Qadriyatlar tarixiy va zamonaviy bo'lishi mumkin. Lekin biror bir narsa va hodisa xoh, moddiy bo'lsin, xoh manaviy bo'lsin, qadriyatga aylanishi uchun muayyan bir vaqt o'tishi muayyan bir tajriba ortirilishi va uning ahamiyatini ko'pchilik tomonidan tushunishi maqullanishi lozim. Narsa va hodisa qadriyatga aylanishi jarayonida u o'tish vaqt mobaynida u o'zini ahamiyatiga ega bo'lishi va ko'rsata olishi lozim.

Qadriyatlarning xilma–xil shakllari bor: moddiy va manaviy, umumbashariy, mantiqiy, umuminsoniy, jamiyat sohalari bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ilmiy, hayotning ijtimoiy tuzilishiga mos keladigan, milliy, sinfiy, partiyaviy va boshqalar. Qadriyatlar dunyoni bilishning maqsadi, bilimlarimizning haqiqatga mos kelishi darajasining aniqlash mezonini yoki biror ideal tarzida ham namoyon bo'ladi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi tufayli milliy qadriyatlarga etibor kuchaydi. Negaki milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini

mustahkamlaydigan manaviy asoslardan biridir. Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ularning o'tmishi uch ming yildan ortiq davrni o'zida mujassamlashtirgan. O'rta Osiyo sivilizatsiyasini yaratdi. Bizning milliy qadriyatlarimiz ana shu sivilizatsiyaga hos jihatlari: tug'ilgan makon va ona yurtga ehtirom, milliy urf-odat va avlodlar, xotirasiga sadoqat kattalarga hurmat muomalada mulozamat, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan ham xarakterlanadi.

Milliy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlariga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusmlar, marosimlar va ananalariga o'ziga xoslik bor.

Istiqlol inson qadri, uning manfaat va ehtiyojlari bilan bog'liq masalalarni dolzarblashtirib yubordi. Inson qadri uning ijtimoiy xususiyatlari jamiyatda amalga oshirgan faoliyati boshqalarga va atrof muhitga munosabati, kamolotga etganligi, ijtimoiy xususiyatlarni o'zlashtirib olganligi va ularni manaviy qiyofasida namoyon qila olganligida ham ko'rinadi. Inson bolasining shaxsga aylanishi o'z qadrini va o'z g'alar qadrini anglash jarayoni uzoq yillar davom etadi.

Umuman uchinchi ming yillikda butun dunyoda qadrlash falsafasining umuminsoniy mezonlarini amaliyotda qo'llashga ehtiyoj kuchaydi. Tassufki, inson zoti sayyoramizda yashagan ilk davridan boshlab qadr va qadriyatni ustuvor bilganida, er yuzining zamonaviy manzarasi butunlay boshqacha tus olgan, kishilikni ekologik bo'hronlar urush xavfi va manaviy tanazzul kabi umumbashariy muammolar kutib turmagan bo'larmidi?

Bugungi kunga kelib, insoniyat yana tabiat va odamzod naslini uyg'unligini saqlab qolish uchun qadr va qadriyat nihoyatda zarur ekanligini anglatadi. XX asrning oxirgi va XXI asrning boshlanishining birinchi besh yilliklari BMT tomonidan "Inson huquqlari o'n yilligi" deya e'lon qilinganligi kishilik jamiyati esa yangi ming yillikka umuminsoniy qadriyatlarni barqaror qilishga bel bog'lab o'tganligi bejiz emas. Hozirgi O'zbekistonda inson manfaatlari va haq-huquqlarini ro'yobga chiqarish, qadrlashning umuminsoniy tamoyillarini ustuvor qilish bilan bog'liq faoliyatlar butun jahonda bu oradagi umumiy hamkorlikni mustahkamlash harakatining tarkibiy qismiga aylanmoqda. Insonning butun umri shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirish o'z qadrini kamolga etkazish, o'z g'alar jamiyat, zamon va unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar qadrini anglashga intilish jarayonidan iboratdir. O'z shaxsi va boshqalar qadrini aniqlab etish uchun insonning kamoloti davomida shakllangan manaviy qiyofasi ezgulikka xizmat qilishi yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi uning o'zi esa hayotning mohiyati va maqsadini to'g'ri anglaydigan darajada tarbiyalanmog'i lozim. Qadriyatlar yoshlarga hayot mazmunini chuqurroq

tushunish jamiyat qonun qoidalaridan to'g'ri foydalanish o'zlarining hatti-harakatlarni ana shu manaviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi. Hozirgi davrda talaba va o'quvchilarga qadrlash va qadrlanish jarayonlarining mohiyatini anglatish, mustaqillik e'lon qilgan qadriyatlarining ahamiyatini to'g'ri tushunishga erishish nihoyatda dolzarb masaladir. Yoshlar xususan talabalar va o'quvchilarni manaviy barkamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadrlash tuyg'usi, qadriyatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni, namayon bo'lish shakllari to'g'risidagi bilimlarning majmuasi bo'lgan zamonaviy aksialogiya, yani qadriyatshunoslikning asoslarini o'rgatish nihoyatda muhim. Ana shu sababdan ham umuminsoniyatning qadrlash meyorlari borasida to'plangan yutiqlarni umumlashtirgan bilim sohalari imkoniyatidan foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir.

### **Savollar:**

1. Barkamol insonni shakllantirishda tarixning tutgan o'rni.
2. Tarixning milliy g'oya va milliy mafkuraning shakllanishida tutgan o'rni.
3. Tarix va milliy taraqqiyot masalalari.
4. Tarixni xolisona o'rganish masalalari.
5. Milliy istiqlol va g'oyaviy-siyosiy dunyoqarash.
6. Vatanparvarlik g'oyasi va tarix.
7. Milliy o'zlikni anglashda tarixni tutgan o'rni.

## FOYDALANILADIGAN ADABIYOT RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2014. - 40 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. - Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
4. Karimov I.A. To‘la asarlar to‘plami. 1-24 jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996-2016.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 440 b.
7. Karimov I.A. O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
8. Karimov I. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – 304 b.
9. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: Sharq, 1998.
10. Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997.
11. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. “Tafakkur” jurnali bosh muharrirning savollariga javoblar. – T.: O‘zbekiston, 1998.
12. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O‘zbekiston, 2011.
13. Гегель G.V.F. *Filosofiya istorii. Sochinenie 8-mi tomax.* – M.-L., 1932-1959.
14. Fukidid. *Istoriya.* – L., 1991.
15. Ivin A.A. *Vvedenie v filosofiya istorii.* – M., 1997.
16. Kolomitsev V.F. *Metodologiya istorii.* – M., 2000.
17. Jo‘raev N. *Tarix falsafasining nazariy asoslari.* – T.: Ma’naviyat, 2008.
18. Barg M.A. *Epoxi i idei. Stanovlenie istorizma.* – M., 1987.
19. Blok M. *Apologiya istorii ili remeslo istorika.* – M., 1986.
20. *Falsafa. Entsiklopedik lug‘at. O‘zR FA, I. Mo‘minov nomidagi falsafa va huquq in-ti.* –T.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

21. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. –T.: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004.
22. G‘arb falsafasi. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004.
23. Skirbekk G., Gil‘e N. Falsafa tarixi. Oliy o‘quv yurt. uchun qo‘ll. / Rus tilidan tarj.: V. Kuznetsov. –T.: Sharq, 2002.
24. Falsafa qomusiy lug‘at. –T.: Sharq nashriyoti matbaa nashriyoti, 2004.
25. Jo‘raev N. Ibn Xaldunning tarix falsafasi. Muloqot jurnali. 2006, 3-4-sonlar.
26. Beruniy. Tanlangan asarlar. – T., Fan, 1968.
27. Komilov N., Yoqubov A. Markaziy Osiyo xalqlari tafakkuri rivojida tasavvufning o‘rni. – T., Akademiya, 2005.
28. Ubaydullaev R. Bekmurodov M., “Asrlar qaridan kelayotgan sado”. Al-Moturidiy ta’limoti va uning X-XII asrlarda Movarounnahr madaniyatida tutgan o‘rni. Ma’ruzalar to‘plami. – T.: O‘zFA, 1999.
29. Xayrulaev M. Sharqning mashhur mutafakkiri. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993.
30. Qur’oni karim. – T.: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2001.
31. Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. – T.: Minxoj, 2003.
32. Sorokin P. Chelovek, sivilizatsiya, obshchestvo. M., 1992.
33. Toynbi A. Postijenie istorii. – M., 1991.
34. Shpengler O. Zakat Yevropy. Ocherki morfologii mirovoy istorii. Tom.2. Vsemirno istoricheskie perspektivy. V kn.: Samosoznanie yevropeyskooy kul’tury. XX veka. – M., 1991.
35. Yaspers K. Smysl i naznachenie istorii. – M., 1991.
36. Berdyaev N.A. Smysl istorii. – M., 1990.
37. Asmus V.F. Antichnaya filosofiya -M., 1976.
38. Vindel’band V. Istoriya filosofii. –Kiev, 1997.
39. Skirbekk G., Gil‘e N. Falsafa tarixi. –Toshkent: Sharq, 2002.
40. Jahon falsafasi. –Toshkent: Sharq, 2004.
41. Zotov A.F. Zapadnaya filosofiya XX veka. –M., 2001.
42. Falsafa. Qomusiy lug‘at. –Toshkent, 2004.
43. Xrestomatiya po istorii filasofii. V 3 ch. –M., 1997.
44. Sharq falsafasi. –Toshkent, 2006.
45. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavxalar. -Toshkent: Fan, 1995.
46. Azimov Q. Islom va hozirgi zamon -Toshkent, 1991.



47. Aliqulov Haydar. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. – Toshkent, 2009.
48. Amir Temur. Tuzuklar. –Toshkent, 1993.
49. Axmedov B. Amir Temur. -Toshkent, 1996.
50. Allomalar sarvari (Mirzo Ulug'bek tavvalludining 600 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy konferentsiya ma'ruzalari to'plami). - Toshkent, 1995.
51. Vamberi X. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. -Toshkent,1990.
52. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafiy va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. - Toshkent, 1997.
53. Istoriya filosofii. Dlya studentov VUZov. -Rostov na Donu, 1998.
54. Haqqulov I. Tasavvuf va shariat. -Toshkent, 1991.
55. Iskandarov B. Tasavvuf falsafasi. –Toshkent, 1995.
56. Yo'ldoshev S.A. Antik falsafa. -Toshkent, 1999.
57. Komilov N. Timsollar timsoli. -Toshkent, 1991.
58. Kuznetsov V.N., Meerovskiy B.V., Gryaznov A.Ya. Zapadnoevropeyskaya filosofiya. XVIII veka -M.: Vysshaya Shkola, 1989.
59. Kant I. Kritika chistogo razuma. -Rostov-na-Donu: Feniks, 1998.
60. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –Toshkent, 2008.
61. Mo'minov I. M. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. - Toshkent, 1993.
62. Mir filosofii. V 2-x tomax. -M., 1989.
63. Mark Avreliy. Razmyshleniya -L., 1985.
64. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. –T., 1994.
65. Oripov M. K. Vaxdat ul-vujud. // «Yosh kuch». -T., 1994, №4.
66. Рьер Адо. Chto takoe antichnaya filosofiya? –M., 1998.
67. Paxlavon Maxmud. Rubaiyat. Perv. i kommen. T. Jalolova. -T., 1972.
68. Ruzmatova G. Freydizm falsafasida inson masalasi. –Toshkent, 2009.
69. Ruzmatova G. Zamonaviy G'arb falsafasining muammo va yo'nalishlari. –Toshkent: Universitet, 2013. -160 b
70. Ruzmatova G. Falsafa tarixi: G'arb mamlakatlari Uyg'onish va Yangi davr falsafiy tafakkuri xususiyatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangi nashr, 2015. – 404 b.
71. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. –Toshkent: Sharq, 1997.
72. Sokolov V.V. Yevropeyskaya filosofiya XV-XVSh vv. -M., 1996.
73. Xayrullaev M. M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. -Toshkent, 1971.

74. Xayrullaev M. M. Forobiy va uning falsafiy risolalari, -Toshkent, 1963.
75. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar). O'quv qo'llanma. –Toshkent: ToshDShI, 2010.
76. Sharipov A. Velikiy myslitel' Beruni. -Toshkent, 1972.
77. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilik. -Toshkent, 1972.
78. Qur'oni Karim. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. - Toshkent, Cho'lpon, 1993.
79. Qaxxorova Sh. Global manaviyat – globallashuvning g'oyaviy asosi. –Toshkent, 2009.
80. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. To'plam. -Toshkent, 1994.
81. Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1993.
82. Beruniy. Asarlar. 6 tomlik. T., 1973.
83. Ибн Сина. Избранные философские произведения. М., 1980.
84. Материалы по истории общественно-философской мысли в Узбекистане. Т., 1976.
85. История философии. - М.: 1998.
86. Камю А. Бунтующий человек. - М.: 1992.
87. Рассель Б. Мудрость Запада. М. 1998.
88. Сартр Ж.П. Философские пьесы. - М.: 1997.
89. Ясперс К. Всемирная история философии. - М.: 1996.
90. Юнг К. Психологические типы. - М.: 1999.
91. Фромм Э. Иметь или быть. - М.: 1990.
92. Ницше Ф. Сочинения в двух томах. - М.: Мысль, 1990.
93. Шпенглер О. Закат Европы. - М.: Мысль, 1993.

**Internet resurslari:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.philosophy.ru](http://www.philosophy.ru)
3. <http://www.intencia.ru>
4. <http://www.anthropology.ru>
5. <http://www.ido.rudn.ru>
6. <http://www.filosofia.ru>
7. <http://www.falsafa.dc.uz>
8. <http://www.phenomen.ru>
9. <http://www.lib.ru/filosof>
10. <http://www.filam.ru/sait.phg>

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	<b>3</b>
<b>TARIX FALSAFASI FAN SIFATIDA. MAQSADLAR VA VAZIFALAR</b> .....	<b>4</b>
<b>Tayanch iboralar:</b> Tarix falsafasi tushunchasi. Tarix falsafasining maqsadlari va vazifalari. Tarix fani. Tarix fanining usullari. Tarixning ahamiyati. Tarix ma’nosi falsafiy dunyoqarash masala sifatida. Klassika va hozirgi zamon: tarix ma’nosiga ikki yondashuv. Tarixiy ong va tarix. Tarixiy ongingning ikki tomoni.	
<b>TARIX FALSAFASINING QONUNIYATLARI VA ASOSIY TAMOIYILLARI</b> .....	<b>31</b>
<b>Tayanch iboralar:</b> Tarixni falsafiy idrok etish elementlari, teologik (ilohiyot) tarix falsafasi, metafizik tarix falsafasi, idealistik tarix falsafasi, naturalistik yondashish, materialistik tarix falsafasi, tarix fani tushunchasi, qonuniyatlari, tarixiy jarayon va inson, inson mohiyati, fe’l-atvori, hatti-harakatlari, manfaatlari, turmush tarzi, urf-odatlar, an’analar, qarashlar va e’tiqodlar.	
<b>INSON FENOMENI: DINIY VA DUNYOVIY TALQIN</b> .....	<b>101</b>
<b>Tayanch iboralar:</b> Mifologik tafakkur tabiat va jamiyat hodisalari, yer, osmon, yulduzlar, yil fasllarining almashuvi, hayotning tugashi va yangilanishi, qor, bo‘ron, zilzila, tog‘ ko‘chkilari, yer ustidagi va ostidagi, daryo, dengiz, ummonlar, Gomer («Iliada», «Odissey»), Esxil («Agomemnon», «Zanjirband Prometey», «Evminidalar»), Sofokl («Shoh Edip», «Antigona», «Ayaks»), Evripid («Geraql», «Elena», «Elektra», «Vayuh qizlari»), Dante («Ilohiy komediya»), Bokkachcho («Dekameron»), Tasso («Quddusning ozod etilishi»), Milton («Boy berilgan jannat»), Shekspir («Lukretsiya», «Yoz kechasidagi tush», «Bo‘ron»), Gyote («Faust»), Bayron («Qiyomat manzaralari»), Lermontov («Demon»), Adam Mitskevich («Dzyadi ko‘li»)	
<b>TARIXNING ANTIK FALSAFASI</b> .....	<b>140</b>
<b>Tayanch iboralar:</b> Antik ongda tabiat va tarix antitezasi. Antik kosmos: fazo. Antik kosmos: vaqt. Teokratik tarix va afsona. Gerodot. Ilmiy tarixning yaratilishi. Yunoniston o‘ylarida (hayolotida) tarixga qarshi tendentsiya. Tarix fani va ahamiyati to‘g‘risida yunon ta’limoti. Yunoniston tarixiy usuli va uning chegaralari. Fukidid. Ellin davri. Polibiy. Rim tarixchilari. Tit Liviy. Korneliy. Tatsit. Yunon-rim tarixshunosligining tavsifiy xususiyatlari.	

Insonparvarlik.

### **ILK KRISTIANLIK TARIXI FALSAFASI..... 144**

**Tayanch iboralar:** Xristian dunyoqarashining ta'siri. Avliyo Avgustin – “Xudo shahri to'g'risida”. (“Ilohiy shahar to'g'risida”). Ilohiy olam va inson dunyosi. Muqaddas tarix va dunyoviy tarix. “Ikki shahar” to'g'risida ta'limot. Vaqt haqida tasavvur. Taraqqiyot g'oyasi. Xristian tarixshunosligining tavsifiy xislatlari.

### **O'RTA ASR TARIXI TEOLOGIYASI..... 149**

**Tayanch iboralar:** Dunyo va insonning o'rta asrlardagi tushunchalari (ko'rinishlari). O'rta asr kosmosi. Abadiyat va vaqt to'g'risidagi o'rta asr tushunchalari. Jamiyat va shaxs. O'rta asrlarda fikrlashning ramziyligi. O'rta asr tarixi teologiyasida taraqqiyot g'oyasi. O'rta asr tarixiy bilimlarning tuzilishi. O'rta asr tarixshunosligining tavsifiy xislatlari.

### **ISLOM TEOLOGIYASI VA TARIX FALSAFASI..... 153**

**Tayanch iboralar:** Qur'on bo'yicha dunyoqarash. Musulmon tarix teologiyasining tavsifiy xususiyatlari. Dunyo va insonning yaratilishi. Qur'on Koinot, Er, tabiat to'g'risida. Musulmon providentsializmi. Qur'on bo'yicha insoniyat tarixi. Musulmon tarixshunosligining tavsifiy xislatlari. Abu Nasr-al-Farobiyning ijtimoiy – siyosiy qarashlari. Uning jamiyat va davlat haqidagi ta'limoti. Ijtimoiy hayotning turlari, shakllari, kelib chiqishi va o'rganilishi. Davlat vazifalari. Ibn-Xaldun va uning ijtimoiy taraqqiyot nazariyasi. Tarix va haqiqat. Tabiat olamida ijtimoiy inson. Primitivlikdan sivilizatsiyaga. Nisbiy tenglikdan mutloq tengsizlikka. Davlat: paydo bo'lish va chetlashish. Davlat va iqtisodiyot.

### **UYG'ONISH DAVRINING TARIX FALSAFASI. XIV-XVI ASRLAR.. 176**

**Tayanch iboralar:** Uyg'onish davri dunyoqarashining tavsifiy xislatlari. Uyg'onish davri insonparvarligi. Jamiyat va shaxs. Uyg'onish davri tarixchiligi. Tarixiy vaqtning ochilishi (kashf qilinishi). Uyg'onish davrida tarixiy fikrning asosiy yo'nalishlari. A.Valla. F.Patritsi. L.Leruaa. N.Makiavelili. J.Boden.

### **MA'RIFAT DAVRINING TARIX FALSAFASI (XVII – XVIII ASRLAR)..... 206**

**Tayanch iboralar:** Tomas Gobbs, individualizm va absolyutizm, Makiavelli, Rene Dekart, Metafizik fikrmuloxazalar, Yevklid geometriyasi, Metodik shubha, illyuziya va gallyutsinatsiya, Jon Lokk, Robert Filmer, Ratsionalistlar, Spinoza va Leybnits.

**XVIII-XIX ASR O‘RTALARI TARIX FALSAFASI..... 217**

**Tayanch iboralar:** Ilmiy tarixning boshlang‘ich bosqichi. Romantizm. J. J. Russoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. I.G.Gerder va uning “Jahon tarixi falsafasi bo‘yicha g‘oyalari”. Nemis klassik falsafasining tarixiy – falsafiy g‘oyalari I. Kantning tarixiy – falsafiy qarashlari. I.G.Fixte. F.Shiller. F.V.Shelling. G.V.F.Gegelning tarixiy falsafasi. Tarixiy fikrlashning turli xillari. Idrokning tarixdagi o‘rni. Tarix negizi. Tarixiy taraqqiyot va erkinlik. Insonning tarixdagi o‘rni. T. Karleyl – tarixda qahramonlarga sig‘inish. K.A.Sen – Simonning taraqqiyot nazariyasi. Tarixiy materializm. Tarixning rivojlanishi tabiiy-tarixiy jarayon sifatida. Iqtisodiy omilning tutgan o‘rni. Ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari. Pozivitizm. I.Kant va uning asarlari. D.G.Nibur. T.Mommzen. L.Ranke. (FSMU)

**XIX ASR OXIRI - XX ASR TARIX FALSAFASI..... 227**

**Tayanch iboralar:** Ilmiy tarix. “Tarixiy idrok tanqidining” yakunlari. Fikrlashning postmodernistik uslubi. “Hayot falsafasi” paradokslari. F. Nitsche. A.Bergson evolyutsionizmi. Neokantlik tarixiy nominalizmi. Neokantlikning Baden maktabi: V. Vindelband, G. Rikkert. Tarix va ratsionallik. M. Veberning “tushunuvchan sotsiologiyasi”. Neogegelyanlik. B. Krone: Tarix va falsafa. Tarix va tabiat. Tarix muxtoriyati. R. Dj. Kollingvud. Neopozivitizm tarixiylik bilan bahsda. K.Popper “tarixiylik qashshoqligi”. V. B. Galli, A. K. Danto. X. Feyn. Lokal sivilizatsiyalarning tarixiy kontseptsiyalari. O.Shpengler “Yevropaning botishi (tugashi)”. A. Toynbi. Tarixga ekumenistik qarash. P. Sorokin. Inson, sivilizatsiya, jamiyat. Tarixning ekzistentsional falsafasi. M.Xaydegger va X.G.Gadamerning ekzistentsional germenevtikasi. X.Ortegisi va Gassetning ratsioitalizmi. Diniy ekzistentsializm da tarixning maqsadi va manbai. K.Yaspers N.Berdyayev tarixiy falsafasi. Psixoanalitik (ruhiy-tahliliy). Antropologiya va tarix. Z.Freyd, K.G.Yung, E.Fromm. Frankfurt maktabi: “idrokning repressivligi” haqidagi afsona. T.Adorno. G. Markuze. M. Xarkxaymer. Frantsuz tarixiy maktabi: “Annallar”. L. Fevr, M. Blok, F.Brodel. Y. Xeyzingning madaniyatshunosligi. Frantsiyada “Yangi falsafa”. J. M. Benua, B. A. Levi, A. Glyuksman. Neotomistik tarix falsafasi. F. Mariten, P. Teyyar de Sharden. Neoprotellant tarix falsafasi. R. Nibur. P. Tillix. Tarixning biologik talqini. L. N. Gumilevning etnogenez nazariyasi.

<b>SOVET TARIX FANINING FALSAFIY MUAMMOLARI.....</b>	<b>237</b>
<b>Tayanch iboralar:</b> Kollektivizm va individualizm. Totalitarizmning ijtimoiy-siyosiy va tarixy talqini. Sotsializm g‘oyasi. Diktatura maqomi. Sovet imperiyasi. Ijtimoiy kuchlar. Shaxs avtonomiyasi, Inson turmush tarzi.	
<b>GARB TARIX FALSAFASI.....</b>	<b>261</b>
<b>Tayanch iboralar:</b> Tarix falsafasi taraqqiyoti, Gegel, O. Kont, M. Ya. Danilevskiy, O. Shpengler, A. Toynbi, P. A. Sorokin, K. Yaspers, K. Popper	
<b>DEMOKRATIYA VA TARIXIY JARAYON.....</b>	<b>280</b>
<b>Tayanch iboralar:</b> Milliy istiqlol, xalq hokimiyati, ozodlik va hurriyat, kuch – adolatda, siyosiy madaniyat, komillik darajasi, adolatparvarlik, ma’naviy-axloqiy muhit, o‘zbek modeli.	
<b>YANGI MING YILLIKDA JAHON SIVILIZATSIYASI ISTIQBOLLARI.....</b>	<b>311</b>
<b>Tayanch iboralar:</b> Insoniyat taraqqiyoti, globalizatsiya, ekologik muammo, tinchlik va urush, modellashtirish, axloqshunoslik, axborotli jamiyat.	
<b>MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA TARIX FALSAFASI.....</b>	<b>347</b>
<b>Tayanch iboralar:</b> I.A.Karimovning asarlari. Barkamol insonni shakllantirishda tarixning tutgan o‘rni. Tarix – xalq xotirasi. Tarixning milliy g‘oya va milliy mafkuraning shakllanishida tutgan o‘rni. Tarix va milliy taraqqiyot masalalari. Mustaqillik va tarixga yangicha nazar. Tarixni xolisona o‘rganish masalalari. Milliy istiqlol va g‘oyaviy-siyosiy dunyoqarash. Vatanparvarlik g‘oyasi va tarix. Milliy o‘zlikni anglashda tarixni tutgan o‘rni. Tarixiy va falsafiy merosni o‘rganish masalalari. Tarix va milliy tafakkurning shakllanishi. Tarix va ma’naviyat. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Insonparvarlik g‘oyasi va tarix. Dunyoviy tafakkur va milliy xavfsizlik.	
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>375</b>

MIRJALOLXON ASATULLAYEV  
**TARIX FALSAFASI VA  
METODOLOGIYASI**

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir  
Musahhah  
Texnik muharrir

J.Bozorova  
L.Xoshimov  
B.Egamberdiyev

**ISBN 978-9943-6648-3-8**

2020-yil 12 dekabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2020-yil 15 dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84. “Times New Roman” garniturasida.

Offset qog‘ozida. Shartli bosma tabog‘i – 24,0.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 344

---

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.  
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



